2. Огаҳий. Таъвизул-ошиқин.Санкт-Петербург.Салтиков-Шчедрин номидаги кутубхона қўлёзма фонди, инв. №18, 3-бет.
3. Муҳаммад Ризо мироб Огаҳий. Риёз уд-давла. Ўз. Ф.А.Шарқшунослик институти. Қўлёзма фонди. Инв. №82. варақ 628а.
4. Бартольд.В.В. История культурной жизни Туркестана. Л.:1927. стр 113.
5. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар.7-жилд.Тошкент, Шарқ нашриёти. 2019й. Б.29.
6. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 7-жилд. Тошкент, Шарқ нашриёти. 2019 й. Б.28.
7. Ўша жойда. С.28.
8. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 7-жилд. Тошкент, Шарқ нашриёти. 2019й. Б.32.
9. Ўша жойда. Б.34.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UO'K: 101.1:316:1(091) (5+4)

MISHEL MONTENNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI

Muhamedov Asror Asadovich, Alfaraganus universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
(Professor, f.f.d. G.K.Masharipova tahriri ostida)

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF MICHEL DE MONTAIGNE

Muhamedov Asror Asadovich, Associate Professor, Alfaraganus University, Doctor of Philosophy

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МИШЕЛЯ МОНТЕНЯ

Мухамедов Асрор Асадович, доцент Университета Альфараганус, доктор философии

https://orcid.org/0009-0007-9499-5828
e-mail: asrormukhamedov24@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Mishel Montenning ijtimoiy-falsafiy qarshlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. "Uyg'onish davrida mutafakkirlar Yunon-Rim madaniyatini "qayta tiklash"ni o'zining asosiy vazifasi qilib qo'ygan va uni o'zining so'nggi o'rta asr sivilizatsiyasi erishgan muvaffaqiyatlari bilan oziqlantirishga intilgan gumanistik xristianlik e'tiqodi va qadimiy donishmandlikning uzviy sintezini amalga oshirdilar. Mishel Monten falsafasidagi dogmatizmga qarshi isyonkorlik bu nafaqat o'z davrining mutafakkiri, balki davlatning katta amaldorining ijtimoiy rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni baratarf qilishga qaratilgan intilishlari ifodasidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda allomaning shu kabi g'oyalariga kuchli ehtiyoj mavjud.*

Kalit so'zlar: *oila, tarbiya, inson, iymon, axloq, xudo, inson e'tiqodi, vijdon.*

Abstract: *The article scientifically substantiates the socio-philosophical views of Michel de Montaigne. "Thinkers of the Enlightenment, who made the "revival" of Greco-Roman culture their main task and sought to feed it with the achievements of their own late medieval civilization, carried out an organic synthesis of humanistic Christian faith and ancient wisdom". The rebellion against dogmatism in the philosophy of Michel de Montaigne is an expression of the desire of not only the thinker of his time, but also a high-ranking statesman to remove obstacles to social development. Currently, in Uzbekistan, there is an urgent need for such ideas from scientists.*

Key words: *family, education, man, faith, morality, God, human beliefs, conscience.*

Аннотация: *В статье научно обоснованы социально-философские взгляды Мишеля Монтеня. «Мыслители эпохи Просвещения, сделавшие своей главной задачей «возрождение» греко-римской культуры и стремившиеся подпитать ее достижениями собственной позднесредневековой цивилизации, осуществили органичный синтез гуманистической христианской веры и античной мудрости». Бунт против догматизма в философии Мишеля Монтеня является выражением стремления не только мыслителя своего времени, но и высокопоставленного государственного деятеля устранить препятствия на пути общественного развития. В настоящее время в Узбекистане ощущается острая потребность в подобных идеях со стороны ученых.*

Ключевые слова: *семья, воспитание, человек, вера, нравственность, Бог, человеческие убеждения, совесть.*

KIRISH (INTRODUCTION). Jahonda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda buyuk allomalar tomonidan yaratilgan falsafiy merosni o'rganish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ming yillar avval ko'tarilgan ijtimoiy muammolar va ularning yechimiga doir Sharq va G'arb allomalarining konsepsiyalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Mishel Montenning ijtimoiy-falsafiy qarshlarini o'rganish, bugungi kundagi ma'naviy kemtiklarni to'ldirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mishel Monten ijodida oila va tarbiyaning ustuvorligi asosida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishiga katta e'tibor berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Mishel Monten ijodi Yevropa va o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilgan. P.S.Taranov Mishel Monten asarlarining biografik lug'atini ishlab chiqqan. Unda Monten ijodining bosqichlari ijtimoiy muhit va adib dunyoqarashidagi o'zgarishlar transformatsiyasi nuqtayi nazaridan ochib berilgan. A.V.Dyakovning alloma asarlariga bag'ishlangan asarlari ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, V.Vizginning "Fransuz tafakkukuri haqidagi ocherklari"da ham Monten falsafasiga doir qarashlar mavjud. I.Baklanov, O.Baklanova va Ye.Avdeyevlar tomonidan yaratilgan qator tadqiqotlarda Monten falsafasida bilimning o'rni va roli xususida qiziqarli faktlar mavjud.

O'zbekistonda Mishel Montenning falsafiy merosi bo'yicha U.E.Qurbonovning "Yetuk axloqiy shaxsni shakllantirishning falsafiy omillari (Mishel Montenning "Tajribalar" asari asosida)" mavzusidagi dissertatsiyasi alohida ahamiyatga egadir [1, 9-b]. Ushbu asarda birinchilardan bo'lib alloma ijodi keng miqyosda qamrab olindi. Shuningdek, S.Yuldoshev, R.Karimov, Q.Nazarov, D.Normatova, G.Ro'zmatova, A.Samadov, M.Usmonov, S.Choriyev, X.Shayxova, S.Shermuhamedov, Q.Shodmonov, G.Qobulniyozova, O.G'aybullayev kabi olimlarning asarlarida ham faylasuf merosining u yoki bu jihatlari xususida so'z boradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Mashhur faylasuf va mutafakkir Monten o'zining "Tajribalar" nomli asarida talaygina muammolarga to'xtalib o'tishga harakat qiladi. Jumladan, bu muammolar orasida haqiqat muammosi va axloqiy ta'limotlar alohida ajralib turadi. Diniy skeptitsizm – diniy qonun-qoidalarni dinning o'zi deb hisoblash mutafakkirni kishining asosiy axloqiy jihatlarini shakllantirishda faqatgina dinning o'ziga tayanmasligiga sabab bo'ladi. Masalan, "Reformatsiya davrida keng tarqalgan inson iymoni axloqqa muhtoj emas, xudo faqat inson e'tiqodi bilan qiziqadi degan tushunchani rad etib, quyidagilarni ta'kidladi: e'tiqod va vijdon birligi inson ishlarida yaqqol namoyon bo'ladi" [2,133-b].

"Tajribalar" asarining bosh g'oyasi – insonning tabiati, ma'naviy va axloqiy olami hisoblanadi. Monten falsafasi, avvalo, axloq qoidalari, oqilona, ezgu hayotni targ'ib qiluvchi ta'limot vazifasini bajaradi. Monten inson axloqi to'g'risidagi ta'limotini o'zining tabiatiga asoslanib quradi. Muallif aytadiki, jamiyatdagi har xil etnik guruhlar, uyushma, jamoalar, tabiiyki, turli-tuman diniy va milliy urf-odatlarga amal qiladi. Bu esa ular o'rtasidagi asosiy farqlarni keltirib chiqaradi. Muallif buni keng tarqalgan rasm-rusum, umuman, e'tiqod singari an'anaviy farqlar bilan izohlaydi. Faylasuf ushbu masala bo'yicha keng tarqalgan fikrlarning nisbiyligini isbotlash uchun turli xalqlarning urf-odatlarini sanab o'tarkan, bu haqda o'zining asarida kengroq to'xtaladi. Bundan tashqari, u axloqni yaratmaydi. U ezgulik va yozuvlik o'rtasidagi farqning nisbiyligini quyidagicha e'tirof etadi: "…ular tashqi sharoitga va odamlarning turmush darajasiga bog'liq bo'lgani uchun kundalik hayotda qo'llaniladi"[3,421-b]. Barcha falsafiy ta'limotlar insondagi tabiiy va ijtimoiy sifatlar bilan uzviy bog'lanadi, albatta. Ammo Monten aytayotgan fazilat yangi davr paytida din vakillari tomonidan singdirilgan xatti-harakatlar axloqi to'g'risidagi sxolastik g'oyalar bilan o'zaro

bog‘liq emas, ular asketizm va diniy fanatizm bilan ajralib turardi.

Monten ta’kidlaganidek, chinakam fazilat “sxolastlar aytganidek, tik, notekis va chiqish qiyin bo‘lgan tog‘ cho‘qqisida emas”[4,340-341-bb]. Faylasuf voqelik muammolari bilan tanish bo‘lmagan axloqiy falsafani rad etadi. U istehzo bilan Sorbonnadagi talabalar birinchi o‘quv yilidayoq ko‘plab kasalliklarni boshdan kechirayotganini, hatto Arastuning abstinensiya zarurligi to‘g‘risidagi ta’limotiga ham erishmaganligini aytadi. U kinoya bilan axloq falsafasini hayot muammolariga “juda oqilona” yondashish deb ataydi. Misol tariqasida, muallif bu umumiylik yoshlarning kundalik tajribasida, Fichino va butun Platon maktabining muhabbat haqidagi nazariy risolalarida keng tarqalmaganligini ta’kidlaydi. Montenning aytishicha, “Platonik muhabbat to‘g‘risida o‘qituvchilar muhabbati, yosh yigitning muhabbat haqidagi fikrlari borasida uning tushunchasi va tajribasi yetishmasligini hisobga olishmasdan, u qanday harakatlar qilishi kerakligi haqida gapirishadi. Shu munosabat bilan muallif shaxsning haqiqiy aqliy harakatlari bilan bog‘liq holda mavhum fikrlash o‘rniga puxta tahlil qilish zarurligi haqida gapiradi”[5,189-b]. Muallif sxolastiklar va zohidlar tomonidan o‘ylab topilgan, uni “insoniyat uchun dahshatli va qo‘rqinchli” qilgan “ahmoq va mavhum obrazni, yovuz, tahdidli, yomon fazilatni” qat’iyan rad etadi. U yangi gumanistik axloqiy idealni ilgari suradi, fazilatni “go‘zal, g‘alaba qozongan, mehribon, yumshoq, ammo shu bilan birga jasur, g‘azab, norozilik, qo‘rquv va zulmga qarshi murosasiz nafratni kuchaytiradi” [4,206-b], - deb qabul qilishga chaqiradi. Uning fikriga ko‘ra, aynan shunday fazilat odamni baxt va zavqqa yetaklashi mumkin.

Mutafakkir M.Monten odamning ichki dunyosi axloq, ruh, tana, undagi moddiy va ma’naviy borliqlardan iborat, deydi. Bundan ko‘rinadiki, inson tabiatida yaxshilik va yomonlik chambarchas bog‘liqdir. U esa ruh va tana o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab, shunday deydi: “Ruhning barcha harakatlari inson tanasining turli qismlari yordamida amalga oshiriladi” [4,255-b]. Ushbu muhim birlikni tan olish nafaqat bilish nazariyasining, balki Monten axloq tushunchasining ham asosini tashkil etadi. Monten inson axloqi to‘g‘risidagi ta’limotini o‘zining tabiatiga asoslanib quradi. Uning fikricha, turli etnik guruhlar o‘rtasida turli xil shakllarda keng tarqalgan marosimlar to‘g‘ri xulq-atvor asoslarini shakllantirish uchun asos bo‘la olmaydi”[1,96-97-bb].

Shunday qilib, faylasuf axloqning asosiy maqsadi insonning yerdagi dualistik axloqida, ammo abadiy najot topishda emasligini tushuntirishga harakat qildi. Fransuz faylasufining axloq tushunchasi ruhning abadiyligi haqidagi tushunchani o‘z ichiga olmaydi, bu esa diniy axloqning asosiy poydevoridir. Montenning, inson qalbining o‘lmasligini tabiat va inson ongi emas, balki faqat din, e’tiqod va Xudo hal qiladi, degan xulosasi Arastuning shaxsning o‘lmasligini isbotlovchi idealistik falsafa orqali ratsional talqinidan qochishga qaratilgan. U o‘lmaslikni tasdiqlovchi “tabiiy” va “ratsional” dalillarning yo‘qligini bu boradagi prinsipial dalillarning yo‘qligi deb hisoblaydi va diniy an’analar va xalq afsonalari doirasidan chiqmasligini aytadi. Bunday dunyoqarashda yana bir narsa juda katta ahamiyatga ega. Monten tomonidan ishlab chiqilgan axloq to‘g‘risidagi ta’limot shunday tuzilganki, u oxiratni hisobga olmaydi. Faylasufning so‘zlariga ko‘ra, “tabiat odamni barcha tirik mavjudotlarning o‘limi muqarrarligi orqali Koinotni boshqaradigan tartibning bo‘g‘inlaridan birini his etishga o‘rgatadi” [4, 206-b]. Ruh va tanani ajratish o‘limga olib keladi va insonni yo‘q qiladi. U insonning tug‘ilishi va o‘lishi, hayot va o‘limning daxlsiz qonuni amal qiladigan muhitning belgilangan chegaralaridan chiqib ketishi haqidagi da’volarni kulgili va bema’niligi haqida gapiradi. Muallif bu borada odamlarga ko‘rsatma beradi: “Sizdan keyingi va sizning tug‘ilishingizdan oldingi vaqt bir-biridan farqlanmaydi va sizning bu jarayonga hech qanday daxlingiz yo‘q”[4,119-b]. Shu asosda mutafakkir yer yuzidagi hayot davomida insonning to‘g‘ri va oqilona xulq-atvorini aniq belgilab olish zarurligini aytib, axloqni qaror toptirish yo‘lini ko‘rsatadi.

Monten o‘z asarida ta’kidlaganidek, insonning asosiy vazifasi “bema’ni absurd tuyg‘u”dan kelib chiqadigan yerdagi asketizmni rad

etishdir, chunki “axir, bu bizda mavjud bo‘lgan yagona narsa, bu bizning mavjudligimizdir”[5,30-b]. Ushbu masala bo‘yicha mulohazalarni davom ettirib, muallif insoniyatning “ota-onasi” bo‘lmish tabiatning ko‘rsatmalarini eslatib o‘tadi. Mutaffakkir inson va tabiatni farzand va uning onasiga qiyoslaydi. “Bu dinga va Xudo va’da qilgan o‘lmaslikka bo‘lgan ishonchni yo‘q qiladi. Ikkinchisini inkor etish nafaqat axloqni buzmaydi, balki uni ko‘proq shakllantiradi, chunki u ratsional yondashuvga asoslanadi”, degan fikrlarni u axloq to‘g‘risidagi ta’limotning asosi hisoblanadi, degan xulosaga keladi”[6,94-b].

Mutafakkir “yaxshi va barcha tabiiy qonunlarga muvofiq” yashashni tabiatning insonga yuklangan asosiy burchi, deb biladi. Mutafakkir fikricha Epikur talqinidagi “axloqqa nisbatan asketizm insonni dunyodan, hayotdan, dunyoviy ishlardan va zavq-shavqlardan qaytaradigan asketizm bilan farq qiladi” [7,412-b]. Mutafakkir ta’kidlaydiki: “Men uchun yerdagi hayotni boshqaradigan g‘ayriinsoniy donolik dushman bo‘lib, u jismimizga g‘amxo‘rlik qilishdan nafratlanishimizga sabab bo‘ladi” [4,40-b]. Faylasufning pozitsiyasi lazzatlanishning qonuniyligi va tabiiyligini tan olishga, shuningdek, tabiat insoniyatga bergan barcha narsani minnatdorchilik bilan qabul qilishga qaratilgan. Muallif o‘z pozitsiyasini inson o‘zi uchun foydali bo‘lgan narsadan foydalanishini tabiat qonuni ekanligi bilan izohlaydi, unga ko‘ra inson o‘zi uchun foydali bo‘lgan narsadan zavq oladi. Bunday holda muallif shahvoniy lazzatlar haqida gapirmaydi. Uning tushunchasiga ko‘ra, rohatlanish, eng avvalo, hayotning ne’matlaridan oqilona foydalanishdir: “Men barcha tabiiy lazzatlarga e’tibor bermaslikni noto‘g‘ri deb bilaman. Xuddi shunday, ularga o‘ta berilish ham noto‘g‘ri” [4, 40-b].

Mutafakkir inson hayoti ko‘p qirrali va yaxlit bo‘lishi kerakligini, uning hayoti doirasida muqarrar bo‘lgan quvonchni ham, zavqni ham, azob-uqubatlarni ham o‘z ichiga olishi kerakligini ta’kidlaydi: “Inson hayotida qiyinchiliklar ham bo‘lishi kerak. Inson har doim qiyinchilikdan qochmasligi va har doim rohatda yashashga intilmasligi kerak”[4,191-b]. Montenning aytishicha, haqiqiy faylasuf hayotni barcha murakkabliklari bilan qabul qilishi, jismoniy va ruhiy azoblariga yetarlicha bardosh berib, o‘zining Yer yuzidagi taqdirini munosib qarshi olishi kerak. Muallif o‘z asarlarida dehqonlar hayotini namuna sifatida keltiradi: “Menimcha eng nomunosib narsa, soddaligi tufayli kishilarning past sinf bo‘lib ko‘rinishidir; Qolaversa, ularning hayoti menga eng tartiblidek tuyuladi: dehqonlarning muomalasi va nutqi martabali faylasuflarimizning muomalasi va nutqidan ko‘ra, haqiqiy falsafa ko‘rsatmalariga ko‘proq mos keladi”[8,1516-b]. Ta’kidlash joizki, buyuk fransuz mutafakkirining bu fikri buyuk rus yozuvchisi va mutafakkiri Lev Tolstoyni shu qadar maftun etganki, u Montenning bu xulosasini o‘zining mashhur “O‘qish doirasi” asariga kiritgan.

Mutafakkirning o‘z hayoti haqidagi mulohazalarini aks ettiruvchi “Tajribalar” asarining butun mazmuni ana shu haqiqatni ta’kidlaydi. Inson shaxsining erkinligi va mustaqilligini himoya qilish uchun muallif xristian axloqi tomonidan ilgari surilgan talablarga qarshi turib, shunday deydi: “Otam birovdan eshitganki, odam o‘z yaqini uchun o‘zini, ya’ni o‘z manfaatini unutishi kerak, ayniqsa, individuallik va umuminsoniylikni qiyoslab bo‘lmaydi. Dunyoda hukmron bo‘lgan qonun-qoidalarning aksariyati jamiyat farovonligi uchun ishlashimiz uchun bizni izolyatsiyadan olib chiqish va harakat qilish vazifasini qo‘yadi. Shunda biz jamiyat farovonligi uchun ishlashimiz mumkin. Ular odamlarga foydali ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘z “men”idan yuz o‘girishga majbur qilish uchun o‘ylab topilgan”[9,137-b].

Mutafakkir xudbinlikni jamiyatda keng tarqalgan ikkiyuzlamachilikka qarama-qarshi qo‘yadi. Shu sababli, yangi zamonning “jamiyat uchun yashash” talabi o‘z manfaati yo‘lida, o‘z xudbinliklarini boshqalarning yelkasiga yuklaydigan niqob sifatida ko‘riladi. Qolaversa, faylasuf o‘rta asrlar mulkiy axloqi qoldiqlariga qarshi chiqib, bu axloq shaxsni shaxs sifatida emas, balki an’anaviy jamiyatning bir qismi sifatida tan oladi, deydi. Monten hayotini jamiyat manfaatlariga bag‘ishlagan odamlarning xatti-harakatlarini shubha ostiga qo‘yish orqali o‘z fikrini yanada rivojlantirdi. Muallif kinoya bilan o‘z fikrlarini shunday

TAMADDUN NURI

ifodalaydi: “Hayotimiz uchun qo‘rquv unchalik muhim emasdek, keling, xotinlarimiz, farzandlarimiz, oila a’zolarimiz hayotidan ham qo‘rqaylik!” Bizning o‘z ishlarimiz bilan, muammolarimiz kamdek, yana do‘stlarimiz va qo‘shnilarimiz ishlariga qo‘shilaylik, bosh qotirib, azob chekaylik! Biz boshqalar uchun yetarlicha yashadik, lekin hech bo‘lmaganda, qolgan umrimizni o‘zimiz uchun yashaylik. Keling, barcha fikr va niyatlarimizni o‘zimizga va o‘z manfaatimizga sarflaylik”[10,39-42-bb].

Ushbu egoistik fikr odamni butun jamiyatga qarshi qo‘ymaydi. Asosiysi, Monten shaxsining tarjimai holidan hammaga ma’lumki, mutafakkir Bordo meri etib saylangandan so‘ng u darhol Italiya safaridan qaytgan, u jamoat manfaati uchun begona shaxs emas, sadoqatli, farzandlari va oila a’zolariga g‘amxo‘r inson, faol jamoat arbobi edi. Bular Montenning o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan egoist emasligidan dalolat berib turadi.

XULOSA. Inson shaxsini ozod qilish katta tarixiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, shu masala kun tartibida dolzarb bo‘lib turgan vaqtda uning qarashlari o‘ziga xos tarixiy va ijtimoiy tushuncha chegaralaridan ham yuqori ekanligini anglatadi. Monten o‘zining axloqiy ta’limotida inson hayotining o‘zini o‘zi ta’minlashini tan olishga katta ahamiyat beradi va bu uning maqsadi ekanligini ta’kidlaydi. Mutafakkir, uning hayoti va faoliyati jamiyat uchun muhim va ahamiyatli bo‘lishiga qaramay, nimaga erishganini, qilgan harakatini ko‘rsatmaydi. Ammo “bizning eng yaxshi yutug‘imiz tafakkur ila hayotdir”, deb xulosa qiladi mutafakkir. Shunday qilib, inson hayotiga mazmun va poydevor beradigan axloqiy mazmundir. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, hayot aslo gunohlarni yuvish va ular uchun tovon to‘lash vositasi emas, u munosib mazmun va asosga ega bo‘lishi kerak. Ushbu ma’noni rivojlantirish doirasida inson birinchi navbatda o‘ziga e’tibor qaratishi kerak, aynan shu yerda haqiqiy axloqiy xulq-atvor asoslari yaratiladi. Mutafakkir ta’kidlaganidek, hukmronlik va xurofotlarga bo‘ysunmaydigan insonning mustaqil axloqiy pozitsiyasi inson shaxsining eng yuqori yutug‘idir. Shu narsa e’tirofga loyiqdir. Ammo, bu birmuncha mustaqillikni ham taqozo etadi. Montenning fikricha, mustaqil shaxs uchun faqat shunday xatti-harakatlar me’yordir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қурбонов У. Етук ахлоқий шахсни шакллантиришнинг фалсафий омиллари (Мишел Монтеннинг “Тажрибалар” асари асосида): Фалс. фан. бўй. фалс. док... дис. – Бухоро, 2022. – Б. 9
2. Визгин В.П. Очерки французской мысли. – М.: ИФ РАН, 2013. – 133 с.
3. Балашев Л.Е. Философия. – М.: Дашков и Ко, 2018. – 421 с.
4. Монтень М. Опыты. Подготовили Бобович А.С., Коган-Бернштейн Ф.А., Рыкова Н.Я., Смирнов А.А. Том III. – М.: Наука, 1979. – 340-341 с.
5. Савицкий С. Праздность и свобода по Монтеню // Философско-литературный журнал Логос. 2019. Т. 29. – № 1(128). – С. 189–202.
6. Дьяков А.В. Монтень как современный философ (к 440-летию со дня рождения // Вестник Русской христианской гуманитарной академии. – 2014. – Тошкент, 15. – № 2. – С. 94.
7. Балашев Л.Е. Философия. – М.: Дашков и Ко, 2018. – 412 с.
8. Muhamedov A.A. Michel Montaigne is a renaissance creative // Necmettin Erbakan University Press (NEU PRESS) Yaka Mah. Yeni Meram Cad. Kasım Halife Sok. B Blok No: 11 Meram / Konya / Türkiye 0332 221 0 575// 2023. – P. 1514-1526.
9. Muhamedov A.A. G‘arb renessansiga turtki bo‘lgan omillar // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – Toshkent, 2024.- B 136-145.
10. Muhamedov A.A. Michel De Montaigne: Creator of renaissance period// World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: https://www.scholarexpress.net Vol. 37, ISSN: 2749-361X. August 2024.-B 39-42.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:321.5+94(575.1)

O‘ZBEKISTONDA BOLSHEVIKLARNING PARTIYA SAFLARINI TOZALASH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Jalilov Alisher Xudoyberdiyevich, Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

THE POLICY OF PURGE OF THE BOLSEVIKS' PARTY RANKS IN UZBEKISTAN AND ITS CONSEQUENCES

Jalilov Alisher Khudoyberdiyevich, doctoral student at Navoi State University

ПОЛИТИКА ЧИСТКИ РЯДОВ БОЛЬШЕВИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Джалилов Алишер Худойбердиевич, докторант Навоийского государственного университета

https://orcid.org/0009-0002-5821-7619
e-mail: jalilov-1982@bk.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekistonda bolsheviklarning partiya saflarini tozalash siyosati va uning oqibatlari masalalariga bag‘ishlanadi. Bunda bolsheviklarning mahalliy rahbarlar faoliyatiga ishonchsizlik va shubha bilan qaraganligi hamda ularga aldov yo‘li bilan partiyaga suqilib kirgan sinfiy dushman, partiya siyosatini buzishga urinuvchi ikki yuzlamalar sifatida qaraganligi tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *bolshevik, partiya saflarini tozalash, siyosiy elita, sinfiy dushman, “yot unsurlar”, quloqlar, “ikkiyuzlamachilik”, guruhbozlik, milliy siyosat, sovet, millatchilik.*
Abstract: *This article is devoted to the policy of the Bolsheviks in Uzbekistan to purge the ranks of the party and its consequences. It analyzes the distrust and suspicion of the Bolsheviks towards the activities of local leaders and their perception of them as class enemies who had infiltrated the party through deception and as hypocrites who were trying to undermine party policy.*
Key words: *Bolshevik, purge the ranks of the party, political elite, class enemy, “foreign elements”, kulaks, “hypocrisy”, factionalism, national politics, Soviet, nationalism.*
Аннотация: *Статья посвящена большевистской политике чистки партийных рядов в Узбекистане и ее последствиям. В нем анализировались недоверие и подозрительность большевиков к деятельности местных лидеров, а также их отношение к ним как к классовым врагам, проникшим в партию путем обмана, и как к лицемерам, пытающимся подорвать политику партии.*
Ключевые слова: *Большевик, партийная чистка, политическая элита, классовый враг, «инородные элементы», кулаки, «лицемерие», фракционность, национальная политика, советский, национализм.*

KIRISH. Bolsheviklarning partiya saflarini tozalash siyosati o‘zbek siyosiy elitasi birligiga raxna soldi. Mahalliy kadrlarga ishonchsizlik, shubha bilan qarash avj oldi. Hamma bir-biridan qo‘rqadigan, nafaqat siyosiy elita vakillari, balki oddiy partiya a’zosini ham sinfiy dushman sifatida ayblash oson bo‘lib qoldi.

1920-yil 30-iyulda bolsheviklar partiyasining maxsus qaroriga binoan “Kommunistlarga o‘z ishlarini oshkora olib borishga yo‘l qo‘yilgan mamlakatlardagi kompartiyalar, partiyani muqarrar ravishda unga suqilib kiruvchi unsurlardan muntazam ravishda tozalab borish uchun, partiya tashkilotlarining shaxsiy tarkibini vaqti-vaqti bilan tozalab (ro‘yxat qilib) turishlari lozimligi”[1] belgilangan.

Stalin Markazqo‘mning 1920-yil aprel plenumida 1920-yilgi tozalash to‘g‘risida shunday degan edi: “Partiyaning o‘zini o‘tkirlamay turib, sho‘ro xo‘jalik, kasaba va kooperativ tashkilotlarimizni mustahkamlash mumkin emas. Busiz ular-

ni byurokratizm iflosligidan tozalash mumkin, deb o‘ylash, kulgili bo‘lar edi. Shubha bo‘lishi mumkin emaski, byurokrat unsurlar xo‘jalik, kooperativ, kasaba sho‘ro tashkilotlari u yoqda tursin, balki partiyaning o‘z tashkilotlarida ham tirikdirlar. Agar partiya shu tashkilotlarning rahbarlik kuchini tashkil qila turgan bo‘lsa, u vaqtda partiyani tozalash shunday zarur shart bo‘ladi. Busiz ishchilar sinfining barcha boshqa tashkilotlarini jonlantiruv va yaxshilov ishini oxirigacha yetkizish mumkin emasligi ravshandir. Partiyaning shiori ana shundan kelib chiqadi”[2].

VKP(b)MQ qaroriga asoslanib, 1920-yilgi partiya ro‘yxatini o‘tkazdi va partiyaning 1921-yilgi tozalanishini, 1924-yil ishlab chiqarishga mansub bo‘lmagan yacheykalarini tozalashni, 1925-yil qishloq yacheykalarini tekshirishni, 1929-1930-yilgi tozalashni o‘tkazdi[3].

Tozalashning vazifasi – partiya a’zolarining mafkuraviy darajasini oshirish, partiyani siyosiy va tashkilot jihatidan mustahkamlash, million-million partiyasizlar ommasining partiyaga ishonchini kuchaytirish ekanligi ko‘rsatiladi. Bu vazifa tozalash chog‘ida quyidagi yo‘l bilan amalga oshirilishi belgilanadi: a)partiya tashkilotlari a’zolarida oshkora va to‘g‘ri o‘zaro tanqidni kiritish; b)har bir partiya yacheykasining ishini, partiya qarorlari va yo‘l-yo‘riqlarining bajarilishi nuqtayi nazaridan tekshirish; v)tozalash ishiga mehnatkash partiyasizlar ommasini tortish; g)partiyani, partiya a’zosi degan baland nomga muvofiq bo‘lmagan kishilardan tozalash [4].

1929-yildan boshlab partiya saflarini tozalash ishlari yangi bosqichga chiqadi. Bolsheviklar tozalashda o‘zlari shubha qilgan mahalliy millat vakillarini boshqaruvdan uzoqlashtirish hamda ularni turli-tuman bo‘htonlar bilan jazolash yo‘lini tutgan edilar. 1930-yilga kelib, tuhmat, bo‘hton va qilmagan ishini sodir etganlikda ayblab partiyadan o‘chirish hollari ko‘paygan. Shundaylardan biri Ilyos Qosimov bo‘lib, u 1908-yili Toshkentda tug‘ilgan. Kommunistik partiya safiga 1-toifa bilan 1930-yili harbiy xizmatda bo‘lganida kirgan. Ilyos Qosimov VKP(b)MQning oldidagi Partiya kontrol komissiyasining O‘zbekiston vakili tomonidan quruq tuhmat bilan partiyadan o‘chirilgan. Keyinchalik unga jinoyat kodeksining 225-moddasi bilan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan [5].

1930-yili O‘zbekistonda matbuot ishchilari 4998 nafar, bundan kommunistlar 1665 tani, ya’ni 33,3%, komsomollar 493 nafar yoki 9,9%, firqasizlar 2840 yoki 56,8%ni tashkil qiladi. Agar ijtimoiy ahvolni olsak ishchilar 834 ta yoki 16,7%, dehqonlar 226 tani yoki 4,5% , xizmatchilar 2995 nafar yoki 59,9% boshqalar 57 nafar yoki 1,1%ni ko‘rsatmoqda. 1917-yilgacha gazetada ishlaydigan kommunistlar 9%, 1921-26-yillarda 28,2%, 1927-28-yillarda 40,3%, 1929-yili esa 47,9% kommunistlar bo‘lgan. Gazetada kadrlarni kommunistlashtirish dinamikasi yildan yilga o‘sganligi ko‘rinadi. 1929-1930-yillarda 20,7% matbuot xodimlari partiyadan tozalashdan o‘tgan [6].

Bolsheviklarning partiya safini tozalash siyosati O‘zbekiston xalq maorifi komissarligini ham chetlab o‘tmadi. Ushbu komissarlikning apparatida ishlovchi qator kadrlarga tozalash bahonasi bilan partiyadan o‘chirganlar va lavozimidan ozod qilganlar. Ularga millatchi, aksilinqilobchi, oliy o‘quv yurtlari va maktablarni sinfiy chet unsurlar bilan ifloslovchilar kabi ayblar qo‘yilgan. Partiya saflarini tozalash komissiyasi O‘zbekiston xalq maorifi komissarligi apparatida ulug‘ millat shovinizmi unsurlarining joylashganligi, pastdan yuqoriga ko‘tarilish (nomenklatura) ishida bir talay xatoliklar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri partiya yo‘lini buzishlar bo‘lganligi, pastdan yuqoriga ko‘tarilganda ish sharoiti tug‘dirilmay, ularga yordam berilmay, faqat xizmatga rasmiyat yuzasidan tayinlanib qo‘yilganliklari, byurokratizm, mas’uliyatsizlik, beparvolik, ish unumsizligi, ishda rejasizlik, tartibsizlik hukm surganligi kabi kamchiliklarni keltirgan[7].

Natijada O‘zbekiston xalq maorifi komissarligidan Shokirbekov, Soliy, Sadriy, G‘ulom Rahimiy, Botir G‘ulomov, Orifxonov va Jabborovlar birinchi kategoriya bilan apparatdan butunlay haydaladilar. Zohidov Xayrulla, Boyishev, Abdulla Mo‘minov, Arushanov va G‘oyibovlar ikkinchi kategoriya bilan lavozimidan ozod qilinadi[8]. Partiya saflarini tozalash komissiyasi O‘zbekiston xalq maorifi komissarligi apparatida ayrim shaxslarga keragidan ortiq ishonch bilan qarab tashabbus berishlik, har bir shaxsning ish harakati, faoliyati, siyosiy-mafkuraviy yuzi, sinfiy yo‘lni o‘tkazishga partiyaning milliy siyosatini baynalmilalchilik prinsiplarini o‘tkazish, bolshevik ko‘zi bilan yetarli darajada qarab bilmaslik, ish faoliyatida sinfiy sezgirlik, hushyorlik ko‘rsata olmaslik kabi hollarni keskin tanqid qiladi.

1933-yil 28-aprelda VKP(b)MQ “Partiyani tozalash to‘g‘risida”gi qarorining bosh maqsadi yuqori darajadagi kommunistlarni tayyorlash, partiya

saflariga adashib kirib qolgan yot elementlardan xalos qilish edi, deb qayd etadi[9]. Mazkur qaror bo‘yicha tozalash jarayonida partiyadan quyidagilar chiqariladilar:

1) Sinfiy chetdan yot va dushman bo‘lib, aldov yo‘li bilan partiyaga suqilib kirgan va unda partiya qarorlarini buzishga urinayotgan unsurlar.

2) Partiyani aldov bilan yashovchi, undan o‘zlarining chinakam intilishlarini bekituvchi va partiyaga “sodiqlikda” yolg‘on ont ichib niqob ostida, amalda partiya siyosatini buzishga urinuvchi ikki yuzlamalar.

3) Partiya va davlat temir intizomini oshkora va yashirin buzuvchilar, partiya va hukumat qarorlarini bajarmovchilar, partiyaning qarorlarini shubha ostiga qo‘yuvchilar va partiya tomonidan aniqlangan planlarni, “ularni real emas va amalga osha turgan emas” degan safsatalar bilan obro‘sizlantiruvchilar.

4) Burjua unsurlar bilan inoqlashgan kishilar, amalda sinfiy dushman bilan kurashni istamovchilar, mushtumzo‘r unsurlar, dangasalar, o‘g‘rilar, jamoat mulkini talon-taroj qiluvchilar bilan amalga qo‘yishni istamovchi unsurlar.

5) Mansabparastlar, shaxsiy manfaatini ustun ko‘ruvchi, byurokratlashgan unsurlar. O‘zini partiyada va sho‘ro davlatining xizmatiga turishdan, o‘zining shaxsiy manfaatlari uchun istifoda qiluvchilar, ommadan ajralgan, ishchi va dehqonlarning ehtiyojlariga va savollariga parvo qilmovchi unsurlar.

6) Ma’naviy jihatdan buzilgan, o‘zining xunuk qiliqlari bilan partiyaning darajasini tushiruvchi, partiya bayrog‘ini ifloslovchi kishilar[10].

1934-yili bolsheviklarning partiya saflarini tozalash tadbirlarida O‘rta Osiyo bo‘yicha 96 rayon va 150ga yaqin boshlang‘ich tozalash komissiyalari tuzilgan. O‘rta Osiy barcha jumhuriyatlari (O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qoraqalpog‘iston) bo‘yicha 20 ming kishi tozalashdan o‘tdi. Shundan O‘zbekiston SSR bo‘yicha 11 ming va Tojikiston ASSR dan 3 ming kishi o‘tdi [11].

O‘zbekistonda 1934-yilgi partiya saflarini tozalash paytida rahbarlik qilgan shaxslar quyidagilar edi: O‘rta Osiyo partiya tozalash komissiyasining raisi I.X.Peters, VKP(b) O‘rtaOsiyo byurosi kotibi Mayorov, VKP(b)MQ O‘rta Osiyo byurosi marksizm-leninizm targ‘iboti bo‘limining mudiri Ashurov, O‘zKP(b) Markazqo‘mining kotibi Sexer, O‘zKP(b)MQ partiya organlariga rahbarlik bo‘limining mudiri va Oktyabr rayon tozalash komissiyasining raisi To‘rabekov, O‘zbekiston partiya kontrol komissiyasi raisining o‘rinbosari Rizaev [12], Shahrisabz rayon tozalash komissiyasining raisi Mishchenko, Marg‘ilon rayon tozalash komissiyasining raisi Rubanenko, Eski Buxoro rayon tozalash komissiyasining raisi Yefremov, Qo‘qon rayon tozalash komissiyasining raisi Kronberg, G‘uzor rayon tozalash komissiyasining raisi Abdinov, Bog‘dod rayon tozalash komissiyasining raisi Sharipov, G‘allaorol rayon tozalash komissiyasining raisi Tagmamedov [13] va boshqalar partiya saflarini tozalash masalasi haqida matbuotda o‘z chiqishlarini qilganlar.

Partiya saflarini tozalashga butun Ittifoq miqyosida rahbarlik, Tozalash markaziy komissiyasiga topshiriladi. Komissiyaning tarkibi quyidagilardan iborat: Rudzutak (rais), Kogonovich, Kirov, Yaroslavskiy, Shkiryatov, Yazov, Stasova va Pyatnitskiy kiritiladi[14].

O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissarligining 1934-yilgi partiya tashkilotlarini tozalash jarayonida bu komissarlikni qayta qurish juda sust va ba’zilarda yuzaki bajarilayotgani, boshqarmalarda va bo‘limlarda astoydil ishlaydigan, sinalgan va partiyaga berilgan kishilar bilan ta’minlash qoniqarsiz ekanligi to‘g‘risida tozalash komissiyasi xulosa beradi. Bundan tashqari, partiya tashkilotida yot unsurlar, opportunistlar va ikkiyuzlamachilar, sinfiy yotlardan chiqqanlar va ular bilan aloqani uzmaganlar borligi ta’kidlangan. Yot unsurlar mas’ul joylarda o‘tirib olib, partiya biletini pesh qilib, o‘z basharalarini bekitib to‘sqinchilik qilib kelganlari va o‘z-o‘zini tanqid qilmaganlari misol qilib keltirilgan. Shunday kishilardan chorva boshqarmasida Shahabdurasulov, Navro‘zov, Kluxin, Davlekanov va boshqalar faoliyati keskin tanqid qilingan[15].

Tozalash komissiya Cho‘li Navro‘zov (1921- yildan beri partiya a’zosi) ni o‘zining quloqlardan chiqqanligini yashirganlik, Afg‘onistonga qochib ketgan qarindoshlari bilan aloqasi borligini hamda partiya yo‘liga, sovet yo‘liga xafli ravishda Turkmaniston SSRMQ rahbarligiga qarshi chiqqan holda ikkiyuzlamachilik va guruhbozlik qilganligi aybini qo‘yadi. Shuningdek, Majid Zokiriy (1918-yildan partiya a’zosi)ga, “18 lar” guruhida faol qatnashgan millatchi, O‘ztraktorsentrning o‘rinbosari bo‘lib ishlab turganida apparatni oq gvardiyachilar, trotskiychilar, surgun qilinganlar va

boshqa har xil yot unsurlar bilan to‘ldirganlik (Podgorniy, Akayev, Abramov va boshqalar) aybi qo‘yiladi va partiyadan o‘chiriladi[16].

Yer ishlari xalq komissarligining o‘rinbosari Zelkina 1919-yildan buyon partiya a’zosi hisoblangan. U tozalash komissiyasiga o‘z tarjimai holini va o‘zining bolshevik sifatida o‘tgan 15 yillik yo‘lini bolshevikcha to‘g‘rilik bilan hikoya qilib beradi. Shuningdek, Zelkina o‘z yanglishlarini qattiq tanqid qiladi va ishdagi kamchiliklarini aytib beradi. Zelkina Xlopko traktorsentrga rahbar sifatida tayinlanganidan keyin apparatdagi unsurlarni haydab chiqargan hamda Yer ishlari xalq komissarligining paxta boshqarmasi uning rahbarligi ostida o‘z ishini bolshevikcha qayta qurayotgani e’tirof etiladi. Tozalash komissiyasi Zelkinadan tashqari partiya a’zosi hisoblangan Dehqonboy Nurmatov, O‘rinboyev va Abdurahmonovlarni Yer ishlari xalq komissarligi apparatida ishlovchi eng yaxshi bolsheviklar ekanligini e’tirof etadi. Ular O‘zKP(b)MQning operativ direktivlariga yaxshi quloq solib, o‘zlarining butun kuchlarini jumhuriyat qishloq xo‘jaligini yuksaltirishga sarf qilayotganliklari ta’kidlangan[17].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek siyosiy elitasining pastidan yuqoriga ko‘tarilishida kommunistik partiyaning roli nihoyat darajada yuqori bo‘lgan. Kadrlarning partiyaga sadoqatini tekshirish uchun tozalash jarayonlari o‘tkazilgan. Bu tozalash jarayonlari hamma vaqt ham adolatli o‘tkazilmagan. Milliy manfaatlar yo‘lida xizmat qilgan mahalliy rahbar kadrlar doimo bolsheviklarning qarshiligiga uchragan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Partiyani tozalash to‘g‘risida VKP (b)MQ va MKK qarori // Qizil O‘zbekiston. 1933-yil 1-may. 100-son.
2. Partiyani tozalash to‘g‘risida. Moskva shahar partiya aktivining 1933-yil 22-may yig‘ilishida Kogonovich so‘zlagan nutq // Qizil O‘zbekiston. 1933-yil 5-iyun. 128-son.
3. Partiyani tozalash to‘g‘risida VKP (b)MQ va MKK qarori // Qizil O‘zbekiston. 1933-yil 1-may. 100-son.
4. Partiyani tozalash to‘g‘risida VKP (b)MQ va MKK qarori // Qizil O‘zbekiston. 1933-yil 1-may. 100-son.
5. O‘zMA, 1710-fond, 11-ro‘yxat, 108-yig‘ma jild, 253-varaq.
6. Matbuot kadrlari masalasi // Qizil O‘zbekiston. 1930-yil 24-mart. 66-son.
7. Bek-ota. O‘zbekiston xalq maorifi komissariyati apparatini tozalash yakunlari // Qizil O‘zbekiston. 1931-yil 12-fevral. 35-son.
8. Bek-ota. O‘zbekiston xalq maorifi komissariyati apparatini tozalash yakunlari // Qizil O‘zbekiston. 1931-yil 12-fevral. 35-son.
9. Мустафа Чокай. Шығармаларинын толық жинағы. 12 томдық. Т. IX. – Алматы: Дайк Пресс, 2014. – С. 355.
10. Partiyani tozalash to‘g‘risida VKP (b)MQ va MKK qarori// Qizil O‘zbekiston. 1933-yil 1-may. 100-son.
11. O‘rta Osiyo jumhuriyatlarining partiya tashkilotlarini tozalashning borishi to‘g‘risida. 1934-yil 5-sentyabrda VKP(b)MQ O‘rta Osiyo byurosining plenumida Peters nutqi// Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 14-sentyabr. 212-son.
12. Tozalashning birinchi kunlarida // Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 28-may. 121-son.
13. Tozalash – butun partiyaning ishi // Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 15-iyul. 161-son.
14. Partiyani tozalash to‘g‘risida VKP (b)MQ va MKK qarori // Qizil O‘zbekiston 1933-yil 1-may. 100-son.
15. Yer ishlari xalq komissarligi apparatini qayta qurish haqida partiya tomonidan berilgan ko‘rsatmalarni tugal bajaraylik. O‘zbekiston Yer ishlari xalq komissarligining partiya tashkilotlarini tozalash komissiyasining raisi Rizaev bilan suhbat // Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 22-iyun. 142-son.
16. Yer ishlari xalq komissarligi apparatini qayta qurish haqida partiya tomonidan berilgan ko‘rsatmalarni tugal bajaraylik. O‘zbekiston Yer ishlari xalq komissarligining partiya tashkilotlarini tozalash komissiyasining raisi Rizaev bilan suhbat // Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 22-iyun. 142-son.
17. Yer ishlari xalq komissarligi apparatini qayta qurish haqida partiya tomonidan berilgan ko‘rsatmalarni tugal bajaraylik. O‘zbekiston Yer ishlari xalq komissarligining partiya tashkilotlarini tozalash komissiyasining raisi Rizaev bilan suhbat // Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1934-yil 22-iyun. 142-son.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 371.012+37.017

AXLOQIY VA ESTETIK MADANIYAT MURAKKAB IJTIMOIY HODISA SIFATIDA

Arzimatova Inoyatxon Madimarovna, Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

MORAL AND AESTHETIC CULTURE AS A COMPLEX SOCIAL PHENOMENON

Arzimatova Inoyatkhon Madimarovna, Fergana State University, associate professor, candidate of philosophical sciences

НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА КАК СЛОЖНОЕ СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ

Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, доцент Ферганского государственного университета, кандидат философских наук

https://orcid.org/0009-0003-7026-888X
e-mail: arzimatova1969@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada axloqiy va estetik madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni axloqiy-estetik o‘zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlari ekanligi, jamiyat a’zolarining axloqiy-estetik qarashlari va manfaatlarining muayyan holati masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, axloqiy-estetik madaniyat, madaniyat falsafasi, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, jamiyat bilan shaxs, madaniyat, globallashuv, inson ijodiy faoliyati, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot, badiiy ijod.*

Abstract: *The article analyzes the issues of moral and aesthetic culture as a complex social phenomenon, the processes and results of moral and aesthetic development of nature at the level of society, moral and aesthetic aspects of work, everyday life and social relations, as well as the specific state of moral and aesthetic views and interests of members of society.*

Keywords: *society, moral and aesthetic culture, philosophy of culture, spiritual and moral qualities, society and personality, culture, globalization, human creative activity, social and spiritual development, artistic creativity.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы нравственно-эстетической культуры как сложного общественного явления, процессы и результаты нравственно-эстетического освоения природы на уровне общества, нравственно-эстетические аспекты трудовой деятельности, быта и общественных отношений, а также конкретное состояние нравственно-эстетических взглядов и интересов членов общества.*

Ключевые слова: *общество, нравственно-эстетическая культура, философия культуры, духовно-нравственные качества, общество и личность, культура, глобализация, творческая деятельность человека, социально-духовное развитие, художественное творчество.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda zamonaviy jamiyatlar insonlarda axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishga majbur bo‘lmoqda. Axloqiy va estetik madaniyat sohasida ilmiy tadqiqotni amalga oshirish unga yondashishning nazariy-metodologik jihatlarini belgilab olishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lgan axloqiy va estetik madaniyatni tahlil etishda nafaqat umumfalsafiy, shu bilan birga, madaniyat falsafasida ishlab chiqilgan va asoslangan konsepsiyalarga tayanishga to‘g‘ri keladi. Globallashuv sharoitida axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib qiladigan, milliy mentalitetimiz, komil inson g‘oyasi ruhiga zid voqealar, shuningdek, san’at asarlariga murosasiz tanqidiy munosabatni shakllantirish, milliy turmush estetikasini rivojlantirish shaxs ma’naviyatini mazmunan boyitish axloqiy-estetik madaniyatsiz

amalga oshmasligi tabiiydir. Zero, shaxsning kamol topishi, eng avvalo, unda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga asoslanadi. Shunday ekan, jamiyat bilan shaxs madaniyati, ularning o'zaro dialektik aloqadorligini qaror toptirish mustaqillikni ma'naviy mustahkamlashning muhim shartlaridandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Axloqiy va estetik madaniyatning murakkab ijtimoiy hodisa sifatidagi o'rnini yoritishda "Философский энциклопедический словарь" [1], Ro'ziev Ch.[2] "Falsafa. Qomusiy lug'at"[3], Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G.[4], Rahimov I., O'tamurodov A.[5] asarlaridan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, mavhumlikdan aniqlikka yuksalish, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Axloqiy va estetik madaniyat xususida to'xtalishdan oldin madaniyat o'zi nima, uning mohiyati va ma'nosini anglab yetish lozim. Madaniyat – (arabcha – madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usulidir. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati, ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab "madaniyat" tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq ta'siri (yerni ishlash va h.k.) hamda insonning o'zini tarbiyalashi va o'qitish ma'nolarini ifodalagan. Keyinchalik "madaniyat" tushunchasi orqali sivilizatsiya bilan bog'liq mazmun tushunila boshlandi.

Madaniyat inson mohiyatli kuchlarini ro'yobga chiqarishning o'ziga xos shakli va usuli sifatida uning ijodiy imkoniyati, qobiliyat va ehtiyojlarini faoliyat orqali gavdalantiradi va rivojlantiradi, shunday ekan, madaniyat kishilarning yaratuvchanlik faoliyatini falsafiy-metodologik jihatdan belgilash uchun asos bo'ladi. "Madaniyat" tushunchasi ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan xalq hayotining muhim va zaruriy fazilati, yutuqlari va ijodkorligining majmuidir[1]. Inson ijodiy faoliyatining moddiylashgan natijalarini hisobga olmay turib, madaniy taraqqiyot qonuniyatlarini tasavvur etib bo'lmaydi. Tabiiyki, bu natijalar moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulotlari hamda inson faoliyatining o'ziga xos usullarini aks ettiradi. Bularning barchasi inson ijodiy qobiliyatining ifodasi bo'lib, uning yaratuvchanlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan boshqa narsa emas. U insoniy ma'rifatparvarlik hamda bilimdonlikning oliy ko'rinishi, o'tmish merosga teran, ongli va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ijodiy idrok qobiliyati, voqelikni faoliyat orqali bilish va o'zgartirish darajasini anglatadi. Insonning individualligi ayni madaniy darajada o'zining to'laqonligini namoyon etadi.

Har qanday qarama-qarshilikni falsafiy jihatdan bartaraf etish yangi sifat yuzaga kelishiga olib keladi. Madaniyatning funksional amal qilishida tegishli ziddiyatlarni hal etishning asosiy yo'li kishilarning nafaqat ijtimoiy faoliyat, shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida ham madaniy jihatdan yuksalishini taqozo qiladi. Bunda ijtimoiy va madaniy jarayonning o'zaro ta'sirida shakllangan madaniyat subyektlari ne'matlarni o'zlashtirishda o'zlarining ijodkorlik qobiliyatini namoyon etishidan iboratdir. Rassom Ro'zi Choriyev ta'kidlaganidek, "Ijod mashaqqatlari bir kuni albatta o'zining samarasini beradi. Rassomning yaratgan haqiqiy asari ijodkorning qalbini cheksiz quvonchlarga to'ldiradi. O'shanda uni qoniqish chulg'ab oladi. Bu holat ijodkorga huzur bag'ishlaydi"[2]. Madaniyatning muayyan darajasiga erishgan kishilar uni shunchaki o'zlashtiruvchilar emas, shu bilan birga, madaniyatni jonli gavdalantiruvchi, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlovchi, badiiy ijodning yuksak namunalarini yaratuvchilar hamdir.

Axloqiy madaniyat estetik madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir. Estetik madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning estetik jihatlari; sinf va ijtimoiy qatlamlarning estetik qarashlari, did va manfaatlarining muayyan holati; estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti, kishilar ijtimoiy-estetik faolligining rang-barang namoyon bo'lishini anglatadi. Bugunga qadar ilmiy adabiyotlarda estetik madaniyat tushunchasiga turlicha ta'riflar beriladi. Jumladan, "Estetik madaniyat – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui"[3]. Ushbu ta'rifda estetik madaniyat qadriyatlar doirasida olingan bo'lib uning axloqiy

madaniyat bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Estetik madaniyat – bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo‘lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko‘nikmalari, bilimlari, me’yorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi”[4] bilan ham izohlanadi. Bunda estetik madaniyatning ko‘proq insonning ehtiyojlariga bog‘liq ekanligi nazarda tutiladi. Umuman olganda, estetik madaniyat estetik ong va uning zaminida turuvchi amaliyotning o‘ziga xos ifodasi sifatida kishilarning real ijtimoiy-estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Estetik madaniyat narsa-hodisalar subyektivligini moddiylashtiradi va shu jihati bilan tabiat predmetlaridan ajralib turadi. Madaniy qadriyatlar tariqasida faoliyat usullariga mos keluvchi mahsulotlar, zamonaviylik yoki an’anaviylikni ifodalovchi umumestetik va badiiy boyliklar kundalik hayot borlig‘ini tashkil etadi va me’yoriy xususiyat kasb etadi. Me’yor, an’ana va malakalar ko‘rinishidagi bu qadriyatlarni o‘zlashtirish gnoseologik, kishilarning o‘zaro kommunikativ, estetik (badiiy havaskorlik va professional faoliyat) ijodkorlik faoliyatlari jarayonida amalga oshiriladi. Shunday qilib, madaniyat fenomeni sifatida faoliyatning usul va qadriyatlarida gavdalangan tarixiy vorisiylikni o‘rganish estetik reallikni falsafiy tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil muayyan qadriyatlarni o‘zlashtirish va ko‘paytirish dialektikasini ochishga imkon beradi, bunda kishilarning badiiy-estetik faoliyati mahsulotlari, ularda gavdalangan ishlab chiqarish madaniyati, shuningdek, bilish, muloqotning estetik jihatlarini yoritish alohida qiziqish uyg‘otadi.

Bizningcha, estetik madaniyatning falsafiy tahlil obyekti va predmeti chegaralarini aniqlab olishga imkon beruvchi umumnazariy jihatlar qisqacha shulardan iboratdir. Shunday qilib, estetik madaniyat gavdalanishining borlig‘i va predmetini o‘rganuvchi muhim tomonlar tahlil obyektini tashkil etadi. Falsafiy tadqiqot konkret ijtimoiy hodisaning rivojlanish qonuniyatlarini ularning butun majmuini hisobga olgan holda o‘rganishni taqozo qiladi, bunday holda uning obyekti bilan predmeti o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik yuzaga keladi. Binobarin, “Falsafa o‘zining uslubi jihatidan voqelik (borliq)ni aqliy tahlil qilib o‘rganishdan iborat” [5].

Sharqning buyuk faylasufi G‘azzoliy estetik madaniyatning jamiyatda rivojlanib borishi o‘simlik, hayvon hamda insonning tashqi muhitga munosabatiga, ularda estetik did, nafosat hissining bor-yo‘qligi muammolariga, shaxsning go‘zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishi, nisbiy va mutlaq go‘zallikka bog‘liq, deb ko‘rsatsa, Umar Xayyom estetik madaniyatning jamiyatda va insonda xilma-xil tarzda shakllanib va rivojlanib borish, har bir shaxs go‘zallikni o‘z kasbi-koridan kelib chiqqan holda anglashi, ya’ni estetik madaniyat va kasbiy odobning bog‘liqligini e’tirof etadi.

Axloqiy va estetik madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni axloqiy-estetik o‘zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlari; jamiyat a’zolarining axloqiy-estetik qarashlari va manfaatlarining muayyan holati; axloqiy-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti, kishilar axloqiy-estetik faolligining rang-barang namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Axloqiy-estetik madaniyat axloqiy va estetik ong va uning zaminida turuvchi amaliyotning o‘ziga xos ifodasi sifatida kishilarning real axloqiy-estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Globallashuv jarayonida milliy ma’naviyat, shu bilan birga, umuminsoniy axloqiy-estetik qadriyatlar shaxs madaniyatiga samarali ta’sir ko‘rsatib, uning insoniy fazilatlari, axloqiy-estetik qadriyat va me’yorlari shakllanishida muhim omil sanaladi. Ayni paytda shaxs faoliyatining barcha sohalarida ijodiy faollikni yuzaga chiqarishda real obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning mazmunan boyib borishi taqozo qilinadi. Obyektiv va subyektiv omillar uyg‘unligi axloqiy-estetik madaniyatni mazmunan va shaklan rang-baranglashtiradi, ijtimoiy ahamiyatini ko‘taradi. Buning natijasida insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasida ezgulik, go‘zallik fazilatlari chuqur o‘rin oladi, kasb-hunarida ijodkorlik tuyg‘usi ortadi, ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi, milliy va umuminsoniy estetik meros, qadriyatlarni qadrlash hissi ortadi, o‘z xalqi va mamlakati taraqqiyoti uchun estetik, ma’naviy qadriyatlar yaratish, ularni meros qilib qoldirish mas’uliyati kuchayadi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy hayotda diqqat-e’tiborimizni tortadigan narsa-hodisalar ikki xil nuqtayi nazardan tahlil etilishi mumkin. Birinchi nuqtayi nazar san’atning jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismi sifatidagi sotsial borlig‘iga ustuvor o‘rin

beradi. Boshqa nuqtayi nazarga ko‘ra, kishilar estetik me’yorlarni amalda, shu bilan birga, moddiy faoliyatlarida aks ettiruvchi estetik madaniylikni o‘rganishga alohida ahamiyat qaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Философский энциклопедический словарь. - Москва: ИНФРА-М., 1999. - С.229.
2. Ro‘ziyev Ch. Izingizdan bormoqdaman, ustozlar //Jahon adabiyoti. - Toshkent, 2008. № 12. - B.160.
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 466.
4. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo‘jayeva G. Estetika asoslari. - Toshkent: Cho‘lpon, 2006 - B. 143.
5. Rahimov I., O‘tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari. - Toshkent. Fan. 2003. - B. 8.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 908

ХОРАЗМДА ЖАДИД МАКТАБЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ

Самандарова Сайёра, Урганч инновацион университети доценти, филология фанлари номзоди

ORGANISATION OF JADID SCHOOLS IN KHOREZM

Samandarova Sayyora, Associate Professor of the Department of Social and Humanities and Languages, Candidate of Philosophy, Urganch Innovation University

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЖАДИДСКИХ ШКОЛ В ХОРЕЗМЕ

Самандарова Сайёра, доцент Ургенчского инновационного университета, кандидат филологических наук

https://orcid.org/0009-0000-2632-5338
e-mail: sayyorasamandarova68@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Хоразмда жадид мактабларининг ташкил қилиниши, ташкилотчилар, уларнинг фаолияти таҳлил этилган. Бу борадаги ноаниқликларга тарихий фактлар асосида аниқлик киритилади.*

Калит сўзлар: *жадид, рус-тузем, мактаб, таълим,педагогика, Қрим, Хива, Янги Урганч, дарслик, газета.*

Abstract: *This article analyses the organisation of Jadid schools in Khorezm, the organisers, their activities. Uncertainties in this direction will be clarified on the basis of historical facts.*

Keywords*: jadid, Russian language, school, education, pedagogy, Crimea, Khiva, New Urgench, textbook, newspaper.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы организация джадидских школ в Хорезме, организаторы, их деятельность. Неопределенности в этом направлении будут уточняться на основе исторических фактов.*

Ключевые слова*: джадид, русский язык, школа, образование, педагогика, Крым, Хива, Новый Ургенч, учебник, газета.*

КИРИШ. Инсоннинг камолотга етишишида оиладаги тарбиянинг, маҳалла, жамиятдаги муҳитнинг ва табиийки, мактабнинг роли каттадир. Шу боисдан ҳам миллатнинг маънан баркамоллигини, Ватаннинг тараққиётини мақсад қилган жамиятларда таълимга катта эътибор берилган ва бу жараёнда доимо янгиликлар татбиқ этилган.

1884 йилда Қримда таълим соҳасидаги янгилик сифатида бошланган жадид мактаблари ўз даврининг энг тараққийпарварлик намунаси тарзида туркий мусулмон халқлари орасида тезда амалиётга жорий қилинди. Жадид мактаблари, педагоглари ва ушбу мактаблар учун ёзилган дарсликлар ҳам яратилди. Айнан Хоразмда ҳам жадид мактаблари 1898 йилда илк бора ташкил этилади ва бу жараён қадимий воҳадаги ўзгаришларни бошлаб беради. Мактабдан бошланган ислоҳот бутун жамиятни қамраб олади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД. Мавзуни ёритишда асосан Исмоил Гаспралининг асарлари, жадидшунос профессор Бегали Қосимов, Зайнобиддин Абдурашидов монографиялари, шунингдек “Таржимон” газетасининг 1883 йилдан то 1916 йилгача бўлган сонлари ёритилган библиографиядан фойдаланилди. Ушбу манбаларни бир-бирига

таққослаган ҳолда, қолаверса тарихий жараёнлардан келиб чиқиб ҳаққоний, холис хулосаларга келинди.

МУҲОКАМА. Жадид мактаби дея аталадиган ва ўша даврдаги туркий мусулмон халқлар ҳаётида тамаддун томон бошланган таълим тизимига Исмоил Гаспрали 1884 йилда асос солган эди. Бу ҳақда у "Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош" асарида "...1884 санаси Боқчасаройда бир мактабни усули жадидга қўймиш эдим, самараси умидимдан зиёда ўлди. Бир қоч (қанча) мактаблар усулимни қабул ила ислоҳ ўлдилар. Соир (кўп) вилоятлардан усул кўрмия (кўрмакка) келуб-кеданлар ўлуб, бу сояда ҳар тарафдан ики юздан мутажовуз (ортиқ) мактаблар усулими қабул этдилар. Ота-бобо кунлариндан қолмиш миллий мактабларни ислоҳ этмак усули жадид демакдир", дея ёзганди [1].

Шу тариқа Қримдан бошланган янгича усулдаги таълим тизими тез орада туркий мусулмон халқлар орасида тарқалди. Таълимда ана шундай жараёнлар кетаётган вазиятда Қримдан бошланган янги усул мактаби Хоразмда ҳам юзага келди ва бу табиий эҳтиёж эди. Негаки, тараққиёт сари қўйиладиган дадил, дастлабки қадамлар таълимдан, мактабдан бошланишини бу даврга келиб илғор фикрли Хоразмлик тараққийпарварлар англаб етишганди.

Шу боис ҳам Хоразмда жадид мактаблари айнан ўша даврдаги ҳукмдор Ферузхон (1844-1910), валиахд Асфандиёр (1872-1918) ва бош вазир Исломхўжа (1872-1913), сарой амалдори Мамат маҳрамларнинг ташаббуслари ва маблағлари асосида ташкил этила бошлаган.

Педагогика фанлари доктори Улуғбек Долимов 2008 йилда ёқлаган "Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёти ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари" мавзусидаги диссертацияси автореферати да" 1891 йилдаёқ улуғ мутафаккир Комил Хоразмий ташаббуси билан Урганчда биринчи усули жадид мактаби очилди. Ушбу мактаб халқ ўртасида катта эътибор қозонди, унда дастлаб 25 ўқувчи таълим олди. Диний илмлар билан бир қаторда жуғрофия, тарих, ҳисоб каби аниқ фанлар ҳамда рус тили ўқув предмети сифатида ўқитилди. Қозондан махсус ўқитувчи чақирилиб, дарс жадвали тузилди, ҳар бир дарс 50 минут бўлиб, 10 минутлик танаффус жорий қилинди. Бу мактабни ҳатто Муҳаммад Раҳимхон Феруз келиб кўрди, ўғли Асфандиёрни шу мактабга ўқишга берди, мактабнинг керакли жиҳозлари, ўқув қуроллари учун давлат хазинасидан маблағ ажратди"[2].

Бизнингча, Улуғбек Долимов қайд этган сана 1891 йил эмас, 1898 йил эканлиги аниқ. Негаки "Таржимон" газетасининг 1891 йилдаги сонларида Исмоил Гаспрали Хоразмда жадид мактаблари ташкил этилгани ҳақида бирон хабар чоп этмаган. Негаки Исмоил Гаспрали нафақат Хоразм, балки Ўрта Осиё, туркий мусулмон халқлар яшайдиган ҳудудлардаги барча жараёнларни, хусусан таълим соҳасини, жадид мактабларининг ташкил этилиши, улардаги воқеликларга эътибор қаратиб борган.

Яъни, "Таржимон" газетасининг 1883 йилдан 1916 йилгача бўлган сонларида Хоразмга оид 158 та мақола нашр этилган ва шу давр оралиғида воҳада неки жараён бўлса ёритиб борилган. Чунки Хоразмдаги жадид мактаби ўқитувчиларидан Рамазон Сайдашев, Ғафур Усмонийлар Хивадан Қримга телеграф, почта орқали хабар, мақолаларни юбориб туришганди.

Агар профессор Улуғбек Долимов ёзганидек, Комил Хоразмий жадид мактабини 1891 йилда ташкил этганида, бунга ўз вақтида "Таржимон" нашри эътибор қаратарди ва Исмоил Гаспрали буни хушнудлик билан қўллаб-қувватларди.

Бизнингча, профессор Улуғбек Долимов таъкидлаган Янги Урганчдаги мактаб 1891 йилда эмас, 1898 йилда ташкил қилинган. Бунга асос сифатида "Таржимон" газетасида Исмоил Гаспрали бу воқеани ёритганини келтиришимиз мумкин.

Бу таълим соҳасидаги тарихий воқеа – Ферузхон ҳайрихоҳлиги, ижозати билан Оренбурглик икки педагогнинг Хоразмга келиб мактаб ташкил этишидир. Профессор Зайнобиддин Абдирашидовнинг тадқиқотига кўра, "1898 йили Хивада Оренбургли Муҳаммад Вафо ва мулло Абдураҳмон афандилар томонидан усули савтия мактаби очилди. Лекин бир ой давом этган фаолиятидан кейин "таассубнинг зиёда ўлдиғини англайиб, Урганч шаҳрина кетдилар ва у ерда усули савтия мактаби кушод этдилар". Яъни, "Таржимон" газетасининг 1898 йилдаги сонларига асосланган

ҳолда, пойтахт Хивада 1898 йилдаги биринчи жадид мактабига асос солинганини айтишимиз мумкин. Аммо маҳаллий аҳолининг янгиликка кўникиши қийин бўлади ва Янги Урганч шаҳрида икки педагог ўз фаолиятини йўлга қўйишади. Шу тарзда Хоразмда биринчи жадид мактаби 1898 йилда Хивада ташкил қилинган ва сўнгра Янги Урганчда ўз фаолиятини давом эттирган.

Иккинчи жадид мактаби эса, хоннинг тараққийпарвар амалдори Мамат маҳрам томонидан Дешонқалъадаги уйида 1905 йилда ташкил этилади. Ўша йили Мамат маҳрамдан сўнг бош вазир Исломхўжа ҳам учинчи жадид мактабига асос солади. Хивада дастлаб ташкил этилган усули савтия таълим масканлари "Мактаби Маҳрамия" (Мамат Маҳрамнинг мактаби), "Мактаби жадид" (Исломхўжанинг маблағига барпо этилган) дея номланган.

Хивадаги икки ва Янги Урганчдаги битта жадид мактаблари педагогларининг юқори савиядаги билим беришлари, ўқитиш услуби, дарс жараёнлари аҳоли томонидан яхши кутиб олинади. Негаки, фарзандларини усули савтия асосида ўқитиш, бошқа мактабларга қараганда самарадорлигини кўрсатганди. Натижада аҳолида бўлган талаб боис 1907 йилда валиаҳд Асфандиёрнинг ўзи ҳам Хивадаги учинчи, Хоразмдаги тўртинчи жадид мактабини ташкил қилади.

1907 йил 30 мартда "Таржимон" газетаси Асфандиёрнинг "Хива валиаҳди усули савтия мактаби очдириш учун Барудий мадрасасини тамомлаган икки муаллимни чақиртирди, 25 февралда келдилар, келишлари билан мактабда дарс бошлаганлари ҳақидаги хабари"ни ҳам чоп қилган. Шу тариқа Қозон шаҳридаги Олимжон Барудий мадрасасини битирган икки нафар педагог Хивада 1907 йилдан ўз фаолиятини бошлайди.

НАТИЖА. Ҳукмдор Ферузхон жамиятдаги барча соҳаларга нисбатан талабчан, қолаверса ўзи хайрихоҳлик билан ижозат берган мактабларидаги жараённи кузатиб бораётганди. Шу боис уни жадид мактабларининг келажаги, ўқитувчиларнинг билим бериши, ўқувчиларнинг таълим олиши қизиқтирганидан имтиҳонга эътибор қаратади. "Натижада 1907 йилнинг 28 майида Асфандиёр ва Исломхўжа, 31 май куни қозикалон, мударрис, охунлар иштирокидаги имтиҳон ҳайъати ўқувчиларни синовдан ўтиришади. Яъни Хивадаги дастлабки иккала мактабнинг 113 нафар талабаси ҳайъатга имтиҳон топширади ва ҳайратланарлиси, ҳаммаси аъло баҳо олишади. Имтиҳон натижасидан руҳланган валиаҳд Асфандиёр, бош вазир Исломхўжа ва Қозикалон Салимохунлар ўзаро маслаҳатлашиб Қозон шаҳридан ушбу мактаблар учун яна иккита ўқитувчи таклиф қилишга қарор қилишади. Шу билан бирга Хоразмда жадид мактабларини кўпайтириш, ўқув жиҳозлари, адабиётлари билан таъминлаш, улардаги таълим сифатини назорат қилиш учун Рамазон Муҳаммад Каримзодани мактаблар нозири қилиб тайинлашади. Яъни жадид педагоги Рамазон Каримзодага юкланган вазифа "Хива, Янги Урганч шаҳарларидан бошқа ҳудудларда ҳам усули савтия масканларини ташкил этиш эди"[3].

Табиийки, Хоразмдаги таълим, умуман жадидчилик бўйича жараёнлар Исмоил Гаспрали учун кувончли эди. Негаки, бошқа ҳудудларда тўсқинликларга учраган мактаблар, жадидлар фаолияти Хоразмда истиқболли ҳолатда шаклланаётганди. Шу туфайли у Қримдан бошланган жадид мактабларининг Хоразмда ташкил этилишини "Таржимон" газетасида доимо ёритиб, қўллаб-қувватлаб турган. 1908 йил 18 январида "Таржимон" газетасида "Хивада усули жадида мактаблари" номли мақола ёзган ва ундаги маълумотга кўра, "1898 йил декабрда Оренбургдан Муҳаммад Рифо Карвонбоши билан муаллим Абдураҳмон афанди Хивага келди ва бир ой турди. Таассуб кучлилигидан Урганчга кетди ва усули савтия мактаби очиб, 1 йил бола ўқитди, вафот этди. Кейинроқ Муҳаммад Маҳрам очган мактаб халқ тарафидан яхши қабул қилинди ва халқ 1907 йили валиаҳдга мурожаат қилди. Яна Муҳаммад Рифо Карвонбоши воситасида Қозондан икки муаллим келтирди, мактаби маҳрамий ва мактаби жадидага муаллим қилиб тайинланди, бу мактабларга нозир тайинланди, май ойида имтиҳонлар бўлди. Валиаҳд буларни кўриб Қозондан бир муаллим чақириб яна бир мактаб очди, келаётган май ойида рушдия мактаби очилади. Унинг соҳиби вазирлардан Исломхўжа, муаллими Аҳмад Нуриддин" ("Таржимон", "Валиаҳднинг маорифпарварлиги тарихга битилади").

Шу каби Исмоил Гаспрали 1908 йилнинг 4 апрелида яна “Таржимон” газетасида мақола чоп қилган ва унга кўра, “Ўтган йил Хива хони Қозондан икки муаллим чақириб 2 усули жадид мактаблари очган, муаллимлар Юсуф ва Ҳусайн афанди, 4-5 ой ўтгач имтиҳонлар бўлди, Ҳусайн афандининг мактаби яхши натижалар кўрсата олмади, уни ишдан бўшатди, янгидан Қозондан 3 муаллим чақирилди, улар ишга жиддий киришдилар”.

Шу тарзда Исмоил Гаспрали Хоразмда жадидлар кўпаяётгани, уларни бевосита ҳукмдор, валиаҳд ва Исломхўжа сингари тараққийпарварлар қўллаб-қувватлаётганини эътироф этган ҳолда, “Таржимон” газетасининг 1909 йилги №40 сонида “Мактабларнинг очилиши, кўпайиши лозим. Боқчасаройдан олинган дарс китоблари, Қозондан чақирилган муаллимлар Хивага энди тўғри келмайди, ярашмайди. Энди Хиванинг ўзидан муаллимлар етиштирмоқ керак ва Хивада чоп этиладиган алифболарни яратмоқ керак. Бунда ҳам ҳеч бир кимса зарар кўрмайди”, дея стратегик вазифани қўяди.

Ана шу маълумотлардан маълум бўладики, Хоразмда жадид мактаблари очиш 1898 йилдан бошланган ва ХХ аср бошларига келиб нафақат Хива ва Янги Урганч, балки Гурлан, Қўнғирот, Хўжайли, Тўрткўл шаҳарларида ҳам янги усулдаги жадид мактаблари ташкил қилинган ва унинг битирувчилари орасидан вақт ўтиб Хоразмдаги сиёсий жараёнларда фаол қатнашган Бекжон Раҳмон, Низомиддинохун, Иноятохун, Жуманиёз Оллақулиев, Иброҳим Оллақулиев, Қурбон Берегин, Карим Болтаев, Раҳмат Мажидий, Марям Султонмуродова сингари ХХ аср бошларидан то 1937 йилларгача фаол бўлган кўплаб намояндалар етишиб чиқди.

Вақт ўтиб Хива, Янги Урганчдан бошқа ҳудудларда ҳам жадид мактаблари ташкил этила бошланди. Хусусан, 1910-1911 ўқув йилида Гурланда Хивадаги машҳур маърифатпарвар Ҳусаин Қўшаевнинг ёрдами билан илк жадид мактаби ташкил қилинади. Ушбу мактабнинг биритирувчилари орасида кейинчалик Германияда ўқиб қайтган Олимжон Қодирий ҳам бўлганди. 1915 йилда эса Гурланлик Саид Махсумбойнинг уйида татар ўқитувчиси Хорис Арслонов ҳам ҳудуддаги иккинчи жадид мактабини очади. Кейинчалик, Хорис Арслоновнинг янги усул-жадид мактаби гурланлик Эриммат Латипов, Ўрозмат Заргаровларнинг уйига кўчирилади. Яъни шу тарзда Гурланда жадид мактаблари сони аҳолининг талаби боис кўпая бошлаганди. Шу сингари Хонқа ҳокими Муҳаммад Аминаддиновнинг ҳомийлиги билан ҳам 1911 йилда жадид мактаби ташкил этилганди.

Тарихдан маълумки, 1913 йил августида бош вазир Исломхўжага суиқасд қилинади ва ислоҳотчи вафот этади. Шу муносабат билан Исмоил Гаспрали бош вазирнинг сурати билан бирга у ҳақда катта мақола чоп этади. Мақолада Гаспрали “Исломхўжа хонликда замонга кўра илм ва маърифат тарқатишни ҳар нарсадан устун кўриб, Хивага русча ва татарча муаллимлар олиб келган ва бир қанча усули жадида мактаблари очдирган эди. Ўз маблағи ҳисобидан бир мактаб қурдирди”[4], дея ислоҳотчининг ўзи билан хайрихоҳ бўлганини таъкидлаб ўтганди.

Гарчи бош вазир Исломхўжа вафот этгани билан, унинг тараққийпарварлик ғоялари Хоразмда унинг жадид издошлари томонидан давом эттирилавераді. Хусусан, таълим соҳасида ҳам жадидлар яна кўплаб жадид мактабларини ташкил этиш, дарслик, қўлланмалар билан таъминлаш бўйича сайъи ҳаракатларини давом эттираверишади.

ХУЛОСА. Шу тариқа 1898 йилда Хивада биринчи жадид мактабига асос солинган бўлса, вақт ўтиб ҳукмдор, амалдорлар ва бошқа соҳадаги тараққийпарварларнинг қўллаб-қувватлаши билан мактаблар сони кўпая бошлади. Қисқа вақт ичида Хива, Янги Урганч шаҳарларидан ташқари бошқа бекликларда ҳам жадид мактаблари сони ташкил этилади. Агарки 15 йиллик даврни, яъни жадид мактабларининг ташкил этилиш, шаклланиш даврини оладиган бўлсак, бу вақт оралиғида 25 та жадид мактаби фаолият олиб борганини кўриш мумкин. Яъни, рус-тузем, эски мактабларнинг рақобатига бардош берган, улардан таълим сифати юксалган ва кенг оммани жалб қилган ҳолда жадид мактаблари жамиятда ўз ўрнини топди. Вақт ўтиб унинг Бекжон Раҳмон сингари ўқувчилари Истанбул, Олимжон Қодирий, Марям Султонмуродова сингари битирувчилари эса Германияда, яна кўплари Москва, Қозон, Тошкент шаҳарларида таҳсил олиш даражасига

эришдилар. Табиийки, бу кўрсаткичлар, ушбу ва шу сингари жадид мактаблари ўқувчиларининг кейинги даврда республикага таниқли олим, ижодкор, раҳбар кадрлар бўлиб етишгани, мактаб ташкилотчиларининг орзулари амалга ошганини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. И.Гаспрали. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферополь, 1898 йил, 4-бет.
2. У.Долимов. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёти ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Тошкент, 2008 йил. Автореферат, 24-бет.
3. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилиги, ислоҳотлар, таълим ва адабиёт. Milleniumus print нашриёти. Урганч, 2024 йил, 36-бет.
4. И.Гаспрали. // Таржимон газетаси. Марҳум Саййид Исломхўжа мақоласи. 1913 йил №187.
5. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси. Milleniumus print нашриёти. Урганч, 2024 йил, 48-бет.
6. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Бобоохун Салимов – жадид, давлат арбоби ва шоир. Milleniumus print нашриёти, Урганч, 2024 йил, 98-бет.
7. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. Milleniumus print нашриёти. Урганч, 2024 йил, 180-бет.
8. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши. Milleniumus print нашриёти. Урганч, 2025 йил, 120-бет.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 3237.001.09

OGAHIYNING POETONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Yuldashev Doniyor
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi prof.(v.b.), (DSc)

МАСТЕРСТВО АГАХИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ В ПОЭТОНИМАХ

Юлдашев Дониёр
Профессор (и.о.) кафедры узбекского языкознания УрГУ, (DSc)

GAHI'S SKILL IN USING POETONYMS

Yuldashev Doniyor
Professor (Acting), Department of Uzbek Linguistics, UrSU (DSc)

doniyory696@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy siymosi, uning Xorazm tutiga bag‘ishlangan g‘azalida qo‘llangan onomalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, ularning badiiyat va matn badiiy-estetik butunligini ta’minlashdagi ahamiyati bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ogahiy, poetonim, tarixiy nom, apellyativ, yahudiycha, geneologik, payg‘ambar, antropoetonim, timsol.*

Аннотация. *В данной статье описывается характер Агахи, сына Мухаммадризо Эрниёзбека, эмоционально-экспрессивные особенности звукоподражания, использованного в его газели, посвященной шелковице Хорезма, и их значение в обеспечении художественной и эстетической целостности текста.*

Ключевые слова: *Агахи, поэтоним, историческое имя, наименование, идиш, генеалогический, пророк, антропоэтоним, символ.*

Abstract. *This article describes the character of Agahi, the son of Muhammadrizo Erniyozbek, the emotional and expressive features of onomatopoeia used in his ghazal dedicated to the mulberry of Khorezm, and their significance in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.*

Key words: *Agahi, poetonym, historical name, denomination, Yiddish, genealogical, prophet, anthroponym, symbol.*

Kirish. Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy – o‘ziga g‘ayratni qalqon, sabrni shior qilg‘on, haqiqat jomidin ichib, ruhini poklagan, har bir jabhada Allohga tavakkal qilib, qanoatni shior qolgan, minnatli oshdan qochgan, haqiqat ahlig‘a masohib, majoz ahlig‘a ulfat bo‘lg‘on, buzuq kulbasida bir parcha halol nonini topgan gado – “sulton” bo‘lgan; u ko‘nglini soflash uchun vujudin kul qilgan, tab’i nazm aro quvvat topgan, ilmni insonning ikki dunyosini obod qiladigan “janji nofi’” deb bilgan, shirin nukot uzra nukotni nazm aylagan, maoni mulkini til tig‘i tortib olgan, haqiqiy hazni “nazm aro dilso‘z mazmun bo‘lishida” deb bilgan, fano-u faqr sori ko‘ngli moyil, 28 yil miroblik qilib, bir ko‘lcha yeri bo‘lmagan, o‘z holini “dardangiz devoni”ga joylagan chin ma’nodagi inson edi.

Ma’lumki, Sayyid Muhammad Bahodirxon (Feruz) iltifoti, madadi, topshirig‘i bilan “Taviz ul-oshiqin” dunyoga keladi. Ogahiy o‘zidan “yaxshi va boqiy farzandlar” – she’rlar qoldirgan, o‘z asarlarida faqat chin so‘z aytgan va so‘ziga amal qilgan, chunki “so‘z amali bilan foydali bo‘lishini”:

Xalq aro gar ogah esang, Ogahiy,
Beg‘araz ar so‘zni desang, Ogahiy.
Chunki erur boshdin oyoq chin so‘zing,

Lek kerakdur amal etsang o‘zing…[13. 456] deya ta’kidlagan hassos shoirdir.

2. Metodologiya. Mumtoz manbalardagi onomalar muayyan muallifning o‘sha davr lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaladigan atoqli otlardan ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda, o‘rinli foydalanish qobiliyati, uning o‘ziga xos individual uslubi va ana shu onomalarlar bilan bog‘liq diniy, tarixiy, etnografik, umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim omillardan sanaladi. Jumladan, Ogahiyning “Tavizu-l oshiqin” devonida poetonimlarning turli ko‘rinishlari – teopoetonimlar (*Alloh, Rab, Tangri, Haq* kabi), antropoetonimlar (*Iso, Sulaymon, Layli, Ogahiy, Anvariy* kabi), topopoetonimlar (*Bobil, Qof, Aras, Furot, Ho‘tan, Jayxun* kabi), mifopoetonimlar (*Axraman, Jamshud, Rustam, Ayoz* kabi), fitopoetonimlar (*Tubi – Tubo* kabi), zoopoetonimlar (*Buroq, Duldul* kabi), kosmopoetonimlar (*Bahrom, Qoba burji, Zuhra, Mezon burji* kabi), shuningdek, geneologik jihatdan sof turkiy, arabiy, forsiy, qadimgi yunoncha, qadimgi yahudiycha apellyativlarga asoslanuvchi poetonimlar; tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma (murakkab) poetonimlar; semantik xususiyatlariga ko‘ra diniy, badiiy va real poetonimlar; uslubiy xoslanishiga ko‘ra nominativ vazifada kelgan va qo‘shimcha ma’no, ya’ni emotsional-ekspressiv ma’no yaratgan poetonimlar uchraydi. Masalan, Ogahiy birgina Xorazm tuti ulug‘langan, ramali musammani mahzuf vaznida bitgan “Bo‘ldi tut” radifli g‘azalida *Jabroil, Iskandar, Jam, Hotam, Sulaymon, Rustam, Iso, Maryam, Folotun, Qorun, Xizr, Haq, Rab, Firdavs, Rizvon, Kavsar* kabi mifologik, diniy, badiiy hamda real nomlarda bir o‘rinda onomastik metafora sifatida, yana bir o‘rinda allyuziv nom sifatida, yana bir o‘rinda o‘xshatish etaloni sifatida, yana bir o‘rinda intertekstuallikni ta’minlovchi vosita sifatida maqsadli va samarali qo‘llagan [13. 70-71].

3. Muhokama va natijalar. Ogahiy devonidagi badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan poetonimlarning o‘rni va xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, adabiy matnlarda, xususan, nazmiy asarlarda boshqa so‘zlar kabi poetonimlar ham ekspressiv-uslubiy vazifani bajarib kelad-di. Quyida ushbu g‘azaldagi atoqli otlar tahliliga murojaat qilamiz:

El muallo borigohing arsh a’zam bo‘ldi tut,

Xilvati xosing aro Jibriyl maxram bo‘ldi tut… – ushbu matla’da shoir vohamiz tutini shunday ta’riflaydiki, hatto uning yashil yaproqlari-yu, ostiga bir parcha quyosh nuri tushirmaydigan shox-shabbalari yaratgan xos xilvatiga Jibriyl alayhissalom maxram bo‘lishga tayyor. Ushbu matla’dagi *Jibriyl* (*Jabroil*) diniy adabiyotlarga ko‘ra, Allohning eng suyukli farishtasi hisoblanadi (Қуръон, 2:87). Jabroil Allohning buyruqlarini hamma payg‘ambarlarga, jumladan, Muhammad salallohu alayhi vasallamga ham Qur’on oyatlarini yetkazib turgan. Jabroil 1-marta Odam Ato va Momo Havvo o‘rtasidagi insoniy munosabatlarni joriy qilgan: “Qachon Odam Havvoga o‘g‘radi ersa, Jabroil alayhissalom aydi: “Ey Odam, Havvo saning turur, nikoh qilmaguncha ravo bo‘lmas” [15. 19]. *Jabroil* mumtoz manbalarda *Jibril* shaklida ham uchraydi. Har ikkala shakli ham qadimiy suryoniycha *Gavriil*dan olingan bo‘lib, “Allohning kuchi, qudrati” ma’nolarini anglatadi. Ko‘pgina yodgorliklarda *Jabroil* – “Ruhul amin”, “Ruhul quds” birikmalari orqali berilgan. Ba’zi diniy adabiyotlarda boshqa nom bilan ham yuritilgan: “Jabroilning oti Zaburda “*Nomusi Akbar*” erdi [16. 121].

Joh ila hashmat aro topgil oningdek rutbakim,

Har qulung Iskandar-u har chokaring Jam bo‘ldi tut… – “boylik va hashamat ichra shunday maqom topki, har quling Iskandar va har xizmatkoring Jamshid bo‘lsin” mazmunidagi ushbu baytdagi *Iskandar* – mumtoz adabiyotdagi mashhur va taniqli shoh, uning hayotini barcha xamsanavislar, jumladan, A.Navoiy o‘z dostonida yoritgan. F.Boynazarov “Iskandar Zulqarnayn – Aleksandr Makedonskiyning ayni o‘zi emas, balki uning Sharqda o‘zlashgan obrazidir” deb ma’lumot beradi. Darhaqiqat, bu poetonim shakllanishining bir qismini tarixiy Iskandar tashkil etsa, bir qismini “Qur’oni karim”dagi Zulqarnayn siymosidan o‘zlashgan sifatlar tashkil etadi. Ogahiyning yuqoridagi baytida Sharq adabiyotidagi an’anaviy qudratli shoh timsoli sifatida allyuziv nom, shuningdek, intertekstuallik yaratuvchi vosita sifatida qatnashgan hamda matnning emotsionalligi, ifodaviyligi va mazmuniy qabariqligini ta’minlagan.

Baytdagi *Jam* – “qadimiy va afsonaviy Eron shohi, ya’ni *Jamshid*, qisqartirib, Jam deb ham atashgan” [2. IV. 276-277]. Afsonaviy podshoh *Jamshid*ning yana bir nomi, sanskrit manbalarida “*Yam*” shaklida, “Avesto” “Gotlar”ida “*Yima*” shaklida keltirilgan… *Jam* obrazi A.Navoiy asarlarida jami 77 marta tilga olinib, turli poetik

vazifalarni bajargan [4. 1-j. 179-180]. N.Husanovning qayd etishicha, mumtoz yodnomalarda *Jam (Jamshid)* quyidagi ma'nolarni anglatib kelgan:

1) buyuk shoh; 2) shoh nasabi; 3) baxtiyorlikka hasad qiluvchi; 4) yuksak o'rin – taxt; 5) qissa yoki asar nomi; 6) shoir ko'ngli; 7) so'z, she'r; 8) Farhod; 9) Bahrom; 10) Iskandar; 11) Boyqaroning taxti [18. 145].

Hotami zarrin bo'lub ilkingda raxshon oftob,

Ismi a'zam anda yaksar naqshi Hotam bo'ldi tut… – baytidagi *Hotami Toiy* – saxovat va ochiqqo'lligi bilan mashhur bo'lgan kishi. To'liq ismi – Hotam bin Abdulloh bin Sa'd Toiy. Arablarning Tay qabilasidan bo'lib, islomdan oldingi davrda yashagan. Muhammad alayhissalom Toy sharofati bilan uning avlodini e'zozlashni buyurgan. Sharq she'riyatida *Hotam* nomi bilan hikoyat va rivoyatlar keng qo'llanilgan, qissa va dostonlar, hattoki "Hotamnoma" kitobi yaratilgan. A.Navoiy "Hayrat ul-abror"ning 5-maqolatida *Hotam* haqida bir hikoyat keltiradi. Hikoyatda Hotam kabi kishilarning saxovati va muruvvatiga ko'z tikib o'tirishdan ko'ra o'z kasbi orqasidan kun ko'rishni afzal bilgan kishilar himmat bobida Hotamdan ustun, degan g'oya ilgari suriladi [4. 2-j. 256-257]. Ammo yuqoridagi bayt 2014-yil nashr qilingan Ogahiyning "To'la asarlar to'plami"da noto'g'ri tabdil qilingan, qo'lyozmaga asoslanadigan bo'lsak, "Hotam" tarzida berilgan so'z aslida "xotam", ya'ni oldingi misrada "uzuk", keying misrada "muhr" ma'nosidagi turdosh ot sanaladi va ajoyib tajnis yaratishga xizmat qilgan.

Ofarinishg'a Sulaymondek topib hukming nufuz,

Tobi-yu farmon-u amring jumla olam bo'ldi tut… – "sen taqdiri azalning hukmi bilan Sulaymon alayhissalom kabi nufuzga ega qilib yaratigansan, sening farmon-u amringga butun olam tobe (Tutning mevasi qoqilganda hamma egilib, ularni terishiga ham ishora bor)" mazmunidagi ushbi baytda qo'llangan *Sulaymon* nomi Sharq adabiyotida ko'p qayd qilingan. Ba'zi adabiyotlarda payg'ambarlashtirilgan tarixiy shaxs sifatida ko'rsatilgan [11. 245], aslida *Sulaymon* Dovud payg'ambarning o'g'lidir. *Sulaymon* qadimiy yahudiycha "*shelomo*" so'zidan olingan bo'lib, **"**tinchliksevar", "himoyalangan", "omon" degan ma'nolarni anglatadi. Bu nom badiiy adabiyotda turli maqsadlarda **qo'llangan**: "Xalq o'z fantaziyasining butun kuchini ishga solib, Sulaymonning harbiy qudrati, jannatnamo muhiti va ilohiylashgan hayoti haqida afsonalar to'qigan. Bu esa o'z navbatida o'zbek klassik adabiyotining namoyondalariga biror real hodisani Sulaymon payg'ambar bilan bog'lash orqali shu hodisaning tasviriy kuchini oshirish uchun imkoniyat tug'dirib kelgan" [18. 32]. "Qomusiy lug'at"da ham "*Sulaymon* – islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambarning nomi. Dovud alayhissalomning o'g'li. Sulaymon ismi Qur'oni karimda 17 marta zikr etilgan. Sulaymon qissasi "Tarixi anbiyo va hukamo"da muxtasar keltirilgan... Mumtoz adabiyotda Sulaymon bilan bog'liq hikoyatlar asosida talmeh yaratilgan" [4. 1-j. 521-522] tarzida izoh qayd qilingan. Y.Saidov fikricha, *Sulaymon* – kuch-qudrat, hashamat timsoli [6. 138] bo'lib, Ogahiy she'riyatida, asosan, "qudratli va adolatli hukmdor" ma'nosidagi allyuziv nom yoki o'xshatish etaloni sifatida tahmeh san'atiga asoslangan intertekstuallik yaratadi, bunda shoir poetonim va bayt mazmunining ostiga Alloh Sulaymonga "yelni musahhar qilib bergani", "hosiyatli uzukni bergani", barcha ins-u jins uning farmoniga berilgani, mashhur "qarinchqa (Manzara) bilan bo'lgan suhbati"ini yashiradi hamda tasvirni yana ham ta'sirli, qabariq mazmunli qilishga erishadi.

Arsayi olamg'a sig'may lashkaring kasrat aro,

Har biri oning shijoat ichra Rustam bo'ldi tut… – ushbu baytdagi *arsayi olam* – "olam sathi, yer yuzi" [7. 116]; *kasrat* – "1) mo'llik, seroblik; 2) to'la, ko'pchilik" [8. 101] ma'nolarini inobatga oladigan bo'lsak, tutning katta-katta va mo'l-ko'l mevalari orqali Rustamga ishorani anglashimiz mumkin. *Rustam* – Zolning o'g'li, Eron lashkarboshisi va pahlavoni bo'lgan. "Shohnoma"da Rustamning tug'ilishi va nom berilishi quyidagicha ta'riflanadi: *Onaga berdilar u sherbachchani, Bola emas, balki samo gulshani. Bir kunda bo'libdur bir yashar bola, Go'yo bir guldasta, savsan-u lola. Kuldi-yu, ko'rindi tishlar sadafi, Chehrada namoyon shohlik sharafi. Birustam – qutildim – birustam deyar, Shu bois o'g'ul ismi Rustam deyar*. Fikrimizcha, *bi rustam* – "qutildim" ma'nosi xalq etimologiyasiga asoslangan. Chunki ba'zi ilmiy adabiyotlarda bu ism pahlaviycha "*Roststaxma*"dan kelib chiqqanligi ko'rsatiladi [10. 183]. Demak, Rustam "katta gavdali", "qomatli", "kuchli" ma'nolarini anglatadi [18. 73].

Hashmating ovozasi xayli malak ichra tushub,

Bir sano xoning sening Iso-yu Maryam bo'ldi tut… – "sening hashamating ovozasi farishta-malaklar orasiga yoyilib, Iso va Maryamlar ham sening maqtovchilaring bo'ldi" mazmunidagi navbatdagi baytdagi *Iso* (Masih, Masiho, Ruhulloh) – Islomdan oldingi payg'ambarlardan, nasroniylik dining asoschisi, unga "Injil" kitobi nozil qilingan va "Qur'oni karim"da 25 marta va mumtoz adabiy yodgorliklarda esa ko'p uchraydigan nomlardandir. Mumtoz adabiyotda u "tiriltirish – uyg'otish timsoli, Quyoshga fanolik ramzi, xuffosh obrazi tasviri, boshqa payg'ambarlar bilan muvoziy qo'llanuvchi siymo, tadrij timsoli, poetik funksiya va mazmun ijrochisi, badiiy tasviriy-ta'siriy vosita, abadiylik ramzi, xasta ko'ngillarni davolovchi tabib va boshqa ko'plab g'oyaviy-badiiy maqsad-vazifalarni bajarishga xizmat qilgan [4. 1-j. 220]. Diniy va ilmiy adabiyotlarda *Iso* qadimiy yahudiycha "*yeshu'a*" so'zidan olingan bo'lib, "Tangrining marhamati", "Xudoning madadi" ma'nosini anglatishi ta'kidlanadi [18. 145]. *Masih* \\ *Masiho* antroponimlari "G'iyos ul-lug'at"da keltirilishicha, u "do'st" va "ko'p sayr qiluvchi" ma'nosini bildiradi. Chunki u zot Haqnning do'sti bo'lgan va yolg'izligi uchun yer yuzini ko'p kezgan. Shu ikki ma'nosi bilan Iso alayhissalomning laqabiga aylangan va uning ismi bilan yoki alohida qo'llanadi [12. 260]. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida yozilishicha: "ul o'likkim, Iso alayhissalom tirguzdi, Inb ul-A'juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko'rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. Kayfiyatin so'rdi. Dedikim, o'g'lum erdi va firoqidin betoqatmen. Iso alayhissalom duo qilib, Tengri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o'luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg'ayki, burung'i holig'a borg'ay va mavt saqaroti bo'lmag'ay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo'ldi..." [3. 590-591]. U xalq talabiga ko'ra o'lganiga 4 ming yil bo'lgan Som ibn Nuhni ham tiriltiradi. Balchiqdan ko'rshapalak yasab, nafasi bilan unga jon ato etadi. Demak, Iso nafasi, Iso dami, Masih anfosi kabi iboralar shu bilan bog'liq. *Maryam* ismi mumtoz yodgorliklarda ko'p uchraydi: asosan, *Iso* bilan birga – *Isoyi Maryam* holida va alohida – *Maryam* tarzida qo'llanadi. *Maryam* qadimiy ibriycha "mariyam" so'zidan olingan bo'lib, "achchiq", "ortiqlik", "Tangrining sevimlisi", "pok" ma'nolariga ega [18. 40].

Ilmi hikmatda o'tub haddin kamoli donishing,

Yuz Falotun ajz ila olingda mulzam bo'ldi tut… – "sening aqliy kamoling ilmi hikmatda shunday yuksaldiki, hatto yuz Aflotun ham sening oldingda mulzam bo'ladi" mazmunidagi ushbu baytda qo'llangan *Falotun* antroponimi "Xamsa" dostonlarida ham shu shaklda kelib, lug'atda "er.av. 427-yil tug'ilib, 347-yilda vafot etgan grek faylasufi Aflotun; Suqrotning shogirdi" [2. IV. 301-302] tarzida izohlangan. "Ham Sharq mumtoz adabiyoti, ham Navoiy lirikasida *Aflotun* (*Filotun, Falotun*) dono va aqlli inson timsolida gavdalanadi [4. 1-j. 80].

Yer yuzining naqdi-yu ostida Qorun moli ham

Jam o'lub sarto qadam ganjingg'a munzam bo'ldi tut… – ushbu baytdagi *Qorun* – Muso payg'ambar zamonida yashagan shaxs, bu ism "Qur'oni karim"da 4 marta ("Qasas" – 76, 79; "Ankabut" – 39; "Mu'minun" – 24) tilga olingan [4. 2-j. 200]. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo"sida keltirilishicha, Bani Isroil qavmining donishmandlaridan hamda Muso alayhissalomning amakivachchasi bo'lgan, takabburligi va xasisligi bilan nom chiqargan shaxs [9. 216]. Aysu Ata izohicha, "Firavin'in naziri ve Musa peygamberin teyzesinin og'lu" [1. 791]. Mumtoz nazmda, xususan, Ogahiy g'azallarida ham bu poetonim "juda ham boy, ammo baxil podsho" timsoli sifatida "ganj, mol, maxzan" kabi ishora birliklari bilan qo'llanadi va metoforik nom yoki intertekstuallik vositasi sifatida ishtirok etadi.

Muddati umring ziyoda Xizr umridin bo'lub,

Har kuni bu umrining navro'z bayram bo'ldi tut… – Xorazm tutining uzoq umr ko'rishiga ishora qiluvchi ushbu baytdagi *Xizr (Xizir)* – islom dini kelishidan oldin o'tgan payg'ambarlardan biri, lekin "Qur'oni karim"da shu nomli payg'ambar nomi zikr etilmaydi. Tafsirlarda Muso payg'ambarga hamrohlik qilgan zot ("Qahf" surasining 59-81-oyatlari) nomiga bog'lab talqin qilinadi. Rabg'uziy talqinicha, *Xizr* "yashil" degan ma'noni anglatadi (asl ismi *al-Yasa'* bo'lib, qayerda o'tirsa, o'sha joydan maysa unib chiqar emish). Bu antroponim turkiy adabiyotda Ahmad Yassaviy asarlaridan boshlab uchraydi. "*Xizr* – zulmat qa'ridagi obi hayot – tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan payg'ambar sifatida ko'pgina xalqlar adabiyotida uchraydi. U odamlarni mushkul

ahvoldan qutqaradigan, ularga yordam beradigan, maqsadga olib boradigan to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi xaloskor siymosida tasvirlanadi, oshiqlar homiysi hisoblanadi [5. 33]. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida esa *Xizr* “odamlarga yaxshilik qiluvchi ezgu homiy, cho‘lda yoki dengizda adashganlarga yo‘l ko‘rsatuvchi g‘aroyib inson, ekinga mo‘l hosil baxsh etuvchi mo‘jizakor qudrat sohibi, baxt va davlat ato qiladigan ezgu pir, epik qahramonlarning doimiy hamrohi sifatida tasvirlanadi” [14. 21]. *Xizr* poetonimi Sharq she’riyatida “hamrohlik qiluvchi avliyo”, “yo‘l ko‘rsatuvchi”, “yashil”, “nasha, bang”, “ustoz”, “xaloskor payg‘ambar”, “mangulik va abadiylik timsoli”, “ilohiy ma’rifatdan bahramand kishi”, “piri komil” sifatida ko‘proq uchraydi. Ogahiyning yuqoridagi baytida “mangulik, abadiylik va uzoq umr timsoli” sifatida intertekstuallik (talmeh) kasb etgan va ushbu ishora orqali shoir o‘zi ko‘zda tutgan fikrni obrazli ifodalash imkonini topgan.

Majlising Firdavsi Rizvon-u maying Kavsar bo‘lub O‘zni onda to abad masruru xurram bo‘ldi tut… – ushbu baytda *Firdavs, Rizvon, Kavsar* topopoetonimlari tanosubning go‘zal namunasini yuzaga keltirgan. Jumladan, *Firdavs* lug‘atlarda “jannat, bog‘, ravza, sakkizinchi jannat nomi” [2. III. 345] tarzida izohlangan bo‘lsa, *Rizvon* – aslida jannatni qo‘riqlovchi farishta [4. 1-j. 453] bo‘lib, mumtoz adabiy manbalarda ushbu onoma, asosan, metonimik allyuziv nom sifatida Ravzayi Rizvon (Rizvon bog‘i) yoki Firdavsi Rizvonga, ya’ni jannatga ishora qilib keladi. *Ravzayi Rizvon* lug‘atda “sakkiz behishtning biri, rozilik va mamnuniyat jannati” tarzida izohlangan [2. II. 622].

Ushbu g‘azalda yana *Haq, Rab* teopoetonimlari ham ishtirok etganki, ularning izohlari Allohning go‘zal ism-u sifatlari bilan bog‘lanishi tabiiy [17. 323, 484].

4. Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Ogahiyning nafaqat birgina ushbu g‘azali, balki barcha badiiy, tarixiy va tarjima asarlaridagi atoqli otlarni zamonaviy ilmiy paradigmalar asosda sinchiklab o‘rganish lozim. Chunki bunday mumtoz asarlardagi nomlarni tekshirish va hozirgi onomastik tizim bilan qiyosiy o‘rganish orqali onomastikaning tarixiy nomshunoslik degan sohasiga asos solingan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aysu Ata. Kisasu’l enbiya. – Ankara, 1997.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II, III, IV томлар. – Тошкент, 1985.
3. Алишер Навоий. Мажодис ун-нафоис \\ Тўла асарлар тўплами, 8-жилд.
4. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-, 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.
5. Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
6. SaidovY. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro: Durdona, 2021.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I том. – Тошкент, 1983.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент, 1983.
9. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999.
10. Гафуров А. **Имя и история. – Москва: Наука, 1987.**
11. Ислом. Справочник. – Тошкент: Энциклопедия, 1989.
12. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилди 2. – Душатбе: Адиб, 1988.
13. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд: Девон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
14. Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
15. Рабғузий. **Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.**
16. Рабғузий. **Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991.**
17. У шундай Аллоҳки, ... Асмоул ҳусно. – Тошкент: Shoshnashr, 2024.
18. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:101.9

ZAMONAVIY BILIMLAR PARADIGMASIDA FAN ETIKASI

Usmonov Farrux Nasirdinovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi dotsenti

НАУЧНАЯ ЭТИКА В СОВРЕМЕННОЙ НАУЧНОЙ ПАРАДИГМЕ

Усманов Фаррух Насирдинович, доцент Самаркандского филиала Экономико-педагогического университета

SCIENTIFIC ETHICS IN THE MODERN SCIENCE PARADIGM

Usmanov Farrukh Nasirdinovich, Associate Professor, Samarkand Campus of the University of Economics and Pedagogy

https://orcid.org/0009-0004-9143-2155
e-mail: farno1929@gmail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilmiy faoliyatda axloqiy me'yorlar va prinsiplarga rioya qilishning ahamiyati, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar rivojlanishida etikani ta'minlashning dolzarbligi muhokama qilinadi. Bugungi kunda ilm-fan sohasida yuzaga kelgan yangi imkoniyatlar va muammolar ilmiy etikani yanada dolzarb qilmoqda. Maqolada zamonaviy ilmiy bilish tizimlarining metodologiyasi, axloqiy masalalari va fanlararo aloqalar nuqtayi nazaridan etik qadriyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda etik xatoliklar va ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy oqibatlari haqida ham batafsil to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *fan etikasi, zamonaviy bilimlar paradigmasi, ilmiy axloq, etik me'yorlar, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy metodologiya, fan va texnologiya, axloqiy masalalar, etik xatoliklar, fanlararo aloqalar.*

Abstract**:** *This article discusses the importance of adhering to ethical standards and principles in scientific activity, the relevance of ensuring ethics in scientific research and the development of technologies. New opportunities and problems that have arisen in science today make scientific ethics even more relevant. The article analyzes ethical values from the perspective of the methodology of modern scientific knowledge systems, ethical issues, and interdisciplinary relations. It also discusses in detail ethical errors in scientific research and the development of new technologies and their social, cultural, and economic consequences.*

Keywords: *ethics of science, paradigm of modern knowledge, scientific ethics, ethical standards, scientific research, scientific methodology, science and technology, ethical issues, ethical errors, interdisciplinary relations.*

Аннотация: *В статье рассматривается важность соблюдения этических норм и принципов в научной деятельности, а также актуальность обеспечения этических норм в научных исследованиях и технологических разработках. Сегодня новые возможности и вызовы в науке делают научную этику еще более актуальной. В статье анализируются этические ценности с точки зрения методологии, этической проблематики и междисциплинарных связей современных систем научного знания. В нем также подробно рассматриваются этические ошибки в научных исследованиях и разработке новых технологий, а также их социальные, культурные и экономические последствия.*

Ключевые слова: *этика науки, парадигма современного знания, научная этика, этические стандарты, научные исследования, научная методология, наука и технологии, этические проблемы, этические ошибки, междисциплинарные отношения.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Bugun dunyoda ilmiy faoliyat turlarining ortib borayotganligi ijtimoiy va madaniy mavqei, axloqiy mezonlar gumanitar tadqiqotlar markaziga aylanib bormoqda. Fanlar amaliy jihatdan transsendental yutuqlarning yangi bilimlarga optimal kombinatsiyasini talab qilib, olimlar tomonidan erishilgan natijalar samaradorligi ularga javobgarlikni yuklamoqda.

Axloqiy mezonlar va konsepsiyalarning olimlar oldiga javobgarlikni yuklashi K.Yaspers "vaqt o'qi" deb belgilagan hodisaga to'g'ri keladi. Yaspers insoniyat tarixiga murojaat qilib, falsafiy konsepsiyalar miloddan avvalgi 800-200 yillarda bir vaqtning o'zida sayyoramizning turli mintaqalari – Xitoy, Hindiston, Fors ko'rfazi, Falastin va Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu davrda dunyoni bilish va refleksiyaning mifologik idrok etilish bosqichi tugab, insoniyat aniq fikrlashga, tafakkur qilishga, falsafiy mushohadaga asos soldi. Yaspers borliqning ma'nosi haqidagi, ya'ni transendensiya haqidagi yakuniy savollar (auserste Fragen) turli xalqlar vakillarining ma'naviy birligi sifatida insoniyatning umumiy tarixi ("o'q") shu yerdan kelib chiqqanini anglab turib, bu davrni "vaqt o'qi" (Axenzeit) deb ataydi. Bunday masalalar bilan shug'ullanish xalqlar va madaniyatlar o'rtasida chinakam aloqani ta'minlaydi.

Mas'uliyat va birlikning yangi ko'rinishdagi etikasi insoniyat sivilizatsiyasining inqirozli rivojlanishi sharoitida duch keladigan muammolar to'plamiga tarixiy javobi sifatida shakllanmoqda. Yangi axloq sayyoramiz xalqlari tomonidan ming yillar davomida to'plangan va ularning madaniy an'analarida mavjud bo'lgan barcha ijobiy ma'naviy, ilmiy va amaliy salohiyatni sintez qiluvchi sodda hamda tushunarli prinsiplarni o'z ichiga olishi kerak.

Zamonaviy ilm-fan, uning barcha sohalarida, koinotning barcha elementlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi aniq ko'rinadigan bosqichga erishdi. Ilm-fanning asosiy kelishmovchiligini ham, an'anaviy diniy e'tiqodlarni ham dunyoqarash foydasiga ma'naviy o'lchovning so'zsiz mavjudligi bilan hal qilish vaqti keldi[1]. Biz ushbu omilni koinotning mavjudligining asosiy prinsipi sifatida anglashimiz kerak.

Bilishning ilmiy metodlari asosida ma'naviy birlik va o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini tushunishni o'rganish lozim. Ularning tushunmovchiligi va inson faoliyatida hisobga olinmasligi uning qadriyatlar tizimining buzilishiga va natijada umuman sivilizatsiya rivojlanishining o'z-o'zini yo'q qiladigan trayektoriyasiga olib keladi. Yangi axloqiy mezonlarning asosi, javobgarlik prinsipi va qonunlarni Inson, Jamiyat va Koinot o'rtasidagi munosabatlari majmuasini ularning mas'uliyatli birligida qurish uchun ustuvor yo'nalish sifatida tan olishi kerak[2].

Mas'uliyat va etika talablari bilan belgilanadigan insoniyat ongida yangi qadriyatlar tizimining o'rnatilishi inson faoliyati yo'nalishlarining o'zgarishiga va turli inqirozlardan qutulishga yo'l ko'rsatadi. XX asrda ushbu munozaraga hamroh bo'lgan ssiyentizm va antissiyentizmning qarama-qarshiligi, tomonlarning dalillari o'z pozitsiyalarining to'g'riligiga ishontirish va butun insoniyat manfaatlari uchun ilmiy faoliyatni modernizatsiya qilishning yangi bosqichiga kirishish maqsadiga erishmaganligini ko'rish mumkin. Antissiyentistlarning fikriga ko'ra, ilm-fanning inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi uni ruhsiz, hisoblab bo'lmaydigan yuqori ma'nolardan mahrum qiladi. Bu esa inson hissiyotlari va shaxslararo munosabatlarning haqiqiyligini hayotiy dunyosini yo'q qiladi[3]. Natijada, ishlab chiqarish sohasi tobora ortib borayotgan materialistik ehtiyojlarni doimiy ravishda qondirish zarurati bilan birlashadigan noaniq dunyo paydo bo'ladi. Insondagi insoniy ko'rinishlarning barcha xilma-xilligi faqat bitta texnokratik parametrga tushiriladi va inson zimmasiga tushuvchi doimiy jadallashtirilayotgan ilmiy-texnologik taraqqiyot, ortiqcha yuklanish va ortiqcha kuchlanish natijasida paydo bo'layotgan jamiyatning kasallik holati belgilarinigina emas, balki qisman, "professional kretinizm"ga (G.Markuze) chalingan "bir-o'lchovli shaxs"ni (K.Marks) shakllantiradi[4]. Olimlar, aksincha, fanda inson hayotining barcha sohalarining ratsional yadrosini ko'rishadi. Natijada shaxs va jamiyat hayoti uyushgan, boshqariladigan va muvaffaqiyatli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘lgan fan cheksiz bilim qobiliyatiga va atrofdagi dunyoning qoniqarsiz inson sharoitlarini o‘zgartirishda muhim salohiyatga ega[5]. Butun sayyora hamjamiyati uchun hayot sifati standartlarining umumiy o‘sishi shuni ko‘rsatadiki, fan insoniyatning sivilizatsiya rivojlanishining barcha dolzarb muammolarini hal qilishga qodir. Natijada, ssiyentizm-antissiyentizm dilemmasi madaniy va ijtimoiy tanlovning abadiy muammosi sifatida paydo bo‘ladi. Biroq, zamonaviy falsafiy fikr qutbli dunyoqarash pozitsiyalarini yengib o‘tishga intiladi va prinsip sifatida fan xususiyatlarining ikkilanishi tezisini ilgari suradi. Bir tomondan, fan olimlarning faoliyati natijasida ishlaydi. Shuning uchun bu faoliyat qonuniyatlarini tushunmay turib, fanning rivojlanish qonuniyatlarini to‘la anglab bo‘lmaydi. Ammo, boshqa tomondan, olimlarning o‘zi ham mutaxassislar sifatida fan, uning shartlari va talablari asosida shakllanadi. Shuning uchun, hech qanday sabab bilan, fanning ishlash qonunlarini tushunmasdan, olimlarning xatti-harakatlarini tushunish mumkin emas deb ta’kidlash mumkin[6]. Faoliyatning muayyan shakllari, ilm-fan odamlarining xatti-harakatlari fanning ijtimoiy institut sifatida ishlashining sharti va shu bilan birga uning natijasidir.

Shuning uchun fan ijtimoiy munosabatlar tizimida an’anaviylikning u yoki bu versiyasi doirasida tasdiqlangan alohida olimlar va ilmiy jamoalarning harakatlari to‘plami sifatida emas, balki ularning butun jamiyat manfaatlari yo‘lidagi o‘zaro ta’siri natijasida aniqlanadi. Aynan shu yondashuv ilmiy faoliyat falsafiy tushunchalarining asosini tashkil etdi. Fenomenologik konsepsiya muallifi E.Gusserl fanni o‘z sezgilaridagi ong sifatida talqin qiladi[7]. Ma’nolarga yagona kirish ataylab va intellektual sezgi ta’sirida tushunilgan turli xil tajribalarning o‘ziga xos invariantlari bilan kombinatsiyalarining birligi sifatida tashkil etilgan ongni tahlil qilish orqali ta’minlanadi. Ushbu yo‘ldan kelib chiqib, fan obyektiv voqyelikning ma’nosini kashf etadi. Faoliyati kundalik tajribadan kelib chiqqan va inson hayoti dunyosining xususiyatlari bilan belgilanadigan ong tomonidan qabul qilingan dunyoda “Universal induktivlik tubdan amalga oshirilishi mumkin”. Agarda bu inkor etilsa, unda ilmiy bayonotlarning imkoniyatlarini ham, ularning ishonchliligini asoslash usulini ham tushuntirish mumkin bo‘lmay qoladi.

Gusserl ideal obyektivlikni haqiqiy jismlarda tajriba yoki amaliy ishlab chiqarish orqali aniqlash mumkin bo‘lmaydi[8]. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat ma’naviy faoliyatni idealizatsiya qilish, voqyelikning makon-vaqt shakllarining barcha taxmin qilinadigan o‘zgarishlarida o‘zgarmas prinsipni ajratish orqali aniqlanadi. Ong faoliyati jarayonida topilgan obyektiv ideal barcha odamlar uchun shartsiz universallikka ega, subyektlararo ma’noda takrorlanadi[3]. Shunday qilib, ilmiy faoliyat haqiqatning ikkita asosiy darajasini birlamchi dalillar darajasi va ideal dalillar darajasi bilan bog‘laydi[9]. Aynan shu imkoniyatda fan inson hayoti dunyosiga kiritilgan. Inson hayoti dunyosi, ustuvorliklar dunyosi va ideal mavjudotlar dunyosi o‘rtasida doimiy bog‘liqlikning yo‘qligi, Gusserlning so‘zlariga ko‘ra, texnogen sivilizatsiya inqirozidir. Inson uchun xavfli bo‘lgan ilmiy faoliyatning o‘zi emas, balki inson fanning haqiqiy maqomini e’tiborsiz qoldiradi.

M.Xaydeggerning ontologik konsepsiyasi fanni subyektning subyektga va subyektning subyektga qarshi turishini talab qiladigan haqiqat nazariyasi sifatida talqin qiladi[4]. Ushbu qarama-qarshilik jarayonida usul ishlab chiqiladi. Unda asosiy e’tibor narsalarning qoidalar tartibida, umumiy sxemada o‘zini qanday tutishiga qaratiladi. Shuning uchun ilmiy faoliyat – bu mavjudlikka obyektiv qarama-qarshilik sxemasini qurish va o‘rnatish usuliga ko‘ra dunyoning rasmini tasvirlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqishdir.

Xaydeggerning fikriga ko‘ra, Antik davrda va O‘rta asrlarda ilm yo‘q edi, chunki odamlar borliqni barcha ochiqligi hamda nomuvofiqligida qabul qildilar va dunyoning ilmiy manzarasi shakllantira olmadi[10]. Zamonaviy davrda paydo bo‘lgan va zamonaviy dunyoda jiddiy kuchga aylangan fan qo‘pol va sodda tarzda harakat qildi. “Garchi fanlar o‘z yo‘llari bilan hech qachon fan mohiyatiga kira olmasa-da, har bir tadqiqotchi va o‘qituvchi, u yoki bu fan bilan shug‘ullanadigan har bir inson, fikrlovchi mavjudot sifatida turli tushunish va qo‘llab-quvvatlash darajalarida harakatlana oldi”.

XULOSA. Har qanday ilmiy faoliyatning natijasi talqin va tushunishga muhtoj bo‘lgan matnning bir turidir. Har qanday fan odamlar tomonidan va odamlar uchun yaratiladi, ya’ni tushunish ilmiy faoliyatning muqarrar lahzasidir.

Sharhlashning germenevtik salohiyatidan foydalanib, biz olimlar va olim bo‘lmaganlar o‘rtasida dialog o‘rnata olamiz. Buning natijasida ilm-fan ufqlari kengayadi, tanqidiy munosabat fanni tark etish uchun konstruktiv bo‘lmagan chaqiriqlarga, uning bilim da’volarini mutlaqlashtirishi ham mumkin bo‘ladi.

ADABIOTLAR RO‘YXATI:

1. Resnik, D.B. (2007). The Ethics of Science: An Introduction.
2. LaFollette, H. (2007). Science and Ethics.
3. Kuhn, T. (1962).The Structure of Scientific Revolutions.
4. Popper, K. (1972). Objective Knowledge: An Evolutionary Approach.
5. Gert, B. (2005). Morality: Its Nature and Justification.
6. Rizaev I. I. Evolutionary mechanisms of self-organization of the social system //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 9. – C. 81-
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
8. Саматов Х.У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы Узбекистана //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.
“O‘tub ko‘b oy-u yillar so‘rmading holi parishonim” deb boshlanuvchi murabba’ to‘qqiz banddan iborat bo‘lib, qofiyalanish qonun-qoidalariga qat’iy amal qilingan. Birinchi band to‘liq qofiyadosh (a, a, a, a). Qofiyadosh so‘zlarni tanlashda ham shoir tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Qofiya tarkibida qo‘llanilgan egalik qo‘shimchasi lirik qahramon bilan ma’shuqa o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy, ruhiy yaqinlik sezimlarini his qilish imkonini bergan:

O‘tub ko‘b oy-u yillar so‘rmading holi parishonim,

Itobing shiddatidin og‘zima yetmishdurur jonim.

Nedin bir demading yillarda, ey kamtar sanoxonim,

Chu Yusuf Misr izzat masnadida mohi Kan’onim [6.171].

Nazmning bu turida ham shoir ishq va oshiqlik mavzusiga to‘xtalar ekan, murabba’ning dastlabki bandida lirik qahramon ma’shuqaning bevafoligidan azob chekayotgan holati tasvirlanadi. Komil inson ruhiyatida bo‘lgan o‘zgarishlarni sodda va ravon tilda tasvirlashda o‘ziga xoslikka erisha olgan. Banddagi tasvirga e’tibor bersak, shoir har misraning o‘zida oshiq bilan ma’shuqaning holatini barobar ifodalab ketadi, ya’ni birinchi misrada oy-u yillar o‘tsa-da, xabar olmagan ma’shuqa va bundan parishon bo‘lgan oshiq; ikkinchi misrada shiddatli itob qilayotgan ma’shuqa va joni og‘ziga kelgan oshiq holatlarini parallel ravishda ifodalashi xuddi epik asarlardagi boshlanma (epilog) kabi davomi qanday bo‘ladi degan fikrni uyg‘otadi.

Keyingi baytda esa tasvir ma’shuqa husn-u tarovatiga qaratiladi. Shoir tasvirlayotgan yor jamoli oldida bahor kelib jahon gullari gulshanda jam bo‘lsa ham, ma’shuqaga tenglasha olmasligi ta’kidlanadi.

Shoir misralarni davom ettirar ekan, tansiq-us sifot, istiora, qaytarish san’ati bilan bog‘liq yorqin manzara, o‘ziga xos uslubda aks ettiriladi:

Qaddingdek yo‘q nihole, lablaringdek g‘unchayi xandon,

Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim [6.171].

Komil misralarda badiiy san’atlar qo‘llashda o‘ziga xos usuldan mahorat bilan foydalangan. She’rda qo‘llanilgan istioralar *g‘unchayi xandon, sarvi xiromon, gulbargi xandon* yorning qaddi va labini jozibali va aniqroq ifodalashga xizmat qilgan. Bir qarashda bu an’anaviy tashbeh va istioralar takrorlangandek tuyulsa ham, ikki misraga jam bo‘lgan bu o‘xshatishlar shoir ifodalayotgan fikrni ta’kidlash vazifasini bajargan.

Murabba’da birinchi band to‘liq qofiyalanib, keyingi bandlarining to‘rtinchi misralari esa birinchi band bilan qofiyadosh bo‘lishi talab qilinadi. Komil qofiyadosh so‘zlarni tanlashda va qo‘llashda ham yangilikka intilgan. Murabba’ning beshinchi bandigacha har bandning to‘rtinchi misrasida so‘zlar bir-biri bilan qofiyadosh bo‘libgina qolmay, shoir ifodalamoqchi bo‘lgan maqsadni ham aniq ochib berish vositasi bo‘lib kelgan. Sababi, beshinchi bandgacha to‘rtinchi misralarda kelgan so‘zlarga e’tiborni qaratamiz: *mohi Kan’onim, qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim, afandim, mehribonim, sevdigim, jonim, labi bu nuktadonim, donish iqlimida sultonim, mahi bayzojabinim* kabi so‘zlar tanlangan. Bu tanlangan istioralar esa beshinchi bandgacha ifodalanayotgan tasvirning mantiqiy izchilligiga mos tushgan. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, shoir shu bandgacha ma’shuqaning husn-u jamoli, oshiqning iztirobli holati kabi tasvirlarni bergan. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan istioralar esa bu tasvirlarga mos tanlangan. Keyingi bandlarda esa lirik qahramon ichki kechinmalari, ahvoloti, fe’l-atvori qalamga olingan. Qofiyadosh bo‘lib kelgan quyidagi *madori paykarim, nuri chashmim, adl-u hoqonim, valiyi ne’matim, pusht-u panohim, darda darmonim, shahi donish panohim, ilmi hikmat ichra Luqmonim* kabi so‘zlar yuqorida ta’kidlab o‘tilgan lirik qahramon holatlaridan kelib chiqib tanlangan.

Shoir oltinchi banddan boshlab tasvirni ijtimoiy, axloqiy qarashlari bilan davom ettiradi. Ma’lumki, Komil ijtimoiy, siyosiy jarayonlarda bo‘layotgan o‘zgarishlarning ishtirokchisi sifatida o‘z qarashlariga ega shaxs edi. Millat yuksalishiga

TAMADDUN NURI

g‘ov bo‘luvchi illatlarga qarshi kurashuvchi sifatida she’riyat maydoniga chiqdi. Bu maydonda u qancha jabr-u sitam ko‘rsa ham, adolat uchun kurashdi. Komil o‘z fe’lidagi bu jihat bilan jamiyatning ko‘zini ochmoqchi bo‘lgan shaxs sifatida e’tiborimizni tortadi:

Emastur odatim birovga rishva-u pora,

Agar tig‘i sitamdin qilsa ko‘ksumni yuz pora [6.172].

Tamagirlikni qoralayotgan shoir keyingi bandda unga qarama-qarshi tarzda qanoatni ulug‘laydi. Shu tariqa Komil yashagan muhitining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini odilona tasvirlaydi, tanqidiy manzaralar yaratadi.

Ovqat nomlarini keltirish orqali esa oddiy xalqning iqtisodiy turmush tarziga ham urg‘u berib o‘tadi. Qadim tarixga ega bo‘lgan go‘ja, yorma kabi ovqatlar hozirgi kungacha Xorazmning milliy taomi sifatida saqlanib qolgan.

Erurman qone’ o‘tsa ko‘ja, yorma birla avqotim,

Gar o‘lsam qilmog‘um izhor sendin g‘ayra hojatim [6.172].

Mumtoz lirikaning murabba’ janrida ijod qilgan shoir hayot, davr, zamon, tarixiy voqelik bilan bog‘liq manzaralarni jonli aks ettirishga harakat qildi. *“Falak bedodin maskan mango ko‘yi mazallatdur”* deb boshlanuvchi murabba’si ham realistik tamoyildagi she’riyatga kiritishimiz mumkin. Komil hayotida saroy muhiti bilan bog‘liq voqeliklarga nazar tashlasak, nohaqliklar qurboni bo‘lgani, uning ruhiy azoblanishiga, sabr kosasi to‘lishiga olib keldi. Ushbu murabba’ ham shoir hayotining achinarli sahifalarini yoritishi bilan qimmatlidir. Komil murabba’da shohga murojaat qilishi asnosida o‘z ijtimoiy noroziligini bildirib o‘tadi.

Siyosiy kurashlar natijasida ta’qibga uchragan shoir haqsizliklarga bardosh berishga urinadi. G‘am-u qayg‘u hujumidan ko‘ngul kosasi to‘lgan shoir esa bu kulfatlarga giriftor bo‘lishida falak bedodidan ko‘rgan haqoratlar ekanligini ta’kidlaydi:

Falak bedodin maskan manogo ko‘yi mazallatdur,

Bu maskan ichra yor-u hamnishinim ranj-u kulfatdur [6.172].

Komil hukmdorning marhamatini xurshidga, gulshandagi guli humroga, o‘zini esa bulbulga qiyoslaydi. Bu qiyoslar zamirida shoir o‘zini xonga, elga sidqidildan xizmat qilganligini, munosabatlarda doim yaqin ekanligini ifoda etadi. Shuning uchun ham Gul (hukmdor) etmas hech bulbul (shoir) suhbatidin or-u istig‘no deya munosabatlariga oydinlik kiritib o‘tadi.

Murabba’ning to‘rtinchi bandiga kelib endilikda nima sababdan xonning lutf-u karamidan judo bo‘lganligini afsuslanib so‘raydi:

Meni mahzuninga to bo‘ldi lutf-u iltifoting kam,

Boshimga shash jihatdin jam’ o‘lur dard-u balo-u g‘am [6.173].

Shoir falak bedodidan qancha kulfat ko‘rmasin, undan nafratlanmasin, o‘sha jamiyatning boshida turuvchi xondan iltifot kutib, unga quyidagicha murojaat qiladi.

Takallum qil desang, bir to‘tiyi shirin maqolingman,

Tarannum qil desang, bir bulbuli sho‘rida holingman,

Vafo bog‘ida o‘z ilging bila ekkan niholingman,

Shahim, rahm aylagil holimg‘a, hangomi muruvvatdur [6.173].

Komilning *“Falak bedodin maskan manga ko‘yi mazallatdur”* deb boshlanuvchi murabba’si shoir tarjimayi holini aniqlashtiradigan hujjatdir. Ma’lumki, Komil bilan Muhammadmurod o‘rtasidagi nizolar shaxsiy manfaat yo‘lidagi kurashlar emas, siyosiy tus olgan ikki guruh o‘rtasidagi jang edi. Komilga ruhiy azob berish yo‘lida Ibrohim kabi laganbardor shoirlar tilidan uning nomiga xos bo‘lmagan hajvlar yozdirdilar va she’rlarni ashula qilib ayttirishgacha borib yetdilar. Mana shu kinoyaviy hajvlardan ezilgan shoir qalbi butun vujudi suv bo‘lib oqqanligini mubolag‘ali yo‘sinda tasvirlab xondan bu kinoyatdin qutqarishini so‘nggi bandda shunday ifodalaydi:

Kinoyat so‘z eshitib har safih-u past fitratdin,

Vujudim suv bo‘lib oqti ko‘zimdin bu xijolatdin,

Boqib ko‘z uchidin Komilni qutqar bu kinoyatdin,

Shahim, rahm aylagil holimga, hangomi muruvvatdur [6.173].

XULOSA. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Komil murabba’lari son jihatdan oz bo‘lsa ham badiiyat jihatdan juda mukammaldir. U murabba’navislik an’anasini davom ettirish bilan birga, ham ishqiy mavzuda, ham ijtimoiy mavzuda

ijod qildi. Davrining yangi ijtimoiy ahvoli tasvirini ham murabba'ga kiritdi. Shoir bu janr takomiliga munosib hissa qo'shdi. Komil murabba'larida shohga murojaat qilsa ham, madhiyabozlik yo'lidan bormadi. Aksincha, o'z ahvolini bayon qilish bilan birga, zamonasining ijtimoiy muammolariga ham ishora qildi va elparvarligini namoyish etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. 2. Каримов Ғ. Комил Хоразмий /Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – Б. 227-256.

3. Ҳайитметов А. Муҳаммадниёз Комил / Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 65-96.

4. Айёмий (Юнус Юсупов). Комил Хоразмий / Ўт чақнаган сатрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 87-113.

5. Мажидий Р. Комил Хоразмий (Сўзбоши). "Танланган шеърлар". – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. – Б. 52.

6. Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.– Б. 224.

7. Komil Xorazmiy. Musammatlar. Nashrga tayyorlovchi Sh.Nuriddinov. Qarshi: ILM-FAN-MA'NAVIYAT nashriyoti, 2024.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:541.1

ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ СУЩНОСТИ АРГУМЕНТАЦИИ УСТНОЙ РЕЧИ

Бурибаева Азиза Исматиллаевна
Докторант Гулистанского государственного университета

APPROACHES TO STUDYING THE ESSENCE OF ORAL SPEECH ARGUMENTATION

Buribaeva Aziza Ismatillaevna
Doctoral student of Gulistan State University

OG‘ZAKI NUTQ ARGUMENTATSIYASINING MOHIYATINI O‘RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Buribayeva Aziza Ismatillayevna
Guliston davlat universiteti doktoranti

E-mail: **aziza@gmail.com**
https://orcid.org/0402-0224-0235-3544

Аннотация: *В данной работе рассматриваются различные подходы к исследованию сущности аргументации: когнитивный, эпистемологический, логико-структурный, дискурсивный, диалектический и прагма-диалектический. Анализируются их сильные и слабые стороны, а также взаимосвязь между ними. Работа основана на анализе научных трудов ведущих специалистов в области аргументации. Особое внимание уделяется роли аргументации в коммуникативных процессах и ее влиянию на формирование мнений.*

Ключевые слова: *Аргументация, когнитивный подход, эпистемологический подход, логико-структурный подход, дискурсивный подход, диалектический подход, прагма-диалектический подход, риторика, речевая деятельность, рассуждение, убеждение.*

Annotation: *This paper examines various approaches to the study of argumentation: cognitive, epistemological, logical-structural, discursive, dialectical, and pragma-dialectical. It analyzes their strengths and weaknesses, as well as the interrelationships between them. The work is based on an analysis of scholarly works by leading experts in the field of argumentation. Particular attention is paid to the role of argumentation in communicative processes and its influence on opinion formation.*

Key words: *Argumentation, cognitive approach, epistemological approach, logical-structural approach, discursive approach, dialectical approach, pragma-dialectical approach, rhetoric, speech activity, reasoning, persuasion.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada argumentatsiyani o‘rganishning turli yondashuvlariga-kognitiv, epistemologik, mantiqiy-tuzilmaviy, diskursiv, dialektik va pragmatik-dialektik yondashuvlar tahlil qilinadi. Ularning kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Maqola argumentatsiya sohasidagi yetakchi mutaxassislarning ilmiy asarlarini tahlil qilishga asoslangan. Aloqa jarayonlaridagi argumentatsiyaning roli va fikrlarni shakllantirishga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Argumentatsiya, kognitiv yondashuv, epistemologik yondashuv, mantiqiy-tuzilmaviy yondashuv, diskursiv yondashuv, dialektik yondashuv, pragmatik-dialektik yondashuv, ritorika, nutq faoliyati, fikr yuritish, ishontirish.*

Введение. Изучение аргументации – сложная задача, требующая учета различных теоретических подходов. Существующие модели анализа аргументации включают когнитивный, эпистемологический, логико-структурный, дискурсивный, диалектический и прагма-диалектический подходы. Каждый из них предлагает уникальную перспективу на природу

и функции аргументации. В данной работе мы рассмотрим эти подходы, выявим их сходства и различия. Анализ ряда научных работ [3]. Показал, что существует несколько подходов к обоснованию сущностных характеристик аргументации: когнитивный, эпистемологический, логико-структурный, дискурсивный, диалектический, прагма-диалектический.

С позиции когнитивного подхода аргументация изучается как процесс познания или развертывания мыслей, а в дискурсивном плане аргументация выступает как убеждение или воздействия на адресат с целью порождения знаний и мнений [3.38-39]. С позиции эпистемологии аргументация есть многообразный корпус знаний, мнений, ценностей и намерений. Еще Аристотель абстрактные сущности воспринимал как понятия, суждения и умозаключения, которые имеют эпистемологический характер. Поэтому когнитивный подход тесно переплетается с эпистемологическим подходом.

Е.Н. Лисанюк в своей работе рассуждает о сходствах между дискурсивным и диалектическим подходами в контексте установления объекта и предмета исследования аргументации как риторики речи. Здесь следует отметить, что риторика речи исследуется с позиции теории речевой деятельности, культуры речи, а также жанрового подхода. В. Кирилова, анализируя словарь лингвистических терминов, выявляет, что риторика, в нашем случае риторический подход, соотносится с теорией выразительной речи, теорией красноречия, ораторского искусства, что предполагает также овладение определенными навыками и умения искусного практического применения.

Как пишет Е.Н. Лисанюк: «Аргументация, трактуется ли она в когнитивном или в дискурсивном смысле, направлена на то, чтобы адресат сознательно формировал свое мнение, под влиянием убеждения в диалоге или посредством самостоятельных рассуждений».

Методология исследования. Выяснено, что диалектический подход предполагает изучениедействительности под углом общих законов развития природы, общества и мышления и всеобщих связей между явлениями. Следовательно, аргументация должна исследоваться как мыслительный процесс, т.е. когниция, которая переплетается с логико-философским обоснованием. В переводе с греческого philo - любовь, а sophos - мудрость. В словаре “Merriam Webster Collegiate Dictionary” мудрость толкуется как “accumulated philosophic scientificlearning, todiscernin nerqualitie sandrela tionships, goodsense, generalac ceptedbelief, awiseattitudeorcourseo faction”- «накопленные философские и научные знания, способность различать внутренние качества и взаимосвязи, обладать здравым смыслом, общепринятая вера, мудрая позиция или образ действий». А в словаре Ожегова слово «мудрый» обозначает человека, обладающим большим умом, основанного на знании, опыте. Таким образом, аргументация должна рассматривается как цельное сложное явление для выявления логико-структурных связей в формулировании мысли с позиции рациональности и здравого смысла (мудрая позиция и образ действий в ходе рассуждения). А сама рациональность и здравый смысл, отраженный в речевом акте в соответствии с заданным контекстом, относится не только к категории логики, но и прагматики. По словам Е.А. Барановой, аргументация охватывает 1) логический аспект как процедура нахождения и предъявления опоры для утверждения и довода (тезис), 2) коммуникативный аспект как «процесс передачи, истолкования и внушения реципиенту информации, зафиксированной в тезисе аргументатора». Поэтому в качестве компонентов рассуждения с позиции логики и прагматики принято выделять убеждение, обоснование, опровержение, описание, приведение доводов, выступающие как речевые акты и коммуникативные стратегии.

Согласно Л.А.Бекназарян, в лингвистическом плане аргументация рассматривается с позиции теории речевых актов, а с позиции теории речевых актов не возможно описать функциональную значимость аргументации и лингвистические способы достижения коммуникативного цели в контексте формулирования аргументации (2010, с.49). В виду этого, в исследовании речевых актов, включая и аргументацию широко себя зарекомендовал прагмалингвистический подход. Теперь перейдем к описанию самой сущности прагма-диалектического подхода к аргументации, который, в первую очередь,

рассматривается в рамках теоретической модели критического анализа Ван Имерен и Грутендорст, в частности: 1)диалектической перспективы «критически-рационалистического идеала разумности» и 2) коммуникативной перспективы, основанной на теории речевых актов и дискурс-анализе. Ученые обосновывают двусторонний характер их модели тем, что 1) аргументация является сложным типом речевого акта и отличается от характеристик прототипического речевого акта Серля, поскольку речевой акт аргументации может состоят из не менее двух предложений и представляться как в явной, так и в скрытой формах; 2) аргументированное высказывание несет всегда двойную иллокутивную силу, изолированно они представляют собой утверждение, а вместе - это уже форма аргументации: речевой акт аргументации не может существовать изолировано, обычно он формулируются в связке с другими речевыми актами и несет уже функцию защиты, довода, объяснения, обоснования своей точки зрения. В подтверждение приведем пример на английском языке, где отражается утверждение и вывод (вердикт): You have a lot of errors in constructing your speech. You are not good at your English.

Таким образом, в соответствии этой модели дифференциальные признаки аргументации можно проследить на уровне предложения как составной речевой акт утверждения и ее иллокутивной силы на текстуальном уровне как совокупность способов аргументации. Сложность структуры аргументации можно наблюдать и на примере организации взаимодействия по соглашению. По мнению Джекобса и Джексона в процессе взаимодействия с этой позиции могут возникнуть несколько структур, выполняющие функцию управления соглашением, регулирования способами оформления и привлечения других событий. Для наглядности и доказательности приведем следующий пример:
A: Wearegoingtothepark.B: Don't we have a lesson?A: Yeah, but our teacher is ill.
B: And they won't be looking for us. May be I warn someone. A: It is OK, I will waiting for you here.

В данном примере можно проследить последовательность процедуры акта соглашения с привлечением других речевых актов: вопрос в виде утверждения или планирования действия; констатация факта в виде вопроса о том, что должен быть урок и отсутствия учителя; аргументация причины и необходимости оповещения других и соглашение. В процессуальном плане акта соглашения, как правило, наблюдается наличие смежных пар, например, вопрос–ответ, просьба – принятие /отказ, а речевые действия, которые исходят из рациональности предложения/просьбы и, соответственно ему принятия-непринятия соглашения или решения проблемы.

Заключение. Представляет собой интерес также статья Хенкеменса об анализе аргументации на основе работы Лотт ванПоппеля, где исследуется в этом плане брошюры о здоровье. Нет сомнения, что в подобных брошюрах даются советы или предложения по сохранению или улучшению здоровья, поэтому там наглядно демонстрируется определенный набор речевых актов аргументативного типа, такие как убеждение, совет, наставление, предложение/ рекомендация с целеполаганием на достижение результата, в данном случае-здоровья. Следовательно, в ракурсе прагматики аргументация становиться средством демонстрации подготовительных условий для выполнения совета/рекомендации в достижении положительного результата. Помимо этого, ценные для нас идеи звучат о прямой соотнесенности взаимозависимости условий Серля, максим кооперации Grice и аргументации, в частности, быть точным, честным, эффективным и аргументированным.

Список литературы

1.Belyaev B.V. - Cross out the psychology of teaching foreign languages. Ed. 2nd - M.: Education, 1965.- 228 p.

2. Buribayeva Aziza. (2022). Formation of basic oral speech skills in English (on the example of 8-9 classes of secondary school). *Conference Zone*, 172–173. Retrieved from http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/485

3.Van Eemeren and Grootendorst 1984, 1989, 2004; Jacobs & Jackson 1982, 1989; SnoeckHenkemans 2014; Лисанюк 2016 идр.

4. EemerenandGrootendorst 1984, 2004; Баранова 2000; Бекназарян 2010; Полетаев 2012.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:796(094)

O‘ZBEK ZIYOLI FAYLASUFLARINING ASARLARIDA “AVESTO” HAQIDAGI QARASHLAR

Nuriddinova Gulshoda O‘lmasqulovna
SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti dekan o‘rinbosari

ВЗГЛЯДЫ НА «АВЕСТУ» В ТВОРЧЕСТВЕ ФИЛОСОФОВ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛОВ УЗБЕКИСТАНА

Нуриддинова Гулшода Улмаскуловна
Заместитель декана факультета делового администрирования и естественных наук Ургутского филиала СамГУ

VIEWS ON THE "AVESTO" IN THE WORKS OF UZBEKISTAN INTELLECTUAL PHILOSOPHERS

Nuriddinova Gulshoda Olmaskulovna
Deputy Dean of the Faculty of Business Administration and Natural Sciences, Urgut Branch of SamSU

gulshoda@gmail.com
https://orcid.org/2044-2005-4105-4200

Annotasiya: *Ushbu maqola o‘zbek ziyoli faylasuflarining asarlarida qadriyatlarimizning sharqona mezonlari haqida olib borilgan tahlillarni yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada “Avesto”ning axloqiy ta'limoti, undagi ijtimoiy adolat, ezgulik va yomonlikka qarshi kurash tushunchalari o‘zbek ziyolilarining asarlarida qanday aks etgani tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qadriyatlarning milliy ong va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sharqona qadriyatlar, O‘zbekiston falsafiy tafakkur taraqqiyoti, sharq falsafasi, “Avesto”, qadriyatlar mezoni, ma’naviy meros, zardushtiylik, “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyili*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу восточных критериев наших ценностей в трудах узбекских философов-интеллектуалов. В статье анализируется, как нравственное учение «Авесты», концепции социальной справедливости, добра и борьбы со злом отражаются в произведениях узбекской интеллигенции. Также рассматривается влияние этих ценностей на развитие национального сознания и общества.*

Ключевые слова: *восточные ценности, развитие философской мысли Узбекистана, восточная философия, «Авеста», критерии ценностей, духовное наследие, зороастризм, принцип «Добрые мысли, добрые слова и добрые дела».*

Annotation: *This article is devoted to the analysis of the oriental criteria of our values in the works of Uzbek intellectual philosophers. The article analyzes how the moral teachings of "Avesta", the concepts of social justice, goodness and the fight against evil are reflected in the works of Uzbek intellectuals. Also, the impact of these values on the development of national consciousness and society is considered.*

Key words: *Eastern values, development of philosophical thought in Uzbekistan, Eastern philosophy, “Avesta”, criteria of values, spiritual heritage, Zoroastrianism, the principle of “Good thoughts, good words and good deeds”.*

TAMADDUN NURI

Kirish. O‘zbekistonning falsafiy tafakkur taraqqiyotida o‘ziga xos qadriyatlar mezoni mavjud bo‘lib, ular har xil sohalarda aks etib kelgan. Bular falsafiy tafakkur taraqqiyotining asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos qadriyatlar mezoniga tayanadi. Bu mezonlar nafaqat tarixiy, balki ma’naviy meros, milliy an’analar, diniy va madaniy qadriyatlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. O‘zbek falsafasi Sharq falsafasining ajralmas qismi bo‘lib, u qadimgi sharq mutafakkirlarining asarlari, xususan, "Avesto", Zardushtiylik, Islom falsafasi, tasavvuf va boshqa manbalardan oziqlangan: “U dastlab, ko‘hna davrlarda “Avesto”da o‘z talqinini topgan hayotiy g‘oyada mujassam edi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ayni shu orzu “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o‘rin olishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa ezgulik va insonparvarlikni himoyalash xalqimiz mentaliteti va ma’naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi” [1].

Adabiyotlar tahlili. Qadimgi Turonzamin va Eronzamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyotining mohiyatini o‘zida mujassam etgan, zardushtiylik dinining zaminida vujudga kelgan muqaddas manba “Avesto”ni qadriyatlarimizning yirik namunasi sifatida ko‘rib o‘tamiz. Taxminan bundan 40 - 30 asr muqaddam oldin zardushtiylik dining vatani sifatida ko‘proq e’tirof etilayotgan Qadimgi Xorazmda va u yerda yaratilgan nodir manba “Avesto” haqiqiy qadriyat silsilasi hisoblanadi. Bu manba ham qadriyat sifatida ham har bir davrning kerakli nodir namunasi sifatida hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Masalan, axloqiy an’analari, falsafiy qarashlari va tibbiyot ko‘rsatmalari shular jumlasidandir.

Muhokama va tahlillar. Xususan, axloqiy tafakkurning namunasi bo‘lgan, insonlarni hayotini to‘g‘ri yo‘nalishga boshlaydi, yomon illatlardan saqlanishni da’vat etadi va tarbiyaviy ahamiyatga ega maslahatlarga quloq solish tavsiya etiladi. Unda zardushtiylik ilohi Ahuramazda – ezgulik, Ahriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va mamot o‘rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etadi. Ibtido mohiyatida “ezgu fikr”, “ezgu so‘z” va “ezgu amal” axloqiy – falsafiy g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, bu so‘zlarning ma’nosi shuki, insonlarga niyatning kuchi amaldagi mohiyati bog‘liqligini eslatib o‘tadi. Va ezgu tushunchalar hayotimizda real ma’no kasb etib, insoniylashgan qiyofadagi ma’budlar siymosida namoyon bo‘ladi, ular Ahuramazda atrofida yaxshilik urug‘ini sepib yuradi. Bunday tushunchalarning aksi esa Ahriman atrofidagi yovuz kuchlarda reallashadi.

Quyida faylasuf olim Abdulla Sherning “Axloqshunoslik” [2] nomli darsligida “Avesto”ning axloqiy-falsaviy qadriyatlarga ta’rif va izohlar berib o‘tganligini yozib o‘tamiz. “Insoniylashgan qiyofadagi ma’budalar Yovuz fikr tajassumi Apa Mana, so‘lish va o‘lim timsoli Tuarvi hamda Zarik ismli devlarni sanab o‘tib, zardushtiylik dinini ma’lum ma’noda axloqiy e’tiqod, uning muqaddas kitobi “Avesto”ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tamoyillar va ko‘rsatmalar majmui” [4] - deb, sanab o‘tgan. Buni ushbu din payg‘omchisi Zardushtning“Avesto”dagi “Ashi alqovi”dan joy olgan quyidagi so‘zlarida yaqqol ko‘rish mumkin: “Quvonsin Ahura-Mazda – “Eng loyiq Haqning irodasi ro‘yobga chiqib”, Ahriman daf bo‘lsin. Ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu ishlarni alqayman. O‘zimni butkul ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amallarga baxshida etaman, barcha qabih o‘y, yomonso‘z va yomon ishlardan tiyaman. Yukunchim, maqtovim, ezgu fikrim, ezgu so‘z, (savobli) ezgu ishlarim “tanamdagi jonim” bilan birga sidqi dildan Sizlarga (baxshida) bo‘lsin, ey o‘lim bilmas Valiylar. Haqni sharaflab (deyman): “Haqiqat – Oliy ne'mat. Bu ne'matdan ul kishi bahramandkim, savob unga bo‘lgay, kim agar haq yo‘lida savob (ishdan) qolmasa, savob ishdan qolmasa, savob ishdan qolmasa” [3]. “Avesto” – zardushtiylik dinining asosiy muqaddas matni bo‘lib, u qadimgi Eron va Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalgan edi. Avesto mazmunida axloqiy va ma’naviy qadriyatlar, hayot falsafasi, diniy tamoyillar o‘z aksini topganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Avesto nafaqat diniy, balki madaniy va axloqiy qadriyatlar mezonlarni o‘z ichiga olgan qadimiy kitoblardan. Unda yer va suvni muqaddas sanash, tabiatni asrash, insonning axloqiy pokligi va

zardushtiylik dinining asosiy tamoyillari sifatida bayon etilgan.

XIX asrning yirik faylasuf olimlaridan biri boʻlgan Tilab Mahmudovning “Avesto” haqida nomli risolasida “Avesto”da umri davomida ezgulik, yaxshilik, poklik va tozalik tamoyillari bilan ish koʻrgan odam oʻlganidan soʻng uning ruhi rohat farogʻatda boʻlishi, gunohkor, fosiq kishiniki esa aksincha, azob-uqubat hamda xunuklik komiga mahkum etilishi aytiladi. Solih odam oʻlgach, ruhining joni uch kun uning boshida zavq-shavq, rohat-farogʻat ogʻushida turadi, keyin xushboʻy oʻsimliklar yuziga qalqib chiqadi. Uni ajib bir shabada, muattar nasim qarshilaydi. Shabada qoʻynida oʻn besh yashar, barcha goʻzalliklardan ham goʻzal qiz namoyon boʻladi. Bu goʻzal qiz ezgulik va poklik, savob ishlarning timsoli. U ruhga qarata: “Muloyim edim, yanada muloyimroq qilding, chiroyli edim, yanada goʻzal qilding, balandda edim, ezgu oʻy, ezgu soʻz va ezgu a’mol bilan meni yanada balandga koʻtarding», deydi. Gunohkor, yovuz odamning ruhi esa vujud ustida uch kun qolib, tengsiz azoblarni boshdan kechiradi. Uch kundan soʻng u oʻzi yaratgan barcha yovuzliklar ustida parvoz qiladi. Soʻng tirikligida hech qachon uchratmagan barcha xunukliklardan ham xunukroq, badbashara qizni uchratadi. «Ey qora yurak, zahar tilli, munofiq gunohkor, – deydi qiz, – men qiz emasman, sening tiriklik paytingda qilgan a’mollaringman. Sen tirikligingda Xudoga e’tiqod qoʻyganlarni koʻra-bila turib, devlarga sigʻingansan. Yaqin-uzoqdan kelgan musofirlarga boshpana berganingda, mehnat ildirganingda, xayr-sadaqa ulashganingda, ularni kamsitgansan, yaxshi odamlarni haqorat qilgansan, ularning yuziga eshigingni yopib qoʻygansan. Men - sen oʻylagan yomon oʻy, sen aytgan yomon soʻz, sen qilgan yomon a’mollaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar orimni yoʻqotdim, jirkanch edim, yanada jirkanchli boʻldim,sharmanda edim, battarroq sharmisor boʻldim” [5] deya diniy qadriyatlar zamirida singdirilgan gʻoyalar insonlarni ezgulik, insoniylik,va har xil yomon illatlardan forigʻ tarzda yashga undab keladi.

Shuningdek bu yerdagi qarashlar orqali ruh va vujud muammosi ifoda topganini ilgʻab olish mumkin, ammo “Avesto”da keltirilgan jon-ruh tushunchasi ilohiylashtirilgan nazariya emas, aksincha ma’lum bir ma’nodagi “dunyoviy” mazmunga ega boʻlgan va oʻz egasi bilan muloqot qiluvchi vijdon sifatida namoyon boʻlgan insoniy qadriyat hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Avesto”da inson oliy mavjudot tarzida talqin etilgan va ayni paytda yer-u koʻkdagi barcha ne’matlarni sevish, ardoqlash insonning muqaddas burchi sanalgan. Insonning eng oliy xislatlari boʻlgan ozodalik, tozalik, gigiyenik tushunchadan axloqiy va ilohiy tushuncha darajasiga koʻtarilgan: suvni, atrof - muhitni toza tutish, jonivorlarga, xususan, itga uchi oʻtkir suyak yoki qaynoq ovqat bermaslik - ularga nisbatan shafqatni anglatadi; inson shafqatli boʻlishi kerak. Bularning hammasi “Avesto”dagi ekologik, axloqshunoslik qadriyatlar hisoblanib, dastlabki inson manfaatlarga xizmat qiluvchi, avlodlarga meros boʻlgan an’analar, urf – odatlarning ilk kurtaklari ekanligidan dalolat beruvchi gʻoyalardir.

XX asrning yana bir taniqli faylasuf olimi Jondor Tulenev qadriyatlarimizning qadimgi namunasi sifatida zardushtiylik dinining muqaddas manbasi “Avesto” haqida bir qator ma’lumotlar keltirib oʻtgan. Uning “Qadriyatlar falsafasi” nomli asarida “Avesto”da oʻtmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bogʻliq afsona va rivoyatlar, Oʻrta Osiyo, Eron va Ozarboyjonning tarixi, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy hayoti, geografiyasi, tabiati, naboboti va ilm – fani oʻz aksini topgan. Unda qadimgi Turon oʻlkasi va Eronning oʻziga xos iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, yer tuzilishi, sahrolari, togʻlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilganligini yozib oʻtgan [6].

Shu jumladan, H.Homidovning “Avesto fayzlari” nomli asarida qadriyatlarimizning tadrijiy davomi boʻlgan ta’lim-axloqiy qarashlar, ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalari ham kengroq izohlab oʻtgan. Ushbu kitobda ilgari surilgan biz uchun muhim boʻlgan bir necha qarashlar e’tiborga molikdir. Xususan, muallif “Avesto”ni qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy-falsafiy va ma’rifiy fikrlar yodgorligi sifatida oʻtmish tariximiz, madaniy va ma’naviy qadriyatlarimizni oʻrganishda asosiy manba boʻlib xizmat qilib kelayotganligini alohida ta’kidlab oʻtgan. H.Homidov talqini boʻyicha, “Avesto” bugungi kunda ham yoshlar uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, sababi ushbu

kitobda har qanday axloqsizlik va g‘ayritabiiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi kabi masalalar uqtiriladi. Shuningdek, odamlarni iymonli, e’tiqodli bo‘lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so‘zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojo‘yaishlardan yuz o‘girishga da’vat etadigan axloqiy qoidalar, o‘gitlarni hoyatda ko‘pligi ham e’tiborga molikdir.

Xalqimiz tarixi va ma’naviyatining ilk merosi “Avesto” kitobining «Yasht» («Alqov»lar) naskini taniqli olim, qadimiy tariximizning manbashunos mutaxassisi Mirsodiq Ishoqov tarjima qilgan. Muallif “Avesto”ning Yasht naski badiiy jihatdan boshqa nasklardan keskin ajrab turishini va ularning mifologik asoslari juda qadimiy ekanligini yozadi. Qadriyatlarimizning qadimgi mezoni bo‘lgan Yashtlar bobida ibtidoiy tasavvurlardan boshlab bronza asrining murakkab ijtimoiy munosabatlarigacha ulkan tarixiy jarayonning obrazli roviy hikoyasi, ba’zan ramziy ishoratlarda aks etgan tarixiy modeli kabi jarayonlarini bayon etgan.Ularda ijtimoiy – falsafiy tafakkur taraqqiyotida hayot voqeliklari o‘ziga xosko‘tarinki ruxda aks ettirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin badiiy vositalar jihatdan Yashtlarning asotiriy tafakkur doirasiga yaqinligi doimo sezilib turadi. Varaxran Yasht o‘ziga xos qahramonlik, el-yurt himoyachisi sha’niga aytilgan harbiy mazmunga moyil alqovdir. Unda eng qudratli, eng kuchli Yazat sifatida Varaxran olqishlanadi. Qolgan Yashtlar haqida ham o‘z o‘rnida kerakli izohlar berib o‘tilgan. Bu o‘rinda esa bir xulosa muhimdir, u ham bo‘lsa, buyuk qadriyatimiz Yashtlarning uzoq o‘tmish, ilk davlatchilik jarayonining ijtimoiy-ma’naviy hayotini aks ettirgan yozma tarixiy manba ekanidir.

Xulosa. Xullas, “Avesto” yuqorida aytganimizdek, ajdodlarimizning axloqiy, tarbiyaviy qadriyatlar majmuasi bo‘lib, qadimiy urf-odatlarimizning o‘ziga xos, abadiyatga daxldor majmui sifatida qimmatlidir. Avestoning keyingi faoliyat taraqqiyoti o‘zbek ziyoli faylasuflarining asarlarida tadqiq etilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu davr ziyolilari ma’naviy qadriyatlarni saqlash, ularga hurmat bilan yondashish va ularni yangi avlodga yetkazish maqsadida Sharq madaniyati, axloqiy me’yorlari va diniy tamoyillariga katta e’tibor qaratganlar. “Avesto” esa, ular uchun bu qadriyatlarning o‘zagi va ilohiy ilhom manbasi bo‘lib xizmat qilgan.

Ziyolilar “Avesto”ni o‘zbek xalqining madaniy va ma’naviy merosi sifatida qadrlashgan va uning mazmuni orqali insonparvarlik, adolat, poklik va ma’rifatparvarlik kabi tamoyillarni keng targ‘ib etishga intilganlar. Bugungi Yangi O‘zbekistonning falsafiy tafakkur taraqqiyotida o‘zbek faylasuflarining “Avesto”ni nafaqat diniy manba sifatida, balki insoniy qadriyatlarning universal bir timsoli sifatida ham tahlil qilganliklari kelgusi avlod uchun vorisiylikning davomidir. Ularning asarlarida “Avesto”ga bo‘lgan hurmat va uni o‘rganish orqali milliy o‘zlik va madaniy merosni tiklashga bo‘lgan intilish yosh avlodni qadriyatlarga bo‘lgan ishtiyoqi “Avesto”ning yangi tadqiqot qirralarini ochishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘zbek falsafiy tafakkuri taraqqiyotida qadriyatlar mezoni sifatida faylasuflar tamonidan “Avesto”ning tadqiq qilinishi zamonamiz uchun qadriyatlarni mustahkamlashda asosiy manba hisoblanadi. Darhaqiqat, bugungi avlodning orzusi yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Yangi O‘zbekiston orzusi ham, jahondagi milliy taraqqiyot g‘oyalarini o‘zida jamlangan boshqa favqulodda hodisalar kabi, asrlar davomida shakllanib va sayqallanib kelmoqda” [1], – deya o‘tmishdan kelajakka qarab yangicha kuch va qudrat ega bo‘lishga da’vat etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021

2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik: Oliy ta ’lim m uassasalarining bakalavriat ta ’lim yo‘nalishlari uchun darslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. T.: 2010

3.Avesto. Yashtkitobi. M. Isxoqov tarjimasi. T., Sharq, 2001

4. Jondor Tulenov. Qadriyatlar falsafasi. “O‘zbekiston” nashriyoti, T.: 1998

5. Mahmudov T. «Avesto» haqida. T., Sharq, 2000

6. Homidov H. “Avesto” fayzlari. Xalq merosi nashriyoti. T.: 2001.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94 (575.1): 342.56

SAMARQANDNING MILLIY KIYIMLARINING MANBASHUNOSLIK ASOSIDA O‘RGANILISH TARIXI

Sidikova Mastura Xakberdiyevna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, (PhD), dotsent

НАЦИОНАЛЬНЫЕ КОСТЮМЫ САМАРКАНДА ИСТОРИЯ ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Сидикова Мастура Хакбердиевна
Международный университет туризма и культурного наследия «Шелковый путь», (кандидат наук), доцент

THE HISTORY OF THE STUDY OF THE NATIONAL CLOTHES OF SAMARKAND ON THE BASIS OF SOURCE SCIENCES

Sidikova Mastura Khakberdievna
“Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage, (PhD), Associate Professor

mastura@gmail.com
https://orcid.org/2042-2055-4208-424x

Annotasiya: *Samarqandning milliy kiyim-kechaklari tarixini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan ushbu maqolada manbashunoslik metodlarini qo‘llagan holda, tarixiy manbalar, miniaturalar, adabiy asarlar va arxeologik topilmalar asosida keng tahlil olib boriladi. O‘rganilayotgan davrlar – XVI-XVII asrlar bo‘lib, Samarqanddagi kiyim-kechaklar nafaqat ijtimoiy va madaniy jihatdan, balki san’at va estetika nuqtai nazaridan ham tahlil qilinadi. Maqolada miniatura san’ati, o‘sha davr kiyim-kechaklarini aks ettirishda asosiy manba sifatida ko‘rsatilgan va ularning ishonchliligi, shartli usullari haqida muhim fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand milliy kiyim-kechaklari, tarixiy manbalar, miniaturalar, Temur va temuriylar davri, Buyuk Ipak yo‘li, manbashunoslik, madaniy meros, etnik tarix.*

Annotatsiya: *В данной статье, посвященной историческому анализу национальной одежды Самарканда, с использованием методологии источниковедения проводится подробное исследование исторических источников, миниатюр, литературных произведений и археологических находок. Рассматриваемые периоды - XVI-XVII века - в которых одежда Самарканда анализируется не только с точки зрения социально-культурного контекста, но и с эстетической и художественной точки зрения. Миниатюрное искусство рассматривается как основной источник для изображения одежды того времени, при этом обсуждаются вопросы достоверности и условности таких изображений.*

Ключевые слова: *Национальная одежда Самарканда, исторические источники, миниатюры, эпоха Темура и Тимуридов, Великий шелковый путь, источниковедение, культурное наследие, этническая история.*

Annotation: *This article, dedicated to the historical analysis of Samarkand's national clothing, conducts a thorough study based on source criticism methodology, examining historical sources, miniatures, literary works, and archaeological findings. The periods under study - the 16th and 17th centuries - analyze Samarkand's clothing not only from a socio-cultural perspective but also from an aesthetic and artistic viewpoint. Miniature art is highlighted as the primary source for depicting clothing from this period, with discussions on the reliability and conventions of these depictions.*

Key words: *Samarkand national clothing, historical sources, miniatures, Temur and Timurid period, the Silk Road, source criticism, cultural heritage, ethnic history.*

TAMADDUN NURI

Kirish. Samarqand, O‘zbekistonning eng qadimiy va madaniyatga boy shaharlaridan biri bo‘lib, o‘zining tarixi, san’ati, arxitekturasi va an’anaviy madaniyati bilan tanilgan. Samarqandning milliy kiyimlari ham shaharning boy tarixiy merosi, xalqlarning o‘zaro aloqalari va ularning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Samarqandning milliy kiyimlari uning qadimiy tarixidan ildiz otgan. Shahar o‘zining geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyati tufayli turli madaniyatlar va xalqlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan. Samarqandning joylashuvi Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida, sharq va g‘arbni bog‘lab turar edi. Bu esa, turli xalq va madaniyatlar, jumladan, arablar, forslar, turklar va mo‘g‘ullar kabi ko‘plab xalqlarning ta’sirini o‘zida mujassam etgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek milliy kiyimlari, jumladan Samarqandda tarqalgan kiyimlar, qadimiy Turon xalqlarining an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Samarqandning qadimiy kiyimlari o‘zining o‘ziga xos shakllari, ranglari va naqshlari bilan ajralib turardi. Bunday kiyimlar asosan tabiiy materiallardan, jumladan, jun, ipak, paxta va jun matolaridan tayyorlanardi: “Milliy kiyim - moddiy madaniyatning ko‘rinishlaridan biridir. Unda etnik tarix, ijtimoiy munosabatlar va ba’zi mafkuralarning (diniy, estetik me’yorlar) ildiz otgan an’analari aks etadi. Shuning uchun milliy kiyimni xalqning etnik tarixini va uning madaniyatini boshqa xalqlar bilan bog‘laydigan manbalar sifatida ko‘rib chiqish kerak. Solishtirma ma’lumotlar asosida qadimiy kiyim shakllarini aniqlash, ularning dastlabki va keyingi shakllarini, tarixiy davrlardagi o‘zgarishlarni o‘rganish juda muhimdir. Faqat kiyim shakllari va ularning rivojlanishini o‘rganish orqali biz xalqning etnik tarixini kiyim bilan bog‘lay olamiz” [1].

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, XV asrda Temuriylar davridagi madaniy va ilmiy taraqqiyotning rivojlangan davri hisoblanadi, shu davrda Temur imperiyasi tarkibiga kirgan davlatlar orasidagi integratsiya turli badiiy maktablar rivojiga xizmat qilgan.XV asrda ko‘plab sobiq davlatlarning Temur imperiyasi tarkibiga kirishi turli badiiy maktablarning o‘zaro boyishiga imkon yaratgani ma’lum. Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda Samarqand, Hirot, Sheroz va Tabriz muhim madaniy markazlarga aylangan. Hirot Shohruh hukmronligi davrida, ya’ni XV asrning ikkinchi yarmida, katta ahamiyat kasb eta boshladi va Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506) davrida yirik madaniy va ilmiy markazga aylandi. Bu yerda Movarounnahr va Eronning barcha hududlaridan mashhur olimlar, san’atkorlar, jumladan, miniatyura rassomlari yig‘ila boshlagan. Xususan, bu haqida tadqiqotchi N.Bobojonova o‘z dissertasiyasida shunday ta’kidlab o‘tadi, “XV asrda ko‘plab sobiq davlatlarning Temur imperiyasi tarkibiga kirishi turli badiiy maktablarning o‘zaro boyishiga imkon yaratgani ma’lum. Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda Samarqand, Hirot, Sheroz va Tabriz muhim madaniy markazlarga aylangan. Hirot Shahruh hukmronligi davrida, ya’ni XV asrning ikkinchi yarmida, katta ahamiyat kasb eta boshlab Sulton Husayn Boyqaro davrida yirik madaniy va ilmiy markazga aylandi. Bu yerda Movarounnahr va Eronning barcha hududlaridan mashhur olimlar, san’atkorlar, jumladan, miniatyura rassomlari yig‘ila boshlagan” [2].

Shuningdek, Temuriylar davrida Samarqand poytaxt sifatida ajralib turib, madaniy markazning asosi bo‘lgan. Bu davrda madaniy merosning badiiy ko‘rinishi bo‘lgan milliy kiyimlar o‘zining turli shakllari va nafis naqshlari bilan e’tiborni tortgan. Kiyim-kechaklarning asosiy turlariga erkaklar va ayollar uchun mo‘ljallangan liboslar kirgan. Erkaklar kiyimlari amaliy va o‘ziga xos bo‘lib, odatda uzun va yengil liboslar, shuningdek, pichan va kallasimon bosh kiyimlaridan iborat edi. Ayollar kiyimlari esa to‘liq uzunlikda bo‘lib, ularning naqshlari murakkabligi va rang-barangligi bilan ajralib turgan. Samarqandda kiyim tikishda ishlatilgan matolar yuqori sifatli ipak, paxta va jun kabi materiallardan tayyorlangan. Ularning ranglari va naqshlari o‘ziga xos shakllarda yaratilgan bo‘lib, bu kiyimlarga o‘sha davr san’atining betakror go‘zalligini aks ettirgan.

Nemis olimi X.Gotsning ta’kidlashicha, XV asrning birinchi yarmida Sharqdagi modaning asosiy markazlari Samarqand, Buxoro bo‘lib, keyinchalik bu holat Hirotga ko‘chgan. XVI asrga kelib esa, Eron, Usmonli Turkiyasi va Hindiston Samarqand, Hirot kiyimlari uslublarining kuchli ta’sirida bo‘lib, ushbu uslublarni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda rivojlantirgan [3], deb bejizga aytmagan. XVI–XVII asrlardagi samarqandliklarning an’anaviy kiyimlarini “Shohnoma” (1556-yil), Durbekning “Yusuf va Zulayho” (1615-yil), Sa’diyning “Bo‘ston” (1616-

yil) kabi qo‘lyozma asarlarining miniatyuralari orqali ko‘rgazmali tarzda o‘rganish mumkin. Shuningdek, bu davr kiyim-kechaklari haqida “Badoyi’ al-voqeot”, “Boburnoma”, Samarqandlik Husayn Xorazmiy tomonidan yozilgan vaqf hujjatlari va Rui Gonsales de Klavixoning xotiralari kabi yozma manbalar matnlarida ham ma’lumot berilgan.

Samarqand milliy kiyimlar tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar O‘rta Osiyo xalqlarining material madaniyati, ayniqsa XVI asrga oid ilmiy ishlanmalarda o‘z aksini topgan. Ushbu sohada o‘zbek tadqiqotchisi R.G.Muxminovaning asarlari ahamiyatga ega bo‘lib, ularning asosida Samarqandning o‘ziga xos kiyim-kechak madaniyati va hunarmandchiligi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Xususan, yozma manbalarda keltirilgan hunarmandchilik va kiyim-kechak buyumlari nomlari Samarqanddagi kiyimlar tarixini o‘rganishga katta imkoniyat yaratdi[4].

Shuningdek, O‘rta asr Samarqand matolarining kiyimda ishlatilishi haqida batafsil ma’lumotlarni M.F.Ibrohimov to‘plagan. Samarqand kiyimlari tarixini o‘rganishda miniaturali rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. G.A.Pugachenkova va M.Gorelik tomonidan XV-XVII asrlar Xorazm va Mavaronnahr miniaturalarini chuqur tahlil qilish orqali Samarqandning an’anaviy kiyimlari va ularning kesimlari haqida tizimli tasvirlar shakllantirilgan. Ushbu tadqiqotlar, shuningdek, M.M.Ashrafi va Z.I.Raximovaning ishlari bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular miniaturalar orqali Samarqand kiyimlarining evrilishini va an’anaviy tikuvchilik san’ati shakllanishining turli jihatlarini kuzatishga imkon berdi.

Samarqanddagi XV asrga oid maqbaralar, masalan, Ishratxona, Go‘r-Amir va Shohi-Zinda kabi yodgorliklar o‘z ichida o‘sha davr kiyim kesimlari haqida qimmatli ma’lumotlarni saqlaydi. Bu kiyim kesimlari va ularning o‘ziga xosligi Samarqand milliy kiyimlari tarixini o‘rganishda muhim manbalar bo‘lib xizmat qilmoqda. Samarqandda saqlanib qolgan kiyim predmetlari, xususan, XIV-XV asrlarga oid kiyimlar, V.A.Shishkin, V.N.Kononov va N.M.Nemtsova tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular noyoblik va tarixiy ahamiyatga ega. Shunday qilib, Samarqand milliy kiyimlar tarixi faqatgina qadimiy kiyim kesimlari va materiallar haqida emas, balki an’anaviy kiyimning rivojlanishi, tikuvchilik san’ati va madaniy merosining shakllanishi haqida ham to‘liq tasavvur beradi.

O.A.Sukharevning etnografik tadqiqotlarida ham O‘rta Osiyo xalqlarining an’anaviy kiyim-kechaklariga xos bo‘lgan muhim xususiyatlar chuqur tahlil etilgan. U, shuningdek, Buxoro va Samarqand kabi qadimiy shaharlar hududidagi hunarmandchilik faoliyatini, ayniqsa, tikuvchilar mehnat tashkilotining strukturasi va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Biroq, ushbu olim tomonidan to‘plangan va ilmiy doirada e’lon qilingan ma’lumotlar asosan Samarqand shahri sivilizatsiyasining eng yirik tarixiy va madaniy markazlarini tahlil qilib, shu mintaqalarga xos xususiyatlarni aks ettiradi [5].

Miniaturaning manba sifatidagi ishonchliligini baholash, Mavorounnahr tasvirlarida kiyim-kechaklarni muhim masala ekanligi tahlil qilingan. Sharq rassomlari adabiy yoki tarixiy asarlarni tasvirlayotganda, makon, rang va inson tasvirini shartli usullarda ifodalashgan. Bu usullar miniaturaning kitob san’ati sifatidagi funksiyasidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘rta asr Sharq jamiyatining g‘oyaviy va estetik me’yorlariga mos kelgan. Shuningdek, epik va adabiy qahramonlar asarlarda o‘zining adabiy xususiyatlariga muvofiq tasvirlangan bo‘lsa-da, rassomlar ularni o‘z davrining axloqiy va estetik tushunchalariga qarab tuzatishgani haqida ma’lumot berilgan [6]. Shu sababli, tarixiy voqealar miniaturada, ko‘pincha, o‘z zamonidagi voqealar sifatida ko‘rsatilgan, va tarixiy shaxslar o‘z davrining kiyimlari bilan tasvirlangan. Arxitektura va turmush buyumlarini tasvirlashda rassomlar o‘zlarining atrofdagi hayotdan ilhomlangan va ularning to‘g‘ri aks ettirilishi arxeologik va etnografik ma’lumotlar, shuningdek, vizual taqqoslashlar orqali tasdiqlangan. Bu esa miniaturaning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqotchi N.Tursunov yozma manbalarga asoslanib, o‘sha davrda Samarqand, Buxoro va Xo‘jandda kiyim-kechak ishlab chiqarish (tsomaduzī) sezilarli darajada rivojlangan va yuqori darajada ixtisoslashganligini ta’kidlagan. Masalan, to‘quv ko‘ylaklarni tikish jarayoni ma’lum ishlarni bajaradigan uyda ishlovchi tikuvchilarga bo‘lingan: abra yuqorisini, astar ichkari qismini, bandak [7] tikuvini, chaspak to‘qilgan kamarlarini va kiyimni bezashni tayyorlash. Barcha ishlar kiyim savdosining boshqaruvchisi bo‘lgan kiyim sotuvchi (tsomafurush) rahbarligida bajarilgan[8].

XV-XVII asrlarda samarqandliklarning kiyim-kechaklarining o‘ziga xos xususiyatlari bir necha bor o‘zgarishga uchradi, ammo ularning asosiy shakllari va tikish usullari o‘zgarishsiz qolgan. Shunday qilib, XVIII asrda samarqandliklarning kiyim-kechagi tikish usuli XV-XVII asrlardagi an’anaviy usullarning davomi sifatida kuzatildi, deb aytish mumkin. Afsuski, o‘sha davrning asl kiyim namunalaridan juda oz miqdori saqlanib qolgan. Kiyim-kechak, uning tikish usuli va kiyish uslubi haqidagi batafsil ma’lumotlar XV-XVIII asr miniatyuralarida berilgan. Ushbu davrda erkaklar va ayollar kiyimida asosiy o‘rinni tunikaga o‘xshash tikish usuli egallagan. Tikish usulining xilma-xilligi, kesish va bezak tafsilotlarini o‘zgartirish orqali ta’minlangan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida, Samarqandning milliy kiyimlari tarixining o‘rganilishida turli manbalar, jumladan, miniaturalar, adabiy asarlar, arxeologik va etnografik ma’lumotlar orqali o‘sha davr madaniyatini, ijtimoiy tuzumini va estetik idealini aks ettirishga qaratilgan ilmiy yondoshuvlar asosida ko‘rib chiqildi. Xususan, miniaturalar va qo‘lyozmalarda tasvirlangan kiyim-kechaklar, ularning shartli tasvirlanishi va o‘sha davrning axloqiy va estetik me’yorlari haqida chuqur tarixiy ma’lumot beradi. Shuningdek, ushbu o‘rganishlar manbashunoslik metodologiyasidan foydalanishga yordam berib, Samarqandning o‘rta asr kiyim-kechaklarini yanada aniqroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Bu tadqiqot, Samarqandning milliy kiyimlarini o‘rganish jarayonida tarixiy va madaniy jihatlarni o‘zida mujassamlashtirib, ular orqali o‘sha davrning ijtimoiy hayoti va estetik qarashlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, Samarqandning kiyim-kechaklari haqidagi ilmiy izlanishlarga yangi yondoshuvlar va nuqtai nazarlarni taklif qiladi. Maqola o‘z o‘rnida Samarqandning o‘rta asr madaniyatiga oid muhim ma’lumotlarni taqdim etadi va ushbu sohada kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ашрафи М.М. Бехзад и развитие бухарской школы миниатюры XVI в. – Душанбе.: 1997
2. Бободжанова Н. И.История развития портновского дела таджиков в XV - первой половине XX ВВ. Душанбе.: 2019
3. Горелик М.В. Среднеазиатский мужской костюм на миниатюрах XV-XIX вв. // Костюм народов Средней Азии.- М.: Наука, 1979.- С. 49-70
4. Goets H. The Historyof Persiancostume
6. Рахимова З.И. Народная одежда на миниатюрах Мовароуннахра XVI-XVII вв. // Эстетические закономерности и конкретные особенности историко-художественного процесса. - Ташкент, 1984
7. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца X К - начала XX в. Ремесленная промышленность. - Ташкент: АН УзССР, 1962
8. Шишкин В. А. Гур-Эмир // Научные труды ТашГУ. - Вып. 232. Историч. Науки. - Кн. 48. - Ташкент, 1964

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 174.4

FAROBIY VA IBN SINO MA'NAVIY MEROSIDA FOZIL JAMIYAT QURISH TARIXINI O'RGANISH

Boboqulova Xurshida Erkinovna
SamDChTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti

STUDYING THE HISTORY OF BUILDING A GOOD SOCIETY IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF FAROBI AND IBN SINO

Bobokulova Khurshida Erkinovna
Associate Professor of the Department of "Humanities and Information Technologies" of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ПОСТРОЕНИЯ ХОРОШЕГО ОБЩЕСТВА ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ ФАРАБИ И ИБН СИНО

Бобокулова Хуршида Эркиновна
Доцент кафедры «Гуманитарных наук и информационных технологий» Самаркандского государственного института иностранных языков

xurshidabobokulova@gmail.com
https://orcid.org/0234-0223-0305-0622

Annotatsiya: *Mazkur maqola buyuk mutafakkirlar Farobiy va Ibn Sinoning ma'naviy merosini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ularning fozil jamiyat haqidagi qarashlarini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganadi. Farobiy o'zining "Fozil insonlar shahri" asarida adolat, ilm va axloqning uyg'unligi orqali tartibli jamiyat barpo etish tamoyillarini yuksak falsafiy tahlil bilan bayon etadi. Ibn Sino esa ta'lim va tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlab, fozil jamiyatni shakllantirishda axloq va ilmiy yuksalishning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Maqolada ushbu mutafakkirlarning qarashlari o'rta asrlar musulmon sharqining ijtimoiy-falsafiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni, ilm va axloqning fozil jamiyat qurilishidagi ahamiyati, shuningdek, ularning g'oyalari keyingi davr falsafiy merosiga ta'sir qilganligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Farobiy, Ibn Sino, fozil jamiyat, ma'naviy meros, axloq, ilm, ta'lim, tarbiya, fuqarolik jamiyati, tarixiy manba.*

Annotation: *This article is dedicated to analyzing the spiritual heritage of the great thinkers Farabi and Ibn Sina, exploring their views on the virtuous society from a historical perspective. In his work The Virtuous City, Farabi provides a profound philosophical analysis of the principles of establishing an orderly society based on justice, knowledge, and morality. Ibn Sina emphasizes the importance of education and upbringing, highlighting their decisive role in shaping a virtuous society through moral and intellectual advancement. The article examines the significance of these thinkers' views in the development of social-philosophical thought in the medieval Muslim East, the role of knowledge and morality in building a virtuous society, and the influence of their ideas on subsequent philosophical heritage.*

Key words: *Farabi, Ibn Sina, virtuous society, spiritual heritage, morality, knowledge, education, upbringing, civil society, historical sources.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу духовного наследия великих мыслителей аль-Фараби и Ибн Сины, исследуя их взгляды на добродетельное общество с исторической точки зрения. В своем труде "Город добродетельных людей" аль-Фараби предлагает глубокий философский анализ принципов построения упорядоченного общества, основанного на справедливости, знании и*

нравственности. Ибн Сина подчеркивает важность образования и воспитания, акцентируя их решающую роль в формировании добродетельного общества через моральное и интеллектуальное совершенствование. В статье рассматривается значение взглядов этих мыслителей для развития социально-философской мысли средневекового мусульманского Востока, роль знания и нравственности в построении добродетельного общества, а также влияние их идей на последующее философское наследие.

Ключевые слова: *аль-Фараби, Ибн Сина, добродетельное общество, духовное наследие, нравственность, знание, образование, воспитание, гражданское общество, исторический источник.*

Kirish. Fuqarolik jamiyatining qurish tarixiy davomiyligida bir qator murakkab jarayonlarni boshdan kechirdi. Bu murakkab jarayonlarni bosib o‘tgan jamiyat tarixini yangi bosqichga o‘tish davrida ya’ni fozil jamiyat qurish yo‘lida Sharq uyg‘onish davri mutaffakirlarining nazariy g‘oyalari, izlanishlari jamiyatga tadbiq etildi. Shu sababli O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati qurishning tarixiy yo‘lida milly merosimizning o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlar yanada kuchaytirildi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi tamonida qurilgan jamiyat o‘z davrida boshqa mamlakatlar tajribasidan andoza sifatida ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olnmay, balki, bir necha ming yillik milliy meros va tarixiy tajribalarimizdan oziqlanadi.

Shu o‘rinda, Farobiyning “Fozil insonlar shahri” nomli asari orqali O‘zbekiston tarixida fuqarolik jamiyati tarixini azaliy orzularini, istaklarini amalga oshirishda bugungi kelajak avlod uchun muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qilayotganini ahamiyatga molikdir. Pirovardida, “Fozil insonlar shahri” asarning tarixiy jihatlariga ham e’tibor qaratish muhimdir. Ushbu asar o‘z davridagi ijtimoiy va siyosiy muhitni yoritib, davlat va jamiyat tuzilishini falsafiy asosda tahlil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ham u tarixiy tajriba va ta’limot sifatida qadrlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy kontekstda Farobiy X asrda yashagan va Islom olamida aql-idrokka asoslangan falsafani rivojlantirgan buyuk alloma hisoblanadi. O‘sha davrda Abbosiylar davlati va boshqa musulmon davlatlarida ilm-fan rivojlangan bo‘lib, falsafa, adabiyot va san’at gullab-yashnagan edi. Bunday muhitda Farobiyning asari yozilgan bo‘lib, u davlat va jamiyatni barpo etish jarayonida axloq va ma’naviyatning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib berdi [1]. Forobiy o‘z dunyoqarashida Aristotel asarlaridang‘oyaviy oziq olib, uning ilg‘or ta’limotini ilmning yangi yutuqlari asosida rivojlantirgan progressiv ijtimoiy-falsafiy oqimning eng yirik vakili bo‘lib tanildi. U bu sohada o‘zidan oldin o‘tgan ilg‘or mutafakkirlar ishini davom ettirdi, yuqori bosqichga ko‘tardi [2]. Lekin yunon faylasuflarining asarlari va ta’limotlari, jumladan, Aristotel ta’limoti ham bu davrga (ya’ni VIII - IX asrlarda arab tilidagi Sharq falsafiy ta’limotlarining shakllanish davriga) buzilgan va chalkashtirilgan holda yetib kelgan edi [3]. Sharq falsafasi va yunon falsafasining sinteziga asos solgan Farobiy qadimgi yunon faylasuflari, xususan, Aristotel va Aflotun asarlarini chuqur o‘rganib, ularni islomiy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirgan. “Fozil insonlar shahri” asarida Aristotelnning “Siyosat” asaridagi qarashlariga mos o‘xshashliklar mavjud. Bu esa Sharq falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan va O‘rta asr musulmon mamlakatlarida ijtimoiy hayotni tashkil etish uchun manba sifatida xizmat qilgan.

Xususan, ushbu asarda davlat va jamiyat tushunchasi haqida quydagi fikrlar bayon qilingan, “bir necha qishloqdan iborat jamiyat – bu to‘liq yakunlangan davlatdir, u, aytish mumkinki, o‘z-o‘zini ta’minlash holatiga to‘liq erishgan va hayot ehtiyojlari uchun vujudga kelgan bo‘lsa-da, baxtli hayotni amalga oshirish uchun mavjuddir. Bundan kelib chiqadiki, har qanday davlat tabiiy yo‘l bilan vujudga kelgan mahsulotdir, xuddi asosiy jamiyatlar singari: davlat ulardan rivojlanib keladi va bu rivojlanishning yakunida tabiati namoyon bo‘ladi. Chunki biz har qanday narsa – masalan, odamning tabiati, ot yoki oilaning tabiati – haqida gapirganda, uning rivojlanish jarayoni tugaganidagi holatini tabiati deb ataymiz. Bundan tashqari, yakuniy maqsadning amalga oshishi – bu eng yuksak yakun, va o‘z-o‘zini ta’minlash – ham yakun, ham eng oliy mavjudlikdir” [4].

Xuddi shuningdek, Al-Farobiyning "Fozil insonlar shahri" asari Islom olamining eng mashhur falsafiy va tarixiy manbasi hisoblanadi. Ushbu asar falsafiy va ijtimoiy-fikriy tafakkurga katta ta’sir ko‘rsatib, o‘sha davrdan boshlab ko‘plab olimlar va mutafakkirlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. Asar

o‘zining davlat va jamiyat haqidagi qarashlari bilan boyitilgan bo‘lib, u falsafiy dunyoqarashining markaziy qismi hisoblanadi. Bu orqali davlatni insonlar uchun baxt va mukammal hayotga erishish vositasi deb biladi. Farobiyning fikriga ko‘ra, davlatning asosiy maqsadi – jamiyat a’zolarining fozil hayotga, ya’ni baxt va mukammal fazilatlarga erishishini ta’minlashdir. Fozil davlat rahbariyati faqat moddiy ne’matlarni ta’minlash bilan cheklanmaydi, balki axloqiy va intellektual mukammallikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi [5].

Farobiyning “Fozil insonlar shahri” asarida jamoa va davlat birligi masalasi tarixiy jihatdan Yaqin Sharq va O‘rta asr islom madaniyatining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazarini aks ettiradi. Islom sivilizatsiyasida davlat tuzilmasi va jamoatchilik hayoti o‘zaro yordamga asoslangan edi. Bu g‘oya Qur’on va Hadis ta’limotlari orqali rivojlantirilgan bo‘lib, musulmonlar jamiyatining barcha a’zolari o‘z o‘rnini egallashga va vazifalarini bajarishga mas’ul hisoblangan. Farobiy ushbu diniy an’analarni falsafiy tarzda kengaytirib, jamoa va davlat birligini mukammallikka erishishning garovi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, davlatning har bir a’zosi o‘z ijtimoiy vazifasini bajarsa, jamiyatda tartib va adolat qaror topadi. Bu qarashlar X asrda Abbosiylar xalifaligi davridagi boshqaruv tizimiga mos kelib, xalifalik ichida jamoatchilik mas’uliyati, tartib va iqtisodiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etgan. Farobiy bu davrda jamoa va davlatni yagona maqsad yo‘lida birlashgan struktura sifatida ko‘rsatib, ularning uyg‘unligini saodat sari yo‘l deb bilgan [7].

Shuningdek, buyuk alloma Ibn Sino tarixiy manbalarda Farobiyning ta’sirida shakllangan falsafiy qarashlarni o‘z asarlarida davom ettirib, davlat va fuqarolik jamiyati qurilishiga oid g‘oyalarni yanada rivojlantirgani qayd etiladi. U “Fozil insonlar shahri”dagi axloqiy va siyosiy qarashlardan ilhomlanib, tarixiy ahamiyatga molik tarzda o‘zining boy merosini yozib qoldirgan. Mutafakkir Ibn Sinoning “Tadbiri manozil” asarida inson tabiatining axloqiy jihatdan neytral ekanligi haqidagi fikrlar o‘sha davrning ilmiy va axloqiy qarashlari bilan uyg‘unlashadi. U insonni tug‘ma sifatlar yoki tayyor fazilatlar bilan dunyoga kelmaydi, deb ta’kidlab, axloqiy shakllanishni jamiyat va shaxsning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ko‘radi. Inson o‘zining shaxsiy tajribasi, yaqinlarining hayotiy tajribalari, o‘tgan avlodlarning an’analari hamda ta’lim va tarbiya orqali shakllanadi. Bu jarayon o‘rta asr musulmon sharqida keng tarqalgan dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lib, insoniy takomillashuvni qiyosiy va evolyutsion jarayon sifatida talqin qiladi [9]. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, ta’lim va tarbiya orqali inson maqtovga loyiq fazilatlarni orttirishi yoki aksincha, salbiy odatlarning qurboniga aylanishi mumkin. Bunda ijobiy odatlarni shakllantirish qanchalik qiyin bo‘lsa, shakllangan yomon sifatlardan voz kechish shunchalik murakkab bo‘lishini ta’kidlaydi. Ushbu nuqtai nazar axloqiy odatlarning kuchi va ular qonun darajasida ahamiyat kasb etishi bilan asoslanadi. Biroq, Ibn Sino salbiy odatlardan qutulish jarayonidagi inersiya holatini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Bu, uningcha, axloqiy takomillashuvni chegaralovchi omil bo‘lsa-da, ta’lim-tarbiya jarayonining cheksiz imkoniyatlarini inkor etmaydi.

Mutafakkir yosh bolalarni juda erta tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Bu o‘rinda Qur’oni Karimni o‘qishdan, diniy bilimlarni egallashdan va grammatika qoidalarini o‘rganishdan boshlashni taklif qiladi. Ushbu yondashuv o‘rta asr islom dunyosining ta’lim-tarbiya an’analari bilan mos keladi va axloqiy-madaniy rivojlanishning zaruriy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ibn Sino jamiyatdagi notenglikni tahlil qilar ekan, uni ijtimoiy hayotning tabiiy holati sifatida talqin qiladi. U barcha jamiyat a’zolarini bir xil darajada qashshoq yoki hukmron qilib qo‘yishning mumkin emasligini ta’kidlaydi. Bunday holat ijtimoiy falokatga olib kelishi mumkinligini aytadi. Bundan tashqari, u xizmatkorlar mehnatidan foydalanishni jamiyatning normal holati deb hisoblaydi. Bu fikrlar o‘sha davrning ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiy munosabatlariga mos keladi, chunki mehnatning bo‘linishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida qaralgan.

Ibn Sinoning ratsional fikrlari o‘rta asr tarixida arabzabon ijtimoiy-falsafiy an’analar kontekstida shakllangan bo‘lib, uning ilm va axloqiylik haqidagi qarashlari jamiyatning gnoseologik va axloqiy dunyoqarashini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mutafakkirning ilm va axloq birligi haqidagi konsepsiyasi ilmni faqat ashyolarning mohiyatini anglashga qaratilgan maqsad sifatida ko‘rmaydi. Aksincha, ilmni inson va jamiyatning axloqiy yuksalishi jarayonidagi asosiy vosita sifatida talqin etadi. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, fozil jamiyatda ilm faqat bilim olish vositasi

emas, balki axloqiy fazilat darajasiga ko‘tariladi. Ilmning qadr-qimmati jamiyatdagi axloqiy me’yorlar va tamoyillar bilan mustahkamlanadi. Bu yondashuv mutafakkir yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari bilan bevosita bog‘liq edi. O‘sha davr jamiyatida ilmiy taraqqiyot ko‘proq diniy va falsafiy maqsadlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, axloqiy komillik va aqlning yuksalishini ta’minlashga xizmat qilgan. Ibn Sino ideal fozil jamiyatni ilm va axloqning o‘zaro uyg‘unlashgan shakli sifatida tasavvur qilgan. Unga ko‘ra, ilm jamiyatni axloqiy jihatdan takomillashtiruvchi asosiy omil bo‘lib, fozil jamiyatni barpo etishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv, mutafakkirning davri jamiyat idealidan qanchalik yiroq bo‘lmasin, ilm va axloqni birlashtirish orqali inson va jamiyat axloqiy-aqliy komillikning real modelini yaratishga qaratilgan edi. Biroq, bu qarashlar o‘sha davr gnoseologik va axloqiy paradigmalari doirasida qolib, prinsipial jihatdan yangi muammolarni ilgari surish imkoniyatini bermagan. Ibn Sinoning ilm va axloqiylik masalasidagi yondashuvi, o‘z navbatida, o‘rta asrlar tarixida musulmon sharqida ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, keyingi davr mutafakkirlarining asarlarida davom ettirilgan.

O‘rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Farobiy va Ibn Sino o‘z davrlarining ilmiy-falsafiy merosida fozil fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Ularning asarlari insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, davlat va jamiyatning axloqiy asoslari, ilm va ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida chuqur fikr-mulohazalarni o‘zida mujassam etgan.

Farobiy o‘zining mashhur “Fozil insonlar shahri” asarida fozil jamiyatning tamoyillarini yuksak ilm va axloqiy fazilatlar birligida ko‘rsatgan. U fozil jamiyatni insonlarning bir maqsad yo‘lida birlashishi natijasida yuzaga keladigan tartibli va adolatli tuzum sifatida talqin etgan. Farobiyga ko‘ra, bunday jamiyatni boshqaruvchi hukmdor fazilatli va bilimdon bo‘lishi, insonlarni adolatga, baxt-saodatga yetaklashni maqsad qilishi lozim edi. Jamiyatning barcha qatlamlari o‘z o‘rnida bo‘lib, har kim o‘z vazifasini ado etgan taqdirda, fozil jamiyat barpo etilishi mumkin. Ibn Sino esa o‘zining axloqiy va gnoseologik qarashlari bilan bu konsepsiyani yanada boyitdi. U ta’lim va axloqning jamiyat hayotidagi ahamiyatini alohida ta’kidladi. Ibn Sino ilmni insonning axloqiy yuksalishi yo‘lidagi asosiy vosita deb bilgan. Uning fikriga ko‘ra, jamiyatning haqiqiy taraqqiyoti ilm va axloq uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shaxsni bolalikdan tarbiyalash, unga ilm va axloq asoslarini singdirish orqali jamiyatning fozil a’zolarini yetishtirish mumkin. Ibn Sino bu qarashlarini qator asarlarida asoslab bergan.

Xulosa. Farobiy va Ibn Sinoning fozil fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari, ularning o‘z davridagi ijtimoiy-falsafiy muhitni yuksaltirish yo‘lida ko‘rsatgan sa’y-harakatlari o‘rta asr sharq madaniyatining yuksak cho‘qqisidir. Ular fozil jamiyatni faqat ilm-fan, axloq va adolat asosida tasavvur etgan va bu orqali insoniyatga taraqqiyotning yuksak namunalarini ko‘rsatgan. Bu qarashlar nafaqat o‘sha davr musulmon sharqida, balki keyingi asrlarda ham jamiyat va davlat qurilishi masalalarida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016
2. Аристотель. Политика. Электронный ресурс.
3. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия, ч. 2, С П б., 1900, стр. 78.
4. Бартольд В. В. Культура мусулманства, 1918, стр. 42.
5. Ibn Sino va "Tadbir-e manzil" / Tarjimai va negaroshi Muhammad Najmi Zenjoniy. Tehron, 1319 h.sh.
6. Jurayev Sh.S. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1)
7. Fehrist kitab ash-shayx ar-ra’is. Rkp. IV AN UzSSR, inv. № 2385/ XI; Irisov A. Abu Ali ibn Sino. T., 1963
8. Muhammadjon Qirg‘izboyev "Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi". “O‘zbekiston, ”T.: 2010
9. Хайруллаев М.М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари. Тошкент.: 1963, б: 48

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:821.112.22

NEMIS FAYLASUFI MARTIN XAYDEGGERNING IJTIMOIY ONTOLOGIYASI

Soliyeva Zarina
SamDChTI mustaqil izlanuvchisi

СОЦИАЛЬНАЯ ОНТОЛОГИЯ НЕМЕЦКОГО ФИЛОСОФА МАРТИНА ХАЙДЕГГЕРА

Солиева Зарина
независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

THE SOCIAL ONTOLOGY OF THE GERMAN PHILOSOPHER MARTIN HEIDEGGER

Zarina Solieva
independent researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

zarina.solieva1981@gmail.com
https://orcid.org/0455-0202-0284-352x

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Martin Xaydegger ijodining falsafiy jihatlariga diqqat qaratildi. Jumladan, faylasufning "ijtimoiy ontogoniyaga" bo'lgan munosabati siyosiy qarashlari bilan birga zamonaviy falsafiy fikrlarga bo'lgan munosabatini tahlillashga qaratilgan fikrlar dalillangan. Kishilik jamiyatida insonlarning ijtimoiy ehtiyojlari tomonidan zamonaviy fikrning rivojlanishi va mafkuraviy ongning o'rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar*: ijodkolik, borliq, jamiyat, ijtimoiylik, ong, siyosat, partiya, estetika, tabiat, mavjudlik, tsvilizatsiya, madaniyat, taraqqiyot, barqarorlik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена философским аспектам творчества Мартина Хайдеггера. В частности, доказывается отношение философа к «социальной онтогонии» наряду с его политическими взглядами и отношением к современной философской мысли. Роль развития современной мысли и идеологического сознания выявилась социальными потребностями людей вчеловеческом обществе.*

Ключевые слова: *творчество, существование, общество, социальность, сознание, политика, партия, эстетика, природа, существование, цивилизация, культура, развитие, стабильность.*

Abstract: *This article focuses on the philosophical aspects of Martin Heidegger's work. In particular, the philosopher's attitude to "social ontogony" along with his political views and his attitude to modern philosophical thoughts are proved. The role of the development of modern thought and ideological consciousness has been revealed by the social needs of people in human society.*

Key words: *creativity, existence, society, sociality, consciousness, politics, party, aesthetics, nature, existence, civilization, culture, development, stability.*

Kirish. Zamonaviy dunyo falsafasining o'ziga xosligi, ijtimoiy-falsafiy bilimlarning xususiyatlari haqida olib boriladigan bir qator munozaralar bilan belgilanadi. Tadqiqotchi olimlarning fikriga ko'ra, jamiyat o'z kognitiv va ijtimoiy-falsafiy potensialini yo'qotib qo'yganiga qaramasdan, o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Martin Xaydeggerning germevutik ruhda va mazmuni bo'yicha tanqidiy bo'lgan konsepsiyasi, ijtimoiy-falsafiy fikrning hozirgi holatini va uning muammolarini tushunishga yordam beradi. Martin Xaydegger o'z zamonasining ideal faylasufi sifatida, klassik falsafiy an'analarni yangicha talqin qilishga, shuningdek, postmodern falsafaning asoslarini yaratishga katta ta'sir ko'rsatgan. U XX asrning eng muhim falsafiy muammolarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shgan. Shuningdek, Martin Xaydeggerning borliq falsafasi XX asr ijtimoiy falsafasi va tarixiy

falsafiy maqsadlaridan ajralmas bo‘lib, uning ontologiyasi yuqori darajadagi falsafa tarixining bir qismi yoki siyosiy falsafaning tarkibiy qismi sifatida ham qaralishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Martin Xaydegger falsafasining alohida jihatlariga oid maxsus xorijiy tarixiy-falsafiy tadqiqotlar orasida bir qator mashhur olimlarning asarlari mavjud. Ularning qatorida O. Pegtler, F. V. Herrmann, K. H. Xaag, C. Finsk, K. Levit, M. Blits, J. Meta, R. Safranski, A. Shvan, M. Gillespi va boshqa ko‘plab ilm-fan namoyondalari bor. Ushbu olimlar, Xaydeggerning falsafiy merosini turli nuqtai nazardan o‘rgangan va uning asarlaridagi asosiy g‘oyalarni zamonaviy falsafa kontekstida tahlil qilishga harakat qilgan. Xususan, ularning tadqiqotlari Xaydeggerning borliq falsafasining asosiy kontsepsiyalarini, uning tarixiy va ontologik yondashuvlarini chuqurroq anglashga yordam berdi. Xaydeggerning ta’limotlarini o‘rganishda eng muhim ishlarga ega bo‘lgan olimlar nafaqat uning borliq va vaqt haqidagi g‘oyalarini, balki ularning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini ham tahlil qilishga e’tibor qaratgan. Shu bilan birga, hozirgi zamonning ko‘plab yirik faylasuflari, Xaydeggerning falsafasiga o‘z qarashlarini bildirgan, uning g‘oyalarini rivojlantirgan yoki ular bilan tanqidiy muloqotga kirishgan. Ular orasida, masalan, J. Habermas, M. Foucault, G. Deleuze, va boshqalar Xaydeggerning tasavvurlari asosida yangi ilmiy va falsafiy yo‘nalishlar yaratishga harakat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy manbalari Martin Xaydeggerning o‘zi bo‘lib, shuningdek, uning falsafasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha qarashlarni ilgari surgan xorijiy olimlarning asarlari ham tadqiqotning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Ushbu usullar orasida, avvalo, germenevtik yondashuv, tarixiy yondashuv va analiz-sintez usullari alohida ahamiyatga ega. Germenevtik usul Martin Xaydegger matnlarining mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berdi, chunki u shaxsning mavjudligi, borliq va vaqt haqida keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Tarixiy yondashuv esa Martin Xaydeggerning fikrlari va uning falsafiy ta'sirlarining tarixiy kontekstini o‘rganishda ishlatildi. Shuningdek, analiz-sintez usuli yordamida Martin Xaydeggerning ijtimoiy-falsafiy masalalariga bo‘lgan yondashuvlari tizimli tarzda ko‘rib chiqilib, ulardagi asosiy g’oyalar va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Ushbu usullar birgalikda Martin Xaydegger falsafasining ijtimoiy va siyosiy jihatlarini chuqurroq anglashga, uning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini to‘liqroq ifodalashga imkon berdi.

Tahlillar va natijalar. Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy va siyosiy holatni tushunish, bilimlarning universal obyekti - haqiqatni, ya’ni ontologiyasini, tarixiy jamiyat haqidagi universal haqiqatni asoslash masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Shu bilan birga, mavjud obyektning ilmiy tushunilishi ham o‘z navbatida tarixiy jihatdan asoslangan bo‘lishi zarur. Jamiyatni o‘rganuvchi ijtimoiy fanlar tizimida konkret, universal va tarixiy umumlashtirish masalalarini ishlab chiqish jarayonlari oson bo‘lmagan va bevosita amalga oshirilmagan, chunki bugungi kunda asrlar davomida shakllangan falsafiy an’analarni qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi. Shunga qaramasdan, bu an’analarni yangicha tahlil qilish masalasi abadiy ahamiyatga ega bo‘lib, uni o‘rganish davom etayotgan muhim vazifa sifatida qolmoqda.

XX asr falsafasiga o‘z hissasini qo‘shgan Martin Xaydegger, botinan germenevtik va mazmunan tanqidiy yondashuvlarning muallifi sifatida tanilgan. Uning ilmiy metodlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning mazmunini anglash, uning holatini tushunish va haqiqiyligini aniqlashga imkon beruvchi asosiy vositalardan biridir. Zamondoshlari uni “o‘z zamonamizning yagona yirik fikrlovchisi” deb ataganlar. Martin Xaydegger klassik falsafa an’analarini yangicha talqin etdi va postmodern falsafaning shart-sharoitlarini yaratishda katta rol o‘ynadi. Shuningdek, XX asrning eng muhim falsafiy muammolarining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Umuman olganda, Martin Xaydeggerning ontologiyasi XX asr falsafiy ongining ajralmas qismiga aylangan. Uning ontologiyasi tarixiy shakllangan g‘oyalar tizimidan kelib chiqqan bo‘lib, hattoki ba’zi izdoshlari tomonidan unga “siyosatontoligi” nomi berilgan.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tajribaviy bilimlar asosida inson hayotini tasvirlash uchun qo‘llaniladigan "empirizm" atamasini tushunish, shuningdek, inson borligi bo‘yicha olib borilgan bir qator tadqiqotlar, masalan, A.Shuts, P.Berger va T.Lakmannning bilimlar sotsiologiyasi kabi ilmiy qarashlar, Martin Xaydeggerning inson borligi va ekzistensializm tahlilidan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Chunki bu atamalar, inson hayotini tasvirlash uchun zarur bo‘lgan terminologiyaning bir

qismi sifatida rivojlanganini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Zamonaviy falsafaning bugungi pozitsiyasini bir tomondan aynan Martin Xaydegger shaxsiyati bilan bog'lash mumkin. Ammo, olim R.Rortining fikriga ko'ra, "Martin Xaydegger asarlari umuman borliqni anglash uchun vosita emas, aksincha, bu asboblar qutisi" – deb ta'riflaydi. Bu esa bizga ijtimoiy voqelikni va tarixiy o'zgarishlarda shaxsning fikrlash rolini o'rganishga, shuningdek, jahon tarixidagi sivilizatsiyaning shakllanishi va uning tarixiy rivojlanishining mazmuni hamda yo'nalishini, turli davrlarni tahlil qilish orqali aniqlashga imkon beradi.

Inson borlig'ining ahamiyati va dolzarbligi tadqiqotning mavjud ijtimoiy-siyosiy oqibatlari bilan belgilanadi, bu esa ijtimoiy mavjudlik tushunchasining yangi yo'nalishlarini ochib beradi. Martin Xaydegger qarashlari insonning tub mavjudligi haqidagi tasavvurga asos solgan va "xalq" tushunchasini "insoniyat" gumanistik tushunchasi bilan polemik jihatdan qarama-qarshi qo'yish orqali siyosiy qat'iylik falsafasini shakllantirgan. Bu falsafa zamonaviy etnonatsionalizmning turli versiyalari uchun ideologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin edi.

Martin Xaydeggerning qarashlarini o'rganish jarayoniga to'xtaladigan bo'lsak, uning tarixiy-falsafiy asarlaridagi borliq falsafasini anglash va talqin qilish jarayoni tadqiqotchilar tomonidan yarim asrdan ortiq davom etib kelmoqda. Faylasuf asarlarining nashrlar soni nihoyatda ko'p bo'lsa-da, Martin Xaydegger falsafasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganishda ko'pincha uning ijodiy fikrlari va ilmiy faoliyatining ijtimoiy-siyosiy tomoniga alohida e'tibor qaratiladi. Bu, uning qarashlarining mohiyatini to'liq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, uning siyosiy partiyadagi faoliyatiga, xususan, "Milliy-sotsialistik partiya"da rektorlik qilgan qisqa davriga oid bahslar ham mavjud. Martin Xaydegger o'z davridagi mavjud rejimni qo'llab-quvvatlashga majbur bo'lgani yoki aksincha, fashizm ta'limotlariga sodiqlikning "lahzalik zaiflik" borligi haqida aytilgan fikrlar ham uchraydi. Shu bilan birga, Martin Xaydeggerning zamonaviy falsafiy nutq kontekstida uning ijodiy merosini tushunishning eng muhim yo'nalishlarini tavsiflash zarurati mavjud.

Xulosa. Demakki, faylasuf Martin Xaydeggerning qarashlarida hozirgi davrning qonuniyligini himoya qilish sharoitida, u ijtimoiy borliq tarixi haqidagi ta'limotni zamonaviylikning "merosi bo'lgan ijodiy potensiali"dan oshib o'tish deb belgilaydi. Bu nuqtai nazar, zamonaviy jamiyatdagi mavjud tafakkur tarzini yangi kontekstda, tanqidiy va avtonom bo'lgan inson tushunchasini rivojlantirish orqali qayta ko'rib chiqish zaruratini ta'kidlaydi. Marten Xaydegger, tarixning va borliqning zamonaviy qarashlar orqali tushunilishi uchun, insonni faqat tarixiy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'lamasdan, uning mavjudligini o'zining avtonom va tanqidiy poydevoriga asoslashni muhim deb hisoblaydi. Shunday qilib, uning falsafasida dunyo voqealarini o'zgarmas tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tahlil orqali insonning o'zi, o'z mavjudligi, o'zining dunyodagi o'rni haqidagi chuqur mulohazalarga erishadi va buning natijasida jamiyatdagi o'zgarishlar va rivojlanishlar, umuman olganda, yanada aniqroq va maqsadli tarzda ko'rib chiqilishi kerakligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мотрошилова Н. В. Драматургия, идеигрексопадения. Мартина Хайдеггера// Философия Мартина Хайдеггера и современность. М. 1991. С.44.
2. Скирбекк Г., Джиле Н. История философии: Учебное пособие для студ. виш. учеб. заведений// Пер. с англ. В. И. Кузнецова; подред. С. Б. Крымского. М. 2000. С.106.
3. Хайдеггер М. Ursprung des Kunstwerks // Holzwege // Gesamtausgabe, Bd. 5. ФаМ.: Витторио Клостерманн, 1977.с.25,43.
4. Хайдеггер М. Вопросо технике // Время И битие: Стати и виступления / М. Хайдеггер. М., 1993. С. 221.
5. Селюкс С. Мартин Ксайдеггер – философ бития и времени. Текст доступ на сайт: http://www.lomonosov.org/article/martin_haidegger.htm
6. Мотрошилова Н.В. Почему пуубликование 94–96 томов собраний сочинений М. Хайдег герастало сенсацией?// Вопросы философии. 2015. №1. Текст доступ на сайте Института философии РАН: http://iph.ras.ru/94_96.htm.
7. Мартин Ксайдеггер. Битие я время. Пер. В. В. Бибиксин. М., 1997.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 343-2347-556.7

DEPUTATLIK VAKOLATLARINI AMALGA OSHIRISHGA NOMUVOFIQ BO‘LGAN HOLATLARNI ANIQLASH MEZONLARI

Avezov Dilshod Sadulayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti Uzluksiz ta’lim boshqarmasi boshlig‘i

КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СИТУАЦИЙ, НЕСОВМЕСТИМЫХ ДЛЯ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕПУТАТСКИХ ПОЛНОМОЧИЙ

Авезов Дилшод Садулаевич
Заведующий управлении непрерывного образования Ташкентского государственного юридического университета

CRITERIA FOR DETERMINING CASES INCOMPATIBLE FOR THE EXERCISE OF DEPUTY POWERS

Avezov Dilshod Sadulayevich
Head of the Continuing Education Department of Tashkent State Law University

E-mail:
davezov07@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-3077-2305

Annotatsiya: *Ushbu maqolada deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga nomuvofiq vaziyatlarni aniqlash mezonlari ko'rib chiqiladi. Ushbu mavzuning o'ziga xosligi deputatlik vazifalarini bajarishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlar kabi turli omillarni tahlil qilishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *mahalliy kengashlar, deputat, vakolat, xalq hokimiyati.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются критерии выявления ситуаций, несовместимых с осуществлением депутатских полномочий. Уникальность данной темы заключается в анализе различных факторов, таких как правовые, этические и социальные аспекты, которые могут повлиять на выполнение обязанностей депутата.*

Ключевые слова: *местные советы, депутат, полномочия, народная власть.*

Abstract: *This article examines the criteria for identifying situations that are incompatible with the exercise of parliamentary powers. The specificity of this topic lies in the analysis of various factors, including legal, ethical and social aspects, that may affect the performance of parliamentary duties.*

Key words: *local councils, deputy, authority, people's power.*

ВВЕДЕНИЕ. Критерии выявления ситуаций, несовместимых с осуществлением парламентских полномочий, являются одной из наиболее актуальных тем в области права, в частности, в области конституционного права. Избранные представители с депутатскими полномочиями должны действовать в интересах своих избирателей, при этом их деятельность должна соответствовать установленным нормам и требованиям.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ. В большинстве стран действуют законы, регулирующие условия, при которых депутаты могут быть отстранены от должности. Эти условия включают в себя предыдущие судимости или определенные правонарушения, совершенные во время исполнения парламентских обязанностей.

Например, депутаты, подозреваемые в коррупции, могут быть временно отстранены от своих обязанностей до окончательного разрешения дела.[1] В соответствии с Законом Республики Узбекистан от 02.12.2004 года № 708-II основанием для отзыва является нарушение депутатом, сенатором законодательства Республики Узбекистан в порядке, который может повлечь за собой уголовную, гражданскую, административную и иные виды ответственности, предусмотренные законом.

Еще одним важным аспектом является моральная сторона работы депутатов. Этика как система моральных норм и принципов, определяющих поведение человека, имеет особое значение в сфере парламентской деятельности. Депутаты должны придерживаться этических норм, чтобы не подорвать общественное доверие. Например, ситуация, связанная с конфликтом интересов, когда личные интересы депутата вступают в противоречие с интересами избирателей, может возникнуть необходимость приостановления полномочий. Это может быть применимо к случаям, когда депутат создает риск посягательства на интересы граждан при принятии решений в пользу связанной с ним предпринимательской деятельности. Основанием для отзыва депутата являются действия и проступки, совершенные депутатом, сенатором, грубо нарушающие общепризнанные нормы этики и депутатских манер, опорочивающие имя депутата, сенатора, наносящие ущерб репутации представительных органов государственной власти.

Важным критерием также считается тот факт, что депутат не выполнил свои обязательства перед политической партией, выдвинувшей его в депутаты, и эта причина указана в статье 1 указанного закона.

Таким образом, можно выделить несколько основных критериев определения ситуаций, которые могут быть основанием для признания полномочий депутатов не соответствующими реальным возможностям их реализации.

1. Этика и моральные нормы.[2]
2. Соблюдение законов.
3. Партийное доверие.[3]

Каждый из вышеперечисленных критериев требует комплексного анализа, поскольку они взаимосвязаны и могут повлиять на признание депутата недееспособным для выполнения своих обязанностей. Изучение этих критериев и изменений в социально-правовых аспектах позволяет понять, насколько могут быть обеспечены прозрачные и ответственные механизмы депутатской деятельности, что, в свою очередь, служит укреплению доверия граждан к государственным органам.[4] Не менее важным критерием является психическое здоровье депутата. Любые психические расстройства или зависимости могут существенно hinder его способности выполнять служебные обязанности. Очевидно, что депутат, не способный адекватно воспринимать реальность или управлять своими действиями, не сможет эффективно представлять интересы своих избирателей. Наконец, участие в противозаконной деятельности также является критерием, который делает невозможным осуществление депутатских полномочий. Связь с криминальными группировками или участие в незаконных действиях ставит под сомнение всю деятельность депутата и его способность олицетворять законность и порядок. Таким образом, критериям определения ситуаций, несовместимых для осуществления депутатских полномочий, присуща многоаспектность. Эти аспекты помогают формировать качественный кадровый состав представительной власти и укрепляют доверие граждан к институтам, которые они представляют. Важно, чтобы данная система оценки была чётко прописана в законодательстве и постоянно поддерживалась как на уровне партий, так и в рамках местных и региональных депутатских единиц.

[1] Шугрина, Е. С. (2011). Местное самоуправление и пропорциональная избирательная система: добрососедство или противостояние?. Местное право, (3), 33-58.

[2] Ротар, А. И. (2016). Обыск и выемка: сравнительно-правовой анализ норм УПК РФ. Вестник Северо-Восточного государственного университета, (25), 90-95.

[3] Макаров, И. И. (2008). Актуальные проблемы правового статуса главы муниципального образования. Журнал российского права, (7 (139)), 22-30.

[4] Gudevics, J. (2011). Representation of Deputies in Municipalities after the Local Government Elections. Resources and Education.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Ключевую роль в функционировании демократических процессов играет обеспечение соответствия полномочий депутатов местных советов реальным условиям, влияющим на их реализацию. В заключение можно отметить, что определение ситуаций, несовместимых для осуществления депутатских полномочий, является критически важным для обеспечения эффективного функционирования законодательной власти. Основные критерии включают наличие конфликта интересов, юридические ограничения, а также моральную ответственность депутата перед избирателями. Важно, чтобы каждый депутат понимал свою ответственность и придерживался этических норм, что будет способствовать укреплению доверия к институту власти и улучшению качества принимаемых решений. Активное внедрение наработанных стандартов и практик позволит минимизировать случаи, когда депутаты оказываются в ситуациях, которые могут подорвать их легитимность и авторитет.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ротар, А. И. (2016). Обыск и выемка: сравнительно-правовой анализ норм УПК РФ. Вестник Северо-Восточного государственного университета, (25), 90-95.
2. Макаров, И. И. (2008). Актуальные проблемы правового статуса главы муниципального образования. Журнал российского права, (7 (139)), 22-30.
3. Шугрина, Е. С. (2011). Местное самоуправление и пропорциональная избирательная система: добрососедство или противостояние?. Местное право, (3), 33-58.
4. Gudevics, J. (2011). Representation of Deputies in Municipalities after the Local Government Elections. Resources and Education.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 316.36

МОТИВЫ ВСТУПЛЕНИЯ В БРАК И КРИТЕРИИ ГОТОВНОСТИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ КАРАКАЛПАКСТАНА

Сулетбаева Элла Серикбаевна
доктор философии (PhD) по психологическим наукам
доцент кафедры «Педагогика и психология»,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

QORAQALPOG'ISTON YOSHLARI ORASIDA NIKOHGA KIRISH MOTIVLARI VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLIK MEZONLARI

Suletbayeva Ella Serikbayevna
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Berdah nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, «Pedagogika va psixologiya» kafedrasi dotsenti

MOTIVES FOR MARRIAGE AND CRITERIA FOR READINESS FOR FAMILY LIFE AMONG THE YOUTH OF KARAKALPAKSTAN

Suletbaeva Ella Serikbaevna
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences
Associate Professor of the Department of "Pedagogy and Psychology,"
Berdakh Karakalpak State University

https://orcid.org/0000-0003-2233-1970
e-mail: esuletbaeva@mail.ru

Аннотация: *В данной статье рассматриваются готовность к браку и мотивы вступления в него. Семья является важнейшей частью общества, и её стабильность и прочность во многом зависят от степени готовности к вступлению в брак. В ходе исследования были проанализированы мотивы вступления в брак среди молодежи Каракалпакстана. Результаты показали, что для женщин основными мотивами являются любовь, желание иметь детей и стремление сделать партнёра счастливым, тогда как для мужчин важными мотивами выступают физиологическая потребность, любовь и экономическая заинтересованность. Полученные данные свидетельствуют о необходимости индивидуального и социального подходов к подготовке молодежи к семейной жизни.*

Ключевые слова: *Семья, брак, готовность, мотивация, любовь, экономическая выгода, физиологическая потребность, социальные факторы.*

Аннотация: *Ушбу мақолада никоҳга тайёрлик ва унинг мотивлари ҳақида сўз боради. Оила жамиятнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, унинг барқарорлиги ва мустаҳкамлиги кўп жиҳатдан турмуш қуришга бўлган тайёрлик даражасига боғлиқ. Тадқиқот давомида Қорақалпоғистон ёшлари орасида никоҳга кириш мотивлари таҳлил қилинди. Натижалар шуни кўрсатдики, аёллар учун асосий мотивлар муҳаббат, фарзандли бўлиш истаги ва бахт улашиш ҳисси бўлса, эркаклар учун физиологик эҳтиёж, муҳаббат ва иқтисодий манфаатдорлик муҳим ўрин тутади. Олинган маълумотлар ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда индивидуал ва ижтимоий ёндашувлар зарурлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *Оила, никоҳ, тайёргарлик, мотивация, муҳаббат, иқтисодий манфаат, физиологик эҳтиёж, ижтимоий омиллар.*

Abstract: *This article discusses marriage readiness and the motives for entering into marriage. The family is a fundamental part of society, and its stability and strength largely depend on the level of readiness for marriage. The study analyzed the motives for marriage among the youth of Karakalpakstan. The results*

showed that for women, the main motives are love, the desire to have children, and the aspiration to make their partner happy, whereas for men, the most significant motives include physiological needs, love, and economic interest. The obtained data indicate the necessity of both individual and social approaches in preparing young people for family life.

Key words: *Family, marriage, readiness, motivation, love, economic benefit, physiological need, social factors.*

Введение: Семья, как психологическая система и подсистема государственного устройства, играет ключевую роль в социально-экономическом развитии общества, оставаясь одним из его фундаментальных институтов. Именно в семье формируется главное богатство – сам человек. Готовность к вступлению в брак обусловлена осознанной потребностью в психологической близости с партнером и рассматривается как сложный процесс, включающий эмоционально-волевые, мотивационные и когнитивные компоненты [5]. Данный процесс определяется совокупностью социальных и психологических установок личности, влияющих на отношение к браку и способность к построению устойчивых и гармоничных семейных отношений.

Анализ литературы: Согласно исследованию, Т. С. Мороз [2], установлена прямая зависимость между степенью совпадения представлений супругов о семейной жизни и уровнем их удовлетворенности браком. Высокий уровень соответствия взглядов о браке положительно коррелирует с удовлетворенностью семейной жизнью, тогда как существенные расхождения в восприятии брачных отношений значительно снижают уровень удовлетворенности, особенно среди молодых супружеских пар.

Исследование украинской ученой Татьяны Леонидовны Левицкой было посвящено проблеме развития психологической готовности студенческой молодежи к созданию семьи. В своей работе она рассматривала вопросы формирования потребности в стабильной семье, расширения представлений о семейно-брачных отношениях, планирования семейного бюджета, рождения и воспитания детей, повышения ответственности за семейную жизнь, а также преодоления возникающих семейных проблем. Основной акцент делался на психологических аспектах подготовки к браку и развитии необходимых личностных качеств для построения благополучной семьи.

Обсуждение: Анализ основных критериев брачной готовности и факторов, влияющих на выбор партнера, подчеркивает важность учета не только предпочтений, но и мотивов вступления в брак. Готовность к семейной жизни представляет собой многокомпонентную структуру, включающую три ключевых аспекта:

1. социальная готовность;
2. физиологическая готовность;
3. психологическая готовность;

С годами начало половой жизни снижается, а начало семейной жизни возрастает.

Социальная зрелость тоже в годах вырастает. Физиологическая зрелость не означает сексуальную зрелость, которая необходима к гармоничной сексуальной жизни в браке. Психологическая готовность к семейной жизни является ведущими среди трех. Не исключающая важность предыдущих следует подчеркнуть, что эффективность использования социальной и физиологической зрелости во многом определяется психологической готовностью. Готовность к семейной жизни обусловлена со следующими потребностями и мотивами [4]:

-потребность в принадлежности любви;

-потребность в защите;

-потребность в самоуважении;

-потребность в самоактуализации.

Семья нужна человеку чтобы:

-был человек с кем можно было посоветоваться, обменяться мнением, чье мнение может быть дорогим, близким к духу, правильным, рациональным в данной ситуации;

-надежный человек, который никогда не оставит в беде;

-общение с которым вызывает положительные эмоциии, который имеет с тобой общие ценности, разделяет с радостью поскольку он всегда готов защитить и поддержать тебя,

TAMADDUN NURI

уравновешивать твои слабости, тот ради которого и с кем можно жить долгие годы.

Мотивы вступления в брак связанные с готовностью к семейной жизни подразделяется на адекватные (цель-создание семьи) и неадекватные (цель создания семьи служит средством достижения иной цели, не связанных с семьей, где сама семья не имеет для личности никакой ценности).

Результаты: Среди 56 молодожен Каракалпакстана подавших заявление в ЗАГС был проведен анонимный опрос, для определения основных мотивов вступления в брак. Опросник состоит из 12 вопросов, участники могли выбрать только 4 из предлагаемых.

Опросник для определения мотивов вступления в брак и результаты 56 опрошенных (28 пар)

N	ВОПРОСЫ	Респондентки		Респонденты	
		чел	%	чел	%
1	Чувства (любовь)	18	64,3	16	57,1
2	Желание иметь детей	14	50,0	10	35,7
3	Удовлетворение физиологической потребности	4	14,3	27	96,4
4	Подражание другим	8	28,5	4	14,3
5	Боязнь одиночества	8	28,5	1	3,5
6	Экономическая заинтересованность	9	32,1	14	50,0
7	Чувство долга	2	7,1	7	25,0
8	По настоянию родителей	10	35,7	8	28,6
9	Смена местожительства	10	35,7	3	10,7
10	Личная заинтересованность (брак по расчету)	13	46,4	11	39,3
11	Незапланированная беременность	4	14,3	4	14,3
12	Желание осчастливить другого	12	42,8	7	25,0

Одним из ведущих предбрачных факторов, влияющих на устойчивость брака и неразрывно связанных в критерии готовности молодых к созданию семьи, является мотивы вступления в брак. В рамках нашего исследования были опрошены 56 молодоженов гг. Нукуса и Тахиаташа подающих заявления в ЗАГС.

Анализ результатов, полученных нами свидетельствует о том, что ведущими мотивами среди респонденток является любовь (64,3%), желание иметь детей (50%), брак по расчету (46,4%) и желание осчастливить другого (42,8%). У мужчин наиболее выраженными оказались такие мотивы как удовлетворение физиологической потребности (96,4%), любовь (57,1%), экономическая заинтересованность (50,0%) и брак по расчету (личная заинтересованность) (39,3%).

С сожалением следует отметить, что у мужчин, которые традиционно призваны к экономическому обеспечению семьи среди мотивов вступления в брак, самыми ведущими после физиологического потребности и любви являются экономическая заинтересованность и

TAMADDUN NURI

брак по расчету. Можно предположить, что мужчины заранее желают предупредить экономические проблемы в семейной жизни. Что может свидетельствовать об их стремлении обеспечить финансовую стабильность в будущем браке.

Эти результаты свидетельствуют о том, что для женщин более значимыми являются эмоциональные и семейные аспекты брака, тогда как у мужчин наблюдается тенденция к прагматическому подходу, включающему как экономические, так и физиологические потребности.

Заключение: Таким образом, исследование показало, что устойчивость и благополучие брака во многом зависят от осознанности мотивов вступления в него. Чем более зрелыми и осознанными являются мотивы партнеров, тем выше вероятность создания гармоничной и устойчивой семьи. Дальнейшее изучение данной проблемы поможет разработать эффективные механизмы психологической подготовки молодежи к браку, что, в свою очередь, будет способствовать укреплению института семьи в современном обществе.

Литературы:

1. Левицька Т.Л. Розвиток психологічноі готовності студентськоі молоді до створення сим'і. Автореф. дис. … канд. психол. н. – Хмельницький: 2009. – С 24.
2. Мороз Т.С. Возрастные основы психологической готовности к супружеству / под ред. И.В. Сысоевой, Е.Е. Кравцовой. Тула: ТИЭИ, 2014. 153 с
3. Ярыгина Н.Ю. Мотивационно-смысловая готовность к семейной жизни. Автореф. дис. … канд. психол. н. – Москва: 2007. –С. 13-17.
4. 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. Услубий қўлланма/ Г. Шоумаров ва бошқ. – Тошкент: Bookmany Print, 2023. – 282 б.
5. Шоумаров Ғ.Б. Ш.Б. Шоумаров. Муҳаббат ва оила. –Тошкент. Ибн Сино, 1994. -119 б

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 81'255:82-1

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ РАЗВИТИЯ ПЕРЕВОДА ПОЭТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РУССКИХ КЛАССИКОВ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Катаева Шахноза Альбертовна, преподаватель Ургенчского государственного университета

RUS NAZMIY ASARLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI RIVOJLANISHINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA

Katayeva Shaxnoza Albertovna, Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

- súwretlew ónerinde paydalanılatuǵın ásbap-úskenelerge baylanıslı terminler

dep altı toparǵa bólgenligin kóriwimizge boladı.

Ayrım pikirlerden kórinip turǵanınday, leksemalardı leksika-semantikalıq kózqarastan yaki tematikalıq kózqarastan izertlegende leksikaniń sistemalıq qásiyetin ashıp beredi. Qaraqalpaq tiliniń leksikalıq qatlamları, ásirese terminologiyaliq sistemaları analizlengen bir qatar jumıslarda tematikalıq klassifikaciyalaw usılınan keń paydalanılǵan.

Til iliminde ádette sózlik quramdı klassifikaciyalawda hár túrli jaǵdaylar esapqa alinip kiyatır. Mánili sózlerdi ańlatatuǵın predmetlerdiń tiplik ózgesheliklerine sáykes olardı lesika-semantikalıq, tematikalıq hám t. b. toparlarǵa ajıratıp qaraladı. Mine usinday kóplegen turmıs tarawı, joqlıq iskerliginiń belgili bir arnawlı shaqapshalari ishinde payda bolǵan túsiniklerge baylanıslı atamalar sol tarawǵa sáykes tematikalıq toparlardı quraydı. Olardiń hárbir toparı, mánilik xarakteri, qabıl etiliwi, jasalıw ayrıqshalıqları hám qollanılıwı jaǵınan basqa toparlardan ayırıladı. Demek, sózlerdi klassifikaciyalaw eń birinshi gezekte, tematikalıq principke tiykarlanıwı maqsetke muwapıq keledi. Usi kózqarastan qaraqalpaq tilindegi súwretlew óneri terminlerin hár túrli tematikalıq toparlarǵa bólip qarawǵa baladı.

TALQÍLAW:

Súwretlew óneri – kóz benen kórgenlerdi qabıl etip túsiniw hám kózge kórinip turǵan dúnyanıń kórinisin tegislikte hám keńislikte sáwlelendiriw, sonday-aq qanday da bir qattı tegislikke jaǵılǵan boyawlar járdeminde jaratılatuǵın kórkem óner túrleriniń biri esaplanadı.

Qálegen tilde leksika semantikalıq toparlarǵa bólip izertlew arqalı ondaǵı sistemalılıq anıqlanadı hám sol arqalı belgili bir nızamlıqlar ashıladı. Izertlewdiń bul usılı házirgi dáwirde tiykarǵı ilimiy metodlardan esaplanadı. Belgili bir tarawǵa tiyisli terminlerdi tematikalıq toparlarǵa ajıratıp úyreniwdiń ózine tán ózgeshelikleri bar. Qálegen bir tarawǵa tiyisli terminlerdi tematikalıq toparlarǵa bóliw birinshiden bul taraw terminleriniń ulıwma baylıǵın anıq kórsetiwde, ekinshiden olardıń jasalıw modellerin anıqlawda hám terminlerdiń leksika-

semantikalıq tárepten óz ara baylanısın ashıp beriwde úlken xızmet atqaradı [9].

Qaraqalpaq tilindegi súwretlew óneri terminlerin úyrene otırıp, olardı tematikalıq jaqtan úsh toparǵa bólip qaraymız.

1. Reńli súwretke baylanıslı terminler
2. Grafikaǵa baylanıslı terminler
3. Músinshilikke baylanıslı terminler

Súwretlew óneri terminlerin bunday toparlarǵa bólip úyreniw súwretlew óneri tariyxın, súwretlew óneri tilin, sonday-aq bul tarawda qollanılatuǵın terminlerdiń mánisin ele de tereńirek úyreniwde úlken áhmiyetke iye. Óytkeni, sózlerdiń tematikalıq toparları leksika-semantikalıq sóz toparlarına qaraǵanda órisi júdá keń, sebebi qanday da bir tematikalıq toparlarǵa hár túrli sóz toparlarına jatatuǵın sózler kiretuǵın bolsa, leksika-semantikalıq sóz toparları bir ǵana sóz toparına kiretuǵın atamalardan quraladı. Mısalı, *axromatikalıq reńler, garmoniya, kontrast, panno, palitra, jarıqlıq, saya, reń, qızıl, qara, aq* – súwretlew óneri terminleri tematikalıq jaqtan bir toparǵa yaǵnıy reńli súwret óneri terminleri toparına kiredi, al leksika-semantikalıq jaqtan alıp qaraytuǵın bolsaq aq, qızıl, qara- reń túrlerin bildiriwshi atamalar.

JUWMAQ:

Túrkiy til biliminde kásiplik leksikaǵa baylanıslı izertlewlerde sózlerdi belgili bir temalar boyınsha toparlarǵa bólip, olarǵa lingvistikalıq tallaw jasawda hár túrli terminler qollanılıp kelmekte. Máselen, leksikalıq toparlar, sózlerdiń tematikalıq bóliniwi, leksika-tematikalıq toparlar, tematikalıq toparlar. Bizińshe, terminlerdiń tematikalıq toparları degen termindi qollanıw maqsetke muwapıq boladı.

Juwmaqlap aytqanda, súwretlew óneri terminlerin birneshe toparlarǵa bólip úyreniw olardıń mánisin ele de anıqlawǵa hám leksika-semantikalıq ózgesheliklerin tereń úyreniwge úlken jol ashıwı sózsiz.

Ádebiyatlar:

1. Хожанов М. Қарақалпақ тилинде орнитонимлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2019. 3-б
2. Мусаева К.М. Лексикология тюркских языков. –М. 1984. 4-5 б
3. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1985. 120-б.
4. Сафарова Р. Лексик-семантик мунасабатнинг турлари. Тошкент, 1996. 4-б.
5. Гринев-Гриневич С. В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 9 с.;
6. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1968. – 180 с.;
7. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 7 с.
8. Иванова С.В Способы образования терминов изобразительного искусства в якутском языке. Источник Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2020. Том 13
9. G.Dosjanova. Qaraqalpaq tilinde úy buyımları atamalarınıń semantikalıq hám morfologiyalıq ózgeshelikleri.Nókis.,2021-j, 6-bet.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 02 (159. 9)

YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIKNI OMMALASHTIRISHNING PSIXOLOGIK VA SOTSIOLOGIK JIHATLARI

Sharipova Dilbarxan Atajanovna, *O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Kutubxona faoliyati" kafedrasi katta o'qituvchisi*

dilbarxansharipova66@gmail.com

THE PSYCHOLOGICAL AND SOCIOLOGICAL ASPECTS OF PROMOTING READING AMONG YOUTH

Sharipova Dilbarkhan Atajanovna, *Senior lecturer of the department "Library Activities", Nukus branch of Uzbekistan State Art and Culture Institute*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ЧТЕНИЯ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Шарипова Дилбархан Атаджановна, *Старший преподаватель кафедры "Библиотечная деятельность" Нукусского филиала Государственного института искусства и культуры Узбекистана*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirishning psixologik va sotsiologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda netnografiya (internet etnografiyasi) va kognitiv tadqiqot metodlaridan foydalanilib, yoshlarning kitob oqishga bo'lgan qiziqishi, internet muhitidagi kitobxonlik tendensiyalari va oqishning aqliy rivojlanishdagi o'rni o'rganiladi. Natijalar yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning roli va o'quv odatlarining ijtimoiy-psixologik shakllanishi muhokama qilinadi.Maqola yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, kitobxonlik, netnografiya, kognitiv tadqiqotlar, psixologik jihatlar, sotsiologik jihatlar, internet etnografiyasi, o'qish madaniyati.*

Abstract. *This article analyzes the psychological and sociological aspects of promoting reading among young people. The study employs netnography (internet ethnography) and cognitive research methods to examine young people's interest in reading books, reading trends in the online environment, and the role of reading in cognitive development. The results help identify factors that encourage reading among youth. Additionally, the role of social networks in shaping reading culture and the socio-psychological formation of reading habits are discussed. The article has practical significance for developing strategies to widely promote reading among young people.*

Key words: *youth, reading, netnography, cognitive research, psychological aspects, sociological aspects, internet ethnography, reading culture.*

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические и социологические аспекты популяризации чтения среди молодежи. В исследовании используются методы нетнографии (интернет-этнография) и когнитивных исследований, изучается интерес молодежи к чтению книг, тенденции чтения в интернет-среде и роль чтения в умственном развитии. Результаты помогут выявить факторы, способствующие стимулированию чтения среди молодежи. Также обсуждается роль социальных сетей в формировании культуры чтения и социально-психологическое формирование*

учебных привычек. Статья имеет практическое значение для разработки стратегий широкого продвижения чтения среди молодежи.

Ключевые слова: *молодежь, чтение, нетнография, когнитивные исследования, психологические аспекты, социологические аспекты, интернет-этнография, культура чтения.*

Kirish. Hozirgi kunda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Texnologiyaning tezkor rivojlanishi va raqamli axborot oqimining ortishi natijasida an’anaviy kitob o‘qish odati o‘zgarib, uning o‘rnini qisqa, vizual va interaktiv kontent egallamoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual rivojlanishiga, tanqidiy tafakkurining shakllanishiga va bilim olish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi [5, 263-267]. Maqolaning asosiy maqsadi yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirishda psixologik va sotsiologik omillarning ahamiyatini tahlil qilish hamda netnografiya (internet etnografiyasi) va kognitiv tadqiqot metodlari asosida ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdir. Netnografiya metodikasi yoshlarning internet muhitida kitobxonlik bilan bog‘liq xatti-harakatlarini, ularning kitoblarga bo‘lgan munosabatini tahlil qilish imkonini beradi. Kognitiv tadqiqotlar esa kitob o‘qishning miyaning ishlashiga, tafakkur jarayonlariga va axborotni qabul qilishga ta’sirini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Bundan tashqari, maqolada yoshlarning kitob tanlash odatlari, ularning axborot iste’moli va zamonaviy media vositalarining kitobxonlik madaniyatiga ta’siri keng yoritiladi. Ushbu tadqiqot natijalari kitobxonlikni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois mamlakatimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo‘lish bilan belgilanadi. Bu borada “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli qarori qabul qilingan. Bu esa yurtimizda kitobxonlik madaniyatining oshishiga, yangidan yangi, sermazmun kitoblarning chop etilishi uchun yana bir imkoniyat kaliti bo‘ldi [2].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablarga javob beradigan turli kitoblarni sifatli chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va uning ijtimoiy hamda psixologik omillarga bog‘liq jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kitob o‘qish jarayoni insonning tafakkur qilish qobiliyatiga, bilim darajasiga hamda ijtimoiy muhitda o‘zini tutishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, ushbu maqolada yoshlarning kitobxonlik bilan bog‘liq xatti-harakatlarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish uchun netnografiya (internet etnografiyasi) hamda kognitiv tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning axborot iste’mol qilish odatlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. An'anaviy kitob o‘qish o‘rniga qisqa formatdagi media kontentdan foydalanish odati shakllanmoqda. Shu bois, netnografiya usuli yoshlarning internet muhitida kitobxonlik bilan bog‘liq faoliyatini kuzatish va tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi. Netnografiya metodikasi yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi kitobxonlik madaniyati tahlil qilindi. Xususan, **Facebook, Instagram, Telegram, TikTok** kabi platformalarda joylashtirilgan kitoblar haqidagi postlar, foydalanuvchilarning izohlari va muhokamalari o‘rganildi. Ushbu kuzatuvlar yoshlarning kitobxonlik bo‘yicha qiziqishlari, trendlar va kitobga bo‘lgan munosabatlari haqida ma'lumot olishga yordam berdi. Bundan tashqari, yoshlarning kitob formatlarini tanlashdagi xulq-atvoriga alohida e'tibor qaratildi. Elektron va audio

kitoblarning ommalashuvi hamda ularning an'anaviy bosma kitoblarga nisbatan ustunliklari yoki kamchiliklari tahlil qilindi. Internet forumlari, bloglar va kitobxonlikka oid onlayn jamoalar ham o‘rganilib, ular kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rniga baho berildi.

Kognitiv tadqiqot metodlari

Kognitiv tadqiqotlar kitob o‘qish jarayonining inson miyasi faoliyatiga ta'sirini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu metodlar asosida kitobxonlikning kognitiv jarayonlarga ta'siri quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilindi:

- **Kitob o‘qishning miyaning kognitiv funksiyalariga ta'siri** – bu yo‘nalishda kitob mutolaasi xotira, diqqat va tafakkur jarayonlariga qanday ta'sir qilishi o‘rganildi.
- **Kitob o‘qish va vizual media mahsulotlarining ta'sirini solishtirish** – yoshlarning kitoblarga va vizual axborot manbalariga (masalan, qisqa videolar, infografikalar, postlar) bo‘lgan munosabati tahlil qilindi.
- **Yoshlarning kitob tanlash jarayoni** – kitob mutolaasi paytida individual va ijtimoiy omillarning ahamiyati hamda qaror qabul qilish jarayoni kognitiv nuqtai nazardan baholandi.

Mazkur tadqiqotlarda **so‘rovnomalar, intervyular va eksperimental kuzatuv usullari** qo‘llanilib, yoshlarning kitobxonlik bilan bog‘liq odatlari o‘rganildi. Ushbu usullar orqali to‘plangan ma'lumotlar yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

Natijalar. Mutolaa madaniyati kishining manbani to‘liq tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g‘oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, kitob va kutubxonadan foydalanish, o‘zini qiziqtirgan masalalarga oid manbalarni topish va undan o‘qishda, ishda, hayotda foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Mutolaa madaniyati axborotlashgan jamiyatda insoniyat ongi favqulodda yuksalishining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. [4,32,34]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda internet platformalarining ta'siri juda katta. Netnografiya metodikasi orqali yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash va ularni rag‘batlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Kognitiv tadqiqotlar esa kitob o‘qishning inson miyasi faoliyatiga foydali ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bois, yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirish uchun internet tarmoqlari va yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda kitob o‘qishning intellektual rivojlanishga ta'sirini targ‘ib qilish lozim.

Zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan davrda yoshlarning kitobga bo‘lgan munosabati o‘zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni tashkil etish, axborot-kutubxona faoliyatini yanada kuchaytirish, kitobxon-foydalanuvchi va ilmiy izlanuvchilar uchun yangi, zamonaviy texnikalarni qo‘llagan holda xizmat ko‘rsatish bugungi kun talabidir. [8,27]. Ularning kitob o‘qish odatlari ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy media vositalari ta'sirida shakllanmoqda. Ushbu tadqiqot yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida olib borildi. Netnografik va kognitiv tadqiqot metodlari asosida olingan natijalar kitobxonlikni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kitobxonlik faolligi

Netnografik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning kitobga bo‘lgan munosabati turlicha bo‘lib, ularning aksariyati o‘qish jarayonini ijtimoiy tarmoqlardagi kontent bilan bog‘liq holda olib boradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram, Telegram, TikTok) kitobxonlik bilan bog‘liq muhokamalar va guruhlarning faoliyati ortib bormoqda. Masalan, TikTok platformasida #BookTok trendining ommalashuvi ko‘plab yoshlarni kitob o‘qishga qiziqtirishda muhim rol o‘ynaydi. Telegram va Instagramdagi kitob klublari esa muhokamalar va tavsiyalar orqali o‘quvchilarni yangi adabiyotlar bilan tanishtiradi. Shuningdek, elektron va audio kitoblarga bo‘lgan talabning oshib borayotgani kuzatildi. Yoshlarning ko‘pchiligi bosma kitoblarga nisbatan elektron formatlarni afzal ko‘radi. Buning sababi sifatida qulaylik, tezkorlik va narxning maqbulligi keltiriladi. Bundan tashqari, ko‘plab yoshlar o‘qish jarayonida vizual media mahsulotlariga ham murojaat qilmoqda. Qisqa videolar, infografikalar va audio formatdagi

materiallar kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishi yoki aksincha, uzoq matnlarni o‘qishga bo‘lgan e'tiborni kamaytirishi mumkin.

Kognitiv tadqiqot natijalari: Kitob o‘qishning miyaga ta'siri

Kognitiv tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, muntazam kitob o‘qish insonning tafakkur jarayonlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Xususan, kitob mutolaasi xotira, diqqat va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muntazam kitob o‘qiydigan yoshlar o‘z fikrlarini aniqroq ifodalash, axborotni chuqur anglash va uzoqroq xotirada saqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, qisqa formatdagi media kontentlarni (TikTok, Instagram Reels, qisqa maqolalar) ko‘p iste'mol qiluvchi yoshlar uzoq matnlarni tushunish va tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ushbu jarayon yoshlarning diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytirishi, axborotni qisqa vaqt ichida tezroq iste'mol qilishga odatlantirishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kitob tanlash jarayonida yoshlar ko‘proq vizual omillarga – muqova dizayni, ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiyalar va do‘stlarining fikrlariga tayanadilar.

Kitobxonlikni ommalashtirish bo‘yicha tavsiyalar

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin:

4. **Ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlikni targ‘ib qilish.** Yoshlarning internetdagi faolligidan samarali foydalanish maqsadida qiziqarli va ta'sirchan kontent yaratish muhimdir. Kitob sharhlari, o‘qish bo‘yicha tavsiyalar, interaktiv muhokamalar va tanlovlar tashkil etish orqali yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

5. **Elektron va audio kitoblarning ommalashuvi uchun sharoit yaratish.** Yoshlar o‘rtasida raqamli formatlarni kengroq joriy qilish va ularni kitob o‘qishga jalb qilish uchun bepul yoki arzon elektron kutubxonalar yaratish samarali bo‘lishi mumkin.

6. **Diqqatni uzoqroq matnlarga jamlash qobiliyatini rivojlantirish.** Yoshlarni qisqa va tezkor axborot iste’moliga o‘rganib qolishdan saqlash uchun ularga uzoqroq matnlarni o‘qish va tahlil qilishni rag‘batlantirish lozim. Buning uchun ta'lim tizimida o‘qish madaniyatini targ‘ib qilish, kitoblar bo‘yicha muhokamalar tashkil etish muhimdir.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Netnografik va kognitiv tadqiqotlar kitob o‘qish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Kelajakda ushbu natijalar asosida yanada kengroq dasturlar ishlab chiqilishi va kitobxonlik madaniyati mustahkamlanishi kutilmoqda.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va kognitiv odatlar bilan chambarchas bog‘liq. Netnografik tahlillar yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashda samarali vosita bo‘lib, ayniqsa, internet va raqamli muhitning kitobxonlikka ta'siri yaqqol namoyon bo‘ldi. Kitob muhokamalari va tavsiyalarining ijtimoiy tarmoqlardagi ommaviyligi, elektron va audio kitoblarga bo‘lgan talabning ortishi hamda vizual media mahsulotlarining kitobxonlik odatlariga ta'siri ushbu jarayonning asosiy jihatlaridan biri sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida qisqa va tezkor axborot iste'mol qilish odati uzoq matnlarni tushunish va diqqatni jamlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, TikTok va Instagram kabi platformalarda qisqa formatdagi kontentning ommalashuvi yoshlarning uzoqroq matnlarga bo‘lgan e'tiborini kamaytirishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, muntazam kitob o‘qish xotira va tafakkur jarayonlarini faollashtirib, tanqidiy fikrlash hamda ijodiy tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, yoshlar kitob tanlash jarayonida ko‘proq vizual omillarga va ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiyalarga e'tibor qaratadilar. O‘quvchilarga uzoq matnlarni o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish zarur. Shu maqsadda, maktab va oliy ta'lim muassasalarida interfaol o‘qish dasturlarini joriy etish, muhokama klublarini tashkil qilish va o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadqiqot natijalari yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha samarali

TAMADDUN NURI

strategiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish, ayniqsa, yoshlarning kitobxonlik odatlari va ularning kognitiv rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot sharoitida kitobxonlikni ommalashtirishning innovatsion usullarini joriy etish va yoshlarni kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish bo‘yicha yangi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Ushbu tadqiqot yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirish jarayonining psixologik va sotsiologik jihatlarini tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan netnografik va kognitiv tadqiqotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar yoshlarning kitob o‘qish odatlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy platformalardagi kitob tavsiyalari va muhokamalari kitobxonlikni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, elektron va audio kitoblarning ommalashuvi yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan yondashuvini o‘zgartirmoqda.

Ikkinchidan, vizual media mahsulotlari va qisqa formatdagi axborot iste'moli uzoq muddatli diqqatni jamlash qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Biroq, kitob mutolaasi xotira, tafakkur va tanqidiy fikrlash kabi kognitiv funksiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, yoshlar kitob tanlashda asosan vizual omillarga va ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiyalarga e'tibor qaratadilar. Shuning uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun marketing va targ‘ibot strategiyalarini zamonaviy yoshlarning didiga moslashtirish lozim.

Umuman olganda, kitobxonlikni ommalashtirish bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqish va yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Kelajakda ushbu yo‘nalishda yanada kengroq tadqiqotlar olib borish, yoshlarning o‘qish odatlari va ularning kognitiv rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida"gi Qarori.2017 yil, 13 sentyabri. www.lex.uz

2.Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli qarori. www.lex.uz

3.Hikmatovna, M. N., & Ferangiz, S. (2025). Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish. Yosh olimlar magistr va iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatini oshirishda ularga qaratilgan kreativ g‘oyalar yechim va takliflar, 2(24), 13-16.

4.Умаров А.Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараккиёт.-Тошкент:Фан, 2004.-194b.

5.Sharipova, D. Kitapxana -málimleme xızmetin kórsetiwdiń ayırım tendenciyaları hám wazıypaları.Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры,3(10), 83–87.извлечено от https://in-academy. uz/index. php/ejsspc/ article/ view/22334

6.Sharipova D.A. **Improving the Spiritual and Educational Education of Young People the Importance of Books and Reading.** International journal of human computing studies. https:// journals. researchparks. org/index.php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 05 Issue: 05 | May 2023. (30-34 betler)

7.Sharipova Dilbarxan. "Issues of Improving the Methodology of Teaching Library Studies." Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2.4 (2023): 260-265. ISSN: 2835-3048 https://univerpubl.com/index.php/semantic

8. Sharipova Dilbarxan. **Málimleme – kitapxana mákemelerinde innovaciyalıq iskerlikti shólkem-lestiriw.«Eurasian Journal of Academic Rese-arch» xalqaro ilmiy jurnali.**December 2023 ISSN 2181-2020.www.in-academy.uz .26-30 б. https://www. doi.org/10.5281/zenodo.10316777

9.Maxmudova, N., Xamidova N. (2024). Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. Modern Science and Research, 3(12), 263-267.

10.Yunusova, S. (2024). OAV orqali tarqatilayotgan narrative materiallar vositasida kitobxonlikni shakllantirishning o‘ziga xosliklari. 4(4).

11.Xoliyarovna, R.N.(2024).Yoshlarda orasida mutolaani ommalashtirish-muammolarning muhim echimi sifatida. Science and innovation, 3(Special Issue 32), 77-80.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:81-13(045)

ТАКТИКА ИНФОРМИРОВАНИЯ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ: МЕХАНИЗМЫ И ВЛИЯНИЕ

Нажмиддинова Сарафроз Нажмиддин қизи
Навоийский государственный университет

INFORMATIVE TACTICS IN POLITICAL DISCOURSE: MECANSIMS AND IMPACT

Najmiddinova Sarafroz Najmiddin qizi
Navoi State University

SIYOSIY DISKURSDA INFORMATSIYA TAKTIKASI: MEXANIZMLAR VA TA'SIR

Najmiddinova Sarafroz Najmiddin qizi
Navoi davlat universiteti

https://orcid.org/0009-0002-4358-0706
sarafroz.najmiddinova@gmail.com

Аннотация: *В данной статье исследуются информационные стратегии, используемые в политическом дискурсе для управления восприятием слушателей. В ней исследуются количественные и качественные аспекты контроля информации и их влияние на общественное мнение. Сравнение тактик подачи информации в политических речах на английском, русском и узбекском языках очень важно.*
Ключевые слова*: информативная тактика, политический дискурс, манипуляция информацией, ментальные репрезентации, риторические приемы.*
Abstract*. The article explores informative tactics used in political discourse to manage audience perception. The author analyzes quantitative and qualitative methods of information control and their impact on shaping public opinion. Special attention is given to comparing information presentation strategies in political speeches in English, Russian, and Uzbek.*
Key words: *informative tactics, political discourse, information manipulation, mental representations, rhetorical techniques.*
Annotatsiya: *Maqolada siyosiy diskursda auditoriya qabulini boshqarish uchun qo'llaniladigan informativ taktikalar o'rganiladi. Muallif ma'lumotni nazorat qilishning miqdoriy va sifatiy usullari hamda ularning jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'sirini tahlil qiladi. Alohida e'tibor ingliz, rus va o'zbek tillaridagi siyosiy nutqlarda ma'lumotni taqdim etish strategiyalarini solishtirishga qaratilgan.*
Kalit so'zlar: *informativ taktikalar, siyosiy diskurs, ma'lumotni manipulyatsiya qilish, mental tasvirlar, ritorik usullar.*

ВВЕДЕНИЕ

Информативная тактика в политическом дискурсе представляет собой совокупность стратегий и приёмов, направленных на управление информацией для достижения определенных коммуникативных и политических целей. Е.И. Шейгал подчёркивает, что информативный аспект в политике часто сопоставляется с экспрессивностью и фактичностью, при этом акцент делается на ценностях и оценке, а не только на чисто фактических данных. [1] Это означает, что

[1] Шейгал, Е. И. (2000). *Семиотика политического дискурса*. Волгоград: Перемена.стр 62

политическая информация редко бывает нейтральной и чаще всего преподносится в форме, выгодной для её источника.

Контроль информации в рамках данной тактики осуществляется в двух основных аспектах:

- **Количественный аспект** предполагает ограничение объёма предоставляемых данных, что позволяет избежать их избыточности или недоступности для аудитории.
- **Качественный аспект** включает в себя использование таких приёмов, как репрезентация, замалчивание или искажение информации. Пол Чилтон отмечает, что данные методы связаны с нарушением максим Грайса, включая принципы количества, качества и манеры [2]

Значение данной тактики заключается в её способности не только информировать, но и влиять на общественное мнение. Тактика информирования направлена на использование формирования общественного восприятия событий, установления доверия к власти и обеспечения легитимности политических решений. Политический дискурс направлен на создание ментальных репрезентаций, которые закрепляются в массовом сознании и формируют мировоззрение аудитории. Это подтверждается исследованиями, указывающими на то, что информативная тактика помогает управлять восприятием посредством адаптации информации к идеологическим и культурным контекстам.[3]

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Информативная тактика играет важную роль в поддержании социальной стабильности и политического порядка. Она позволяет достигать баланса между необходимостью предоставления данных и эмоциональным воздействием, а также способствует созданию идеологических структур, поддерживающих власть. Благодаря этим особенностям, данная тактика становится одним из наиболее эффективных инструментов политической коммуникации

Основные функции тактики информирования

Передача фактов. В рутинной законодательной деятельности информативная функция играет ключевую роль, способствуя обеспечению прозрачности процессов. Передача фактов играет важную роль в законодательной деятельности, помогая делать законы и нормативные акты понятными и структурированными. Это особенно важно для государственных органов, юридических лиц и граждан, которым необходимо быстро разобраться в правовых нормах и требованиях. Когда информация подается четко и без лишней сложности, меньше шансов, что ее будут трактовать по-разному. В правотворчестве это критично, ведь каждый закон должен быть максимально точным и однозначным, чтобы избежать возможных разночтений и правовых коллизий.[4]

Примеры

1. "After the worst recession in 80 years, we fought our way back. We've seen deficits come down, 401(k)s recover, an auto industry set new records, unemployment reach eight-year lows, and our businesses create 15 million new jobs." (После худшей за 80 лет рецессии мы боролись за возвращение. Мы увидели, как сократился дефицит, восстановились пенсионные планы 401(k), автомобильная промышленность установила новые рекорды, безработица достигла восьмилетнего минимума, а наши предприятия создали 15 миллионов новых рабочих мест.)[5]

1. **Создание ментальных репрезентаций** Политический дискурс направлен на формирование определённых ментальных моделей и образов, которые воздействуют на общественное восприятие [6].Политики часто используют риторику и речь, чтобы влиять на то, как люди воспринимают реальность. Это

[2] Chilton, P. (2004). *Analysing political discourse: Theory and practice*. Routledge. Стр 46

[3] Chilton, P. (2004). *Analysing political discourse: Theory and practice*. Routledge. Стр 51

[4] Шейгал, Е. И. (2000). *Семиотика политического дискурса*. Волгоград: Перемена. Стр67

[5] Obama, B. H. (2016, July 27). *Remarks by the President at the Democratic National Convention*. The White House Archives. https://obamawhitehouse.archives.gov/the-press-office/2016/07/28/remarks-president-democratic-national-convention

[6] Chilton, P. (2004). *Analysing political discourse: Theory and practice*. Routledge.p 51

может включать в себя создание положительного образа лидеров, укрепление доверия к определенным убеждениям, поощрение негативных взглядов на политических соперников или подчеркивание критических вопросов, которые захватывают общественный интерес. Использование лексических приемов, метафор, методов убеждения и последовательное повторение центральных сообщений позволяют политикам и СМИ формировать восприятие информации, в конечном итоге влияя на общественное мнение и политические перспективы.

Примеры

"Millions whose lives were once narrowed by injustice or oppression are now able to live more freely and participate more fully in the political, economic, and social lives of their communities." (Миллионы людей, чьи жизни когда-то были ограничены несправедливостью или угнетением, теперь могут жить более свободно и более полно участвовать в политической, экономической и социальной жизни своих сообществ».) [7]

2. **Манипуляция сознанием**.По мнению Шейгал, манипулятивные стратегии включают трансформацию информации, например, смещение акцентов или выборочное предоставление фактов [8].

Одним из распространенных приемов является смещение акцента. Это целенаправленное привлечение внимания аудитории к определенным элементам сообщения, при этом скрывая другие, менее привлекательные компоненты. Избирательное представление фактов — еще один популярный прием. Здесь материал подается таким образом, что дает читателю определенное — хотя и не полностью объективное — впечатление об обстоятельствах. Представляя факты в позитивном свете, а не явно изменяя их, эти стратегии позволяют оратору влиять на восприятие и точку зрения аудитории.

ОБСУЖДЕНИЕ

Информативная тактика в политическом дискурсе демонстрирует сложность процессов управления общественным восприятием. Как показывают приведённые примеры, информирование редко бывает нейтральным; оно неизменно сопровождается элементами воздействия, будь то выбор слов, акцентирование отдельных фактов или скрытие определённой информации. В этом контексте ключевую роль играет способность политиков адаптировать своё сообщение к ожиданиям аудитории, её культурному и идеологическому фону.

Сравнение политических выступлений на английском, русском и узбекском языках позволяет выявить значимые различия в подходах к использованию информативной тактики. Англоязычные политики, как правило, стремятся к конкретике: в их речи часто встречаются числовые данные, детализированные примеры и ссылки на конкретные сферы. Это создаёт иллюзию прозрачности и открытости, даже если информация подаётся выборочно. В русскоязычном и узбекоязычном дискурсе наблюдается тенденция к использованию более обобщённых утверждений и эмоционально окрашенных фраз. Здесь важную роль играет создание впечатляющего образа прогресса, успеха и стабильности, что способствует укреплению доверия к власти.

Манипулятивный потенциал информативной тактики выражается в способности трансформировать восприятие аудитории через акцентирование нужных аспектов. В этом плане стратегии смещения акцентов и выборочного предоставления данных оказываются особенно эффективными. Политики используют их для того, чтобы не только информировать, но и формировать желаемое представление о событиях, избегая при этом сложных и неоднозначных вопросов.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Тактики подачи информации, чтобы подчеркнуть свои достижения. Эти выступления акцентируют внимание на успехах, выгодных для представления своей программы, что помогает укрепить доверие аудитории. Однако подходы к предоставлению контекста

[7] Obama, B. H. (2014, September 24). *Remarks by President Obama at the United Nations General Assembly*. The White House Archives.

[8] Шейгал, Е. И. (2000). *Семиотика политического дискурса*. Волгоград: Перемена.с235

TAMADDUN NURI

различаются. В англоязычных речах, например, успехи описаны более детально: упоминаются конкретные отрасли, цифры и их влияние, что делает информацию более убедительной и доступной для критического анализа.

В узбекских речах, напротив, акцент делается на крупных, впечатляющих показателях, таких как рост числа туристов или доходов от туризма, но без объяснения причин или контекста, которые бы позволили глубже понять эти достижения. Русскоязычные примеры следуют схожему пути: крупные цифры и эмоциональные описания создают яркий образ успеха, но часто без глубокого анализа или пояснений, что стоит за этими результатами.

Все эти примеры иллюстрируют, как информативная тактика помогает политикам формировать позитивные ментальные образы и укреплять легитимность своих действий. Но в каждом случае ограниченный контекст и отсутствие глубины оставляют аудитории меньше возможностей для критического восприятия информации, превращая её в инструмент влияния, а не объективное представление фактов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Информативная тактика в политическом дискурсе представляет собой мощный инструмент влияния, способный не только передавать сведения, но и формировать общественное мнение. Исследование её особенностей в различных языковых и культурных контекстах показывает, что подача информации зависит от политической традиции, коммуникативных норм и ожиданий аудитории. В англоязычных текстах упор делается на конкретные данные, что создаёт ощущение рациональности и логики, в то время как в русскоязычном и узбеко-язычном дискурсе предпочтение отдаётся эмоциональному и образному представлению информации.

Используемые политиками приёмы, такие как репрезентация, замалчивание и акцентирование определённых аспектов, демонстрируют их стратегический подход к управлению информацией. Эти методы позволяют не только продвигать политические идеи, но и формировать ментальные репрезентации, влияя на общественное восприятие.

Таким образом, информативная тактика в политическом дискурсе — это не просто процесс передачи данных, а сложный механизм коммуникационного воздействия.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ван Дейк, Т. А. **Язык. Познание. Коммуникация**. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с.
2. Вебер, М. **Политика как призвание и профессия** // Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – С. 644–706.
3. Вендлер, З. **Значение, речь и действие**. – М.: Логос, 2002. – 320 с.
4. Грайс, Г. П. **Логика и разговор** // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.
5. Лакофф, Д. **Метафоры, которыми мы живем**. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.
6. Фаулер, Р. **Язык и власть**. – Лондон: Routledge, 1991. – 272 с.
7. Фэйрклоу, Н. **Критический дискурс-анализ**. – М.: Идея-Пресс, 2008. – 432 с.
8. Чартерис-Блэк, Дж. **Политическая риторика: метафора в дискурсе**. – Лондон: Palgrave Macmillan, 2014. – 300 с.
9. Чилтон, П. **Анализ политического дискурса: теория и практика**. – Кембридж: Cambridge University Press, 2004. – 240 с.
10. Шейгал, Е. И. **Семиотика политического дискурса**. – Волгоград: Перемена, 2004. – 368 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94:325(575.1)

YEVROSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG‘ONA VODIYSIGA KO‘CHIB KELISHI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI

Djuraev Ikrom Nematovich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

МИГРАЦИЯ ЕВРАЗИАТСКИХ КОЧЕВЫХ ПЛЕМЁН В ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ: АНАЛИЗ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ И ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Джураев Икром Нематович
Доцент Гулистанского государственного педагогического института

MIGRATION OF EURASIAN PASTORAL TRIBES TO THE FERGANA VALLEY: ANALYSIS OF ARCHAEOLOGICAL AND HISTORICAL SOURCES

Djuraev Ikrom Nematovich
Associate professor of Gulistan State Pedagogical Institute

El.pochta:
ikromgdu@mail.ru
https://orcid.org/0009-0006-9895-5121

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arxeologik materiallar va adabiyotlar asosida Markaziy Osiyo hamda Yevroosiyo dashtlari qabilalari o‘rtasidagi madaniy-xo‘jalik aloqalarining shakllanishi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, bronza davrida dasht qabilalarining shimoldan janubga migratsiyasi ortidan yuz bergan o‘zgarishlar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti hamda bronza davri qabilalarining migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq muammolar ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: migratsiya, Srub madaniyati, Andronovo madaniyati, ko‘chmanchi chorvadorlik, qo‘lda yasalgan keramika, Vodil qabristoni, katakomba.*

Аннотация: *В статье рассматриваются археологическими материалами и литературой проблемы освоения культурно-хозяйственные связи между племенами Средней Азии и степей Евразии, наиболее явно происходившие в эпоху бронзы после миграции степных племен севера на юг. Кроме этого в статье раскрывается социально – экономическая и культурная жизнь переселенного населения, а также проблемы миграционного движения племён эпохи бронзы.*

Ключевые слова*: Миграция, срубной культура, андроновской культура, кочевого скотоводства, лепной керамика, могилник Водил, катакомба.*

Abstract: *This article reflects archaeological materials and literature on the problems of developing cultural and economic ties between the tribes of Central Asia and the steppes of Eurasia, which most clearly occurred in the Bronze Age after the migration of the steppe tribes from north to south. In addition, the article reveals the socio-economic and cultural life of the resettled population, as well as the problems of the migration movement of the Bronze Age tribes.*

Key words*: Migration, Srubna culture, Andronovo culture, nomadic cattle breeding, molded ceramics, graves Vodil, the catacomb.*

Kirish. Yevroosiyo dasht qabilalari Farg‘ona vodiysining janubiy va g‘arbiy hududlariga kirib kelishi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlanagan. Bu haqda dastlabki xabarni arxeolog A.N.Bernshtam asarlaridan bilishimiz mumkin. A.N.Bernshtam 1940-yilda Sulaymon tog‘idan janubda, O‘sh shahri yaqinidan topilgan archasimon naqshli sopol parchalari bilan tanishib, bu sopol parchalarini bronza davrining andronova-Karasuk madaniyatiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi va uning yil sanasini mil.avv. II-ming yillikning oxiri va I-ming yillikning boshlari bilan belgilaydi [2: 186-b]. N.G. Gorbunova va B.Z. Gamburglar 1950-yillarda Janubiy Farg‘onaning adirlik zonalaridan bronza davrining dasht qabilalari madaniyatiga tegishli Vodil va Karamqo‘l yodgorliklarini topadilar.

Farg‘ona o‘lkashunoslik muzeyining arxeologi B.Z.Gamburg 1950-yillarda Farg‘ona viloyatining janubiy hamda janubiy-sharqiy qismida arxeologik qidiruv ishlarini olib borib, 1954-yilga kelganda, to‘rt yillik arxeologik ish faoliyatining yakuni sifatida arxeologik xaritaga 84 ta yodgorlikni tushiradi. Ular asosan yassi tepaliklardan iborat tosh qo‘rg‘onlar bo‘lib, ular orasida Vodil tumani markaziga yaqin joyda joylashgan katta qabriston alohida e’tiborga loyiq ekanini ta’kidlab, Sankt-Peterburglik arxeolog N.G. Gorbunova bilan hamkorlikda Vodil qabristonini qazishga kirishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Vodil qabristoni. Qabristonning mozor usti qurilmalari yassi tosh tepaliklar ko‘rinishida bo‘lib, ular Olatov tizmalarining shimoliy adirlari bo‘ylab yoyilgan edi. Qabriston maydoni janubdan shimolga 2 km, sharqdan g‘arbga 2,5 km masofani egallagan. Mana shu maydonda 273 ta yassi tosh qo‘rg‘onlar hisobga olingan. Qadimgi qabriston Shoximardon soyi bo‘ylab joylashgan. Qabriston shimol tomondan Vodil qishlog‘iga tutashib ketgan [6: 85-93-b; 7: 93-b].

Bronza davrining Andronova chorvadorlari o‘z moddiy madaniyat izlarini O‘sh va O‘zgan yaqinida ham qoldirib ketganlar. Ular sopol parchalari, shoxdor bilakuzuklar sifatida topilgan [2: 186-b]. Aynan shunday bilakuzuk Toshkent viloyatidan ham topilgan [4: 65-b].

Vodil qabristonida B.Z. Gamburg va N.G. Gorbunovalar tomonidan 1955-yilda qazishma ishlari davomida 31 ta mozor-qo‘rg‘onlar ochiladi. Tosh yashiklar usti tosh plitalar bilan yopilganligi aniqlanadi. Vodil qabristonining tosh yashiklari, ularda yotgan skeletlar holati va orientirovkasi hamda ularda topilgan ashyoviy dalillar kompleksi Janubiy Sibir va tog‘li Oltoyning bronza davri andronova madaniyati yodgorliklarini eslatadi [12: 68-70-b]. Vodil qabristonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko‘ra, G‘arbiy Qozog‘iston [8: 20-22-b] va Janubiy Sibir [12: 70-78-b] andronova madaniyati yodgorliklari keramikasining aynan o‘zidir. Vodil qabristonidan topilgan bronza va pastaviy munchoqlar hamda uchli bronza uzuklar Janubiy Sibir materiallariga juda o‘xshab ketadi [12: 78-79-b]. Vodil qabristonidan topilgan antropologik materiallar V.V. Ginzburg tadqiqotiga ko‘ra, dolixokefal yevropoid tipining andronoid variantiga tegishli ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning metadologiyasi. Mazkur ilmiy maqolaning ilmiy – nazariy asosi tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda xolisonalik, haqqoniylik, tarixiylik va hujjatli ravishda asoslanganlik tamoyillariga tayanadi. Ochilgan 31 ta qabrdan 16 tasida 23 ta sopol idishlar topilgan. Idishlar bir xil shaklda, og‘zi keng, tashqariga qayrilgan, qorni bo‘rtib chiqqan ko‘rinishda. Idishlarning yelka qismi chizma va chekma naqshlar bilan qoplangan. Naqshlar parallel egri chiziqlar va tomchisimon oval chizikchalardan iborat. Sopol tuvaklar tanasining pastki qismida olov izlari saqlangan. Demak, ularda oziq-ovqat tayyorlangan.

Ba’zi bir ayol skeletining bilak suyaklarida bikonik shakldagi munchoqlardan tizilgan bronza bilakuzuklari, bir uchi ilon boshli, ikkinchi uchi bigiz tig‘li bronza uzuklari va silindrsimon pasta munchoqlar uchraydi. 6 ta mozordan bronza predmetlari topilgan. Ular bronzadan yasalgan munchoqlar, uzuk va sirg‘a hamda ikki parrakli zo‘g‘otali paykonlardan iborat. Uchta mozordan pastali munchoqlar ham topilganligi umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Vodil qabristonidan topilgan sopol idishlar shakli va ularning naqshlariga ko‘ra, G‘arbiy Qozog‘iston [8: 68-b] va Janubiy Sibir [12: 124-b] andronova madaniyati yodgorliklari keramikasiga o‘xshasa-da, Vodil sopoli o‘zining arxaikaligi va naqshining soddaligi

bilan ko‘proq Toshkent vohasi bronza davri sopollariga o‘xshab ketadi [18: 69-b; 19: 30-31-b].

Karamko‘l qabristoni. Ushbu yodgorlik Vodil qabristonidan 40 km.lar chamasi shimoli-sharqda, Isfayram soyidan shimoli-sharqdagi adirlikda joylashgan [7: 133-135-b]. Bu joyda 16 ta ko‘rg‘on ochilgan. Ular xuddi Vodil qabristoni qo‘rg‘onlari kabi mayda tosh va shag‘al tuproq aralash aylana shaklidagi yassi tepaliklardan iborat bo‘lib, ular ostidagi qabrlarda jasadlar tosh yashiklarga ko‘milgan. Tosh yashiklarda skeletlar g‘ujanak holatda, chap yoki o‘ng yoni bilan, boshi g‘arbga qaratilgan holda yotgan. Mozorlarning barchasi o‘g‘irlangan, ashyoviy dalillar deyarli uchramaydi. Faqat bir mozorda (№ 2) pastadan ishlangan atigi bitta bezak topilgan bo‘lib, unga analogiya qadimgi Xorazmning Ko‘kcha 3 qabristonida uchraydi [10: 96-b].

Ma’lumki, Farg‘ona vodiysining sharqiy tumanlarida qadimgi dehqon aholisining Chust madaniyati namunalari topilgan. Vodiyning g‘arbiy tumanlarida bronza davrining chorvador dasht qabilalari yodgorliklarini topilishi B.A. Litvinskiyga ularni mushtarak joylashgan makonlari nomi bilan “Qayroqqum madaniyati” deb atashga imkon bergan.

Qayroqqum manzilgohlari. Qayroqqum hududlarining katta qismi taqirliklardan iborat. Aynan, mana shu taqirliklar yuzasida sopol parchalari ko‘plab uchraydi va ularning ma’lum maydonda qalinlashishi, bronza metallurgiyasining toshqollari, bronza va toshdan yasalgan xo‘jalik asbob-uskunalari, tosh yorg‘uchoq hamda mehnat va harbiy qurollar yasash qoliplari, olovda kuygan tosh uyumlari, taqir yuzasida o‘yilgan o‘choq o‘rinlari va boshqalar uchraydiki, har bir shunday ashyoviy dalillar qalin sochilib yotgan makonlar bronza va ilk temir davri urug‘ jamoalarining manzilgohlari bo‘lgan.

Qayroqqum makonlarida yerto‘lalar konstruksiyasi haqida aniq tasavvur hosil qilish qiyin. Birgina makon № 16 da qazishmalar vaqtida somonli loy suvoq parchalari uchragan. Ammo, makon №16 da yoki boshqa Qayroqqum makonlarida taqirga o‘yilgan yerto‘la yoki yarim yerto‘la izlari uchratilmagan.

Ammo, qayroqqumliklar uy-joy qurilishida toshdan, ya’ni slans tosh plitalaridan (bu hududda qatlamli slans toshlar yetarlicha bor edi), xuddi Daxana qabristoni misolidagidek, keng ko‘lamda foydalanishlari mumkin edi-ku. Biroq, dasht qabilalariga tanish bo‘lgan bu tajriba Qayroqqumda kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar. Yevroosiyo chorvador qabilalarining Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishi madaniy, ijtimoiy va xo‘jalik sohalarida muhim o‘zgarishlarga olib kelgan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, bronza davridan boshlab dasht hududlarida yashagan ko‘chmanchi qabilalar Farg‘ona vodiysining janubiy va g‘arbiy hududlariga kirib kelib, mahalliy aholi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni o‘rnatgan.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bu migratsiya jarayonlari chorvadorlar va dehqonlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir jarayonlarini kuchaytirgan, natijada yangi xo‘jalik yuritish usullari, hunarmandchilik an’analari va dafn marosimlari shakllangan. Andronova va srubnaya madaniyatlari bilan bog‘liq keramika va dafn odatlari bu hududdagi aholining etnik va madaniy rang-barangligini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, Yevroosiyo chorvador qabilalarining Farg‘ona vodiysiga kirib kelishi nafaqat demografik o‘zgarishlarga, balki mintaqaning madaniy taraqqiyotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Buyuk migratsiya jarayonlari natijasida hududlararo aloqalar mustahkamlangan, bu esa keyinchalik Farg‘ona vodiysining tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства (по металлическим изделиям). Автореф. канд. Дисс. –Ленинград, 1979. –С. 17, 24.
2. Бернштам А.Н. Историко–археологические очерки Центрального Тянь–Шаня и Памиро–Алая. –М.–Л., 1952. –С. 186;
3. Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН Уз.ССР. « Тр. Ин–та Истории и археологии. АН.Уз.ССР», т. 1 – Ташкент–1948. –С. 65, рис. 1.
4. Джураев И. МИГРАЦИОННИЙ ПРОЦЕС ЦЕНТРАЛЬНО АЗИАТСКИХ СКОТОВОДЧЕСКИХ ПЛЕМЕН НА ЮГ //ТРАДИЦІЙНІ ТА ІННОВАЦІЙНІ ПІДХОДИ ДО НАУКОВИХ ДОСЛІДЖЕНЬ. – 2021. – С. 225.
5. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Могильник эпохи бронзы в Ферганской долине. КСИА, Вып.63. –Москва.1956. –С. 85–93;

6. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА, № 3, 1957. –С. 130–133.
7. Грязнов М.П. Погребения эпохи бронзы в Западном Казахистане. Сб. “Казаки” , Вып. № 11. –Ленинград, 1927.
8. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины. // СА № 3, 1957, –С.133–135.
9. Итина М.А. Раскопки могильника Тазабагъябской культуры Кокча 3. “МХЭ”, Вып.5, –Москва, 1961. –С.3–96.
10. Иванов Г.П. Кашкарчинский могильник–новый могильник эпохи поздней бронзы в Фергане. ОНУ. –Ташкент, 1988. № 10. –С. 44–47.
11. Киселов С.В. Материалы и исследования по археологии Сибири. // МИА. 24, 1952. –С. 39, рис.22,29.
12. Литвинский Б.А. и др. Древности Кайраккумов. –Душанбе, 1962, –С. 151–152.
13. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Изд. УзФАН, 1940. № 9, –С. 30–31.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 39:398.22

К ВОПРОСУ ОБ ЭТНОГРАФИЧЕСКОМ ЗНАЧЕНИИ ЭПОСА «КЫРК КЫЗ»

Жолдасбаева Гулнара Азат кызы, *докторант Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан*

"QIRQ QIZ" DOSTONINING ETNOGRAFIK AHAMIYATI MASALASI HAQIDA

Jo'ldasboyeva Gulnora Azat qizi, *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

ON THE QUESTION OF THE ETHNOGRAPHIC SIGNIFICANCE OF THE EPIC "KYRK KYZ"

Zholdasbayeva Gulnara Azat kyzy, *doctoral student of the Karakalpak Research Institute of Humanities of the Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

joldasbaevanara@gmail.com

https://orcid.org/0009-0001-5381-7490

Аннотация: *Статья исследует героический эпос «Кырк кыз» как ценное культурное наследие каракалпаков, анализируя его историческую значимость, воинскую культуру, семейные традиции, этнографические элементы и актуальность для современных исследований.*
Ключевые слова: *фольклор, эпос, обычай, воинская культура, традиция.*
Annotatsiya: *Ushbu maqolada qoraqalpoqlarning bebaho madaniy merosi bo'lmish "Qirq qiz" qahramonlik dostoni o'rganilib, uning tarixiy ahamiyati, harbiy madaniyati, oilaviy urf-odatlari, etnografik jihatlari hamda zamonaviy tadqiqotlardagi dolzarbligi tahlil etilgan.*
Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, doston, urf-odat, harbiy an'analar, rasm-rusum.*
Abstract: *This article explores the heroic epic "Kyrk Kyz" as a valuable cultural heritage of the Karakalpak people, analyzing its historical significance, martial culture, family traditions, ethnographic elements, and relevance for contemporary research.*
Key words: *folklore, epic, custom, martial culture, tradition.*

ВВЕДЕНИЕ. Этнография как наука использует в своих исследованиях всевозможных источников. В этом неоценима роль образцов народного устного творчества, в том числе героического эпоса, как историко-этнографического источника. Одним из ярких примеров является каракалпакский эпос «Кырк кыз», не имеющий аналогов в фольклоре соседних народов. Эпос представляет собой богатый этнографический источник, отражающий культурные, исторические, социальные и бытовые особенности народа.

Цель исследования – проанализировать, какие этнографические сведения можно извлечь из эпоса «Кырк кыз» и как он способствует изучению культуры каракалпаков.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ. В исследовании используется исторический и сравнительные методы, которые помогают глубже понять

значения эпоса. В качестве основных источников использованы труды исследователей фольклора, этнографии и истории, а также анализ текстов самого эпоса.

Анализ существующей литературы показывает, что исследователи подчеркивают роль «Кырк кыз» не только как литературного произведения, но и как отражения социально-культурных реалий каракалпаков. Т.Жданко, говоря о богатом эпическом наследии каракалпаков, отмечала: «Среди них особенно своеобразна прекрасная каракалпакская эпическая поэма “Кырк кыз”, сюжет которой строится на древней легенде о девушках-воинах – “амазонках” [3, с. 110]. Еще до первого своего издания эпос вызвал огромный интерес у многих историков и этнографов. Многолетние исследования эпоса «Кырк қыз» позволили признать его шедевром мирового фольклор [6, с. 90].

Эпос “Кырк кыз” был записан в 1939—1940 гг в Турткульском районе от сказителя Курбанбая-жырау Таджибаева каракалпакскими писателями А.Бегимовым, Ш.Хошниязовым и С.Мауленовым. В 1949 г эпос был издан впервые на каракалпакском языке [4, с. 4]. После публикации интерес к эпосу значительно возрос среди ученых. Многие исследователи эпоса, глубоко изучая оценили его высоко. В научном труде Н. Давкараева поэма «Кырк кыз» занимает первое место среди произведений каракалпакского народа, где воспевается мужество, по широте, глубине содержания, структуре, своеобразности и неповторимости. Также отмечается, что эпос включает более 25 000 стихотворных строк [1, б. 263].

В исследовании используется несколько подходов, позволяющих глубже понять этнографическое значение эпоса «Кырк кыз».

Во-первых, проводится историко-этнографический анализ – рассматриваются традиции, обычаи, быт и воинская культура каракалпаков, которые нашли отражение в эпосе.

Во-вторых, применяется фольклорно-литературный анализ, чтобы выявить особенности построения эпоса, его сюжетные мотивы, характерные для устного народного творчества, а также образ героини Гулаим и её соратниц.

Также проводится контекстуальный анализ – эпос рассматривается в историческом контексте, особенно в связи с борьбой каракалпаков за независимость. Эпос связывают с событиями, которые происходили во времена кочевых народов Средней Азии, периодически подвергавшихся нападениям врагов, таких как джунгары или другие завоеватели. В основе сюжета лежит идея борьбы за свободу, что было актуально для каракалпакского народа на протяжении веков.

Отдельное внимание уделяется лингвистическому анализу, поскольку в эпосе встречается множество терминов, связанных с бытом, оружием, одеждой, семейными отношениями и традиционными играми. В повествовании описаны виды оружия как: *қылыш* (сабля), *найза* (копье); видов коней: *бедеў, тулпар, арғымақ* и д р. Их изучение помогает лучше понять культуру каракалпаков того времени.

Наконец, используется контент-анализ, позволяющий выявить, какие этнографические элементы встречаются в эпосе чаще всего, и какие ценности они передают.

Такой подход даёт возможность рассмотреть «Кырк кыз» не только как литературное произведение, но и как богатый источник информации о культуре, традициях и мировоззрении каракалпакского народа.

РЕЗУЛЬТАТЫ.

Историческое значение эпоса. Эпос описывает борьбу каракалпаков за независимость. Он связан с кочевыми народами Средней Азии и их сопротивлением завоевателям. В центре повествования находится Гулаим-предводительница сорока девушек и её военные подвиги с доблестными воительницами.

Эпос отражает также важные идеи, как патриотизм, преданность родине, защита своей земли и народа, борьба за справедливость сохранение чести и единство народов. А также поэма показывает дружбу народов. Это видно в сценах восстания против Суртаиши в калмыцкой крепости, а также в конце, где правителями Хорезма становятся бии из узбеков, казахов, каракалпаков и туркмен.

Воинская культура и традиции. Основной сюжет повествует о сорока девушках, которые объединились для защиты своей родной

земли. Это подчеркивает значимость воинской культуры и ценности таких качеств, как храбрость, преданность и честь. В повествовании описаны виды оружия как: *қылыш* (сабля): *Қылыш берип қолына* (Дав меч в ее руку); *саўыт* (доспех): *Ақсаўыт кийген үстине* (Надевший белые доспехи); *сарыжай* (вид стрелкового оружия): *Сарыжайды үш жыл, үш ай соқтырып* (Заставив делать лук три года, три месяца); *найза* (копье): *Қолыңа ал найзаны* (Возьми копье в руку) [5, с. 8, 29, 30, 65].

Военная подготовка женщин- воительниц в эпосе подчеркивает значимость женского участия в воинской культуре.

Коневодство и национальные игры. В эпосе широкое отражение нашли сведения о коневодческом искусстве каракалпаков. Описываются несколько видов коней: *бедеў, тулпар, арғымақ, жорға, торы ат*. Также в эпосе отражены сведения о скотоводстве и охоте у каракалпаков: упоминаются кони, верблюды, овцы. Есть сведения об охоте на оленя, тигра, зайцев.

А также упоминаются такие слова, связанные с коневодством как *қамшы* (кнут для управления лошадью): *Қолға қамшы алады* (Берет в руки кнут); *ер-турман* (седло и упряжь): *Тулпарыңа салыпсаң алтын ериңди* (Положил на коня золотое седло); *таға* (металлическая подкова): *Полаттан таға қақтырдым* (Прибил подкову из чугуна) и т д [5, с. 11, 44, 54].

В эпосе и традициях кочевой культуры каракалпаков важное место занимают национальные игры и состязания, такие как *ылақ* (состязания наездников), *көкпар* (козлодрание) и *алтын қабақ атыў* (метание золотых стрел).

Чаще всего *ылақ ойын* относится к разновидности игры, похожей на көкпар, в которой всадники борются за тушу козы. В данном случае они борются за *ылақ* (козленок). Здесь участники показывают свою силу и умение работать в команде.

Фигурирование козла как особого, культурного животного в разных областях жизни народов Средней Азии позволяет нам причислить его к разряду тотемных животных древних предков этих народов [2, с. 48].

В рамках игры *алтын қабақ атыў* (золотых метание стрел) участники стреляли из лука по мишени, которая обычно представляла собой круглый предмет (алтын қабақ).

Национальная одежда. Особого внимания заслуживает описание национальной одежды. В эпосе «Кырк кыз» упоминается о традиционном головном уборе каракалпакских девушек — *сәўкеле*: *Сәўкеле кийди басына* **(**Надела на голову саукеле); *Алтын гүмис сәўкелеси басында* **(**Золотые, серебряные саукеле на голове) [5, с. 9, 30].

Саукеле у каракалпаков представляет собой старинный головной убор, который является важным элементом национального костюма. Этот изысканный аксессуар, богато украшенный орнаментами, символизирует статус и красоту девушки. А также приведены сведения о других, таких как *шапан* (халат): *Ийниндеги шапаны* (Халат на плечах), *сәлле* (чалма) и *мәлле* (чапан): *Тауып алды саллени* (Нашел себе салле)*, үстине кийди мәллени (Надел на себя малле)* и тд [5, с. 17, 26].

Родственные термины и семейные традиции. Надо указать, что в эпосе встречаются термины, обозначающие родственные связы, такие как *ата* (отец), *ана* (мать), *аға* (старший брат), *жеңге* (жена старшего брата), *бийкеш* (вежливое обращение к молодой женщине), *қарындас* (сестра младшая для брата), *куйеў* (зять, муж дочери или сестры).

Анамды жақсы бақтрыдың.
Арнап маған, атажан.
Алтыннан бесик соқтырдың [5, с. 40].
Мою маму ты хорошо опекал
Для меня, отец
Из золото колыбель сделал (Ж.Г)

Один из важнейших персонежей является *женге* (жена старшего брата).

Айналайын жеңгежан,
Айтқаныма қулақ сал [5, с. 50].
Дорогая женге
Прислушайся к тому, что я скажу (Ж.Г)

Женге занимало особое место в семье, выполняя одновременно родственные, воспитательные и посреднические функции. В традиционном обществе строгие правила поведения ограничавали общения между молодими людьми, и именно она стало «мостом» для них.

Сушествование посредниц-женге между девушкой и юношей-древный обычай, о нем

упоминается в эпосе; он бытовал и у других народов Средней Азии (казахи и др.) [2, с. 48]. В связи с этим появились такие пословицы, как: *Қыздың сырын жеңгеси биледи* (Тайны девушки знает ее женге), *Жолы болар жигиттиң жеңгеси шығар алдынан* (Если юноше суждено удача, женге выйдет ему навстречу).

Родственные термины играют важную роль в эпосах, они передают особенности каракалпакских традиций и нравов.

Религиозные и мифологические мотивы. До распространения ислама, многие тюркские народы, в том числе каракалпаки, придерживались древних верований. В эпосе встречаются мотивы, связанные духами природы, заклинаниями и магическими ритуалами. Один из таких ритуалов, упоминаемых в эпосе, является *дем салыў*. Это произнесение заклинания или молитвы с целью исцеления или изгнания злых духов. Однако в поэме это колдовство используется с целью навредить.

Көп ўақытлары дем салып
Қызды жансыз уўлады [5, с. 73].
Много раз, совершая дем салыу
Девушку безжизненной отправили (Ж.Г)

Кроме того, имеются строки, где упоминаются *палшы* (гадалки, предсказатели) предсказывающие будущее или судьбу, а также *тәўип* (знахар) лечащие раненых с помощью трав и заговоров.

Палшыға пал салдырды,
Шашып дүнья-малларын,
Тәўипке өзин бақтырды [5, с. 31].
Предсказатель раскладывал гадания,
Растратив все свои богатсва
Знахару доверился он, чтобы тот его излечил (Ж.Г)

Героический эпос сочетает в себе как древние верования, так и элементы ислама. В дастане встречаются такие термины как *пир* (духовный наставник), *периште* (ангел), *әзрейил* (ангел смерти), *бейиш* (рай),связаны с религиозними представлениями о духовном мире.

Перištелер жыйылды [5, с. 34]. Ангелы собрались

Әзрейили жанын алған соң [5, с. 35]. Когда Әзрейил забрал его душу

Бейиштиң ашық қапысы [5, с. 37]. Врата рая открылись (Ж.Г)

А также, присутсвуют религиозные благословения (*пәтия*) перед боем или иных важных собитии.

Жыйналып келип хәммеси Собравшись все вместе

Пәтиясын береди[5, с. 82]. Даруют ему патия (Ж.Г)

Религиозные мотивы в каракалпакской культуре не просто связаны с исламом, но и сохраняют следы древних верований. Это показывет, как духовные традиции народа менялись с течением времени, но при этом сохраняли свою особенность.

ОБСУЖДЕНИЕ. Эпос «Кырк кыз» является ценным этнографическим источником, который отражает важнейшие аспекты материальной и духовной культуры каракалпаков. В нем детально описаны традиции, быт, родственные отношения, воинская культура, религиозные верования и даже народные игры.

Особый интерес вызывает изображение военной культуры и роли женщин-воительниц. Героиня Гулаим и её соратницы показаны не только как защитницы своей родной земли, но и как носительницы традиционных ценностей – патриотизма, чести и преданности. Это подтверждает, что у каракалпаков, женщины могли играть значимую роль в военных событиях.

Большое внимание уделяется описанию вооружения, коневодства и боевых традиций. Эпос передает сведения о таких видах оружия, как *қылыш* (сабля), *найза* (копье), *саўыт* (доспехи), а также о разновидностях лошадей. Это подтверждает, что коневодство и воинская подготовка были неотъемлемой частью жизни каракалпаков.

Интересно, что в эпосе встречается множество терминов, связанных с семейными и родовыми отношениями. Это подчёркивает значимость родственных связей и их влияние на общественные устои. Например, образ женге (жены старшего брата) показывает её роль как посредницы в общении молодых людей. Это древний обычай, который существовал не только у каракалпаков, но и у других народов региона.

Национальная одежда также является важным элементом этнографического содержания эпоса. В частности, упоминание

TAMADDUN NURI

саўкеле – традиционного головного убора каракалпакских девушек – говорит о том, что этот элемент наряда имел особое значение и символизировал статус невесты.

Религиозные и мифологические мотивы, присутствующие в эпосе, демонстрируют сочетание древних верований и исламских традиций. Упоминания о периште (ангеле) и бейише (рае) свидетельствуют о распространении ислама среди каракалпаков, в то время как элементы шаманизма, такие как дем салыў (заклинания) и палшы (предсказатели), указывают на сохранение древних верований.

Таким образом, эпос «Кырк кыз» является богатым источником информации о культуре каракалпаков. Он не только рассказывает о героических подвигах, но и передаёт важные сведения о жизни, традициях и мировоззрении народа, делая его ценным материалом для этнографических и культурологических исследований.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Таким образом, эпос “Кырк кыз” является этнографически наполненным источником по материально-духовной культуре каракалпаков. В нем нашли отражение сведения об истории, хозяйстве, жилище, одежде, семейных отношениях, традициях и обрядах. Кроме того, он отражает важность таких ценностей как патриотизм, равноправие женщин, единство, мужество и справедливость. В нем отражены исторические реалии, борьба с внешними врагами и другие важные события, пережитые народом на протяжении его истории.

Приведенные примеры подчеркивают неразрывную связь каракалпакского фольклора с этнографией. Фольклор как источник для изучения истории и этнографии каракалпаков сохраняет свою актуальность. Эпос «Кырк кыз» представляет собой серьёзный этнографический источник, предоставляющий исследователю богатый фактический материал.

Список литературы:

1. Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы 2-том. Нөкис «Қарақалпақстан» баспасы, Нөкис-1977.
2. Есбергенов Х, Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каркалпаков. Нукус: Каракалпакстан, 1975.
3. Жданко Т.А. Каракалпакская эпическая поэма «Кырк кыз» как историко-этнографический источник // Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. Вып. XXX. М., 1958.
4. Каракалпакский фольклор. Многотомник. Т. 9-13. Т.: “Маънавият”, 2009. (на каракалпакском языке).
5. Кырк кыз. Эпос Каракалпакский фольклор. Многотомник. Ташкент.: Маънавият., 2009. (на каракалпакском языке).
6. Отенязов П.Ж. История сбора, издания и исследования каракалпакских народных сказок // Российская тюркология. – 2018. – № 3–4.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 316.1.320.1(1.1)

"IJTIMOIY-FALSAFIY G'OYALAR" TUSHUNCHASI ILMIY TAVSIFLARI VA TALQINLARI

Axmedov Ijod Narziqul o'g'li, Jizzax pedagogik mahorat markazi direktori, dotsent

SCIENTIFIC DESCRIPTIONS AND INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF "SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS"

Akhmedov Ijod Narziqul o'g'li, Director of the Jizzakh Pedagogical Skills Center, associate professor

НАУЧНЫЕ ОПИСАНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЯ "СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ"

Ахмедов Ижод Нарзикул оглы, директор Джизакского центра педагогического мастерства, доцент

https://orcid.org/0000-0002-6220-7897
e-mail: imkoniyat2021@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "ijtimoiy-falsafiy g'oyalar" tushunchasi, uning ilmiy tavsiflari va talqinlari yoritilgan bo'lib, yangicha tizimni va xalq ongini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy g'oyalarning o'rni haqida mulohazalar keltirilgan va ijtimoiy falsafa tarkibiy qismlari sharhlangan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy, falsafiy, g'oyalar, turmush tarzi, mentalitet, jamiyat, odatlar, qadiriyatlar, yangicha qarash, munosabatlar, madaniyat, rivojlanish.*

Abstract: *This article covers scientific descriptions and interpretations of the concept of socio-philosophical ideas, discusses the role of socio-philosophical ideas in shaping a new system and public consciousness, and comments on the structural components of social philosophy.*

Key words: *social, philosophical, ideas, lifestyle, mentality, society, habits, values, newperspective, relationships, culture, development.*

Аннотация: *В статье рассматриваются научные описания и интерпретации понятия социально-философских идей, обсуждается роль социально-философских идей в формировании нового строя и общественного сознания, а также комментируются структурные компоненты социальной философии.*

Ключевые слова: *социальный, философский, идеи, образ жизни, менталитет, общество, привычки, ценности, новая перспектива, отношения, культура, развитие.*

KIRISH. XXI asr fan-texnologiya asri bo'lishi bilan bir qatorda, turli bilimlar, mafkuraviy g'oyalarning bir-biriga ta'siri davri hamdir. Bu davr asosiy xususiyati shundan iboratki, bu jarayonlar chegara, millat va hudud tanlamasligi bilan ham xarakterlanadi. Asl millatni saqlab qolish, milliy ma'naviy va mafkuraviy tizimni saqlab qolish muammosi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo davlat va millatlar o'rtasidagi muammo sifatida qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Asl mafkuralar va ijtimoiy-falsafiy go'yalar tushunchasiga bugungi kun jamiyati va davlat siyosati alohida e'tibor va aholi o'rtasida sa'yi harakatlar davlat siyosatiga aylanib bormoqda, xususan, yurtimizda muhtaram Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni, Madaniyat va san'at sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-114-son Farmoni hamda Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"[1] asarida ham xalqning farovonligi va barqaror kelajagi, uning asl milliylikka asoslangan ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish masalalarini ko'rishimiz mumkin. "Ijtimoy-falsafiy g'oyalar" tushunchasi falsafa fanining jamiyat va uning taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi sanaladi. Jamiyatning amaliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va bir davlatga birikkan turli xil elatlarning birdamligini ta'minlash masalalarini tanbiq etadi. Shunday ekan, bir davlat tarkibiga birikkan turli xil elatlar va millatlarning ijtimoiy kelib chiqishi, turmush tarzi, siyosiy-axloqiy qarashlarini yagona g'oyaga biriktirish muammolari yotadi. O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli va elatli xalqdan tashkil topgan davlat desak xato bo'lmaydi. "Ijtimoy-falsafiy g'oyalar" tushunchasida ilk bor bu haqda gapirgan nemis mumtoz falsafasi vakillari I.Kant, G.Gegel, fransuz faylasuflari O.Kont va E.Dyurkxeymlarning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashlari muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ijtimoiy falsafaning yetuk namoyondasi germaniyalik Aksel Honnetdir.

MUHOKAMA. Yurtimizda ijtimoiy falsafani tadqiq etish va o'rganishga doir ilmiy izlanishlar va munosabatlarda Sa'dulla Otamurodov va Sarvar Otamurodovlarning fikrlari alohida o'ringa egadir. "Jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yuksalishi har bir insonning voqelikka zavqiy munosabati asosida vujudga keladi. Shu boisdan ma'naviy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida o'zining milliy va umuminsoniy xususiyatlarini rivojlantirib boradi. Demak, ―madaniyat odamlar ma'naviy dunyosini boyitishning bosh omiligina emas, balki shaxsni o'z vataniga sadoqat, o'z madaniy merosiga muhabbat hamda boshqa xalqlar, ularning madaniyatlari an'analari va urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi"[2].

Ijtimoiy falsafa nafaqat dunyoqarashni shakllantirish, rivojlantirish, voqelikni baholash va o'rganishni talab etadi, balkim voqelik asosida kelajakni bashoratlash xususiyatini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy falsafani o'rganish va uning qay darajasini baholashda milliy qadiriyatlarga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Milliy qadriyatlar:

a) millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, rang-barang tarzda, turli shaklda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos reallik sifatida ta'sir qiladigan;

b) millatdoshlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko'zga tashlanib turadi; bu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladigan;

v) millatning moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa hayotida muayyan natija sifatida yuzaga keladigan, kishilar uchun zaruriyat tarzida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan;

g) millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf etib boradigan, doimiy yangilanib turadigan, shu bilan birga, vorislik orqali avloddan – avlodga o'tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchadir.

Ijtimoiy falsafa nafaqat jamiyat, balkim millat ongini ham shakllantirishga, yagona xalq sifatida namoyon bo'lishga yordam beradi, balkim jamiyatlar aro ulug'vorlikka ham yetaklaydi. Bugungi kunda, sir emaski, dunyodagi mavjud xalqlar, millatlar va ularning xalq va millat ekanligini ko'rsatib turuvchi belgilarning yo'q bo'lib ketishi va yo'qolishi arafasida turganlar juda ko'pchillikni tashkil etadi. Ulardan eng asosiysi millat tilining yo'qolishi va ishlatilmasligi bo'lib, bu yuqoridagi fikrimizning yaqqol asosidir. Bugungi kunda ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari quyidagilarda deb qarashimiz to'g'riroqdir: Jamiyat – (lotincha: *socium — „umumiy"*) – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

[2] Sa'dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T., ―Yangi asr avlodi‖, 2003, 69-bet.

Inson – bu ijtimoiy hayvon (Aristotel)[3].

Borliq – obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falsafiy tushuncha. U moddiy predmet olamidangina iborat emas. Borliq turli darajada namoyon bo‘ladi: organik va noorganik tabiat, biosfera, ijtimoiy borliq, obyektiv ideal borliq (madaniy qadriyatlar, ilmiy bilimning umumiy prinsiplari, tushunchalari va hokazo), inson turmushi.

Ijtimoiy ong – tabiiy voqelikning in‘ikosi, jamiyatning muayyan davriga tegishli bo‘lgan his-tuyg‘ular, kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuasidir.

Ijtimoiy munosabat – bu shaxslar, ularning guruhlari, tashkilotlari va jamoalari o‘rtasida, shuningdek, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqalar jarayonida yuzaga keladigan turli xil barqaror o‘zaro bog‘liqliklar tizimi. Ijtimoiy ishlab chiqarish – jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojini qondirish uchun kerak bo‘ladigan ne’matlarni yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmui.

Ijtimoiy jarayon – bu odamlarning mavqei va jamiyatda bajaradigan vazifalari bilan bog‘liq ijtimoiy o‘zaro ta’sirda yuzaga keladigan turli xil ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi

Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Qadiriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha.

Obyektiv shart-sharoit – ijtimoiy muhitning kelib chiqishi, rivojlanishi, etnik joylashuvi va shu kabi omillar.

Sivilizatsiya – (lotincha ‘‘civilis’’ fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) jamiyat erishgan moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun’iy olamning moddiy va ma’naviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari ko‘rsatkichi.

Subektiv omillar – subyektiv subyektning o‘z fikrlash tarziga mos keladigan idrok, fikr yoki dalili haqida aytiladi. Shuningdek, dunyoga xos bo‘lgan narsaga nisbatan barcha narsalar haqida aytilgan.

Manfaat – (arabchada foyda ko‘rmoq) 1.Naf, foyda, samara, natija; 2.Individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, huquqini belgilaydigan asosiy omil; 3.Zarurat, ehtiyoj. Shaxs – ma’lum bir ijtimoiy aloqaga kirisha olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish va jamiyatdan foydalana olish va foydasi tegish xususiyatiga ega bo‘lgan individ.

Oila tadrijiy rivojlanishi – nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Jamiyat ichidagi kichik jamiyatning tashkil topishi va rivojlanishi.

Iqtisodiy hayot – Iqtisodiyot — yunoncha “ekonom” va “oykos” so‘zlari birlashmasidan kelib chiqqan bo‘lib, “ekonomika” – *qishloq xo‘jalik asoslari haqida fan* degan ma’noni anglatadi. “Ekonomika” so‘zi ommaviy o‘zbek lug‘atiga o‘tilganda “iqtisodiyot” atamasiga o‘zgaradi.

Ijtimoiy siyosiy hayot – ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqning yangicha ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini shakllantirish va zamonga yangicha nigoh bilan qarashga harakat qilayotgan ekan, demak bu yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir shaxsning burchi sanaladi.

NATIJALAR. *Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar* – har bir xalq, butun bashariyatning orzu-umidlari, maqsad-muddaolarini ifoda etadigan, erkin hayot va adolatli tuzum, davlat va jamiyat qurilishi, millat va elatlar kelajagi haqidagi umuminsoniy g‘oyalar. Ozodlik va mustaqillik, adolat, haqiqat, do‘stlik, tenglik va hamkorlik, tinchliksevarlik va insonparvarlik g‘oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o‘lmas g‘oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlab, ularni o‘z baxt-u saodati, farovonligi uchun kurashga safarbar etib kelgan.

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_(ma%CA%BCnolari)

XULOSA o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar butun bir davlatning, millatning qadr-qimmati va har tomonlama zamon talablariga mos holatda rivojlanish tamoyillarini nazarda tutadi.

1. Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning talqinini anglab yetishda xalqning va millatning kelib chiqish va ijtimoiy munosabatlarini talqin qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish.
2. Davlat va millatning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini yangicha talqinda yaratishda ommaviy axborot vositalari, davlatning ma’naviy-ma’rifiy qatlamini tashkil etuvchi ziyolilarga nisbatan e’tiborni yanada kuchaytirib aniq mexanizmlarini ishlab chiqish.
3. Yoshlar o‘rtasida milliy tarbiyaga asoslangan fanlar va mashg‘ulotlar xaritasini ishlab chiqish va metodologiyasini yaratish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Sa’dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. Ozbekistonda ma‘naviy-ruhiy tiklanish. T.: ―Yangi asr avlodi, 2003. 69-bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_(ma%CA%BCnolari).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 81'42:305

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILISHUNOSLIGIDA GENDER MASALALARI

Yusupova Gulxumor
UrDU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi tayanch doktoranti

СОВРЕМЕННЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Юсупова Гулхумор
Соискатель кафедры теории и практики перевода УрГУ

CONTEMPORARY GENDER STUDIES IN UZBEK LINGUISTICS

Yusupova Gulxumor
PhD student at the Department of Translation Theory and Practice, UrSU

https://orcid.org/0000-0001-8167-8646
gulkhumor.yusupova22@mail.ru

Annotatsiya: *Zamonaviy lingvistika sohalaridan biri bo‘lgan gender lingvistikasida til va gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. O‘zbek tilshunosligida gender tadqiqotlari hali keng rivojlanmagan bo‘lsada, so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida gender masalalarining yoritilishi, muhim tadqiqotlar hamda gender leksikasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar*: gender, gender lingvistika, gender leksikasi, gender stereotiplari, tarjimada gender tafovutlar, erkak va ayol nutqi, o‘zbek tilida jins tushunchasi*
Annotation. *Gender linguistics, which is one of the fields of modern linguistics, analyzes the interrelationship between language and gender. Although gender studies in Uzbek linguistics have not yet developed widely, interest in this area has been growing in recent years. This article explores the representation of gender issues in Uzbek linguistics, important research, and the distinctive features of gender lexicon.*
Key words: *gender, gender linguistics, gender lexicon, gender stereotypes, gender differences in translation, male and female speech, the concept of gender in the Uzbek language.*
Аннотация: *В гендерной лингвистике, которая является одной из современных областей лингвистики, анализируется взаимосвязь между языком и гендером. Хотя в узбекском языкознании гендерные исследования пока не получили широкого распространения, в последние годы интерес к этому направлению постепенно растёт. В данной статье рассматривается освещение гендерных вопросов в узбекском языкознании, значимые исследования, а также особенности гендерной лексики.*
Ключевые слова: *гендер, гендерная лингвистика, гендерная лексика, гендерные стереотипы, гендерные различия в переводе, мужская и женская речь, понятие пола в узбекском языке.*

KIRISH. Til – jamiyatning ijtimoiy-madaniy hodisasi bo‘lib, u inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarining ifodasidir. Gender lingvistikasi til va gender o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan lingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda jinsga oid til birliklari, gender stereotiplari, ayollar va erkaklar nutq xususiyatlari tahlil qilinadi.

Gender lingvistikasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Feministik tilshunoslik va gender tadqiqotlarining rivojlanishi natijasida tilning ijtimoiy-madaniy jihatlari chuqur tahlil qila boshlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvistik genderologiya yo‘nalishda jahon tilshunoslaridan Robin Lakoff, Deborah Tannen, Janet Holmes, E.I. Goroshko, O.A Voronina, A.V. Kirilina kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borgan.

O‘zbek tilshunosligida gender masalalarini o‘rgangan olimlar qatoriga G.I. Ergasheva, N.Z.Nasrullayeva, Sh.Q.Gulyamova, F.T.Musayeva, M.Ch. Chutpolatov, T.A. Alimov, B.R. Ahmedov, O.R. Xudayberdiyeva, X.Sh. Gafforov, Y.A. Mirzaahmedova, Z.O. Djalilovani kiritish mumkin.

Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik tahlil va diskurs tahlili metodlaridan foydalanilgan. Bu usullar maqolada gender leksikasining semantik va pragmatik xususiyatlarini hamda nutq madaniyatida gender farqlarini chuqur tahlil qilish imkonini bergan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Gender lingvistikasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Gender leksikasi – erkaklar va ayollarga oid so‘zlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish.

Gender stereotiplari – til birliklari orqali jamiyatdagi gender rollari qanday ifodalanganini tahlil qilish.

Nutq madaniyatida gender farqlari – erkak va ayol nutq xususiyatlarini tadqiq qilish.

Badiiy va ilmiy matnlarda gender ifodalanishi – genderga oid leksik birliklar va ularning tarjimada aks ettirilishi.

O‘zbek tilida gender masalalari quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda:

Til va gender o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalardir. Har bir til gender munosabatlarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi va tilshunoslikda ushbu munosabatlarni tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. O‘zbek tilini boshqa tillar bilan qiyoslab gender tadqiq qilishda Chutpolatov Muhammad Charievichning “Ingliz, rus va o‘zbek tillari gender leksikasining semantik va lingvostatistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi tadqiqoti muhim ahamiyatga ega [3].

O‘zbek tilshunosligida gender masalalarining o‘rganilishida G.I.Ergashevaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning ilmiy ishlari til va gender o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu borada o’zbek tilshunosligida til va gender o‘rganilishiga muhim hissa qo‘shgan.

Ergasheva o‘z tadqiqotlarida gender terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganadi. U, xususan, kognitiv semantika nuqtai nazaridan tilning dunyoni konseptualizatsiya va kategoriyalashdagi rolini tahlil qiladi. Ergasheva ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar va maqollarda gender aspektini qiyosiy-tipologik tahlil qilgan. Uning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarda gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi bu borada muhim manba hisoblanadi [4].

Ergasheva turli tillardagi gender diskursining sotsiolingvistik jihatlarini o‘rganib, tilning gender tengsizligini shakllantirishdagi rolini tahlil qilgan [5, 8-21].

O‘zbek badiiy adabiyotida gender tasvirining o‘ziga xos jihatlari bor. Ba’zi tarjimalarda gender neytrallik buzilishi kuzatiladi. Masalan, Alimov Toshtemirning tadqiqotlarida “O‘tgan kunlar” romanining tarjimasida gender tafovutlari borligi aniqlangan [1].

Tarjimada gender aspektlari uch xil mezon asosida baholanadi:

Aniq va to‘g‘ri – asl matndagi gender holati to‘g‘ri ifodalanadi.

O‘rtacha aniqlik – tarjimada gender elementi qisman o‘zgaradi.

Aniq emas – genderga oid ma’lumotlar noto‘g‘ri aks ettiriladi.

Bunday tadqiqotlar gender neytrallikni saqlash va tarjimada gender stereotiplarini bartaraf etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Botirjon Ravshanovich Ahmedov o‘zbek tilshunosligi doirasida paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari bilan tanilgan. Uning ilmiy yondashuvi muloqot jarayonidagi paralingvistik elementlarning – ovoz timsoli, intonatsiya, pauzalar, mimika va tana tili kabi unsurlar orqali gender rollarining qanday ifodalanishini aniqlashga qaratilgan. Ahmedovning tadqiqotlari tilshunoslik va gender tadqiqotlari sohalarida yangi metodologik yondashuvlarni yuzaga keltirib, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Erkak va ayolning umumiy fiziologiyasi, jumladan, nutq a’zolaridagi farqlar ularning tovushi-talaffuzi ham bir-biridan farqlanishiga sabab bo‘ladi [7, 201].

Ahmedovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, nutqiy muloqot jarayonida qatnashchilarning ovoz xususiyatlari ularning psixofiziologik va emotsional holatlari, shuningdek,

TAMADDUN NURI

ijtimoiy rol va stereotiplar bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Tabiatan qo‘pol va qat’iy bo‘lgan erkaklar nutqida yog‘on, kuchli va biroz da’galik aralashgan ovoz ohangi hukmronlik qiladi. Tadqiqotda aniqlanganidek, erkaklarda *jahl, qahr, g‘azab* kabi hissiyotlar ovozning yuqori tonda aytilishiga olib keladi.

Ayollarga xos bo‘lgan hissiy holatlar – qiziqish, hamdardlik, yumshoqlik va musiqiylik – ularning nutqida past ton, yumshoq va muloyim ovoz ohanglari orqali aks etadi [2].

Gulyamova Shahnoza Qahramonovna tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda o‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘zbek millatiga mansub erkak va ayollarga xoslangan evfemizmlar tahlil qilingan bo‘lib, unda jamiyatda odob me’yorlariga zid deb hisoblangan, noxush yoki uyatli sanalgan birliklarning erkak va ayol nutqida evfemiklashuv jarayoni o‘rganilgan.

Tadqiqot doirasida evfemizmlarning kasb, tarbiya, fe’l-atvor va ruhiy holatga oid leksik-semantik guruhlari gender nuqtayi nazaridan farqlangan. O‘zbek tilidagi gender evfemizmlari erkak yoki ayollarga xoslangan hamda neytral (har ikkala jins uchun umumiy) kategoriyalarga bo‘linishi genderologik yondashuv asosida aniqlangan.

Sh.K. Gulyamovaning tadqiqotiga ko‘ra, o‘zbek tilida axloqiy, emotsional va intellektual sifatlarni ifodalovchi gender evfemizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: **yolg‘iz ayol** (ersiz), **boshi ochiq** (erga chiqmagan yoki ersiz), **tayyor narsa** (fohisha), **jonon** (fohisha), **sharmandali ish** (fohishalik), yoshi o‘tgan qiz (qariqiz), **bokira, iffatli, qiz bola** (erga tegmagan), **gunohkor, nomusi toptalgan, qurbon bo‘lgan, zoye ketgan** (turmushga chiqmay qizligi qolmagan ayol) [6,16].

Musayeva Feruza Toraxanovna tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda o‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanish xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dastlab tildagi barcha so‘zlar umumiy jins tushunchasini ifodalagan bo‘lib, jins kategoriyasining shakllanishi til taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelganligi aniqlangan.

O‘zbek tilida jins tushunchasi turli lingvistik darajalarda ifodalanishi isbotlangan. Xususan, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, leksik-sintaktik hamda leksik-morfologik usullar orqali jins kategoriyasi ifodalanganligi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot davomida o‘zbek tilida ayol jinsini ifodalovchi qadimgi formantlar mavjudligi ham aniqlangan. Xususan, **-chin** va **-cha** affikslarining tarixan ayol jinsiga xos ma’nolarni anglatuvchi vositalar sifatida qo‘llanganligi aniqlanib, bu hodisa til taraqqiyotining gender aspektlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan [8, 8].

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida gender masalalari hali keng o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. O‘zbek tilida gender neytralligini saqlash va tarjimada gender tafovutlarini bartaraf etish zarur. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida gender lingvistikasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimov T.A. Badiiy tarjimada gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi (“O‘tkan kunlar” romani tarjimalari misolida) PhD diss. avtoref. Termiz, 2023. 51b.
2. Ahmedov B.R. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi. PhD diss. avtoref. Andijon, 2021. 52 b.
3. Chutpolatov M.Ch. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi gender leksikaning semantik va lingvostatistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili. PhD diss. Toshkent, 2021. 148 b.
4. Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarda gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Diss. Toshkent, 2011. 165 b.
5. Ergasheva G.I. Sociolinguistic Aspects of Gender Discourse in the System of Different Languages. International Journal of Literature and Languages, 2023. 18-21 b.
6. Gulyamova Sh.K. O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari. PhD diss. avtoref. Buxoro, 2020. 59 b.
7. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Dokt. diss. Toshkent, 2000.
8. Musayeva F.T. O‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi. PhD diss. avtoref.Toshkent, 2019. 51 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 УДК:93/99+94+930.8+7.031(282.1

SULTON HUSAYN BAYQARO XONADONI VAKILLARINING MADANIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKIGA DOIR

Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

ОБ УЧАСТИИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДОМА СУЛТАНА ХУСЕЙНА БАЙКАРЫ В КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ

Абдуносирова Озода Ботиржон кизи
Ферганский государственный университет
кафедра истории Узбекистана
преподаватель

ON THE PARTICIPATION OF REPRESENTATIVES OF THE HOUSE OF SULTAN HUSAYN BAYQARA IN CULTURAL PROCESSES

Abdunosirova Ozoda Botirjon qizi
Fergana State University
Department of History of Uzbekistan
Teacher

https://orcid.org/0009-0006-7323-4301
abdunosirovaozodaxon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sulton Husayn Bayqaro xonadoni vakillarining madaniy hayotdagi ishtiroki va homiylik faoliyati masalasi tadqiq etilgan. Sulola vakillarining homiyligi bilan ilm-fan, adabiyot, san'atning taraqqiy etishi hamda madaniy muhitning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar manbalarga tayangan holda asoslangan.*

Kalit so'zlar va iboralar: *Sulton Husayn Bayqaro, Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Ibrohim Husayn Mirzo, Ibn Husayn Mirzo, ilm-fan, madaniyat, san'at, ijodiy kechalar.*

Abstract. *This article examines the issue of the participation of representatives of the Sultan Hussein Baykara dynasty in cultural life and their patronage activities. The factors that influenced the development of science, literature, art and the formation of the cultural environment under the patronage of representatives of the dynasty are based on sources.*

Key words and phrases: *Sultan Husayn Bayqara, Badiuzzaman Mirza, Faridun Husayn Mirza, Ibrahim Husayn Mirza, Ibn Husayn Mirza, science, culture, art, creative evenings.*

Аннотация. *В статье рассматривается участие в культурной жизни и меценатской деятельности представителей семьи султана Хусейна Байкара. На основе источников рассматриваются факторы, повлиявшие на развитие науки, литературы и искусства, а также формирование культурной среды под покровительством представителей династии.*

Ключевые слова и фразы: *Султан Хусейн Байкара, Бадиуззаман Мирза, Фаридун Хусейн Мирза, Ибрагим Хусейн Мирза, Ибн Хусейн Мирза, наука, культура, искусство, творческие вечера.*

KIRISH. Temuriylar sulolasining yirik ilm-fan namoyondalaridan biri bo'lgan Sulton Husayn Bayqaro ilm-fan va madaniyat homiysi edi. Sulton Husayn Bayqaro nozikta'b qalam sohiblaridan bo'lib, Husayniy taxallusida she'rlar yozgan hamda turkiy adabiyotga salmoqli hissa qo'shgan hukmdor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mazkur davrda adabiyot bilan

birga san'at ham taraqqiy etgan. Uning hukmronligi davrida Hirot saroyida bastakor, xonanda va sozandalarning ijodiy kechalari bo'lib turgan. Yangi yaratilgan musiqa turlari Sulton Husayn Bayqaro huzurida ijro qilinganidan so'ng, katta bazmlarda ijro etilgan. Xususan, bu davrning taniqli bastakorlaridan bo'lgan Shoh Muhammadga ikki yuz ming ohangdan iborat musiqa asarini yaratish vazifasi topshirilgan. Biroq, ushbu asarni yaratish uzoq muddatni talab qilgan. Mavlono Shayxim tomonidan tugallangan "Maytayn" musiqasi hukmdorning yuqori e'tirofiga sazovor bo'lgan.

MUHOKAMA VA MUNOZARA. Badiuzzamon Mirzo Astrobodda hokimlik qilayotgan vaqtida Xayrobod qishlog'iga tashrif buyurgan. Bu yerning obodligi va xushmanzaraligi shahzodaga nihoyatda manzur bo'lgan. Ushbu qishloq Navoiyga tegishli bo'lgan. Amirning noibi bo'lgan G'iyosiddin Muhammad Dehdor bu yerni shahzodaga hadya qilgan ***[1:125].*** Bu voqeadan xabar topgan amir noibining qilgan ishidan mamnun bo'lgan. Unga to'n va bir otning bahosi bo'lgan 1000 dinor kepakiyni yuborgan. Bundan ko'rinadiki, davlat arbobi va shahzoda o'rtasidagi munosabatlar anchayin yaxshi bo'lgan.

NATIJALAR. Badiuzzamon Mirzo davrida Balx saroyida madaniy-ma'rifiy hayot yana jonlana boshlagan. "Javohir ul-ajoyib"da bu yerda muntazam ravishda adabiy anjumanlar o'tkazilgani va ulardan birida o'z davrning taniqli shoiralaridan bo'lgan Ofoq begim ishtirok etganligi haqida ma'lumot qayd etilgan ***[2:172]***. Shahzoda she'riyatdan tashqari, nasta'liq va suls xatlarini yozishda ham mohir bo'lgan. Masalan, uning Abulfayz ismli shaxsga bag'ishlangan hayitlik qit'asi mavjud ***[3].*** Shahzoda Balx shahrida kutubxona tashkil qilgan. Hoji Muhammad Naqqosh 1498-1499-yili Hirotdan Balx shahriga ko'chib o'tgan va bu kutubxonaga mudir qilib tayinlangan. Badiuzzamon Mirzoning ko'magi bilan faoliyat ko'rsatgan madrasalardan biri Hirot shahrining Saripuli Injil bo'yida joylashgan. Madrasada 11 nafar o'z davrining yetuk olimlari dars bergan va 55 nafar talaba tahsil olgan hamda undagi o'quv jarayoni shahzoda tomonidan doimiy nazorat qilib borilgan.

Shoh G'arib Mirzo o'z davrining yetuk shoiri bo'lib, fanning turli sohalaridan ham xabardor bo'lgan. Navoiyning qayd etishicha, diniy bilimlardan fiqh, hadis, tafsir kabilarni chuqur o'rgangan. Ayniqsa, tarix faniga qiziqishi yuqori bo'lib, ko'plab tarixiy kitoblarni mutolaa qilgan.

Faridun Husayn Mirzo adabiyot va san'at bilan maxsus shug'ullanmagan. Bobur Mirzo shahzoda haqida "yoyni kuchluk tortib, o'qni yaxshi otar edi. Kamon guruhasini derlarkim, qirq botman ekandur. O'zi xeyli mardona edi, vale feruzjang emas edi", -deb ta'riflaydi ***[4:151].*** Bobur Mirzo bergan ma'lumotlardan uning kuchli harbiy salohiyatga egaligi va kamon otishda mohir bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Undan tashqari, Faridun Husayn mirzoning kurash va suzishga ham qiziqishi yuqori bo'lgan. Shahzoda "Bog'i Zog'on"da ushbu sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazgan. Masalan, yugurish musobaqasi tashkil qilingan va unda xurosonlik kurashchi Amir Muhammad ham qatnashgan. Hirot shahrigacha bo'lgan 60-65 farsaxlik* yo'lni ikki kunda bosib o'tgan va g'olib bo'lgan. U suzuvchi ham bo'lib, kunning yarmigacha suv tubida turgan va shahzodaning e'tirofiga sazovor bo'lgan. Bu esa, shahzodalarning kundalik hayoti qanday bo'lganligi haqida tasavvur beradi. Ibrohim Husayn Mirzo va Ibn Husayn Mirzoning madaniy hayotdagi ishtiroki haqida qisqacha ma'lumotlar mavjud. Tarixiy manbalarga ko'ra, she'riyat bilan shug'ullanishgan. Sulton Husayn Bayqaro davrida yashagan mavlono Ohiy yetuk shoirlardan edi. U bir muddat Ibn Husayn Mirzo saroyida xizmat qilgan. Hirot saroyidagi ilmiy-adabiy muhitda tarbiya topgan Muhammad Muhsin Mirzo ham o'z davrining ilmli shaxslaridan edi. Shahzoda Kepak Mirzo nomi bilan shuhrat qozongan. Faxriy Hiraviy o'z tazkirasida uning axloqliligi, so'zamolligi va she'riyat ixlosmandi ekanligi hamda o'z davrining taniqli shoirlaridan bo'lgan Bibi Yazdiy bilan mushoira qilganligini ta'kidlagan holda forsiyda yozilgan baytlaridan misollar keltirgan ***[5:42].*** 1499-1500-yilda Muhammad Muhsin mirzo mamlakatning ba'zi ehtiyojlari uchun Sabzavor qal'asiga katta miqdordagi g'alla to'plashga kirishgan, lekin kerakli zaxirani yig'a olmagan. Shahzoda bilan kelgan amirlar bu yerda Alisher Navoiyning yerlari ko'pligi

* Izoh 1.: Farsax – uzunlik o'lchov birligi bo'lib, 7-8 kmni tashkil qiladi.

va hosili yaxshi bo‘lganligi, undan zarur g‘allani olib turish kerakligi aytishsa-da, Muhammad Muhsin Mirzo bu taklifni keskin rad qilgan va shoirning mulkiga tegilmasligi kerakligini tayinlagan. Xondamirning yozishicha, shoirning o‘zi Sabzavordagi g‘alla zaxirasini shahzodaga bergan va unga maktub jo‘natgan. Ushbu ma’lumotlarga tayanilsa, shahzodaning Navoiyga hurmati yuksak bo‘lgan. Shuningdek, ziyolilarning mamlakat hayotidagi o‘rni qay darjada ekanligini ham ko‘rsatadi.

Kichik mirzo nomi bilan shuhrat topgan Muhammad Sulton Mirzo Qorabog‘da, keyinchalik tog‘asi Sulton Husayn Mirzo saroyida yashagan. “Kichik Mirzo she’r ahillaridan, - deb yozadi Xondamir, – xub ta’blik, tez idroklik, sho‘x zehnlik, kaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatda yaxshi tolibi ilm bo‘ldi va ko‘proq ulum va funundin o‘z mutolaasi bilan vuquf hosil qildi” ***[6:15]***. Matndan anglashiladiki, shahzoda anchayin qobiliyatli bo‘lgan va kitoblarni sevib mutolaa qilgan. Shahzoda Kamoliddin Shayx Husayndan ta’lim olgan va Navoiy o‘z tazkirasida uni “she’r va muammoni xo‘b anglar edi, balki ko‘ngli tilasa ayta ham olur edi”,- deb yozadi. Bundan kelib chiqadiki, uning she’r yozishga iqtidori bo‘lgan va muammoni yechish borasida mahoratli bo‘lgan

XULOSA. Sulton Husayn Bayqaro davrida Hirotda fanning barcha tarmoqlari va madaniyat taraqqiy etgan. Hukmdor va uning avlodlari adabiyot va san’atning ma’lum bir tarmog‘i bilan maxsus shug‘ullanishgan. Ayni omil madaniy hayotning jadal rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Қайта нашр. – Тошкент: Info Capital Group, 2020. – 364 б.

2. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ ва унинг асари ҳақида сўз. // Самарқандий, Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони. (“Тазкират уш-шуаро”дан) Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов тарж.; Шеърларни С.Раҳмон тарж. қилган. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 3-8.

3. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1996. – Б. 312.

4. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар /
Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

5. Ғаниева С. Сўзбоши. // Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-аҳлоқ //Форс тилидан таржима, изоҳлар, кириш ва илова муаллифи К.Раҳимов. – Тошкент: Ёшлар, 2018. – Б. 234.

6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:908

УРУШ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ АЁЛЛАРИНИНГ МАДАНИЙ ХАЁТ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Жуманиязова Фируза Жуманазаровна, Хоразм Маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлими катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

THE CONTRIBUTION OF KHOREZM WOMEN TO THE DEVELOPMENT OF CULTURAL LIFE DURING THE WAR YEARS

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, Senior Researcher, Social and Humanitarian Department, Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy on Historical Sciences (PhD)

ВКЛАД ЖЕНЩИН ХОРЕЗМА В РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ В ВОЕННЫЕ ГОДЫ

Джуманиязова Фируза Джуманазаровна, старший научный сотрудник отдела социальных и гуманитарных наук Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

https://orcid.org/0009-0009-4929-3143
e-mail: jumanazarovafiruza8485@gmail.com

Аннотация: *Мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида хоразмлик аёлларнинг маданий ҳаёт ривожига қўшган ҳиссаси, санъат билан шуғулланган аёллар ва фронтда бўлган хоразмлик халфа аёллар, илм-фан ҳамда тиббиёт соҳаларида хотин-қизлар фаолияти ҳақидаги маълумотлар архив материаллари асосида ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *фронт, санъаткор, халфа, гармончи халфалар, адабиёт, санъат, фан.*

Abstract: *The article examines the contribution of Khorezm women to the development of cultural life during the Great Patriotic War, information about women art historians and women artists of Khorezm who were at the front, as well as the activities of women in the fields of science and medicine.*

Key words: *front, artist, halfa, accordionist halfa, literature, art, science.*

Аннотация: *В статье рассматривается вклад женщин Хорезма в развитие культурной жизни в годы Великой Отечественной войны, сведения о женщинах-искусствоведах и женщинах-художницах Хорезма, находившихся на фронте, а также деятельность женщин в области науки и медицины.*

Ключевые слова: *фронт, художник, халфа, гармонист халфа, литература, искусство, наука.*

КИРИШ. XX асрда содир бўлган жаҳон тарихидаги энг йирик уруш – Иккинчи жаҳон уруши масалаларини таҳлил қилиш бугунги глобаллашув жараёнида янада долзарб аҳамият касб этади. Ўзбекистон тарихида ҳам урушда эришилган ғалаба масалалари тарихшунослик нуқтаи назаридан қайта ўрганишни тақозо қилмоқда. Чунки, совет Иттифоқи улкан давлат бўлиб, унинг таркибидаги республикаларнинг ғалабадаги ҳиссалари етарли даражада ифодаланмаган эди. Зотан, Президент Ш.М.Мирзиёев ҳам буюк Ғалабага ҳисса қўшган ватандошларимиз ҳаёти, жасорат ва матонатини янада чуқурроқ ўрганишимиз, бу ҳақда янги илмий тадқиқотлар, кўп томлик Хотира китоблари, монографиялар, рисолалар билан

биргаликда бадиий асарлар, кинофильм ва спектакллар яратишимиз кераклигини кун тартибига қўйди. Шундан сўнг ғалабани таъминлашда иштирок этган ўзбекистонликлар, жумладан, аёлларнинг ҳам фронт ва фронт ортидаги ҳиссаси масалаларини ўрганиш юзасидан янги илмий тадқиқотлар бошланди. Фронт орти ҳаёти ҳақидаги тадқиқотларда аёлларнинг машаққатли меҳнатлари ўзига хослик касб этгани ҳолда, долзарб муаммо сифатида кўрила бошланди. Шу жиҳатдан хоразмлик аёлларнинг ҳам бу борадаги улушларини тадқиқ қилиш заруратга айланди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Хоразм аёлларининг маданий ҳаёт ривожига қўшган ҳиссасига бағишланган бир қанча илмий ишлар чоп этилган. Уларда илм-фан, тиббиёт, санъат ва адабиёт соҳаларида хотин-қизлар фаолиятига оид масалалар ёритилди. Хоразм вилояти архиви материалларида ва М.Матниёзовнинг “Хоразм тарихи” китобида ҳам мавзу юзасидан қисқача маълумотлар берилган.

МЕТОДЛАР. Мақолада объективлик ва тарихийлик тамойилларига асосланган қиёсий маълумотларни таҳлил қилиш ва статистик усуллардан фойдаланилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Уруш илм-фан соҳаси ҳамда зиёлилар ҳаёти ва фаолиятига ҳам жуда катта таъсир ўтказди. Бутун ижтимоий-иқтисодий ҳаёт соҳалари каби, маориф соҳаси ҳам ҳарбий асосга мослаштирилди. Уруш маориф соҳасига ҳам катта таъсир қилиб, айниқса, олий таълим тизими деярли тўхтаб қолди. Шу билан бирга, давлат маблағларининг асосий қисми уруш харажатларига сарфлангани боис, соҳани ривожлантириш учун давлат томонидан ажратиладиган маблағлар миқдори жуда камайиб кетди.

Уруш йилларида илм-фан билан Хоразм давлат педагогика институтида О.Мангушева, Ф.Ишакова, Ф.Садриддиннова, Ф.Зокирова, М.Елкибоева, З.Сафаргалиева, Р.Болтачева каби аёл педагоглар самарали ва таҳсинга сазовор ишларни қилиб ғалабага муносиб ҳисса қўшганлар.

Архив ҳужжатларини тадқиқ қилиш давомида, 1941–1942-ўқув йилида Хоразм вилояти таълим тизимида режада белгиланган тадбирларнинг аксарияти бажарилмаганлигини кузатиш мумкин. Жумладан, 1941-йил август ойи ҳолатига кўра 1941–1942-ўқув йилида 360 мактаб таъмирланиши белгилангани ҳолда, 265 мактаб таъмирланган. Мактаблар учун зарур бўлган 6459 тонна ёқилғи ўрнига 3522 тонна ёқилғи янги ўқув йилига захирага тўпланган. Мактабга 1-синф учун жалб қилиниши лозим бўлган 11282 ўқувчидан 8901 (79,6 фоиз) ўқувчи жалб қилинган эди. Айниқса, ўқитувчи кадрлар етишмаслиги яққол кўзга ташланиб, шу ўқув йилида мактабларга 486 ўқитувчи зарур бўлгани ҳолда, атиги 85 ўқитувчи жалб қилинган холос. 1940 йилда ўқитувчи хотин-қизлар 9533 нафар бўлса, 1943 йилга келиб 14052 нафарга етди. Бу рақамлар орқали биз хотин-қизлардан ўқитувчилар сони кўпайганлигини кўришимиз мумкин. Жумладан, 1942–1943-ўқув йилида республикада ўқитувчилик билан шуғулланаётган хотин-қизлар республика ўқитувчиларининг 46,8 фоизини ташкил этган бўлса, 1944–1945-ўқув йилида бу кўрсаткич 94,3 фоизга етганлигини кўришимиз мумкин.

Бундан ташқари, шу даврда бир қанча тўгараклар ҳам ташкил қилинган. Қишлоқ маданий-ўқув муассасаларида турли хил тўгараклар ташкил қилинган ва уларда 33521 нафар хотин-қизлар фаолият кўрсатган.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида соғлиқни сақлаш ходимлари мураккаб вазифаларни амалга оширдилар. Тиббиёт ходимлари жанг майдонлари, фронт касалхоналари, фронт ортидаги эвакуация касалхоналарида аскарларга шошилинч ёрдам кўрсатдилар, уларнинг соғлигини тикладилар. Шундай ходимлардан ҳарбий врач Ш.Аҳмедова, О.Собирова, М.Худоёровалар фронтларда ҳамширалик қилиб, минглаб аскарларни даволаб, ҳаётга қайтарганлар.

Вилоятда уруш йилларида А.А.Никитина, О.Н.Христанюк, Й.Сапаева, И.Й.Вайнер, Х.Отажонова, М.Маҳмудова, Р.Аллаберганова,

Г.Шахмаева, Г.Каримова, Х.Атажонова каби шифокор ва ҳамширалар ишлаганлар.

1942 йил Гурланда очилган санитарлар тайёрлаш курсида 30 нафар хотин-қиз таҳсил олган. 1943 йилда 722 нафар ҳамширалар, 1944 йилда 299 нафар ҳамширалар ҳарбий қисмдан рўйхатдан ўтган. 1944 йилда Хоразмда 2 та тропик стансия ва 18 та фельдшер-акушерлик пункти очилган.

Уруш йилларидаги мураккаб ижтимоий-сиёсий жараёнлар республиканинг маънавий-маданий ҳаётида ҳам ўз аксини топди, миллий маданиятга салбий таъсир ўтказди, хотин-қизларнинг маданий ҳаётдаги иштироки фақат сиёсий мақсадларга бўйсундирилди. Шунга қарамасдан, бу қийин даврда Ўзбекистон хотин-қизлари ўз замонининг фидоийлари сифатида маданият ва санъат соҳасида тинмай фаол тарзда меҳнат қилди.

Уруш йилларида хотин-қизлар орасида олиб борилган маданий-маърифий ишлар анча самарали бўлди. Бундай ишлар, чунончи Урганч шаҳрида ва туман марказларида ташкил қилинган клубларда анча салмоқли бўлди. 1941 йилда Хоразм вилояти шаҳар ва туманларида 182 та маданий-маърифий тарғибот пунктлари фаолият олиб борган бўлиб, биргина 1941 йилда 2 минг маъруза уюштирилган. Мавжуд тўгаракларда эса мингга яқин хотин-қиз иштирок этди.

Фронтда фашизмга қарши қаҳрамонона жанг қилаётган жангчиларни зафар сари руҳлантирган санъаткорлардан бири Ў.Машарипова бўлган. У бир гуруҳ санъаткорлар билан бирга аввал Хоразм вилоят театрида, сўнгра эса ғарбий фронтга Г.Раҳимова раҳбарлигидаги республика санъаткорлари таркибида фронтнинг энг қизиган ўчоқларида маданий хизмат қилиб, ўзининг ёқимли қўшиқлари билан душманни енгишда жангчиларга мадад бўлди. Бу гуруҳнинг яна бир хоразмлик вакили К.Исмоилова шу даврларда бутун собиқ иттифоқда машҳур эди. Асл исми Уллибиби бўлган иқтидорли хонанда Иккинчи жаҳон уруши йиллари Г.Раҳимова раҳбарлигидаги хотин-қизлар концерт бригадасида иштирок этган. 1943 йилнинг июнидан Г.Раҳимова бошчилигидаги қўшиқчи-жангчи аёллар дастаси уруш фронтларига йўл олиб, то уруш тугагунча фронтларда 1400 га яқин чиқишлар қилиб, жангчиларга ўз қўшиқлари, рақслари балан жанговар руҳ бағишлаган.

Уруш йилларида вилоятда иккита театр (Урганч ва Хивада) бир қанча труппа ва ҳаваскорлик тўгараклари мавжуд эди. Театр ва труппаларнинг репертуарлари уруш мавзуи билан алмаштирилди. Бу театрларда “Лайли ва Мажнун”, “Фарҳод ва Ширин”, “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Тоҳир ва Зуҳра”, “Аршин мол-олан” каби спектакллар билан бирга уруш мавзуидаги “Ўлим босқинчиларга”, “Қасос”, “Жалоладдин Мангуберди” каби спектакллар ҳам муносиб ўрин олдилар.

Бу даврларда вилоятимиз театрларида Р.Бойжонова, О.Очилова, Ў.Ғоибова, С.Хўжаева, Р.Абдураҳмонова каби талантли хотин-қизлар фидокорона хизмат қилдилар. Бундан ташқари, ҳар бир туманда труппалар фаолият кўрсатиб, халқ руҳиятини кўтаришда катта роль ўйнадилар. Жумладан, 1939 йилнинг ёзида Хоразм гармончилар ансамбли ташкил этилди. Бу труппадан О.Сафарова, О.Отажонова, О.Қурязова каби талантли артистлар, бастакорлар, шоиралар етишиб чиқдилар.

Уруш йиллари санъатида рақс мактаблари ва раққосаларнинг ўрни ҳам алоҳида бўлган. Хоразм рақс мактабининг шаклланишида бир қанча ижодкорларнинг ҳиссаси катта бўлган. О.Собирова, Р.Отажонова, С.Оллоберганова, Р.Маткаримовалар кўнгилочар рақслари билан фронт ҳамда фронт ортидаги аскарлар ва меҳнаткаш халққа кўтаринки руҳ бағишлаган.

ХУЛОСА. Уруш шароитига қарамасдан вилоятда фан ва таълим, соғлиқни сақлаш соҳалари ўзларининг фаолиятларини бир лаҳза бўлса ҳам тўхтатмади. Уруш йилларида Хоразм вилоятида адабиёт ва санъат соҳаси вакиллари ҳам уруш даври шароитига ўтиб, ўзларининг бу борадаги фаолиятлари билан ғалабага муҳим ҳисса қўшганлар. Уруш йилларида турли ансамбллар, мусиқа ва санъат гуруҳлари, труппалар, рақс-санъат мактаблари, қўшиқчилар,

TAMADDUN NURI

раққосалар ва умуман адабиёт ҳамда санъат соҳаси вакиллари фаолият олиб боришган ҳамда уларнинг бу борадаги ўрни ҳам алоҳида бўлган. Улар ўз санъатлари билан, фронт ҳамда фронт ортидаги аскарлар ва меҳнаткаш халққа кўтаринки руҳ бағишлаганлар.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Хоразм вилояти Давлат архиви (ХВДА). 1-фонд, 1-рўйхат, 157-йиғма жилд, 32-33-варақлар.
2. Хоразм ҳақиқати. 1941 йил 24 декабрь. №305. – Б.2.
3. Хоразм ҳақиқати. 1941 йил 13 декабрь. №296. – Б.2.
4. Нурмуҳаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маънавий ишлар. – Т.: Ўқитувчи. 1993. – Б.62.
5. Қурбонбоев Б. Шундай бир аёл бор. Хоразм ҳақиқати. 1973 йил 2 февраль. – Б.2.
6. Хива шаҳар давлат архиви. 231-фонд, 1-йиғма жилд, 25-иш, 78-варақ.
7. ХВДА. Хоразм хақиқати. 1942 йил 10 сентябрь. № 209 (4217). – Б.3.
8. ХВДА. 259-фонд, 1-рўйхат, 68-йиғма жилд, 94 -варақ.
9. ХВДА. 259-фонд, 1-рўйхат, 68-йиғма жилд, 38-варақ.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:910.3: 37.013.42

KOREYS MADANIYATI VA UNING O‘RGANILISHI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

[1]***Matsaidova Sayyora Xudayberganovna***
Urganch davlat universiteti
P.f.n., dotsent
[2]***Sobirova Nodira Jumanazar qizi***
Urganch davlat universiteti, Talaba.

ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОРЕЙСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ ИЗУЧЕНИЕ

[1]***Матсаидова Сайёра Худайбергановна***
Ургенческий государственный университет
к.п.н., доцент
[2]***Собирова Нодира Жуманазар кизи***
Ургенческий государственный университет, Студент

GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF KOREAN CULTURE AND ITS STUDY

[1]***Matsaidova Sayyora Khudayberganovna***
Urganch State University
Ph.D., Associate Professor
[2]***Sobirova Nodira Jumanazar kizi,***
Urgench state university, Student

1

[1]https://orcid.org/0009-0002-4461-6176

[2]https://orcid.org/0009-0008-7990-6791

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Koreya Respublikasi madaniyati va urf-odatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Koreya madaniyati qariyb ming yillik tarixga ega, u o‘ziga xos kelib chiqishi, urf-odatlari, san'ati, musiqa va gastronomiyasi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotda madaniyatning asosiy elementlari, an'anaviy bayramlar, diniy urf-odatlar va zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Koreya Respublikasi, madaniyat, urf-odatlar, an'anaviy bayramlar, diniy urf-odatlar, zamonaviy hayot, san'at, musiqa, gastronomiya.Gyeongju.Silla. Kyonju. K-Pop.BTS. Uch podsholik.Goyro. Joseon. Changdeokgung. Jongmyo.1. Donggureung. Joseon sulolasi. Yeongneung . Mokneung.*

Абстрактный: *В этой статье представлена подробная информация о культуре и обычаях Республики Корея. Корейская культура имеет почти тысячелетнюю историю, отличается уникальным происхождением, традициями, искусством, музыкой и гастрономией. В данном исследовании анализируются основные элементы культуры, традиционные праздники, религиозные практики и изменения в современной общественной жизни.*

Ключевые слова: *Республика Корея, культура, традиции, традиционные праздники, религиозные традиции, современная жизнь, искусство, музыка, гастрономия. Кёнджу. K-поп.BTS. Три королевства. Чосон. Чхандоккун. Чонмё.1. Донгурён. Династия Чосон. Ённын. Мокнынг.*

Abstract: *This article provides detailed information about the culture and customs of the Republic of Korea. Korean culture has a history of almost a thousand years, it is distinguished by its unique origins, traditions, art, music and gastronomy. This study analyzes the main elements of culture, traditional holidays, religious practices and changes in modern social life.*

Key words: *Republic of Korea, culture, traditions, traditional holidays, religious traditions, modern life, art, music, gastronomy. Gyeongju. Silla. Gyeongju. K-Pop.BTS. Three Kingdoms. Goiro. Joseon. Changdeokgung. Jongmyo.1. Donggureung. Joseon Dynasty. Yeongneung. Mokneung.*

KIRISH. Koreya Respublikasi, Osiyo qit'asida joylashgan mamlakat bo‘lib, o‘zining boy madaniyati va urf-odatlari bilan mashhurdir. Koreya madaniyati ko‘plab tarixiy voqealar, diniy ta’sirlar va madaniy almashuvlar natijasida shakllangan [2].

Ushbu maqolaning maqsadi, Koreya madaniyatining asosiy elementlarini, an'analarini va zamonaviy hayotdagi rolini tahlil qilishdir. Koreys madaniyatining muhim qismi bo‘lgan barcha san’at, jumladan musiqa, san’at, adabiyot va raqsda an’ana va zamonaviylik birga yashab, nafas oladi [4].

Xuddi shu narsa turli xil turmush tarzi, jumladan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana, masalan, me'morchilik uchun ham amal qiladi. Koreys xalqi o‘zining ajoyib badiiy sezgirligi bilan uzoq tarix davomida o‘ziga xos madaniyatini rivojlantirgan [1]. Yarim orol sifatidagi geografik xususiyatlari tufayli u ham kontinental, ham dengiz madaniyatini qabul qila oldi va tabiiy sharoitlarga javoban butun insoniyatga xos noyob madaniyatni shakllantirdi [3].

Din ham madaniyatga bir muncha ta’sir qiladi albatta. Xususan, konfutsiylik Koreyadagi asosiy davlat falsafalaridan biri sifatida koreys jamiyati va madaniyati rivojiga o‘zining qadriyatlar tizimi, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanishiga doimiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Keksalarga hurmat, oilaga sadoqat, uyg‘un munosabatlar va farzandlik taqvosi kabi konfutsiy qadriyatlari Koreyaning shaxslararo munosabatlari va mehnat madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan asosiy qadriyatlardir [1].

Madaniyatni o‘zida shakllantirib beruvchi qadimiy yodgorliklardan biri bu Gyeongju. Gyeongju tarixiy hududlaridan ming yildan ortiq vaqt davomida Silla poytaxti bo‘lgan Kyonju va unda ko‘plab tarixiy va qimmatbaho yodgorliklar saqlanib qolgan, shuning uchun u "devorsiz yoki tomsiz muzey" deb ham ataladi. Suratda Silla maqbara majmuasining panoramik ko‘rinishi ko‘rsatilgan:

1-rasm. Silla maqbara majmuasining panoramik ko‘rinishi

Dunyo tomonidan tan olingan Koreya madaniyatining badiiy yuksakligi bir kechada yaratilmagan. Koreyslarning “Uch podshohlik” davriga oid qabr devoriy suratlari va yodgorliklarida seziladigan o‘ziga xos badiiy tuyg‘usi Birlashgan Silla, Goryo, Joseon davrlari orqali yanada boyigan.

Changdeokgung saroyidagi Injeongjeon zalida qirolning toj kiyish marosimi, qo‘l ostidagilarning salomlari va xorijiy elchilarni qabul qilish kabi yirik milliy marosimlar o‘tkaziladi:

2-rasm. Changdeokgung saroyi

Changdeokgung saroyi Joseon sulolasi davrida qurilgan, ammo u Goryeo sulolasi saroylari an’analarini meros qilib olgan va tabiiy relefga mos ravishda tog‘ yonbag‘rida qurilgan.

Jongmyo - Konfutsiy ziyoratgohi bo‘lib, unda Joseon sulolasi shohlari va malikalarining ajdodlari lavhalari saqlanadi:

3-rasm. 1. Donggureung, 2. Yeongneung, 3. Mokneung qabrlari

1. Donggureung: Joseon sulolasining etti shohi va o‘nta malika va kanizaklar dafn etilgan to‘qqizta qabr bor. 2. Yeongneung: Qirol Sejong va qirolicha Soxeon qabri.
3. Mokneung: Qirol Seonjo, qirolicha Uiin va qirolicha Inmok qabri.

Qirollik qabrlari madaniy boylik sifatida tan olingan, chunki ular konfutsiylik va geomansiya kabi o‘sha davr qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan dafn etish madaniyati joyidir. Bu shox maqbarasi hech qanday zarar yetkazmasdan asl holida saqlanib qolgani ham diqqatga sazovor [7].

Janubiy Koreya va O‘zbekiston ham ko‘p tomonlama hamkorlik qiladi. 2007-yildan buyon har yili o‘tkazib kelinayotgan “Koreya Respublikasi - Markaziy Osiyo” forumi Koreyada, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan. 2011-yil noyabr oyida Toshkent shahrida V Forum bo‘lib o‘tdi. “Koreya Respublikasi - Markaziy Osiyo” forumi turli sohalar, jumladan, axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, elektronika, energiya samaradorligi va tabiiy resurslar, qurilish va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Infratuzilma, fan va texnologiya, moliya va to‘qimachilik. Toshkent Seulning Koreya yarim orolidagi pozitsiyasi va uning “Yangi Osiyo diplomatiyasi” tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydi [8].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Yozma manbalardan olingan ma’lumotlar, jumladan, kitoblar, maqolalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlangan. Tadqiqot usuli sifatida kontent tahlili va taqqoslash usulidan foydalanilgan. Qo‘llanilgan adabiyotlar asosan Koreya madaniyatiga oid bo‘lib, ularning mualliflari va iqtiboslari keltirilgan. Mualliflar tomonidan Koreya madaniyatini yaxshi ochib berishgan va Koreya respublikasi hamda O‘zbekiston aloqalarini ochib berishga harakat qilingan.

MUHOKAMA. Koreya madaniyatida urf-odatlar, an’analar va bayramlar juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Chuseok" - bu Koreya xalqining eng muhim an'anaviy bayramlaridan biridir, unda oila a’zolari bir joyga yig‘ilib, o‘tgan ajdodlariga minnatdorchilik bildiradilar. Shuningdek, Koreya madaniyatida "Hanbok" (an'anaviy kiyim) va "Kimbap" (an'anaviy taom) kabi ramzlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi [8].

Koreyaliklar uchun Kimjang madaniyati ham juda muhimdir. Kimjang koreyslar uchun qishga muhim tayyorgarlik bo‘lib, qish davomida yeyish uchun ko‘p miqdorda kimchi tayyorlash jarayonini nazarda tutadi. Kimchi Koreyaning eng mashhur taomlaridan biri bo‘lib, har doim koreys stollarida asosiy taom sifatida namoyon bo‘ladi.

Kimchi tayyorlash uchun butun bir yillik tayyorgarlikdan o‘tish kerak. Bahorda har bir xonadonda qisqichbaqa sousi va hamsi sousi kabi turli xil tuzlangan dengiz mahsulotlari tayyorlanadi. Yozda dengiz tuzini tayyorlashadi, yoz oxirida esa qizil qalampirni quritib, ularni qizil qalampir kukuniga aylantirishadi. To‘liq miqyosda kimchi tayyorlash mavsumi kech kuzda va qish boshida boshlaganda, oilalar va jamoalar tayyorlagan ingredientlardan foydalanib kimchi tayyorlash uchun yig‘ilishadi.

Kimjang koreys madaniyati bilan ham chambarchas bog‘liq, chunki ko‘p odamlar ko‘p miqdorda kimchi tayyorlash uchun yig‘ilishadi. Shu sababli, kimchi madaniyati tobora individual bo‘lib borayotgan zamonaviy koreyslar o‘rtasida birdamlikni mustahkamlashi va koreyslar sifatida o‘zligini saqlab qolishga yordam berishi bilan mazmunli. Bu Koreyaning avlodlardan avlodga o‘tib

kelayotgan madaniyatini ifodalashi bilan ham ahamiyatlidir [6,7].

Bugungi kunda K-Pop isitmasi 2020-yil avgust oyida BTSning inglizcha “Dynamite” singli AQSh Billboard singllari “Hot 100” chartida birinchi o‘rinni egallaganida, cho‘qqisiga chiqdi. Bu 1963-yildan beri birinchi marta osiyolik rassom Hot 100 reytingida 1-o‘rinni egalladi va koreys rassomi uchun birinchi bo‘ldi. Bu muayyan guruhning yutug‘i emas, balki bu rekord K-Popning butun dunyoga, jumladan Yaponiya, Xitoy va Janubi - Sharqiy Osiyoga, so‘ngra AQSh, Janubiy Amerika va Yevropaga tarqalgan mashhurligini aks ettiruvchi natijadir. YouTube tobora ommalashib borar ekan, Blackpink qizlar guruhi kabi K-pop yulduzlarining musiqiy videolari xuddi shu kontekstda portlovchi ko‘rinishlarni yozmoqda [7,9].

NATIJALAR. Koreya Respublikasi madaniyati va urf-odatlari nafaqat mamlakatning aholisining yashash tarzini belgilaydi, balki u global madaniyat bilan integratsiyalashayotganligi sababli jahon miqyosida ham qiziqish uyg‘otmoqda[1].

Koreya madaniyati, ayniqsa K-Pop va K-drama orqali, butun dunyoga tarqalmoqda va ko‘plab yoshlar tomonidan qabul qilinmoqda [5]. Koreya va O‘zbekiston aloqalari yaxshilanmoqda va mustahkamlanmoqda.

XULOSA. Koreya Respublikasi madaniyati va urf-odatlari xalq hayotining muhim qismi bo‘lib, bu madaniyatning davomiyligi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan an’analarni saqlab qolish zarur. Ushbu maqolada ta’kidlanganidek, Koreya madaniyatining ko‘plab jihatlari, ayniqsa an’anaviy bayramlar va urf-odatlar, kelajak avlodlarga yetkazish uchun katta ahamiyatga ega. Koreya va O‘zbekiston aloqalari mustahkamlanishi bilan migratsiya va shunga monand ravishda Koreya madaniyatini o‘rganish ham takomillashib bormoqda. 2018-yil sentabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonga kelgan koreyslar soni 30 000 dan ortiq bo‘lib, mamlakatdagi rusiyzabon koreyslarning yarmini va O‘zbekistondagi butun koreys jamiyatining qariyb 20 foizini tashkil qiladi. Bu esa geografik jihatdan Koreya madaniyatini o‘rganish zaruratini bildiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lee, M. (2011). *The Cultural History of Korea*. Seoul: Hanul Publishing.
2. Park, J. (2015). *Korean Traditions and Festivals*. In *Cultural Studies Journal*, 20(3), 145-160.
3. Kim, S. (2017). *The Influence of Confucianism on Korean Culture*. Journal of Asian Studies, 52(1), 75-89.
4. Choi, E. (2019). *Korean Cuisine: A Cultural Perspective*. New York: Global Publishers.
5. Hwang, T. (2020). *K-Pop: The Global Phenomenon and its Cultural Impact*. *Journal of Musicology*, 30(2), 233-250.
6. Yoon, H. (2018). *Traditional Korean Clothing: History and Modern Adaptations*. In *Fashion Theory*, 22(5), 789-805.
7. Yuneskoning jahon merosi sayti.https://kr.koreanculture.org/
8. CULTURAL CLASH IN KOREA AND UZBEKISTAN. Berdiev Sukhrob. Butaeva Mokhinur Akramovna. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 4(6), June, 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz
9. JAMIYAT. DMITRIEVA Marina Olegovna, TROYAKOVA Tamara Gavrilovna, O‘zbekiston koreyslari Koreya Respublikasida yangi o‘zlikni izlashda. UDC:327. DOI https://doi.org/10.24866/2542-1611/2021-2/45-63

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.311

КЕНЕСБАЙ АЛЛАМБЕРГЕНОВТЫҢ «ДӘРЬЯ ТАРТЫЛҒАН ЖЫЛЛАР» РОМАНЫНДА ГИДРОНИМЛЕРДИ ЖАСАЎШЫ АПЕЛЛЯТИВЛЕР

Мамбетова Гулназ Жаксымуратовна, Әжинияз атындағы НМПИ Гуманитар ҳәм жәмийетлик пәнлерди аралықтан оқытыў кафедрасы доценти, ф.ф.ф.д., (PhD)

APPELLATIVES FORMING HYDRONYMES IN KENESBAY ALLAMBERGENOV'S NOVEL «THE YEARS WHEN THE RIVER FROZEN»

Mambetova Gulnaz Jaksimuratovna, Associate Professor of the Department of Distance Learning of Humanities and Social Sciences, NSPI named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy (PhD)

АПЕЛЛЯТИВЫ, СОЗДАЮЩИЕ ГИДРОНИМЫ В РОМАНЕ КЕНЕСБАЯ АЛЛАМБЕРГЕНОВА «ГОДЫ, КОГДА РЕКА ЗАСТЫВАЛА»

Мамбетова Гулназ Жаксимуратовна, доцент кафедры дистанционного обучения гуманитарных и социальных наук НГПИ имени Ажинияза, доктор философии (PhD)

https://orcid.org/0000-0001-7656-1187

gulnaz.mambetova.76@mail.ru

Аннотация. *Мақалада К.Алламбергеновтың «Дәрья тартылған жыллар» романында қолланылған суў объектлери атамалары анализленген. Қарақалпақ тилиндеги жергиликли аймақ халқының тилине тән гидронимлер, миллий әдебий тилге тән болған гидроним апеллятивлердиң берилиўи лингвистикалық аспектте үйренилген.*

Таяныш сөзлер: *ономастика, топоним, гидроним, апеллятив, көркем шығарма тили.*

Аннотация. *В статье анализируются названия водных объектов, использованные в романе К.Алламбергенова «Годы, когда река застывала». Гидронимы, характерные для языка местного населения в каракалпакском языке и употребление гидронимов-апеллятивов, характерных для национального литературного языка, были изучены с лингвистической точки зрения.*

Ключевые слова: *ономастика, топоним, гидроним, апеллятив, язык художественного произведения.*

Abstract. *The article analyzes the names of water bodies used in K.Allambergenov's novel "*The years when the river frozen*". In the Karakalpak language, hydronyms specific to the language of the local population, hydronym appeals specific to the national literary language, have been studied from a linguistic point of view.*

Key words: *onomastics, toponym, hydronym, appellative, language artistic work.*

TAMADDUN NURI

КИРИСИЎ

Қарақалпақстан аймағында гидронимлер оғада көп. Гидронимика – бул топонимлердиң айрықша, үлкен топарларынан бири. Гидронимлер өзиниң пайда болыўы бойынша тәбийий формада ҳәм жасалма, адам баласының мийнетлери, қол күши менен де дөретилген болыўы мүмкин. Олардың дөретилиўинде, ҳәр түрли болып аталыўында әлбетте, сол халықтың басып өткен жолы менен тиккелей байланыслы. Бул ҳаққында М.Қурбанов төмендеги пикирлерди билдиреди: «Топонимикалық изертлеўлерде тарийх илиминиң дереклеринен орынлы пайдаланыўымыз керек. Жәмийет тарийхында болып атырған социаллық-сиясий өзгерислер үлке топонимикасына тәсир етеди. Топонимика тарийх, этнография илимлери ушын көп мәселелерди шешиўде қосымша дерек ўазыйпасын атқарады» [1.82]. Олар аўызеки сөйлеў тилинде, көркем шығармалар қурамында, фольклорлық шығармалар тилинде де көплеп ушырасады. Әсиресе, көркем шығармалардың тилинде ўақыяның кайсы аймақта болғанлығын, оның барысы, персонажлар, қаҳарманлардың ҳәрекетиниң желисин гидронимлик апеллятивлер арқалы да көриўге болады. Сонлықтан қарақалпақ фольклоры, яки жазба әдебият ўәкиллери шығармаларының тиллик өзгешелигине итибар қаратқанымызда, мейли ол қайсы жанрда болмасын дерлик көпшилигинде персонаж яки қаҳарманлардың мәкан түсинигин бериўде де, тәбиятын сүўретлеўде, әлбетте, суў объектлериниң атамаларынан пайдаланғанлығын ушыратамыз.

МЕТОДОЛОГИЯ

Мақаланы жазыўда сыпатлама, яғный шығарма қурамында берилген гидронимлерге тарийхый-лингвистикалық аспектте анализлениўи менен бирге салыстырмалы-тарийхый методтан – басқа тил бирликлерине, гидронимлердиң мәнилик түрлерине, келип шығыўы бойынша этимологиялық тәреплерине итибар қаратылды. Гидронимлердиң компонентлериниң семантикасын ашып бериўде компонентлик анализ сыяқлы методлардан пайдаланылды.

НӘТИЙЖЕЛЕР ҲӘМ ТАЛҚЫЛАЎЛАР

К.Алламбергеновтың «Дәрья тартылған жыллар» романында бир қатар гидронимлерди ушыратамыз.

Саға апеллятиви тек гидронимниң өзин ғана аңлатып қоймастан, усы апеллятив арқалы жасалған жаңа гидронимлерди де билдиреди. Саға бир нәрсениң басланыў дереги деген мәнини де билдиреди. Саға сөзи «сакия - дәрьяның басланған жери», - деген мәнисти аңлатады. [2.74].

К.Алламбергенов бул шығармасында төмендеги адам аты (антропоним) менен бирге келген *саға* апеллятивли гидронимди келтиреди. Мысалы, Соң мәлим болыўына қарағанда, суўдың қайтыўы дәрьяның *«Жумабай саға»* ның өринен Түркменстанға қарай жығып кеткенинен екен. [5.4]. Мысалда *саға* апеллятивли гидронимниң Жумабай деген адам аты менен байланыслы қойылғанлығын көремиз.

Шығарма тилинде апеллятивлерге итибар бергенимизде саға ҳәм шығанақ апеллятивлери менен келгенлериниң санаўлы екенлигин, яғный өнимсизлигин көриўимизге болады. Әдетте, *шығанақ* лексемасы туўра номинативлик мәнисте адамның қол мүшесиниң бир бөлегиниң атамасы болып есапланады.

Мынаның қарай ғой, мына «*Есберген шығанақ»* қа дейинги дәрьяның еки бойының өзи тынып турған тарийх. [5.5].

Усындай заманға түсинбеўшиликтиң себебинен мынаў турған *«Есберген шығанақ»* та қанша адам қырылды дейсең! Ең үлкени Қайып, оннан кишилери Нурымбет, Байымбет, Қулымбет ҳәм Тәжибай деген қалашлар болған. [5.9].

Жазыўшы бул шығармасында арқа районлардағы, солардан ҳәзирги Нөкис районында ерте ўақытларда жасаған кердерий халқын, Кердер қаласының аты ҳәм басқа да ески қалалардың, яғный ойконимлердиң атын атап өтиў менен биргеликте усы қала халқы суўынан пайдаланған Кердер дәрьясы ҳаққында да пикирлерин тилге алып өтеди. Мысалы, Сен билмейсең, балам, мына «Ҳайўан қала» ның тусында ерте заманларда

Кердер деген мәмлекет болған. Ҳо, анаў *Шортанбайдың* орнында болса *Кердер дәрьясы* ағып өткен. [5.5]. Ҳәтте, бабамыз Едиге де Тоқтамыс пенен аразласқанда, *Едил-Жайық* бойынан келип кеткен. Мына «Саркоп» қаланың тусына келген жерде Едиге бабамыздың баласы Нуратдин әкесин излеп киятырып, аттан түсип бир ақшам дем алған деседи. [5.5].

Бул мысалдан бир нәрсени аңлаў мүмкин, яғный бүгинги күнде үлкен елат, тоғай атамасы деп түсинилип жүрген Шортанбай ерте ўақытларда дәрья атамасы да усы атама менен аталғанлығын көриўге болады. Дәрья апеллятивиниң мәнисин илимпазлар қарақалпақ тилиндеги шығысы парсыша сөзлердиң қатарында қарап, 1) дәрья-үлкен дәрья, теңиз – белгили бир аңғар менен ағатуғын суў жолы; канал, арна, өзек [3.12] деген мәнисти аңлатады деп көрсетеди. Мысалларда Кердер дәрьясы, Шортанбай дәрьясы – үлкемиздеги ески дәрьялардың аты болса, ал Едил-Жайық дәрьясының аты ерте ўақытларда қарақалпақлардың жайлаған жери Россиядағы Волга-Урал дәрьяларының бурынғы атамалары болып табылады.

Соның менен бирге, романның тилинде ҳәўиз апеллятиви менен келген гидроним атамалар да ушырасады. Мысалы, «Дәри қала», «Едигениң қаласы», «Сәтемирханның ҳаўызы», «Даңша қум», «Жаў шыққан қум» дегендей белли қумлар көп болған. Қыран таўдың үстинен жүрсең, бес-алты қумбызды көресең. [5.5].

Ҳәўиз әдетте, тәбийий түрде пайда болған суў объекти емес, ол адамлар тәрепинен жерди қазылып, гейде үйиниң жанына жақын жерде нәше ушын ишине балық өсириў, ғаз, үйрек бағыў ушын ямаса тәбийий сулыўлық, дөгерегине тереклер, гүллер отырғызып, дем алыў ушын қазылып исленетуғын, тез-тез ағын суў, таза суў менен ишиндеги суўды өзгертип туратуғын орын. Ҳәўиз, дерлик Өзбекстанның барлық ўәлаятында, Тажикстанда, Иран топонимлери қурамында да ушырасады, деп көрсетеди белгили топонимист З.Дўсимов [2.73]. Шығарма тилинен, ҳәўиз суў объектиниң жасалма жол менен пайда етилиўи жақын жылларда пайда болып қоймаған, оның төркини узақ тарийхқа барып ушласады, деп исеним менен айта аламыз. Себеби, Қарақалпақстанның көпшилик жерлеринде ҳәўизлердиң усы сыяқлы ески атамалары сақланып қалған. Шығармадағы атап өтилген Сәтемирдиң ҳәўизи атамасы – патша, шаҳ Темур аты менен байланыслы.

Жазыўшы К.Алламбергеновтың бул шығармасында *жағыс* - апеллятивли төмендеги гидронимлер де ушырасады. Мысалы, Бул қәдимнен қалған тарийх. Бул дәрьяның бойында нелер болып өтпеди дейсең! «*Ақ терек жағыс»* пенен «*Қызыл жағыс»* тың арасы жыс тоғай еди. Усы тусларда «Қызыл қала» деген қала болды. Оның «Қызыл үй», «Қызыл қала» деп аталыўлары жүдә ертеден патшаның тусынан басланған. [5.5].

Жағыс сөздиң мәниси қандай да суў объектиниң жағасы деген мәнисти аңлатады. «Жағыс - кеме, параход тоқтаў ушын үлкен объектлериндеги турақлы, қолайлы орын. Қарақалпақстанның бир қатар районларында жағыс апеллятиви менен келетуғын атамалар ушырасады. Мысалы, Аққжағыс (Мойнақ районы), Қәллижағыс (Кегейли районы), Ҳәкимжағыс (Кегейли районы)». [4.23].

Соның менен бирге, шығарма тилинде жиңишке деген атама менен үлкен топонимди *Жиңишке* тоғайының бар екенлигин де атап көрсетеди. Бүгинги күнде *Жиңишке каналы* ҳәзирги Қоңырат районы аймағынан ағып өтеди. Демек, бирдей номинативлик көринистеги атамалар ҳәр қыйлы топоним қурамында ушыраса береди. Ал, дәрьяның ар жағындағы *Жиңишкениң* ишинде *Байнияз ҳәрем* деп аталатуғын жер бар еди. Ол жерде Байнияз бақсы деген хош ҳаўаз бақсы үй тигип жасады. [5.6].

Шүңгил апеллятиви антропоним+шүңгил типинде ушырасады. Шығармада *Назар шүңгил* тек бир ғана мәнисти *шүңгил* гидронимин билдирип қоймастан, көлдиң шүңгил жери деген уғымды да аңлатады. Мысалы, *Назар бағман* ақлығым бир нәрсе үйренсин деди ме, пүткил бир аўыл-аймаққа жететуғын он гектар көлемниң бағын ақлығын қасынан бир ели қалдырмай жүрип, оның көз алдында кәмалға

келтирди. [5.11]. *«Назар шуңгил»* деген көли қыздың дөңгелек айналасындай жарқырап туратуғын еди. [5.12].

Шуңгил - бул суў объектиндеги ең терең, шуқыр жери. Ең дәслеп бул апеллятив көлдиң шуңгил жери мәнисин аңлатып, соңын ала халық түсинигинде ҳәр түрли атамалардың, мысалы адам аты қосылып, белгили суў объекти атамасын аңлатыў хызметине өткен.

Шығармада, буннан басқа да *ой, өзек* апеллятивли келген гидронимлер төмендеги мысалларда ушырасады.

Жүзлери алмас пышақтай жылтыраған дәў дүккишлер қойсын ба, күн-түни тынбай гүркиреп, *Шортанбайдың сағасындағы, «Батпақ көл»* диң қасындағы *«Шатырлы ой», «Аймурза өзек», «Ақ терек жағыс»* бойларындағы кең көлемли тораңғыл тоғайларын тып-тыйпыл етип бир жылға апармай-ақ *«Ақ терек жағыс»* пенен *«Есберген шығанақ»* аралығын сырдандай дала етип таслады. [5.15]. Булардың үйиниң иргесиндеги, *«Қызыл жағыс»* тың тоғайлары да нып-қырт болды. [5.16].

Шығарма тилинде *уйық* гидронимлик апеллятиви де ушырасады. Бизиң үлкемиздиң тәбиятында батпақлық, балшықлық жерлер сийрек ушырасады. Ал, жазыўшы уйық гидронимин аса шеберлик пенен пайдаланған. Бул бирликтиң уймық, уймықлық деген вариантлары да халықтың аўызеки сөйлеў тилинде ушырасады. Бул суўдан гөре, суў объектиниң жанында үлкен батпақлықтың, уймықтың бар екенлигинен дерек береди. Мысалы, Соның салдарынан қала көшелерин шат-путалар басып *Сәтемир ханның ҳаўызы* менен зинданларын *уйық* басты. *Саркоп қала* менен *Дәри қала* болса пишензарлыққа айланып кетти. [5.16].

Жап апеллятиви қарақалпақ тилинде ең өнимли ушырасатуғын гидронимлик апеллятив жап болып есапланады. Романда Сейтек жап гидроними төмендеги мысалда ушырасады. Мысалы, Группа ағзалары «*Сейтек жап»* тың тусына жетип келгенде, жол бойында шашлары уўдар-дуўдар болып, көйлекшең зирдектей тоңып турған он бес-он алты жаслар шамасындағы қызға көзлери түсип, машинаны лаппа тоқтатты. [5.93].

Ал төмендеги мысалда Еркиндәрья арнасы менен бирге усы арна жанындағы тоғайдың атамасының да Еркин деп қысқарған формада аталыўын көремиз. Демек, ҳәр қандай суў объектиниң жанындағы жер, тоғай, далалық т.б орынлар гейде сол жақын болған суў объектиниң атамасы менен де аталады. Мысалы, Әжепленбей қәйтсин: Жалғастың Асанды *Еркинниң тоғайында* жасырынып жүрген жеринен услап қолына кисен салып, шала өкпеси шығып әкелген мийнети бир пул болды. [5.94]. Күнде зыр-зыр қатнап турған *Еркиндәрьяға* жетиўден азабы болған жоқ. [5.207].

ЖУЎМАҚ

Жуўмақлап айтқанда, К.Алламбергеновтың «Дәрья тартылған жыллар» романында арқа район аймағына тийисли суў объектлериниң атамаларын көплеп қолланылған, бул арқалы романда сөз етилген ўақыялар усы аймақларда болғанлығы көзге тасланады. Екиншиден, гидронимлердиң тарийхый ески атамалары да жазыўшы тәрепинен қайта жанландырылып, халық тилинде ҳәр қандай гидронимниң этимологиясын аңлаўда тийкарғы дерек болып хызмет етеди. Үшиншиден, қарақалпақ тилинде жергиликли аймақ халқының тилине тән гидронимлер, миллий әдебий тилге тән болған гидроним апеллятивлердиң берилиўи – бул топардағы бирликлерди лингвистикалық ҳәр түрли аспектте еле де тереңирек изертлеў имканиятын көрсетеди.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Қурбанов М.Ономастика: изертлеў мәселелери. – Нөкис: «Билим», 2025.
2. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. –Тошкент: «Фан», 1985.
3. Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы парсыша сөзлер. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2017.
4. Мамбетова Г. Қарақалпақстанның арқа районлары гидронимлери. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 2021.
5. К.Алламбергенов. «Дәрья тартылған жыллар» романы. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:81.2:81-94.37.018.43:004.8

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Allamurodov Yigitali Abduqodirovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Алламуродов Йигитали Абдугадирович
Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий

THE IMPORTANCE OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING ENGLISH

Allamurodov Yigitali Abdukodirovich
Termez State University of Engineering and Agrotechnology

yigitaliallamurodov91@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-4172-8388

Annotatsiya: *Ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Sun’iy intellekt, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish, mashqlarni shaxsiylashtirish va til o‘rganish jarayonida real vaqt rejimida qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. Bunday texnologiyalar, o‘quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash va tilni o‘rganishda muvaffaqiyatni oshirish uchun ideal vositadir. Maqolada ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni, uning til o‘rganish jarayoniga ta’siri va o‘quvchilarga qanday samarali yordam ko‘rsatishi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, ingliz tilini o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, interaktiv ta’lim, tilni o‘rganish, individualizatsiya, real vaqt yordam, mashqlarni shaxsiylashtirish, o‘quv jarayoni.*

Аннотация*: Использование технологий искусственного интеллекта (ИИ) при обучении английскому языку существенно повышает эффективность образовательного процесса. Искусственный интеллект позволяет предоставлять учебные материалы, адаптированные к потребностям студентов, персонализировать упражнения и оказывать поддержку в режиме реального времени в процессе изучения языка. Такие технологии являются идеальным инструментом для выявления слабых сторон учащихся, их усиления и повышения успешности в изучении языка. В статье рассказывается о роли технологий искусственного интеллекта в преподавании английского языка, их влиянии на процесс изучения языка и о том, как они эффективно помогают студентам.*

Ключевые слова*: Искусственный интеллект, обучение английскому языку, образовательные технологии, интерактивное обучение, изучение языка, индивидуализация, поддержка в режиме реального времени, персонализация упражнений, образовательный процесс.*

Abstract*: The use of artificial intelligence (AI) technologies in teaching English significantly increases the effectiveness of the learning process. Artificial intelligence makes it possible to provide educational materials tailored to the needs of students, personalize exercises, and provide real-time support in the*

language learning process. Such technologies are an ideal tool for identifying students' weaknesses, strengthening them, and increasing success in language learning. The article discusses the role of artificial intelligence technologies in teaching English, its impact on the language learning process, and how it can effectively help students.

***Key words**: Artificial intelligence, English language teaching, educational technologies, interactive learning, language learning, individualization, real-time assistance, personalization of exercises, learning process.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimlari jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi, shu jumladan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro aloqalar, biznes va ilmiy tadqiqotlar sohasida, balki kundalik hayotda ham zaruriy vositaga aylanib bormoqda. Ingliz tilini o'rganish jarayonining samaradorligini oshirish uchun ta'lim metodlari va vositalarini takomillashtirish juda muhimdir. Shu nuqtada sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson miya faoliyatini simulyatsiya qilish orqali o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini tahlil qilish, individual darslar yaratish va tilni o'rganishda real vaqt rejimida yordam ko'rsatish imkonini beradi. Shu tariqa, sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat o'quvchilarni rag'batlantiradi, balki ularning tilni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektning o'rni, uning o'quv jarayonidagi afzalliklari va uning ta'lim samaradorligini qanday oshirishi haqida so'z yuritiladi. Maqola orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o'rganishdagi imkoniyatlari, afzalliklari va kelajakda ularni qo'llash istiqbollari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Ingliz tilini o'rganish va o'qitish jarayoni bugungi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy qilinishi, ingliz tilini o'qitishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. SI texnologiyalari, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan o'quv materiallarini taqdim etish, interaktiv mashqlarni amalga oshirish va o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi, o'qituvchilarning ishini yengillashtirib, o'quvchilarning o'rganish samaradorligini oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'shilishi, o'quvchilarga individual yondashishni ta'minlaydi. Har bir o'quvchi o'z o'rganish uslubiga ega bo'lganligi sababli, umumiy o'quv dasturlari ba'zan barcha o'quvchilar uchun mos bo'lmasligi mumkin. Sun'iy intellekt yordamida, o'quvchilarni baholash, ularning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash imkoniyatlari mavjud. Bu esa o'qituvchilarga o'z darslarini individual o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi.

Masalan, ingliz tili bo'yicha sun'iy intellekt tizimlari, o'quvchilarning grammatika, lug'at va talaffuzdagi qiyinchiliklarini aniqlab, ularni yaxshilash uchun shaxsiy mashqlarni taqdim etadi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'rganish jarayonini ancha samarali va qiziqarli qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarning o'sish darajasini doimiy ravishda kuzatib borishlari va kerakli o'zgarishlarni kiritishlari mumkin. Sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitishdagi yana bir afzalligi — interaktiv ta'lim usullarining qo'llanilishidir. Gamifikatsiya, ya'ni o'yinlar orqali o'qitish, sun'iy intellekt yordamida amalga oshiriladi. O'quvchilarga ingliz tilini o'rganishda interaktiv mashqlar, o'yinlar va virtual sinovlar taqdim etiladi. Bu usul, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida ingliz tilini o'rgatishda, o'yin elementlari qo'shilgan mashqlar, masalan, so'z boyligini oshirish, grammatikani takrorlash yoki talaffuzni yaxshilash uchun sinovlar taqdim etiladi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun ballar va mukofotlar to'plashlari mumkin, bu esa ularning o'rganish jarayoniga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Sun'iy intellekt o'quvchilarga real vaqt rejimida yordam ko'rsatish imkonini beradi. Misol uchun, chat-botlar yoki virtual o'qituvchilar yordamida o'quvchilar doimiy tarzda o'rganish jarayonida savollar berishlari mumkin. Bu tizimlar o'quvchilarning tilni o'rganishdagi xatolarini darhol

aniqlab, ularni tuzatishda yordam beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'quvchilarga grammatik xatolarni aniqlash, talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish va so'z boyligini oshirish bo'yicha interaktiv fikrlar berish mumkin.

Bundan tashqari, o'quvchilar sun'iy intellekt yordamida o'zlarini mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular darslarni o'z tempida o'tkazib, o'zlari uchun eng qulay o'rganish usulini tanlashlari mumkin. Bu esa o'quvchilarning ishonchini oshiradi va ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o'qitishda eng katta afzalligi — til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishdir. Masalan, so'zlarni yodlashda sun'iy intellektning qo'llanishi, o'quvchilarga so'zlarni tez va samarali o'rganish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish uchun yangi so'zlarni tezda takrorlash va ularni kontekstda qo'llash mashqlarini taqdim etadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida grammatikani va talaffuzni o'rganish ham samaraliroq bo'ladi. O'quvchilar grammatikani mustahkamlash va talaffuzni yaxshilash bo'yicha o'zlashtirilgan mashqlarni amalga oshiradilar. Bu esa o'quvchilarning tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o'qitishda qo'llanilishi kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda. Yangi metodlar va texnologiyalar yordamida o'quvchilarning o'rganish jarayoni yanada mukammal bo'ladi. Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarga faqat grammatika va lug'atni o'rgatibgina qolmay, balki ingliz tilida erkin muloqot qilish, madaniy farqlarni tushunish va o'quvchilarni xalqaro miqyosda kommunikatsiya qilishga tayyorlashga yordam beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ingliz tilini o'qitish jarayonida yangi o'quv materiallari, metodologiyalar va ilovalar ishlab chiqilishi kutilmoqda. Bu yangi yondashuvlar ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa

Ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning o'rganish samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. SI texnologiyalari individual yondashuvni ta'minlaydi, interaktiv ta'lim imkoniyatlarini yaratadi va til o'rganish jarayonini samarali qiladi. O'quvchilarga real vaqt rejimida yordam berish, motivatsiyani oshirish va o'rganishni qiziqarli qilish kabi imkoniyatlar sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rnini kuchaytiradi. Kelajakda sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitishda roli yanada muhim bo'lib, ta'lim sohasida yangi ufqlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov, B. (2019). Sun'iy intellekt va ta'lim tizimi: imkoniyatlar va muammolar.
2. Karimov, A. (2020). Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalar.
3. Qosimov, R. (2021). Sun'iy intellekt va til o'rganish.
4. Shamsiev, D. (2022). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Sun'iy intellekt va onlayn platformalar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 193.4(575.1)

MIGRATSIYA VA MADANIY IDENTITET: MUVOZANATNI TOPISH MUAMMOSI

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich, Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

МИГРАЦИЯ И КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ: ПРОБЛЕМА ПОИСКА БАЛАНСА

Мансуров Абдулазиз Акбаржонович, преподаватель Гулистанского государственного педагогического института

MIGRATION AND CULTURAL IDENTITY: THE PROBLEM OF FINDING BALANCE

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich, teacher at Gulistan State Pedagogical Institute

https://orcid.org/0009-0000-4484-4721
e-mail: abdulazizmansurov47@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola global miqyosda kuzatilayotgan aholi migratsiyasining mafkuraviy jarayonlarga ta'sirini kompleks tahlil qiladi. Migratsiya oqimlari qabul qiluvchi jamiyatlarda madaniy, diniy va siyosiy landshaftni o'zgartirishi, yangi tendensiyalarni shakllantirishi va ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotda migratsiyaning aholi identiteti, milliy qadriyatlar, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy integratsiyaga ta'siri o'rganiladi. Olingan natijalar asosida migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va madaniy xilma-xillikni saqlash bo'yicha siyosatchilarga amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *aholi migratsiyasi, mafkuraviy jarayonlar, madaniy ta'sir, milliy identitet, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy integratsiya, globalizatsiya, migratsiya siyosati, qabul qiluvchi jamiyat, madaniy xilma-xillik.*

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the impact of global population migration on ideological processes. Migration flows can change the cultural, religious and political landscape of host societies, shape new trends and provoke social conflicts. The study examines the impact of migration on population identity, national values, political stability and social integration. Based on the results obtained, practical recommendations are given to policymakers on how to effectively manage migration processes and preserve cultural diversity.*

Key words: *population migration, ideological processes, cultural influence, national identity, political stability, social integration, globalization, migration policy, host society, cultural diversity.*

Аннотация: *В статье представлен комплексный анализ влияния глобальной миграции населения на идеологические процессы. Миграционные потоки могут изменить культурный, религиозный и политический ландшафт принимающих обществ, сформировать новые тенденции и породить социальные конфликты. В исследовании изучается влияние миграции на идентичность населения, национальные ценности, политическую стабильность и социальную интеграцию На основе полученных результатов будут предоставлены практические рекомендации лицам, формирующим политику, по эффективному управлению миграционными процессами и сохранению культурного разнообразия.*

Ключевые слова: *миграция населения, идеологические процессы, культурное влияние, национальная идентичность, политическая стабильность, социальная интеграция, глобализация, миграционная политика, принимающее общество, культурное разнообразие.*

TAMADDUN NURI

KIRISH (INTRODUCTION). Globalizatsiya va texnologik rivojlanish natijasida aholi migratsiyasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon iqtisodiy va demografik o‘zgarishlarga qo‘shimcha ravishda qabul qiluvchi jamiyatlarning mafkuraviy muhitiga ham ta’sir qiladi. Turli madaniyatlar, diniy e’tiqodlar va siyosiy qarashlar aralashuvi yangi tendensiyalarni shakllantirib, mavjud qadriyatlarni o‘zgartirishi va ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi migratsiyaning mafkuraviy jarayonlarga ta’sirini kompleks tahlil qilishdir. Unda migratsiyaning aholi identiteti, milliy qadriyatlar, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy integratsiyaga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonlarini boshqarish va madaniy xilma-xillikni saqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

METODLAR (METHODS). XX asrda xorij olimlari E.Ravenshteyn, P.Pirs, G.Moskardo, J.Makkannel, V.Smit [1] migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berganlar. Britaniyalik iqtisodchi olim Pol Kolliyer “Global migratsiyaning immigrant va emigrant davlatlarga, ya’ni, migrantlarni qabul qiluvchi va ularni yetkazib beruvchi mamlakatlarga hamda migrantlarning hayotiga bevosita ta’siri”[2], R.Robertson “Migratsiya global dunyoda madaniy gibridlanishning muhim omili” hisoblanadi. U qabul qiluvchi jamiyatlarda yangi madaniy shakllarning paydo bo‘lishiga va mahalliy madaniyatning o‘zgarishiga olib keladi”[3], London universiteti falsafa doktori (PHD) Suad Osserian o‘z tadqiqotlarida “Yaqin Sharqdagi og‘ir vaziyat tufayli majburiy migratsiyaga uchragan, Turkiyadagi qochoqlar lagerlarida yashayotgan migrantlarning ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, madaniy muammolariga” [4] oid ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

NATIJALAR (RESULTS). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aholi migratsiyasi qabul qiluvchi jamiyatlarning mafkuraviy muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir, bir tomondan, qabul qiluvchi jamiyatning madaniy, diniy va siyosiy landshaftini boyitishi mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholi o‘rtasida milliy identitet, ijtimoiy barqarorlik va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq xavotirlarni kuchaytirishi mumkin[5]. Ushbu o‘zgarishlar qabul qiluvchi jamiyatning mafkuraviy muhitida sezilarli transformatsiyalarni aks ettiradi, bu esa o‘z navbatida migratsiya siyosatini ishlab chiqishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan muhim omil hisoblanadi.

Migratsiya jarayoni madaniy o‘zgarishlarning asosidir. U madaniy xilma-xillikni oshirib, yangi an’analar va urf-odatlarni kiritadi, natijada mahalliy an’analar boyiydi. Migrantlar o‘z madaniyatlarini qabul qiluvchi jamiyatga tanishtirib, yangi tendensiyalar va tadbirlar paydo qiladi. Biroq, bu jarayon muammosiz bo‘lmasligi mumkin, stereotiplar va madaniy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun qabul qiluvchi jamiyat migrantlarning madaniy merosini hurmat qilishi, madaniy integratsiyani rag‘batlantirishi va o‘zaro anglashuvni ta’minlashi muhimdir. “Madaniy o‘zgarishlar ko‘pincha madaniy almashinuv, assimilyatsiya va madaniy gibridlanish jarayonlari orqali yuzaga keladi” [6]. Biroq, shu bilan birga madaniy ziddiyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, Yevropada islom diniga e’tiqod qiluvchi migrantlar sonining ortishi ba’zi mahalliy aholi tomonidan milliy qadriyatlarga tahdid sifatida qabul qilinmoqda [7]. Qabul qiluvchi mamlakatlar arzon ishchi kuchiga ehtiyojlari sababli migrantlarni qabul qilishga majbur. Bu iqtisodiy ehtiyoj migratsiya siyosatiga ta’sir qiladi. Biroq, migrantlar o‘zlarini begona his qilishadi va muhitlarida noqulaylik sezishadi, vatanlariga qaytganda esa uzilib qolishlarini anglaydilar. Bu ular uchun psixologik muammolar, masalan, o‘zlikni yo‘qotish, nostalgiya va depressiyani keltirib

[1] John R. Walker. Introduction to Hospitality. PearsonEducationLimited, 2017. — 654 p.
[2] Collier P. Exodus: How migration is changing our world. – New York: Oxford University Press Inc., 2013. – P. 320.
[3] R.Robertson. Globalization: Social Theory and Global Culture. 1992.
[4] Osseiran S. Migration, waiting and uncertainty at the borders of Europe: Syrian refugees in Istanbul: Thesis (Ph.D.). – Goldsmiths: University of London, 2017. – P. 325.
[5] Akbarjonovich M. A. Historical Analysis of Population Migration //International Journal on Orange Technologies. – 2023. – T. 5. – №. 4. – C. 68-70.
[6] Vertovec, S. (2007). Super-diversity and its implications. Ethnic and Racial Studies, × 30 ×(6), 1024-1054.
[7] Norris, P., & Inglehart, R. (2012). Cultural backlash: Trump, Brexit, and authoritarian populism. Cambridge University Press.

chiqarishi mumkin. Migrantlar ikki madaniyatga to‘liq tegishli bo‘lmagan “ikkiyoqlama begonalik”ni his qilishadi. Shu sababli, qabul qiluvchi jamiyatlar migrantlarning ijtimoiy va psixologik adaptatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi, madaniy moslashuv, til o‘rganish va ijtimoiy dasturlarni taklif etishi lozim. Shuningdek, migrantlarning o‘z vatanlari bilan aloqalarni saqlab qolishlari muhimdir.

Milliy identitet va madaniy xilma-xillik o‘rtasida muvozanatni topish muhimdir. Bu jamiyatning o‘ziga xosligini saqlash, milliy qadriyatlarni hurmat va migrantlarning madaniy merosini qadrlashni talab etadi. Muvozanat dinamik bo‘lib, demografik va iqtisodiy sharoitlarga moslashadi. Madaniy muloqot, ta’lim va jamoat tashkilotlari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Davlat esa adolat, tenglik va inklyuzivlik asosida aniq siyosat ishlab chiqishi zarur. “Milliy identitet o‘zgaruvchan va doimiy ravishda qayta quriladigan konstruksiya hisoblanadi”[8].

MUHOKAMA (DISCUSSION). Olingan natijalar aholi migratsiyasining mafkuraviy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Migratsiya qabul qiluvchi jamiyatlarda madaniy, diniy va siyosiy o‘zgarishlarga olib keladi, bu esa o‘z navbatida mahalliy aholi identiteti, milliy qadriyatlar, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy integratsiya masalalariga ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, migratsiyaning mafkuraviy ta’siri bir tomonlama emas. Migrantlar ham qabul qiluvchi jamiyatning madaniyati, qadriyatlari va siyosiy tizimi ta’siriga tushadi. Madaniy almashinuv va integratsiya jarayonlari natijasida yangi madaniy shakllar paydo bo‘lishi va mafkuraviy sintez kuzatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari aholi migratsiyasining qabul qiluvchi jamiyatlarning mafkuraviy muhitiga ta’sirini ko‘rsatadi[9]. Migratsiya madaniy, diniy va siyosiy o‘zgarishlarga olib keladi, bu esa mahalliy aholini identiteti, milliy qadriyatlari va ijtimoiy integratsiyasiga ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, migratsiyaning mafkuraviy ta’siri ikki tomonlama: migrantlar ham jamiyatning madaniyati va qadriyatlaridan ta’sirlanadi. “Madaniy assimilyatsiya va akkulturatsiya jarayonlari immigrantlarning qabul qiluvchi jamiyatning madaniyati va qadriyatlarini o‘zlashtirishiga olib keladi” [10] . Madaniy almashinuv va integratsiya jarayonlari natijasida yangi madaniy shakllar paydo bo‘lishi va mafkuraviy sintez kuzatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonlarini boshqarish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berishga imkon beradi:

Migratsiya siyosatini ishlab chiqishda mafkuraviy omillarni hisobga olish zarur: Migratsiya siyosati qabul qiluvchi jamiyatning madaniy va siyosiy xususiyatlarini hisobga olishi, milliy identitetni saqlash va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi kerak. “Migratsiya siyosati integratsiya va inklyuziyani rag‘batlantirishi, diskriminatsiyaga qarshi kurashishi va barcha aholi guruhlari o‘rtasida teng imkoniyatlar yaratishi kerak”[11].

Madaniy tolerantlikni tarbiyalash muhim: Maktablarda va ommaviy axborot vositalarida madaniy tolerantlikni targ‘ib qilish, madaniy xilma-xillikning afzalliklarini tushuntirish va ksenofobiyaga qarshi kurashish kerak. UNESCO (2009) madaniy tolerantlikni tarbiyalashning muhimligini ta’kidlab, ta’lim va ommaviy axborot vositalarini madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilish va stereotiplarga qarshi kurashishda faol rol o‘ynashga chaqiradi[12].

Ushbu tavsiyalar migratsiya jarayonlarini boshqarishda kompleks va inklyuziv yondashuvni ta’minlashga qaratilgan. Kompleks yondashuv iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlarni hisobga oladi, inklyuziv esa qabul qiluvchi jamiyatning barcha a’zolarining, jumladan migrantlar va mahalliy aholi ehtiyojlarini inobatga oladi. Bu yondashuv migratsiya siyosatini samaraliroq, adolatliroq qilib, migrantlarning integratsiyasini osonlashtiradi va ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi. Barqaror rivojlanish

[8] Brubaker, R. (2004). Citizenship and nationhood in France and Germany. Harvard University Press.

[9] MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.

[10] Alba, R., & Nee, V. (2003). Remaking the American mainstream: Assimilation and contemporary immigration. Harvard University Press.

[11] Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. (2014). The age of migration: International population movements in the modern world. Macmillan International Higher Education.

[12] UNESCO. (2009). Investing in cultural diversity and intercultural dialogue.

nuqtayi nazaridan migratsiya inson kapitali va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Ijtimoiy birdamlik esa turli madaniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuning uchun kompleks va inklyuziv yondashuvni qabul qilish muhimdir.

XULOSA (CONCLUSION). Aholi migratsiyasi global jihatdan iqtisodiy, demografik va mafkuraviy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri baholash va boshqarish qabul qiluvchi jamiyatlarning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Tadqiqot migratsiyaning mafkuraviy ta’sirini o‘rganadi va siyosatchilarga amaliy tavsiyalar beradi. Kelajakda mehnat migratsiyasi, qochqinlar oqimi va ichki migratsiyaning ta’sirini solishtirish, yangi metodologiyalar ishlab chiqish zarur. Shuningdek, migrantlarga oid identitet o‘zgarishlarini o‘rganish dolzarbdir. Natijalar migratsiya siyosatini samaraliroq va adolatli qilish, barqaror rivojlanishni ta’minlash hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. John R. Walker. Introduction to Hospitality. PearsonEducationLimited, 2017. — 654 p.
2. Collier P. Exodus: How migration is changing our world. – New York: Oxford University Press Inc., 2013. – P. 320.
3. R.Robertson. Globalization: Social Theory and Global Culture. 1992.
4. Osseiran S. Migration, waiting and uncertainty at the borders of Europe: Syrian refugees in Istanbul: Thesis (Ph.D.). – Goldsmiths: University of London, 2017. – P. 325.
5. Akbarjonovich M.A. Historical Analysis of Population Migration //International Journal on Orange Technologies. – 2023. – T. 5. – №. 4. – C. 68-70.
6. Vertovec, S. (2007). Super-diversity and its implications. Ethnic and Racial Studies, ×30×(6), 1024-1054.
7. Norris, P., & Inglehart, R. (2012). Cultural backlash: Trump, Brexit, and authoritarian populism. Cambridge University Press.
8. Brubaker, R. (2004). Citizenship and nationhood in France and Germany. Harvard University Press.
9. MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
10. Alba, R., & Nee, V. (2003). Remaking the American mainstream: Assimilation and contemporary immigration. Harvard University Press.
11. Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. (2014). The age of migration: International population movements in the modern world. Macmillan International Higher Education.
12. UNESCO. (2009). Investing in cultural diversity and intercultural dialogue.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 37.0.371.373

BOLA TARBIYASIDA ATROF MUHITNING AHAMIYATI

Asanova Gulmira Baxtibekovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi

THE IMPORTANCE OF THE ENVIRONMENT IN CHILDREN'S EDUCATION

Asanova Gulmira Bakhtibekovna
Teacher, Tashkent University of Humanities

ЗНАЧЕНИЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ

Асанова Гульмира Бахтибековна
Преподаватель Ташкентского гуманитарного университета

gulmiraasanova879@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bola tarbiyasi juda muhim masala ekanligi, unda atrof-muhitning ahamiyati muhim ekanligi, bola tarbiyasida oilaning, ijtimoiy tarmoqlarning, ta'limning ta'siri haqida fikirlar yoritilgan. Oila, jamiyat va ilmiy-madaniy muhitning bola tarbiyasidagi o'rni o'zgarmasdir, chunki ular bola uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatish va uning ma'naviy va axloqiy asoslarini olish kerakligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *bola, oila, atrof-muhit, tarbiya, jamiyat, omillar, ijtimoiylashuv, ota-ona, ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar.*

Abstract. *This article discusses the idea that child rearing is a very important issue, the importance of the environment in it, the influence of the family, social networks, and education on child rearing. The role of the family, society, and the scientific and cultural environment in child rearing is immutable, since they should show the right path for the child and provide him with his spiritual and moral foundations.*

Key words: *child, family, environment, upbringing, society, factors, socialization, parents, education, social networks.*

Аннотация: *В этой статье обсуждается важность воспитания детей, значение окружающей среды, а также влияние семьи, социальных сетей и образования на воспитание детей. Роль семьи, общества, научно-культурной среды в воспитании ребенка неизменна, поскольку они призваны указать ребенку правильный путь, заложить в нем духовно-нравственные основы.*

Ключевые слова: *ребёнок, семья, среда, воспитание, общество, факторы, социализация, родители, образование, социальные сети.*

Kirish. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan gaplari qariyb bir asrki o'zining zalvorini yo'qotgani yo'q. Tarbiyada mukammal formula yo'qki, jamiyatda hamma bola bir hil darajada tarbiyalansa. Har bir bola o'ziga xos ijtimoiy muhitda o'sadi, tabiiyki unga ijobiy hamda salbiy ta'sirlar turlicha bo'ladi. Bolaning voyaga yetguncha oq choyshabga o'rab katta qilishning iloji yo'q va doim ham bolaga yetarlicha e'tibor qila olmaymiz. Qaysidir vaziyatda kimningdir e'tiborsizligi, kimningdir aybi bilan bola yomon bolaga aylanib qoladi[2]. Bugungi bolalar – ertangi yetakchilar, olimlar, tadbirkorlar va jamiyatning faol a'zolaridir. Ularni yaxshi tarbiyalash orqali barqaror va rivojlangan jamiyat yaratish mumkin. Har bir bola to'g'ri yo'naltirilsa, u nafaqat o'z hayoti, balki atrofidagilarga ham foyda keltiradi. Zamonaviy dunyoda bola tarbiyasi jamiyatning eng muhim masalalaridan biri

hisoblanadi. Ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy hayotning keskin o‘zgarishlari sababli tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv zarur bo‘lib bormoqda. Bolalar – kelajakning asosiy quruvchilari bo‘lgani sababli, ularning to‘g‘ri tarbiyalanishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi [1].

Asosiy qism. Bola tarbiyasi inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, uning kelajakda qanday shaxs bo‘lib shakllanishiga asos yaratadi. Atrof-muhit bola tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. Bola tug‘ilganidan boshlab uning ongini, fe’l-atvorini va dunyoqarashini shakllantirishda atrof-muhit asosiy omillardan biri hisoblanadi. Atrof-muhit deganda oila, jamiyat, ta’lim muassasalari, do‘stlari, madaniy muhit va texnologiyalar tushuniladi. Tarbiyaning asosiy omillari orasida **oila** va **jamiyat** yetakchi o‘rin egallaydi. Chunki bola tug‘ilganidan boshlab, avvalo oilada, keyinchalik esa jamiyatda o‘z o‘rnini topadi va hayotiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Al-Farobiy o‘z asarlarida atrof-muhitning inson tarbiyasiga bevosita ta'sirini tushungan. Oilada va jamiyatda o‘ziga xos axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvorlar bola rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. U o‘zining "Fozil inson" (yuksalgan inson) haqidagi ta'limotida, ideal inson faqat aql va bilim bilan emas, balki ijtimoiy muhitda o‘zini qanday tutishi, boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishi bilan ham ajralib turadi deb hisoblaydi. Buning uchun, Al-Farobiy atrof-muhitning, ya'ni oila, jamiyat va ta'lim jarayonining bola tarbiyasidagi ahamiyatini tan olgan.

Yusuf Xos Hojib o‘zining "Qutadg‘u bilig" asarida bola tarbiyasida atrof-muhitning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, bola tarbiyasida oilaning roli beqiyosdir. U "Farzand ishlab bilimli, aqlli-hushli bo‘lsa, ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo‘ladi" deb yozgan.

Vygotskiy ta’kidlashicha bola o‘z-o‘zidan rivojlana olmaydi, balki jamiyat va madaniy muhit ta’sirida shakllanadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida kattalar va jamiyatning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va ota-onalar bolaning rivojlanishida "yaqin rivojlanish zonasi"ni shakllantirishlari kerak, ya’ni bolaga yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratish lozim [4].

J.J. Russo fikricha **“**Emil yoki tarbiya haqida asarida” bola tabiat bilan uyg‘unlikda tarbiyalansa, tabiiy va erkin rivojlanadi, Ota-onalar va tarbiyachilar bolaga erkin o‘sishiga imkon berishlari va unga haddan tashqari qattiqqo‘llik qilmasliklari kerakligini ta’kidlagan.

Dyui bola faoliyat orqali rivojlanadi, shuning uchun unga amaliy muhit yaratish lozim. Maktab va oila bolani faqat nazariy bilim bilan emas, balki hayotiy tajribalar orqali tarbiyalashi kerak. Jamiyat bolaning tarbiyasida bevosita ishtirok etishi lozim, shunda u ijtimoiy hayotga moslashadi” degan fikrlarni bildirgan.

Mariya Montessori “Erkin tarbiya va rivojlanish nazariyasi” asarida bolaning tarbiyasi unga erkin tanlov berish orqali amalga oshirilishi lozim. Bola tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus muhit va ta’lim tizimi kerak. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya berishlari lozimligini takidlagan. Freyd esa “bola hayotining dastlabki yillaridagi muhit va oilaviy munosabatlar uning kelajakdagi xarakteriga ta’sir qiladi. Bola ongi bolalikda olingan tajribalar orqali shakllanadi, shu sababli ota-onalar uning emotsional ehtiyojlarini to‘g‘ri qondirishlari lozim. Noqulay yoki ziddiyatli atrof-muhit bolaning kelajakdagi ruhiy muammolariga sabab bo‘lishi mumkin” degan fikrlarni bildirgan.

Muhokama va natijalar. Oilaning bola tarbiyasidagi asosiy roli juda muhimdir. Bola ilk tarbiyani oilada oladi, shu boisdan ota-onalar, buvilar va boshqa yaqin qarindoshlar bolaning axloqiy va ruhiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Oiladagi mehr-oqibat, tarbiyaviy muhit, ota-onaning o‘zaro munosabatlari bolaning kelajakdagi fe’l-atvoriga katta ta’sir qiladi. Bola oilada qanday muhitni ko‘rgan bo‘lsa, kelajakda ham shunga moyillik bildiradi. Oila, bolaga o‘zini anglash, uning shaxsiyati va istaklarini tushunishda yordam beradi. Bola o‘z oilasida xavfsizlikni his qilsa, bu uning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar bolalarning muammolariga diqqat bilan yondashib, ularni qo‘llab-quvvatlashi zarur. Oila, bola uchun kundalik hayotda qanday qoidalarga amal qilishni o‘rgtish orqali ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Oila bola tarbiyasining asosiy omili bo‘lib, uning rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Oila, bolaga umumiy axloqiy qadriyatlarni, balki milliy va ijtimoiy odamlarni ham o‘rgatadi. Oila, jamiyatning ajralmas qismi, bolaga o‘z milliy madaniyati, surf-odatlari va qadriyatlari bilan tanishtiradi. Oila,

TAMADDUN NURI

xavfsiz bolaga madaniyat, adolat, mehnatga hurmat kabi muhim qadriyatlarni ham o‘rgatadi.

Bola tarbiyasida nafaqat oila ta’lim va tarbiya muassasalarining ta’siri ham oshib bormoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab va boshqa ta’lim markazlari bolaning bilim olishi, odob-axloq qoidalariga rioya qilishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. O‘qituvchilar va tarbiyachilar bolaning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy shaxslar qatoriga kiradi.
Bola o‘z do‘stlari va atrofidagi odamlarning harakatlariga, so‘zlariga taqlid qiladi. Do‘stlari ijobiy bo‘lsa, bola ham yaxshi xulq-atvor egasi bo‘lishi mumkin, aksincha, noto‘g‘ri do‘stlik bolaning axloqiy qoidalaridan chekinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Jamiyatdagi madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy va milliy an’analar bolaning ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

Ba’zi oilalarda ota-onalar bandligi yoki oilaviy nizolar tufayli bolalar e’tiborsiz qolmoqda. Bolalar ko‘pincha tarbiyani internet yoki tengdoshlari orqali oladi, bu esa ba’zan noto‘g‘ri yo‘nalishga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda bola tarbiyasida raqamli texnologiyalar, televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlar bolaning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o‘ynayapti. Agar bola foydali axborot manbalaridan foydalansa, bu uning intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Noto‘g‘ri kontentlarga duch kelgan bolalar esa psixologik va axloqiy muammolarga duch kelishi mumkin. G‘arb madaniyatining ta’siri, noto‘g‘ri kontentlar (zo‘ravonlik, axloqsizlik) bolalarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Bolalar ko‘proq real hayotdan emas, balki internet orqali bilim va tajriba olishmoqda. Ijtimoiy tarmoq-lardagi noto‘g‘ri axborotlar bolaning ongini chal-g‘itishi va ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin [3].

Bolaning tabiat bilan bog‘liq bo‘lishi uning ruhiy holatini barqarorlashtiradi. Tabiatni sevish va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish bola ongida ekologik mas’uliyatni shakllantiradi.

Xulosa.

Bola tarbiyasi – bu faqat oilaning emas, balki butun jamiyatning mas’uliyati. Sog‘lom oila muhiti, ijobiy ijtimoiy ta’sir va sifatli ta’lim bolaning yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat a’zolari birgalikda harakat qilib, bolaga eng yaxshi sharoitni yaratishlari zarur. Bola atrof-muhiti uning kelajakdagi shaxsiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyat bolaning ijtimoiy, ruhiy va aqliy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ulg‘aygan bola o‘ziga ishonchli va mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanadi. Bu fikrlar asosida ota-onalar, pedagoglar va jamiyat bolaga to‘g‘ri tarbiya berish uchun atrof-muhitni sog‘lom va rivojlantiruvchi qilib yaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva D. "Pedagogika" – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. A. Abdullayev “Psixokorrektsion trening mashg’ulotlari. T:-2017.
3. Baxtiyorov A. "Bola tarbiyasida raqamli dunyoning o‘rni" – T:-2022.
4.Vygotskiy L.S. "Bola psixologiyasi va tarbiya" – M:- 2005.
5. Mahmudov N. "Pedagogik psixologiya" – T:- 2018.
6. Norkulov B. "Oila psixologiyasi" – T: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
7. Ermatov A. "Bola tarbiyasi va jamiyat" – T:- 2017.
8. Montessori M. "Bolalar tarbiyasida yangi yondashuvlar" – M:- 2014.
9. Kurbanbayeva M. Bolalarni maktab ta’limiga sifatli va samarali tayyorlash. (2024). *Tamaddun nuri jurnali*, *4*(55), 425-428. https://doi.org/10.69691/wnanmp84
10.To‘raqulov N. "Media va bola psixologiyasi" – T:- 2021.
11. Postman N. "Bolalikning yo‘qolishi" (The Disappearance of Childhood) – Moskva, 2015.
12. Kurbanbayeva M. Гаджетлар ва уларнинг бола психикасига таъсири. (2024). *Tamaddun nuri jurnali*, *7*(58), 302-306. https://doi.org/10.69691/f0q8mq85

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.176

ENGLISH PROVERBS WITH PHYTOTHEMATIC HYBRID COMPONENTS: SYNTACTIC ANALYSIS

Turdalieva Shahnoza Uktamovna
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, The teacher of the department "Foreign language and literature for lower courses"

АНГЛИЙСКИЕ ПОСЛОВИЦЫ С ФИТОТЕМАТИЧЕСКИМИ ГИБРИДНЫМИ КОМПОНЕНТАМИ: СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Турдалиева Шахноза Уктамовна
Денауский институт предпринимательства и педагогики, Преподаватель кафедры иностранных языков и литературы для младших курсов

INGLIZ TILIDAGI FITOTEMATIK GIBRID KOMPONENTLI MAQOLLAR: SINTAKSIS TAHLIL

Turdaliyeva Shahnoza Uktamovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi o'qituvchisi



E-mail: turdalievashakhnoza84@gmail.com
Orcid: 0009-0007-6172-0529

Abstract: *Proverbs serve as an essential component of linguistic and cultural heritage, encapsulating wisdom, traditions, and values. This study focuses on English proverbs that contain phytothematic hybrid components, i.e., plant-related words of mixed linguistic origins, and analyzes their syntactic structures. The research identifies common syntactic patterns, investigates the role of hybrid phytonyms in meaning construction, and explores their grammatical functions. The findings contribute to a deeper understanding of hybridization in phraseology and its impact on cross-linguistic analysis.*

Key words: *proverbs, syntactic analysis, hybridization, phytothematic components, English language.*

Аннотация: *Пословицы являются важной частью лингвистического и культурного наследия, заключая в себе мудрость, традиции и ценности. Данное исследование посвящено английским пословицам, содержащим фитотематические гибридные компоненты, то есть слова, относящиеся к растительному миру и имеющие смешанное языковое происхождение. В работе проводится анализ синтаксических структур таких пословиц, выявляются общие синтаксические модели, исследуется роль гибридных фитонимов в формировании значений, а также их грамматические функции. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию процессов гибридизации в фразеологии и их влияния на межъязыковой анализ.*

Ключевые слова: *пословицы, синтаксический анализ, гибридизация, фитотематические компоненты, английский язык.*

Annotatsiya: *Maqollar lingvistik va madaniy merosning muhim qismi bo'lib, ular donishmandlik, an'analar va qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Ushbu tadqiqot fitotematik gibrid komponentlar, ya'ni o'simlik dunyosiga oid va aralash til kelib chiqishiga ega bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan ingliz maqollariga bag'ishlangan. Tadqiqotda bunday maqollarning sintaktik tuzilmalari tahlil qilinib, umumiy sintaktik modellari aniqlanadi, gibrid fitonimlarning ma'no shakllanishidagi roli va ularning grammatik funksiyalari*

o'rganiladi. Olingan natijalar frazeologiyada gibridizatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunish va ularning tillararo tahlilga ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *maqollar, sintaktik tahlil, gibridizatsiya, fitotematik komponentlar, ingliz tili.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). Proverbs are an integral part of linguistic and cultural heritage, encapsulating the wisdom, traditions, and moral values of societies. They serve as reflections of historical experiences and collective worldviews, passed down through generations. One particularly rich and symbolically charged category of proverbs is phytothematic proverbs, which incorporate plant-related elements to convey deeper meanings.

Phytothematic proverbs frequently employ metaphors and analogies related to the natural world to express universal truths, such as growth, patience, perseverance, and the passage of time. For instance, in the proverb *«Mighty oaks from little acorns grow»,* the growth of a small acorn into a mighty oak serves as a metaphor for personal or societal progress. Similarly, «A rolling *stone gathers no moss»* emphasizes the consequences of constant movement and instability, drawing upon a natural phenomenon to illustrate human behavior.

A significant aspect of many phytothematic proverbs is *hybridization*, wherein plant-related words originate from different linguistic sources, forming *lexical hybrids*. English, as a historically contact-based language, has borrowed extensively from Latin, French, Germanic, and other linguistic families, resulting in a highly diverse and hybrid lexicon. Hybrid words within phytothematic proverbs, such as *«fruit» (Latin origin), «flourish» (French origin), and «oak» (Germanic origin),* highlight the dynamic interplay of linguistic influences [1].

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Despite the extensive research on thematic, semantic, and cultural aspects of English proverbs, the syntactic structures of phytothematic hybrid proverbs remain underexplored. Understanding how hybrid components function within sentence structures and their syntactic distribution provides valuable insights into the construction and evolution of proverbs. Therefore, this study seeks to:

Identify common syntactic patterns in phytothematic hybrid proverbs.

Analyze the grammatical roles of hybrid phytonyms within proverbs.

Examine the influence of hybridization on the syntactic and semantic structure of proverbs [2].

By conducting a syntactic analysis of English phytothematic hybrid proverbs, this research contributes to the broader field of phraseology, linguistic hybridization, and cross-linguistic studies, offering a deeper understanding of how hybrid lexical elements shape proverbial expressions.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). This study employs a comparative syntactic analysis approach, utilizing both qualitative and quantitative methods. The research process consists of the following key steps:

1. Data Collection

Phytothematic proverbs containing hybrid lexical components were collected from various phraseological dictionaries, linguistic corpora, and scholarly sources.

A total of 49 English phytothematic proverbs in English and Uzbek were selected using the random sampling method. The inclusion criteria required that proverbs:

Contain at least one plant-related lexical component (e.g., tree, seed, root, vine).

Exhibit hybrid etymological origins (i.e., contain words borrowed from different languages).

Maintain syntactic completeness (i.e., form grammatically sound structures) [3].

2. Syntactic Classification

The selected proverbs were categorized based on their syntactic structures, including:

Simple Sentences – containing a single independent clause (*«A rolling stone gathers no moss»*).

Compound Sentences – consisting of two or more independent clauses joined by conjunctions (*«Every oak must be an acorn first, but not every acorn becomes an oak»*).

Complex Sentences – featuring at least one independent clause and one dependent clause (*«If you plant honesty, you will reap trust»*) [4].

The syntactic functions of hybrid phytonyms within the proverbs were also analyzed, including:

TAMADDUN NURI

Subject (*«The tree that bears the most fruit bows the lowest»*).

Predicate (*«A hedge between keeps friendship green»*).

Object (*«You reap what you sow»*).

Modifier (Adjective/Adverb) (*«An apple a day keeps the doctor away»*) [5].

3. Hybridization Analysis

To assess the degree of linguistic hybridization, the etymological origins of plant-related words in the proverbs were traced using the Oxford English Dictionary (OED). The hybrid words were categorized based on their linguistic sources:

Latin-origin words: *fruit, herb, vine, flourish*

French-origin words: *garden, flower, branch, harvest*

Germanic-origin words: *tree, root, leaf, oak [6].*

Each proverb was analyzed for its syntactic structure, grammatical roles, and metaphorical implications, with particular emphasis on how hybrid lexical components contribute to meaning construction and phraseological stability.

4. Comparative Analysis

To explore cross-linguistic patterns, a preliminary comparison of English phytothematic hybrid proverbs with their Uzbek equivalents was conducted. Uzbek proverbs containing hybrid phytonyms were identified to examine whether similar syntactic structures and metaphorical mappings exist across languages.

By providing a syntactic perspective on phytothematic hybrid proverbs, this study contributes to:

Phraseology and Proverb Studies – expanding research on the structure and function of proverbs.

Linguistic Hybridization – demonstrating the role of borrowed lexical elements in shaping proverb formation.

Comparative Linguistics – offering insights into how plant-related proverbs function across different languages.

Future research could extend this analysis to compare phytothematic hybrid proverbs in multiple languages, uncovering broader typological and syntactic patterns [7].

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR).

The analysis of selected English proverbs revealed several dominant syntactic patterns:

Simple Sentences:

"An apple a day keeps the doctor away." (Noun Phrase + Verb Phrase)

Good seed makes a good crop" (Yaxshi Urug' yaxshi hosil beradi).

"The tree is known by its fruit" Daraxt mevasi bilan taniladi. (Present simple passive).

"A rolling stone gathers no moss." (NP + VP + Negative Clause)

Compound Sentences:

Every oak must be an acorn first, but not every acorn becomes an oak". Har bir eman avval yong'oq bo'lishi kerak, ammo har bir yong'oq emanga aylanmaydi. (Coordinated clauses with contrast).

Complex Sentences:

If you plant honesty, you will reap trust." (Conditional sentence)

"If you gently touch a nettle it'll sting you for your pains; grasp it like a lad of mettle, an' as soft as silk remains" (Agar siz qichitqi o'tiga sekin tegizsangiz, u sizni og'riqlaringiz uchun chaqib yuboradi; uni epchil yigitdek tut, ipakdek yumshoq) [8].

Many plant-related words in proverbs originate from Latin, Old Norse, or French, contributing to their hybrid nature. Examples include:

Latin-origin words: *«fruit»*, *«herb»*, *«vine»*

French-origin words: *«garden»*, *«flourish»*, *«branch»*

Germanic-origin words: *«oak»*, *«root»*, *«leaf»*

These hybrid components enhance metaphorical richness, as seen in *«Mighty oaks from little acorns grow»*, where «oak» (Germanic) and «acorn» (Old Norse) form a hybrid metaphor emphasizing growth and potential [9].

Health & Well-being: *"An apple a day keeps the doctor away."* (Health awareness).

"If you gently touch a nettle it'll sting you for your pains; grasp it like a lad of mettle, an' as soft as silk remains" - Agar siz qichitqi o'tiga sekin tegizsangiz, u sizni og'riqlaringiz uchun chaqib yuboradi; uni epchil yigitdek tut, ipakdek yumshoq (Hesitation or fear can lead to harm, while confidence and decisiveness can help overcome challenges. It uses the metaphor of a nettle plant, which stings if touched lightly but does not if grasped firmly. The lesson is that approaching problems

timidly can make things worse, while facing them boldly can lead to better outcomes.)

Patience & Growth: *"Mighty oaks from little acorns grow."* (Small beginnings lead to great results) [10].

"One year's seeding makes seven years' weeding" - Bir yillik urug' yetti yillik o'tni olib tashlaydi (Just like planting seeds for one year can lead to unwanted weeds for many years, a single bad decision can create problems that take a long time to fix.)

Hard Work & Persistence: *"A rolling stone gathers no moss".* (Lack of stability leads to missed opportunities).

*"He that would eat the fruit must climb the tree." (*If you want to enjoy the rewards or benefits of something, you must be willing to put in the effort and overcome challenges*) [3].*

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). The syntactic analysis of English phytothematic hybrid proverbs demonstrates that these expressions predominantly follow simple, compound, and complex sentence structures, with hybrid plant-related words playing significant grammatical roles. These hybrids not only enrich the metaphorical depth of proverbs but also highlight the linguistic evolution and borrowing processes in English. Future research could extend this analysis to compare phytothematic proverbs across multiple languages, providing insights into cross-linguistic influences and hybridization in phraseology.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Borisova L.V. Concept «tree» as a linguocultural code. Bulletin of the Sholokhov Moscow State University for the Humanities. Philological sciences, 2014. – P. 34–45.
2. Boyarkina L. M., Kashtanova I. I. Anthropocentric aspects of studying English phytonimic vocabulary: lexeme rose. Humanities and Education: Scientific Methodical Journal, 2, 2016. – P. 133–135.
3. Kuusi M. How Can a Type-Index of International Proverbs Be Outlined? Proverbium. 1970.
4. Mieder W. Proverbs: A Handbook. Greenwood Press. 2004.
5. Muradova S. The linguistic and cultural significance of hydronyms in english toponymy. Tamaddun nuri jurnali, 12(63), 2024. – P. 25-27.
6. Permiakov G. Poslovitsy i pogovorki narodov Vostoka. – Moscow. 1979.
7. Safarova, A., & Khabibulloyeva, G. (2024, February). The usage of phraseological and idiomatic units in the novel» between the two doors» by Utkir Khoshimov. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 503-504).
8. Simpson J., & Weiner E. The Oxford English Dictionary (2nd ed.). Oxford University Press. 1989.
9. Speake J. Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford University Press. 2008.
10. Taylor A. The Proverb. Harvard University Press. 1931.
11. Ковшова М.Л. Семантика и прагматика фразеологизмов: лингвокултурологический аспект: автореф. дис. д. филол. н. – М. 2009.
12. Турдалиева, Ш. (2024). АНАЛИЗ ГИБРИДНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: КОМПЛЕКСНАЯ ПЕРСПЕКТИВА. Предпринимательства и педагогика, 3(3), 24-29.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.996

AFORIZMLARNI TIL VA USLUBIY JIHATDAN TAHLIL QILISH METODLARI

Sultonova Gulchehra Xusanovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

МЕТОДЫ АНАЛИЗА АФОРИЗМОВ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ И СТИЛЕВОМ АСПЕКТЕ

Султанова Гулчехра Хусановна
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Термезского государственного университета инженерии и агротехнологии

METHODS OF ANALYSIS OF APHORISMS IN LINGUISTIC AND STYLISTIC ASPECT

Sultonova Gulchehra Husanovna
Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature, Termez State University of Engineering and Agrotechnology

E-mail:
sultonova.g@mail.ru
https://orcid.org/0009-0005-0139-5651

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aforizmlarning til va uslub jihatidan tahlili o'tkazilib, ularning poetik, nasriy va metaforik shakllarda ifodalanishi o'rganiladi. Aforizmlar – qisqa, lekin mazmun jihatidan chuqur iboralar bo'lib, ularning uslubiy tahlili tilning badiiy va ifodaviy imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Tadqiqot davomida aforizmlarning poetik shakli qofiya va ritm bilan, nasriy shakli ravon va mantiqiy tuzilish bilan, metaforik shakli esa obrazli ifoda va chuqur ma'no qatlamlari bilan ajralib turishi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Aforizmlar, stilistik xuxusiyatlar, poetik aforizmlar, nasriy aforizmlar, Metaforik aforizmlar.*

Аннотация: *В этой статье анализируются афоризмы с лингвистической и стилистической точки зрения, исследуется их выражение в поэтической, прозаической и метафорической формах. Афоризмы — это короткие, но глубоко значимые выражения, и их стилистический анализ помогает исследовать художественные и выразительные возможности языка. Исследование определяет, что поэтические афоризмы характеризуются рифмой и ритмом, прозаические афоризмы — беглостью и логической структурой, а метафорические афоризмы — образным выражением и глубокими слоями смысла.*

Ключевые слова: *Афоризмы, стилистические особенности, поэтические афоризмы, прозаические афоризмы, метафорические афоризмы.*

Annotation: *This article analyzes aphorisms from a linguistic and stylistic perspective, examining their expression in poetic, prosaic, and metaphorical forms. Aphorisms are short yet deeply meaningful expressions, and their stylistic analysis helps to explore the artistic and expressive capabilities of language. The study identifies that poetic aphorisms are characterized by rhyme and rhythm, prosaic aphorisms by fluency and logical structure, and metaphorical aphorisms by figurative expression and deep layers of meaning.*

Key words: *Aphorisms, stylistic features, poetic aphorisms, prose aphorisms, metaphorical aphorisms.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Hozirgi kunda tilshunoslikda rivojlanib borayotgan sohalardan biri Aforizmdir. Aforizm – (gr. aphorisuos – hikmatli so'z) "aniqlovchi", "chegaralovchi" degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'zni ilk bor olim Gippokrat tibbiyot haqidagi traktatida simptom va kasallik tashxisi bilan bog'liq tarzda qo'llagan. Dastlab tibbiyot termini sanalgan bu so'z XVII asrdan adabiyotshunoslik termini sifatida G'arbda keng tarqalgan. XVIII asrdan rus

adabiyotshunosligida, XX asrdan o‘zbek adabiyotshunosligida qo‘llana boshlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). “Aforizm” adabiy ijod hodisasi sifatida o‘zbek adabiyotida “Qutadg‘u bilig”dan to hozirgacha bo‘lgan taraqqiyot jarayonini bosib o‘tdi va mavzu jihatdan maqol kabi rang-baranglik hosil qildi. Muallifi ma’lum bo‘lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap aforizm hisoblanadi. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning muallifi hamma vaqt aniq bo‘ladi. Aforizmda so‘z qancha oz bo‘lsa, uning ifodaliligi, o‘tkirligi shuncha ortadi. Til va uslub jihatidan tahlil adabiyotshunoslik va tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. Matnni til va uslub jihatidan tahlil qilishda quyidagi jihatlar e’tiborga olinadi:

Leksik xususiyatlar: Matnda qo‘llanilgan so‘zlarning lug‘aviy boyligi, sinonimlar, antonimlar, terminlar va dialektal so‘zlarning ishlatilishi.

Grammatik xususiyatlar: Gap tuzilishi, fe’l zamonlari, so‘z turkumlari va ularning qo‘llanilishi.

Fonetik xususiyatlar: Tovushlarning talaffuzi, urg‘u, intonatsiya va boshqa fonetik vositalarning qo‘llanilishi.

Stilistik xususiyatlar: Metafora, metonimiya, epitet, tashbeh kabi badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi.

Ushbu tahlillar matnning uslubiy xususiyatlarini aniqlashga, uning kommunikativ maqsadini tushunishga va muallifning uslubiy mahoratini baholashga yordam bera oladi [1].

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Uslub tushunchasi deb tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq bo‘la olgan vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Insonlarning hayot faoliyatidagi barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma’lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning turli xil ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Nutq uslublari esa tilshunoslikda nutq uslublari quyidagicha tasniflanadi:

So‘zlashuv uslubi: Kundalik hayotda, oilada, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llanadigan nutq uslubi.

Rasmiy uslub deb rasmiy hujjatlar, qonun va farmonlar boshqa rasmiy yozishmalarda qo‘llana oladigan uslub.

lmiy uslublarga ilmiy maqolalar, tezislar, qo‘llanmalar, darsliklar, monografiyalar va boshqa ilmiy asarlarda qo‘llanadigan uslub.

Publitsistik uslub bu-ommaviy axborot vositalari, ya’ni gazeta-jurnal, radio, televideniya hamda internet uslubi. Bundan tashqari, Oliy Majlis yig‘ilishlarida, mitinglarda, ma’ruzalar va nutqlarda ham qo‘llaniladi.

Badiiy uslub badiiy adabiyotlarda, ya’ni she’rlar, hikoyalar, romanlar va boshqa badiiy asarlarda qo‘llanadigan uslub [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Aforizmlarning til va uslub jihatidan tahlili ularning qanday shaklda va qanday ifoda vositalari orqali yozilganligini o‘rganishga asoslanadi. Aforizmlar qisqa, lo‘nda, lekin mazmunan chuqur bo‘lgani uchun ularning badiiy jihatlari muhim rol o‘ynaydi. Aforizmlarning shakliy tahlili uch asosiy shaklda uchraydi: poetik aforizmlar, nasriy aforizmlar, metaforik aforizmlar.

Poetik aforizmlar qisqa she’riy shaklda ifodalangan, badiiy vositalarga boy qofiya va ritmga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlardir. Insonlarning tafakkurini oshirish, hayotiy donishmandlikni tarbiyalash va ma’naviyatni boyitishga uni mustahkamlashga xizmat qila oladi. Ular ko‘pincha o‘ziga xos badiiy tasvirlar, poetik san’atlar (tashbih, tazod, metafora, jinoyat, radif) yordamida fikrni yanada ta’sirchan ifodalaydi. Poetik aforizmlar she’riy shaklda ifodalangan bo‘lib, qofiya, ritm va badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Ular asosan Sharq adabiyotida juda ko‘p uchraydi [3].

«Tilga ehtiyot bo‘l, til balo, Ko‘ngilni sindirsa, bo‘lmaydi davo.»
So‘z inson qalbiga ta’sir qiladi, ehtiyot bo‘lish kerak. Bu aforizmlar tashbih va tazod orqali insonning axloqiy fazilatlarini ta’riflaydi.

Aforizmlar ortiqcha so‘zlarsiz aniq fikrni yetkazishga intiladi. Ular odatda oddiy, tushunarli tilda yoziladi:

«Vaqt – eng qimmat boylik». (O‘rinli qisqalik)

Antiteza (qarama-qarshilik).

Aforizmlarda ko‘pincha tazod yoki qarama-qarshilik ishlatiladi:

«Katta yutuqlarning ortida katta risk bor» [2].

Ironiya va kinoya.

Ba’zi aforizmlar hajviy ruhda bo‘lib, kinoya orqali fikr bildiradi:

“Ba’zi odamlar yolg‘iz qolishni yoqtirishadi, chunki ular bilan qolish qiziqroq”.

Ritm va takrorlash.

Ba’zan aforizmlar ohangdorlik va takroriylikka asoslanadi:

«O‘rgan, harakat qil, muvaffaqiyat qozon».

Nasriy aforizmlar deb qisqa, mazmunli va hikmatli fikrlarni hamda she’riy shakldan farqli ravishda, sodda va bevosita nasr shaklida ifodalovchi iboralardir. Ular ko‘pincha chuqur ma’no va hayotiy tajribalarni o‘zida mujassam shuning bilan bir qatorda aniq va lo‘nda yetkazishga yo‘naltiriladi [4].

«Yaxshilik qil, lekin hamma bilishini kutma» (Benjamin Franklin) Bu uslub G‘arb aforizmlarida keng tarqalgan.

Alisher Navoiy hikmatlari orasida shunday nasriy aforizmlarni ham uchratish mumkin:

«Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil-mutoyiba qilishdan tiyilmog‘i lozim».

Ushbu aforizmlar inson hayoti, axloqiy qadriyatlar va kundalik tajribalar haqida chuqur mulohazalarni ifodalaydi. Ularni o‘qish va tahlil qilish orqali inson o‘z hayotiga yangi nigoh bilan qarashi va ma’naviy o‘sishga erishishi mumkin.

Metaforik aforizmlar — bu qisqa, mazmunli iboralar bo‘lib, ular biror tushuncha yoki hodisani boshqa bir narsa bilan bevosita taqqoslash orqali ifodalaydi. Metafora vositasida aforizmlar yanada ta’sirchan va yodda qolarli bo‘ladi.

Misollar:

«Hayot — bu sahna, biz esa undagi aktyorlarmiz» [2].

Hayotni bir sahnaga, odamlar esa aktyorlarga qiyoslanadi, bu esa hayotning sham misoli o‘tkinchiligi va bundagi turli xildagi rollarimizning vaqtinchaligi haqida mulohaza yuritishga undaydi.

«Ilm — nur, johillik — zulmat».

Bu yerda ilmni yog‘duga yani nurga, johillikni esa qora zulmatga qiyoslanib, bilimning muhim ahamiyatli va johillikning kishiga zararli ekanligi ta’kidlanadi.

«Til — qalbning kaliti».

Bu xildagi aforizmlar chuqur ma’noga ega bo‘lib, inson tafakkurni qo‘zg‘atadi. Metaforik aforizmlar ko‘pincha chuqur ma’nolarni oddiy va obrazli tarzda ifodalab, talabalar yoki tinglovchilarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va ularni mulohaza qilishga undaydi. Metaforalarga boy aforizmlar hayotiy haqiqatlarni bevosita emas, balki obrazli va badiiy tasvirlar orqali yetkazadi.

«Bilim – nur, johillik – zulmat». (Sharq maqollari) [3].

«Hayot – bu sahna, unda hamma o‘z rolini o‘ynaydi». (Uilyam Shekspir)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Aforizmlarning poetik, nasriy yoki metaforik shaklda yozilishi ularning ifoda uslubini belgilaydi. Sharq adabiyotida poetik va metaforik aforizmlar ko‘p uchrasa, G‘arb adabiyotida esa nasriy va lo‘nda ifoda etilib keng tarqalgandir. Shuningdek, antiteza, kinoya va ritm kabi uslublar aforizmlarni yanada ta’sirchan qiladi. Aforizmlar til va uslub jihatdan turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ularda qisqalik, metaforalar, antitezalar va allegoriyalar keng qo‘llanadi. Uslubiy jihatdan esa nasriy, poetik, kinoyali yoki qisqa va ritmik shakllarda uchraydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Fan”, 1987. – 368 b.
2. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati: umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik listey o‘quvchilari, filolog talabalar hamda o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. – T: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – 22 b.
3. Карпинская Н.В. и др. Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2023. Т. 14. № 4. – С. 1253–1270.
4. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. Л., 1956. — № 198. – С. 201-202.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.132

CONTRASTIVE STUDY OF PROVERBS WITH ANTHROPONYMIC COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Mirzaeva Feruza Samijonovna
Teacher at Termiz State Pedagogical Institute

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОСЛОВИЦ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мирзаева Феруза Самиджоновна
Преподаватель Термезского государственного педагогического института

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING QIYOSIY TAHLILI

Mirzaeva Feruza Samidjonovna
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-mail: navruzmadalovgmail.com

Phone: +998972431313

https://orcid.org/0009-0001-5182-8129

Abstract. *Proverbs are an integral part of a language’s cultural and linguistic heritage. This study focuses on proverbs containing anthroponymic components in English and Uzbek, examining their linguistic structure, cultural significance, and semantic peculiarities. Through a comparative analysis, the study highlights similarities and differences in the use of anthroponyms within proverbial expressions in both languages, revealing underlying cultural values and historical influences.*

Key words: *Proverbs, anthroponyms, contrastive analysis, English, Uzbek, cultural linguistics.*

Аннотация. *Пословицы являются неотъемлемой частью культурного и лингвистического наследия языка. Это исследование фокусируется на пословицах, содержащих антропонимические компоненты в английском и узбекском языках, изучая их языковую структуру, культурное значение и семантические особенности. С помощью сравнительного анализа исследование подчеркивает сходства и различия в использовании антропонимов в пословичных выражениях в обоих языках, раскрывая основные культурные ценности и исторические влияния.*

Ключевые слова: *пословицы, антропонимы, контрастивный анализ, английский, узбекский, лингвокультурология.*

Annotatsiya. *Maqollar til madaniy va lingvistik merosining ajralmas qismidir. Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentlarni o‘z ichiga olgan maqollarni o‘rganish, ularning til tuzilishi, madaniy ahamiyati va semantik o‘ziga xosliklarini o‘rganishga qaratilgan. Qiyosiy tahlil orqali tadqiqotda har ikki tildagi iboralar doirasidagi antroponimlarning qo‘llanilishidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatilib, ulardagi madaniy qadriyatlar va tarixiy ta’sirlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Maqollar, antroponimlar, qarama-qarshi tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniy tilshunoslik.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ / KIRISH). A proverb (from Latin: proverbium) or an adage is a simple, traditional saying that expresses a perceived truth based on common sense or experience. Proverbs are often metaphorical and are an example of formulaic language. A proverbial phrase or a proverbial expression is a type of a conventional saying similar to proverbs and transmitted by oral tradition. The difference is that a proverb is a fixed expression, while a proverbial phrase permits

alterations to fit the grammar of the context. Collectively, they form a genre of folklore[4].

Proverbs serve as a mirror of a nation's mentality, encapsulating wisdom passed down through generations. Many proverbs contain anthroponyms – personal names that often carry cultural, historical, or symbolic meanings. The presence of such names in proverbs reflects social norms, historical figures, and even religious beliefs of a given linguistic community. This paper compares proverbs with anthroponymic components in English and Uzbek, exploring how names influence meaning and interpretation[5].

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). English proverbs frequently include personal names, some of which are tied to historical or biblical figures. Examples include:

Jack of all trades, master of none. (Jack represents a common man.)

Tom, Dick, and Harry. (A phrase referring to any ordinary person.)

As old as Methuselah. (Referring to extreme old age, based on a biblical figure.)

Uncle Sam needs you. (Personification of the U.S. government.)

These proverbs highlight the use of anthroponyms to convey common societal traits, religious references, or national identity. English proper nouns include people's names and surnames (John Smith, Mary Brown), geographical names (Africa, the Alps, the Thames), names of institutions (the United Nations, the British Museum), names of historical and other events (the French Revolution, the Jazz Festival).

English proper nouns also include nationalities (Russian, Irishman), weekdays (Tuesday, Saturday), months (January, May), and other notions, objects, places, etc., that are capitalized and used as names.

In English: «Simple Simon met a pieman.» → «Simon» represents a naïve or foolish person, reflecting a lack of intelligence or cunning. **In English:** «Every Tom, Dick, and Harry.» → These common English names represent ordinary people, emphasizing generality. **In English:** «When Adam delved and Eve span, who was then the gentleman?» → «Adam» and «Eve» refer to biblical first humans, questioning the origins of social hierarchy. **In English:** «John Bull rules the waves.»

→ «John Bull» is a personification of England, reflecting national pride and dominance[1].

DISCUSSION(ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA) English proper nouns include people's names and surnames (John Smith, Mary Brown), geographical names (Africa, the Alps, the Thames), names of institutions (the United Nations, the British Museum), names of historical and other events (the French Revolution, the Jazz Festival).

English proper nouns also include nationalities (Russian, Irishman), weekdays (Tuesday, Saturday), months (January, May), and other notions, objects, places, etc., that are capitalized and used as names.

(The use of articles with people's names, geographical names, and other proper names is described in the materials on English articles in the section Grammar. See Articles with People's Names, Articles: Geographic Names and Articles with Proper Names in the section Grammar.)Some names in proverbs denote specific personal qualities or habits. **In English:** «As lazy as Ludlam's dog, that leaned against the wall to bark.» → «Ludlam» represents extreme laziness, using humor to mock idleness. **In English:**

«Rob Peter to pay Paul.» → «Peter» and «Paul» symbolize financial mismanagement, meaning to take from one source to cover another without real gain. **In English:** «Honest Abe.» → Refers to Abraham Lincoln, symbolizing integrity and honesty[2].

Proverbs with Religious and Mythological References. **In English:** Many English proverbs derive from the Bible and classical mythology. **In English:** «As old as Methuselah.» → «Methuselah,» a biblical figure, symbolizes extreme old age.

In English: «Doubting Thomas.» → «Thomas» refers to the biblical apostle who doubted Jesus' resurrection, representing skepticism. **In English:** «Let George do it.»

→ «George» represents an unspecified person who should take responsibility, often implying laziness. Proverbs with proper names are usually informal in character. Some of them belong to slang, which makes them unacceptable in formal speech and writing; besides, proverbs often have undesirable additional meanings. It is important to stress that some of the proverbs containing people's

names, with proper names are usually informal in character. Some of them belong to slang, which makes them unacceptable in formal speech and writing; besides, proverbs often have undesirable additional meanings.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Uzbek proverbs also incorporate personal names, many of which stem from historical, cultural, or Islamic traditions. Examples include: In **Uzbek**: «Ermat boy bo‘lsa, el boqar, Qoramat boy bo‘lsa, yol boqar». → Ermat is used to describe a generous, philanthropic person, while Karamat is used to describe a self-serving person. In **Uzbek:** «Botir bo‘lsang, Bobo bilan bahs et.» → In this proverb, the names «Batyr» and «Bobo» are used as symbols of courage and wisdom. In **Uzbek:** «Alining o‘ligi – Botirning tirigidan yaxshi.» Meaning: It is better to be a true hero than to live a useless life[3].

English proverbs often contain Christian biblical references (e.g., Methuselah), while Uzbek proverbs reflect Islamic influences (e.g., Yusuf and Zulaykha). English anthroponyms in proverbs are often generic (e.g., Jack, Tom), while Uzbek proverbs use culturally significant names (e.g., Ali, Tursun). Anthroponymic proverbs in English serve as linguistic tools for expressing social commentary, moral lessons, and cultural identity. Their semantic richness makes them a valuable part of language, reflecting centuries of wisdom, humor, and belief systems. Barbie Doll (slang) – an attractive but silly person (usually about a woman, but may refer to a man); before you could say Jack Robinson – very quickly; doubting Thomas – a skeptic; a person who refuses to believe without clear proof;

every Tom, Dick and Harry – any / every ordinary man; GI Joe – an American soldier;Hobson’s choice – the choice in which only one thing is offered; take it or leave it; the absence of choice;Jack of all trades – a person who is able to do many manual jobs; Joe Blow; Joe Doakes (AmE slang) – a typical average citizen; Joe Citizen; John Q. Public (AmE slang) – a typical representative of the public; John Bull – a typical Englishman; the English people; John Doe (fem.: Jane Doe) – 1. an unnamed person in legal proceedings (see also Richard Roe); 2. an anonymous average citizen; John Hancock (AmE slang) – a person’s signature; (John Hancock – American statesman of the 18th century who was the first to sign the Declaration of Independence.) John Henry (AmE slang) – a person’s signature (see John Hancock); Johnny-come-lately – a newcomer; a participant who started later than the others; Johnny-on-the-spot – the person who is always there, always ready to perform a task or to seize an opportunity; keep up with the Joneses – to try to achieve the same social position and wealth as one’s neighbors or acquaintances; Mr. Right (fem.: Miss Right) – the person whom someone would like to marry; a perfect match; Murphy’s law: If anything can go wrong, it will. (Or: Anything that can go wrong, will go wrong.) Peeping Tom – a voyeur; a person who secretly watches other people undressing; rob Peter to pay Paul – to borrow from one to give to another;

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). To sum up, It should be stressed, however, that proverbs with proper names are not used in speech or writing often the study reveals that anthroponymic proverbs in English and Uzbek share common features, such as using personal names to symbolize broader societal values. They include proverbs that are still in use as well as some bookish or outdated expressions.However, cultural, religious, and historical influences shape the way these names are used in each language. By analyzing such proverbs, we gain deeper insights into the worldviews and traditions of English and Uzbek speakers.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO‘YXATI)

1. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.
2. Краткость – душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения: Л.Васильева. – М.: ЗАО Центрполиграф, 2006. – 350 с.
3. O‘zbek xalq maqollari /Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent: «Sharq», 2005. – 253 b.
4. Madalov N.E. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq maqollarda sinonimik va antonimik munosabatlarning ifodalanishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Termez, 2023. – 127 b.
5. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari. (Ingliz, o‘zbek va rus tillari materialida). Filol. fan bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2020. – 160 b.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.371

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "QADIMDA BO'LGAN EKAN" HIKOYASIDA ARXETIPIK MOTIV VA OBRAZLAR TALQINI

Tangirov Ro'ziboy
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АРХЕТИПИЧЕСКИХ МОТИВОВ И ОБРАЗОВ В РАССКАЗЕ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «ЭТО БЫЛО ДАВНО»

Тангиров Рузибой
Независимый исследователь в Термезском университете экономики и сервиса

INTERPRETATION OF ARCHETYPAL MOTIVES AND IMAGES IN SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S STORY "IT WAS A LONG TIME AGO"

Tangirov Ruziboy
Independent researcher at Termez University of Economics and Service

Tel+998976049100
https://orcid.org/0009-0000-3371-8009

Annotatsiya: *Maqola Shukur Xolmirzayevning "Qadimda bo'lgan ekan" hikoyasidagi arxetipik elementlarni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda avlodlararo munosabatlar va inson hayotining qadri kabi abadiy mavzular ochib berilgan. Muallif syujet va personajlarning umuminsoniy mifologik motivlar (belarus, latish afsonalaridagi keksalarni tashlab ketish odati) hamda K.G. Yungning arxetiplar nazariyasi bilan bog'liqligini tadqiq qiladi.*

Kalit so'zlar: *arxetip, motiv, "donishmand kampir" arxetipi, mifologik sujet, folklorizm.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу архетипических элементов в повести Шукура Холмирзаева «Это было давно», в которой раскрываются такие вечные темы, как взаимоотношения поколений и ценность человеческой жизни. Автор исследует связь сюжета и персонажей с универсальными мифологическими мотивами (обычай оставлять стариков в белорусских и латышских легендах) и теорией архетипов К. Юнга.*

Ключевые слова: *архетип, мотив, архетип «мудрой старухи», мифологический сюжет, фольклоризм.*

Abstract: *The article is devoted to the analysis of archetypal elements in Shukur Kholmirzaev's story "It Was a Long Time Ago", which reveals such eternal themes as the relationship between generations and the value of human life. The author explores the connection of the plot and characters with universal mythological motifs (the custom of leaving old people in Belarusian and Latvian legends) and the theory of archetypes by C. Jung.*

Key words: *archetype, motif, "wise old woman" archetype, mythological plot, folklore.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Arxetipik tasavvurlar va sujetlar dunyo xalqlarining og'zaki ijodi uchun asosiy manba hisoblanadi. Madaniyat, adabiyot va san'at tarixining butun yo'li davomida arxetipik motivlar tasviriy san'at, adabiyot va musiqa yo'nalishida yaratilajak asarlarning sujetlarini shakllantirishda muhim ro'l o'ynamoqda. Tarixiy hikoyalar vaqt o'tishi bilan miflarini siqib chiqargan bo'lsa-da, uning hilma-hil elementlari og'zaki ijodning, adabiyotning eng mukammal janrlarida ham saqlanib qolganini ko'rishimiz mumkin. Arxetiplar, sujet va fabula elementlari

davrdan davrga o‘tib, qayta anglashilmoqda, har turli evrilmoqda. Badiiy adabiyotning deyarli har bir namunasida mifologik mavzular va motivlar, arxetipik obraz va personajlar, qahramonlar ishtirok etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. L.Levy-Bryulning ommaviy tasavvurlar g‘oyasini va Z.Freydning ong-sizlik haqidagi nazariyasini birlashtirgan K.G.Yung arxetipda o‘zining obrazli ifodasini topadigan jamoaviy ongsizlik konsepsiyasini yaratadi. Bosh arxetiplar sifatida olim “sharpa”, “bola”, “ona”, “erkak/ayol”, “o‘zlik”, “donishmand chol/kampir” arxetiplarini alohida ajratadi va ularning badiiy ijoddagi muhim rolini ta’kidlab o‘tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Milliy nasrimizning A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, A.Qahhor, Shuhrat, Oybek, G‘.G‘ulom kabi zabardast adiblarining vorisi bo‘lgan O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtor, Ya.Ilyosov, Sh.Xolmirzayev , M.Ali, N.Aminov, U.Nazarov, O‘.Umarbekov, O.Muxtor, E.Samandar, H.Shayxov, A.Dilmurod kabi ijodkorlar asarlarida umuminsoniy mavzu va muammolar turli majoziy obrazlarda tasvirlangan bo‘lsa, istiqlol davrida M.M.Do‘st, N.Qobul, E.A’zam, N.Normatov, X.Do‘stmuhammad, A.A’zam, N.Eshonqul, A.Ibodinov, U.Hamdam, Q.Norqobil, Sh.Bo‘taev, T.Rustam, A.Mirzo, Zulfiya Qurolboy qizi kabilar ijodida insoniy munosabatlar muqaddasligi yuqoq poshosda kuylana boshladi. Bu jarayon eng avvalo, kichik nasriy janr bo‘lgan hikoyachiligimizda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ta’kidlash joizki, mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligi jahon adabiyoti va folklori durdonalarining badiiy sintezi sifatida namoyon bo‘la boshladi [1].

O‘zbek realistik hikoyachiligi o‘zining ibtidosidan tortib hozirga qadar folklor materialidan muayyan darajada oziqlanib kelmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Adabiy arxetipik obraz insonga xos ongli va ongsiz tabiatning o‘ziga xosligi tufayli emotsional va mazmuniy ko‘p qirraligi bilan farqlanadi. Uning mazmuni adabiy asarda barqaror sujet elementlari, kompozitsion priyomlar va motivlarda mujassamlanadi. Adabiy arxetipik obrazning emotsional hamda mazmuniy to‘yinganligi uni asarning estetik markazlaridan biri hisoblash imkonini beradi. Ushbu obraz ortida turgan barqaror va ko‘p qirrali mazmun, turli kontekstlarda “tanilishi” hamda o‘quvchiga ta’sir kuchi badiiy asar strukturasida uning alohida o‘rnini belgilab beradi. U badiiy matnning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi estetik markazi bo‘lishi bilan birga, mohiyat maqomi muallifning ijodiy salohiyati hamda o‘quvchining ushbu obrazda tajassumlangan ma’lum umuminsoniy tasavvurlar va hislarni idrok etishiga bog‘liq holda voqelanadi [2].

Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasi abadiy mavzu – avlodlar munosabati va umuminsoniy dard – inson qadriga bag‘ishlangan. Hikoya qahramonlari ham arxetipik: erkak – nashavan va mushtumzo‘r O‘sar, ayol – uning kaltaklardan kasalmand xotini Xojar hamda “donishmand kampir” arxetipi – O‘sarning keksayib, hayot yo‘li tugab borayotgan momosi Maqsad kampir [3].

Dunyo xalqlari folklorida keksalarni biror saxroga, dashtu dalalarga, o‘rmonga tashlab kelish bilan bog‘liq motivlar keng tarqalgan. Bu bir tomondan fasllar almashuvi, “tabiatning o‘lib – qayta tirilishi” kabi eng qadimgi mifologik qarashlar bilan bog‘liq motivlar, boshqa tomondan turmush qiyinchiliklaridan kelib chiqqan urf-odatlar asos bo‘lgan motivlardir. Keksa otani yoki munkillab, ortiqcha og‘iz bo‘lib qolgan onani ovloq yerlarga tashlab kelish to‘g‘risida so‘z yuritilgan ko‘plab afsona, rivoyat va ertaklarni bunga misol keltirishimiz mumkin [4].

Kampir – bemahsul, hech narsa yaratmaydigan, ammo tajriba va an’analarni saqlovchi, keyingi avlodlarga uzatuvchi arxetip. U ko‘p yashagan va ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsalarni biladi va uning ayrim bilim-ko‘nikmalari yangi avlodning tushunishi chegaralariga sig‘maydi. O‘limi yaqin qolgan, bir oyog‘i go‘rda – narigi dunyo bilan suhbatlashadi. Kampir obrazi har qanday holatda donishmandona ish tutadi, hatto salbiy munosabat vaziyatida ham. Shukur Xolmirzayev hikoyasining personaji Maqsad momo xuddi shunday arxetipik obrazdir. Momoning o‘z nevaralariga ortiqcha og‘iz, keliniga ortiqcha tashvish bo‘lib qolganini muallif kampirning portreti va nutqi orqali o‘quvchiga yetkazib bera olgan: *“Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o‘ng oyog‘ini uqalab o‘tirar, oppoq sochlari qo‘qib ketgan — ajinadan farqi yo‘q edi”. “Kampir gap ma’nosini yaxshi uqmagan bo‘lsa-da, bosh irg‘adi. — Omon bo‘lsin, qaerda bo‘lsayam... Meniki emas, davlattiki. Ha, o‘zginang yaxshi juribsammi? Bolalaring... — Kampir yana o‘ylanib*

qoldi. — Bolam, men xayolati bo‘p qoldim... Kelinimgayam ko‘p azob beraman. Kecha kechasi darvozadan chiqib ketippan. Bechora ko‘tarib olib keldi. «Uyga qama meni! Men o‘lay!» dedim. Keyin u yig‘ladi, men yig‘ladim. Qarilik shu ekan... — Shunda birdan iliqqina jilmayib, nevarasiga boqdi.— Biron-biron joyga oborib adashtirib kelmaysanmi?

— Nima-a? — dedi O‘sar va nosini yo‘lkaga tuflab tashladi. — Esingiz joyidami?

— Endi, — kampir iljaygancha davom etdi: — bo‘lgan ekan-da qadimda...” [5]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Xalq og‘zaki ijodining ushbu motiv asosida yaratilgan barcha namunalarida o‘g‘il o‘zini dunyoga keltirgan otasi yo onasi va yosh oilasi o‘rtasida tanlash zaruratidan ruhiy iztirobga tushadi. Shukur Xolmirzayevning qahramoni O‘sar ham bag‘ritosh, qattol kishi emas, u shunday niqob ostida o‘z asl tiynatini yashirib yashaydi. Turmushda qo‘li kaltaligidan ruhan ezilgan o‘z zamonining “kichkina odami” giyohvandlikka berilgan, lekin momosi oldidagi nevaralik mas’uliyatini ich-ichidan his etib turadi, xotinini yaxshi ko‘radi: *“Shoshma, biron haptaga oborib qo‘ysam-chi, o‘sha yetimxonaga?» — degan o‘y keldi xayoliga. Va bu «reja» unga shunchalik ma’qul tushib ketdiki, bu o‘yning ilgariroq kelmaganidan hatto hayron qoldi: axir, bir haftada kampirning qadri o‘tadi, pushaymon yeydi bu... Buning ustiga, qo‘ni-qo‘shnilarning ta’nasiga chidolmaydi... Yoki, ularga bildirmaydimi? «Ukalari Kenjanikiga oborib qo‘ydilar. Sog‘ingan ekanlar», deydi. Lekin Kenja bu «ish»ni bilsa, rosa yig‘laydi... Balki kampirni o‘z uyiga olib ketadi...» Bu orada xotini Hojarning g‘oyat iztirobga tushishi — o‘zini ming bor la’natlashi va, demak, O‘sar «tantana» qilishi — xotini ustidan mardona kulishini o‘ylab: — Bo‘ldi! — dedi. — Momomning uyiga kir. Ul-bulini yig‘ishtir... — Xotini unga baqrayib qoldi. — Senga aytyapman, ko‘zing o‘yilgir! — o‘dag‘ayladi O‘sar. — Bo‘ldi, muddaongga yetding... Ennasini... bu dunyoni!” [6]*

Hikoya muallifining o‘zbek va jahon xalqlari folkloridan yaxshi xabardorligi yo‘l motividan foydalanishida ham ko‘zga tashlanadi. Tahlil qilayotgan motivda yaratilgan afsona va rivoyatlarda kekcha otasi yo onasini yelkasiga ko‘targan yoxud savatmi, aravaga, chanaga ortgan o‘g‘ilning oloq joy izlab yo‘l bosishi, yo‘l yurish asnosida qilayotgan ishidan qattiq iztirobi manzarasi kuzatiladi.

Muallif abadiy mavzularga bag‘ishlangan hikoyasini shunday tugatishida ham chuqur ma’no bor bo‘lib, u xulosani o‘quvchining o‘ziga qo‘yib beradi. Arxetipik motiv va obrazlar – folklorda ham, badiiy adabiyotda ham “abadiy motiv va obrazlar” hisoblanadi. Avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar muammosi, inson qadri, mehr-oqibat masalalari ham boqiy mavzulardir [7].

“Chol va kampir” adabiy obrazi arxetipik tabiatga egadir. Ushbu obrazning mifologiyada, xalq og‘zaki ijodi va marosimiy madaniyatda hamda turli xalqlar badiiy adabiyotida keng tarqalganligi uni abadiy obrazlar, ya’ni arxetiplar qatoriga qo‘shadi. Shu bilan birga bu obrazning mifologikdan postmifologik davrlarga o‘tishda ma’no evrilishlariga uchraganiga e’tibor qaratish muhim.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev o‘z ijodida mifologik motivlarga, arxetipik obrazlarga, folklorizmlarga murojaat qilib, o‘zbek va jahon xalqlari orasida keng tarqalgan afsona va rivoyatlardan unumli foydalangan holda shaxsiy kechinmalar, iztirob va muammolarni umuminsoniy dard darajasiga ko‘tara olgan. Yozuvchining qahramonlari arxetipik universal obrazlar bo‘lib, ma’lum zamon v makon chegaralarida qolmaydigan boqiy timsollarga aylantirilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. **Boboyev T.** *Adabiyotshunoslik asoslari*. – T.: O‘zbekiston, 2001. – 560 b.
2. **Hamidova M.** *Hozirgi o‘zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida)*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: 2001.
3. **Imomkarimova M.** *O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: 2004.
4. **Quronov D.** *Adabiyotshunoslikka kirish*. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004. – 224 b.
5. **Umurov H.** *Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi*. – Toshkent: 1983.
6. **Xolmirzayev Sh.** *Saylanma II. Hikoyalar*. – Toshkent: Sharq, 2009. http://www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. **Yo‘ldoshev Q.** *Erkin so‘z: Sh. Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida*. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 82-3

"DUNYONING ISHLARI" QISSASINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xudayberganova Diana Vladimirovna, Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE STORY "THE WORKS OF THE WORLD"

Khudayberganova Diana Vladimirovna, student of Urgench State Pedagogical Institute

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "ДУНЁНИНГ ИШЛАРИ"

Худайберганова Диана Владимировна, студентка Ургенчского государственного педагогического института



https://orcid.org/0009-0000-2398-1612
e-mail: kudaybergenovadiana@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi vatanga, onaga, aka-ukaga, umuman yer yuzidagi jamiki insoniyatga muhabbat, hurmat, e'tibor kabi tuyg'ularning inson tarbiyasidagi ahamiyati muhokama qilindi. Oila tarbiya o'chog'i, xususan ona — har tomonlama farzandi kamolotida, kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, oftob, aka-uka, ona, Ermon buva, Poshsha aya.*

Abstract: *This article discusses the importance of feelings such as love, respect, and attention to the homeland, mother, siblings, and all humanity on earth in human upbringing in the story "The Works of the World" by Otkir Hoshimov. It was studied that the family is the center of upbringing, and the mother in particular plays an important role in the all-round development and future of her child.*

Keywords: *upbringing, sunshine, siblings, mother, grandfather Ermon, mother Posha.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение таких чувств, как любовь, уважение, внимание к Родине, матери, братьям и человечеству в повести Уткира Хашимова «Дела мира» в воспитании человека. Семья является центром воспитания. В частности, было изучено, что мать играет важную роль в развитии и будущем своего ребенка во всех аспектах.*

Ключевые слова: *Образование, солнце, братья, мать, дедушка Эрмон, мать Пошша.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Dunyodagi eng ulug‘, eng buyuk zot deganda hammamizning ko‘z o‘ngimizda onamiz timsoli gavdalanadi. Ona bu tug‘ilganingdan seni so‘zsiz tushunadigan, har qanday sharoitda qo‘llab-quvvatlaydigan inson. Uning eng katta burchi, maqsadi va vazifasi farzandiga to‘g‘ri tarbiya berish, halollik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Tarbiya shunday jarayonki, u insonning tashqi ko‘rinishi va ichki olamini bog‘lab turuvchi ko‘prik desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki bu omil insonni bolalik chog‘idan fitratida shakllanib boradi shu boisdan, oilani tarbiya o‘chog‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bob, 76-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir...” [5.28] deya keltirilgani buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Inson jamiyatning qaysi jabhasida bo‘lishidan qat’i nazar, ta’lim va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ─ milliy g‘oyamizning poydevoridir” asarida quyidagicha izohlanishidan ham bilib olsak bo‘ladi: “Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz”[6.6]. Zero, bu jarayon uzoq muddat davom qiladigan, hamisha muhim va ahamiyatlidir. Buning yaqqol dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida: “Inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi”[1.81] deya ta’kidlagan. Demak har bir yuksalishning zaminida shu ikki jumla, ya’ni ta’lim-tarbiya turadi. Inson nafaqat bolalikda tarbiyalanadi, balki hayot yo‘llarida ham asta tarbiyalanib, toblanib boraveradi. Buni O‘tkir Hoshimovning asarlarida ham uchratishimiz tabiiy. O‘zbek nasrida barakali va salmoqli ijod qilgan, o‘tgan asrning zabardast yozuvchilaridan biri bo‘lgan, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “Mehnat shuhrati”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan mukofotlangan adib O‘tkir Hoshimov Toshkent shahrining Do‘mbirobod mahallasida oddiy xizmatchi oilasida 1941-yil 5-avgustda tavallud topgan. Adibning bolalik davri II jahon urushi davriga to‘g‘ri kelganligi bois, ayni o‘ynab-kuladigan davri qiyinchiliklar, muhtojliklar bilan o‘tgan. Uning “Cho‘l havosi”, “Bahor qaytmayd”, “Ikki karra ikki besh”, “Qalbingga quloq sol”, “Umr savdosi”, “Dunyoning ishlari” va yana ko‘plab qissalari mavjud. Shulardan “Dunyoning ishlari” qissasi avtobiografik asar tarzida yozilgan bo‘lib, adib undagi obrazlarni tanishi, faqat ba’zilarining ismini o‘zgartirib yozganini aytib o‘tgan. O‘tkir Hoshimov o‘z ota-onasini quyidagicha ta’riflaydi: “Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham tarsaki urgan emas. Otamni qattiq izzat qilishni onam o‘rgatgan...”[2.46]. Yozuvchining oilasidagi muhiti, olgan tarbiyani onasining otasiga qay darajada hurmat ko‘rsatib, uni farzandlarida shakllantirganidan ham bilib olsak bo‘ladi. Poshsha aya ularga har xil ertak, cho‘pchak, allalar aytib bergan kunlarini adib zavq-shavq bilan hikoya qilib bergan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). “Dunyoning ishlari” qissasi adib boshidan o‘tkazgan katta-kichik hikoyalardan iborat bo‘lib, uni o‘qiydigan kitobxon, mutolaa davomida beixtiyor hissiyotga, kezi kelganda kulib yoki aksincha ko‘z yoshiga g‘arq bo‘lishi aniq. Bilamizki, asardagi ko‘pgina hikoyalar ona bilan bog‘liq. Buni adib kitobning kirish qismida quyidagicha izohlab o‘tadi: “Dunyodagi hamma onalar farzandiga bo‘lgan munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag‘ishlanadi, aziz Onajonlar!” [4.7]. Ya’ni asardagi har bir detal, har bir inson adibning oilasi, to‘g‘rirog‘i onasi bilan bog‘liq. Inson qancha umr ko‘rsa ham mushtiparining diydoriga to‘ymaydi. Aksincha, borligida qadriga yetmay, ba’zan ko‘ngliga qaray olmay qoladi. Yozuvchi buni shu darajada sodda va tushunarli qilib yozganki, xoh u adabiyotshunos bo‘lsin, xoh u shifokor, jamiyatning qaysidir kasbi, lavozimi, mansabidan qat‘i nazar oson o‘qiladi va butun vujuduni junbushga keltiradi. Jumladan qissadan joy olgan, “Haqqush” hikoyasida onaizor farzandlari bir-biriga mehr-oqibatli, ahil-inoq yashashi uchun ikkala qushning ayanchli qismatini aytib berish orqali o‘zining mehribon, oqila ayol ekanligini ham namoyon qilgan. “Ikki afsona” hikoyasida eng avvalo o‘zingda borini yaxshi ko‘rib qadrlashga o‘rgatilgan. U inson bo‘ladimi, narsa bo‘ladimi, joyga nisbatan bo‘ladimi, har birining ahamiyati keng ma’noda

tushuntirilgan. Agar sen hammasiga shukr qilib, borini e'zozlasang, undan ham yaxshisiga erisha olishing aniq deya uqtirilgan. Poshsha aya tarbiyani shunchaki sen buni qil, qilma deb emas, balki, hayotiy ibratli hikoyalar, qissalar orqali go'zal tarzda yetkazib bergan. Yaxshilikni beminnat qilishni oftobdan o'rganish kerakligini ham oqilona bayon qilgan. Onaizorning aytishicha oftob har kuni yer yuziga chiqqisi kelmay, yomon odamlarning borligidan nolinib tursa, Tangri uni ovutib, qanchalik ko'p nur sochsang, yomon odamlar shuncha kamayadi, deb farzandlarining qalbida oftobga qiyoslab tarbiya berishni oliymaqom uddalagan, desak adashmagan bo'lamiz. Modomiki, har bir ayol shunday tarbiya berishni oldiga maqsad qilib qo'ysa, yomon odamlar nafaqat kamayadi, balki, yaxshilik va vijdonlilik xislatlari butun yer yuzini egallab oladi. Asardagi "Ermon buvaning tilagi" hikoyasida tasvirlangan Habiba buvi, uning choli Ermon buva sodda, beg'ubor, qishloqning eng nuroniy qariyalaridan biri bo'lib, farzand dog'ida umr kechirishiga qaramasdan, nuqul yaxshi niyat bildiradi. Xalqimiz orasida "Qarisi bor uyning parisi bor" degan maqol aynan ularga tegishli desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki ularning qizlarni "popuklar", o'g'il bolalarni "qoravoylar" deb erkalashlaridan ham o'zbek millati mentalitetidagi bolajonlikni ko'rishimiz tabiiy. Har gapirgan gapida osmonimiz musaffo, dasturxonlar to'la noz-ne'matlar bo'lishini yaratgandan iltijo qilib quyidagicha so'ragan: "Yurtimiz tinch bo'lsin, u dunyo-yu bu dunyo qirg'inbarot bo'lmasin…"[4.63] deb faqat yaxshi niyatda bo'lgan. U kishining kattaga ham, kichikka ham siz deb muloqot qilishi tarbiyaning oliy ko'rinishidir. Aytaman-u, o'ylayman: onaning yosh-qarisi bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi?[4.10]. Asarning badiiy estetik qiymati balandligini, shu darajada yurakdan, qalbdan yozilganini, har bir kitobxon uni o'qishi bilan qalbida iliqlik, mehr-muhabbat, shafqat, ezgulik va yaxshilik kabi xislatlarning tug'yon urishidan ham buni bilib olishimiz mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi qo'lma-qo'l bo'lishiga sabab bo'lgan mazkur hikoyachalardan, onani hurmat qilish bilan barobar insoniylik, go'zal fazilatlar umrimiz davomida oldimizdan chiqadigan har bir inson, vaziyat qaysidir ma'noda kamol topishimizga, o'sishimizga, rivojlanishimizga undashini ko'rishimiz mumkin. Asar haqida bir necha adiblar, professorlar o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tgan. Shulardan, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov quyidagicha izohlagan: "Qissa kitobxonning tafakkuriga, ongigagina emas, his-tuyg'ulariga, qalbiga ham chuqur ta'sir ko'rsatgani uchun, uzoq vaqtlar uning eng qadrdon do'sti, hamrozi bo'lib qoladi" [3.255] deya xitob qiladi. Akademik A.Qayumov fikrlarini bunday bayon qilgan: "Dunyoda onalarni madh etuvchi, onalarni sharaflovchi asarlar ko'p. "Dunyoning ishlari" kitobi shular orasida alohida ajralib turadi. Bu ─ o'zbek ayoli, o'zbek onasini hammaga ko'z-ko'z qila oladigan asardir"[3.257] deb asarning yuqori saviyada yozilganini va shuning uchun ham boshqa asarlardan ajralib turishini ta'kidlab o'tgan. Biz o'ylaymizki, bu asar bir necha asr davomida o'z qiymatini yuqori darajada saqlab qoladi. Qolaversa, kelajak avlodga har tomonlama Onani, Vatanni, oilani hurmat qilish kabi hislarni shu qissa orqali yetkazib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch .–Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 108 b.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –Toshkent: Meriyus, 2015. –271b.
4. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –Toshkent: Nurli dunyo nashriyot uyi, 2022. –223b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023. –80 b.
6. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ─ milliy g'oyamizning poydevoridir. ─Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. ─36 b. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 143 b.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 908

XORAZM VILOYATI DAVLAT ARXIVLARIDA RAQAMLASHTIRISH ISHLARI

Davletov Sanjar Rajabovich, Ma'mun universiteti professori, tarix fanlari doktori (DSc)[1]
Yuldashev Yuldash Xandurdiyevich, Ma'mun universiteti, (PhD)[2]

РАБОТЫ ПО ОЦИФРОВКЕ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ АРХИВАХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Давлетов Санджар Раджабович, профессор Университета Маъмуна, доктор исторических наук (DSc)[1]
Юлдашев Юлдаш Хандурдиевич, Университет Маъмуна, (PhD)[2]

DIGITIZATION WORK IN THE STATE ARCHIVES OF KHORESM REGION

Davletov Sanjar Rajabovich, Professor of Mamun University, Doctor of Historical Sciences (DSc)[1]
Yuldashev Yuldash Khandurdiyevich, Mamun University, (PhD)[2]

https://orcid.org/0009-0008-6397-3455
https://orcid.org/0009-0005-6808-6300
e-mail: sdavletov7722@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyat davlat arxivlari tizimida moddiy-texnik bazani mustahkamlash va arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayoni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tarix, arxiv ishini boshqarish, hujjatlarni saqlash, jamg'arma, ekspeditsiya.*

Аннотация: *В статье анализируется процесс укрепления материально-технической базы и оцифровки архивных документов в системе Хорезмских областных государственных архивов.*

Ключевые слова: *история, архивное дело, хранение документов, фонд, экспедиция.*

Abstract: *This article analyzes the process of strengthening the material and technical base and digitizing archival documents in the Khorezm regional state archives system.*

Key words: *history, archiving, keeping documents, fund, expedition.*

KIRISH. O'zbekistonning haqqoniy tarixini o'rganish, uni xolis baholashda xalqimizning bebaho ma'naviy merosi hisoblangan arxiv hujjatlarining o'rni va roli katta. Shu jihatdan, yurtimiz tarixini mukammal o'rganishda aynan arxivlarning ahamiyati beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda arxiv ishining tubdan isloh etilishi natijasida, arxivlarning turlanishi yangi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yildi. O'tgan davr mobaynida arxiv ishi va ish yuritish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishda ijobiy natijalarga erishildi hamda muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirildi.

O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega

bo‘lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doim boyitib boriladigan majmui – Milliy arxiv fondi (MAF) hujjatlari hisoblanadi. Arxivlarning asosiy vazifasi MAF hujjatlarini yig‘ish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishdan iborat.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratini takomillashtirish, qog‘oz shaklidagi, kino, foto va fono hujjatlarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi tashkil etildi.

Bugun O‘zbekiston Respublikasidagi arxivlar tizimini arxiv ishini boshqarish organlari, davlat va nodavlat arxivlari, xo‘jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari hamda idoraviy arxivlar tashkil etadi. Ushbu tizimda Xorazm viloyatidagi arxiv tuzilmalari ham muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrgacha qabul qilingan va yig‘ib olingan hujjatlarning navbatdagi vazifasi endi ularni kelajak avlodga yetkazish uchun elektronlashtirish va raqamlashtirishdan iborat.

XXI asr – Axborot texnologiyalari asri. Axborot texnologiyalari hayotimizga shiddat bilan kirib keldi. Bugungi kunda hech bir sohani zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu jumladan, arxiv sohasi ham zamon bilan hamnafas tarzda informatsiyalashib, kompyuterlashtirilib, raqamli faoliyat turlari keng joriy qilinmoqda. Jumladan, arxiv muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri – axborot resurslari va axborot tizimlarini yaratish, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, ya’ni ularning elektron shakllarini yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi arxiv muassasalarida arxiv hujjatlarini raqamlashtirish 2007-yildan boshlab amalga oshira boshlandi. 2014-yilda “O‘zarxiv” agentligi tomonidan tasdiqlangan “Respublika bo‘yicha 2017-yilgacha alohida qimmatli arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo‘yicha Reja-dasturi”ga asosan, har bir davlat arxivi tomonidan yillik ish rejasi ishlab chiqildi va 2015-yildan boshlab hujjatlarni raqamlashtirish hajmini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Respublika davlat arxivlari “O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivlarida alohida qimmatli arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”ga asosan arxiv hujjatlarini raqamlashtirib kelmoqda.

Xorazm viloyati davlat arxivida ham 2007-yildan boshlab arxiv hujjatlarini raqamlashtirish ishlari boshlangan va bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Hujjatlarni raqamlashtirishning ilk yillarida faqatgina Yangibozor tumani davlat arxivida skaner qurilmasi mavjud bo‘lib, boshqa davlat arxivalari ham navbatma-navbat ushbu qurilmadan foydalangan holda reja ko‘rsatkichlarini bajarib kelgan. Raqamlashtirish uchun alohida shtat birligi mavjud bo‘lmaganligi sababli, ta’mirlovchi lavozimidagi xodimga qo‘shimcha vazifa sifatida yuklatilgan holda raqamlashtirish amalga oshirilgan.

Ilk raqamlashtirilgan hujjatlarning elektron fayllari JPEG formatida tayyorlangan bo‘lib, kompakt disklarga yozilib, temir shkafda saqlangan. Birinchi bo‘lib 54-son fonddagi Urganch shahar ijroiya komitetining qarorlari raqamlashtirilgan bo‘lib, har bir faylni nomlash amaliyoti joriy qilinmasdan, balki har bir yig‘majildda fond raqami, ro‘yxat raqami, hujjat raqami va hujjatning chegaraviy yillari ko‘rsatilgan.

2008-yildan boshlab hujjatlarni raqamlashtirish raqamli fotoapparatlar yordamida amalga oshirila boshlandi. Oddiy skaner qurilmasi yoki raqamli fotoapparatda bo‘lsin, hujjatni raqamlashtirish uchun albatta yig‘majildni qismlarga ajratish va qayta tikish talab qilingan. Raqamli fotoapparatda ishlaganda shtativsiz, tik holda suratga olinib, qo‘l qaltirashi va kadrning tiniq chiqmasligi holatlari ko‘p kuzatilgan. Bunday vaziyatlarda sifatli chiqmagan varaq qayta suratga olinardi. Tayyorlangan kadrlar maxsus dasturlarda yorug‘lik va kontrast darajasini sozlash orqali qayta ishlangan.

2016-yilda viloyat davlat arxiviga **Fujitsu Scansnap SV600** maxsus skaner qurilmasi sotib olindi. Ushbu qurilma soatiga 350–400 ta varaqni JPG yoki PDF formatida raqamli shaklga o‘tkazish quvvatiga ega bo‘lib, A3 formatgacha suratga ola oladi. Ish yakunida kadrlarning chegaralarini aniqlash, qirqish va fayllarga ishlov berish vazifalarini avtomatik ravishda bajaradi.

Bundan tashqari, 2016-yilda tezkor, avtouzatish va ikki tomonlama skaner qilish

xususiyatiga ega bo‘lgan **Canon DR-C125** skaneri, hamda 2019-yilda **FUJITSU SP-1130** skaneri sotib olindi. Ushbu skanerlarning afzalligi bir xil o‘lchamdagi A4 formatgacha bo‘lgan hujjatlarni tezkor raqamlashtirish imkoniyatiga ega ekanligidir. Mazkur skanerlar bir daqiqada 30 ta A4 o‘lchamdagi varaqni skanerlash imkonini beradi.

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonida yig‘majildni qismlarga ajratish, varaqlarni skanerlashga tayyorlash, kadrlarni tekshirish, skanerlashdan keyingi fayllarni nomlash, raqamlashtirish yakunlangach varaqlarni asl holicha tiklash kabi ishlar xodimning kundalik ish vaqtiga kiritiladi. Raqamlashtirilgan yig‘majild va uning bog‘lami, karton qutisi ustiga elektron nusxasi olinganligini ko‘rsatuvchi sana bilan maxsus muhr qo‘yiladi.

Viloyat davlat arxivining kutubxonachi shtat birligi 2016-yilda Mikrosuratga olish operatori lavozimiga o‘zgartirilib, ushbu xodim lavozim yo‘riqnomasiga asosan hujjatlarni raqamlashtirish vazifasini bajarib kelmoqda.

Davlat arxivida mavjud texnologik imkoniyatlar va raqamlashtirish qurilmalaridan samarali foydalangan holda, shtatdagi xodim R.Sapayevaga asosiy faoliyati bo‘yicha bajarishi lozim bo‘lgan ishlariga qo‘shimcha tarzda rasmiylashtirilib, oylik maoshining 30 foizi miqdorida ustama tayinlangan. Natijada, u 2016–2017-yillar va 2018-yilning 1-choragida jami 628 ta saqlov birligida 114747 kadrni raqamlashtirgan. Fuqarolik shartnomasi asosida vaqtincha ishga jalb etilgan fuqaro O.Nazarova esa, 2019-yil 16-sentyabrdan 29-noyabrgacha 155 ta saqlov birligida 35431 ta kadrni raqamlashtirgan.

TADQIQOT NATIJALARI. Davlat arxivlarining asosiy ish qoidalari qo‘llanmasiga asosan hujjatlardan olingan sug‘urta nusxalar yig‘indisi hujjatlarning sug‘urta fondi deyiladi. Sug‘urta fondi hujjatlarning yo‘qolishi yoki zararlanishi holatida hujjatli axborotning saqlanib qolishini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi. Sug‘urta fondi daxlsiz hisoblanib, hujjatlarning asl nusxalari saqlanadigan joydan boshqa hududda, maxsus hujjatxonalarda saqlanadi.

Viloyat davlat arxivida asosan alohida qimmatli hujjatlar raqamlashtirilmoqda. Bundan tashqari, arxiv fondlarining ro‘yxatlar yig‘majildlari to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, har chorakda yangi saqlovga kelib tushgan hujjatlarning ro‘yxatlari ham raqamlashtirilib, bazaga qo‘shib borilmoqda. Hozirda ushbu bazada jami 1249 ta elektron yig‘majildda 13 627 ta kadr saqlanmoqda. Har bir fond uchun alohida elektron yig‘majild yaratilgan bo‘lib, ro‘yxatlar JPG formatida joylashtirilgan.

Raqamlashtirilgan elektron sug‘urta nusxalarni saqlash, kelgusida ma’lumotlarni xavfsiz saqlash markazi yoki server qurilmalarida joylashtirish uchun viloyat davlat arxivida alohida server xonasi tashkil qilingan. Bugungi kunga kelib, raqamlashtirilgan elektron sug‘urta nusxalari har biri 1 terabayt hajmdagi 2 ta tashqi xotira qurilmalarida saqlanmoqda. Joriy yil smeta xarajatlariga 44,0 million so‘m miqdorida server qurilmasi xarid qilish uchun mablag‘ ajratilgan. Smeta xarajati asosida 4,7 million so‘mga skaner qurilmasi xarid qilish bo‘yicha yetkazib beruvchi tashkilot bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzilgan.

Server qurilmasi yuqori tezlikda ishlashi, katta hajmdagi ma’lumotlarni xavfsiz saqlashi hamda tashqi hujumlardan himoyalangan bo‘lishi inobatga olingan holda, ruxsat berilgan xodimlarning raqamlashtirilgan elektron sug‘urta nusxalaridan tezkor foydalanishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, viloyat davlat arxivida raqamlashtirilayotgan hujjatlarning umumiy saqlovga qabul qilinayotgan hujjatlarga nisbatan juda kamligi, saqlovdagi hujjatlarni raqamlashtirish ko‘rsatkichining oshishi o‘rniga yil sayin kamayishiga olib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi PQ-4463-sonli qaroriga asosan tashkilotlar tomonidan arxiv hujjatlarini davlat arxivlariga elektron nusxalari bilan topshirish majburiyati belgilandi. Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq, viloyat davlat arxivlarida 10 tadan shtat birligidan iborat arxiv hujjatlarini raqamlashtirish (elektron shaklga o‘tkazish) sektorlarini tashkil etish hamda mutanosib ravishda raqamlashtirish qurilmalari bilan ta’minlash vazifasi belgilangan.

Davlat arxivlari mavjud texnikasi va shtat birliklari bilan alohida qimmatli hujjatlarni raqamlashtirishni tezlashtira olmayotgan bir vaqtda, davlat tomonidan yaratilayotgan bunday imkoniyat va sharoitlar hujjatlarni raqamlashtirish sur’atini oshirish va reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash imkonini beradi.

XULOSA shuki, sobiq Ittifoq davrida respublikamizda arxiv ishini markazlashtirishga qaratilgan tadbirlar orqali alohida arxiv muassasalari

tizimi shakllandi. Shu doirada hududlarda, jumladan Xorazmda ham arxiv ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda esa ushbu faoliyat zamonaviy texnologiyalar asosida, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, huquqiy asoslar bilan mustahkamlanib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Архив иши тўғрисида”ги қонуни №252. 15.06.2010 й.7-модда.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 21.09.2019 й., 06/19/5834/3780-сон.
3. Абдураҳимов М.Д. Ўзбекистон Республикаси архивлар ҳужжатларини рақамлаштириш самарадорлиги// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2016 йил.
4. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. –Т.:Университет, 2012.
6. Jumaev U. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi. Toshkent, Turon-Iqbol, 2020.
7. ХВДА. Худайбергенов И.С. Совет Иттифоқи даврида Хоразмда архивларнинг илк йиллардаги фаолияти ва илк раҳбарлар. Маъруза материали. Урганч, 2020 йил.
8. Xorazm viloyati arxiv boshqarmasi joriy arxiv ma’lumotlari, Urganch, 2022.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 378.126

KHANACADEMYNING SUN'IY INTELLEKTNI TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH TAJRIBASI

Sultonova Munavvarxon Qaxramon qizi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tayanch doktoranti

https://orcid.org/0000-0003-3845-9637
e-mail: iq.nuriya16@gmail.com

KHANACADEMY'S EXPERIENCE IN INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

Sultonova Munavvarkhon Qakhramon qizi, PhD student at the Center for Research on the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation

ОПЫТ ХАНАКАДЕМИИ ПО ИНТЕГРАЦИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Султанова Мунаввархон Кахрамон кызы, докторант Исследовательского центра развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций

Annotatsiya: *Sun'iy intellektning (SI) ta'limga integratsiyalashuvi qizg'in bahslarga sabab bo'ldi, chunki ko'pchilik ChatGPT kabi SI vositalari akademik halollikka putur yetkazishi va o'quvchilarning o'rganish tajribasini zaiflashtirishi mumkinligidan xavotirda. Tanqidchilar SI o'quvchilarning vazifalarni bajarayotganda haddan tashqari unga suyanib qolishidan xavotirlanib, bu ta'lim tizimini buzishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Biroq, Khan Academy asoschisi Sal Xon SI ta'limni tubdan o'zgartirishi va har bir o'quvchiga shaxsiy repetitor, har bir o'qituvchiga esa yuqori darajadagi yordamchi taqdim etishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tegishli xavfsizlik choralari qo'llanilsa, SI o'quv jarayoniga zarar emas, balki foyda keltirishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *SI, individual ta'lim, Khanmigo, yozuv ko'nikmalari, raqamli o'yin, yuzaki o'rganish.*

Abstract: *The integration of artificial intelligence (AI) into education has been a hotly debated topic, with many concerned that AI tools like ChatGPT could undermine academic integrity and undermine the learning experience for students. Critics worry that AI could undermine the educational system by making students rely too heavily on it to complete assignments. However, Khan Academy founder Sal Khan argues that AI could revolutionize education, providing every student with a personal tutor and every teacher with a high-level assistant. With the right safeguards, AI can benefit the learning process, not harm it.*

Keywords: *AI, individualized education, Khanmigo, writing skills, digital game, surface learning.*

Аннотация: *Интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в образование вызывает горячие споры, причем многие обеспокоены тем, что инструменты ИИ, такие как ChatGPT, могут подорвать академическую честность и ухудшить качество обучения студентов. Критики обеспокоены тем, что SI может подорвать систему образования, опасаясь, что учащиеся могут стать чрезмерно зависимыми от него при выполнении заданий. Однако основатель Академии Хана Сал Хан утверждает, что SI может произвести революцию в образовании, предоставив каждому ученику*

личного наставника, а каждому учителю — помощника высокого уровня. При наличии соответствующих гарантий СИ может принести пользу процессу обучения, а не навредить ему.

Ключевые слова: *ИИ, индивидуальное обучение, Ханмиго, навыки письма, цифровая игра, поверхностное обучение.*

KIRISH. Sun'iy intellektni ta'limda joriy etishning eng muhim sabablaridan biri – bu "Ikki Sigma Muammosi"dir (Zapata-Ros, 2013). Ushbu tushuncha 1984-yilda ta'lim psixologi Benjamin Blum tomonidan kiritilgan. Blumning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki (Akpan, 2020), yakka tartibdagi repetitorlik olgan o'quvchilar an'anaviy sinf muhitidagi tengqurlariga qaraganda ancha yaxshi natijalarga erishgan. Biroq, har bir o'quvchiga inson repetitori ajratish doimo qimmat va amaliy bo'lmagan yechim sifatida qaralgan. SI ushbu muammoni hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va shaxsiy repetitorlik xizmatlarini har qanday o'quvchiga, ularning kelib chiqishi yoki joylashgan hududidan qat'i nazar, taqdim etishi mumkin.

Khan Academy ushbu o'zgarishlarning oldingi qatorida bo'lib, Khanmigo nomli SI yordamchi repetitorini ishlab chiqdi. Oddiy SI chatbotlaridan farqli o'laroq, Khanmigo o'quvchilar bilan sokratik uslubda muloqot qiladi, ularni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga undaydi. Masalan, o'quvchilar matematik masalalarni yechayotganda, Khanmigo ularga to'g'ri javobni berib qo'yish o'rniga, ularning fikrlash jarayonini tushuntirishlarini so'raydi va xatolarini mustaqil aniqlashga yo'naltiradi.

Matematikadan tashqari, Khanmigo dasturlash ta'limida ham bebaho yordam berishi isbotlangan. Kod yozish bilan shug'ullanayotgan o'quvchilar real vaqt rejimida individual yordam olishlari mumkin. SI kodni tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va o'quvchining o'rganish ehtiyojlariga mos keladigan tavsiyalarni taklif etadi. Bu xususiyat ayniqsa dasturlashda juda muhim, chunki tezkor fikr-mulohazalar o'quv jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi (Shamini Shetye, 2024).

SI imkoniyatlari faqat STEM fanlari bilan cheklanmaydi. Adabiyot va gumanitar fanlar sohasida Khanmigo o'quvchilarga tarixiy va badiiy obrazlar bilan interaktiv suhbat qurish imkoniyatini beradi. Masalan, "Buyuk Getsbi" romanini o'rganayotgan talaba SI tomonidan yaratilgan Jay Getsbi bilan suhbat qurib, kitob mavzulari va ramzlari haqida batafsil ma'lumot olishi mumkin. Bunday muloqotlar adabiyotni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi hamda murakkab matnlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Pensilvaniya universitetining Uorton maktabi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, generativ SI vositalaridan matematik imtihonga tayyorgarlikda foydalangan o'rta maktab o'quvchilari haqiqiy testlarda undan foydalanmaganlarga qaraganda yomonroq natijalarga erishgan. SI amaliy mashqlar bo'yicha natijalarni yaxshilashi mumkin, ammo u chuqur o'rganish o'rniga yuzaki o'zlashtirish strategiyalarini rag'batlantirishi ham mumkin (Morrone, 2024).

Shunga qaramay, Khanmigo kabi SI vositalari o'quv jarayonlarini yaxshilashda istiqbolli natijalarga ega. Khanmigo repetitor sifatida ishlaydi va turli fanlarda shaxsiy yordam ko'rsatadi hamda o'qituvchilarga dars rejalari va ma'lumotlarni tahlil qilishda yordam beradi. Khan Academy'ning bosh o'quv xodimi Kristen DiCerbo SI integratsiyasi orqali besh yil ichida kamida 4 million o'quvchining o'rganish jarayonini 30% ga yaxshilashni maqsad qilgan (Pillay, 2024).

Biroq, sun'iy intellektli repetitorlarning muvaffaqiyati ularning dizayni va qo'llanilishiga bog'liq. Masalan, Bruce M. McLaren va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan "Decimal Point" raqamli o'yinining o'rta maktab o'quvchilarining bilim olish natijalarini an'anaviy usullarga qaraganda sezilarli darajada yaxshilaganligi aniqlandi. Bu esa ta'lim vositalariga SI ni puxta integratsiya qilish muhimligini ko'rsatadi (Aleven et al., 2010).

Bundan tashqari, SI ning ta'limdagi roli faqat repetitorlik bilan cheklanmaydi. Khan Academy'-ning Pixar bilan hamkorlikda yaratgan "Pixar in a Box" loyihasi SI yordamida murakkab mavzularni o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli qilish mumkinligini isbotladi (Arbert Lanchita, 2024).

Shu bilan birga, SI o'qituvchilar o'rnini bosuvchi vosita emas. O'qituvchilar turli bilim turlarini bog'lash va SI vositalaridan samarali foydalanish jarayonini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, SI repetitorlarini eng optimal

TAMADDUN NURI

ishlatish yo‘li ularni o‘qituvchilar bilan birga qo‘llashdan iborat (Morrone, 2024).

MUHOKAMA. Khanmigo o‘quvchilarga turli fanlarni o‘rganishda yordam berishga mo‘ljallangan. Hozirda ko‘plab sun’iy intellektga asoslangan til o‘rganish vositalari mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati Ikkinchi tilni o‘zlashtirish (SLA) nazariyalariga asoslanmagan va asosan foydalanuvchilarning subyektiv fikrlariga tayangan holda baholanadi (Han, 2024). Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu ilovalar haqiqiy til o‘rganish tajribasini ta’minlamaydi, chunki kompyuter tomonidan yaratilgan ovozlarning sun’iyligi, muloqot uzilishlarining tez-tez yuzaga kelishi va oldindan yozilgan senariylarga asoslangan suhbatlarning ma’nosiz iboralar bilan to‘ldirilishi samarali muloqotni cheklaydi (Fryer & Carpenter, 2006; Huang et al., 2022). Shuning uchun GenAI texnologiyalarining til o‘rganish uchun imkoniyatlari ko‘proq e’tiborni tortmoqda, ammo ularning samaradorligi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Khanmigo sun’iy intellekt vositasida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarga interaktiv repetitor sifatida yordam berishdir. Garchi ishlab chiquvchilar bu ilovani maxsus til o‘rganish vositasi sifatida targ‘ib qilmagan bo‘lsalar ham, uning ta’lim berish qobiliyatlarini tadqiq qilish muhimdir. Ayniqsa, ChatGPT texnologiyasidan foydalangan holda, tabiiy muloqotni shakllantirish va til modellashtirish imkoniyatlari mavjudligi e’tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, ChatGPT ba’zan noto‘g‘ri yoki tarafkash ma’lumotlar yaratishi mumkinligi tanqid qilinmoqda (Bender et al., 2021; Han, 2024). Biroq, Khanmigo o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan kontent bilan ta’minlangan bo‘lib, u boshqa sun’iy intellekt vositalaridan farqli ravishda tayyor javoblarni taqdim etmaydi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Shunga qaramay, Khanmigo kabi ilg‘or til o‘rganish texnologiyalarining samaradorligi har doim muayyan kontekst va maqsadli foydalanuvchilar guruhi asosida baholanishi lozim. Oldingi texnologiyalar singari, Khanmigo ham turli yoshdagi va til o‘rganish darajasidagi foydalanuvchilar uchun mos keladimi yoki yo‘qligini aniqlash uchun sinovdan o‘tkazilishi kerak. Chapelle (2001) ta’kidlaganidek, til o‘rganish texnologiyalari faqat umumiy baholanishi emas, balki aniq bir auditoriya uchun qanchalik mosligini aniqlash muhimdir. Shu boisdan, Khanmigo‘ning haqiqiy ta’lim vositasi sifatidagi samaradorligini aniqlash uchun ilmiy yondashuv asosida chuqur tadqiqotlar olib borish zarur.

SI ta’limdagi yana bir muhim muammolarni hal qilishga yordam bermoqda: bu esa ta’lim konsultantlari – maslahatchilar yetishmovchiligi. O‘quvchilar va maslahatchilar nisbati ko‘pincha 200:1 yoki undan yuqori bo‘lgani sababli, ko‘plab o‘quvchilar o‘qish va kelajakdagi kasb tanlovi bo‘yicha yetarlicha yo‘l-yo‘riq olish imkoniyatiga ega emaslar. Khanmigo esa SI asosidagi maslahatchi sifatida xizmat qilib, shaxsiy tavsiyalar, akademik yo‘nalishlar va hayotiy ko‘nikmalar bo‘yicha maslahatlar berishi mumkin (Shamini Shetye, 2024).

SIning ta’limdagi eng katta bahsli jihatlaridan biri bu yozuv ko‘nikmalariga ta’siridir. Tanqidchilar SI tomonidan yaratilgan matnlar o‘quvchilarning mustaqil yozish qobiliyatini pasaytirishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Biroq, Khanmigo yozuv jarayonini interaktiv tarzda olib borib, talabalar bilan hamkorlikda ishlaydi. SI butun matnni yozib bermaydi, aksincha, o‘quvchilar yozgan jumlalarni tahlil qilib, ularga yanada aniqroq va lo‘nda yozish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi va yozish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

SI shuningdek, o‘qituvchilarga ham katta yordam berishi mumkin. Khanmigo ularga SI tomonidan ishlab chiqilgan dars rejalarini, o‘qitish strategiyalarini va o‘quvchilarning natijalari bo‘yicha hisobotlarni taqdim etadi. Bu esa o‘qituvchilarga ortiqcha ma’muriy ishlarni kamaytirib, o‘quvchilar bilan individual ishlashga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi. Natijada, o‘qituvchilar har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos ravishda ta’lim berishlari mumkin bo‘ladi.

Khan Academy sun’iy intellektni ta’limga samarali tarzda integratsiya qildi, jumladan, o‘quvchilarga matematika, fan, gumanitar fanlar va kodlash bo‘yicha yordam beradigan Khanmigo nomli sun’iy intellektli repetitorni ishga tushirdi. Ushbu integratsiya SI ning ta’lim tajribalarini shaxsiylashtirish va o‘quv natijalarini yaxshilashdagi potensialini namoyish etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Khan Academy tomonidan Khanmigo kabi vositalar orqali SI ni ta’limga integratsiya qilishning katta foydalari bor. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI repetitorlarining samaradorligi ularning puxta ishlab

chiqilishi va to‘g‘ri joriy etilishiga bog‘liq. Ular o‘qituvchilarni almashtirish emas, balki ularga yordam beruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim. Shu bilan birga, SI ni ta’limga qo‘shish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va pilot dasturlar kelajakda bu jarayonni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limda sun’iy intellektning qo‘llanilishi o‘qituvchilarni yoki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini almashtirish emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytirish haqida. SI repetitor va yordamchi sifatida ishlatilishi orqali ta’lim yanada chuqurroq, shaxsiylashtirilgan va samarali bo‘lishi mumkin. Albatta, hali hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud, ammo SI orqali ta’lim tizimini yanada adolatli va innovatsion qilish imkoniyati beqiyosdir. Sun’iy intellekt bilan boyitilgan o‘rganish jarayoni endigina boshlanmoqda, ammo u ta’limning kelajagini tubdan o‘zgartirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akpan, B. (2020). Mastery Learning—Benjamin Bloom. *Springer Texts in Education*, pp.149–162. doi:https://doi.org/10.1007/978-3-030-43620-9_11.
2. Aleven, V., Roll, I., McLaren, B.M. and Koedinger, K.R. (2010). Automated, Unobtrusive, Action-by-Action Assessment of Self-Regulation During Learning With an Intelligent Tutoring System. *Educational Psychologist*, 45(4), pp.224–233. doi:https://doi.org/10.1080/00461520.2010.517740
3. Arbert Lanchita (2024). *Improving Math Achievement: Khan Academy Videos for Grade 7 at Spring Integrated School*. https://www.researchgate.net/publication/381394057_Improving_Math_Achievement_Khan_Academy_Videos_for_Grade_7_at_Spring_Integrated_School.
4. Bender, E. M., Gebru, T., McMillan-Major, A., & Shmitchell, S. (2021). On the dangers of stochastic parrots: Can language models be too big? In Proceedings of the 2021 ACMconference on fairness, accountability, and transparency (pp. 610–623). Association for Computing Machinery.
5. Fryer, L. & Carpenter, R. (2006). Bots as language learning tools. Language Learning & Technology, 10, 8–14.
6. Han, Z. (2024). Chatgpt in and for second language acquisition: a call for systematic research. Studies in Second Language Acquisition, 1–6. https://doi.org/10.1017/S0272263124000111
7. Huang, W., Hew, K.F., & Fryer, L.K. (2022). Chatbots for language learning—Are they really useful? A systematic review of chatbot supported language learning. Computer Assisted Learning, 38, 237–257. https://doi.org/10.1111/jcal.12610.
8. Morrone, M. (2024). *Why AI is no substitute for human teachers*. https://www.axios.com/2024/08/15/ai-tutors-learning-education-khan-academy wharton?utm_
9. Pillay, T. (2024). *Kristen DiCerbo*. [online] TIME. https://time.com/7012801/kristen-dicerbo/?utm_
10. Salman “Sal” Khan (2016). Closing Keynote. doi:https://doi.org/10.1145/2851581.2912564.
11. Shamini Shetye (2024). An Evaluation of Khanmigo, a Generative AI Tool, as a Computer-Assisted Language Learning App. *Studies in Applied Linguistics and TESOL*, 24(1). doi:https://doi.org/10.52214/salt.v24i1.12869.
12. Zapata-Ros, M. (2013). *The 2 Sigma Problem and Learning Using Technology*. https://www.researchgate.net/publication/235955595_The_2_Sigma_Problem_and_Learning_Using_Technology.
13. Chapelle, C. A. (2017). Evaluation of technology and language learning. In C.A. Chapelle, & Sauro, S. (Eds.), The handbook of technology and second language teaching and learning. https://doi-org.ezproxy.cul.columbia.edu/10.1002/9781118914069.ch25

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.45

QARINDOSHLIK OTLARI ATAMALARI TADQIQINING ASOSIY YO'NALISHLARI TAHLILI

Ochilova Gulnora Ulashevna, Samarqand davlat chet tillar instituti Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasi assistent o'qituvchisi

ANALYSIS OF THE MAIN DIRECTIONS OF THE RESEARCH OF KINSHIP TERMS

Ochilova Gulnora Ulashevna, Assistant teacher of the Department of "Innovative Educational Technologies and Methodology" Samarkand State Institute of Foreign Languages

АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕРМИНОВ РОДСТВА

Очилова Гулнора Улашевна, ассистент-преподаватель кафедры "Инновационные образовательные технологии и методологии" Самаркандского государственного института иностранных языков

https://orcid.org/0000-0001-8082-5384
e-mail: gulnoraochilova0916@gmail.com

Annotatsiya: *Qarindoshlik tizimlarini o'rganish, hech mubolag'asiz, uzoq vaqt davomida etnologiyaning asosiy mavzularidan biriga aylangan. Turli xalqlarning qarindoshlik otlari atamalari tizimi doimo o'sha yurtda mehmon bo'lgan turli sayyohlarning qiziqish manbasi bo'lishi kuzatilgan va etnologlar tomonidan ham etnografiya va etnologiya sohalari gumanitar fanlar orasidan o'rin egallashidan ancha oldin tadqiqot obyekti bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *etnologiya, qarindoshlik tizimi, lingvistik yondashuv, qarindoshlik munosabati.*

Abstract: *The study of kinship systems, without exaggeration, has long been one of the main topics of ethnology. The system of kinship terms of different peoples has always been a source of interest for various tourists visiting a given country, and has been an object of research by ethnologists long before the fields of ethnography and ethnology took their place among the humanities.*

Keywords: *ethnology, kinship system, linguistic approach, kinship relationship.*

Аннотация: *Изучение систем родства, без преувеличения, уже давно является одной из основных тем этнологии. Система терминов родства у разных народов всегда представляла интерес для туристов, посещавших эту страну и была предметом исследования этнологов задолго до того, как этнография и этнология заняли свое место среди гуманитарных наук.*

Ключевые слова: *этнология, система родства, лингвистический подход, родственные отношения.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Qarindoshlik munosabati tizimining ilk ilmiy tahlilini olib borgan olimlarning fikriga ko‘ra, qarindoshlik munosabatlari hodisasini tasvirlash shakllarini ikki darajaga bo‘lish va yoki mazkur hodisa tahliliga etnografik va lingvistik yondashuvlarni qarama-qarshi qo‘yish kabi holatlar mazkur hodisaning dastlabki tadqiq ishlarida mavjud emas edi. Qarindoshlik munosabati hodisasini etnografik rakursda o‘rganishning asoschilaridan bo‘lmish L.G.Morgan o‘zining asosiy asari bo‘lmish “Qarindoshlik munosabati tizimlari va odam oilasining xususiyatlari” nomli asarining muqaddimasida garchand tadqiq uchun qarindoshlik munosabati hodisasining etnografik jihatini tanlab olgan bo‘lsa-da, o‘rganayotgan masalasi sof filologik xususiyatli bo‘lganini tan oladi. Insoniyatning ijtimoiy tarixi masalalari olim tomonidan faqat yig‘ilgan materialni qayta tahlil qilish asnosida birlamchi darajaga ko‘tariladi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLARNING TAHLILI. XIX asrning elliginchi yillarida qarindoshlik otlari atamalarini o‘rganishda mantiqiy-semantik yo‘nalishning “etnografik semantika”, “yangi etnografiya”, “kognitiv madaniyat metateoriyasi”, “etnoil” deb nomlanuvchi bir qator yangi mustaqil etnolingvistik yo‘nalishlarini o‘zida jamlovchi soha sifatida shakllanishi yakunlandi. Bu E.Sapir va B.L.Uorfning har bir til muayyan fikrlash va xulq-atvor me’yorlariga mos keladi degan g‘oyasini aynan aks ettirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ayni shu davrlar oralig‘ida til funksional vazifalarini bajarishini tashkil etuvchi sxemalar asosidagi kognitiv mexanizmlarni o‘rganish uchun maxsus usullar ishlab chiqilgan. Qarindoshlik otlari atamalarining funksional – semantik tadqiqida qo‘llanilgan struktural tilshunoslik metodlari orasidan mazkur tadqiqot maqsadlariga muvofiq keluvchi komponental, transformatsion va generativ tahlil metodlarini quyida ko‘rib chiqish maqsad qilingan.

Etnografiya sohasida qarindoshlik otlari atamalariga ijtimoiy institutlar va ular rivojlanishining tarixiy dinamikasi haqidagi ma’lumotlar manbai sifatida qarash nuqtayi nazari shakllangan. L.G.Morgan uchun esa, bu ijtimoiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida mavjud bo‘lgan turli xil oilaviy va nikoh munosabatlari ko‘rinishi shakli edi. Ammo keyingi davr tadqiqotchilari uchun ayni qarindoshlik munosabati tizimi amalda bo‘lgan davrdagi nikoh ko‘rinishlari ahamiyatliroq bo‘lganini ham qayd etib o‘tish lozim.

Shuningdek, etnograflar qarindoshlik munosabati tizimining strukturaviy xususiyatlari tipologiyalarini yaratgan yoki qarindoshlik munosabati tizimining tarixiy tipologiyalaridagi muayyan turlarning o‘rnini belgilashga qaratilgan tipologik tadqiqotlar bilan shug‘ullangan bo‘lib, shu bilan bir qatorda ma’lum qarindoshlik munosabati tizimining boshqa qarindoshlik munosabati tizimiga o‘zgarish mexanizmlarini aniqlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Etnograflar qarindoshlik hodisasi bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan nikoh va oila shakllari; merosxo‘rni belgilashda qarindoshlik darajasini aniqlash; ijtimoiy institutlar iyerarxiyasi; merosxo‘rni belgilash qoidalari; yashash joyi; jins va yosh bo‘yicha stratifikatsiya va yosh tizimlari; sun’iy (soxta) qarindoshlik – nepotism va shu turlarga mansub bo‘luvchi juda keng masalalar doirasini o‘rgangan. Shuningdek, etnogenezni tiklashga bag‘ishlangan tarixiy va etnologik tadqiqotlar olib borilgan; bu yerda Shimoliy Amerika hindulari va polineziyaliklardan olingan materiallardan foydalanib aniq natijalarga erishilgan. Bu kabi tadqiqotlar odatda qarindoshlik sotsiologiyasi (etnosotsiologiyasi) yoki qarindoshlik antropologiyasi deb yuritilishi urfga kirgan.

Etnosotsiologiyada qarindoshlik munosabati tizimlari hodisasini o‘rganish bilan bir qatorda u bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar doirasi: nikoh va oila shakllari, merosxo‘rlik munosabati qoidalari, qarindoshlik munosabatiga quriluvchi ijtimoiy tuzilma shakllarining iyerarxiyasi, qarindoshlik o‘rtasidagi xatti-harakat qoidalari, yashash joyi, qarindoshlik munosabatlarida yoshga doir cheklov va qoidalar, urug‘chilik aloqalaridan qo‘shnichilik aloqalariga o‘tish kabilarni o‘z ichiga oladi. Arxaik va ibtidoiy sinfiy jamiyatlarni o‘rganish nuqtayi-nazairdan olib qaraganda, etnosotsiologiyani qarindoshlik sotsiologiyasi deb atash maqsadga muvofiq kelishi ko‘zga tashlanadi.

Shu bilan birga, qarindoshlik munosabatlari tizimini etnografik paradigma doirasida faqat qarindoshlik otlari atamalariga doir tuzilmalarni o‘rganish orqali boshqa ijtimoiy va shaxslararo bog‘lanishlardan aniq ajratilgan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Qarindoshlik otlari atamalari tizimi tadqiqiga lisoniy

TAMADDUN NURI

yondashuv F.de Sossyur tomonidan taklif qilingan “mazmun plani –
ifoda plani” dixotomiyasining ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, bu qarindoshlik munosabati tizimini ijtimoiy qarindoshlik munosabatlari tizimi sifatida hamda qarindoshlik otlari atamalari tizimini ushbu munosabatlarning egosentrik ifodasi sifatida ajratilishini ilmiy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, mohiyat (tarkibiy tuzilish tamoyili) hamda mohiyatning u yoki bu shakldagi namoyon bo‘lish ko‘rinishi o‘rtasidagi tafovut garchand bu farq har doim ham idrok etilmasa ham qarindoshlik atamalari tizimi muammolariga bag‘ishlangan aksariyat tadqiqotlarda mavjud ekanini qayd etish lozim. Holbuki, bu tafovutga urg‘u berish zarurati, o‘zgarishlarning o‘ziga xos mexanizmlari, ishlash tamoyillari, ya’ni mohiyat va uning namoyon bo‘lish shakllarining faoliyatidagi xususiyatlar sezilarli darajada farq qilishida aks etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, etnograflarning qarindoshlik munosabati tizimi mohiyatiga, ya’ni tadqiqot obyektining mazmun planiga qiziqish bildirishi, tilshunoslarning e’tibori esa qarindoshlik otlari atamalariga, qarindoshlik tushunchalari nomenklaturasiga, ya’ni ifoda planiga qaratilgan bo‘lib, bunda muayyan tilning leksik-semantik qatlami hamda ayni tilning qarindoshlik otlari atamalarining boshqa til birliklari bilan muvofiqlik qoidalari o‘rganiladi. Tadqiqotning avvalgi o‘rinlarida so‘z yuritilgan mazmun plani ifoda plani vositasidagina ma’lum bo‘lishi mumkinligi sababli, qarindoshlik otlari atamalari tizimi nafaqat tilshunoslar, balki o‘z oldiga lingvistik tadqiq maqsadidan boshqa maqsadlarni qo‘ygan etnograflar tomonidan ham o‘rganiladigan obyektdir. Etnograflar, birinchi navbatda, qarindoshlik mavzusida ifoda plani va mazmun plani rollarini bajaruvchi qarindoshlik otlari atamalari tizimi va qarindoshlik munosabati tizimi o‘rtasidagi muvofiqlik qoidalarini, yoki boshqacha qilib aytganda, qarindoshlarni guruhlash tamoyillarini aniqlaydilar, bu tamoyillar qarindoshlik nomenklaturasini tizimga — qarindoshlik otlari atamalari tizimi aylantiradi. Tilshunoslar esa, o‘z navbatida, so‘z yasalishi, etimologiya va muayyan til yoki til guruhidagi qarindoshlik otlari atamalarining leksik semantikasi masalalariga e’tibor qaratadilar va hind-yevropa, oltoy va amerika tillarini o‘rganishda bir muncha yutuqlarga erishgan prototizimlarni qayta tiklashni maqsad qiladilar.

Hozirgi kunga qadar o‘tkazilgan sohaga oid tadqiqotlarning tahlili qarindoshlik munosabatlar tizimi hamda qarindoshlik otlari atamalarini o‘rganishda antropologiyada izchil, ketma-ketlikdagi, batartib harakatlar amalga oshirilmaganini ko‘rsatadi, boshqacha qilib aytganda qarindoshlik otlari bilan bog‘liq lisoniy hamda antropologik hodisalarning mohiyatini idrok qilish hamda uni tadqiq qilish bilan ma’lum fan sohasi emas, alohida olingan tadqiqotchining yolg‘iz o‘zi shug‘ullanishi ko‘zga tashlanadiki, bu holat masalaning mohiyatini tizimli anglashda muammoli holatlarni yuzaga chiqarmoqda. Aslida, yuqorida tilga olingan birliklarning ilmiy tavsifida izchillik, tizimlilik xususiyati mavjud ekani haqidagi qarashlar L.G.Morgan ishlarida allaqachon qayd etilgan. Bu holat antropologlar orasida qarindoshlik mohiyatining aniq tushunilmasligi va qarindoshlikni ijtimoiy qadriyat sifatida chuqur anglamaslik bilan bog‘liq.

Qarindoshlik otlari atamalariga nisbatan ma’noni uning tarkibiy elementlariga ajratish usulining asosiy tamoyillari matematik A.Makfarlayn tomonidan ishlab chiqilgan. Ayni mavzuda tadqiqot olib borgan Kreber 1909-yilda o‘zidan avvalroq mazkur masala tadqiqi bilan shug‘ullangan Makfarlayndan bexabar holda o‘zining maqolasini chop qildirgan. Olim qarindoshlik munosabatlari tizimi tasnifi borasida fikr yuritib, uning fikricha barcha xalqlar qarindoshlik tizimlari uchun universal hisoblangan sakkiz jihatni qayd etadi. Bular: qarindoshlik munosabatining avlodlar kesimida chegaralanishi; qarindoshlik munosabatlarining gorizontal hamda vertikal yo‘nalishda farqlanishi; bir avlodga mansub qarindoshlar aro yoshga ko‘ra farqlanish; qarindoshning jinsiga ko‘ra farqlanish; tahlil uchun tanlab olingan subyektning jinsiga ko‘ra farqlanish; qarindoshlik munosabatini bog‘lovchi qarindoshning jinsiga ko‘ra farqlanish; qon-qarindoshning nikoh rishtasi bilan bog‘langan qarindoshdan farqlanishi; qarindoshlik munosabatini bog‘lovchi qarindoshning hayotiylik statusi (tirik yoki o‘lik ekani).

Shu bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar komponent tahlil metodini tanqidiy baholab, uni qarindoshlik otlari atamalari tahlilida keng qo‘llanilishini mazkur metod imkoniyatlarining

haddan ortiq ideallashtirilishi deb hisoblashgan. Jumladan, J.Lif mazkur metodda genealogik universialiyalarga e'tiborning haddan ortiq qaratilgani hamda mazkur tahlil metodida qarindoshlik otlari atamalarining haqiqiy xususiyatlari tahlili ahamiyati e'tibordan chetda qolib ketayotganini ta'kidlagan. O.N.Trubachev ham shunga yaqin fikrni bildirgan: "...Ma'noni alohida komponentlarga yoki ma'no belgilariga bo'lish – segmentatsiya qilish ... uning ma'no ko'lamini to'laqonli qamrab ololmaydi, chunki bu holatda har doim aynan ma'noning asl mohiyatini tashkil etuvchi biror supersegment elementni e'tibordan chetda qoldirish ehtimoli mavjud".

XULOSA. Amerikalik olimlar W.H.Gudenaf va F.L.Launsberi tomonidan asos solingan komponent tahlil tamoyillarining mukammallashtirilib ishlab chiqilishi natijasida qarindoshlik munosabatlari tizimlarini o'rganishda struktural yondashuvning ahamaiyatiga bo'lgan qiziqish yana kuchaydi. Ular o'z maqolalarida qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liq atamalarni formal tavsiflashning tamoyillari va vazifalarini ishlab chiqishgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буслаев Ф.И. О влиянии христианства на славянский язык. -М.:Унив. тип., 1848.-211 с.
2. Попов В.А. Системы терминов родства как исторический источник: современное состояние проблемы // XIX научная конференция по источниковедению истории стран Азии и Африки: Межвуз. сб. - СПб.: Изд-во СПбГУ, 1997. - С.145-150.
3. Трубачев О.Н. Реконструкция слов и их значений // Вопросы языкознания. -М.: Наука, 1980.-№ 3. - С.140-143.
4. Durbin M. The goals of ethnoscience // Anthropological Linguistics. - Chicago: Chicago Press, 1966. - Vol. 8. -№ 8. -Pp.67-83.
5. Ochilova G.U. A Brief History of Study of Kinship Terms. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 02, Issue 04, 2024 ISSN (E): 2993-2769. Pp. – 90-93.
6. Ochilova G.U. The concept of "kinship" and its use in languages of different systems. - Eurasian Research Bulletin, Volume 19, April, 2023. – Pp. 301-304.
7. Rahimov A.A. Essence and interpretation of secondary nomination means// Asian Journal of Multidimensional Research. January 2022. – P. 358-363.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.8

DINIY MANBALARDA "PARANORMAL EPIZODLAR" TAKOMILI

(N.RABG'UZIYNING "QISSASI RABG'UZIY" VA A.NAVOIYNING "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARLARI MISOLIDA)

Saydazimova Sanobar, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

ЭВОЛЮЦИЯ "ПАРАНОРМАЛЬНЫХ ЭПИЗОДОВ" В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ

(НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Н.РАБГУЗИ "КИССАСИ РАБГУЗИ" И А.НАВОИ "ТАРИХИ АНБИЁ ВА ХУКАМО")

Сайдазимова Санобар, докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

THE EVOLUTION OF "PARANORMAL EPISODES" IN RELIGIOUS SOURCES

(AS EXEMPLIFIED IN N.RABGHUZI'S "QISSASI RABG'UZIY" AND A.NAVOI'S "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO")

Sanobar Saydazimova, doctoral student Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

https://orcid.org/0009-0002-7013-3186
e-mail: saidazimova2595@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq adabiyotida "paranormal epizodlar"ning diniy-mifologik ildizlari va ularning poetik takomili, genezisi o'rganiladi. Qur'oni karim va diniy manbalar asosida iblis, jin va shayton obrazlarining adabiyotdagi funksiyasi N.Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" va A.Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari misolida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *paranormal, stigma, tabu, epizod, genezis, poetika, samum, ilk syujet, konflikt.*

Abstract: *This article explores the religious and mythological roots of "paranormal episodes" in Eastern literature, as well as their poetic evolution and genesis. Based on the Quran and religious sources, the function of the images of Iblis, jinn, and shaytan in literature is analyzed through the examples of N. Rabghuzi's "Qissasi Rabg'uziy" and A. Navoi's "Tarixi anbiyo va hukamo".*

Key words: *paranormal, stigma, taboo, episode, genesis, poetics, samum.*

Аннотация: *В данной статье изучаются религиозно-мифологические корни "паранормальных эпизодов" в восточной литературе, а также их поэтическое совершенствование и генезис. На основе Корана и религиозных источников анализируется функция образов Иблиса, джиннов и шайтана в литературе на примере произведений Н.Рабгузи "Кисаси Рабгузи" и А.Навои "Тарихи анбиё ва хукамо".*

Ключевые слова: *паранормал, стигма, табу, эпизод, генезис, поэтика, самум.*

KIRISH. Sharq adabiyoti islom ma'naviy muhitida shakllangan, islom dinining muqaddas manbalaridan ulgi olgan va oziqlangan adabiyot sanaladi. Adabiy tur va janrlar, adabiy shakllar ilohiy manbalardan ilhomlangan bo'lib, ular o'ziga xos sharqona mezonlar asosida takomillashgan. Adabiyotshunos A'zamxon Qozixo'ja aytganlaridek: "Inson badiiy tafakkuri ilohiy manbadan oziqlanadi. Agar ilohiy manbadan uzilsa, u tubanlashib, eng quyi qatlamlarda ish olib borishga majbur, nafsoniy sifatlarni oqlash bilan ovora bo'ladi"[1;163-bet]. Shu jihatdan poetik tafakkurning muhim komponenti hisoblangan "paranormal epizodlar"ni diniy manbalar asosida tahlil etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

MUHOKAMA. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimda iblis, jin, shayton haqida oyat va suralar kelgan. Ilohiy manbaga ko'ra "iblis" so'zi rahm-shafqatdan yiroq bo'lgan, o'z kibri ortidan tavqi lan'atga uchragan yaratiq sifatida ko'rsatilib, 19 marotaba Iblis nomi bilan aytib o'tiladi. Shundan 9 tasi Odam alayhissalomning yaratilishi, iblisning Odam a.s ga sajda qilinishi haqidagi voqealarda va boshqa holatlarda, shuningdek, shayton nomi bilan ham 107 marotoba tilga olingan. Jumladan, "Hijr" surasi 26-27-oyatlarida Olloh taolo shunday marhamat qiladi: "Batahqiq, Biz insonni quruq loydan, o'zgartirilgan qora balchiqdan yaratdik. Va jinlarni bundan oldin samum olovidan yaratdik". Jinlardan murod ularning asli – iblisdir. Odam alayhissalom insonlarning asli bo'lgani kabi, Iblis alayhi la'na ham jin va shaytonlarning aslidir"[2;293-bet].

Muqaddas manbadan ko'rinadiki, iblis olovdan yaratilgan, shayton va jinlarning ham ayni o'zidir. Odam alayhissalom va Momo Havvoning jannatdan quvilishiga sabab bo'lgan, insoniyatni chin e'tiqodidan adashtiradigan va ilk uchlik obraz (Odam Ato - Momo Havvo - Iblis)ni shakllantirgan iblis - "paranormal epizod"ning ilk asosi, genezisi sanaladi. Ilohiy manbada keltirilgan "ilk syujet" – "Odam alayhissalom tarixi (yaratilishi, Yerga tushirilishi, Momo Havvoga muhabbati, ilk uchrashuv, hijron, visol, farzandlar va Yerdagi faoliyat)ni insoniyat hayotining dastlabki va boshlang'ich sujeti deb oladigan bo'lsak, shuning o'zidayoq son-sanoqsiz konfliktlar (Odam va shayton, Havvo va shayton, Qobil-Hobil va shayton singari) ro'y berganiga amin bo'lamiz"[3;51-bet] va ular orasidagi konfliktlar hanuzgacha adabiyotning eng muhim va ko'p murojaat qilinadigan mavzularidan biri bo'lib kelgan. Shu o'rinda "paranormal epizodlar"ning ilmiy atama sifatidagi izohiga to'xtalishni lozim deb bildik.

"Paranormal epizod" – badiiy asarlarda qo'llangan uchinchi olam bilan bog'liq bo'lgan noodatiy va xayoliy obrazlar, an'anaviy bo'lib kelgan voqelikning buzilishi, tutash olamda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlardir. O'zbek xalq og'zaki ijodi, mifologiya, ilohiy haqiqatlar, maishiy turmush tarzida doimo duch kelinadigan g'ayritabiiy voqealar, sirli karomatlar, mavhum hodisotlar, shuningdek, **Xizr (a.s) jin, ajina, iblis, shayton, oziqchi, alvasti, olabo'ji, arvoh, pari, dev, qorabosti, qoraxayol, yuho, yovuz ruhlar** kabi tashqi olam kuchlari azal-azaldan badiiy adabiyotga ko'chgan. Shu nuqtayi nazardan, badiiy asarlardagi noodatiy sujet va voqealar, g'ayritabiiy karomatlar hamda demonologik personajlar bilan bog'liq hodisalarni umumlashtirib "paranormal epizod" istilohini ilk bora qo'llaymiz, poetik takomilini "Qissasi Rabg'uziy" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari misolida tahlilga tortamiz.

Nosuruddin Burxonuddin o'g'li Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari Qur'oni karim asosida yaratilgan va Qur'on oyatlaridan unumli foydalanilgan asar sanaladi. Ushbu asarda olam, turli mavjudotlar, ins-u jins, shayton, jin, dev, parilarning yaratilishi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Ushbu asarda "paranormal epizodlar" bilan bog'liq voqeliklar, sujetlar, obrazlar va shaytonning turli nomlari – **Azozil, iblis, shaytoni la'in, shaytoni mal'un** nomi ostida uchraydi. Asarda iblis ilk marta Odam a.s yaratilishi va unga sajda qilmaganligi voqeasida keltiriladi. "Eslagin, ey Muhammad, ul vaqtiki Parvardigor farishtalarga dedi: Sajda qilinglar Odamga! Bas sajda qildilar hammalari, ammo iblis sajda qilmadi. Bu iblis Azozil edi"[4;9-bet]. Barcha farishtalar Odam a.s ga sajda qilganida, iblis sajda qilmaydi. Farishtalar iblisni "…dev suratli, badshakl, yuzi qora, ko'zi chag'ir, tavqi la'nat bo'ynida, g'ul qo'lida, zanjir oyog'ida bir maxluqni"[5;17-bet] ko'radilar. Rabg'uziy iblisning shakkokligi ortidan manmanlik va kibrini, tashqi ko'rinishini esa ichki dunyosiga hamohang tarzda tasvirlaydi. Yaratganning amriga qarshi bosh

ko‘targan iblis to qiyomatga qadar tavqi la’natga uchraydi. Iblis o‘sha zamonlardan beri odam bolasini gunoh yo‘lga boshlash, to‘g‘ri yo‘ldan adashtirish, vasvasa va qutquga solish missiyasini bajaradi va missiya badiiy adabiyotda turli ko‘rinishlarda aks etadi.

Rabg‘uziy asarida shayton va iblisni turfa xil ***“bir pokiza kishi”, “qari kishi”, “chiroyli yigit”, “tabib xotin”*** qiyofasida tasvirlaydi. Jumladan, “Ibrohim alayhissalom va Namrud alayhil-la’na qissasi”da shayton ***bir pokiza kishi*** qiyofasida kelib kofirlarga palaxmondan tosh otishni o‘rgatadi. “Qissai Zabihi Ismoil alayhissalom” qissasida Ibrohim alayhissalom Ismoil alayhissalomni qurbonlik uchun olib borganida Iblis ***bir odam*** qiyofasida kelib Ismoil alayhissalomga otasi uni qurbonlik qilmoqchi ekanligini aytadi, ammo Ismoil alayhissalom iblisning qutqusiga parvo qilmaydi. Shunda Ismoil alayhissalom otasiga *“Bir odam kelib meni afsusga solmoqchi bo‘lar: -Ul shaytondur, tosh otgin, ketsin! – dedi otalari”*[4].

“Lut alayhissalom qissasi” da ham iblis ***chiroyli, yosh yigit, o‘g‘ri, kampir*** qiyofasiga kirib, ularni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirib, fahsh ishlarni qilishga undaydi. Asarda keltirilishicha, bir yili qish qattiq kelib, odamlar oziq-ovqat izlab boshqa joyga keta boshlaydi. Urdunliklar odamlarga qaytib ketishlarini aytadi, ammo ular qaytmaydilar. Shunda iblis Xasxos degan devni olib kelib Zevolning og‘ziga kiritib qo‘yadi. Zevol odamlarni fahsh ish qilishga undaydi. Urdunliklar Zevolning yonidan chiqib, kelgindilarni izlay boshladi. Iblis yosh yigit qiyofasiga kirib, Bohil degan yigitning oldidan chiqadi. Iblisning qo‘lidan tutib, uy ichiga olib kirdi va fohisha ishi bilan shug‘ullandi. Iblisning hiyla-nayrangi bilan Olloh la’natlagan Lut qavmi paydo bo‘ladi. Bundan keyin iblis “…***o‘g‘ri*** suratida bir odamning bog‘iga o‘g‘rilikka tushadi. Uchinchi gal kirganida esa qo‘rqitmoqchi bo‘lib, u bilan fohisha ish qiladi”. Bu fahsh ishlar ularga yoqib qoladi va hammalari yo‘ldan ozib ketadi. “Kunlardan birida Iblis ***nuroniy kampir*** qiyofasida xotinlar huzuriga keladi. Sizlarga bir gapni o‘rgatayinmi?- deya Iblis ularga hiyla o‘rgatdi. Bir yog‘ochni olib, erkaklarning andami kabi yo‘ndi, silliqladi va beliga bog‘lab, xuddi erkaklar kabi ayollarga yotar bo‘ldi”[4;124-bet]. Ko‘rinadiki, iblis insonlarni e’tiqodidan adashtirgan, vasvasaga soladigan obraz sifatida “Qissasi Rabg‘uziyda” insonlar qiyofasida tasvirlangan.

Hazrat Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Barsisoy Obid va shayton haqida rivoyat keltiriladi. U yetmish yil davomida tinmay ibodat qildi, xalq unga ixlos qo‘ydi. Shayton solih odam qiyofasida kelib, u bilan ibodat qila boshladi va ishonchiga kirdi. Keyin unga bir ism o‘rgatib, bemorlarni davolash imkoniyatini berdi. Bu orqali Barsisoy yanada mashhur bo‘ldi. Shayton uni vasvasaga solib, podshohning qiziga fahsh ish qilishga undadi. Keyin gunohini yashirish uchun qizni o‘ldirishga ko‘ndirdi. Jinoyati oshkor bo‘lib, o‘limga hukm qilinganda, shayton uni qutqarish evaziga sajda qilishni talab qildi. Barsisoy sajda qildi, ammo shayton uni tashlab ketdi. Natijada, Barsisoy qatl etilib, la’natlangan holda halok bo‘ldi. Hazrat Navoiy bu voqealarga nisbatan shunday deydi:

“Bo‘lma mag‘rur ko‘h yoki aso,
Ko‘rki, ne ishga qoldi Barsiso”[6;184-betlar].

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan ushbu rivoyatda shayton insonni chin e’tiqodidan adashtirish, vasvasaga solish, hattoki, ibodatlari bilan obidlik maqomidagi kishini ham yo‘ldan ozdirgani uning “ilk sujet” voqealaridagi missiyasini eslatadi. Barsisoy obid haqidagi ushbu rivoyat rus adabiyotining mashhur adibi L.Tolstoyning “Avliyo Sergiy” qissasida yangicha talqinda namoyon bo‘lgan. Xususan, shayton obrazi jahon adabiyotida Gyotening “Faust” asarida Mefistofel, M.Bulgakovning “Usta va Margarita” romanida Voland nomi bilan uchraydi. O‘zbek adabiyotida A.Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni”, A.Avloniyning “Biz va siz” dramalarida, Sh.Bo‘tayevning “Shox” romanida Janob Ximer nomi bilan va N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida, N.R.Muhammadning “Shaytoni Buzurg” hikoyasida markaziy timsollardan biri sanaladi.

XULOSA. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “paranormal epizodlar”ning bir qismi bo‘lgan Sharq manbalaridagi shayton obrazi va u bilan bog‘liq bo‘lgan diniy motivlar genezisi islom dinining muqaddas manbasi Qur’oni karimdagi jin, iblis, shayton haqidagi oyat va suralardir, degan xulosaga kelish mumkin. “Qissasi Rabg‘uziy” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlaridagi shayton obrazining badiiy takomili yuqoridagi fikrlarimizni dalillaydi. V.Gyotening “Faust” asaridagi shayton obrazi (Mefistofel) va M.Bulgakovning “Usta va Margarita” romanidagi shayton (Voland) obrazi orasida genetik aloqa borligi ilmiy isbotlangan va

uning genezisi asar mualliflarning e'tiqodiy qarashlari va o'sha xalqning diniy manbalaridan, folkloridan, milliy adabiyotidan izlash lozim. Qolaversa, Sharq va G'arb adabiyoti doimo bir-birini to'ldiradigan, biri ikkinchisidan oziqlanadigan, sujet va motivlar bir-birida takrorlanadigan adabiyot sanaladi. Shu jihatdan kelgusida zamonaviy o'zbek nasrida qo'llanilayotgan "paranormal epizodlar" haqida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қозихўжа А. Гар ортуқ сўз дедим... / Тўпловчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи: ф.ф.д., профессор У.Жўрақулов. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 163.
2. Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. 3-жуз Тошкент -2008. 293-бет.
3. Узоқ Жўрақулов. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп (Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар). Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2015 51-бет.
4. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2022 9-bet.
5. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий.-Тошкент: Ёшлик нашриёти, 2018.-Б.16-17.
6. Навоий А. Тарихи анбиё ва ҳукамо. МАТ. XX жилдлик. XVI жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б.183-184.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 82.0

PIRIMQUL QODIROV IJODIDA INSONIY FAZILATLARNING ILGARI SURILISHI

Botirova Anaxon Dilmurod qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti 2-kurs talabasi

PROMOTION OF HUMANISM IDEAS IN PIRIMKUL KADYROV'S WORK

Botirova Anakhan Dilmurod qizi, Second year student of the Faculty of Philology and Art of Urgench state University named after Abu Raykhan Biruni

ПРОДВИЖЕНИЕ ИДЕЙ ГУМАНИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

Батирова Анахон Дилмурод кызы, студентка 2-курса факултета филологии и искусства Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

https://orcid.org/0009-0003-7963-7329
e-mail: ***anaxonotirova362@gmail.com***

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida Pirimqul Qodirov asarlaridagi insonparvarlik fazilatlari to'g'risida so'z boradi. Yozuvchi muallifligidagi asarlar misolida mavzu yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *gumanizm, adib, ijodkor, inson, konsepsiya, insonparvarlik, muallif, qahramon, personaj.*

Annotation: *This research paper deals with humanitarian qualities in the works of Pirimkul Kadyrov. The topic will be covered by the example of the author`s works.*

Key words: *humanism, writer, creator, human, concept, humanitarianism, author, hero, character.*

Аннотация: *В данной исследовательской работе рассматриваются гуманитарные качества творчества Пиримкула Кадырова. Тема будет раскрыта на примере произведений автора.*

Ключевые слова: *гуманизм, писатель, творец, человек, концепция, автор, герой, персонаж.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Adabiyot shunchaki qog'ozga to'kilgan tasvir yoxud quruq gaplar yig'indisi emas, adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan, kitobxonni gohida quvontirib, gohida mahzun ahvolga soladigan qudratli kuchdir. Bu haqda 16 yoshli munaqqid - Cho'lpon fikrlarini obrazli tarzda shunday ifodalaydi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qaralgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan, qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvidur"[1]. Ko'rinib turganidek, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi inson ma'naviyatini poklash, uni to'g'ri yo'l tomon boshlashdir.

Har bir davr adabiyotida shunday mavzular bo'ladiki, bunday mavzular hech qachon eskirmaydi. Aksincha, zamonlar almashgani, vaqtlar o'tgani sari o'z ahamiyatini qaytadan kashf qilib boraveradi, o'z muxlislarini topaveradi. Bular inson qadr-qimmatiga bag'ishlangan mavzulardir. Binobarin, O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ijodida ham ushbu mavzu o'zining haddi a'losiga yetgan. Sababi adibning barcha ijod namunalarida oddiy, samimiy qishloq insonlari hayoti qalamga olinadi. Muallif asar davomida har bir qahramonining ichki va tashqi dunyosini shunday go'zal kashf etadiki, bu tasvirlar asarning umrboqiyligiga zamin yaratadi. Mustabid

tuzum qiyinchiliklari ostida ezilgan xalqimizning qayg‘u va hasratlariga sherik bo‘ladi, har doim olg‘a intilishga undaydi, ularga dalda berishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Pirimqul Qodirov ijodida gumanizm – insonparvarlik mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu to‘g‘risida taniqli tanqidchilar: Umarali Normatov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov kabilarning adabiy-tanqidiy maqolalarida aytib o‘tilgan. Ushbu maqolada esa deyarli barcha asarlarda gumanizmning qay darajada yoritilganligi umumlashtirib tahlil qilinadi. Tadqiqotni amalga oshirishda kuzatish, induksiya, tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS). “Odam o‘zining g‘ururi bilan erkini bayroqday baland tutishi kerak”[2], - deya “Qora ko‘zlar” asari qahramonlaridan biri tomonidan aytilgan ushbu fikrlarni Pirimqul Qodirovning barcha asarlari uchun epigraf qilib olsak to‘g‘ri bo‘ladi. Chindan ham, adib yaratgan barcha qahramonlar nafaqat o‘zining erki, qadr-qimmatini bayroqdek ko‘klarga ko‘taradi, balki xalqning dardi bilan yashaydi, yurt farovonligi, odamlar tinchligini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Asarlarga tanlangan sarlavhalar ham (“Qadrim”, “Uch ildiz”, “Erk”, “Meros”, “Olmos kamar”, “Jon shirin”) shundan dalolat beradi. Pirimqul Qodirovning ijodiga bag‘ishlangan maqolalardan birida adibning shunday jumlalari uchraydi: “Avvallari aytib bo‘lmaydigan sirni endi aytishim mumkin, – deydi adib “Ko‘rgan-kechirganlarim” turkumiga kirgan maqolalaridan birida. “Uch ildiz”dan boshlab “Olmos kamar” va “Avlodlar dovoni”gacha yozgan asosiy narsalarimning hammasida mustabid mafkuraga ma’naviy qarshilik ko‘rsatish hissi, xalqimizni uning xavf-xatarlaridan asrash istagi, bizni millat sifatida yo‘qotishga qaratilgan shafqatsiz siyosatdan odamlarimizni, dilimiz va tilimizni himoya qilish maqsadi menga eng ko‘p ilhom va kuch bergan hislar, istak va maqsadlar edi” [3].

Inson sha’ni ulug‘langan asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, adib qahramonlar xarakterini yoritishda kontrast usulidan mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Personajlarning ichki olamini to‘laqonli aks ettirish, ularning bir-biriga munosabati, tabiat, el-yurt bilan bo‘lgan aloqalarini tasvirlashda adib ularning har bir qirrasiga tayanadi, keng dunyoqarashi va aniq dalillar bilan ish ko‘radi. Shuning uchun ham akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom shunday yozadi: “Yozuvchi kishining ichki dunyosini tasvirlar ekan, o‘z tajribasiga suyanadi. Shuning uchun ham bu tajriba qanchalik keng bo‘lsa, qahramonning ichki dunyosi ham shu qadar boy bo‘ladi”[4]. Binobarin, yozuvchining tarixiy asarlari sirasiga kiruvchi “Yulduzli tunlar” va uning mantiqiy davomi hisoblangan “Avlodlar dovoni” romanlari qahramonlari, yuqorida ta’kidlaganimizdek, gumanizmni bayroqdek tik ko‘tarib yuradigan siymolar sifatida tasvirlangan. Bobur asarda chinakamiga xalq dardi bilan yashaydi. Chunonchi, P.Qodirovning adabiy izlanishlari hosilasi sifatida paydo bo‘lgan to‘qima obraz – Tohir qiyofasida, qilgan xatti-harakatlarida insonparvarlikning asl ko‘rinishlari mavjud. Asarda faqatgina yuqori tabaqa vakillarining hayoti emas, balki oddiy qishloqdan chiqqan insonlar turmush tarzi ham bayon qilinadi. Shuning uchun ham roman quvalik oddiygina dehqon farzandi bo‘lgan Tohir va Robiyaning munosabatlari, sevgi qissalari bilan boshlanadi. O‘z xalqiga dushman qo‘shinining yopirilib kelayotganini payqagan Tohir do‘stlari bilan birgalikda ko‘prikni arralashga tushadi. Vaholanki, shaharga kirish uchun boshqa yo‘l yo‘q, buni ko‘rgan yov ortga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu esa Tohir tabiatiga xos bo‘lgan vatanparvarlikning bir ko‘rinishidir. Yoki Xonzodabegim Bobur nohush yotganida erkakcha to‘n kiyib, beliga kamar bog‘lab, qo‘liga xanjar olib, qal’ani himoya qilish uchun harakat qiladi. Bu ham tug‘ilib o‘sgan ona yurtga bo‘lgan fidokorlikdir. Endigina 10 yoshga to‘lgan Hurramshoh tomonidan ko‘rsatilgan jasorat ham yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir. U tog‘asi uchun jangga kirib, o‘q yeb halok bo‘ladi.

“Baxt va kamolot osmoniga har kim o‘z qanoti bilan uchib chiqadi. Qushlar bir-biriga har qancha mehribon bo‘lganlarida ham, baribir ularning har qaysisi o‘z qanoti bilangina parvoz eta oladi. Inson shaxsi har tomonlama kamol topgandagina unda ma’naviy parvozga yaraydigan qanotlar paydo bo‘ladi. Bunday qanotlarni tayyor holda meros olib bo‘lmaydi, ular mukofotga yoki qarzga berilmaydi, ularni pulga sotib olish mumkin emas. Ular faqat uzoq davom etgan o‘qish, kurash, mehnat va

TAMADDUN NURI

ma'naviyat takomili natijasidagina ichdan o'sib otiladi" [5]. Adibning "Uch ildiz", "Qadrim" kabi asarlari yuqoridagi konsepsiyaga to'liq mos keladi. Chunki bu asarlarda insonning har bir davrda orttirgan tajribalari, ko'nikmalari to'planib, komil inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Iskandar va Zulayho obrazlari kitobxonni inson o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashi masalasiga da'vat etsa, Temur Akbarov, Abdurahmon Toshev, Ochil Samadov, Mahkam Mahmudov kabi personajlar hayotda yaxshi nom qoldirishni o'zlari uchun oliy qadriyat deb bilishadi. Jumladan, Iskandar kashf etgan hayot falsafasi quyidagicha jaranglaydi: "Menimcha, hayotda eng muhimi – odamparvar bo'lish-u kishilarimizga yaxshilik qilish, insonning qadr-qimmati uchun ham tinmay kurashish. Chunki kishi o'z qadrini bilmaguncha o'z baxtini tanimaydi"[6].

Badiiy adabiyot insonshunoslikning eng oliy cho'qqisi bo'lganligi uchun ham davr sharoitida odamlarda yo'qolib borayotgan nodir fazilatlarni qayta tiklash, jamiyatni vatanparvarlik, halollik, do'stlik ruhida tarbiayalash ijodkor oldida turgan eng muhim vazifadir. Ayniqsa, burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish yozuvchining "Olmos kamar" deb nomlangan romanining bosh maqsadidir. "Olmos kamar" romanida barcha obrazlardagi yaxshilik olmos kamarga tenglashtiriladi. Ana shu yaxshilikning jamiyatni tutib turishi, taraqqiyotni ta'minlashi, istiqbolni yaratishi har bir obrazda va umuman butun asar yaxlitligida emotsional-estetik tarzda o'z ifodasini topgan"[7]. Asarni shartli ravishda "Uch ildiz" romanining mantiqiy davomi deyish mumkin. Mahkam va Ochil uchun eng buyuk vazifa – oliy ma'lumotli kadr bo'lib yetishish, o'z baxtini topish va yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib yetishish edi. Ammo "Olmos kamar" romani qahramonlari Abror va uning turmush o'rtog'i Vazirada yuqoridagi uch ildiz ham mukammal shakllangan. Obro'-e'tibor, boylik, uy-joy, farzand – hammasi ularda mavjud. Ammo Abrorning zimmasidagi burch va vazifalari hali tugagani yo'q. Gap shundaki, odam ma'naviy kamolotga yetgani sari, undagi burch va mas'uliyat hissi tobora ortib boraveradi. "Vijdoni bor, samimiy odamning eng qattiqqo'l hakami – uning o'zida, dilida bo'ladi. Abror faqat ishdagi o'z vazifasinigina emas, uydagi otalik yoki farzandlik, erlik yoki qaynilik burchini ham bajarmaguncha ana shu ichki hakam unga tinchlik bermaydi"[8]. Aslida bu ham insonparvarlikning bir ko'rinishi. Farzandlari o'sib-ulg'ayib kamolga yetganida ham ana shu mas'uliyat hissini o'ylagan holda qadam bosadi.

Ijodkorning faqatgina katta-katta romanlari emas, balki kichik hikoyalari ham insonpararlik ruhi bilan ziynatlangan. Xususan, paxtaga sepiladigan dorining ta'siri tufayli bevaqt vafot etgan Ziyodullaning ayanchli o'limi bilan boshlanuvchi "Jon shirin" hikoyasi fikrimizning dalilidir. O'sha vaqtlarda paxtadan mo'l hosil olish maqsadida raislar qing'ir yo'llardan borishni to'g'ri deb bilishdi. Ana shu mudhish ish juda ko'plab talofatlarga olib kelishi haqida kuyinib yozgan birinchi ijodkor ham Pirimqul Qodirov edi. Hikoya bosh qahramoni Muzaffar "amal kursisi"da o'tirgan amalparastlarning adolatsizliklariga qarshi isyon ko'taradi. Bu ish unga xalq baxtsizligini yuzaga keltiruvchi omil bo'lib tuyuladi. Odamiylik nuqtayi nazaridan yomonlarga yomonlik, yaxshilarga esa yaxshilik bilan javob qaytaradi. "Bu asar yaratilgan davr uchungina emas, adolatsizliklar barham topib borayotgan shu kunlarimiz uchun ham nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi o'z-o'zidan ayon, albatta"[9].

XULOSA sifatida aytishimiz mumkinki, insonparvarlik g'oyasi Pirimqul Qodirovning barcha asarlari uchun konsepsiya darajasiga ko'tarilgan, uni boshqa ijodkorlardan ajratib turadigan xususiyatdir. Zero, adabiyot ham, jamiyat ham ana shu tuyg'ular bilan hamisha barhayot.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cho'lpon. Adabiyot nadir? – T.: Cho'lpon, 1994.
2. Qodirov P. Qora ko'zlar. – T.: Sharq , 2008.
3. Isomiddinov Z. Adibning taqdiri. //Tafakkur jurnali, 2008. №3.
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001.
5. Normatov U. Yetuklik//Izlanish quvonchi va tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
6. Qodirov P. Qadrim. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
7. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001.
8. Normatov U. Yetuklik//Izlanish quvonchi va tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
9. Nazarov B. Rang-baranglik. – T.: Yosh gvardiya, 1988.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101.9

SPORT VA SAN'AT O'RTASIDAGI ALOQALAR: FALSAFIY TAHLIL

Rasulov Zohiddin Usarovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi dotsenti

СВЯЗИ МЕЖДУ СПОРТОМ И ИСКУССТВОМ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Расулов Зохиддин Усарович, доцент Самаркандского филиала Экономико-педагогического университета

THE RELATIONSHIP BETWEEN SPORTS AND ART: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Rasulov Zohiddin Usarovich, Associate Professor, Samarkand Campus of the University of Economics and Pedagogy

https://orcid.org/0009-0004-5536-9185
e-mail: zohiddinrasulov28@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada "Sport va san'at o'rtasidagi aloqalar: falsafiy tahlil" mavzusida sport va san'atning o'zaro bog'liqligini chuqur falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etadi. Muallif, sport va san'atning insonning jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi o'rnini, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy aspektlarini o'rganadi. Maqolada, har ikki soha o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar, ular orqali insonning ichki dunyosi va tashqi olam bilan bog'lanish usullari yoritiladi. Ayniqsa, sportning estetik jihatlari va san'atning dinamikasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar falsafiy o'rganishga asoslanib tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sport, san'at, estetika, jismoniy rivojlanish, ma'naviyat, inson va jamiyat, san'atning dinamikasi, ijtimoiy barqarorlik, ijodkorlik, falsafa.*

Аннотация: *В статье под названием "Связи между спортом и искусством: философский анализ" анализируется взаимосвязь спорта и искусства с глубокой философской точки зрения. Автор исследует роль спорта и искусства в физическом и духовном развитии человека, а также их социальные и культурные аспекты. В статье рассматриваются сходства и различия между двумя направлениями, а также способы, которыми они связывают внутренний мир человека с внешним миром. В частности, на основе философских исследований анализируется взаимодействие эстетических аспектов спорта и динамики искусства.*

Ключевые слова: *спорт, искусство, эстетика, физическое развитие, духовность, человек и общество, динамика искусства, социальная стабильность, творчество, философия.*

Abstract: *The article, entitled "The Relationship Between Sports and Art: A Philosophical Analysis", analyzes the relationship between sports and art from a deeply philosophical perspective. The author examines the role of sports and art in the physical and spiritual development of a person, as well as their social and cultural aspects. The article highlights the similarities and differences between both areas, the ways in which they connect with the inner world of a person and the external world. In particular, the interactions between the aesthetic aspects of sports and the dynamics of art are analyzed based on philosophical studies.*

Key words: *sports, art, aesthetics, physical development, spirituality, man and society, dynamics of art, social stability, creativity, philosophy.*

KIRISH. Sport va san'at insoniyatning ajralmas qismlaridan bo'lib, har biri o'ziga xos tarzda jismoniy va ma'naviy rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Ularning o'zaro aloqalari va bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ko'pincha ko'zdan qochadi, ammo sport va san'atning ham o'ziga xos estetik, ijtimoiy va falsafiy ahamiyatlari mavjud. Sport – bu tananing jismoniy cheklovlarini sinovdan o'tkazish, insonni ruhiy va jismoniy jihatdan mukammal qilish jarayoni bo'lsa, san'at insonning ichki olamini, estetik his-tuyg'ularini va fikrlarini tashqi dunyoga ifodalaydi. Bu ikkala sohadan olingan tajriba va bilimlar, nafaqat individual o'sishni ta'minlab, balki jamiyatdagi umumiy ruhiy holat va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

Mazkur maqolada sport va san'atning o'zaro aloqalarini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchi jihatlarini o'rganish maqsad qilinadi. Shu bilan birga, maqolada sport va san'atning estetik qiymatlari, inson va jamiyat hayotidagi o'rni hamda ular orasidagi parallellarning falsafiy nuqtayi nazardan yoritilishi ko'zda tutilgan. Ularning bir-birini qanday o'zgartirishga, o'zaro qanday ta'sir qilishga qodir ekanligi va bu jarayonlarning inson ruhiyatidagi aks-sadosi haqida chuqur mulohaza yuritiladi.

Sport va san'atning birinchi o'xshashligi ularning estetik jihatlaridan kelib chiqadi. Sportdagi harakatlar ko'pincha san'at asariga o'xshash tarzda, estetik go'zallik va tartibga ega. Masalan, sportchilar har bir harakatini mukammal va go'zal tarzda bajarishga intilishadi, shu bilan birga, har bir musobaqa yoki sport tadbiri o'zining estetik qiymatini yaratadi. San'atda ham shakl, rang, kompozitsiya va harakatlar estetik maqsadga xizmat qiladi. Sportdagi muvaffaqiyatlar va san'atdagi yutuqlar, har ikkisi ham ijodkorlik va intilishning natijasi sifatida qaraladi[1].

Sport va san'atning ikkinchi o'xshashligi insonning ichki dunyosini ifodalashda yotadi. Sport orqali inson o'zining kuchini, sabrini va iroda kuchini namoyon qiladi, shuningdek, san'at orqali ham inson o'z ichki his-tuyg'ularini va fikrlarini tashqi dunyoga chiqaradi. Sportning estetik jihatlari va san'atning dinamikasi, bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Bunday o'xshashliklar, sport va san'atni birlashtiradigan yagona g'oya — insonni o'zining eng yuqori salohiyatiga erishish uchun harakat qilishga undaydi[2].

Falsafiy nuqtayi nazardan, sport va san'at bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Har ikkalasi ham insonning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Sport, o'zining jismoniy faoliyati orqali, insonni murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishga, jismoniy kuch va chidamlilikni oshirishga undaydi[3]. San'at esa, aynan bunday jarayonlarni ruhiy, ma'naviy va estetik darajada ifodalaydi. Sport va san'at, shu ma'noda, bir-birining tabiatiga o'zaro ta'sir ko'rsatib, insonning jamiyatdagi rolini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Falsafiy jihatdan sport va san'atni ko'rishda "g'oya" va "ifoda" o'rtasidagi bog'lanish ham katta ahamiyatga ega. Sportda g'oya – bu maqsadga erishish, yengish yoki muvaffaqiyatga erishish uchun bajariladigan harakatdir. San'atda esa, ifoda – bu ichki olamni tashqi dunyoga aks ettirish, shu orqali jamiyatga ma'naviy va estetik ta'sir ko'rsatishdir[4]. Har ikkala sohada ham muhim jihat, insonning o'ziga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Sport va san'at jamiyatda o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi sohalardir. Ikkalasi ham ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, hissiy, estetik va intellektual rivojlanishga xizmat qiladi. San'at, asosan, jamiyatdagi estetik ta'mni shakllantiradi va kishilarni ruhiy jihatdan boyitadi, sport esa jismoniy salomatlikni, kuchni va chidamlilikni rivojlantiradi. Ammo, bu ikki soha o'zaro ta'sir qilib, jamiyatda muhim ijtimoiy qadriyatlar va g'oyalarni shakllantiradi. Masalan, bir-biriga hurmat va raqobatning sog'lom shakllari, ijtimoiy adolat, birlashish va jamoa ruhini targ'ib qilishda sport va san'atning roli katta[5].

Sport va san'atning estetik qiymatlari, faqat tashqi ko'rinishda emas, balki insonlarning ichki dunyosidagi transformatsiyani ham aks ettiradi. Har bir musobaqa yoki san'at asari, insonning intilishlarini, orzularini va maqsadlarini ifodalaydi. Estetik nuqtayi nazardan, sport va san'at o'rtasidagi chegaralar aniq emas[6]. Ular bir-biriga o'xshash, ammo har biri o'zining o'ziga xos shaklini va ifoda tarzini yaratadi. Jamiyatda sport va san'at orqali amalga oshirilgan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, insoniyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Sport falsafasi sportning metafizikasidir. Bu sport, ayniqsa, sport fanlari haqidagi barcha texnik, falsafiy va hatto mifologik ma'lumotlarga asoslanib, sport tushunchasini, sport tushunchasida ifodalangan haqiqatni tushuntirishga, tushunchaning ma'nosini chuqurlashtirishga intilishdir[7]. Bu yerda, birinchi navbatda, sport tushunchasi tahlil qilinadi va yuzaga keladigan barcha elementlar: tana, harakat, ishlash, raqobat, g'alaba qozonish, mag'lub bo'lish va boshqa tushunchalar xuddi shunday munosabat bilan ta'kidlanadi. Aslida fanning asosiy maqsadi nazorat qilish va bashorat qilish emas, balki tushunishdir. Samarali nazorat tushunish uchun mukofotdir, bashorat qilishda aniqlik esa tushunish uchun nazoratdir[8]. Bu kontekstda falsafa faylasuflar yoki "falsafalar" tomonidan kelishilgan yaxlitlik va birlikka ega emas[10]. Boshqa tomondan, "tizimli" g'oyalar doimo mavjud bo'lib, bu g'oya bilan falsafiy an'analarni tizimli ravishda tasniflashga urinishlar doimo amalga oshiriladi.

XULOSA. Xuddi shu mavzudagi qarashlar qanchalik ko'p bo'lsa, falsafa shunchalik boy, samarali va foydaliroq bo'ladi. Yangi falsafalar ko'pincha bir xil asosiy savol bilan boshlanadi, masalan, "Sport nima?" Bu savolga turli yondashuvlar va paradigmalar bilan murojaat qilish va yangi talqinlarni ilgari surish orqali erishiladi. Shu nuqtayi nazardan, Sport falsafasi nima? Savolga javob izlash uchun ilgari surilgan fikrlar mamlakatimizda sport falsafasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Insonga hech narsa avtomatik tarzda berilmaydi: na bilim, na o'ziga ishonch, na xotirjamlik, na aqldan to'g'ri foydalanish. Insonga kerak bo'lgan yoki xohlaydigan har qanday qiymatni (hatto tananing o'ziga xos holatini ham) kashf qilish va o'rganish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sirojev, S., Nuriddinov, A., Sayfiyev, H. (2023). The concept and importance of shooting speed in volleyball. Modern Science and Research, 2(9), 187-191.
2. Сайфиев, Х., Саидова, М. (2023). Бадминтонисты. Физическая подготовка ИЕМУ. Разработка методов. Инновационные исследования в науке,м2(4), 45-54.
3. Xayrullayevich,S.H., Ayubovna, S.M. (2023). Badmintonchilar jismoniy tayyorgarligi va uni rivojlantirish metodikalari. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(18), 201-208.
4. Ayubovna, S.M., Xayrullayevich, S.H. (2023). Yosh bolalarda sport gimnastikasining pedagogik o'lchovlar nazariyasi va tashkiliy–metodik asoslarini tadqiq etishning maqsadi, vazifalari. Pedagogical sciences and teaching methods, 2(22), 108-118.
5. Mavlanovna A.M. Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – C. 32-36.
6. Ризаев И.И. Синергетический подход к самоорганизации социальных систем //Редакционная коллегия. – 2020. – Т. 294.
7. Усмонов Ф.Н. Рациональность и традиция в развитии науки //Инновации в технологиях и образовании. – 2016. – С. 349-353.
8. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
9. Саматов Х.У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы Узбекистана //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.
10. Muhammadiev K. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times //Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2022. – Т. 3. – С. 1000-1004.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101.7

MADANIY TADBIRLAR, SAN'AT VA IJTIMOIY MUHITNING ESTETIK DIDGA TA'SIRI

***Mamaraximov Kaxramon Xaltuxtashevich*, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi**

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ СОБЫТИЙ, ИСКУССТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ЭСТЕТИЧЕСКИЙ ВКУС

Мамарахимов Кахрамон Халтухташевич, старший преподаватель Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета

THE INFLUENCE OF CULTURAL EVENTS, ART AND SOCIAL ENVIRONMENT ON AESTHETIC TASTE

Mamarakhimov Kakhramon Khaltukhtashevich, Senior lecturer at Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering

https://orcid.org/0009-0004-8161-2080
e-mail: kahramon_mamaraximov@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada madaniyat va san'atning jamiyatdagi roli, ularning estetik qadr-qimmati va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir o'tkazishi tahlil qilinadi. Estetik didning rivojlanishi, odamlarning san'at asarlari va madaniy tadbirlarga bo'lgan munosabati, shuningdek, san'at va madaniyatning ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirini ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, san'at asarlarining jamiyatdagi estetik qabul qilish jarayoni va uning ijtimoiy qiyofani shakllantirishdagi o'rni tahlil etiladi. Mazkur tadqiqot estetik didning ijtimoiy madaniyatdagi o'rnini chuqur tushunishga yordam beradi hamda san'at va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlarni yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Madaniy tadbirlar, san'at, ijtimoiy muhit, estetik did, estetik ta'sir, madaniy qiymat, jamiyat, san'at asarlari, ijtimoiy qabul qilish, ijtimoiy madaniyat.*

Abstract: *The article analyzes the role of culture and art in society, their aesthetic value and how they influence changes in the social environment. The development of aesthetic taste, people's attitude to works of art and cultural events, as well as the influence of art and culture on social changes are considered. The article also analyzes the process of aesthetic perception of works of art in society and its role in shaping the social image. This study helps to deeply understand the place of aesthetic taste in social culture and sheds light on changes in the fields of art and culture.*

Keywords: *cultural events, art, social environment, aesthetic taste, aesthetic impact, cultural value, society, works of art, social acceptance, social culture.*

Аннотация: *В статье анализируется роль культуры и искусства в обществе, их эстетическая ценность, а также их влияние на изменения в социальной среде. Будет рассмотрено развитие эстетического вкуса, реакция людей на произведения искусства и культурные события, а также влияние искусства и культуры на социальные изменения. В статье также анализируется процесс эстетического восприятия произведений искусства в обществе и его роль в формировании социального имиджа. Данное исследование способствует более глубокому пониманию места эстетического вкуса в социальной культуре и проливает свет на изменения в сферах искусства и культуры.*

Ключевые слова: *культурные события, искусство, социальная среда, эстетический вкус, эстетическое воздействие, культурная ценность, общество, произведения искусства, общественное принятие, социальная культура.*

KIRISH. Bugungi kunda san'at va madaniyat jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Madaniy tadbirlar va san'at asarlari insonlarning estetik didini shakllantirishda, ijtimoiy muhitni tushunishda hamda turli madaniy qadriyatlarni yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Estetik did, o'z navbatida, insonning go'zallik, san'at va madaniyatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi, shuningdek, bu munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi.

Maqolaning maqsadi madaniy tadbirlar, san'at va ijtimoiy muhitning estetik didga ta'sirini o'rganishdir. Ushbu tadqiqotda san'at asarlari va madaniy tadbirlar insonlar fikrini, his-tuyg'ularini, estetik qabul qilish jarayonini qanday shakllantirishini tahlil qilishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, ijtimoiy muhitning o'zgarishi va madaniyatning rivojlanishi estetik didning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga, san'atning va madaniyatning jamiyatda qanday o'rin tutishi va uning ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ta'riflanadi.

Estetika (yunoncha "his", "tuyg'u») — bu olamning hissiy qabul qilinishini o'rganadigan fan bo'lib, san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabulini tadqiq etadi. "Estetika" atamasini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714-1776) ilmiy termin sifatida kiritgan[1]. Estetikaga nisbatan go'zallik falsafasi, san'at falsafasi va badiiy ijod falsafasi kabi sinonimlar ishlatiladi. Estetika o'z tarkibida san'at, tabiat, texnika, dizayn, sport, turmush va atrof-muhitni go'zallashtirish kabi sohalarni qamrab oladi. Estetikaning tadqiqot obyekti sifatida san'at alohida o'ringa ega bo'lib, qadimdan hozirgi kungacha bu soha eng ko'p tadqiq etilgan. Estetika san'atshunoslikdan farqli o'laroq, falsafiy-nazariy yondashuvni taklif etadi.

Estetik madaniyat ilmiy ijodning estetik tomonini tashkil etadi va ilmiy faoliyatda yordamchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Bir qator ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyati uning estetik madaniyatiga bevosita bog'liq[2]. Olimning estetik madaniyati deganda uning estetik his-tuyg'usi, ilmiy fikrlash darajasi va ko'rgazmali ramziy tasavvurlarni hosil qilish qobiliyati tushuniladi.

Estetik madaniyat, shuningdek, jamiyatning san'at va go'zallikka bo'lgan munosabati, estetik qadriyatlarni idrok etish qobiliyati va ularga hurmat bilan baholashni aks ettiradi[9]. Bunday madaniyat jamiyatning badiiy va madaniy boyligini, shuningdek, uning estetik axloqini ko'rsatadi. Jamiyatning estetik madaniyati san'at asarlari, me'moriy inshootlar va boshqa badiiy ifodalar orqali ham namoyon bo'ladi[3].

Estetika, shuningdek, san'at va go'zallikni idrok etishning inson hayoti uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. San'at va estetika jamiyatning ruhini va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi, deb hisoblanadi. Shu bois, jamiyatda estetik mentalitetni rivojlantirish va saqlash madaniy-ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Estetik jamiyatda san'at va go'zallik har bir sohada birinchi o'rinda turadi, turli san'at asarlari esa jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oladi[8]. Estetik sivilizatsiya jamiyatda san'atga qiziqishni oshiradigan muhitni yaratishni talab qiladi.

Shu bilan birga, estetik bilimlarni rivojlantirishda o'quvchilarning badiiy faoliyatda ishtirok etishlari, estetik kurslar tashkil etishlari, san'at asarlari bilan tanishish imkoniyatlarini yaratish va ularning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega[4]. Bu orqali o'quvchilarning estetik didini shakllantirish va san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin bo'ladi. Estetika, falsafaning go'zallik, san'at va idrok masalalari bilan bog'liq bo'lgan bo'limidir. Estetikaning asosiy boshlang'ich nuqtasi go'zallik va uning san'atdagi hamda hayotdagi rolini o'rganishdan iboratdir. Bu fan, estetik idrok, subyektiv did, muhitning ta'siri, san'at va estetik ifodaning xususiyatlarini ham o'rganadi. Bundan tashqari, estetika san'at va go'zallikning jamiyatdagi o'rni, inson va uning dunyoni idrok etishiga ta'sirini ham tadqiq etadi[5].

Estetika, falsafaning axloq, metafizika va gnoseologiya kabi sohalari bilan, shuningdek, adabiyot nazariyasi, tasviriy san'at va musiqa kabi gumanistik va badiiy fanlar bilan kesishib ketadi. Estetikaning muhim tushunchalaridan biri

“estetikada yo‘q” tushunchasidir, chunki estetika go‘zallikning yagona va umume’tirof etilgan mezonini belgilay olmaydi. Aksincha, u turli xil va subyektiv masalalar bilan shug‘ullanadi[6].

Insonlarning estetik madaniyatliligini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

-estetik bilimlarning shakllanganligi;

-estetik madaniyatning yuqori darajada tarbiyalanganligi;

-estetik va madaniy merosning namunalari bilan tanishligi;

-estetik tuyg‘ularning rivojlanishi;

-ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini idrok etish;

-go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojning rivojlanishi;

-estetik g‘oyalar va qarashlarning shakllanishi.

Insonning estetik madaniyatini rivojlantirishda tarbiya muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoni estetik madaniyatni oshirish uchun zarur bo‘lgan ichki aloqalar va munosabatlarni ifodalaydi va bu jarayon aniq qonuniyatlarga asoslanadi. Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda ularning axloqiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, jamiyatga foyda keltiradigan xulqiy normaga mos keladigan talablarni rivojlantirish maqsad qilib qo‘yiladi[7]. Bunga erishish uchun o‘quvchilarga tizimli va muntazam ta’sir ko‘rsatish, ularning dunyoqarashi, ongiga va irodasiga yo‘naltirilgan ta’sir o‘tkaziladi.

Maqolada madaniyat va san’atning jamiyatdagi o‘rni, ularning insonlar estetik didining shakllanishiga va ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga qanday ta’sir qilishini tahlil qilindi. Estetik didning rivojlanishi, san’at asarlari va madaniy tadbirlarga bo‘lgan munosabat, shuningdek, san’atning ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli muhim jihatlar sifatida ko‘rib chiqildi.

XULOSA. Maqola shuni ko‘rsatdiki, san’at va madaniyat jamiyatda estetik qadriyatlarni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Madaniy tadbirlar va san’at asarlari o‘zining estetik ifodasi orqali insonlarning go‘zallik va san’atga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartiradi, estetik didni shakllantiradi va jamiyatning madaniy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, estetik didning rivojlanishi ijtimoiy hayotda go‘zallik va ma’naviyatni ulug‘lashga, jamiyatning axloqiy va estetik qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadi, madaniy tadbirlar va san’atning ijtimoiy muhitga ta’siri, shuningdek, estetik didni rivojlantirish jarayoni, madaniyat va san’atni jamiyatdagi har bir qatlamga yetkazish orqali yanada samarali bo‘ladi. Maqola estetik ta’sirning nafaqat san’atga, balki ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ham qanday ta’sir o‘tkazishini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston, 2017.
3. M.Ochilov. O‘qituvchi odobi. T. 1997 yil.
4. V.Karimova. Pedagogika. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2008-yil.
5. Sh.Qurbonov. Ta’limning yangi qadriyatlari. Ma’rifat, 25 sentabr 1999 y.
6. Rizayev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 58-64.
7. Mavlyanovna A.M. Artistic Creativity as a phenomenon of culture and spirituality (axiological approach) //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 10-14.
8. Usmonov F.N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – C. 31-33.
9. Xaltuxtashevich M.K., Gafforovich O.O. The Issue of Human-Moral Virtues in the Philosophy of Abu Nasr Farabi. – 2024.
10. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 81-2

XORAZM VILOYATIDAGI O‘G‘UZ SHEVALARI GASTRONOMIK LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOT MANBALARI

Bobojanova Shoira Yo‘ldoshevna, Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

SOURCES OF HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE GASTRONOMIC LEXICON OF THE OGHUZ DIALECTS OF THE KHOREZM REGION

Bobojanova Shoira Yuldoshevna, independent researcher at the Department of “Uzbek Linguistics” of Urgench State University

ИСТОКИ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ ОГУЗСКИХ ГОВОРОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Шоира Юлдошевна Бободжанова, независимый исследователь кафедры узбекского языкознания Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0000-7630-1887

e-mail: bobojanovashoira83@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi o‘g‘uz shevalari gastronomik leksikasining tarixiy manbalari, o‘ziga xosliklari, til xususiyatlari va madaniy kontekstlari haqida tushunchalar va gastronomik leksikaga turli misollar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Gastronom, gastronomik leksika, glyutonim, semiotik, leksik, semantik, tarixiy-etimologik, lahja, leksema.*

Abstract*: This article provides insights into the historical sources, peculiarities, linguistic features and cultural contexts of the gastronomic lexicon of the Oghuz dialects of the Khorezm region, as well as various examples of the gastronomic lexicon.*

Key words*: gastronome, gastronomic lexicon, gluttony, semiotic, lexical, semantic, historical-etymological, dialect, lexeme.*

Аннотация: *В данной статье даются сведения об исторических истоках, особенностях, языковых особенностях и культурных контекстах гастрономической лексики огузских диалектов Хорезмской области, а также различные примеры гастрономической лексики.*

Ключевые слова*: гастроном, гастрономическая лексика, глютоним, семиотический, лексический, семантический, историко-этимологический, диалект, лексема.*

KIRISH. Xorazm viloyatidagi o‘g‘uz shevalarining boy gastronomik leksikasi o‘zining uzoq tarixiy ildizlariga ega bo‘ib, har bir xalqning o‘ziga xos oziq-ovqat nomlari bor. Misol uchun, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholining turish-turmushida o‘ziga xoslik bo‘lsa, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xalqning ham o‘ziga xos oziq-ovqat nomlari mavjud. Bu holat hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Qolaversa, hozirgi davrga qadar ham har bir sheva vakillarining taomnomasi mavjud. Dunyo tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri tilning muayyan qatlamlarida uchraydigan gastronomik leksikaning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Xorazm xalqi, uning boy madaniy merosi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xususan, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da diniy marosimlar, afsonaviy qahramonlar va geografik ma’lumotlar bilan bir qatorda gastronomik leksika haqida ham ma’lumotlar keltrib o‘tilgan. “Avesto”da keltirilgan gastronomik so‘zlar asosan diniy marosimlar va qahramonlik afsonalari bilan bog‘liq. Masalan, Yasna qismida diniy marosimlar uchun tayyorlanadigan taomlar va ichimliklar haqida ma’lumotlar mavjud: Zavr – “Avesto”da “*zavsra”*,

pahlaviy va forsiyda – "*zavhar", "zavr*" kabi. Sut, havm kabi ichimlik yoxud suyuqliklar bilan o'tkaziladigan nazr-niyoz, ziyofatlar marosimi[1,-B.318]. Sanalgan taom ushbu marosimda qattiq taomlar bilan bir qatorga qo'yilgan, ya'ni asosan suyuq taomlar bilan o'tkaziladigan zavr tadbirida suyuq bo'lmagan taomlar ham ishtirok etgan. Avestoshunos Bahor yozadi: *"Drvana*" – supra va non bo'lib zardushtiylarning diniy marosimlaridagi vositalardan biri sanalgan[1,-B.320]. Xoh kichik, xoh katta bo'lsin bug'doy unidan tayyorlangan bu non – drvana jahon ustuvorligining ramzi hisoblangan. *Miyazda* – pahlaviy tilida *"mizd"*. Non, go'sht va meva kabi zardushtiylar marosimida ishlatiladigan qattiq taomlar nomi kabi.

O'rni kelganda qadimgi manbalarga, xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi gastronomik so'zlarni qayd qilib o'tish lozim: *bishig' ash* – pishgan osh; bu so'z har bir pishgan narsaga qo'llaniladi[2,-B.353]. Bundan tashqari asarda oziq-ovqat nomlari ham qo'llanilgan; *azuqluq* – oziqlik, ovqatlik, taom ma'nosida ishlatilgan so'zlar uchraydi[2,-B.166]; *Ajran* (ayron) – chanqoqni bosuvchi ichimlik ma'nosida ishlatilgan so'zlar uchraydi[2,-B.142]. Shuningdek, Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asarining فصل مابة **fasli mehmoniy**- mehmondorchilik fasli qismida gastronomik leksikaga alohida to'xtalib o'tgan; asarda aholi orasida sevib iste'mol qilinadigan taom – sho'rvaning turli xil nomda atalishi, misol uchun مرقة *maraqa, maraq*[3,-B.335], *shurboj*[3,-B.336] kabi taom nomlari uchraydi. Agar Alisher Navoiy asarlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, uning asarlarida ham gastronomik leksikaga oid bir qancha leksemalarni uchratishimiz mumkin. Adibning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shunday so'zlar uchraydiki, bu so'zlar Xorazm viloyatidagi o'g'uz shevalariga yaqinligi bilan ajralib turadi: *bulomog'* بولاهاغ bulamiq ovqat nomi: *Sortlor bulomog'ni turkcha ayturlar*[4,-B.135] kabi.

O'zbek tili pazandachilik leksikasini tadqiq qilgan N.Ikromova, asosan, Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o'z tadqiqotiga kiritib o'tgan. N.Ikromova ishida o'zbek pazandachilk leksikasini tarixiy-etimologik va leksik-semantik, grammatik jihatdan tadqiq qilgan. K.Mahmudov "O'zbek pazandachiligi", B.Do'stjanovlar "Xorazm taomlari" haqida o'zlarining tadqiqot ishlarida bir qancha fikrlarni bildirganlar.

Tilshunoslikda Xorazm o'g'uz shevalaridagi gastronomik leksika maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Chunki F.Abdullayev, A.Ishayev, O.Madrahimov, E.O'razov kabi olimlar tomonidan tuzilgan Xorazm shevalariga oid lug'atlardan o'rin olgan mazkur tizimga oid ayrim so'zlarlarning qo'llanish doirasi ancha toraygan. Xususan, O.Madrahimovning "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi" [5,-B.189] kitobining lug'at qismida oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi 35 ta so'z berilgan. Bu so'zlar tadqiq qilinayotgan mavzuni yoritishda ahamiyatlidir. Galdagi vazifalardan biri ushbu lug'atdagi materiallarni boyitish, xususan, oziq-ovqat nomlarining sheva vakillari nutqidagi uslubiy vazifalarini belgilashdan iborat deb hisoblaymiz. Jumladan, asarda *süzmä* so'ziga adabiy tilda qatiqdan suzib olingan narsa, suzma qurt ham bo'ladi. Ammo shevada palovning bir turi – katta to'ylarda pishiriladigan taom nomi sifatida ham qaraladi. Adabiy tildagi suzmaning ma'nosi shevada *chäki:dä* so'zi bilan ifodalanadi[5,-B.57]. Bu hududda yashagan xalqlarning oziq-ovqat madaniyati va so'z boyligi uzoq tarix davomida shakllanib borgan va rivojlangan. Quyida Xorazm o'g'uz shevalaridagi gastronomik leksikaning tarixiy taraqqiyot manbalari haqida asosiy nuqtalarni keltirib o'tamiz:

1. Etnik va tarixiy asoslar. Xorazm hududi qadimdan turli etnik guruhlar, jumladan, o'g'uz qabilalari yashagan hudud bo'lgan. O'g'uzlarning hayoti va madaniyati ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarziga asoslangan bo'lib, bu ularning gastronomik leksikasida o'z ifodasini topgan, go'sht mahsulotlatlari: o'g'uzlar ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganligi sababli qo'y go'shti, qazi-qarta kabi mahsulotlar bilan bog'liq taomlar keng tarqalgan: *kävap* – go'shtni yog'da qovurib tayyorlanadigan taom; *ijjän* – go'sht bilan piyozni aralashtirib, mayda qilib chopib tayyorlanadigan taom.

2. Geografik joylashuv va tabiiy resurslar. Xorazm hududida daryo (Amudaryo) va sug'orma dehqonchilikning rivojlanganligi tufayli sabzabot va don mahsulotlariga asoslangan oshxona madaniyati rivoj topgan: guruch bilan tayyorlanadigan *palav, shö:lä, sütbirinch* kabi taomlarning paydo bo'lishi sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq bo'lib qolgan. Oziq-ovqat nomlaridan eng ko'p ishlatiladigani bu osh leksemasidir. Bu leksema ham dastlab "*ovqat", "yemak"* ma'nosini bildirgan, keyinchalik esa ayrim

shevalarda ma'no torayishiga uchrab, palov ma'nosidagina ishlatiladigan bo'lib qolgan.

3. Mahalliy taomlar va ularning nomlanishi. Xorazm aholisi o'ziga xos taomlari bilan mashhur bo'lib, ularning nomlanishi ko'pincha bu taomlarning tarkibi yoki tayyorlash usuliga asoslanadi: *shüvit a:shi* – ko'katlardan xamir qilib tayyorlanadigan taom. Bu taomdan tashqari ko'katlardan tayyorlanadigan *ismalaq bä:räk* – sabzavotlardan tayyorlanadigan taom. Bu taomning turlari juda ko'p: *gök bä:räk, yimirtaväräk, qötir bä:räk , ildirmä* kabi turlari ham bor; *dög'rama* – go'sht va boshqa mahsulotlar mayda to'g'ralib tayyorlanadigan taom;

4. Ijtimoiy va madaniy ta'sirlar: O'g'uz shevalarining gastronomik leksikasi tarixda turli madaniyatlar bilan aloqalar natijasida boyigan. Xalqlarning gastronomik diskursining shakllanishiga din ham o'z o'rnida yetarlicha ta'sir ko'rsatgan, chunki din u yoki bu oziq-ovqat mahsulotlariga cheklovlar qo'ygan, yoki aksincha ba'zi mahsulotlar iste'moliga da'vat qilgan. Bu esa o'z navbatida millatning gastronomik leksikasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Misol tariqasida, musulmonlarning cho'chqa go'shtini iste'mol qilmasligi, yoki buddistlarning mol go'shtini yemasliklari, rus xalqining Maslenitsa bayramida esa quymoqni (блины) yeyishga da'vat qilinishi kabi odatlarni shakllantirgan[6,-B.5-20].

Fors va arab tillari ta'siri. Xorazm o'g'uz shevalaridagi gastronomik leksikaga fors va arab tillarining ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Bu so'zlar asosan diniy, madaniy va kundalik hayot bilan bog'liq holda rivojlanib borgan. Asosan, tarixiy savdo va madaniy aloqalar natijasida fors va arab tillaridan kirib kelgan so'zlar: taom nomlari: *kävap, palav, mästava*, go'sht, baliq, non, choy, sabzavot, shirinlik va boshqalar; oshxona anjomlari: *qazan, tavox, pichaq, qashiq, ashxana* va boshqalar; oziq-ovqat mahsulotlari:*burunch,bug'doy,zira,zaytun* v.b.

Boshqa turkiy tillar ta'siri: Xorazm o'g'uz shevalarining gastronomik leksikasi boshqa turkiy tillar, jumladan, o'zbek, qozoq, turkman va boshqa tillarning ta'siri ostida shakllangan murakkab til qatlamlarini oz ichiga oladi. Xorazm o'g'uz shevalarida qoraqalpoq va qozoq tillaridan kirgan chorvachilik mahsulotlariga oid so'zlar keng tarqalgan. Masalan: *qimiz* – sutli ichimlik, qipchoq tillaridan kirgan, *shubat* – tuya sutidan tayyorlangan ichimlik kabi.

5. Adabiyot va yozma manbalar. Qadimgi yozma manbalar, masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'g'uz shevasiga oid ba'zi gastronomik leksemalar uchraydi. Bu leksemalar o'sha davrdagi turkiy xalqlarning oziq-ovqat madaniyati haqida ma'lumot berib o'tadi. Masalan: *qurt* – quruq suzma, *yog'liq* – yog'li taom yoki mahsulot, *bo'zqoq* – o'g'uz shevalaridagi bo'z rangli qatiq yoki bo'tqa, *sug'ut* – suzma, *mün* – sho'rva kabi oziq-ovqat nomlari uchraydi.

6. Xalq og'zaki ijodi. Xalq og'zaki ijodida gastronomik leksika juda boy va rang-barangdir. Xalq qo'shiqlari, maqollari va ertaklarida taomlarga oid so'zlarning ishlatilishi ham gastronomik leksikaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Masalan: xalq qo'shiqlaridan namuna keltirib o'tamiz:

Boqqig'a baqilg'ang'ina,
Qassobda söyilg'ang'ina,
Chopqida chopilg'ang'ina,
Ijjän yeyäsim gäldi.

XULOSA. Xorazm o'g'uz shevalaridagi gastronomik leksika uzoq tarix davomida mahalliy-tabiiy sharoit, o'g'uz qabilalarining turmush tarzi, boshqa xalqlar bilan aloqalar va milliy madaniyatning boyligi asosida shakllanib borgan. Bu leksika bugungi kunda ham o'zining boy va o'ziga xos qiyofasini saqlab, shakllanib kelmoqda. Turli xalqlarning gastronomik leksikasi o'ziga xosliklari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ularga ta'sir qiluvchi omillar (iqlim, din, turg'unlashgan an'analar, qoidalar va iqtisodiy omillar) bu xususiyatlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Insonning oziq-ovqatiga bir nigoh tashlashning o'ziyoq u nimani tanovul qilishi, qaysi dinga taalluqliligi, qanday hayot tarzi olib borishi haqida aniq tasavvurlar hosil qilishga imkoniyat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. А.Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.
2. М.Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: 1960.
3. М.Замахшарий Муқаддимат ул-адаб. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2018.
4. Шамсиев П. Иброхимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: 1972.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Луғат. –Тошкент: Фан, 1973.
6. Карасик В.И. О типах дискурса//Языковая личность: институционалный и персоналный дискурс: сб.науч.ст. - Волгоград, 2000.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 908

XIVA XONLIGI BOZOR INFRASTRUKTURASIDA HUNARMANDCHILIK DO‘KONLARINING O‘RNI

Ruzmetova Oydinoy Erkinboy qizi, UrDU tayanch doktorant

THE PLACE OF CRAFTSMANSHIP SHOPS IN THE MARKET INFRASTRUCTURE IN THE KHIVA KHANATE

Ruzmetova Oydinoy Erkinboy kizi, PhD student at UrDU

МЕСТО РЕМЕСЛЕННЫХ МАСТЕРСКИХ В РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

Рузметова Ойдиной Эркинбой кызы, базовый докторант Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0009-3063-047X
e-mail: ruzmetova.oydinoy@inbox.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrda Xiva xonligida mavjud hunarmandchilikning ahvoli, hunarmandlar faoliyati va shu bilan birga ustaxona-do‘konlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, hunarmandchilikning turlari, hunarmandlarning alohida mahallalari, ichki va tashqi savdo uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarning bozorlarda sotilishi va xalqning ijtimoiy hayoti, kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo‘ladigan turlari to‘g‘risidagi masalalar qayd etiladi.*

Kalit so’zlar: *hunarmandlar, do‘kon-ustaxonalar, bozor kunlari, Xiva arxiv hujjatlari, mahalla, kalontar, choybozor.*

Annotation: *This article discusses the state of handicrafts in the Khiva Khanate in the 19th century, the activities of artisans, and provides information about workshops and shops. It also addresses the types of handicrafts, the specific neighborhoods of artisans, the sale of goods necessary for internal and external trade in markets, as well as issues related to the social life of the people and the types of goods needed for their daily needs.*

Keywords: *Artisans, workshop-shops, market days, Khiva archival documents, neighborhood, kalontar, tea market.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается состояние ремесел в Хивинском ханстве в XIX веке, деятельность ремесленников и информация о мастерских-лавках. Также обсуждаются виды ремесел, отдельные районы ремесленников, продажа товаров, необходимых для внутренней и внешней торговли, на рынках, а также вопросы, касающиеся социальной жизни народа и его повседневных нужд.*

Ключевые слова: *ремесленники, мастерские-лавки, рыночные дни, архивные документы Хивы, махалля, калонтар, чай-базар.*

KIRISH. Hozirgi kunda bozorlar, do‘konlar, market yoki supermarketlar aholi hayotining ajralmas va zarur qismiga aylangan. Ularni turli hududlarda, chekka qishloq hududlarida, aniqroq qilib aytganda, inson qadami bor joyda uchratishimiz mumkin. Savdo tuzilmalarining tuzilishiga qarasak, bir tizimga solingan mahsulotlar alohida rastalarda joylashganligini ko‘ramiz. Albatta do‘konlar, katta savdo majmualarining joyi o‘zgarmasligi mumkin. Ammo, alohida bir tarmoq bo‘lib joylashgan bozorlar ma’lum bir hududga ko‘chishi yoki kengayishi mumkin. Ko‘ptarmoqli bozorlar aslida umumiy bozorlar hisoblanadi. Hunarmandchilik savdo bilan bog‘liq faoliyat turidir. Hunarmandlar o‘z mahsulotlarini bozorlarda yoki o‘zlari tashkil qilgan do‘konlarda sotadilar. Xo‘sh, XIX asrda ham shunday edimi? Xiva xonligi hayotida bozorlar, umuman olganda hunarmandchilik do‘konlarining ahamiyati qanday edi? Aholining ushbu do‘kon mahsulotlariga ehtiyoji baland edimi? Bu davrda savdogarlar o‘zi kimlar edi? Bozorlarning joylashuvi va o‘tkazilishida qanday farqlar mavjud? Bu tadqiqotimiz ana shunday savollarga javob izlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR. Xiva xonligi XVIII asrning oxiri va XIX asrda Xiva xonligi hunarmandchilik do‘konlari va savdo-hunarmandchilik tizimi haqida o‘z ma’lumotlarini mahalliy tarixchilardan tashqari, rus elchilaridan **N.Muravyov, G.I.Danilevskiy, Girshfeld, Galkin,** sovet davrida xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘rgangan **A.Abdurasulov, M.Otajonov,** Xiva xonligi arxivini yig‘gan **P.Ivanovlar,** shuningdek mustaqillik davrida hunarmandchilik tarixini o‘rgangan **S.Turayeva**lar asarlari katta yordam beradi. Bu tadqiqotni qilishda Xiva xonligidagi hunarmandchilik do‘konlarining tashkiliy va iqtisodiy tuzilmasini, hunarmandchilik do‘konlari qanday ishlaganini, ular qaysi hunar sohalariga ixtisoslashganini va o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga qanday moslashganini **maqsadli tahlil,** hunarmandchilik do‘konlarining ijtimoiy roli haqida, do‘konlarning ijtimoiy strukturalar va umuman, xalqning turmush tarziga qanday ta’sir ko‘rsatganini **sotsiologik yondashuv tahlilidan va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.**

MUHOKAMA. Hunarmandchilik va savdo haqida gapirar ekanmiz, avvalo bu tizimning ishlashi uchun shart-sharoit zarurdir. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida sug‘orish inshootlarining qurilishi xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab berdi. Yangi sug‘orish tarmoqlarining ko‘payishi shaharlar mavqeyini tiklab, hunarmandchilik va savdo markazlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Xivada XIX asr boshlarida hunarmandchilik shahar aholisi o‘rtasida tabaqalashgandi. Tayyorlangan mahsulotlar asosan, shahar bozorlarida sotilardi.

Hunarmandchilikka to‘xtalgan ekanmiz, bevosita hunarmandlar ichida XIX asr oxiri XX asr boshida eng mashhurlari metallarni qayta ishlovchilar bo‘lgan. Sababi bu davr qishloq xo‘jaligida va maishiy hayotda ham bunday buyumlarga ehtiyoj baland bo‘lgan. Masalan, temirchilar ish qurollarini yasashgan bo‘lsa, taqa, qulf, pichoq, mix, igna kabilarni yasovchilarning ham bozori chaqqon bo‘lgan.

Metallni qayta ishlovchilardan keyingi o‘rinda turuvchi yo‘g‘ochni qayta ishlovchi hunarmandlar hisoblangan. Odatda, duradgorlarning ustaxonalari shaharlar markazida, bozorlarda joylashar va ularda aholining buyurtmasi asosida ham “sandiqlar, eshiklar, beshiklar” va boshqa narsalar yasab berilar edi.

Shahar aholisining ko‘pchiligi paxtani qayta ishlash va mato to‘qish bilan hayot kechirishgan. Ular ip tayyorlash, to‘qish, tayyor matolarni qayta ishlash kabilarni bajarganlar. Bo‘zchilarning do‘konlari odatda o‘z uyida joylashgan. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra bo‘zchi do‘konlarining soni 17ta deb ko‘rsatilgan. Xonlikda chitgarlik bilan shug‘ullanuvchilar alohida mahallalarda yashaganlar. XIX asrning 70-yillarida Xiva shahrining Nurullo chitgar mahallasida 120 xonadon yashagan bo‘lib, ular o‘z bozori chorsusiga ega bo‘lgan va asosan chit ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan[1.51]. Xiva davlat hujjatlaridan birida Husayn binni Eshniyoz chitgarning nomi eslatib o‘tilishi buni tasdiqlaydi.

Xiva hunarmandchiligi turlaridan biri bu bo‘yoqchilik hisoblanib, asosiy bo‘yoq olinadigan o‘simlik turi bu ro‘yan edi. Bu bo‘yoq qizil rangli bo‘lib, jun va paxta tolali matolarni bo‘yashda qo‘llanilgan. Bu bo‘yoqning mashhurligi u bilan savdo qiladigan savdogarlarning shakllanishiga olib kelgan. Shunday shaxslardan biri, Otajon Ro‘yanfurush Xiva qozilik hujjatlarining birida tilga

olinadi[2.148]. Bu bo‘yoq asosan tashqi savdo orqali boshqa hududlarga ham yetkazilgan. XIX asrning 60-yillarida Xivada 47 kishi bo‘yoqchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan[3.139]. Ko‘pchilik hollarda bo‘yoqchilar to‘quvchilar yoki ipak bilan savdo olib boruvchi mahalliy savdogarlar buyurtmasi asosida ish olib borganlar.

XIX asrning 40-yillaridan boshlab, xonlikda yangi bosh kiyim – cho‘girma rasm bo‘la boshladi. Xorazmliklar bungacha asosan telpak kiyishgan. Hunarmandlarning bosh kiyimlari alohida tur sifatida o‘z bozoriga ham ega bo‘lgan. Shunday bozorlardan biri XIX asr 70-yillariga oid vaqfnomalardan birida “Muhammad Rizo Xo‘ja vaqf qilgan mol-mulklar tarkibidagi 9 ta qalpoq sotadigan bozordagi ayvoncha” ma’lumotlari uchraydi[13.5]. Xonlikda po‘stindozlik ham mavjud bo‘lib, hunarmandlar har xil terilardan ishlab chiqarganlar. 1874-yil po‘stindo‘zlar kalontari Nurmuhammad mamlakatdagi tutqunlikdagi qullar ozod qilinganidan keyin po‘stin bozori kasod bo‘lganligini ma’lum qilib, po‘stin bozoridagi hunarmandlardan olinadigan soliq miqdorini kamaytirishini so‘rab xonga arz qilgan[4.38a]. Ko‘nchi ustalar ham alohida joylashgan bo‘lib, bozorga mahsulot ishlab chiqarish bilan birga buyurtma asosida ham ishlaganlar.

G.I.Danilevskiy asarida Xiva xonligidagi savdo-hunarmandchilik markazlarini tasvirlash barobarida shaharlardagi hunarmandchilik do‘kon-ustaxonalardan olinadigan soliqlar va hunarmandchilikning boshqa sohalari haqida ma’lumot bergan. Shuningdek, u xonlikdagi hunarmandchilik va savdo markazlari sonini 29 ta, A.Vamberi shaharlar sonini 32 ta deb ko‘rsatgan.

S.Turayeva o‘z tadqiqotida hunarmandchilik kasblarini uch guruhga bo‘lib ko‘rsatadi. Birinchisi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ikkinchisi, turmushda aholining turli tabaqa vakillariga xizmat ko‘rsatuvchi kasblar va uchinchisi, o‘z faoliyati bilan hunarmandlarni savdo ahli bilan bog‘lagan kasb egalaridir[5.44].

Xonlik hududida qurol-aslaha ishlab chiqarish ham rivojlangan bo‘lib, asosan kundalik ehtiyojlar uchun kerak bo‘ladigan metall asboblar bo‘lgan. 1854-yilgi voqealarni eslab Sayid Homid To‘ra Kamyob askarlar “Temirchi do‘konida pichoqlarini charxlatib” olganligini yozgan[6.143a]. Bundan anglashiladiki, temirchilar o‘z ustaxona-do‘konida faoliyat yuritgan. XIX asr 60-yillarida Xivada 7 ta pozachi do‘kon-ustaxonasi, 38 ta misgar, 6 ta pichoqchi kishi, 22 ta qulfgar faoliyat ko‘rsatgan[3.138].

Xonlikda porox bilan ham faol savdo amalga oshirilgan bo‘lib, u asosan, Ileyali, Ko‘hna Urganch va Oqtepa bozorlarida sotilgan[7.193]. M.Ivanin “Xivaliklar poroxni o‘zlari tayyorlaydilar va uni bozorlarda sotadilar”, deb qayd etadi. Hunarmandchilik sohalaridan yana biri sovun ishlab chiqarish edi. Sovungarlar mahsulotiga aholi o‘rtasida talab katta edi. Shaharlarda sovun ishlab chiqarishga doir ayrim ma’lumotlar Xiva xonligiga taalluqlidir. XIX asr boshlarida N.Muravyov, “Xivada yana shunday hunarmandchilik turi borki, uni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu Xivadan sovun olib ketish. Xiva sovuni Sharqda o‘zining sifati va odatdan tashqari arzonligi bilan mashhurdir”, deb qayd etadi[8.219].

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish alohida tarmoq sifatida ajralgan bo‘lib bu mahsulotlar nafaqat bozor uchun, balki saroydagilar iste’moli uchun ham ishlab chiqarilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari ko‘pincha ular sotiladigan bozor nomi bilan atalgan bo‘lib, masalan, g‘alla bozor, nonbozor, choybozor kabi. 1854-yilgi Oldi-sotdi shartnomalaridan birida Odamboy o‘g‘li Abdulloh boy ismli shaxs Yoqub hoji degan kimsaga Xivaning “choybozor”idagi bir usti bostirilgan xona va choy sotadigan do‘konchani 5 Xorazm tillosiga sotganligi qayd etiladi[2.37]. Boshqa bir ma’lumotlarga ko‘ra “Dil-i g‘aroyib” asarida qayd etilishicha, “Xivaning bozorlar joyisi ziyoda tang va tordur. Qal’aning sharqisinda tahminan 5-6 tanob ko‘l bor erdi. Olloqulixon farmoyishi ila fuqaro jamoasi 45 kunda ko‘mib, bozor joyi qildilar. Qadimda bu joyda bir bog‘ bor edi. Turli daraxtlar va turli mevali daraxtlar bor edi. Ondin bir gujum qolg‘on ekan. Bu ham qurubdir. Oning tagi g‘alla bozor erur. Xalo baqqol jamoasi va baliq pishiradurlar. Tomonlar do‘kon qilub o‘tirurlar va oshpazlar ham do‘kon qilubdirlar”[9.200a], - deb yozadi Xudayberdi ibn Qo‘shmuhammad.

Nonvoyxonalar kasb egalarining uyida joylashgan bo‘lib, unda nonvoylar yakka tartibdagi buyurtmalarni bajarishar va bozorlarda sotish uchun non yopishardi. XIX asr o‘rtalarida Xivada bo‘lgan rus savdogari Abrosimov xivaliklarning “cho‘raki” katta non bo‘lib, u Xiva bozorida 5 tangaga sotilishi haqida ma’lumot bergan[10.31]. Nonvoylar o‘z nonvoyxonalarini iloji boricha bozor hududiga yaqin

yerda joylashtirishga harakat qilganlar. Lekin buning har doim ham iloji topilmagan. Sababi non yopish va sotish uchun bozor hududidan joy ijaraga olish kerak bo‘lgan. Nonvoylar bozorda qizg‘in savdoni amlaga oshirganlar. 1873-yilgi xotiralardan birida “Xivaliklar bozorga arava to‘la unlar, sabzavotlar, tovuq, qo‘y, laliga (katta lagan)ga solib, yangi yopilgan nonlarni, o‘rik, gurunch, qand, choy va ko‘p miqdorda oq tut mevalarini sotishga olib chiqqanligi eslatib o‘tiladi[11.132]. Bu davrda Xiva shahrida 18 ta kishi nonvoylik qilgan. Shuningdek, Xiva bozorlarida faoliyat yuritgan oshpazlar, kallapazlar, baliqpazlarning ham soni 18 ta deb ko‘rsatilgan.

Xonlikda barcha hunarmandchilik turlaridan qat’i nazar, ularning tepasida kalontarlar turgan. Ularning vazifasiga nafaqat hunarmandlar ishlab chiqarishi, balki boshqa shahar va xorij bilan olib boradigan savdo-sotiq munosabatlarini nazorat qilib, karvonboshilarga yordamchi bo‘lishgan. Shuni ta’kidlash joizki, hunarmandlar o‘z do‘konlarini ochishdan oldin ba’zi bir odatlarni, ya’ni “pir arvohi” an’anasini o‘tkazganlar. Masalan, yangi bir do‘kondor choy sotadigan do‘kon ochmoqchi bo‘lsa, 9 ta non va uzum olib kelib, kalontar va 2-3 qariyani chaqirib fotiha olib, keyin choy sotishga mo‘ljallangan o‘z do‘konini ochishi mumkin bo‘lgan. Agar bu udum bajarilmasa kalontarlar do‘kon ochishga ruxsat bermaganlar.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, hunarmandlar o‘z mahsulotlarini ustaxonalari qoshidagi do‘konlarida sotganlar. Do‘koni bo‘lmaganlar mahsulotlarini bozorda sotish uchun kimningdir do‘koni, savdo ayvonchalariga ijaraga joylashtirganlar. Xususan, G.I.Danilevskiy xonlik shaharlaridagi do‘konlar statistikasini keltirgan. Bog‘ot shahrida esa do‘konlar soni 70 tagacha, Gurlanda 66 ta do‘kon, Qilich Niyozbiy shahrida 100 ta do‘kon, Xitoy shahrida 25 ta do‘kon, Qipchoqda 70 ta do‘kon, Ko‘hna Urganchda 75 ta do‘kon, Qiyot shahrida 40 ta do‘kon, Mang‘itda 40 ta do‘kon, Yangi Urganchda 320 ta do‘kon, Toshhovuzda 180 ta, Xonqada 85 ta do‘kon, Shohobodda 100 ta do‘kon, Qo‘ng‘irot shahrida 315 ta, Xiva shahrining o‘zida esa 260 ta do‘kon va karvonsaroyda 46 ta do‘kon joylashgan[12.103-114]. Bir hujjatda XIX asrning o‘rtalarida saroy bozorida o‘z do‘koniga ega bo‘lgan 21 shaxsning ro‘yxati keltirilgan[14.3250].

NATIJA. Xiva hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan keng savdo-sotiq amalga oshirilgan. XIX asrning 60-yillarida Xiva markaziy bozorlarida do‘kon ochib, maxsus yorliq- tagjoy to‘lab turgan hunarmandlar soni 556 ustadan iborat bo‘lib, ular 27 xil kasb-hunar vakillari bo‘lgan[5.187]. Ko‘pchilik hunarmandlarni o‘z do‘koniga ega bo‘lmasa-da tandirchilar, chitgarlar, kulollar uyidan yetkazib berib, xizmat qilganlar. Soliqlarni esa muntazam to‘lab borishgan. Soliq miqdori har bir ustaxona uchun 2,5 tillo “manat puli”, bir tillo “tagjoy”, bir tillog acha “kira haqi”, shuningdek, mahsulotni sotganliklari uchun yiliga bir tillo, bozordagi do‘konlari uchun 7-9 tanga joy puli to‘lashgan[1.67].

Shunday qilib, XVI-XIX asrning o‘rtalarida Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi kabi Xiva xonligi shaharlarida ham turli-tuman hunarmandchilik sohalari mavjud edi. Ularning barchasida aholining kundalik turmushi va ehtiyojlariga hizmat qiluvchi hunar turlari, gazlamalar tikish, kiyim-bosh tikish, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik mahsulotlari, oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarish kabilar rivojlangan edi. Turli hunarmandlar o‘z faoliyatlari bilan shaharlar iqtisodiy hayotining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

XULOSA qilib shuni aytish mumkinki, inqilob davridan keyin bir qancha hunarmadchilik turlari inqirozga yuz tutishiga qaramay, hunarmandchilikning yangi turlari takomillasha bordi. Ular jumlasiga harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunar turlarini kiritish mumkin. XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi o‘zining ip va ipak mahsulotlari bilan dong chiqargan bo‘lsa, XIX asr oxiriga kelib ba’zilari inqirozga uchradi. Bunga Rossiya fabrikalarida to‘qilgan ip gazlamalarning ko‘plab keltirilishi ham ta’sir ko‘rsatdi. XX asr boshlaridan hunarmandchilik qishloq xo‘jaligidan butunlay ajralib chiqdi, pul-tovar munosabatlari to‘la shakllandi. Shuni aytish lozimki, hunarmand bir paytning o‘zida ham usta, ham savdogar edi. O‘z mahsulotlarini o‘zlari bozor belgilagan narxda sotirshardi. Xiva xonligidagi bozorlar bir-biriga yaqin joylashgan hamda aholining gavjumligiga qarab haftada bir kun yoki ikki kun bozor bo‘lgan. Ana shu bozorlar maydonida do‘kondorlar o‘z do‘konlariga ega bo‘lganlar va mahsulot oldi-sotdisi bilan shug‘ullanganlar. Bu davr manbalarida asosan, arxiv manbalari va vaqfnomalar, shuningdek kirim-chiqim hujjatlaridan olingan ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi.

TAMADDUN NURI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурасулов А. Хива.-Тошкент: 1997.
2. Каталог хивинских казийских документов XIX - начало XX вв. – Ташкент – Киото, -2001. Д. - № 453.- № 166.
3. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. Ленинград. 1940.
4. Отажонов М. Хоразм хонлиги тарихига оид материаллардан. – УзРФА ШИ. - № 11664/II – 38а варақ.
5. Тураева С. Хива хонлиги ҳунармандчилик тарихи. -Тошкент: 2017.
6. Сайид Ҳомиджон тўра ибн Сайид Муҳаммадхон Камёб. Таворих ул хавонин. - ЎзР ФА ШИ -№7717 рақамли қўлёзма.
7. Гиршфельд В. А., Галкин А. С. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса.
8. Муравьёв Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. – М, 1822.В. Вельяминов-Зернов В. Сведения о Коканском ханстве. Гейнс А.К. Сборник статей о Средней Азии. – Т.1.
9. УзР ФА ША. Dili g‘aroyib. - № 1335 рақамли қўлёзма.
10. Рассказ торговца Абросимова о поездке его в Хиву // Туркестанские ведемости. 1871. -№ 31.
11. Макь-Гахан. Военные действия на Оксуса и падание Хивы– М., 1875.
12. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. Кн.5. -СПб., 1851.

Arxiv ma’lumotlari:

13. УзР МДА, И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 499-йиғма, 5-ҳужжат.
14. Ичанқальа музей-қўриқхонаси архиви, № 3250-рақамли ҳужжат.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:904

O‘ZBEKISTONDA BRONZA ASRI QISHLOQ MAQOMIDAGI TURAR JOYLARDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR TARIXI

Nurmetov Sardor Baxtiyorovich, Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HISTORY OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT BRONZE AGE VILLAGE SETTLEMENT IN UZBEKISTAN

Nurmetov Sardor Bakhtiyorovich, independent researcher at Urgench State University

ИСТОРИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ПОСЕЛЕНИИ БРОНЗОВОГО ВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Нурметов Сардор Бахтиёрович, независимый научный исследователь Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0009-2460-4734
e-mail: sardornur.7111@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistondagi bronza asri qishloq maqomidagi turar joylarda arxeologik izlanishlar tarixi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turon, Ustyurt, Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryo, Yesen 1, 2, Qoraquduq, Churuk, Ijond, Vaush.*

Аннотация: *В статье рассматривается история археологических исследований поселений эпохи бронзы на территории Узбекистана*

Ключевые слова: *Турон, Устюрт, Чирчик-Охангарон, Фергана, Зарафшан, Кашкадарья, Сурхандарьинская, Нижняя Амударья, Есен 1, 2, Каракудук, Чурук, Иджонд, Вауш.*

Abstract: *The article covers the history of archaeological research at Bronze Age village settlements in Uzbekistan.*

Key words: *Turon, Ustyurt, Chirchik-Ohangaron, Fergana, Zarafshan, Kashkadarya, Surkhandarya, Lower Amudarya, Yesen 1, 2, Karakuduq, Churuk, Ijond, Vaush.*

KIRISH. O‘zbekiston hududining madaniy-xo‘jalik regionida joylashgan turar joylarda keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalar muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat vatanimiz hududidagi madaniy-xo‘jalik markazlarida istiqomat qilgan va o‘troqlashgan aholining bronza davrigacha bo‘lgan tarixini o‘rganish joiz. O‘zbekiston geografik o‘rnining boshqa hududlariga qaraganda qulay geografik kenglikda joylashishi strategik ahamiyatga ega. Geografik adabiyotlarda qayd qilingan ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston hududi tuzilishi tog‘lik va tekislik qismlaridan iborat bo‘lib, ularning joylashish koordinatalari bir-birini takror qilmaydi. Shu ma’noda geografik muhit, iqlim sharoiti, flora va faunasi, daryolarining joylashishi, tabiiy manbalari jihatdan farqlanish xususiyatlari Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryo kabi tarixiy-geografik hududlarida o‘z ma’nosini topgan. P.Baratov xulosasiga ko‘ra, biz yashab kelayotgan hudud tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg‘izistondan tubdan farqlanishi shundaki, hududning 71% tekislikdan iborat bo‘lib, odamzot uchun qulay vodiylar, tog‘ oldi sernam va seunum tekisliklardan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra insoniyatning ilk madaniy izlari Ustyurt, Zarafshon vodiysi shimoli, Toshkent, Farg‘ona vodiylari hamda qo‘shni hududlari, Qozog‘iston janubi, Qirg‘iziston, Janubiy Tojikiston va Turkmanistonning muayyan hududlarida o‘rganilgan. Masalan, O‘zbekistonning shimoliy-g‘arbida joylashgan Ustyurtda olib borilgan dala amaliyoti davrida ro‘y-

xatga olingan Yesen 1, 2, Qoraquduq va Churuk manzigohlarida olib borilgan tekshirish ishlari natijasida (Shoxpaxta havzasida) 5x7m, 10x20m, 50x70 m, 30x150 m, maydonni egallagan madaniy qatlamlardan olingan moddiy ashyolar ashel davri ilk bosqichiga oid bo‘lgan[1,-C.65-68].

1950-yildagi Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Mohandaryo va Xo‘jayli irmoqlarining suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan vujudga kelgan Kichik va Katta tuz konlari atroflarida ko‘p sonli aholi tomonidan qoldirilgan manzilgohlarni ro‘yxatga olgan. Shulardan madaniy qatlamlari yaxshi saqlanib qolgan Darvozaqir – 1, 2 manzilgohlarini tekshirish ishlarini olib borganlar. Bu yerdan topilgan moddiy ashyolar Oqchadaryo havzasida Jonbos – 4 manzilgohidan olingan moddiy ashyolarga aynan o‘xshash bo‘lgan. Bunday ashyolar Uchrashi 131 kulbasi madaniy qatlamidan ham olingan[2,-C.266].

Manzilgohlar madaniy qatlamlaridan olingan moddiy ashyolar miloddan avvalgi VII ming yillik oxiri – III ming yilliklarga mansub bo‘lgan. Shuningdek, neolit davriga mansub yodgorliklar O‘rta Zarafshon hududida topib o‘rganilgan. Misol tariqasida O‘rta Zarafshon vohasida Qoratepa tog‘i etaklari odamlar tomonidan o‘zlashtirilganligi aniqlangan. 1986-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti arxeologiya guruhi xodimlari Sangi-Shohi madaniy qatlamlaridan olingan ashyolar ilk neolit davriga mansub bo‘lgan [3,-C.13-15]. Shu bilan birga, Sazag‘on-II, Jangal, Tepako‘l-3,4,5, Lolab, Qorakamar, Onnakamar, Kichik Quruqsoy-1, Qorakamar-II, Ochilg‘or manzilgohlarida tekshirish ishlari natijasida olingan ashyolar neolit davriga mansub bo‘lgan[4,-C.41-70].

V.M.Massonning Kopetdog‘ etaklarida Joytun, S.A.Yershovning Chopondepe, O.K.Berdiyevning Bami, Togoloktepa manzilgohlarida qazishma ishlari natijasida Qoraqum tepaligiga qurilgan manzilgohlarda paxsa va guvaladan tiklangan, kvadrat tipga ega bo‘lgan 30ta uylar topib o‘rganilgan[5,-C.13-22].

MUHOKAMA. Eneolit davri (miloddan avvalgi 3-ming yillik ikkinchi yarmi) arxeologik izlanishlar natijalariga qaraganda mazkur tarixiy davrda O‘zbekiston madaniy tiplari geografik holatini namoyon qilgan turar joylarda madaniy qatlamlardan olingan manbalar ko‘zga tashlanmaydi. Neolit davri urug‘ jamoalari moslashgan geografik hududda istiqomat qilib etnik jarayonlarni olib borganlar. Bunga geografik sharoit va iqtisodiy omillar imkon bergan. O‘zbekistonning Quyi Amudaryo qismi Sulton Uvays tog‘i shimoli-g‘arbiy hududida Qamishli-1, 2, Sariqamish bo‘yi havzasi Amudaryoning Davdon irmog‘i quyi havzasining janubiy-g‘arbiy hududiga ulanib ketgan Uzboy hududi (Bola – Eshim, Togolok) manzilgohlari madaniy qatlamlaridan neolit davriga oid manbalar olingan[6,-C.258-259].

O‘rta Osiyo mintaqasining Janubiy Turkmaniston Qopetdog‘ oldi etaklarida, Tajan daryosi havzasi atrofi hamda Zarafshon vodiysi shimolida Sarazm qishlog‘i hududida istiqomat qilgan aholi enolit davrida paxsa va to‘g‘ri burchakli xom g‘ishtli turar joylarda amaliy kasb-korlarini olib borganlar. Masalan, B.A.Kufitin Anov yodgorligida qazishma ishlari natijasida eneolit davriga oid ashyolarni olishga muyassar bo‘lgan [7,-C.22-29]. B.A.Litvinskiy Namozgohtepada qazishma ishlarini olib borib ilk, o‘rta va so‘nggi bosqichlarni tarixiy yoritadigan manbalar olgan[8]. Eneolit davrida Namozgohtepa (70 ga.), Oltin (25 ga.), Geoksur – 1 yodgorliklaridan shahar tipini aks ettirgan manbalar olingan [9,- C.100]. Tojikiston Respublikasi Sarazm qishlog‘ida eneolit va ilk bronza davriga mansub bo‘lgan Sarazm qishlog‘ida (100 ga.) o‘troq aholi turar joylarida olib borgan amaliy mashg‘ulotlarini aks ettirgan manbalar topib o‘rganilgan[10,-P.1-12].

NATIJALAR. Bronza davri aholi turar joylarida arxeologik izlanishlar XX asr 50-yillarida O‘zbekiston madaniy-xo‘jaliklarida boshlangan. Masalan XX asr 50-yillaridan boshlab Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari To‘rtko‘l-Beruniy tumanlari hududida olib borilgan arxeologik yodgorliklarni aniqlash maqsadida qidiruv ishlari natijasida ro‘yxatga olingan manzilgohlarda tekshirish ishlarini olib borib eneolit davri aholisining bronza davrida xo‘jalikda olib borgan tarixi qanday kechganligini o‘rganish munosabati bilan tekshirish ishlarini olib borib kutilgan natijalarni olishga erishgan[11,-C.191-192]. Zarafshon vodiysi quyi havzalarida va tog‘li hududlarida eneolit davri aholisi olib borgan xo‘jalik an’analari Zamonbobo hamda tog‘lar sharoitida o‘rnashgan aholi manzilgohi Mo‘minobodda tekshirish ishlari natijasida bronza jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik munosabatlarni o‘rganish imkonini bergan manbalar olingan [12,-C.171-179]. XX asrning 50-yillarining o‘rtalarida

TAMADDUN NURI

Yu.A.Zadneprovskiy Markaziy Farg‘onada dala amaliyoti davrida ro‘yxatga olgan manzilgohda qazishma ishlarini olib borishi natijasida uy xonalaridan olingan ashyolar miloddan avvalgi II ming yillik so‘nggi choragida mansub bo‘lgan [13,-C.328]. 2003-yilda B.X. Matboboyev va G.P.Ivanov Chust yodgorlida arxeologik tekshirish ishlarini olib borishi natijasida so‘nggi bronza davrida aholi madaniy-xo‘jalik manzilgohlari to‘rt tomoni mudofaa (paxsa) devor bilan o‘rab olinganligi aniqlangan[14,-C.101-108].

A. Asqarovning Surxondaro shimoliy-g‘arbiy hududida, Sherobod tumani Muzrabod dashtida Sopollitepa yodgorligini tekshirish ishlarini olib borishi munosabati bilan to‘rt tomoni to‘g‘ri burchak shaklida uch qatorli mudofaa devori bilan o‘rab olingan miloddan avvalgi II ming yillik 1-choragida bunyod qilinganligini isbot qiladigan manbalarni olgan[15]. Bronza davri so‘nggi bosqichi jamiyatini qamrab olgan urbanizatsiyaning natijalari Jarqo‘ton yodgorligida aks etgan[16,-B.68-72]. Toshkent vodiysi geografik joylashish xususiyatini hosil qilgan Ohangaron va Chirchiq madaniy-xo‘jalik hududlarida neolit davri urug‘ jamoalari turar joylari an’analari bronza davri so‘nggi bosqichlarida davom etgan [17,-C145-150]. Janubiy Turkmaniston Kopetdog‘ etaklarida devorlari mudofaa elementlari bilan o‘rab olingan Namoz-gohtepa (70 ga.), Oltindepe (25ga.) yirik aholi manzilgohlari faoliyat olib borgan[18,-C.98-100].

XULOSA. Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan mulohazalardan quyidagi yakuniy xulosalarni qayd qilish mumkin:

- Tosh asridan boshlab ovchi-termachilar, tabiiy g‘orlar, ochiq manzigohlar, yer sathi, yarim yerto‘la, turar joylarda istiqomat qilib bosqichma-bosqich qo‘shni hududlarni o‘zlashtirishi arxeologik izlanishlar munosabati bilan oydinlashtirildi.
- Miloddan avvalgi II ming yillik 2-yarmi so‘nggi choragida o‘troqlashgan aholi vakillari tomonidan barpo qilingan manzilgohlar konstruktiv tuzilishi yarim yerto‘la shaklida bo‘lgan bo‘lsa (Xorazm vohasi, Quyi Zarafshon, Qizilqum), binokorlik bilimlari asosida qurilgan yodgorliklar (Farg‘ona va Surxondaryo viloyati) madaniy-xo‘jalik markazlari bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус.: 1983. Вып-1.
2. Гулямов Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана. –Ташкент. Фан, 1966.
3. Худойбердиев Р.А. Агалик-Новая стоянка каменного века // Узбекистан древности и средневековье. – Самарканд, 1992.
4. Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. – Ташкент, Фан, 1991.
5. Ершов С.А. Холм Чопандепе // Тр института истории, археологии и этнографии АН Туркм. ССР. – Ашхабад,1956. – Т.II.
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ РАН. Наука. 1962.
7. Куфитин Б.А // Работы ЮТАКЭ в 1952 г по изучению“ Культуры Анау”//Известия АН Туркменской ССР, серия общественных наук. – Ашхабад. 1954. № 1.
8. Литвинский Б.А. Намазгахтепе (по данным раскопок 1949-1950 гг.// СЭ. – М.: Наука. 1954. № 4.
9. Массон В.М. Энеолит Средней Азии // Археология СССР. – М.: Наука, 1982.
10. Isakov A. Sarazm: anagricultural centre of ancient Sogdiana // Bulletin of the Asia institute. 1996. –Vol 8.
11. Толстов С.П. Итоги робота Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1935 г // В-М, – М.: 1955. - №3.
12. Гулямов Я.Г., Исламов У.И., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент.: Наука, 1966.
13. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М-Л. Наука, 1962. №.118.
14. Матбобоев Б.Х., Иванов Г.П. Новое о типах жилищ на поселениях Чустской культуры в связи с раскопками Дальверзина // Археологические исследования в Узбекистане 2003 г. – Ташкент, Фан. 2004. Вып. 4.
15. Аскаров А. Сапаллитепе – Ташкент, Фан, 1973.
16. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent. 2011.
17. Обилдиева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области // КСИИМК. – М.: Наука, 1955. Вып 59.
18. Массон В.М. Алтын-Депе // ТрЮТАКЭ. – Л.: Наука, 1981. Т.XVIII.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 82-131: 398.5

O‘ZBEKISTONDA “O‘G‘UZNOMA” NASHRLARI

Oripov Davronbek Ravshanbek o‘g‘li, Renessans ta’lim universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PUBLICATIONS OF “OGUZNOMA” IN UZBEKISTAN

Oripov Davronbek Ravshanbek oglu, teacher at the Renaissance University of Education, Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

ПУБЛИКАЦИИ “ОГУЗНАМЕ” В УЗБЕКИСТАНЕ

Орипов Давронбек Равшанбек оглы, преподаватель Педагогического университета “Ренессанс”, доктор философии по филологии (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-0025-7287
e-mail: bekdavr@mail.ru

Annotatsiya: *Eski uyg‘ur-turk yozuvida bitilgan “O‘g‘uznoma” dostoni umumturkiy xalqlarning mushtarak qadimiy, kitobiy eposidir. Bu eposning genezisi, tarixiy bosqichlari haqida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, yuzlab olimlar o‘z qarashlarini hayotga tatbiq etgan. Lekin hozirga qadar “O‘g‘uznoma” dostoni genezesi, taraqqiyoti, O‘zbekistondagi barcha nashrlari haqida batafsil tadqiqot bildirilmagan edi. Tarixiy manbalar, eposda uchraydigan ba’zi so‘zlar ma’nosi, shu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlar fikri bizning shu xulosaga kelishimizga zamin yaratdi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda nashr etilgan “O‘g‘uznoma” dostoni tabdillaridagi aksariyat so‘zlarning tahliliga ham e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘g‘uzxon, “O‘g‘uznoma”, tabdil, ko‘l, transkripsiya, O‘g‘uznomalar, O‘zbekiston.*

Abstract*: The epic “Oguz-name”, written in the old uighur-turkic script, is a common ancient, book epic of all Turkic peoples. A huge amount of research has been conducted on the genesis and historical stages of this epic, and hundreds of scientists have brought their views to life. But so far, a detailed study of the genesis, development, and all editions of the Oguz-name epic has not been conducted in Uzbekistan. Historical sources, the meaning of some words found in the epic, and the opinion of scientists who have conducted research on this topic have paved the way for us to come to this conclusion. The article will also pay attention to the analysis of most of the words from the epic “Oguz-name” published in Uzbekistan.*

Key words: *Oguz Khan, “Oguz-name”, tabdil, lake, transcription, Oguzname, Uzbekistan.*

Аннотация: *Эпос “Огузнаме”, написанный старо уйгурско-тюркским письмом, является общим древним, книжным эпосом всех тюркских народов. Было проведено огромное количество исследований генезиса, исторических этапов этого эпоса, сотни ученых воплотили свои взгляды в жизнь. Но до сих пор подробное исследование генезиса, развития, всех изданий эпоса “Огузнаме” в Узбекистане не проводилось. Исторические источники, значение некоторых слов, встречающихся в эпосе, мнение ученых, проводивших исследования на эту тему, подготовили почву для того, чтобы мы пришли к такому выводу. В статье также будет уделено внимание анализу большинства слов из эпоса “Огузнаме” опубликованного в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Огуз-хан, “Огуз-наме”, табдил, озеро, транскрипция, Огузнаме, Узбекистан.*

KIRISH. Umumturkiy xalqlardan qolgan xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida eski uyg‘ur-turk yozuvida bitilgan “O‘g‘uznoma” dostoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu doston kitobiy eposlardan biri sifatida e’tirof etilsa, “Kitabi Dadam Qo‘rqud” ikkinchi asar sifatida qayd etiladi.

“O‘g‘uz xoqon haqida doston”ning asl nusxasi XV asrda Turfon shahrida ko‘chirilgan, deya

hisoblanadi hamda bugungi kunda Parij milliy kutubxonasining "Shefer fondi"da 1001-saqlov birligi ostida saqlanadi. Aslida, epos syujetining shakllanish davri miloddan avvalgi asrlarga taalluqli.

"O'g'uznoma" dostoni bosh qahramoni O'g'uzxon bo'lib, u asarda deyarli mifologik tarzda ifoda etilgan. Epos ustida ish olib borgan olimlar, jumladan, I.Markvarta O'g'uzxonni Chingizxonga, Rizo Nur Aleksandr Makedonskiyga, G.Potanin mo'g'ullarning Van Kir va Uxir Bama xoni va qirg'iz eposlaridagi Jonibek obraziga qiyoslasa, turkolog Nasimxon Rahmonov O'g'uz xonni miloddan oldingi III asrda Xun tangriqutligini qudratli imperiyaga aylantirgan Botir tangriqutning prototipi deb qaraydi[1]. Bizningcha esa, O'g'uzxon bundan to'rt yarim ming yillar avval yashagan tarixiy shaxsning asarga ko'chgan mifologik obrazidir[2]. Filologiya fanlari doktori N.Rahmonov ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ustoz qayd etishicha: "Dostondagi diqqatga sazovor yana bir mifologik motiv O'g'uzning o'rmonda bahaybat yirtqich bilan kurashuvidir. Bu kurash motivining ildizi Markaziy Osiyodagi qavmlar epik ijodidagi ezgu va yovuz ruhlar o'rtasidagi kurashga borib taqaladi[3].

ASOSIY QISM. O'zbekistonda "O'g'uz xoqon haqida doston"ning o'ziga xos o'rganilish hamda nashrlari tadrijiy bosqichlari bo'lib, quyida ular haqidagi tahlillarimizni bayon qilamiz.

Ushbu qadimiy epos haqida F. fon Dits, A.Sherbak, I.Markvart, R.Nosir, G.Potanin, X.Ko'ro'g'li, N.Bichurin, D.Sinor, N.Rahmonov, Q.O'miraliyev kabi olimlar fundamental tadqiqotlar olib borib, bu haqda monografiya, qo'llanma, dissertatsiyalarda o'z fikrlarini bildirib o'tishgan.

O'zbekistonda "O'g'uznoma" eposiga oid ilk izlanishlar birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitratga tegishli. Fitrat domla 1919-yili "O'g'uzxon" dramasini yaratadi. U "Temur sag'anasi" bilan deyarli yaqin muddatda yozilgan, deya hisoblanadi. Afsuski, bu asar matni davrimizgacha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 4-sentabrdagi sonida "Ishchi"ning "Navoiy kechasi" sarlavhali taqrizi "O'g'uzxon" haqida ma'lumot beradi: *"Ikkinchi pardada o'ynalgan "O'g'uzxon" Toshkandda bir necha qatla qo'yulg'on tarixiy piesa bo'lub, adabiy qalam birla yaxshi tasvir etilgan bir asar bo'lub, O'g'uzxon rolini atoqli aktyorlarimizdan Uyg'ur afandi tarafindan o'ynalub, xalqning hissiyotin uyg'otdi. Chol rolini o'ynovchi O'ktam afandi o'z rolini o'rta hamda zararsiz chiqardi"*. E'tiborlisi, taqriz muallifi Vaqqos Sunchalay (Ishchi) pyesaning mazmuniga mutlaqo to'xtalmay, undan biror parcha ham keltirmagan[4].

Shuningdek, taniqli shoir, munaqqid Vadud Mahmud ham 1926-yilda e'lon qilingan "Navoiygacha turk adabiyoti" maqolasida "O'g'uznoma" va "Dada Qo'rqut" haqida qayd etadi [5].

Eposning tom ma'nodagi ilk tabdilini filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov amalga oshirgan. Tabdil 1989-yil "Sharq yulduzi" jurnalining aprel sonida "O'g'uznoma yoki O'g'uz xoqon haqida doston" nomi bilan e'lon qilingan edi[6]. Shundan so'ng, kitobiy eposning turli tabdillari chop etila boshlandi. Jumladan, 2000-yili filologiya fanlari nomzodi, dotsent Muhammadali Qo'shmoqovning "O'g'uznoma" [7], filologiya fanlari nomzodi Toir Haydarovning "O'g'uznoma" (O'g'uz qahramonlik eposi)[8], filologiya fanlari nomzodi Baxtiyor Isabek (nashrga tayyorlovchi)ning "O'g'uznoma" [9] tabdillari shular jumlasidandir.

Qayd etish joizki, ushbu tabdillar "O'g'uznoma" eposining turli nusxalariga asoslangani bilan diqqatga sazovordir. Misol uchun, Nasimxon Rahmonov "Sharq yulduzi" jurnalining aprel sonida "O'g'uznoma yoki O'g'uz xoqon haqida doston" nomi bilan chop etilgan hamda Muhammadali Qo'shmoqovning tabdillari A.Sherbakning "O'g'uznoma. Muhabbatnoma" kitobidagi eski uyg'ur-turk yozuvidan amalga oshirilgan transkripsiyaga asoslangan[10]. Farqi shundaki, N.Rahmonovning tabdili nazmiy yo'lga yaqin bo'lsa, M.Qo'shmoqov nasriy bayonni ma'qul ko'rgan.

Toir Haydarov esa "O'g'uznoma" (O'g'uz qahramonlik eposi)ni tuzishda, filologiya fanlari doktori, professor Muhammadnodir Saidovning shaxsiy arxividagi uyg'ur qo'lyozmaga suyanganini e'tirof etadi.

Baxtiyor Isabek "…Ushbu risola mazkur asarning asl matni (uyg'ur yozuvida) va uning mazmuni o'zbek tiliga o'girilgan holda berildi", deya izohlaydi[11].

Qizig'i, tabdildan o'rin olgan asl matn A.Sherbakning "O'g'uznoma. Muhabbatnoma" kitobidagi eski uyg'ur-turk yozuvidan amalga oshirilgan transkripsiyadan farq qiladi. Balki olimda

eposning yana boshqa nusxalari bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

A.Sherbakning “O‘g‘uznoma. Muhabbatnoma” kitobidagi eski uyg‘ur-turk yozuvidan amalga oshirilgan transkripsiyasida “köl” istilohi uchraydi. Tushunarli bo‘lishi uchun, matndan parcha keltiramiz:

8. VII. Оғуз каҕан авҕа кэтті. Бір

VIII. ***köl*** арас(ї)нда алїндан бір (ј)їҕач

IX. көрді. Бу (ј)їҕачнуң кабучаҕїнда…

“Köl” so‘zini N.Rahmonov, M.Qo‘shmoqov va T.Haydarov “ko‘l” tarzida ifoda etsa, “O‘g’uznoma”ning Baxtiyor Isabek tomonidan tayyorlangan nashrida:

VIII

1. Yana bir kuni O‘g‘uz xoqon ovga ketdi.
2. Bir o‘tloq orasida daraxtni ko‘rdi.
3. Bu yog‘ochning kovagida bir qiz bo‘lib,

IX

1. Yolg‘iz o‘zi o‘tirar edi.
2. Yaxshi, ko‘rkam bir qiz edi.
3. Uning ko‘zi ko‘kdan ham ko‘kroq edi.
4. Sochlari daryo mavjiday,
5. Tishlari injuday edi...deya talqin qilinadi.

Nazarimizda, bu to‘g‘ri talqin. Mantiqan o‘ylab qaralganda, daraxt ko‘lning o‘rtasidan ko‘ra maysazor, o‘tloq o‘rtasida bo‘lishi o‘rinlidir. Va xuddi shu lavha biroz transformatsiyaga uchragan holda O‘g‘uzxondan “Kitabi Dadam Qo‘rqut”dagi Bayrak obraziga ko’chgan.

“Ko‘l” istilohi ma’nosini “Yassaviy hikmatlari lug‘ati”dan topdik[12]. Unda ta’kidlanishicha: *“Ko‘l(um) (kölüm)– yaylov, sozliq yer; Kim orifman der ersa hayvon yang‘lig‘ yurusa, Sigir yang‘lig‘ yer ersa o‘tlog‘ug‘a ko‘lum bor”.* Anglashiladiki, “ko’l” so’zining eposdagi ma’nosi – yaylov, o‘tloq ekan.

“Kitabi Dadam Qo‘rqud”ning Drezden nusxasiga asoslangan asl matni lug‘atida esa, Bayrak kiyikning ortidan quvib borgan o‘g‘uz tilida yer **Çayir,** ozarbayjon tilida esa **Çayir (bitki), çəmən** shaklida ifoda etilgan. Anglashilganidek, bu atamalar yashil maysazor, chaman, bug‘doyzor ma’nolarini bildiradi.

XULOSA. Shuningdek, ma’lum bir asarlar tarkibida kelgan o‘ttizdan ortiq O‘g‘uznomalar mavjud. Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome’u-t-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (Sharafnomayi shohiy), Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” kabi asarlari shular jumlasidandir.

“O‘g‘uz xoqon haqida doston” haqida bugungi kunga qadar O‘zbekistonda ko‘plab tadqiqoqtlar olib borilib, ilmiy izlanishlar qilingan, ko‘plab nashrlari e’lon qilingan esa-da, epos haqida hali aytilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalar talaygina. Kelgusi tadqiqotlar “O‘g‘uznoma” hamda uning nashrlari haqida biz bilmagan yangi ma’lumotlar, kashfiyotlar “eshig”ini ochib yuborsa, ajab emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XV asr birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B. 114.
2. Oripov D. O‘g‘uzxon: Jahongirmi yoxud epik qahramon?! // O‘zMU xabarlari ilmiy jurnali, 2022.1/3/1-son. B.250-254.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XV asr birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B. 115.
4. Hamroyeva O. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari. – Toshkent: Bookmany print, 2023. B.10.
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-navoiygacha-turk-adabiyoti-1926
6. Ўғузнома ёки Ўғуз хоқон ҳақида достон. Н.Раҳмонов табдили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – № 4. – 208 б.
7. Ўғузнома. Муҳаммадали Қўшмоқов табдили. – Тошкент: Соғлом авлод учун, 2000. 12 сон. – 177 б.
8. Ўғузнома. Ўғуз қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик хизмати институти, 2004. – 234 б.
9. Ўғузнома. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – 240 б.
10. Щербак А.М. Огузнаме. Мухаббатнаме. Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – М.: Изд-во восточной литературы, 1959. – 169 с.
11. Ўғузнома. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – 240 б.
12. Яссавий ҳикматлари луғати. Турксуғуд сўзлари. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 256 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 902/904:911.37(575)

MARKAZIY OSIYO MADANIY- XO‘JALIK HUDUDLARI TURAR JOYLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR (JARQO‘TON VA TOZABOG‘YOP MADANIYATLARI MISOLIDA)

Jumaniyozova Sarvinoz Shodlik qizi, Urganch davlat universiteti magistranti

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN RESIDENTIAL AREAS OF CULTURAL AND ECONOMIC REGIONS OF CENTRAL ASIA (BASED ON THE EXAMPLE OF THE JARQO‘TON AND TOZABOG‘YO‘P CULTURES)

Jumaniyozova Sarvinoz Shodlik qizi, Master’s Student at Urgench State University

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ЖИЛЫХ ЗОНАХ КУЛЬТУРНО-ХОЗЯЙСТВЕННЫХ РАЙОНОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ КУЛЬТУР ДЖАРКУТАН И ТАЗАБАГЯБ)

Джуманиязова Сарвиноз Шодлик кызы, магистрант Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0005-2505-9118
e-mail: sarvinozjumaniyozova372@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jarqo‘ton yodgorligi va Tozabog‘yop madaniyatining arxeologik tadqiqotlari tahlil qilingan. Bundan tashqari bronza davrida Markaziy Osiyoda shaharsozlik, metallurgiya, kulolchilik va dehqonchilikning rivojlanishi va jamiyatning iqtisodiy, madaniy va diniy hayoti yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jarqo‘ton, Tozabog‘yop madaniyati, bronza davri, arxeologik tadqiqotlar, shaharsozlik, metallurgiya, kulolchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, nekropol (qabriston).*

Abstract: *This article analyzes the archaeological research of the Jarqo‘ton site and the Tozabog‘yo‘p culture. Additionally, it highlights the development of urban planning, metallurgy, pottery, and agriculture in Central Asia during the Bronze Age, as well as the economic, cultural, and religious life of society.*

Keywords: *Jarqo‘ton, Tozabog‘yop culture, Bronze Age, archaeological research, urban planning, metallurgy, pottery, agriculture, craftsmanship, necropolis (cemetery).*

Аннотация: *В данной статье проанализированы археологические исследования памятника Джаркутан и культуры Тазабагяб. Кроме того, освещено развитие градостроительства, металлургии, гончарного дела и земледелия в Центральной Азии в эпоху бронзы, а также экономическая, культурная и религиозная жизнь общества.*

Ключевые слова: *Жаркутан, культура Тозабагяб, бронзовый век, археологические исследования, градостроительство, металлургия, гончарное дело, земледелие, ремесленное производство, некрополь (кладбище).*

KIRISH. Markaziy Osiyo insoniyat tarixida muhim o‘rin tutgan hududlardan biri bo‘lib, u yerda qadimdan turli madaniyatlar, davlatlar va sivilizatsiyalar rivojlangan. Ushbu hududda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlarning madaniy merosi bugungi kunda ham o‘zining noyobligi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Jarqo‘ton va Tozabog‘yop madaniyatlari Markaziy Osiyoning eng qadimgi va yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lib, ularning arxeologik yodgorliklari orqali qadimgi davrlarning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy tuzilmalari haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin.

Jarqo‘ton yodgorligi bronza davrining eng qadimgi shahar qoldiqlaridan biri sifatida o‘rganilgan bo‘lib, u shaharning mudofaa tizimi, saroy qoldiqlari, metallurgiya ustaxonalari va ibodatxonalari bilan ajralib turadi. Tozabog‘yop madaniyati esa Qadimgi Xorazm hududida tarqalgan bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalarning madaniyati sifatida tasvirlangan. Ushbu maqolada ikkala madaniyatning moddiy va ma’naviy merosi, shuningdek, ularning o‘zaro aloqalari haqida batafsil ma’lumotlar keltiriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi Jarqo‘ton va Tozabog‘yop madaniyatlari orqali Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyati va turmush tarzini o‘rganish, shuningdek, ularning mintaqa tarixidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Bu tadqiqotlar orqali nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo qit’asining qadimgi sivilizatsiyalari haqida yangi bilimlar olish mumkin.

ASOSIY QISM. Jarqo‘ton yodgorligi Sherobod daryosining quyi irmog‘i – Bo‘stonsoyda joylashgan. Ushbu yodgorlikda asosan A.A.Asqarov va B.Abdullayevlar tadqiqot ishlarini olib borgan. Xususan, B. Abdullayev 1974-1977-yillarda qazilma ishlarini o‘tkazgan. 3ta arxeologik kompleksga ega bo‘lgan 719 ta mozor ochib o‘rganilgan. Jarqo‘tondagi qazish ishlari jarayonida ko‘plab uy-ro‘zg‘or buyumlari – sopol idishlar, bronza buyumlari va boshqalar orasida granit toshidan yasalgan birinchi tosh omoch hamda suvoqchilik quroli – andava topilgan [3.39-42].

A.A.Asqarovning fikricha, Jarqo‘ton yodgorligi Respublikamiz hududidagi eng qadimgi shahar qoldig‘i hisoblanadi (maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan). Yodgorlikning bizgacha yetib kelgan tarixiy topografiyasiga ko‘ra, u ikki qismdan iborat: mudofaa devorlari bilan o‘ralgan ko‘handiz va unga tutashib ketgan shahriston maydoni. Ularning janubida, qadimgi ariq izining orqa tomonida, bir necha tabiiy tepaliklarga joylashgan qadimgi nekropol (qabriston) joylashgan[1.45-46].

Shahriston maydonida bir necha katta va kichik hajmdagi tepaliklar kuzatiladi. Ular ustida yotgan sopol parchalari, tosh yorg‘uchoq va boshqa mehnat qurollarining sochilib yotganiga qaraganda, ularning har biri bir urug‘ jamoasiga tegishli uy-joy qoldiqlari yoki ishlab chiqarish obyektlari ekanligidan darak beradi[1.52].

Jarqo‘tondan kulolchilik va bronza metallurgiyasi ishlab chiqarish obyektlari, zargarlik va mehnat qurollari ishlab chiqarish ustaxonalari, paxta va ipak mahsulotlari xomashyosiga asoslangan to‘qimachilikning ashyoviy dalil va qoldiqlari topilgan. Uning 3 gektardan kam bo‘lmagan ko‘handiz (arki a’lo) maydonidan shahar sardorining (hokimi) monumental saroy qoldiqlari, metall eritish va metalldan mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish ustaxonasi, uy-joy komplekslari ochib o‘rganilgan. Uning qalin mudofaa devori, qal’aga kirish darvozasi ochilgan[4.70-71].

Ark maydonining sharqiy qismida jez (bronza) eritish va qayta ishlash bilan bog‘liq hunarmandchilik ustaxonalari aniqlangan. Metallurgiyaga oid bunday ustaxonalar Jarqo‘tonning shahriston hududida ham uchraydi. Ilk shaharning turli hududlaridan bronzadan yasalgan mehnat qurollari, harbiy jihozlar, bezak buyumlari, muhr va tumorlar, shuningdek, ilk davlat ramzlari topilgan. Bu topilmalar Jarqo‘tonda metallurgiya hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Shahar ibodatxonasini qazish jarayonida ham metallga ishlov berish bilan bog‘liq ustaxona aniqlandi. U xo‘jalik va xizmat ko‘rsatish qismi tarkibida joylashgan bo‘lib, bu yerda turli xil mehnat qurollari ishlab chiqarilgan. Ustaxonadan metall eritish uchun ishlatilgan beshta pech qoldiqlari topildi. Ularning devorlari yuqori harorat ta’sirida shlakka aylanib ketgan bo‘lib, qazilmalar orasida eritish qozonining (tigel) parchalariga ham duch kelindi.

Jarqo‘tonning turar joy hududlarida ham metall eritish pechlari aniqlangan, ammo Ark maydonida ochilgan sex oldingilaridan tubdan farq qilar edi. Bu kashfiyot bronza davri uchun mislsiz yangilik bo‘lib, O‘rta Osiyo arxeologiya tarixida o‘xshashi uchramagan noyob dalil sifatida baholanadi. O‘tmish ajdodlarimizning ishlab chiqarish salohiyatini inobatga olsak, bu hodisa ibtidoiy jamiyat davri uchun ulkan yutuq hisoblanadi.

Jarqo‘ton yodgorligiga tegishli ko‘plab qabrlar arxeologlar tomonidan o‘rganildi. 50 gektarga yaqin xonalar va ularning poli ostidan, xonalarga kirish eshiklari ostonasi ostidan, ayrim xonalarning devorlari ostidan qabrlar ochildi. A.A.Asqarovning yozishicha, islom diniga qadar aholining mavjud an’anaviy urf-odat va udumlariga ko‘ra, vafot etgan kimsani kafan bilan emas, balki uning hayotlik chog‘ida kiygan bayramona kiyim-boshlari va kasbi-kori bilan bog‘liq mehnat qurollari bilan qo‘shib ko‘mish odati bo‘lgan. Qabila oqsoqoli 50 yoshlardagi erkak bo‘lib, u o‘ng yoni bilan oyoqlari bukilgan holda g‘ujanak qilib yotqizilgan. Uning quloq bo‘shlig‘ida bronza halqa, iyagi yaqinida hukmdorlik belgisi – (jez) asoning zo‘g‘atali bronza nishoni (zo‘g‘atada uning yog‘och dastasidan parcha saqlangan), uning yaqinida 6 ta buyum (bir bo‘lak lazurit tosh, 3 ta tosh qayroqchalar, bronzadan ishlangan porma va bolg‘acha) bir joyda jam edi. Ulardan sal narida bronza xanjar va bronza kosa, marhumning oyoq tomonini 30dan ortiq turli xil sopol idishlardan tashqari, 2ta bronza kosa, surmadon va 2ta to‘g‘nog‘ich egallagan edi. Qabr ashyolarining tarkibi uning hayotlik chog‘ida professional zargar va metallurg bo‘lgani haqida dalolat beradi. Chunki, qabr ayvonidan 3ta arxeologik butun tigel-qozon parchalari topilib, ular ushbu qabrga aloqador o‘spirin mozoriga, sardor shogirdiga tegishli edi. Qabr topilgan xonani qazish vaqtida, deyarli polga yaqin madaniy qatlamdan mergeliy toshidan ishlangan muhr ham topilganini hisobga olsak, ushbu uy-joy kompleksi, jamoa oqsoqoliga tegishli ekanligiga hech bir shubha qolmaydi[4.17].

Shahriston maydonining 6-tepasida dastlabki zardushtiylik e’tiqodiga mansub monumental ibodatxona aniqlangan. Ushbu ibodatxona Jarqo‘tonning eng baland qismida joylashgan bo‘lib, u shaharning diniy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Shahar markazidagi Ark hududida hukmdorning maxsus qarorgohi joylashgan bo‘lsa, kun botar tomonda monumental otashparast ibodatxonasi, kun chiqar tomonda esa muqaddas sajdagoh mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi boshqa qadimgi yodgorliklar orasida ham shunga o‘xshash diniy markazlar uchraydi, biroq Jarqo‘ton ibodatxonasi ulardan eng mukammal Quyosh ibodatxonasi sifatida ajralib turadi.

A.Asqarovning ta’kidlashicha, shaharning g‘arbiy qismida hukmdor qarorgohi, sharqiy tomonida esa monumental otashparast ibodatxonasining joylashgani shaharsozlik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligini va shaharning diniy hamda ma’muriy markaz sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi. Shu sababli, Jarqo‘ton oddiy qishloq yoki qo‘rg‘on emas, balki yirik shahar bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Jarqo‘ton bosqichidagi sopol idishlar oldingi bosqichga nisbatan dag‘alroq ishlangan. Oshxona va mehmonlar uchun mo‘ljallangan idishlarning 13 toifasi va 30 ga yaqin turi aniqlangan bo‘lib, ular orasida eng keng tarqalgani konussimon vazalardir. Bundan tashqari, bankasimon va silindrik idishlar ham bu bosqichda oldingiga qaraganda ko‘proq uchraydi. Qo‘lda tayyorlangan idishlar orasida qalin devorli, katta hajmli tovalar, katta qozonlar mavjud. Shuningdek, Jarqo‘ton bosqichiga xos sopol buyumlar ichida marosimlarda qo‘llanilgan kichik idishlar va kiyik shaklidagi kubokchalar ham bor.

Bronza davriga oid yana bir muhim madaniyat – Tozabog‘yop madaniyati qadimgi Xorazmning Tozabog‘yop kanali hududida tarqalgan. 1938-yilda S.P.Tolstov tomonidan aniqlangan ushbu madaniyat keyingi yillarda Quyi Zarafshon, Quyi Qashqadaryo havzalari, Toshkent vohasi, Tojikiston, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysida ham o‘rganilgan.

Turli olimlar bu madaniyatni turlicha nomlagan: S.P.Tolstov va M.A.Itina uni Tozabog‘yop madaniyati deb atagan bo‘lsa, B.A.Litvinskiy Farg‘ona vodiysi yodgorliklarini Qayroqqum madaniyati sifatida tasniflagan. A.Asqarov bu madaniyatni Andronovo madaniyatining Tozabog‘yop varianti deb ko‘rsatgan, Yu.A. Zadneprovskiy va N.G.Gorbunova esa uni Andronovo yodgorliklari qatoriga kiritgan.

Tozabog‘yop madaniyatiga oid yodgorliklar, ayniqsa, Amudaryoning Oqchadaryo etaklarida keng tarqalgan. M.A.Itinaning tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu madaniyatga tegishli 200ga yaqin manzilgoh

aniqlangan. Bu qabilalar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, yarim yerto‘la va chaylalarda yashashgan. Ularning dehqonchilik faoliyati daryo suvi bilan bog‘liq bo‘lib, vaqt-vaqti bilan ko‘chib yurishga majbur bo‘lishgan.

Anqa-5 va Qavat-3 manzilgohlaridan jamiyatning moddiy madaniyatiga oid muhim ma’lumotlar topilgan. Ushbu hududlarda topilgan uy-joylar to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega bo‘lib, yarim yerto‘la tipida qurilgan va 120-180 m² maydonni egallagan. Uylarda markaziy o‘choq joylashgan bo‘lib, ular bir necha oiladan iborat patriarxal jamoalar uchun mo‘ljallangan.

Ko‘kcha-3 qabristoni 1954-yilda aniqlangan bo‘lib, bu yerda 100 dan ortiq qabr o‘rganilgan. Dafn marosimi turlicha bo‘lib, mayitlar yakka yoki juft holda dafn etilgan, tanalari yonboshlab yotqizilgan va boshi g‘arbga yo‘naltirilgan. Qabrlar yonidan sopol idishlar, bronza mehnat qurollari hamda zeb-ziynatlar topilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi va I ming yillik boshlarida Xorazm va unga yaqin hududlarda Yevroosiyo cho‘l chorvador qabilalarining ta’siri sezilgan. Bu davrda ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar yassi tubli xurmacha va bankasimon idishlardan foydalangan. Metallsozlik rivojlanib, bronzadan turli zeb-ziynatlar, mehnat qurollari va harbiy qurollar tayyorlangan.

Janubiy Orolbo‘yi hududida Qamishli guruhi madaniyati ajratilgan bo‘lib, u Kaltaminor madaniyatining so‘nggi bosqichi bilan bog‘liq. Bu yodgorliklardan taypoq tubli idishlar va metallga ishlov berish hunarmandchiligiga oid ma’lumotlar topilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, bu madaniyat mahalliy Suvyorgan madaniyatining ilk bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu madaniyat vakillari Amudaryoning quyi oqimi va deltasi hududlarida yashab, sug‘orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. So‘nggi bosqichda metallsozlik rivojlanib, bronzadan turli buyumlar, jumladan, bir tig‘li pichoqlar, ko‘zgular, taqinchoqlar tayyorlangan. Metall quyish qoliplari va mayda asbob-uskunalar ham topilgan.

A.A.Itina tadqiqotlariga ko‘ra, Xorazm hududida to‘laqonli metallsozlik miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida shakllangan. Janubiy Orolbo‘yi hududlariga Andronovo chorvador qabilalari kelib, mahalliy aholi bilan aralashgan, ammo uzoq muddat yashamagan. Shu sababli, bu hududda yashagan aholining etnik tarkibi miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarmida turli xil bo‘lgan.

XULOSA. Jarqo‘ton va Tozabog‘yop madaniyatlari bronza davri Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining muhim namunalari bo‘lib, ular ilk dehqonchilik, hunarmandchilik, metallurgiya va shaharsozlik taraqqiyotini aks ettiradi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududlarda murakkab ijtimoiy tuzilma shakllangani, aholining mustahkam mudofaa tizimiga ega shaharlarni barpo etgani, metall eritish va kulolchilik singari hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirgani aniqlandi. Jarqo‘tondagi qabrlarning ba’zilaridan topilgan Tozabog‘yop tipidagi bronzadan ishlangan brasletlar topilgan. Bu shundan dalolat beradiki qo‘shni qabilalar bilan mahalliy aholi o‘rtasida etnik va madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan monumental ibodatxona va boshqaruv saroyi bu hududning diniy va siyosiy markaz bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tozabog‘yop madaniyatining turar joylari va qabrlaridan topilgan buyumlar esa aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganini hamda qo‘shni qabilalar bilan aloqada bo‘lganini tasdiqlaydi. Ushbu madaniyatlarning rivojlanishi va o‘zaro ta’siri Markaziy Osiyo tarixidagi madaniy almashinuv va taraqqiyot jarayonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Shunday qilib, Jarqo‘ton va Tozabog‘yop madaniyatlari nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Ularning o‘rganilishi qadimgi jamiyatlarning xo‘jalik faoliyati, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy hayoti haqida chuqur tasavvur beradi. Kelgusida ushbu yodgorliklarni chuqur tadqiq qilish, ularning tarixiy ahamiyatini yanada yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аскаров А. Бронзовый век Южного Узбекистана ... // дис... док.ист.наук. – Москва, 1976. [45-46.52].
2. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977.
3. Аскаров А., Абдуллаев Б. Раскопки могильника Джаркутан (Результаты работ весной 1975 г.) // ИМКУ – Вып.14, –Ташкент, 1978. [39-42].

4. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент, 1983.[17.70-71].
5. A. Asqarov. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Fan. Toshkent, 2023.
6. **Аскаров, А.А., Ширинов, Т.Ш.** *Ранняя городская культура эпохи бронзы на юге Средней Азии*. Самарканд, 1993.
7. **Bokiev, A., Shaydullaev, A., & Yuldosheva, Z. Oks sivilizatsiyasi. Yangi nashr. Toshkent. 2015.**
8. **J.**Kabirov, A. Sagdullayev. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. O‘qituvchi. Toshkent, 1993.
9. **Ширинов, Т.** *Жанубий Ўзбекистон бронза даври: Илк шаҳар маданияти*. Самарқанд, 1993.
10. Итина, А Тазабагябская культура Нижнего Хорезма. Москва. 1977.
11. Толстов, С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. Изд. Академии наук СССР. Москва, 1948.
12. И.Масимов. Изучение керамических печей эпохи бронзы на поселении Улуг-Депе. Ашгабат, 1972.
13. Саряниди, В.И. (1981). Архитектура и культура Алтын-Депе. Москва: Наука.
14. Кругликова, И.Т., и Саряниди, В.И. (1976). Древняя Бактрия: Материалы Сов.-Афган. археол. экспедиции. Москва: Наука.
15. Массон, В.М., и Ганялин, А.Ф. (1972). Янгикала кладбище и его анализ. Ашхабад: Илм.
16. Массон, В.М. (1976). Мургабская долина и её культура. Ташкент: Фан.
17. Саряниди, В.И. (1967). Улук-Депе и памятники бронзового века Южного Туркменистана. Ашхабад: Илм.
18. Пугаченкова, Г.А. (1969). Сополлитепа и соседние памятники: археологические исследования. Ташкент: Фан, Академия наук Узбекской ССР.
19. Бердимурадов, А. Бронзовый век Средней Азии: к проблеме генезиса городской культуры. Ташкент: Фан. 2010.
20. Виноградов, Н.Б. Поселения и некрополи эпохи бронзы в Средней Азии. Москва: Наука. 1991.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 81'44

LINGUISTIC MEANS OF EXPRESSING EVALUATION AND VALUE: LEXICAL, GRAMMATICAL, PHRASEMIC, AND PRAGMATIC APPROACHES

Nunnanova Gulshaydo Bekpulatovna, Navoiy State University

BAHO VA QIYMATNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR: LEKSIK, GRAMMATIK, FRAZEMATIK VA PRAGMATIK YONDASHUVLAR

Nunnanova Gulshaydo Bekpulatovna, Navoiy davlat universiteti

ЯЗЫКОВЫЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ОЦЕНКИ И ЗНАЧЕНИЯ: ЛЕКСИЧЕСКИЙ, ГРАММАТИЧЕСКИЙ, ФРАЗЕМИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Нуннанова Гулшайдо Бекпулатовна
Навоийский государственный университет

https://orcid.org/0009-0001-2220-064X
e-mail: gulshaydon@gmail.com

Abstract: *This article explores the linguistic means of expressing evaluation and value through lexical, grammatical, phrasemic, and pragmatic approaches. It examines how different linguistic structures contribute to evaluative expressions and how they function across various contexts.*

Keywords: *evaluation, linguistic means, lexical approach, pragmatics, modal verbs, phrasemic expressions, corpus linguistics, contextual evaluation.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola leksik, grammatik, frazemik va pragmatik yondashuvlar orqali baholash va qiymatni ifodalashning lingvistik vositalarini o'rganadi. Turli lingvistik tuzilmalar baholovchi iboralarga qanday hissa qo'shishi va ular turli kontekstlarda qanday ishlashini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *baholash, lingvistik vositalar, leksik yondashuv, pragmatika, modal fe'llar, frazemik iboralar, korpus lingvistikasi, kontekstual baholash.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются лингвистические средства выражения оценки и ценности с помощью лексического, грамматического, фразематического и прагматического подходов. В ней рассматривается, как различные лингвистические структуры способствуют оценочным выражениям и как они функционируют в различных контекстах.*

Ключевые слова: *оценка, лингвистические средства, лексический подход, прагматика, модальные глаголы, фразематические выражения, корпусная лингвистика, контекстная оценка.*

INTRODUCTION. Evaluation is an integral part of any linguistic system, playing a crucial role in expressing human thoughts. Through evaluative means, it is possible to convey subjective attitudes, assign value, and determine states. This process is carried out using various linguistic means, including lexical, grammatical, phrasemic, and pragmatic approaches.

Evaluation through language is linked to human social and cultural experience and manifests in the semantic and pragmatic layers of speech. For instance, the evaluation of an event or a person as positive or negative can be expressed through different linguistic units. This evaluation process is not limited to lexical units alone but also involves morphological and syntactic structures, pragmatic factors, and contextual analyses.

Moreover, the specifics of a linguistic system play a significant role in evaluation. In different languages, the means and criteria for expressing evaluation may vary. While some languages rely heavily on modal words and modal verbs for evaluation, others widely use phrases and metaphors.

This article examines the lexical, grammatical, phrasemic, and pragmatic aspects of linguistic means expressing evaluation and value. The research methods employed include contextual analysis, semantic study, and discourse analysis. These methods help precisely determine the evaluative properties of linguistic units and analyze how they function in speech contexts.

METHODOLOGY. In this study, the following linguistic research methods were employed to identify linguistic means of expressing evaluation and analyze their role and usage in texts:

1. Semantic Analysis – Evaluative words and expressions were studied semantically. This included analyzing the positive and negative connotations of words as well as their synonymic and antonymic relationships. For example, words like *"excellent"*, *"outstanding"*, and *"successful"* express positive evaluation, whereas *"ugly"*, *"useless"*, and *"bad"* convey negative evaluation (Leech, 1981).

Kirish. Ingliz tili global kommunikatsiya va ilmiy sohalarda asosiy til sifatida keng qo‘llanilmoqda, ayniqsa, agronomiya sohasida. Agronomiya - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ilmiy asosi bo‘lib, uning terminologiyasi va atamalari xalqaro ilmiy aloqalar, tadqiqotlar va ta'limda katta rol o‘ynaydi. Ingliz tilining agronomiya sohasidagi terminologiyasi va atamalari o‘rganilishi, nafaqat o‘zaro tushunishni ta’minlaydi, balki zamonaviy ilmiy metodologiyalarni samarali qo‘llashda yordam beradi. Zamonaviy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, agronomiya sohasida ingliz tilining roli katta bo‘lib, bu sohadagi terminologiya va atamalarni o‘rganish zarurati har qachongidan ham dolzarblashmoqda. Agronomiya – qishloq xo‘jaligining ilmiy asosi bo‘lib, uning tarkibida ekinlarni yetishtirish, tuproq unumdorligini oshirish, sug‘orish tizimlari va boshqa muhim masalalar mavjud. Ushbu sohada ishlash uchun, faqat agronomik bilimlar emas, balki ingliz tilidagi maxsus atamalarni tushunish va to‘g‘ri ishlatish ham zarurdir.

Dunyoning turli burchaklarida qishloq xo‘jaligi va agronomiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va metodologiyalar haqida ma'lumotlar ko‘pincha ingliz tilida e'lon qilinadi. Shu sababli, agronomiya mutaxassislari, talabalar va o‘qituvchilar uchun ingliz tilidagi agronomik terminologiya va atamalarni bilish, ilmiy aloqalarni samarali amalga oshirish, global qishloq xo‘jaligi muammolarini hal qilishda muhim vositaga aylangan. Ingliz tilining agronomiya sohasidagi terminologiyasini o‘rganish, nafaqat ilmiy jurnallarda e'lon qilingan tadqiqotlar bilan tanishishga imkon beradi, balki ilmiy va amaliy ishlarda ham muvaffaqiyatli bo‘lishni ta'minlaydi. O‘quv jarayonida ingliz tilidagi agronomiya atamalarini tushunish va to‘g‘ri qo‘llash, o‘quvchilarga nafaqat akademik bilimlarni o‘zlashtirishga, balki jahon miqyosidagi agronomik yutuqlar va yangiliklar bilan tanishishga yordam beradi. Shu bilan birga, agronomiya sohasidagi atamalarni o‘rganish, o‘quvchilarning ta'lim olish jarayonida ularga nafaqat ilmiy ko‘nikmalarni, balki xalqaro miqyosda ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsiyalarni amalga oshirish va global masalalarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, ingliz tilining agronomiyadagi o‘ziga xos terminologiya va atamalarni o‘rganish zarurati ta'lim tizimi, ilm-fan va amaliyot uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masaladir.

Asosiy qism: Ingliz tilining agronomiyadagi o‘ziga xos terminologiya va atamalarini o‘rganish zarurati, bugungi kunda agronomiya sohasining jahon miqyosidagi rivojlanishi va global qishloq xo‘jaligi masalalariga qarshi innovatsion yondoshuvlarning ahamiyatini hisobga olgan holda, juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Agronomiya, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ilmiy va texnologik asoslarini tashkil etadi. Bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, yangiliklar va yutuqlar ko‘pincha ingliz tilida taqdim etiladi, shuning uchun bu tilni bilish va agronomik terminologiyani o‘rganish juda muhimdir.

Zamonaviy agronomiya sohasida o‘zgarishlar va yangiliklar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yangi texnologiyalar, metodlar va yondoshuvlar global miqyosda keng joriy etilmoqda. Misol uchun, "precision agriculture" (aniq qishloq xo‘jaligi), "genetically modified organisms" (GMO) (genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar) kabi atamalar bugungi kunda qishloq xo‘jaligi amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Bunday atamalarni to‘g‘ri tushunish, o‘zlashtirish va qo‘llash agronomiya sohasida samarali va muvaffaqiyatli ishlash uchun zarurdir.

Ingliz tilining agronomiyadagi terminologiyasini o‘rganish, nafaqat xalqaro ilmiy tadqiqotlar va konferensiyalarda qatnashish uchun muhim, balki milliy qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu sohada ishlayotgan mutaxassislar, o‘qituvchilar va talabalar uchun ingliz tilidagi atamalarni bilish, global tadqiqotlar va yangi bilimlardan xabardor bo‘lish imkonini beradi. Bu esa qishloq xo‘jaligida samarali boshqaruvni amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Shu bilan birga, agronomiya atamalarining ingliz tilida aniq va to‘g‘ri ishlatilishi, global miqyosda ilmiy hamkorlikni kuchaytirish va o‘quvchilarga zamonaviy ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Mavzuning dolzarb ekanligi shundaki, bu masala nafaqat agronomiya

TAMADDUN NURI

sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun, balki ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar va qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga qaratilgan keng doiradagi mutaxassislar uchun ham juda muhimdir. Shunday qilib, ingliz tilining agronomiyadagi o‘ziga xos terminologiya va atamalarini o‘rganish zarurati, ilmiy va amaliy sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun muhim qadam bo‘lib, bu mavzu zamonaviy agronomiya va qishloq xo‘jaligiga oid global muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Muhokama: Ingliz tilining agronomiyadagi o‘ziga xos terminologiya va atamalarini o‘rganish zaruriyati, bugungi ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar uchun juda muhimdir. Qishloq xo‘jaligi va agronomiya sohasining rivojlanishi davomida global miqyosda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va yangiliklar ko‘pincha ingliz tilida taqdim etiladi. Bu holat, ayniqsa, xalqaro ilmiy hamkorlikni va yangi texnologiyalarning keng joriy etilishini ta'minlash uchun zarurdir. Ingliz tilining agronomiya terminologiyasini bilish, mutaxassislarga o‘z faoliyatlarida innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash imkonini beradi, shu bilan birga, global qishloq xo‘jaligi muammolarini hal qilishda ham yordam beradi.

Ayrim hollarda, agronomiya sohasida inglizcha atamalarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash, ilmiy ishlarda yoki amaliy faoliyatda xatoliklardan qochishga yordam beradi. Masalan, "precision agriculture" (aniq qishloq xo‘jaligi) yoki "crop rotation" (ekinlar almashinuvi) kabi atamalarni noto‘g‘ri tushunish yoki qo‘llash, tadqiqotlar va texnologiyalarni noto‘g‘ri tatbiq etishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu atamalarni aniq o‘rganish va ilmiy lingvistikaga mos ravishda ishlatish muhim.

Shuningdek, ingliz tilidagi agronomik terminologiyani o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar va jahon miqyosidagi yutuqlar haqida ma'lumot olishni osonlashtiradi. Agar agronomiya mutaxassislari ingliz tilidagi ilmiy maqolalar va tadqiqotlar bilan tanishsa, ular yangi metodologiyalarni va innovatsion texnologiyalarni o‘z ishlarida qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini samarali boshqarish, barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni himoya qilish kabi muhim masalalarda global hamkorlikni kuchaytiradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, qishloq xo‘jaligi sohasida bilim almashish va global darajada integratsiya qilishning muhimligi ortib bormoqda. Agronomik terminologiyani o‘rganish, o‘quvchilarga nafaqat zamonaviy ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, balki xalqaro miqyosdagi hamkorlikda faol ishtirok etish imkonini ham yaratadi. Ingliz tilining agronomiya terminologiyasini o‘rganish, jahon miqyosida bo‘layotgan agronomik islohotlarni tezda qabul qilish va o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ingliz tilidagi agronomiya atamalarini o‘rganishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, ba'zi atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish yoki tushunishning murakkabligi, sohaning maxsus terminologiyasi va kontekstiga bog‘liq holda paydo bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ba'zi davlatlarda, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ingliz tilidagi bilimlar va terminologiyaga bo‘lgan ehtiyoj hali to‘liq anglanmagan bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ingliz tilining agronomiyadagi o‘ziga xos terminologiya va atamalarini o‘rganish zaruriyati nafaqat agronomiya sohasida ishlayotgan mutaxassislar, balki butun qishloq xo‘jaligi sohasini ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonni amalga oshirish orqali, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar va global hamkorlikni mustahkamlash mumkin. O‘quvchilarga ingliz tilidagi agronomiya atamalarini o‘rgatish, ularning ilmiy va amaliy bilimlarini yanada kengaytiradi, shu bilan birga, global qishloq xo‘jaligi muammolarini samarali hal qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A. (2020). Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.(Betlar: 15-25)
2. Shamsiev, D. (2021). Tilshunoslikda yangi yondoshuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.(Betlar: 45-56)
3. Mamatov, B. (2019). Sun'iy intellekt va ta'lim tizimi: imkoniyatlar va muammolar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.(Betlar: 101-112)
4. Qosimov, R. (2022). Ingliz tili va adabiyoti. Samarqand: Universitet nashriyoti. (Betlar: 63-74)
5. Raxmonov, X. (2020). Lingvistik tadqiqotlar va metodologiya. Toshkent: Akademiya nashriyoti. (Betlar: 88-97).

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.154

TIL VA NUTQ BIRLIKLARI: NUTQIY MULOQOT KO‘RINISHLARI

Abdumalikov Fazliddin Baxtiyor o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

ЯЗЫК И РЕЧЕВЫЕ ЕДИНИЦЫ: ВИДЫ РЕЧЕВОЙ КОММУНИКАЦИИ

Абдумаликов Фазлиддин Бахтиёр угли
Преподаватель Денауского института предпринимательства и педагогики

LANGUAGE AND SPEECH UNITS: TYPES OF SPEECH COMMUNICATION

Abdumalikov Fazliddin Baxtiyor ogli
Teacher at the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail:
fenixmegazone@gmail.com
Tel: +998998738700
https://orcid.org/0009-0000-0393-4544

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til va nutq elementlari hamda ularning nutqiy muloqotni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Dunyo lingvistikasida bu masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va olimlarning fikrlari ham bayon etilgan. Bundan tashqari, nutqiy muloqot ikki asosiy turga – rasmiy va norasmiy uslublarga bo‘linishi tushuntirilgan. Rasmiy nutqiy muloqot uslubi to‘rt funksional guruhga ajratilib, uning og‘zaki va yozma nutqdagi o‘rganilishi muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *nutq, til, rasmiy nutq, og‘zaki va yozma nutq, nutqiy muloqot, xususiyat*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются элементы языка и речи, а также их роль в формировании речевой коммуникации. Освещены исследования, проведенные в мировой лингвистике по данной проблеме, и мнения ученых. Кроме того, разъясняется деление речевой коммуникации на два основных типа – официальную и неофициальную. Официальный стиль речевой коммуникации подразделяется на четыре функциональные группы, обсуждается его изучение в устной и письменной речи.*

Ключевые слова*: речь, язык, официальная речь, устная и письменная речь, речевая коммуникация, особенности.*

Abstract: *This article discusses language and speech elements and their role in shaping speech communication. Research conducted in world linguistics on this issue and scholars' opinions are also presented. Additionally, speech communication is explained as being divided into two main types – formal and informal styles. The formal speech communication style is classified into four functional groups, and its study in oral and written speech is discussed.*

Key words: *speech, language, formal speech, oral and written speech, speech communication, characteristics.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Muloqot insonning asosiy ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, u orqali odamlar fikr almashadi, maslahatlashadi, bahslashadi va o‘z fikrlarini ifodalaydi. Bu jarayonda til va nutq muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Til va nutq o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, lingvistlar ularning o‘ziga xos farqlari borligini ta’kidlaydi. Masalan, F. de Sossyur tilda umumiylik, nutqda esa individual xususiyat mavjudligini ta’kidlagan. V.Ya. Zvegintsevga ko‘ra, nutq harakatchan va dinamik hodisa bo‘lsa, til barqaror va statik xususiyatga ega. Nutqiy muloqot rasmiy va norasmiy turlarga bo‘linadi. Rasmiy muloqot qat’iy qoidalarga

asoslangan bo‘lib, diplomatik, huquqiy, iqtisodiy va harbiy sohalarda qo‘llaniladi. Unda aniq intonatsiya, muayyan leksik birliklar va rasmiy so‘zlashuv uslubi qo‘llanadi. Norasmiy muloqot esa erkin shaklda, qoidalarsiz olib boriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). Tilshunoslikda til va nutq birliklarini o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni tadqiq qilish jarayonida klassik va zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga tayangan holda tahlil olib borildi. Til birliklarini o‘rganishda F. de Sossyur (1916) ning strukturalizm nazariyasi hamda N. Xomskining (1965) transformatsion-generativ grammatika yondashuvi asosiy ilmiy manba sifatida foydalanildi.

Nutqiy muloqot va uning turlari haqida tadqiqotlar J. Ostin (1962) va J. Sorl (1979) tomonidan rivojlantirilgan nutq aktlari nazariyasiga asoslanadi. Ularning tadqiqotlari muloqot jarayonida nutq aktlarining funksional jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. P. Braun va S. Levinson (1987) esa nutqiy etiket va odob me’yorlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarida insonlar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini yoritib bergan.

Mahalliy tilshunoslikda esa A. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev va B. Yo‘ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari til va nutq birliklarining tahlilida muhim o‘rin tutadi. Ularning ishlari tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada quyidagi ilmiy yondashuvlar va metodlardan foydalanildi:

1. Deskriptiv tahlil usuli – til va nutq birliklarining xususiyatlarini tavsiflash va ularning muloqot jarayonidagi o‘rnini aniqlash uchun qo‘llandi.

2. Komparativ usul – turli tillardagi til birliklari va nutqiy muloqot turlarini qiyosiy o‘rganish orqali universal va xos xususiyatlarni aniqlashga yordam berdi.

3. Pragmatik tahlil – nutq jarayonida so‘zlovchilarning niyati va til birliklarining qo‘llanilishiga e’tibor qaratib, ularning kommunikativ funksiyalarini o‘rganishga yo‘naltirildi.

4. Strukturalistik yondashuv – til va nutq birliklarining tizimli xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatildi.

Ushbu metodlar yordamida til va nutq birliklarining kommunikativ xususiyatlari, muloqot jarayonidagi roli va ularning pragmatik jihatlari chuqur tahlil qilindi. Natijalar tilshunoslik nazariyalariga asoslangan holda umumlashtirildi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Til va nutq birliklari lingvistika sohasida muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Til statik tizim bo‘lsa, nutq dinamik jarayon sifatida shakllanadi. F. de Sossyur (1916) ta’kidlaganidek, “til – bu belgilar tizimi, nutq esa ushbu belgilarni amalda qo‘llash jarayonidir” [1]. Bu nuqtayi nazardan til va nutq birliklari bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari lingvistik tahlil uchun muhimdir.

Nutqiy muloqot turli shakllarda namoyon bo‘ladi. J. Ostin (1962) va J. Sorl (1979) tomonidan ilgari surilgan nutq aktlari nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday muloqot faqat axborot uzatish emas, balki ma’lum bir pragmatik niyatni ham anglatadi [2]. Masalan, buyruq, so‘rov, maslahat yoki iltimos shaklida ifodalanadigan nutq aktlari turli ijtimoiy va kommunikativ sharoitlarda farqlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, dialogik va monologik nutqning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Rasmiy muloqotda (masalan, nutq so‘zlash, ma’ruza qilish) mantiqiylik va strukturalilik muhim bo‘lsa, norasmiy muloqotda ekspressivlik va emotsionallik ustuvor bo‘ladi. P. Braun va S. Levinson (1987) o‘z tadqiqotlarida shuni ta’kidlaydiki, nutqiy etiket me’yorlariga rioya qilish ijtimoiy muloqotning uzviy qismi bo‘lib, uning samaradorligini oshiradi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Nutqiy muloqot pragmatik jihatdan ham turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, S. Tomas (1995) ga ko‘ra, «verbal va noverbal kommunikatsiyaning uyg‘unligi muloqotning samaradorligini oshiradi» [4]. Shu boisdan, nutq faqat so‘zlardan iborat emas, balki tana tili, imo-ishoralar, intonatsiya kabi qo‘shimcha omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ishning natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Til va nutq birliklari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, lekin funktsional jihatdan farqlanadi. Til statik tizim sifatida mavjud bo‘lsa, nutq amaliy jarayon sifatida reallashadi.

2. Nutqiy muloqot turlari ijtimoiy va pragmatik kontekstga bog‘liq holda shakllanadi. Dialogik nutq bevosita o‘zaro fikr almashinuvga asoslangan bo‘lsa, monologik nutq auditoriyaga yo‘naltirilgan va yaxlit tuzilishga ega.

3. Nutqiy aktlar kommunikativ jarayonning asosiy qismi bo‘lib, ularning ilokutsion va perlokutsion jihatlari ahamiyatlidir. Nutqiy intonatsiya va kontekst ma’noni yanada aniqroq ifodalashga yordam beradi.

4. Nutqiy etiket va odob qoidalariga rioya qilish muloqot madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular turli madaniyatlarda farqlansa-da, umumiy tamoyillarga ega.

5. Verbal va noverbal kommunikatsiyaning uyg‘unligi muloqot samaradorligini oshiradi. Tana tili va imo-ishoralar og‘zaki nutqni to‘ldiradi va uni yanada ta’sirchan qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Til insonlar orasidagi asosiy muloqot vositasi bo‘lib, lingvistlar uni yaxlit tizim sifatida o‘rganadi. Til va nutq garchi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa ham, ular gnoseologik (umumiylik va xususiylik), ontologik (psixik va fiziologik), pragmatik (ijtimoiy va individual) jihatlari bilan farqlanadi. Ayniqsa, rasmiy muloqotda nutq tarkibi aniq va muayyan qoidalarga asoslangan bo‘lib, hujjat tayyorlash jarayonida maxsus leksik birliklar, frazalar va andozalar ishlatiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)

1. Saussure F. de. Course in General Linguistics. McGraw-Hill, 1916.
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. Harvard University Press, 1962.
3. Brown P., & Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987.
4. Thomas S. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. Longman, 1995.
5. G‘ofurova S., & Abdumalikov F. (2024). Functions Of Syntactical Stylistic Devices Of Ellipsis. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research, 1(4), 229–233.
6. Khudaykulov, Bekhzod, and Fazliddin Abdumalikov. «The Equivalence of the Italian and Uzbek Phrase Logical Units.» International Journal on Orange Technologies, vol. 4, no. 3, 2022, pp. 29-31.
7. Abdumalikov Fazliddin Baxtiyor o‘g‘li “O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning Ishlari» asari uslubiy yondashuvlar talqinida” social sciences 4(11), Dec., 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz
8. Abbosovich, X. B., & Baxtiyor o‘g‘li, A. F. (2024). Translation Problems of Phraseological Units in the Italian Language and Challenges in Using AI tools. SPAST Reports, 1(7). https://doi.org/10.69848/sreports.v1i7.5085

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:101.1

MUTAFAKKIRLARNING TASAVVUF TIMSOLIDA AVLIYO TASVIRI MAHORATI

Axatov Lutfillo Karamatilloyevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri

SKILL OF REPRESENTING SAINTS IN THE MYSTICAL SYMBOLICS OF THINKERS

Akhatov Lutfillo Karamatilloevich, Head of the Department of "Interfaculty Social Sciences" of Chirchik State Pedagogical University

НАВЫК ИЗОБРАЖЕНИЯ СВЯТЫХ В СУФИЙСКОЙ СИМВОЛИКЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, заведующий кафедрой "Межфакультетские общественные науки" Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0000-0002-9804-6220
e-mail: l_axatov@cspi.uz

Annotatsiya: *Tasavvufning rivojlanishi so'fiylar axloqida falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tatbiq qilinadi. Falsafiy-axloqiy qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.*

Kalit so'zlar: *axloq, tasavvuf, so'fiy, ilm, islom, idrok, irfon, falsafa, Naqshband, Movarounnahr, Sharq.*

Abstract: *The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. The essence of philosophical and ethical views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered.*

Key words: *ethics, Sufism, Sufi, science, Islam, perception-mentally, Irfan, philosophy, Naqshband, Mawaraunnahr, East.*

Аннотация: *Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.*

Ключевые слова: *этика, суфизм, суфий, наука, ислам, восприятие- мысленно, ирфан, философия, Накшбанд, Мавараннахр, Восток.*

KIRISH. Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" va Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida mashoyixlar surati va siyrati shunday tasvirlanganki, asar qahramonlari o'quvchi tasavvurida o'zining individual xususiyatlari bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Biz buni Uvays Qaraniy obrazi timsolida ko'radigan bo'lsak, Attor mashoyix ta'rifini shunday tasvirlaydi: "U tobe'inlar qiblasi, arba'inlar peshvosi, pinhon oftob, rahmon hamnafasi, Yaman yulduzidir"[1;27-b.] degan so'zlarni keltirish orqali muallif badiiy adabiyotning "saj" san'atini qo'llaganini, uning tobe'inlarning yaxshisi, ulug'i ekanligini "qibla"ga, haq rizosi uchun xalqdan qochishini "pinhon oftob"ga tashbeh etganini ko'rishimiz mumkin. Muallifning "qibla", "oftob", "yulduz" kabi ramziy ishora so'zlarni qo'llashi obrazdagi tasvirning badiiyligini oshirishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bundan tashqari, muallif Uvays Qaraniy Uhud urushida Payg'ambar (s.a.v.)ning muborak tishlari shahid bo'lganini eshitib, mutobbat uchun tishlarini

ushatgani haqidagi naqlni muallif mashoyix surati va siyratini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlaydi[1; 32-33-b].

Bu holatni Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da quyidagicha tasvirlaydi:

“Birovning vasfikim, aning vassofi Xojai koinot bo‘lg‘ay va nafasi nafasi Rahmon bo‘lg‘ay, vasf qilmoq g‘oyat beadablig‘ bo‘lg‘ay”[2; 39-b.] degan so‘zlarni qo‘llash orqali Navoiy ham “saj” san’atini qo‘llaganini, kimdakim uning vasfini qilmoqchi bo‘lsa, uning vasfini Payg‘ambar (s.a.v) vasf qilib bo‘lganlariga ishora qilgani va Payg‘ambar (s.a.v) vasflarini Xojai koinot (Alloh)ning vasfiga, so‘z (nafas)lari Rahmon (Alloh) so‘zlariga tashbeh ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy mashoyixlar portretini dinamik turga xos belgilar bilan tasvirlaydi. Ya’ni, mashoyix portretini mufassal tasvirlamaydi. Obrazni o‘quvchining o‘zi tasavvur etib olishiga imkon beradi. Navoiy ijodidagi bu o‘ziga xos uslub asardagi epik tasvirning asosini belgilaydi. Garchand ma’lumotlarni qisqa tarzda bayon etsa-da lekin o‘quvchiga tasavvur hosil qilish uchun aniq ma’lumot berishga harakat qilgan. Masalan: Zohir yuzidan piri ma’lum bo‘lmasa va ma’lum bir mashoyixdan birining ruhidan tarbiyat topganni “Uvaysiy” deb atalishini aniq ko‘rsatib bergan.

MUHOKAMA. Bu xususiyat Uvays Qaraniyning fe’lida, amaliy faoliyatida ham o‘zini namoyon etadi. U o‘zini Haq yo‘liga bag‘ishlab, dunyodan yuz o‘girgan; boylik, oltin-javohirga bepisand qarab, sabr-u tahammul, mehr-u muruvvat, taqvoni o‘ziga qurol qilib olganini, Iloh jamoliga yetishish, g‘aybning sir-u asrorini kashf etish uchun tinmay izlanish, ruhiy tarbiya orqali ruhni imtiyozlantirib, har kimga ham muyassar bo‘lmaydigan, ya’nikim, hech bir vositasiz Payg‘ambr (s.a.v.) ruhidan tarbiya topish Uvays Qaraniyga o‘zgacha xosligini mualliflar o‘ziga xos bir uslublar vositasida tasvirlagan. Allohning so‘zi bor: “Bu Allohning fazlidirki, uni O‘zi xohlagan kishilarga berur. Alloh ulug‘ fazl sohibidir!” [Juma surasi, 4-oyat].

Attor va Navoiy asarlari (“Tazkirat ul-avliyo” va “Nasoyim ul-muhabbat”)da mashoyixlar siyrati (ruhiyat)ni tasvirlashda tush epizodidan mohirona foydalangan.

Attor Utba ibn G‘ulom qissasidagi bir naqlda quyidagicha keltiradi:

Naqldurki, shayx Utbani bir aziz tushida ko‘rdi. Uning yuzining bir tarafi qoraygan ekan. Dedi:

- Nima sababdan bu balo bo‘ldi?

Utba dedi:

- Bir kuni ustozim xizmatiga bordim. Bir ko‘rklik o‘g‘lon keldi. Unga bir nazar soldim. Alloh meni jannatga buyurdi, yo‘limda do‘zax bor edi.

Bir ilon chiqib keldi, o‘zini ustimga soldi va bir yon yuzimga urdi.

Yana dedi:

- Bu o‘g‘longa bir nazar solganing uchun balo bo‘ldi. Agar ko‘p boqsang edi, men senga ne azoblar va ne itoblar qilar edim! [1; 78-b.]

Attor qissadagi naqlda qahramonlar potretini chizishda, ularning sifatlarini tasvirlashda boshqa qahramonlardan foydalanadi, ya’ni tasvirlash vazifasini ularga yuklaydi. Muallif bu bilan o‘zining badiiy mahorati qanchalar yuksak ekanligini yana bir bor ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi.

Haqiqatan ham, Attor va Navoiyning nasriy tili – o‘ziga xos. Ayniqsa, “Tazkirat ul-avliyo” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlardagi til mualliflarning boshqa ijod mahsullaridagidan keskin farq qilib turadi. Bu ikki asarda ulug‘ kalom va qalam sohiblarining real insonlar siymosini yaratish mahorati namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham adabiyotshunos va tilshunos olimlarimiz bu tilni o‘rganish yo‘lida ko‘plab ishlarni amalga oshirishlariga to‘g‘ri keladi. Sababiki, XV asr tili bugungi til emas, albatta. Navoiyning tili, ayniqsa nasriy asarlari tili bugungi o‘quvchi uchun juda murakkab bo‘lgan til. Shuning uchun ham, Navoiyning barcha nasriy asarlariga tabdil matni tayyorlanishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida Navoiy asarlarini omma orasida tahlil qilish va undan bahramand bo‘lishni ta’minlaydi.

NATIJALAR. Adabiyot ahli uni badiiy asar sifatida o‘rganadi. “Nasoyim ul-muhabbat”da Shayx Farididdin Attorning she’riyatida ilohiy sir va zavq-u vajd haqiqatlari aks etganligi, Shayx Sa’diy Sheroziyning “ulumdin tamom bahrasi va odobdin komil nasibi bor”ligi, “Bo‘ston” va “Guliston” asarlarining mashhurligi, Shayx Nizomiyning taqvo va uzlatu inzivo bilan yashab, “hargiz soyir shuarodek hirs-u havo g‘alabasidin dunyo arbobig‘a iltijo qilmagan”ligi, Shayx Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” asarida asl ma’rifat va haqiqat sirlari bayon etilgan[8; 6(7),130-133b.] Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘z mulkining

sultonlari tasavvuf va tavhid ilmining nozik masalalari, ma'rifat asrori, tariqat maqomlari, poklanish jarayoni va ruhiy kamolot darajalarini ramziy-tamsiliy hikoyatlar talqini, hayajonli, lekin yorqin she'riy satrlarda tasvirlaganlar. Bu esa tasavvufning sof nazariy ma'nolarini teran anglashilishi, shuningdek, sufiyona g'oyalarning ommaviylashuviga yo'l ochgan.

Tazkirada Sayyid ut-Toifa Junayd Bag'dodiyga to'xtalganda Navoiy asarning badiiy uslubidan foydalanib unga quyidagicha ta'rif bergan:

"Va ham aning so'zidurkim, (himmatingni Alloh taologa qarat. Allohni mushohada qiladigan ko'zing bilan Allohdan boshqaga qaramagin, chunki Uning nazaridan chetda qolishing mumkin. Junayddan so'rashdi: Urinmasa ham, ato (tuhfa) bo'ladimi?" deb so'ralganda, u: "Barcha ishlar U (Alloh)ning atosidir", dedi). Shayx Abu Ja'far Haddod debdurki: "Agar aql kishi suratiga kirsa erdi, Junayd surati bo'lg'oy erdi"[1; 83-b].

Junayd Bag'dodiy o'zining mukammal diniy va falsafiy bilimiga tayanib, mantiqiy fikrlab, dadil xulosalar chiqara oldi:

Inson o'zicha hech qanday bir xizmatlar qilishi mumkin emas. Uning har bir harakatini Allohning ne'mati deb bilamiz. Yana bu harakatlar uchun ajr so'rashimiz mantiqdan emas. Junayd Bag'dodiy ta'limoti tasavvuf tarixida qudratli to'lqin qo'zg'atdi. Tasavvuf tarixida unga qayta-qayta murojaat qilishgan[7;34-b].

Attor o'z asarining badiiyatini oshirishda ayrim mashoyihlarning ijodidan misollar keltiradi. Ayniqsa Zunnun Misriy ta'rifida uning she'riy baytlarini aytib o'tadi.

[9; ١٢٨-128-b.] **الخوف امرضنى والشوق احرقنى**
والحب اصفدنى والله احيانى

(Meni xavf kasal qildi, shavq kuydirdi,
Muhabbat o'ldirdi, Alloh tiriltirdi).

Ushbu baytdagi "**احرقنى**" (ahraqni), "**احيانى**" (ehyoni) kabi qofiyadosh so'zlarning qo'llanilgani hamda "o'ldirdi", "tiriltirdi" kabi so'zlarning qo'llanilishi badiiy san'atdagi tazod san'atining qo'llanganligi asar badiiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Unutmaslik kerak, tasavvuf va uning mohiyati haqida so'z borganda, mutasavvif-Ulamolar istilohidagi ilmiy va amaliy jihatdan bergan ta'riflari asosida olingan "xulosa"lar muhim ahamiyatga ega. Bunda: 1. Qalbning va boshqa his qilish sezgilarining taqvoli bo'lishiga sabab bo'ladigan asoslarni bilish *ilmiy tasavvuf* deyiladi. 2. Dinda buyurilgan narsalarni ado etishda ehtiyotkor bo'lish, man qilingan narsalardan saqlanish va ruxsat berilgan masalalarda zarurat miqdori bilan kifoyalanish *amaliy tasavvuf* deyiladi[4;4-b.] deb qaraladi.

XULOSA. Shuning uchun, ilmga bo'lgan munosabat diqqat-e'tibor markazida bo'ladi doim. Imom Zarnujiyning ta'birida: Ogoh bo'l, ilm va uning fayz-u ravnaqi olti narsaga rioya qilinganda hosil bo'ladi. Ularning barchasini bayon etay: zakovat-ziyraklik, ilmga chanqoqlik, sabr-u qanoat-la yetuklik – kifoyatlik, ustoz irshodi – yo'llanmasi hamda uzoq vaqt [5.33-b.] deb aytiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Т.: Ғафур Ғулом, 2017.
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Т.: Movarounnahr nashriyoti, 2017.
3. Akhatov. The Problem of Human Psychological Crises in the Views of Emil Durkheim. *Наука, образование и культура* 6.50 (2020): 50-57. Web.
4. Шайх Зулфиқор Аҳмад Нақшбандий. Тасаввуф вас-сулук. – Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 2023. – Б. 4.
5. Имом Зарнужий. Таълимул мутаъаллиму тариқат таъаллими. - Илм олиш сирлари. – Тошкент: Munir. 2022. – Б. 33.
6. Akhatov, L. (2020). The spiritual connection of Sufism and Tolerance in the works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, *1*(2), 1-4.
7. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. –Т.: Шарқ, 2001.-Б.34.
8. Akhatov, L. (2020). The problem of tolerance in oriental philosophy. *Journal - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, *6*(7), 130-133.
9. " تذكرةُ الأولياءِ" شيخ ابى حامد محمّد بِنِ اَبى بَكرابراهيم فَريدالّدين عطّارنيشاربورى/ چاپ بنجم انتشارات مركزى خيابان شاه مقابل مسجد سجاد/ در سدهٔ هفتى هجرى. ص. ١٢٨
10. Akhatov, Lutfillo. The Spiritual Connection of Sufism and Tolerance in the Works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications* 2 (2020): 1-4. Web. Apr. 2020.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.102

REKLAMA MATNLARI TILSHUNOSLIKDA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Axmedova Adolat Ravshan qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o'qitiuvchisi

РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

Ахмедова Адолат Равшановна
Преподаватель Термезского государственного педагогического института

ADVERTISING TEXTS AS AN OBJECT OF RESEARCH IN LINGUISTICS

Akhmedova Adolat Ravshan kizi
Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: adolataxmedova1996@gmail.com
Tel: +99891 575 78-71
https://orcid.org/0009-0008-5072-2083

Annotatsiya: *Hozirgi kunda reklama matni jamiyatda muhim rol o'ynab kelmoqda. Ayni vaqtda har bir mahsulotni reklamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ushbu maqolada reklama o'zi nima, reklama matni nima va u qanday tuziladi, hamda uning ahamiyati haqida nazariyalar keltirib o'tilgan. Reklama matnining tadqiq etishning nazariy asoslari haqida muhokama va natijalar ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *reklama, reklama matni, so'z turkumlari, biriktmalar, iboralar.*

Аннотация: *В наше время рекламный текст играет важную роль в обществе. При этом каждый товар невозможно представить без рекламы. Поэтому в данной статье представлены теории о том, что такое реклама, что такое рекламный текст и как он создается, а также его значение. Обсуждаются и приводятся результаты теоретических основ исследования рекламного текста.*

Ключевые слова: *реклама, рекламный текст, фразы, сочетания, выражения.*

Abstract: *Nowadays, advertising text plays an important role in society. Nowadays, it is impossible to imagine any product without advertising. Therefore, this article presents theories about what advertising is, what advertising text is and how it is composed, as well as its importance. The theoretical foundations of the study of advertising text are discussed and the results are presented.*

Key words: *advertising, advertising text, word groups, combinations, phrases.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yillar davomida reklama jamiyatda muhim rol o'ynamoqda. Qadim zamonlardan beri odamlar mahsulotni sotish uchun reklama qilish qobiliyatni rivojlantirib kelmoqda. Hozirgi kecha-kunduzda ijtimoiy hayotni reklamalarsiz tasavvur etib

bo‘lmaydi. Chunki reklama kundalik ehtiyojga, aniqroq qilib aytganda bozor talabiga aylanib qoldi. Bugungi kunda reklama matnlari eng muhim vazifani bajaradi. Tovar va xizmatlarning erkin bozorida hech qanday brend reklamasiz qila olmaydi. Funktsional va stilistik tillar orasida reklama tili alohida o‘rin tutadi. Reklama matni shu maqsadda yaratilgan potentsial va mavjud iste’molchilarni har qanday mahsulot, xizmat yoki voqea haqida xabardor qiladi. Reklama iste’molchiga erishish, uning xohish-istaklarini uyg‘otish, sotish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Maqsadli iste’molchilarni jalb qilish uchun reklama beruvchilar rangli rasmlar, so‘zli o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, shiorlar, tasvirlar, jargonlar, musiqa va jingllardan foydalanadilar. Reklama qilinayotgan mahsulot kerakli kontekstda ko‘rsatilgan bo‘lib, his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va auditoriyada zavq olishga va’da beradi. mahsulot sotib oladilar. Cross fikricha, «yarim ongli ravishda, hatto bema’nilik bilan biz reklamalar xulq-atvorimizni o‘zgartirishga ruxsat beramiz va ular o‘rgatayotganda qanday qilib harakat qilish va qanday kiyinish, nima yeyish va nima haydash haqida o‘zligimizni shakllantiradi”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Reklama tarixi, uning qadimgi holati, shakllari va jamiyat hayotida tutgan o‘rni masalasida tadqiqotlar olib borilgan va reklamaga alohida bir ijtimoiy hodisa sifatida yondashuv haqidagi muhim ma’lumotlar dastavval L.Vinnichuk, L.Seneka, Ye.Romat, S.Kovalev, M.Jukova, V.Uperov, Ye.Fedorova, K.Byuxer, L.Kornilov, Ch.Sendidj, V.Frayburger, K.Rotsol, Sh. Abdullaeva, P. Nosirov, A.Madvaliev kabi taniqli reklamashunos va tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Reklama matni, uning turlari, vazifalarini hamda lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator dissertasiya ishlari, darslik va qo‘llanmalar mavjudligini ta’kidlash mumkin. S.Berdishev, V.Lipatova, D.Rozental, N.Koxtev, V.Uchenova, S.Shomova, T.Grinberg, K.Konan’gxin, F.Sharkov, V.Shuvanov, A.Nazaykin, V.Tulupov, I.Imshineskaya, I.Krilov, Yu.Shatin, O.Feofanov kabi olimlarning monografik tadqiqotlari va ilmiy metodik qo‘llanmalari shular jumlasidandir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Reklama (lotincha: reklamo – “qichqirmoq”) – tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko‘riladigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to‘g‘risida tarqatiladigan maxsus axborot. Reklama (lotincha: reklamo – “qichqirmoq”) – tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko‘riladigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to‘g‘risida tarqatiladigan maxsus axborot. Reklama matni kopirayterlar tomonidan matn yaratish va uni o‘quvchi tomonidan talqin qilishning taxminiy faktidan iborat faoliyatining oraliq natijasidir. Shu bilan birga, biz E.A.Terpugovaning muhim fikr-mulohazasiga qo‘shilamiz, «reklama matnini izohlash kechikmoqda va uning manzili faqat vaziyatda gipotetik jihatdan» mavjud. «Reklama», «reklama matni» va «reklama nutqi» kabi tushunchalarni farqlash zarur. 2008-yilda VM Leychik ta’kidlaganidek, «hozirgi kungacha reklamaning ajralmas komponenti bo‘lgan lingvistik komponentining xilma-xilligiga aniqlik kiritilmagan: bu nima - til, uslub, nutq, nutq faoliyati”. Reklamaning lingvistik komponenti masalasi haligacha olimlar uchun ochiqdir.V.M.Leychikdan keyin, “til (nutq, nutq faoliyati) reklama faoliyatining barcha bosqichlarida ajralmas vosita bo‘lib qo‘llaniladi va ilmiy fanlar tilshunoslikka oid fanlar bilan tizim sifatida emas ishlaydigan til sifatida ishlashi ekanligini qayd etadi», biz reklama faoliyatini «muqarrar «stansiyalar» - to‘xtash joylari bilan diskursiv jarayon sifatida ko‘rib chiqamiz, ular asarlar (reklama) mahsulotlar)», ya’ni reklama matnlaridir. Reklama matnini tahlil qilishda uning tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Reklama matnining tuzilishi, aslida, asosiy lingvistik xususiyatlarini belgilaydi. Yu. S. Bernadskaya ta’kidlaganidek, “samarali reklama matnini yaratish uchun siz matn tuzish qoidalarini bilishingiz va uning kompozitsion navlarini amalda qo‘llay olishingiz kerak”.

L. G. Feshchenko ta’kidlaydiki, reklama matni «murakkab semantik yaxlitlik bo‘lib, unda tasodifiy, kommunikativ bo‘lmagan yuklangan komponentlar uchun joy yo‘q - bu tufayli. yechim pragmatik, bunday matndagi reklama vazifasining har doim asosiy hisoblanadi. Bu esa uning og‘zaki va noverbal tarkibiy qismlariga teng e’tibor berishni nazarda tutadi». Shuning uchun reklama matnlarini tahlil qilishda reklama xabarining noverbal

komponentining xususiyatlarini va reklama qilinayotgan mahsulot obrazini yaratishda uning axborotni almashtirishdagi rolini hisobga olish kerak. Reklama matnining asosiy og‘zaki komponentlariga sarlavha, sarlavha, asosiy matn, shior kiradi. Ko‘pgina tadqiqotchilar qo‘shimcha ravishda reklama rekvizitlarini ajratib ko‘rsatishadi (Yu. S. Bernadskaya, L. G. Feshchenko va boshqalar).

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Reklama matnida ta’sir qilish funktsiyasi bundan kam ahamiyatga ega emas, chunki reklama beruvchining asosiy vazifasi iste’molchiga ta’sir ko‘rsatishdir. reklama xabaridan foydalanish. E. Yu.Koltisheva ta’riflaganidek, “reklama matni (RM) pragmatik matnning maxsus turidir.

Reklama matnining o‘ziga xosligi uning ta’sirga qaratilganligi bilan bog‘liq; shu bilan birga, ta’sir funksiyasi matnning turli darajalarida amalga oshiriladi: barcha mumkin bo‘lgan semiotik tizimlar va vositalar qo‘llaniladi. Aynan matnlarning pragmatik yo‘nalishi. Reklama matnining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘p jihatdan belgilaydigan va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantirish uchun hal qiluvchi omil bo‘lib chiqadi, masalan, kreolizatsiya (semiotik murakkablik), stilistik heterojenlik, ekspressivlik, baholash, dialog, kompozitsiya xususiyatlari va tuzilishi»

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, reklama bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Reklama har bir mahsulot ommaga tanitadi va ushbu mahsulotga bo‘lgan qiziqishni va uni harid qilishga jalb qiladi. Haridorlar o‘zlari istamagan holatda ushbu mahsulotning reklamasi orqali sotib olishadi. Mahsulotni sotishda reklama matnlarining roli ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Reklama matnlarining asosiy vazifasi xaridorda qiziqish uyg‘otish va uni mahsulotni sotib olishga undashdir. Ko‘pgina reklama beruvchilar reklama matnlarini yaratishda psixologik, madaniy va ijtimoiy ishontirish manipulyatsiyalarida leksik, ritorik, sintaktik va boshqa lingvistik vositalardan katta spektrlaridan foydalanadilar.

Muvaffaqiyatli reklama to‘rtta asosiy funksiyani qat darajada bajarishi orqali aniqlanadi:

diqqat qiymati;
oson o‘qilish;
esda qolish;
sotuv kuchi.

Hozirgi kungacha reklamaning ajralmas komponenti bo‘lgan lingvistik komponentining xilma-xilligiga aniqlik kiritilmagan. Reklama matnining og‘zaki komponenti shior, sarlavha, asosiy reklama matni va echo iboradir. Ikonik komponenti esa reklama qilinayotgan mahsulot (xizmat)ni aks ettiruvchi fotosuratlar, chizmalar, grafikalar hisoblanadi.

Reklama tilining keng tarqalgan grammatik xususiyati bu ehtimolli mijozlarni mahsulotni ko‘rishga undaydigan buyruq va deklarativ jumlalardan foydalanishdir.

Reklama beruvchi mahsulotni targ‘ib qilmoqchi bo‘lsa, har doim yoqimli tabrik so‘zlarini tanlaydi va salbiy so‘zlarni tashlab qo‘yadi, bu usul iste’molchining qiziqishini deyarli uyg‘otadi va ularning e’tiborini jalb qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Akhmedova Adolat Ravshan kizi. (2022). Problems of Formation of Phonetic Competence of Students (A Level 1). Eurasian Scientific Herald, 6, 160–162.
2. Arens, W. F., Weigold, M. F., & Arens, C. Contemporary advertising and integrated marketing communications. (13th ed.). New York: McGraw Hill, 2011.
3. Cross M. Advertising and Culture: Theoretical Perspective London: Praeger, 1996.
4. Leech, G. English in advertising: A linguistic study of advertising in Great Britain. London: Longman, 1966.
5. Pilátová A. The Language of Advertising: Analysis of Advertising Slogans in Fast Food Industry, Diploma thesis Brno, 2015.
6. Лейчик В. М. Реклама: язык, речь, общение: учебное пособие. – М. 2008, – 18 с.
7. Терпугова, Е. А. Рекламный текст как особый тип императивного дискурса: дис. канд. филол. наук: 10.02.01 / Терпугова Елена Алексеевна. – Иркутск, 2000 – 181 с.
8. AXMEDOVA, A. (2023). NEMIS TILI FONETIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTRIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI. *Journal of Research and Innovation*, *1*(4), 42–45.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:008.314.316.7.34

O‘QUVCHILAR EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING USTUVORLIGI

Azamova Sitora Ayonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi, f.f.f.d (PhD)

ПРИОРИТЕТ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ

Азамова Ситора Айоновна
Шахрисабзский государственный педагогический институт, кафедра «Общественные науки», (PhD)

THE PRIORITY OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IS TO RAISE STUDENTS’ ENVIRONMENTAL AWARENESS

Azamova Sitora Ayonovna
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Department of “Social Sciences” (PhD)

Tel: +99897 240 96 98
E-mail: azamovasitora04@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-3663-4441

Annotatsiya: *Maqolada uzluksiz milliy tarbiya tizimida o‘quvchilar ekologik ongini yuksaltirishda ekologik tarbiyaning ustuvorligi dolzarb muammo ekanligi haqida fikr bildirilgan. Ekologik madaniyat jamiyatni saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadigan umuminsoniy madaniyatning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Kishilarning ekologik bilimlari ularning ekologik madaniyatlaridan dalolat beradi.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, tarbiya, globallashuv, madaniyat, ekologik madaniyat, ong, ekologik ong, qadriyat, ekologik shaxs, komil inson.*

Аннотация*: В статье высказывается мнение, что приоритет экологического образования в повышении экологического сознания учащихся в системе непрерывного отечественного образования является актуальной проблемой. Экологическая культура является важным показателем общечеловеческой культуры, способствующей сохранению и развитию общества. Экологические знания людей свидетельствуют об их экологической культуре.*

Ключевые слова*: экология, образование, глобализация, культура, экологическая культура, сознание, экологическое сознание, ценности, экологическая личность, совершенный человек.*

Annotation: *The article expresses the opinion that the priority of environmental education in increasing the environmental awareness of students in the system of continuous national education is an urgent problem. Ecological culture is an important indicator of universal culture, contributing to the preservation and development of society. People’s ecological knowledge attests to their ecological culture.*

Key words*: ecology, education, globalization, culture, ecological culture, consciousness, ecological consciousness, values, ecological personality, perfect man.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish ekologik tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshadi. Ekologik tarbiya – ekologik ta’limning asosini tashkil etadi va uni amalga oshirishdan boshlanadi. “Ekologik shaxs” mana shu ekologik ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadi hamda mamlakat barqaror ekologik taraqqiyotini belgilab beradi. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim va tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim va

tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Chunki, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Ekologik tarbiya yil sayin tobora dolzarblashib bormoqda. U tarbiyaning boshqa shakllari bilan uyg‘un tarzda rivojlantirilib borilishi kerak. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurroq anglab olish uchun uni tarbiya tizimi kontekstida, uning turli shakllari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilmoq kerak. Ekologik tarbiyaning tarbiya tizimidan ayri holda talqin etilishi mazkur fenomen haqida ilmiy tasavvurlar hosil qilishga xalal beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tarbiya masalalari bilan shug‘ullangan barcha mutaxassislar uning turli shakllari mavjudligini qayd qiladilar. Biroq, odatda, bunda tarbiyaning o‘z mazmuniga ko‘ra turli shakllarga bo‘linishi nazarda tutiladi, xolos. Aytaylik, tarbiya mazmunan aqliy, mehnat, jismoniy, axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, iqtisodiy va shu kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda, unutmaslik zarurki, tarbiya nafaqat o‘z mazmuniga ko‘ra, balki institutsional belgilari, tamoyillariga ko‘ra ham turli shakllarga ega. Tarbiya masalalari odatda pedagoglar tomonidan puxta o‘rganiladi. Biroq, bunda masalaning bir jihati e’tibordan chetda qolib ketadi. Pedagoglar o‘z faoliyatlari ta’lim muassasalari bilan bog‘liq bo‘lgani bois ko‘proq bolalar, o‘smirlar va yoshlar tarbiyasi xususida bosh qotiradilar. Vaholanki, masalaga ijtimoiy-falsafiy yondashsak, tarbiya insonning butun umri mobaynida davom etadigan jarayondir. Shu boisdan tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilishi qay darajada muhim bo‘lsa, uning ijtimoiy-falsafiy talqini ham shu qadar ahamiyatlidir.

Ekologik tarbiyaning boshlang‘ich nuqtasi oila bo‘lsa, uni rivojlantirish maskani umumta’lim maktablaridir. Umumta’lim maktablarida ekologik tarbiya berish har tomonlama qamrab olinadi. O‘quvchilar bo‘sh qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Zero, umumta’lim maktablarida ta’lim va tarbiyani rivojlantirish mamlakatimiz ta’lim siyosatining bosh maqsadiga aylangan. Shunga ko‘ra, *ekologik tarbiya o‘z mazmuniga ko‘ra tarbiyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan maqsadga muvofiq tarbiyaviy jarayondir[3].* U turli subyektlar tomonidan olib borilishi mumkin. Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirishdan iborat. Uning yo‘nalishlari va vazifalari ana shu maqsaddan kelib chiqadi, uslublari va usullari esa unga muvofiq ravishda umumta’lim maktablariga xos ravishda tanlanadi. Jumladan, umumta’lim maktablarida maqsadga mos tarzda, ekologik tarbiya ikki asosiy yo‘nalishda (o‘quvchilar ekologik ongini yukasaltirish; o‘quvchilar ekologik faoliyatini takomillashtirish) amalga oshiriladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda umumta’lim maktablari shaxs tafakkurini harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini o‘taydi. Maktab shaxs kamolotining mustahkam poydevori bo‘lib, mamlakatimiz umumta’lim maktablarida tarbiya tizimini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur” nomli videoselektor yig‘ilishida xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha yettita muhim masalani kun tartibiga qo‘ygan edi. Unda, “tarbiya masalasida 20 – 30 yil oldinni ko‘zlab ish olib borishimiz kerak. Ya’ni, kelgusida hayot bizning oldimizga qanday o‘tkir va keskin talablarni qo‘yadi, qanday dolzarb muammolar yo‘limizda paydo bo‘lishi mumkin? Ularni bartaraf etish uchun bizga qanday kadrlar kerak bo‘lishi haqida hozirdan o‘ylashimiz zarur”, degan edi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Yuqoridagi institutsional yondoshuv tizimidan kelib chiqib, ekologik tarbiyaning turli shakl va uslubda amalga oshirilsa, yanada samarali bo‘ladi. Tarbiya obyektining xususiyatlari yangilangani sayin bu shakl va uslublar ham o‘zgara boradi. Masalan, oilada, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim (1–4, 5–11-sinflardagi ta’lim), maktabdan keyingi tarbiya bir-biridan farq qiladi [5]. Ammo, insonning qabul qilish va o‘rganganlarini mustahkam saqlab qolish poydevori tug‘ilganidan maktabni tamomlagunga qadar bo‘lgan davridir. To‘g‘ri, inson hayoti davomida o‘zgarib madaniylashuvchi mavjudot. Lekin insonning umri davomida juda ko‘p saqlanib qoluvchi xarakteri mustaqil hayotga qadam qo‘ygunga qadar davri bo‘lib, hayotining oxiriga

qadar o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Shu sababli xalqimiz “Bola boshidan”, “Bo‘larmonning bolasi o‘n beshida bosh bo‘lar, bo‘lmaydiganning bolasi qirq yoshida yosh bo‘lar,[6] “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqshdir” degan va boshqa uyqash maqollarning zamiridagi tarbiyaga alohida e’tibor qaratib kelgan. Tarbiyaning bu uslubi bir necha ming yillardan beri o‘z ta’sirini yo‘qotmagan. Ota-bobolarimiz erishgan marralarni osongina boy berib qo‘yamiz”[2]. *Bu fikrlar zamirida ekologik madaniyatda ham ergashtiruvchi bo‘lmog‘imiz aks etadi. Zero, farzandlarimiz tabiatni tabiat uchun emas, balki inson uchun, uning kelajagi va ravnaqi uchun asrashini tushunib yetmoqlari lozim bo‘ladi.*

Ekologik tarbiya jarayonida ham diniy qadriyatlardan foydalanish umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik tafakkurni oshirishga yordam beradi. Diniy qadriyatlarning ustuvor jihatlaridan biri ommaning ilmiylikka emas, ko‘proq diniylikka intilishidadir. Mustaqillikdan keyin diniy va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi xalqimizning islomiy e’tiqodlarini mustahkamlashga sharoit yaratdi. Diniy qadriyatlar va tarbiya jarayoni, bir tomondan, o‘quvchilarning diniy dunyoqarashini, ikkinchi tomondan, ularning ekologik tafakkurini, uchinchi tomondan, diniylik va dunyoviylikning asl mohiyatini anglab yetishiga zamin hozirlaydi.

Qur’oni karim va Hadisi sharifda tabiatga munosabatning diniy normalari, ekologik munosabatlarga oid qoidalar berilgan. Masalan, “An’om” surasida: “Isrof qilmangiz! Albatta, U isrof qilguvchilarni sevmaydi” deb, qayd etilgan. Shuningdek, “Baqara” surasida: “Osmonlar va Yerdagi bor narsa Allohnikidir. Ichingizdagi narsani oshkora qilsangiz yoki yashirsangiz ham Alloh sizlarni u bilan hisob-kitob qilur” deyilgan [7]. Barcha narsalar yaratgan zotga tegishli ekan, inson ham unikidir. Ammo, barcha narsalar inson uchun, uning manfaati uchun berilgan. Shunday ekan, barcha narsalarni asrab-avaylash ham insonning o‘ziga berilganligi nazarda tutilgan.

“Komil inson” faoliyati universal xarakter kasb etib, o‘zining ilmiy-nazariy, siyosiy-huquqiy, diniy va boshqa faoliyatini ekologiyalashtirishga ham yo‘naltirgan bo‘ladi,[8] degan g‘oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirib borish zarur. Bu tarbiyaning ta’sirchan mexanizmini tashkil etadi. Umume’tirof etilgan zamonaviy qadriyatlardan foydalanish O‘zbekiston ta’lim muassasalarining asosiy ta’lim shakli hisoblanadi. Umumta’lim maktablarida ta’lim tizimi zamonaviylashgan va xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Butun uzluksiz ta’lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit “Ta’lim kodeksi”ni ishlab chiqish[1] ustida ish olib borilmoqda. Chunki, ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiiy fanlar bilan birgalikda ijtimoiy fanlarning roli va o‘rni ham beqiyos. Inson ma’naviy tafakkuri ko‘proq ijtimoiy fanlarning ta’sirida kechadi. Shu bois, ekologik xavfning ijtimoiy mohiyatini singdirish ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifasiga aylangan. Biz davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida halol mehnat qilgan, bu borada barcha ijtimoiy chaqiriq va da’vatlarga “labbay” deb javob bergan ota-onalar avlodi ta’sirida tarbiyalandik. Ularning bunday avlod bo‘lishida ijtimoiy fanlar tizimining o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgani barchamizga ma’lum[1].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O‘zbekistonda umumta’lim maktablarini to‘liq zamonaviylashtirishda ba’zi muammolar ham yo‘q emas. Zamonaviylashgan maktablar, avvalo, bir smenali bo‘lishi shart. O‘quvchilar shunchaki bir smenada sinf mashg‘ulotlarini o‘tib qaytishi emas, aksincha uyga vazifalar va qo‘shimcha mashg‘ulotlarning ma’lum qismini bajarishi hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etishi ham ta’minlanishi zarur. O‘shandagina o‘quvchilarga tarbiya uslubi samarali ta’sir etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – B.240.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 2020. – B.151.
3. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekiston ekologik siyosatiga ta’siri. F.f.f.d. diss. avtoref. – Samarqand, SamDU. 2022.
4. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.
5. Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolarining tarjimasi – T: “Hilol-nashr”, 2021. – 620 b.
6. Omonov B. Postmodern jamiyatda ekologik tarbiya zaruriyatining kuchayishi// Postmodern jamiyat va inson muammosi// Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Qarshi. 2015. – B.29.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:801.8.1291

TIBBIY TERMINOLOGIK TADQIQOTLAR DOIRASIDA TIBBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI

Murtazayeva Xadicha Nuriddinovna
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali ingliz tili o'qituvchisi

ФОРМИРОВАНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ В РАМКАХ ИССЛЕДОВАНИЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Муртазаева Хадича Нуриддиновна
Преподавательница английского языка Термезского филиала Ташкентской медицинской академии

FORMATION OF MEDICAL TERMS WITHIN THE FRAMEWORK OF MEDICAL TERMINOLOGICAL RESEARCHES

Murtazaeva Xadicha Nuriddinovna
English teacher of the Termez branch of theTashkent Medical Academy

E-mail: xadichamurtazayeva7777@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-3495-8977

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiy terminlar borasidagi qarashlar, tibbiy terminologik tadqiqotlar doirasida ularning shakllanish masalalari borasida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tibbiy atamalar, terminologik tadqiqotlar, tibbiy terminlarning shakllanish masalalari, morfologik shakllanish, klinikal lingvistika.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются взгляды на медицинские термины, вопросы их формирования в рамках медицинских терминологических исследований.*

Ключевые слова: *медицинские термины, терминологические исследования, вопросы образования медицинских терминов, морфологическое образование, клиническая лингвистика.*

Annotation: *This article discusses views on medical terms, issues of their formation within the framework of medical terminological research.*

Key words: *medical terms, terminological research, issues of formation of medical terms, morphological formation, clinical linguistics.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tibbiy atamalar terminologiyada muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Anatomiya, farmakologiya, diagnostika va boshqa bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'luvchi, asosi lotin va yunon tillariga borib taqaladigan ushbu terminologik guruh xalqaro ahamiyat kasb etib, o'zining ma'lum shakllanish usullariga ega. Tibbiy terminologiya tibbiy lingvistika, terminologik tadqiqotlar va klinikal lingvistika tarkibida o'rganilmoqda hamda bu sohada turli izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarda tibbiy atamalar, ularning kelib chiqishi, tuzilishi va bolalar kasalliklari bilan bog'liq terminlarning kontekstlarda qo'llanilishi kabi masalalar o'rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tibbiy terminologiya borasidagi tadqiqotlar asosan xorij olimlari nomi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek olimlari ham bu borada sezilarli ilmiy izlanishlar olib borganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, Tatyana Kiyak "Tibbiy terminologiyaning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanishi"; Nina Arutyunova "Tibbiy atamalar va ularning semantikasi"; Raisa M. Gorpinich "Tibbiyot terminologiyasining tarixiy taraqqiyoti va uning

lingvistik asoslari” yo‘nalishida izlanishlar olib borgan bo‘lsa; Peter Sandiford “Tibbiy terminlar va ularning xalqaro tasniflanishi”; Harald Kittel “Tibbiy tarjima va terminologiyaning lingvistik jihatlari’; John Humbley “Kasallik nomlarining etimologiyasi va tibbiyotdagi termin yaratish jarayonlari” nomli tadqiqotlarida o‘z xulosalalarini bildirishgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu borada o‘zbek tilshunosligida ham muhim qadamlar qo‘yildi. Sh. Shomahmudov – O‘zbek tibbiy terminologiyasi, jumladan, bolalar kasalliklari bilan bog‘liq atamalarni o‘rganib, ularni milliy tilga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlar qilgan bo‘lsa, M. Abdullayev “O‘zbek tilida tibbiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishi”; X.Qo‘chqorov “Tibbiy terminlarning lingvistik va semantik xususiyatlari” kabi ilmiy izlanishlari tibbiyot sohasidagi bilimlarning mukammallashuviga asos bo‘lgan [4].

Olima E.I.Chupilinaning “Zamonaviy ingliz tili tibbiy terminologiyasidagi umumiste’mol so‘zlarining struktural-semantik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy ishida tibbiy terminlar qatoriga kiruvchi 100 ta birlikning (*approach, delivery, discharge, heart va b.*) terminologik va noterminologik ma’nolari kontekstual metod yordamida ochib berilgan. Olima zamonaviy ingliz tibbiy terminologiyasidagi yangi termin-so‘z va termin-frazalarning abbreviatsiya, affiksatsiya, konversiya, metaforizatsiya, metonimizatsiya, sinonimiya, terminlashish kabi usullarda yasalganligini aniqlagan. Ko‘rinib turganidek, mazkur ilmiy ish o‘zida ilk bor ingliz tibbiy terminologiyasining neologizmlarini tahlil qilganligi bilan ajralib turadi [3].

Mazkur sohani tadqiq qilgan yana bir olim M.V.Tokarevadir. Uning ilmiy ishi tibbiyotning nefrologiya va urologiya sohasidagi terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Olim soha terminlarining XII asrdan keyingi lingvistik taraqqiyot tendentsiyalarini ochib bergan va struktural-semantik jihatdan tahlil qilgan. Shuningdek, tadqiqotchi mazkur soha terminlarini etimologik jihatdan tadqiq qilib, zamonaviy ingliz tibbiy leksikasida kelib chiqishi yunon-lotin tili bilan aloqador bo‘lgan terminlar yetakchi ekanligini isbotlab bergan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tibbiy terminlarning tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, undagi ko‘pgina terminlar sof semantik usul bilan yasalgan. Masalan: *bosh* – gavdaning boshlanishi; *oyoq* – adoq-biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugallanish qismi ma‘nolarini anglatib, keyinchalik odam organizmi nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Shuningdek, hozirgi kunda tamoman boshqa-boshqa so‘z hisoblangan qovurg‘a –qovoq, qopqoq (bosh qopqog‘i), qop (o‘t qopi) kabi terminlarning barchasi *qoplamoq* fe‘lidan hosil bo‘lgan. Tomoq, tomir so‘zlari esa —*tomchi holatida tushmoq* fe‘lidan hosil qilinganligi haqida mulohazalar bor, *soqol-saqoq* (badiiy asarlarda – iyak) so‘zlari esa – *saq* – past tomonga yo‘nalmoq ma‘nosini anglatib, asosdoshlik kasb etgan. Asliga ko‘ra polisemantik bo‘lgan ushbu so‘zlar ma‘nolari orasidagi ichki bog‘lanish yo‘qolgan. Ushbu misollardan semantik usulda so‘z yasashning diaxronik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Semantik usulda so‘z yasashda tibbiy terminlar bir qator kategoriyalar asosida ham shakllanadi:

Mavjud so‘zlarning tibbiy ma’noda ishlatilishi: oyoq-oyoqlanma (yiringli jarohatning pastki qismiga tushishi);

Ko‘chma ma’noda shakllangan tibbiy terminlar: suyak-suyak yemirilishi (osteoporoz) kasallik nomlari bo‘lib keladi;

Mavjud tibbiy atamalarning yangi ma’no kasb etishi: shok (hayratlanish)-anafilaktik shok (patalogik holat) ni bildirmoqda;

Qisman o‘zgartirilgan ma’noga ega tibbiy terminlar: immunitet (ozodlik, daxlsizlik)-tibbiyotda esa organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, semantik usulda termin yasash boshqa sohalar terminologiyasiga nisbatan tibbiyotda keng qo‘llanadi. Buning asosiy sababi tibbiy terminlarning o‘tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelib, jonli so‘zlashuv tili bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidadir. Shuning uchun ularda xalq tiliga xos bo‘lgan ko‘pdan ko‘p metaforik qo‘llanishlar o‘z aksini topgan. Masalan: *bosh kosasi, ko‘z kosasi, buyrak jomi, kalla qutisi* kabi birikmalardagi *kosa, jom, quti* birliklari xalq tilida biror narsani solish uchun ishlatiladigan idish ma‘nosini bildiradi [1].

Tibbiyotda shu idishlar shakliga o‘xshagan a‘zolar yoxud ularning qismlari mavjudki, bu, o‘z navbatida, metaforik o‘xshatish asosida quyidagi terminlarning yasalishiga sabab bo‘lgan. *Chanoq* –

ko‘sakning bir xonasi. Qadimgi turkiy tilda – yog‘ochni o‘yib ishlangan *tuzluq* va shu kabi idish, kosa. Ma‘no taraqqiyoti natijasida bu so‘zning – idish ma‘nosi asosida – ko‘z kosasi va boshqa kosasimon narsa, shu jumladan, -ko‘sakning har bir xonasi ma‘nosi yuzaga kelgan. Tibbiy terminlarning morfologik tadqiqi borasida bajarilgan ilmiy ishlar ichida B.Dzuganovning ilmiy faoliyati diqqatga sazovor. Tadqiqotchi olim tibbiyot sohasidagi terminlarning *affiksatsiya* tomonini tahlil qilib salbiy ma’no beruvchi qo‘shimchalarni o‘rganib chiqadi. Uning fikricha ushbu terminlar kasalliklar hamda nuqsonlarni ifodalovchi terminlarga salbiy bo‘yoq beradi [2]. U bu turdagi qo‘shimchalarni “affixal negation” (aaffiksal negatsiya) deb atagan. U salbiy ma’no beruvchi qo‘shimchalarni quyidagi turlarga ajratadi:

Salbiy ma’no beruvchi qo‘shimchalar: 5 ta prefiks: (a-, dis-, in-, non-, un-) hamda bitta suffiks (-less). *Qisman salbiy ma’no beruvchi qo‘shimchalar*: prefikslar: anti-, contra-, counter, de-, dys-, ex-, extra-, mal- kabi.

Atamalarni shakllantirishning eng samarali usullaridan yana biri bu boshqa tillardan so‘zlarni qarz olishdir. Olingan tibbiy atamalar quyidagi misollarda ko‘rsatilganidek, prefiks, so‘zning bir yoki ikkita ildizi va turli xil birikmalaridagi qo‘shimchadan iborat bo‘lishi mumkin:

myocardium = *myo* - (prefiks) + *card* (Ium) (ildiz) *endocarditis* = endo - (prefiks) + *card* (ildiz) + - *tis* (qo‘shimcha).

cytology = *cyt* (o) (ildiz) + - *logy (*suffiks) *gastroenterologiya* = *gastr* (o) (ildiz) + enter (o) (ildiz) + - *logy* (suffiks).

adenoma = *aden* (o) (ildiz) + *orna* (suffiks) terminlarni shakllantirishning ikkinchi eng samarali turi-bu so‘z birikmasi [3].

Murakkab so‘z-bu ikki yoki undan ortiq asoslardan tashkil topgan barqaror birliklar bo‘lib, ushbu birliklarning imlosi turlicha. Ular quyidagicha yozilishi mumkin: Ajratib yoziladi: blood pressure (qon bosimi), heart attack (yurak xuruji), Markaziy asab tizimi; Defis bilan: Vitamin-C (vitamin-C), Hypertension-cardiosclerosis (**Gipertoniya-kardioskleroz**); Bir so‘z sifatida: gallstone (o‘t toshi), gemofiliya (gemofiliya), leucocytopenia (leykopeniya), pseudopolicytemia (psevdopolitsitemiya) [4].

Murakkab so‘zlarni yozish uchun qat’iy qoidalar yo‘q. Ba’zida ba’zi atamalar defis bilan yoziladi, ba’zida ikki xil so‘z yoki bitta so‘z sifatida yoziladi, masalan, *life span-life-span; gall bladder - gallbladder.*

Bugungi kunda shunga o‘xshash jarayonni prefiksoidlar (psevdoprefikslar) va suffiksoidlar (psevdosuffikslar) jarayonida ko‘rish mumkin, masalan, *myo-, arthro, haemo-lhaemato-, adipo-, hepato, onco-, patho-; -aemia, -logy, -tomy, -pathy, -cyte, -algia,* -ushbu *psevdo* - affikslarning har biri ma’lum ma’noga ega, ammo ular mustaqil so‘zlar sifatida ishlatilmaydi. Ular ilmiy maqsadlarda – yangi tushunchalarga nom berish uchun yunon va lotin so‘zlarining ildizlaridan sun’iy ravishda hosil bo‘lgan [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tibbiy terminlarning shakllanishi uzoq tarixiy, lingvistik va ilmiy jarayon bo‘lib, u tibbiyot sohasidagi aniq va tushunarli muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi. Tibbiy terminologiya ko‘p jihatdan **qadimgi yunon, lotin, arab, fors va boshqa tillardan** olingan bo‘lib, zamonaviy ilm-fan rivojlanishi bilan yangi atamalar bilan boyib bormoqda. Tibbiy terminlar **morfologik, sintaktik va semantik usullar** orqali shakllanadi. **Defis bilan yoziluvchi, murakkab tuzilishga ega, ko‘chma yoki kengaygan ma’noda ishlatiluvchi** terminlar tibbiyot tilining muhim qismini tashkil etadi. Shuningdek, **xalqaro standartlarga moslik, aniqlik va izchillik** tibbiy atamalarning asosiy tamoyillaridandir. Bugungi kunda **biotexnologiya, genetika, informatsion texnologiyalar** rivojlanishi natijasida yangi tibbiy terminlar shakllanib, terminologiya doimiy ravishda takomillashmoqda. Milliy tibbiy terminlarni rivojlantirish va ularni xalq uchun tushunarli qilish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Arnaudov. G.D. Terminologia medica polyglotta. – Medicina et Physcultura, 1994. – P. 65.
2. Dunglison R. A dictionary of medical science (21-edition). – Lea Brothers and Company, 1893;
3. Lippincott J.B. Complete Pronouncing Medical Dictionary. 1889. – P.65.
4. Rahmatullayev. Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent. 2000. – 600 b.
5. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 127 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:113.338.48 (043)

EKOLOGIK TURIZM KONSEPSIYASI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI IJTIMOIY VA FALSAFIY AHAMIYATI

Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

«ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ТУРИЗМ КОНЦЕПЦИЯ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Хамраев Сардорбек Шарафутдинович
Преподаватель кафедры Философии, основ духовности и права
Термезский государственный педагогический институт

CONCEPT OF ECOLOGICAL TOURISM AND ITS SOCIAL AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Khamraev Sardorbek Sharafutdinovich
Lecturer at the Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality, and Law
Termiz State Pedagogical Institute

Tel: +998 88 259 27 27
E-mail: asdp95@umail.uz
https://orcid.org/0009-0003-4010-3397

Annotatsiya: *Maqolada ekologik turizmning ijtimoiy, falsafiy va madaniy jihatlari, uning jamiyatga ta'siri va odamlarning tabiiy muhitga munosabati o'rganilgan hamda zamonaviy ekoturizmni o'rganishning obyektiv zarurati va subyektiv imkoniyatlari, ekoturizm tizimida shaxs ekologik tarbiyaviy madaniyatini oshirish motivlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik turizm, jamiyat, ijtimoiy-falsafiy, turizm resurslari, turizm tarixi, turistik marshrutlar, O'zbekiston.*

Аннотация: *В статье рассматриваются социальные, философские и культурные аспекты экологического туризма, его влияние на общество и отношение людей к природной среде, а также объективная необходимость и субъективные возможности изучения современного экотуризма, научные исследования по мотивам повышения экологической воспитательной культуры личности в системе экотуризма.*

Ключевые слова: *экологический туризм, общество, социально-философский, туристические ресурсы, история туризма, туристические маршруты, Узбекистан.*

Abstract: *In the article, the social, philosophical and cultural aspects of ecological tourism, its impact on society and the attitude of people to the natural environment were studied, and scientific research was conducted on the objective necessity and subjective possibilities of studying modern ecotourism, and the motivations for increasing the ecological educational culture of the individual in the ecotourism system.*

Key words: *ecological tourism, society, socio-philosophical, tourism resources, tourism history, tourist routes, Uzbekistan.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ekoturizm – bu sayohatning o'ziga xos turi bo'lib, u atrofdagi tabiatga minimal ta'sir ko'rsatishga intiladi va shu bilan birga tashrif buyuruvchilarning uni saqlab qolish uchun chuqur mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. Tabiiy landshaftlar va ekotizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lish jarayonida odamlar nafaqat ularning go'zalligi va o'ziga xosligidan bahramand bo'lishadi, balki tabiat

boyliklarini muhofaza qilishning ahamiyati va zarurligini ham anglaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ekologik turizmning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini o'rganishda bir nechta asosiy adabiyotlardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotda ekologik turizm konsepsiyasining asosiy tushunchalari, rivojlanish tendensiyalari va atrof-muhitni himoya qilishning ahamiyati ko'rib chiqildi. Ekologik turizm bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, atrof-muhitni saqlash, tabiat resurslaridan samarali foydalanish va barqaror turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri haqida to'plangan bilimlarga asoslangan.

Bir qator tadqiqotchilar ekologik turizmni barqaror rivojlanish modelining bir qismi sifatida ko'rishadi, u orqali nafaqat tabiatni saqlash, balki mahalliy jamiyatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shish mumkin. Bularning orasida Gusakov Sergey Viktorovich, Gonzalez Mariya Izabel, Jekson Jon Robert kabi olimlar ekologik turizmning barqaror rivojlanish bilan bog'liq tahlillarini olib borishdi. Ushbu adabiyotlar ekologik turizmning shaxs va jamiyatga ta'sirini chuqur tahlil qilgan va uning jamiyatda ahamiyatini tushunishda yordam beradi. Bundan tashqari, ekologik turizmning falsafiy jihatlari, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ekologik tarbiya va madaniyat masalalari Harrison Jorj Tomas, Smith kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqur yoritilgan. Ular ekologik turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini ham ko'rsatishga harakat qilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Turizm bugunga kelib jahon mamlakatlarining iqtisodiyotida katta daromad keltiradigan va jadal sur'atlarda rivojlanayotgan infratuzilma tarmoqlariga aylanib bormoqda. Hozir u jahon yalpi mahsuloti va iste'mol savdosining o'ndan bir qismini, dunyo eksportining 8 foizini, savdo xizmatining 30 foizini, xalqaro investisiyalarning 11 foizdan ortig'ini, ishlab chiqarishda esa har sakkiztadan bir ishchi o'rinni ta'minlamoqda. 2030 yilga borib yer kurrasida turizm sohasining eng jadal suratlarda rivojlanib borayotgan yangi sayyohlik yo'nalishlari – shop turizm, ekoturizm, agroturizm, ekoturizm kabilar 2 barobarga ko'payishi ko'zda tutilmoqda[1, s. 144].

Bu borada Falsafa fanlari doktori X.Djurakulovning ilmiy-tadqiqot ishida quyidagicha statistik ma'lumotlar keltirib tahlil qilingan. Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayni paytda umumiy turizm tizimida ekologik turizmning imkoniyatlari va rentabellik darajasi yanada o'sib bormoqda. Xususan, "Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) va Butunjahon turizm tashkilotining (BTT) ma'lumotlari bo'yicha so'nggi 20 yil ichida endigina rivojlanib borayotgan davlatlarda ekoturistlar soni ko'payib va ekoturizmdan olinadigan daromadlar yildan-yilga o'sib bormoqda. Masalan, har yili ekoturizmdan Keniya davlati - 1.4 mlrd., Ekvador davlati-11.8 mlrd., Kosta-Rika davlati - 11.4 mlrd., Nepal davlati-1.5 mlrd. AQSH dollarida daromad oladilar. Qayd qilish lozimki, ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan olgan daromadlari davlat yalpi ichki daromadlarining (YAIM) 70-80%iga teng[2].

Rivojlanib borayotgan davlatlarning turizm industriyasi asosan ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20%ini qamrab olgan, o'sish surati esa umumiy turizm o'sish suratidan 2-3 marotaba oshib ketgan" [3].

Dunyoga mashxur nemis faylasuf olimi E.Gekkel 1866-yilda yozgan "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" va 1868-yilda yozgan "Dunyo vujudga kelishining tabiiy tarixi" kabi asarlarida ekologiya atamasiga to'liq tavsif berib ekologiyaning ikkinchi ma'nosini "yashash joyi", "oziqlanish makoni" [5] deb belgilagan. Shuning uchun ham, tabiatni har bir inson o'z uyim deb bilgandagina global ekologik inqirozlarning oldini olishi mumkin. Ekologik turizm bu yo'nalishda insoniyatga katta yordam beradi. Shuning uchun ham, dastlab ekoturizmning mohiyatini va mazmunini yaxshi tushunib va o'rganib olishimiz lozim[4].

Rus olimasi M.V.Argunovaning fikricha, "Ekoturizm yosh avlodning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi tarkibida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi to'g'risida yaxlit g'oyani shakllantirishga katta ahamiyat berilishi kerak. Hozirgi vaqtda talaba va o'quvchilarning ekologik tarbiyasi shaxsiy o'zini takomillashtirish zarurati sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning turli qatlamlarida ekologik ta'limni zamonaviy sharoitda dolzarb

bo'lgan madaniy va axloqiy o'sish nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin" [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqotlarimiz natijasida agroturizm qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Bular: 1) agroturizmda sayyohlarni qabul qilish uchun barcha qulayliklarga ega alohida mehmonxonalar talab etilmaydi, ular bevosita fermerlarning uylarida yoki ochiq havoda tashkil etiladigan chodir (palatka)larda joylashishlari ham mumkin. Bu turli toifaga mansub kishilarga arzon va sifatli, qulay agroturistik xizmatlardan foydalanish erkinligi beriladi. 2) agroturizm agroturistik firmalar uchun katta moliyaviy-iqtisodiy xarajatlar talab etilmaydi, chunki uni tashkil etishda sayyohlik obyekti sifatida qishloq aholisining turmush tarzi, urf-odatlaridan ham foydalanish mumkin. 3) agroturizmni tarixiy, ziyorat, sport, etnografik va shu kabi turizm yo'nalishlari bilan birgalikda olib borish samarali hisoblanadi. Zero sanab o'tilgan turizm turlari qadimdan aynan qishloq joylarida rivojlangan. Bunda turistlarni bir vaqtning o'zida qishloq joylarining tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy jihatlari bilan tanishtirish imkonin yaratadi. 4)insonlarning tabiatga texnogen bosimi va ekologik talablarni inobatga olmasligi qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan agroturizm ekoturizm singari o'zining rivojlanishi yo'nalishida qishloq xo'jaligida tabbiy resurslardan oqilona foydalanish, agrolandshaftlarni muhofaza qilish va buzilgan yerlarni qayta tiklashga bevosita va bilvosita yordam beradigan vazifalarni ham bajaradi[7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik turizmning rivojlanishi atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarni tejash, ekologik tarbiya va ongni oshirishga yordam beradi. Bunda, turizmning o'ziga xos shakllari orqali, tabiatga zarar yetkazmasdan, uni to'g'ri boshqarish va undan foyda olish mumkin. Shuningdek, ekologik turizm jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilashga hissa qo'shadi. Falsafiy jihatdan, ekologik turizm insonning tabiatga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqish, uning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ekologik turizmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni muhim va u barqaror rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Nigmatov A.N., Kamolov B.X. Ekoturizm va uning hududiylik, davriylik va komplekslilik xususiyatlari (Namangan viloyati misolida). Monografiya. – Toshkent.: «Navro'z nashriyoti, 2018 .– 144 b.
2. Ананьев М.А. Международный туризм. – М.: Международные отношения, 1998. – С 56-62.
3. Allcock A., Jones B., Lane S., Grant J. National ecotourism strategy. Commonwealth of Australia, 1994. – P. 196.
4. Аргунова, М.В. Экологическое образование в интересах устойчивого развития как надпредметное направление модернизации школьного образования: дис. … д-ра пед. наук:13.00.02/М.В. Аргунова. – М., 2010. – 145 bet.
5. Ердавлетов С.Р. Казахстан туристский. – Алмата: Қайнар, 2000.
6. Xamrayev, S. (2024). Yangi O'zbekistonda ekologik turizm sohasini rivojlantirishni asosiy jihatlari. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.
7. Xamrayev, S. (2024). FALSAFIY YONDASHUVNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 88-90.
8. Sardorbek Sharafutdinovich Xamrayev (2024). TURIZM ETIKASINING JAMIYATDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI. Academic research in educational sciences, 5NUU Conference (2), 753-758.
9. Хамраев Сардорбек Шарафутдинович (2022). O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI INTEGRATIONSYALASH ZARURATI. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 524-528.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101-027.542

MULKDORLARDA IJTIMOIY MAS'ULIYAT TUYG'USINING SHAKLLANISHIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich
Termiz davlat pedagogika instituti, "Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi

РОЛЬ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СОБСТВЕННИКОВ

Рахманкулов Фарход Рахимкулович
Термезский государственный педагогический институт, Старший преподаватель кафедры Философии, основы духовности и правового образования

THE ROLE OF MORAL VALUES IN FORMING A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY IN OWNERS

Rakhmankulov Farkhod Rakhimkulovich
Termez State Pedagogical Institute, Senior Lecturer, Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality and Legal Education

e–mail: fedizara07@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-2638-0724

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mulkdorlarning ma'naviy qadriyatlari va ularning ijtimoiy mas'uliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Mulk egalari jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligida muhim o'rin tutishi bilan birga, ularning axloqiy qadriyatlari va ma'naviy tamoyillari tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqotda milliy va mulkdorlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish mexanizmlari, jamiyat oldidagi burchlari hamda ularning barqaror rivojlanishdagi o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *mulkdor, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, tadbirkorlik madaniyati, barqaror rivojlanish mulk egasi, tadbirkor.*

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь между духовными ценностями собственников и их социальной ответственностью. Наряду с тем, что собственники играют важную роль в экономической и социальной стабильности общества, их моральные ценности и духовные принципы являются определяющими факторами в формировании культуры предпринимательства. В исследовании освещаются механизмы повышения социальной ответственности нации и собственников, их обязанности перед обществом и их роль в устойчивом развитии.*

Ключевые слова: *собственник, духовные ценности, социальная ответственность, культура предпринимательства, устойчивое развитие собственник, предприниматель.*

Abstract: *This article analyzes the relationship between the spiritual values of owners and their social responsibility. Along with the fact that owners play an important role in the economic and social stability of society, their moral values and spiritual principles are crucial factors in shaping the culture of entrepreneurship. The study highlights the mechanisms for increasing the social responsibility of the nation and owners, their responsibilities to society and their role in sustainable development.*

Key words: *owner, spiritual values, social responsibility, culture of entrepreneurship, sustainable development owner, entrepreneur.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan mulkdorlarning ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy qadriyatlariga bog‘liq. Xususiy mulk egalari nafaqat iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi muhim qatlam sifatida ham e’tirof etiladi. Shu sababli, ularning faoliyatida moddiy manfaat bilan bir qatorda, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy javobgarlikning uyg‘unlashuvi dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularning o‘z faoliyatini faqat daromad olish bilan cheklamasdan, jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi axloqiy tamoyillarga asoslangan holda yuritishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mazkur maqolada mulkdorlarning ma'naviy qadriyatlari va ularning ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining ma'naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan holda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan yondashuvlar va mexanizmlar yoritiladi. Mulkdorlarda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usi hamda ma’naviy axloqiy qadriyatlar borasida jahon olimlaridan Milton A.Kerrol Fridman, A.Bagdasarova, N.Belyaev, o‘zbek olimlaridan I.Ergashev, V.Qo‘chqorov, B.Matchonovalar o‘z ilmiy ishlarida ushbu maummoni tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati yuzadan qator tadqiqotchilar o’z ilmiy izlanishlarini olib borgan bo‘lib, ular ushbu muammoni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilishgan. Masalan Milton Fridman iqtisodiyot va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini yoritishda taniqli olim hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, “kompaniyalar va mulkdorlarning asosiy mas'uliyati daromad olish va aksiyadorlarga foyda keltirishdir, ijtimoiy mas'uliyat esa davlat va boshqa ijtimoiy institutlarning vazifasi deb hisoblanadi” [1]. A.Kerrol esa o’z tadqiqotlarida ijtimoiy mas'uliyat piramidasini yaratgan. U “korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) konsepsiyasini kengaytirgan. A.Kerrolning modeli iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va xayriya majburiyatlarini qamrab oladi [2].

Ushbu olimlarning tadqiqotlari ijtimoiy mas'uliyatni kengroq ko‘lamda o‘rganishga yordam beradi va mulkdorlarning jamiyat oldidagi vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshirishga xizmat qiladi.

Mulk tushunchasi, mulk egaligi va ijtimoiy mas’uliyat borasida o‘zbek olimlari ham qator tadqiqot ishlarini olib borishgan. “Ijtimoiy mas’uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida iyerarxik tarzda tavsiflanadi” [3]. Mazkur ta’rif tor doirada yozilgan bo‘lib, shu nuqtayi nazardan, jtimoiy mas'uliyat – bu shaxs, jamoa yoki tashkilotning jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglash va bajarish jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy manfaatlar, axloqiy tamoyillar va qonuniy talablar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu tushuncha insonlarning yoki tashkilotlarning faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlab emas, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga qaratilgan harakatlar qilishi zarurligini ifodalaydi. Ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u iqtisodiy, ekologik, huquqiy va ma'naviy jihatlarni o‘z ichiga oladi [4]. Masalan, tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy mas'uliyat nafaqat qonunlarga rioya qilishni, balki xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy darajada ijtimoiy mas'uliyat insonning o‘z oilasi, mahallasi va kengroq jamiyat oldidagi burchlarini anglashida namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lib, insonlarning o‘zaro hamkorlik, adolat va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda yashashiga xizmat qiladi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar borasida dotsent B.Matchanova quyidagicha ta’kidlaydi: “Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning

bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi” [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Mulkdorlar qatlamida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bir necha omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu qadriyatlar jamiyatning umumiy rivojlanish darajasi, huquqiy tizimi, iqtisodiy sharoitlar va ma'naviy-madaniy meros bilan uzviy bog‘liqdir. Quyida ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi:

1. Oila va tarbiya–mulkdor shaxslarning axloqiy qarashlari bolalik davridan shakllanib, oiladagi tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Ota-onaning halollik, adolat va mehnatsevarlik haqidagi tushunchalari tadbirkorning keyingi faoliyatida namoyon bo‘ladi.

2. Ta’lim va ilmiy muhit – iqtisodiy bilim bilan bir qatorda, axloqiy tamoyillar ham ta’lim tizimida shakllantiriladi. Biznes va tadbirkorlik sohasida ta’lim olgan shaxslar nafaqat bozor qonunlarini, balki korporativ ijtimoiy mas’uliyatni ham tushunishlari lozim. Shuningdek, ma’naviyat va huquqiy madaniyat bo‘yicha uzluksiz o‘qitish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Jamiyat va ijtimoiy muhit –tadbirkorlarning ijtimoiy muhit bilan doimiy aloqada bo‘lishi ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati tadbirkorlarga axloqiy mezonlar asosida faoliyat yuritish zarurligini eslatib turadi.

Mulkdorlarning ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy mas’uliyati jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ularning axloqiy tamoyillari va ijtimoiy burchni anglash darajasi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta’sir qiladi. Mulk egalari nafaqat shaxsiy daromad olishni, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham chuqur anglagan holda faoliyat yuritishi lozim [6].

Ijtimoiy mas’uliyat – bu faqat iqtisodiy faoliyat yuritish emas, balki jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir. U quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: 1) mahalliy aholini ish bilan ta’minlash orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shish; 2) madaniyat, sport, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga yordam ko‘rsatish; 3) yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, biznes etikasi va mas’uliyat tamoyillarini shakllantirish.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati ularning ma’naviy qadriyatlariga asoslanishi kerak. Agar tadbirkor halollik va adolatni o‘z hayotining ajralmas qismi deb bilsa, u jamiyatga foyda keltiradigan biznes yuritadi. Bu esa quyidagi natijalarga olib keladi: ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilinadi, iqtisodiy taraqqiyot ma’naviy rivojlanish bilan uyg‘unlashadi, tadbirkor va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy tamoyillarga asoslangan tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatning qaror topishiga ham xizmat qiladi. Ma’naviy yetuk mulkdor jamiyat farovonligiga befarq bo‘lmaydi. U nafaqat iqtisodiy yutuqlarga intiladi, balki o‘z faoliyati orqali jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu sababli, tadbirkorlarning ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mustahkam iqtisodiy hamda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1.Milton Friedman. The Social Responsibility of Business Is to Increase Its Profits. The New York Times Magazine, 1970.

2. Archie B. Carroll “The Pyramid of Corporate Social Responsibility: Toward the Moral Management of Organizational Stakeholders” Business Horizons 1991. – P. 39-48.

3. Ergashev I. Shaxs ma’naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligi mavzusidagi fal.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2011. – 132 b.

4. Рахманкулов, Ф. Р. (2023). Жамиятда мулкдорлар қатламининг шаклланиши ва унинг ўзига хос жиҳатлари. Философия и право, 25 (2), 227-230.

5. Matchanova, Barno Irkinovna (2024). Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (10), 392-398.

6. Raxmankulov, F. R. (2024). Vatanparvar mulkdorlarni tarbiyalash bugungi davrning dolzarb vazifasi. Academic research in educational sciences, 5(2), 536-543.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.173

CONJUNCTIONS IN ENGLISH: MEANING AND USES

Berdikulova Shakhnoza Ruzikulovna
Teacher of the Department of Foreign Languages,
Kattakurgan branch of Samarkand State University

СОЮЗЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ЗНАЧЕНИЕ И УПОТРЕБЛЕНИЕ

Бердикулова Шахноза Рузикуловна
Преподаватель кафедры иностранных языков,
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета

INGLIZ TILIDA BOG‘LOVCHILAR: MA’NOSI VA QO‘LLANILISHI

Berdiqulova Shaxnoza Ro'ziqulovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: mehriddinsher2018@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-2747-1387

Abstract: *This paper contains an in-depth study of conjunctions, including their meaning, types as well as uses or functions in English. Conjunctions are words that link or connect two words, phrases, clauses or sentences together, either in speech or in writing. Conjunctions are one of the eight parts of speech in English, according to the traditional grammar. Apart from the coordinating, subordinating and correlative types, the author has also researched into other kinds of conjunctions that can be of great interest to the reader. The author deemed it necessary to carry out a study of this kind because over the years, this important area of language study has received less attention from language scholars and students of English/linguistics in comparison with other parts of speech like nouns, verbs, adjectives and prepositions.*

Key words: *conjunctions, coordinating, subordinating, correlative*

Аннотация: *Данная работа представляет собой углубленное исследование союзов, включая их значение, типы, а также использование или функции в английском языке. Союзы — это слова, которые связывают или соединяют два слова, фразы, части предложения или целые предложения как в устной, так и в письменной речи. Согласно традиционной грамматике, союзы являются одной из восьми частей речи в английском языке. Помимо сочинительных, подчинительных и парных союзов, автор также исследовал другие виды союзов, которые могут представлять большой интерес для читателя. Автор счел необходимым провести данное исследование, поскольку на протяжении многих лет эта важная область языкознания получала меньше внимания со стороны ученых-лингвистов и студентов английского языка по сравнению с другими частями речи, такими как существительные, глаголы, прилагательные и предлоги.*

Ключевые слова: *вспомогательные группы слов, связующие, вспомогательные.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola bog‘lovchilarning mazmuni, turlari hamda ingliz tilidagi ishlatilishi yoki funksiyalarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. Bog‘lovchilar – bu so‘zlar bo‘lib, ular ikki so‘z, ibora, gap yoki jumlani og‘zaki yoki yozma nutqda bog‘laydi. An’anaviy grammatikaga ko‘ra, bog‘lovchilar ingliz tilidagi sakkizta so‘z turkumidan biridir. Muallif nafaqat bog‘lovchilarning bog‘lovchi, tobe va juft turlarini o‘rganib chiqdi, balki o‘quvchi uchun katta qiziqish uyg‘otadigan boshqa turdagi bog‘lovchilarni ham tadqiq qildi. Ushbu mavzuni tadqiq etish zarur deb topilganligiga sabab uzoq yillar davomida tilshunos olimlar va*

ingliz tili/lug'atshunoslik bo'yicha talabalarning e'tibori bu muhim soha bilan solishtirganda boshqa so'z turkumlariga – otlar, fe'llar, sifatlar va predloglarga ko'proq qaratilgan.

Kalit so'zlar: *yordamchi so'z turkumlari, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, sof, vazifadosh.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). This paper is a descriptive form of qualitative research, as it carries out a panoramic description and explanation of conjunctions by stating clearly their meaning, types and uses or functions in English. The use of conjunctions in English is obvious, perspicuous and well defined, as one of the core grammatical classes, popularly known as parts of speech in the language. It is true that there exists a lot of literature already on conjunctions, and the researcher has been able to draw and garner insights from them, alongside his own input or contribution, which has given quality and worth to this paper. The paper has contributed immensely to knowledge in language study because it has brought home to the reader the basic information he/she needs, at least, to some extent, as far as conjunctions in English are concerned. This, indeed, is the main purpose of this research.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Traditionally, the conjunction is one of the eight parts of speech in English. A conjunction, as reported by Malmkjær, is defined as an indeclinable part of speech that links other parts of speech, in company with which it has significance, by classifying their meaning or relations. According to Leung, conjunctions have been studied under various labels and have drawn much attention from various scholars in the field of English/Linguistics over time: Halliday and Hasan treat them as "linguistic devices that create cohesion", while Sanders and Maat describe them as a "semantic relation that is explicitly marked". According to Er, as cited by Aidinlou and Reshadi, conjunctions are a "semantic connection between two clauses". Furthermore, Leung cites four scholars in this regard. These are: Schiffrin, who treats conjunctions as "discourse markers", Fraser considers them as a "pragmatic class of lexical expressions", or simply, "pragmatic markers", while Rouchota states that conjunctions "encode different meanings, and that they can be a procedural device", and lastly, Caron conceives conjunctions simply as being used "to express various kinds of relations between utterances" [6]. Aside from the scholars mentioned above, others most generally conceive conjunctions as linkers or connectors that join two words, phrases, clauses or sentences together, either in speech or in writing. To this end, Leech and Svartvik note, "Clauses or phrases may be linked together (coordinated) by conjunctions" [5].

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). These are used to link words, phrases and clauses. They are conjunctions which are used to join together clauses of equal rank. In other words, they generally connect sentence elements of the same grammatical class such as nouns with nouns, adverbs with adverbs, phrases with phrases and clauses with clauses. They also link two sentences that do not depend on each other for meaning. They are simply referred to as coordinators, and the art of joining two words, phrases, clauses or sentences using coordinators is known as coordination. Language scholars have divergent views on the types of conjunction. For instance, Baskervill and Sewell, Arthur, Lester and Eckhard-Black divide conjunctions into two classes: coordinating and subordinating conjunctions. These scholars (including others not mentioned here) leave out correlative conjunctions because, according to them (e.g. Lester, correlative conjunctions are similar to coordinating conjunctions [1].

However, there are traditionally basically three types of conjunctions, which are: coordinating, subordinating, and correlative conjunctions. In a different development, Halliday and Hasan on their part, propose four types of conjunction that ensure cohesion in English generally: Additive Conjunctions act to structurally coordinate or link by adding to proposed item and are signalled by and, also, furthermore, in addition, etc. Additive conjunctions may also act to negate the proposed item and are signalled by nor, and … no, neither. Kinds of additive include: alternative, e.g. or, or else, alternatively; after-thought (or conjunct), e.g. incidentally, by the way; expository, e.g. that is, I mean, in other words; exemplificatory, e.g. for instance, thus; comparing similarity, e.g. likewise, similarly, in the same way (or in the same vein); and comparing dissimilarity, e.g. on the other hand, by contrast, on the contrary [2].

TAMADDUN NURI

Adversative Conjunctions are used to express comparison or contrast between sentences and they include but, on the other hand, however, yet, though, only. Kinds of adversative include: emphatic, e.g. nevertheless, despite this; contrastive avowal, e.g. in fact, actually, as a matter of fact; correction of meaning, e.g. instead, rather, at least; closed dismissal, e.g. in any case, in eithercase, whichever way it is; and open-ended dismissal, e.g. any how, at any rate, however it is [3].

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Causal Conjunctions express the cause or reason of what is being stated. They include: then, so, hence, therefore. Kinds of clausal conjunction include: specific causal. It is divided into three – (a) reason, e.g. for this reason, on account of this, on this basis, it follows; (b) result, e.g. as a result, in consequence, arising out of this and (c) purpose, e.g. for this purpose, with this in mind, to this end; simple emphatic, e.g. in that case, in such an event, that being so; direct respective, e.g. in this respect, in this regard, with reference to this; reversed polarity, e.g. otherwise, under other circumstances, in other respects, aside from this [4]. Temporal conjunctions represent sequence relationships between clauses and they include: next, secondly, then, in the end. Kinds of temporal conjunction include: simultaneous, e.g. just then, at the same time; preceding, e.g. previously, formerly, before that; conclusive, e.g. finally, at last, in conclusion; immediate, e.g. at once, thereupon, forthwith; repetitive, e.g. next time, on another occasion, later; specific, e.g. next day, an hour later; durative, e.g. meanwhile, in the interim, for the time being; here and now [4].

This is divided into three – (a) past, e.g. up to now, last time; (b) present, e.g. at this point, here, now and (c) future, e.g. from now on, henceforth (or henceforward); summarizing, e.g. to sum up, in short, briefly; resumptive, e.g. to resume, to return to the point. Moreover, Halliday, as cited by Saya and Fatemi, further classifies conjunction into three more abstract types: elaboration, extension and enhancement. Elaboration includes apposition like in other words and clarification like rather. Extension includes addition and variation like alternatively. Enhancement includes spatial-temporal like there, previously and causal-conditional like consequently and in that case. We deem it necessary to comment here that the above taxonomy by Halliday and their examples are more of adverbs than conjunctions. Also on his part, Murthy outlines four types of conjunctions which are: coordinating, subordinating, correlative and compound conjunctions. We will consider them one after the other.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ

Абдужабборов Мадаминжон Вохиджон оглы, базовый докторант кафедры "Информационные технологии" Андижанского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-5524-0770
e-mail: atmadaminjon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola oliy ta'limda Sun'iy intellektning imkoniyatlari va muammolarini baholaydi, yangi texnologiyalarning o'qitish va o'rganishga ta'sirini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash uchun sun'iy intellektni joriy etish misollari, uning ta'lim natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati va imkoniyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, Oliy ta'lim, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, kompyuter, integratsiya, innovatsion pedagogika.*

Abstract: *This article examines the opportunities and challenges of Artificial Intelligence in higher education and analyzes the impact of new technologies on teaching and learning. It also highlights examples of Artificial Intelligence implementation to ensure equitable and high-quality education, emphasizing its importance and potential for improving educational outcomes.*

Key words: *artificial intelligence, Higher education, innovations in the education system, computer, integration, innovative pedagogy.*

Аннотация: *В данной статье оцениваются возможности и проблемы использования искусственного интеллекта в высшем образовании, а также анализируется влияние новых технологий на процесс преподавания и обучения. Приведены примеры внедрения искусственного интеллекта для обеспечения справедливого и качественного образования, а также рассмотрены его значение и потенциал в улучшении образовательных результатов.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, высшее образование, инновации в системе образования, компьютер, интеграция, инновационная педагогика.*

KIRISH. So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar oliy ta’lim tizimi arxitekturasini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va oliy ta’lim muassasalariga kirib kelishi bu jarayonlarni yanada tezlashtirdi. Shu sababli, sun’iy intellekt hozirgi kunda ta’lim jarayonlarini o‘zgartirishda muhim o‘rin egallamoqda.

Sun’iy intellekt — inson hayotini osonlashtiruvchi va ijtimoiy munosabatlarning turli jihatlarini o‘zgartirishga qodir texnologiya sifatida qaralmoqda. Bu rivojlanayotgan texnologiya ta’limda ham o‘z o‘rnini topib, yangi yechimlarni joriy etish imkonini bermoqda. Biroq, sun’iy intellektning samarali ishlashi rivojlangan infratuzilmalar va innovatsion muhitni talab qiladi. Shu bois, biz o‘qitish va o‘rganish jarayonida yangi davr ostonasida turibmiz.

Bugungi kunda sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Ushbu maqolada ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari, ularning ta’lim natijalarini yaxshilashdagi roli va istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellektni oliy ta’limga joriy etishning afzalliklari va ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirishning ahamiyati yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sun’iy intellektning oliy ta’limda qo‘llanilishi borasida olib borilgan tadqiqotlar mazkur texnologiyaning ta’lim jarayonini optimallashtirish, shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirishdagi o‘rni katta ekanligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Djon Makkarti tomonidan taqdim etilgan dastlabki g‘oyalar sun’iy intellektni rivojlantirishga tamal toshi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu soha yangi istiqbollarni ochib bermoqda.

ASOSIY QISM. Yurtimizda sun’iy intellektni keng joriy etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1] gi qarori va “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”[2]gi farmoni ijrosini ta’minlash borasida ushbu maqolaning mazmuni sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi o‘rni, yutuq va kamchiliklarini yoritishga qaratilganligi bilan dolzarblik aks etadi.

Sun’iy intellekt tushunchasi dastlab AQSHda paydo bo‘ldi va sekin-asta boshqa davlatlarda ham keng qo‘llanila boshladi. 1956 – yil AQSHda kompyuter va dasturlash sohasidagi 10 nafar Amerikalik yetakchi mutaxassislarning birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sun’iy intellekt haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar — “aqliy mashinalar” ishlab chiqarishga ilmiy yondashish birinchi bo‘lib Stanford universitetining professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956-yilda Dartmut universitetida bo‘lib o‘tgan konferensiyada tilga olingan[3].

Sun’iy intellekt odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima qilish va boshqa imkoniyatlarni yaratish bilan shug‘ullanadi[4].

Dunyoning rivojlangan oliy ta’lim muassasalari allaqachon sun’iy intellekt texnologiyasini o‘z faoliyatining turli yo‘nalishlariga integratsiya qilib ulgurdi. Sun’iy intellekt texnologiyasi professor-o‘qituvchi va talabalarning chinakam ko‘makchisiga aylandi.

Yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarining oliy ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyasini tatbiq etish borasidagi tajribalari. AQSHning Jorjiya davlat universiteti (Georgia State University) talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda ularning fanlardan akademik qarzdor bo‘lishining oldini olish maqsadida “Pouns” (Pounce) nomli sun’iy intellekt chatbotini ishga tushirgan. Mazkur chatbot, bir tomondan, talabalarga akademik maslahat beradi, ikkinchi tomondan esa ularning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413

[3] T.A.Xo’jaqulov, N.T.Malikova Sun’iy intellekt (o‘quv qo’llanma). Toshkent, 2020.

[4] Sadullaeva Sh., Yusupov D., Yusupov F. Sun’iy intellekt va neyronto‘rli texnologiyalar. Mahalla va oila nashriyoti. Toshkent, 2022 y. – 8 s.

o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ko‘maklashadi.

London Imperial kolleji (Imperial College London) amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan. Kollej tadqiqotchilari murakkab ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, sog‘liqni saqlash, iqlimshunoslik va muhandislik kabi sohalarda prognozlarni to‘g‘ri amalga oshirish uchun mashinani o‘rganish algoritmlaridan unumli foydalanib kelmoqda[5].

O‘qituvchi va sun’iy intellekt hamkorligi. Sun’iy intellektni o‘rganish va o‘qitishdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi va professor-o‘qituvchilarga har qachongidan ham ko‘proq imkoniyatlar taqdim qiladi. Sun’iy intellekt samaradorlikni, shaxsiylashtirishi va ma’muriy vazifalarni soddalashtirishi mumkin.

Differensial va individuallashtirilgan ta’lim. Ta’limda talabalarning individual alohida ehtiyojlarini hisobga olish o‘qituvchilar uchun yillar davomida ustuvor vazifa bo‘lib kelgan, Sun’iy intellekt har bir guruhdagi talabalarni individual ehtiyojlarini hisobga olib tabaqalanish darajasini ta’minlaydi. Content Technologies va Carnegie Learning kabi bir qancha kompaniyalar hozirda o‘quvchilarga maktabgacha bo‘lgan davrda o‘qish, test va fikr-mulohazalarni taqdim etish, ularning bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni yangi bilimlarga yo‘naltirish uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan aqlli o‘qitish dizayni va raqamli platformalarni ishlab chiqmoqda.

Barcha talabalar uchun universal kirish. Sun’iy intellekt vositalari global sinflarni hamma, jumladan, turli tillarda gapiradigan yoki ko‘rish yoki eshitish qobiliyati zaif bo‘lganlar uchun ham foydalanishi mumkin. Presentation Translator - bu PowerPoint uchun bepul plagin bo‘lib, u o‘qituvchi aytgani uchun real vaqtda subtitrlar yaratadi. Bu, shuningdek, kasallik tufayli maktabga kela olmaydigan yoki boshqa darajadagi yoki o‘z muassasasida mavjud bo‘lmagan muayyan fan bo‘yicha o‘rganishni talab qiladigan talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirish. O‘qituvchi uy vazifasi va testlarni belgilash uchun juda ko‘p vaqt sarflaydi. Aynan shu yerda Sun’iy intellekt bu vazifalarni tezda bajarishi va shu bilan birga o‘rganishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berishi mumkin. Hozirgi vaqtdagi texnologiyalar ko‘p tanlovli testlarni baholay olsa-da, ular yozma javoblarni ham baholashga juda yaqin. Sun’iy intellekt ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirishga kirishar ekan, u o‘qituvchilarga har bir talaba bilan vaqt o‘tkazish uchun ko‘proq vaqt beradi. Bundan tashqari, bu texnologiya ro‘yxatga olish va qabul qilish jarayonlarini yanada samarali yaratish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Sun’iy intellektning salbiy oqibatlari. Sun’iy intellekt ta’lim uchun juda ko‘p potentsial afzalliklarga ega bo‘lsa-da, e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan ba’zi kamchiliklar ham mavjud.

- Amalga oshirish va texnik xizmat ko‘rsatishning qimmat narxlar;
- Texnologiya va internetga bog‘liqlik;
- Kitoblar o‘qimaslik holatlarining ko‘payishi;
- Maxfiylik bilan bog‘liq muammolar;

Oliy ta’limdagi sun’iy intellektning asosiy muammolaridan biri bu talabalar ma’lumotlarining maxfiyligi va xavfsizligidir. Sun’iy intellekt algoritmlari talabalarning katta hajmdagi ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilishda, bu ma’lumotlarning ruxsatsiz kirish va noto‘g‘ri foydalanishdan himoyalanganligini ta’minlash muhimdir. Oliy ta’limda sun’iy intellektning yana bir muammosi – bu tarafkashlik va kamsitish xavfi. Sun’iy intellekt algoritmlari ma’lumotlardagi mavjud nohaqlikni davom ettirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga nisbatan adolatsiz va tengsiz munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Shu bois shaffof, hisob beruvchi va xolis bo‘lgan sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish orqali ushbu muammolarni hal qilish muhimdir[6].

XULOSA. So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt oliy ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu texnologiya ta’lim jarayonini tezlashtirish,

[5] Олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш. Методик қўлланма. Yetakchi nashriyoti. Тошкент, 2024 й.

[6] D.Ernazarov. “Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektning ro‘li va ta’sirini ortib borishi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 17.04.2024.

shaxsiylashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Turli oliy ta'lim muassasalari sun'iy intellektni joriy qilish orqali o'quv jarayonini optimallashtirishda muvaffaqiyatli natijalar ko'rsatmoqda.

Biroq, sun'iy intellektni qo'llash texnologiyaga qaramlik, maxfiylik, xavfsizlik va tarafkashlik kabi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shunday ekan, ushbu texnologiyaning afzalliklaridan samarali foydalanish bilan birga, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish zarur. Bu oliy ta'lim tizimida innovatsion, adolatli va samarali yondashuvlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son qarori. https://lex.uz/docs/-5297046
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413
3. Sadullaeva Sh., Yusupov D., Yusupov F. Sun'iy intellekt va neyronto'rli texnologiyalar. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent, 2020-y. – 8 s.
4. T.A.Xo'jaqulov, N.T.Malikova Sun'iy intellekt (o'quv qo'llanma) Toshkent 2020-y.
5. D.Ernazarov. Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellektning ro'li va ta'sirining ortib borishi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 17.04.2024.
6. Олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш. Методик қўлланма. Yetakchi nashriyoti. Тошкент, 2024 й.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101.1

KORRUPSIYA SHAKLLANISHI, OMILLARI VA JAMIYATGA TA'SIRI

Mihliyev Aziz, Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

CORRUPTION FORMATION, FACTORS AND IMPACT ON SOCIETY

Mikhliyev Aziz, independent researcher at Tashkent University of Applied Sciences

ФОРМИРОВАНИЕ КОРРУПЦИИ, ФАКТОРЫ И ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВО

Михлиев Азиз, независимый исследователь Ташкентского университета прикладных наук

https://orcid.org/0009-0005-0180-2149

e-mail: Mihliev@gmail.com

Annotatsiya: *Korrupsiya nafaqat yuridik tizimni, balki demokratik jarayonlarni, ijtimoiy adolatni ham buzadi, bu esa oxir-oqibat jamiyatdagi ishonch va barqarorlikni pasaytiradi. Odamlar iqtisodiy qiyinchiliklardan chiqish uchun ko'pincha qonunlarga zid ishlar qilishga majbur bo'ladilar. Iqtisodiy tengsizlik ham bu jarayonni kuchaytiradi. Jamiyatda korrupsiyaning mavjudligi va uning normal holat sifatida qabul qilinishi, axloqiy me'yorlarning susayishi ham muhim omil hisoblanadi. Agar korrupsiyaga jamiyat tomonidan yengil qaralsa yoki uning oldini olish uchun tizimli choralar ko'rilmasa, u yanada keng tarqalgan va izchil bo'lishi mumkin. Korrupsiyaning keltib chiqishi turli omillarga bog'liq bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy tizimlarda mavjud bo'lgan muammolar uning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Mamlakatda samarali ishlovchi sud-huquq tizimi, qonunlarni amalga oshirish va ijtimoiy nazorat tizimlarining yo'qligi korrupsiya sodir etilishining asosiy sabablaridan biridir.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, jamiyat, qonun, davlat organlari, xususiy sektor.*

Abstract: *Corruption undermines not only the legal system, but also democratic processes and social justice, which ultimately reduces trust and stability in society. People are often forced to do things against the law to get out of economic difficulties. Economic inequality also exacerbates this process. The presence of corruption in society and its acceptance as normal, as well as the weakening of moral standards, are also important factors. If corruption is taken lightly by society or if systematic measures are not taken to prevent it, it can become more widespread and persistent. The causes of corruption depend on various factors, and problems in the economic, political, social and legal systems contribute to its widespread spread. The lack of an effectively functioning judicial system, law enforcement and social control systems in the country are one of the main reasons for the commission of corruption.*

Keywords: *corruption, society, law, state, authorities, private sector.*

Аннотация: *Коррупция подрывает не только правовую систему, но и демократические процессы и социальную справедливость, что в конечном итоге снижает доверие и стабильность в*

обществе. Чтобы выбраться из экономических трудностей, люди часто вынуждены совершать противозаконные действия. Экономическое неравенство также усугубляет этот процесс. Важными факторами также являются наличие коррупции в обществе и ее принятие как нормы, а также ослабление моральных устоев. Если общество относится к коррупции легкомысленно или не принимает систематических мер по ее предотвращению, она может стать более распространенной и устойчивой. Причины коррупции зависят от различных факторов, а проблемы в экономических, политических, социальных и правовых системах способствуют ее широкому распространению. Отсутствие эффективно функционирующей судебной системы, правоохранительных органов и системы общественного контроля в стране является одной из основных причин коррупции.

Ключевые слова: *коррупция, общество, закон, государство, власть, частный сектор.*

KIRISH. Korrupsiya (yoki poraxo‘rlik) — davlat organlari, xususiy sektor yoki boshqa jamiyat tizimlaridagi vakolatli shaxslarning o‘z manfaatlari uchun xizmatlarni yoki boshqa imtiyozlarni sotish, almashtirish yoki talab qilish holatini anglatadi. Bu tizimlar orqali mamlakat iqtisodiyoti, siyosati va ijtimoiy tuzilmasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Korrupsiya nafaqat yuridik tizimni, balki demokratik jarayonlarni, ijtimoiy adolatni ham buzadi, bu esa oxir-oqibat jamiyatdagi ishonch va barqarorlikni pasaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Korrupsiyaning shakllanishi bir necha omillar bilan bog‘liq. Ularni umumiy tarzda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

Iqtisodiy omillar: iqtisodiy inqirozlar, kambag‘allik, ishsizlik va resurslarning taqsimlanishidagi adolatsizliklar korrupsiyaning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Odamlar iqtisodiy qiyinchiliklardan chiqish uchun ko‘pincha qonunlarga zid ishlar qilishga majbur bo‘ladilar. Iqtisodiy tengsizlik ham bu jarayonni kuchaytiradi.

Siyosiy omillar: siyosiy tizimdagi markazlashuv, boshqaruvning yuqori darajadagi korrupsiyaga chalinishi, saylov tizimlarining nohaqligi va davlat boshqaruvidagi adolatsizliklar korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Siyosiy raqobatni ta’minlash va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muammolar bu jarayonni yanada og‘irlashtiradi.

Ijtimoiy omillar: Jamiyatda korrupsiyaning mavjudligi va uning normal holat sifatida qabul qilinishi, axloqiy me’yorlarning susayishi ham muhim omil hisoblanadi. Agar korrupsiya jamiyat tomonidan yengil qaralsa yoki uning oldini olish uchun tizimli choralar ko‘rilmasa, u yanada keng tarqalgan va izchil bo‘lishi mumkin.

Huquqiy omillar: Huquqiy tizimdagi zaifliklar, adolatni ta’minlashda mavjud bo‘lgan muammolar, qonunlarning buzilishi va sud-huquq organlarining mustaqil bo‘lmasligi ham korrupsiyaning omillaridan biridir. Sud tizimi yoki boshqa nazorat organlarining zaifligi korrupsiyaga qarshi kurashishda to‘siq bo‘ladi.

Korrupsiyaning salbiy ta’sirlari ko‘pdir. Bu quyidagi sohalarda o‘zini ko‘rsatadi:

Iqtisodiy salbiy ta’sir: korrupsiyaning keng tarqalishi davlatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Korrupsiya inflyatsiyani oshiradi, kapitalni to‘g‘ri yo‘naltirishni va samarali resurslarni taqsimlashni qiyinlashtiradi.

Siyosiy ta’sir: siyosiy tizimning ishonchli bo‘lishi uchun aholining davlat organlariga ishonchi zarur. Korrupsiya bu ishonchni yomonlashtiradi va davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi.

Korrupsiyani tahlil qilishda, shuningdek, davlat organlarining xatoliklari va qarorlarining samaradorligi ham muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonlarni tahlil qilish, korrupsiya manbalarini aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarur.

O‘zbekistonda korrupsiyaga sabab bo‘luvchi omillar bir necha asosiy faktorlarni o‘z ichiga oladi:

Siyosiy monopoliya: O‘zbekistonda siyosiy tizimning markazlashganligi va hukumatning keng vakolatlari korrupsiyani kuchaytirishi mumkin. Siyosiy monopoliya siyosiy raqobatning

TAMADDUN NURI

cheklanishiga va shaxsiy manfaatlarning davlat resurslariga kirishiga olib keladi.

Siyosiy va ijtimoiy qaramlik: ayrim holatlarda, hukumat va siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar yoki loyiha va dasturlarda favoritizm va nepotizm (o‘z tanishlari yoki qarindoshlariga afzallik berish) mavjud bo‘lishi mumkin. Bu korrupsiyani kuchaytirishi va davlat xizmatlarining samarasizligini oshirishi mumkin.

Iqtisodiy resurslarning yetishmasligi: Davlat iqtisodiy resurslarining cheklanganligi va iqtisodiy bozorning noto‘g‘ri boshqarilishi korrupsiyaga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, moliya va iqtisodiy tarmoqlarda oshkoralik va raqobatning pastligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qonunlar va ularning tatbiqi: Qonunlarning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri tatbiqi korrupsiyani kuchaytirishi mumkin. Qonunlar va normativ hujjatlarning o‘zgarishi, ularning tatbiqi va monitoringining zaifligi korrupsiyaga olib keladi.

Jamoat nazoratining yetishmasligi: Ommaviy nazoratning va jamoat tashkilotlari faoliyatining cheklanganligi korrupsiyani oshirishi mumkin. Ombudsmanlar, jurnalistlar va fuqarolik jamiyatining roli kam bo‘lishi korrupsiyaning yashirin bo‘lishiga olib keladi.

Ma’muriy rivojlanish va ta’lim: Ma’muriy boshqaruv va davlat xizmatlarida malakali kadrlarning yetishmasligi, shuningdek, ta’lim va malaka oshirish dasturlarining zaifligi korrupsiyani kuchaytirishi mumkin.

Madaniy omillar: ba’zi madaniy va tarixiy faktorlar korrupsiyaning mavjudligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Madaniy an’analar va urf-odatlar korrupsiyaga qarshi kurashishning kamchiliklariga olib kelishi mumkin.

Tashqi ta’sirlar: Tashqi iqtisodiy va siyosiy ta’sirlar, shu jumladan xalqaro yordam va investitsiyalar, ba’zan korrupsiyani kuchaytirishi yoki siyosiy tizimning barqarorligini saqlashga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bu omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birgalikda korrupsiyani kuchaytirishi mumkin. Har bir faktorning o‘ziga xos darajada ta’siri bor va davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida har bir omilni hisobga olish lozim.

Insonlarning korrupsiya qurboniga aylanishiga yana bir sabab, maosh masalasi bo‘lishi mumkin, insonlarning ish joyidagi maoshi ularning moddiy talablarini qanoatlantira olmasa, ya’ni uy-ro‘zgor ishlariga ham yetmasa, albatta insonda qo‘shimcha pul topish istagi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. “O‘z maoshiga kun ko‘ra olmaydigan odamga hatto kichik bir vakolat berildimi, bu uning uchun mansabidan foydalanish taklifiga aylanadi”[1].

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish, uni yo‘qotish uchun xorijiy mamlakatlar tajriybasidan foydalanish ham o‘z samarasini berishi mumkin. Hozirgi kunda dunyonining eng rivojalangan davlatlaridan biri bo‘lgan Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi asoslari uchta muhim yo‘nalishga qaratilgan, poraxo‘rlarni davlat apparatidan chiqarib yuborish: davlat xizmatlarini maksimal darajada soddalashtirish, aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha jazo choralarini kuchaytirish. Bizning mamlakatda ham korrupsiyaga qarshi kurashishda keyingi yillardagi islohotlar natijasida yuqoridagi uchta strategiyani uchratish mumkin.

Korrupsiyani iqtisodiy tahlil qilishga 1970-yillarda neoinstitutsional yo‘nalishdagi Amerika iqtisodchilari asarlarida nazariy asos solingan edi. Uning asosiy g‘oyasi shunda ediki, iqtisodiy hayotning turli sohalarini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq renta (eksport-import cheklovlarini joriy etish, korxona yoki tarmoqlarga subsidiyalar va soliq imtiyozlari berilishi, narxlar ustidan nazoratning mavjudligi, ko‘pchilik valyutalar kurslari siyosati va boshqalar) mavjud bo‘lsa, korrupsiya paydo bo‘ladi va rivoj topadi. Shu bilan birga korrupsiyaga past darajada maosh oluvchi amaldorlar intiladilar. Keyinchalik empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar mamlakatda tashqi savdo cheklovlari kam bo‘lsa, sanoat siyosati barcha korxona va tarmoqlar uchun teng imkoniyatlar asosida olib borilsa, hamda davlat

[1] M.A.Raxmatov, B.Z.Zaripov. Iste’dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. Li Kuan Yu hikmatlari.Toshkent-2019-yil.

amaldorining maoshi xususiy sektorda shu malakaga ega xodimning maoshidan ko‘p bo‘lmasa, korrupsiya ko‘lami qisqarib boradi[2].

Korrupsiyaning “pastdan yuqoriga”, ya’ni boshliq barcha ayblovlarni quyi pog‘ona amaldorlarga to‘nkash imkoniyatiga ega bo‘ladigan tizimi bilan birga “yuqoridan pastga” tizimi ham mavjud bo‘lgan. Bu tizimda boshliq porani bevosita o‘zi olib, uni o‘zining qo‘l ostidagi xodimlari bilan bo‘lishgan. Bunday tizim Janubiy Koreyada mavjud bo‘lgan[3].

XULOSA. Bu, hukumat agentlarni o‘z manfaatlarini o‘ylashlariga qarshi ruhiy to‘siq yaratishga intilishini anglatadi. Buni qo‘shimcha ta’lim va ideologik (g‘oyaviy) targ‘ibot mexanizmlari orqali amalga oshirish mumkin. Undan tashqari, hukumat-prinsipal amaldor-agentlar faoliyati ustidan nazorat qilishning muhim vositasi hisoblangan mijozlar bilan bevosita aloqa o‘rnatish (aholidan shikoyatlar qabul qilish)ni rag‘batlantiradi[4].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anticorruption.uz.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonun // https://lex.uz/docs/3088008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar bilan kurashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni. 2020-yil 20-avgust.
4. Abulqosimov H.P., Muminov N.G. Xufyona iqtisodiyot.

[2] ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G. Xufyona iqtisodiyot. O‘quv qo’llanma. Toshkent, YANGI NASHR, 2020.

[3] Qarang: Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.26.

[4] ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G. Xufiyona iqtisodiyot. O‘quv qo’llanma. Toshken,t YANGI NASHR, 2020. 103-b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 796.071.4:378.2

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0009-0007-9591-9739
e-mail: fazliddinyaqubov46@gmail.com

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, associate professor Uzbek state university of physical culture and sports, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD)

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА

Якубов Фазлиддин Мухитдинович, доцент Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Annotatsiya: *Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini takomillashtirish yo‘nalishlaridan biri uning ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etishidir. Bu esa ilmiy-tadqiqot kompetentligining yuqori darajada shakllanishini ta’minlaydi. Natijada esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolarga ilmiy-metodologik yechimlar bazasi rivojlanishiga olib keladi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, ilmiy tadqiqot, tadqiqotchilik kompetensiyasi, amaliy ko‘nikma, malaka.*

Abstract: *One of the directions for improving the research competence of specialists in physical culture and sports is their active participation in research activities. This ensures a high level of formation of research competence. As a result, this will lead to the development of a base of scientific and methodological solutions to problems in the field of physical culture and sports.*

Key words: *specialists in physical culture and sports, competence, competence, professional competence, scientific research, research competence, practical skills, qualifications.*

Аннотация: *Одним из направлений повышения научно-исследовательской компетентности специалистов по физической культуре и спорту является их активное участие в научно-исследовательской деятельности. Это обеспечивает высокий уровень формирования научно-исследовательской компетентности. В результате это приводит к развитию научно-методической базы решений проблем в области физической культуры и спорта.*

Ключевые слова: *Специалисты по физической культуре и спорту, компетенция, компетентность, профессиональная компетенция, научное исследование, исследовательская компетенция, практические навыки, квалификация.*

KIRISH. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sport sohasi rivojiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-414-sonli qarori sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish tizimini takomillashtirishga sabab bo‘ldi[1]. Sport va ta’lim sohasidagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy konferensiyalar, grant loyihalari va akademik mobillik dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa sport mutaxassislarining ilmiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kunda zamonaviy jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi profiliga faqat belgilangan nazariy bilimlar darajasiga ega bo‘lishi yetarli hisoblanmaydi. Bunda yangi bilimlarni egallash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi hamda sohadagi real muammolarni hal qila olish kompetensiyalarini ham egallashi lozim bo‘lmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ta’limida sifatni baholash mezoni bu soha mutaxassisining kasbiy kompetentligidan iborat bo‘lib, u uning kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini belgilaydi.

Kompetensiya so‘zi lotincha “competentia”dan kelib chiqqan bo‘lib, shaxs yaxshi xabardor, bilim va tajribaga ega bo‘lgan masalalar doirasini anglatadi. Bu sohada inson tegishli qobiliyatlarga ega bo‘lib, mazkur soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’limiy kompetensiyalar ta’limga shaxsiy yondashuvdan kelib chiqadi, faqatgina ma’lum harakatlarni bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi va baholanadi.

Kompetentlik – bu shaxsning allaqachon shakllangan sifatlari majmuidir. Ya’ni, kompetentli mutaxassis – bu zarur bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lgan shaxs, kompetentlik esa ushbu zarur kompetensiyalar to‘plamiga ega bo‘lgan shaxsning xususiyatidir. Kompetensiyaviy ta’lim mazmunidagi umumiy va individual jihatlarni ajratish uchun “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalaridan foydalaniladi.

Kasbiy kompetentlik – bu o‘z kasbini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va sifatlar to‘plamidir. Kasbiy kompetentlik nafaqat biror sohada zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki ularni amaliyotda to‘g‘ri va samarali tarzda qo‘llashni ham anglatadi. O.A.Bulavenko ta’kidlashicha, “kompetentlikka kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerak”[2]. Bizningcha kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida A.V.Xutorskoy mutaxassisning kasbiy kompetentligini kasbiy va individual sifatlari majmuasi deb qaraydi[3].

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi” tushunchasining umumqabul qilingan yagona bir ta’rifi mavjud emas. Biroq, olimlar tomonidan bunga bir qancha izohlar berib o‘tishgan. O.Y.Yefricheva ilmiy tadqiqotchilik kompetentlikni “ilmiy materialni tahlil qilish va baholash bilan bog‘liq qobiliyat” sifatida tushuntiradi[4]. N.G.Alekseyev esa uni “ijodiy fikrlash jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi, tadqiqot-loyihalash faoliyatiga xos bo‘lgan qobiliyat” sifatida ta’riflaydi[5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bizningcha, ilmiy tadqiqotchilik kompetentligi – bu ilmiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning jamlanmasi bo‘lib, u muammoni aniqlash va unga yechim taklif qilish, ilmiy usullarni qo‘llash, natijalarni baholash hamda yangi bilimlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishda samarali shakl, usul va vositalar tizimining o‘rni juda muhimdir. Bu jarayon ilmiy izlanishlar, sport sohasidagi yangiliklar va metodologik yondashuvlarni o‘rgatish orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, usul va vositalar tizimi

Tarkibiy qismlar	Tavsif	Misollar
Shakllar	Ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilish shakllari	- **Amaliyot asosida yo‘naltirish:** sportchilarning ilmiy tadqiqot jarayonlarida ishtirok etishi, amaliy mashg‘ulotlarga ilmiy uslublarni joriy etish.
		- **Seminar va treninglar:** ilmiy izlanish usullari va sport sohasidagi innovatsiyalar bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazish.
		- **Konferensiyalar va anjumanlar**: ilmiy tadqiqotlar natijalarini muhokama qilish va yangi izlanishlarga yo‘naltirish.
Usullar	Ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish usullari	- **Ilmiy va amaliy yondashuv**: Tadqiqot metodlarini sport amaliyoti bilan integratsiya qilish.
		- **Interaktiv usullar:** onlayn platformalar, guruhli ishlar, muhokamalar orqali ta’lim berish.
		- **Case-study yondashuvi:** sport sohasidagi real muammolarni ilmiy tahlil qilish va yechim ishlab chiqish.
Vositalar	Ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘llaniladigan texnologiya va resurslar	- **Zamonaviy ilmiy texnologiyalar:** SPSS kabi dasturlar, raqamli qurilmalar (wearables), virtual reallik texnologiyalari.
		- **Ilmiy jurnallar va ma’lumotlar bazalari**: sport tadqiqotlariga oid ilmiy maqolalar va elektron resurslarga kirish imkoniyati.
		- **Sport tajribalarini tahlil qilish vositalari**: Sportchilar va mutaxassislarning faoliyatini o‘rganish uchun eksperimental texnologiyalar va tahlil usullari.

XULOSA. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga nafaqat mustahkam nazariy bilimlar berish, balki ularning ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Tadqiqotchilik kompetensiyasining rivojlanishi ijodiy va intellektual salohiyatni kengaytirish, umumiy va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish jarayonida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari ta’lim jarayonida faol ishtirok etuvchi subyektga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli qarori.lex.uz.
2. Булавенко О.А. Профессиональная компетентность современного специалиста экономического профиля: сущностные характеристики // Вестник Брянского государственного университета. 1 (2010): Общая педагогика. Профессиональная педагогика. Психология. Частные методики. - Брянск: РИО БГУ, 2010. - С.21-26.
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58–64.
4. Ефричева О.Ю. Исследовательская компетенция: ее сущность и содержание / О.Ю.Ефричева, И.В.Мельник, В.С.Михайлюкова // Актуальные исследования. 2021. — №14 (41). — С. 59-62.
5. Алексеев Н.Г. Концепция развития исследовательской деятельности учащихся / Н.Г.Алексеев // Исследовательская работа школьников. – 2017. – №1. – С.24-33.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101.9

MA'NAVIY-MILLIY TARBIYADA TASAVVUFNING TA'SIRI VA AHAMIYATI

Ulug'ov Jasur Nasirdinovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi o'qituvchisi

ВЛИЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СУФИЗМА В ДУХОВНОМ И НАЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Улугов Джасур Насирдинович, преподаватель Университета экономики и педагогики Самаркандского кампуса

THE INFLUENCE AND SIGNIFICANCE OF SUFISISM IN SPIRITUAL AND NATIONAL EDUCATION

Ulugov Jasur Nasirdinovich, Teacher of the Samarkand Campus of the University of Economics and Pedagogy

https://orcid.org/0009-0004-4596-6168
e-mail: ulugov_jasur@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy pedagogikaning rivojlanishida tasavvuf qadriyatlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tasavvufning axloqiy, ma'naviy va ruhiy tarbiya jarayonlariga ta'siri, uning yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishdagi hissasi yoritib beriladi. Shuningdek, tasavvufiy ta'limotning sabr-qanoat, halollik, kamtarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Milliy tarbiya tizimida tasavvuf qadriyatlaridan samarali foydalanish yo'llari va usullari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Milliy pedagogika, tasavvuf qadriyatlari, ma'naviy tarbiya, komil inson, axloqiy tarbiya.*

Аннотация: *В статье анализируется роль и значение мистических ценностей в развитии отечественной педагогики. Подчеркивается влияние суфизма на процессы нравственного, духовного воспитания, его вклад в формирование подрастающего поколения как полноценных людей. Раскрывается также роль суфийских учений в формировании таких качеств, как терпение, удовлетворенность, честность, смирение, гуманность. Научно и теоретически обоснованы пути и методы эффективного использования суфийских ценностей в национальной системе образования.*

Ключевые слова: *народная педагогика, мистические ценности, духовное воспитание, совершенный человек, нравственное воспитание.*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of Sufi values in the development of national pedagogy. The influence of Sufi on the processes of moral, spiritual and spiritual education, its contribution to the formation of the younger generation as a complete person are highlighted. The role of Sufi teachings in the formation of such qualities as patience, contentment, honesty, humility, and humanity is also revealed. The ways and methods of effectively using Sufi values in the national education system are scientifically and theoretically substantiated.*

Key words: *National pedagogy, mystical values, spiritual education, perfect person, moral education.*

KIRISH. Bugungi kunda ota-bobolardan qolgan axloqiy-ma'naviy meros va qadriyatlarni falsafiy jihatdan o'rganish hamda ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biridir. Yurtimizda olib borilayotgan aksariyat madaniy tadbirlarda ham ushbu maqsad ko'zlangan. XXI asrda insoniyatga xavf tug'diruvchi tahdidlar millatlarning asrlar davomida erishgan milliy ma'naviyatiga katta xavf solayotgani bugungi davlatlar kelajagini kafolatlashlariga yo'l

qo‘ymayotir. Yadro quroli xavfining oldini olish, turli ekstremistik chiqishlar, aqidaparastlik, mutaasiblik, terrorizm, giyohvandlik, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga qarshi kurashish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolyapti. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarlarning, davr taqozosi yuzasidan, tezkorligi va bunga aholini tayyorlashdagi qiyinchiliklar natijasida yuzaga kelayotgan obyektiv va subyektiv sabablar tufayli ayrim odamlarda o‘zaro hurmat, odamiylik, rahmdillik, o‘zaro yordam, mehr–oqibatning birmuncha susayishi kuzatilmoqda, nafsga berilish, aldamchilik, firibgarlik holatlari tez–tez uchrab turibdi. Bu hol, tabiiyki, kelajak avlod – yoshlar tarbiyasida jiddiy to‘xtamga kelish kerakligini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bularning barchasi milliy an’analarni yoshlar orasida keng targ‘ib va tashviq qilishni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Tarixga nazar solsak, islom dini inson va insonparvarlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi, xayrli ishlar, solih amallarni bajarib, salbiy illatlarni qoralaydi.

Islomning ilk davrlarida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning o‘zlari taqvo va nafsda o‘rnak bo‘lganliklari uchun Islom targ‘iboti bilan bog‘liq kitoblarga hojat bo‘lmagan bo‘lsa, undan keyin va bugungi kunda Islom va unga bog‘liq ilmlarni targ‘ib qiluvchi, mutaxassislar tomonidan yozilgan yoki tarjima qilingan kitoblarga ehtiyoj kattadir[1]. Ayniqsa, islom niqobi ostida harakatlanayotgan turli xil oqim va botil guruhlarni fosh etish uchun ham Islom dini va u nimani targ‘ib qilishini bilish ayni muddaodir.

Shunday islomiy bilimlardan biri tasavvufdir. Tasavvuf ta’limotining shakllanish jarayoni, tarixiy o‘rnini ko‘rsatib berish, tasavvufiy manbalarni xolisona tadqiq etish ma’naviy qadriyatlar yuksalishida o‘ziga xos o‘rin tutayotgani, insonparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashib, mehr-muruvvat, shafqat, ruhiyatda sobitlik kabi xislatlarning rivojlanishiga hissa qo‘shayotgani ayni muddao, albatta. Zero, tasavvuf – uzoq asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg‘unligidan iborat ta’limotdir. Shu o‘rinda, dunyo lazzatlaridan voz kechib, insonlar bilan muomalani cheklab, xavf-xatar va gunohdan shu tariqa, ta’bir joiz bo‘lsa, qochib, ruhiyatni poklash emas, balki ijtimoiy faol hayot tarziga da’vat etgan g‘oyalar va qarashlar, insonni sevish, Vatanni sevish, mehnatni sevishni tarannum etgan izlanishlar tasavvuf ta’limotining yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko‘rsatib berishini aytib o‘tish mumkin. Zero, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham Bahouddin Naqshband ta’limoti haqida alohida to‘xtalib: “Ota-bobolarimiz ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo‘yib, uni “Bahouddin Balogardon” deb ta’riflab kelishida teran ma’no bor[2]. Uning “Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin”, degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi”, – degan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bizga ma’lumki, adabiyotga befarq insonlarni uchratish mushkul. Bu hol uning nafaqat xos kishilar, balki oddiy odamlar orasida ham nufuzini oshirdi. Ibodatni mustahkam ushlagan, shariatni asos bilgan ishqi oliy odamlar yuzaga keldi. Turgan gapki, ular jamiyatga o‘z ta’sirlarini o‘tkazmasdan qolmadi. Ilm-u ma’rifat, odob-axloq azaliy sifat bo‘lgan Turkiston o‘lkasida tasavvuf gullab yashnadi. Asosli va mustahkam qarashga ega bo‘lgan so‘fiylarning yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi[8]. Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi pirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Mavlono Lutfiy, Hazrat Jomiy, Alisher Navoiylar ham tassavvufiy ta’limotni o‘z asarlariga jo etib, tasavvuf adabiyotiga, adabiga o‘z hissalarini qo‘shishdi[3].

Ma’naviy rahbarlar sifatida tasavvuf shayxlari maydonga chiqib, payg‘ambar faoliyati va holatlarini davom ettirishga uringanlar. Fariduddin Attor o‘zining “Tazkirat ul-avliyo” asarida shayxlar so‘zini shunday ta’riflaydi: “Qur’on” va hadislardan keyin hech so‘z tariqatdagi mashoyixlar aytgan so‘zlaridan afzalroq emas”[4]. Tariqat shayxlari esa bejiz so‘z demaydi. Hoji Abdulg‘afur Abdurazzoq Buxoriyning Naqshbandiya ta’limoti asosida yozilgan “Tariqat odoblari” kitobida shirk, faqat dunyoviy g‘araz uchun shar’iy ta’lim olish, musulmon kishini la’natlash yoki uni dalilsiz kofirga chiqarish, g‘iybat, chaqimchilik, insonlarni tahqirlash, ahdga vafo qilmaslik, firibgarlik, ayolning jamolini ko‘z-ko‘z qilishi, o‘ziga oro berib, haddan oshishi kabi gunohi kabiralar keltirib o‘tilgan. Ushbu so‘zlar ham piri komillarning sinovlardan o‘tgan xulosalari bo‘lsa ajabmas[5].

Tasavvuf tariqatlarining odobnomasi asrlar davomida to‘ldirilgan asardir. Unutmaslik kerakki, ba’zi holatlardagi tushunmovchiliklar hududning geografik joylashuvi va xalqlarning o‘z milliy an’ana va qadriyatlarini Islomdan qidirishi natijasidir. Ammo, o‘zlarini tasavvufdagi guruhlar deb ko‘rsatuvchi doiralarda Islom aqidalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan tamoyillar ham mavjuddir. Hululiya, holiya, avliyoiya, sumrahiya, hubbiya, huriya, ibohiya, mutakosiliya, mutajohiliya, voqifiya, ilhomiya kabi botil guruhlar xususida Usmon Turar Najmiddin Umar Nasafiy fikrlariga asoslanib “Tasavvuf tarixi” kitobida aytib o‘tadi. Tasavvufning ilk davrlaridanoq soxta tariqatlar uni tark etmagan bo‘lsa-da, ta’limotdagi Ollohga intilishda nafsning har qanday ko‘rinishidan voz kechish, inson shaxsini ulug‘lab, Yaratgan tomon yetaklash ta’limotning sifat belgisi bo‘lib qolgan edi[6].

TAHLIL VA NATIJALAR. Tasavvuf – bu insonning ruhiyati va ma’naviy olamidagi jarayon bo‘lib, insonni ruhiy va axloqiy kamolotga yetkazuvchi bir bilimdir. Unda Alloh yo‘lida, haqiqat yo‘lida azob chekish, o‘zining ezgu maqsadiga erishish uchun og‘ir uqubatlarga bardosh berib, ularga bardamlik bilan chidash orif irodasini sinaydi. Agar u haqiqiy so‘fiyona irodaga molik bo‘lsa, azoblar qancha og‘ir bo‘lmasin, u chidaydi va shunda uning maqsadi hosil bo‘ladi, ya’ni u Alloh vasliga yetishadi. Mashaqqat o‘zidan keyin keluvchi huzurning rohatini lazzatliroq qiladi[7]. Tasavvuf ma’naviyatidagi bunday vasl insonning tug‘ilishdan muddaosini belgilaydi, go‘yo. Barcha dunyoviy ta’limotlar kabi tasavvuf ham oxiratdagi maqsadni eslatib, nafsga ruju qo‘ymaslikka, kishilarni hushyor bo‘lishga undab turadi. Tasavvufning ta’rifi juda ko‘p. Ahli tasavvufning o‘zlari uning ta’rifidagi bunday xilma-xillikni yaxshilik alomati deb biladilar. Ta’limotning o‘ziga xos tomonlaridan biri milliy tarbiyamizga ta’siridir.

XULOSA. Milliy pedagogikaning rivojlanishida tasavvuf qadriyatlarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Tasavvuf ta’limoti insonparvarlik, adolat, halollik, kamtarlik, sabr-qanoat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar milliy tarbiya tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, komil insonni yetishtirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada tasavvufiy qarashlarning zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi, bu orqali yoshlarning ma’naviy yetuk va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi ta’kidlanadi. Shuningdek, milliy pedagogik an’analarni mustahkamlash, ularni boyitish va yangi avlodga yetkazishda tasavvuf qadriyatlaridan samarali foydalanish muhimligi asoslab beriladi. Shu bois, tasavvufiy merosni o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish milliy pedagogikaning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aliqulov H. Gumanistik meros va shaxs ma’naviy kamoloti. Falsafa va huquq instituti. Toshkent, 2006 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. Toshkent, 2016.
4. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, 2009.
5. Ризаев И.И., Муминова З.О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.
6. Mavlanovna A.M. Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 7. – С. 32-36.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
8. Nasirdinovich U.F., Rakhmatullaevna U.L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – С. 1796-1801.
9. Muhammadiyev K. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times //Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука.–2022. – 2022. – Т. 3. – С. 1000-1004.
10. Саматов Х.У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы Узбекистана //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 908

XVI-XVII ASRLARDA VOLGA-URAL MINTAQASI TATARLARINING ETNIK VA SINFIY TUZILISHINING O‘ZGARISHI

Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna, Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

CHANGES IN THE ETHNIC AND CLASS STRUCTURE OF THE TATARS OF THE VOLGA-URAL REGION IN THE 16TH-17TH CENTURIES

Tadjieva Nargiza Djumabaevna, Lecturer at the Department of History, Mamun University

ИЗМЕНЕНИЯ В ЭТНИЧЕСКОЙ И СОСЛОВНОЙ СТРУКТУРЕ ВОЛГО-УРАЛЬСКИХ ТАТАР В XVI-XVII ВЕКАХ

Таджиева Наргиза Джумабаевна, преподаватель кафедры “История” университета Маъмун

https://orcid.org/0009-0004-2757-0940
e-mail: tadjiyevanargiza1984@gmail.com

Annotatsiya: *XVI-XVII asrlarda Volga-Ural mintaqasidagi tatarlar jamiyatining etnik va sinfiy tuzilishida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar, asosan, tatar xonliklarining feodal tizimining shakllanishi va uning Rossiya davlatining kengayish jarayonida qanday o‘zgarganligi bilan bog‘liq edi. Volga va Ural hududidagi tatar jamiyatida etnik sinfiy qatlamlarning shakllanishi va ularning o‘zaro munosabatlari tarixiy o‘zgarishlar, urushlar va siyosiy qulashlar orqali shakllandi. Ushbu maqolada, asosan, Qozon xonligi va boshqa tatar xonliklaridagi sinfiy tuzilishning o‘zgarishi, shuningdek, Rossiya davlatining tatarlar jamiyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Volga-Ural tatarlari, XVI-XVII asrlar, etnik tuzilish, sinfiy tuzilish, tatar xonliklari, Qozon xonligi, Qosimov xonligi, feodal tizim, Rossiya davlati, harbiy xizmat, nasroniylashtirish, Rossiya imperiyasi, tatar identifikatsiyasi.*

Abstract: *Significant changes occurred in the ethnic and class structure of Tatar society in the Volga-Ural region during the 16th-17th centuries. These changes were mainly associated with the formation of the feudal system in the Tatar khanates and its transformation during the expansion of the Russian state. The formation of ethnic and class strata within Tatar society in the Volga and Ural regions developed through historical transformations, wars, and political collapses. This article primarily examines the changes in the class structure of the Kazan Khanate and other Tatar khanates, as well as the impact of the Russian state on Tatar society.*

Key words: *Volga-Ural Tatars, 16th-17th centuries, Ethnic structure, Class structure, Tatar Khanates, Kazan Khanate, Qasim Khanate, Feudal system, Russian state, Military service, christianization, Russian Empire, Tatar identity.*

Аннотация: *В XVI-XVII веках в этнической и сословной структуре татарского общества в Волго-Уральском регионе произошли значительные изменения. Эти изменения в основном были связаны с формированием феодальной системы в татарских ханствах и ее трансформацией в процессе расширения Российского государства. Формирование этнических и сословных слоев в*

татарском обществе Волги и Урала происходило через исторические трансформации, войны и политические потрясения. В данной статье рассматриваются изменения в сословной структуре Казанского ханства и других татарских ханств, а также влияние Российского государства на татарское общество.

Ключевые слова: *Волжско-уральские татары, XVI-XVII века, Этническая структура, сословная структура, Татарские ханства, Казанское ханство, Касимовское ханство, феодальная система, Российское государство, Военная служба, христианизация, Российская империя, Татарская идентичность.*

KIRISH. Tatar xonliklarida jamiyat asosan feodal sinfiy tuzilishga asoslangan edi. Xonliklarda yer davlat mulki bo‘lib, feodallar tomonidan boshqarilardi. Feodal tizimda tatarlar ikki asosiy tabaqaga bo‘lingan edi: yuqori tabaqa — feodallar (zodagonlar, knyazlar, murzalar) va pastki tabaqa — xizmatchi tatarlar (“yasaunix” yoki “tolmaya”). Bu tabaqalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik va ekspluatatsiya, ayniqsa, Rossiya davlatining kengayish davrida kuchaygan. Feodal tizimning o‘ziga xosligi shundaki, tatarlar jamiyatida “tatar” nomi ostida faqat yuqori tabaqa emas, balki xizmat qiluvchi tatarlar ham kiritilgan. Ular tatar xonliklari tarkibidagi feodal tizimda muhim rol o‘ynagan, chunki bu guruhlarning ko‘pchiligi davlatning harbiy kuchini tashkil etgan. Shuningdek, “yasaunix” va “tolmaya” guruhlari soliq va xizmatlar bilan birga, tatar jamiyatining iqtisodiy va siyosiy tizimida muhim o‘rin tutgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Rossiya davlatining Volga va Ural mintaqasida kengayishi tatar xonliklarining siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini o‘zgartirdi. 1552-yilda Qozon xonligi Rus imperiyasining qo‘l ostiga o‘tdi. Bu voqea tatar feodal sinfini jiddiy ravishda zaiflashtirdi, chunki ko‘plab feodal rahbarlar va zodagonlar o‘ldirildi yoki asirga olindi, xuddi shunday tatarlarning ko‘plab xizmatchilari ham o‘z jismoniy va iqtisodiy holatlarini yo‘qotdilar.

Qozon xonligi va uning atrofidagi tatar jamiyatida sodir bo‘lgan bu o‘zgarishlar, xususan, 1550-yillarda, tatarlarning yuqori sinfini tashkil etgan feodallarga ta’sir etdi. Rossiya tomonidan olib borilgan jazo ekspeditsiyalari, shuningdek, tatarlarning o‘zaro urushlari, ko‘plab tatar feodallarining o‘limiga va jamiyatdagi sinfiy qatlamlarning o‘zgarishiga olib keldi. Bu davrda feodal sinfning asosiy tayanchi bo‘lgan harbiy xizmat sinfi kuchli zarbalar oldi va ularning yirik qismiga nisbatan jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz yuzaga keldi.

Xizmat guruhlari, asosan, feodal tizimning pastki qatlamini tashkil etgan. Bu guruhlar davlat tomonidan majburiy xizmatlarda bo‘lib, ular uchun yer, mol-mulk yoki boshqa imtiyozlar berilgan. Xizmat qiluvchi tatarlar va boshqa xizmatchilar, ayniqsa, 1550-yillarda rossiyaliklar tomonidan olingan soliq tizimi orqali ko‘plab alohida imtiyozlar va yer maydonlaridan mahrum bo‘ldilar. Shuningdek, tatarlar jamiyatidagi xizmatchilar, xususan, yuqori feodal tabaqaga qaraganda ko‘proq iqtisodiy yuklarni o‘z zimmalariga olishgan[1].

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida, ayniqsa, Qozon viloyatida tatarlarning xristianlashtirilishi jarayoni ham kuchaygan. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan bu siyosat, tatarlarning harbiy xizmatchi va feodal guruhlarini asosan cherkov va davlat tizimiga integratsiya qilishga qaratilgan edi. Bu jarayonning natijasi sifatida, tatarlarning “yangi suvga cho‘mgan” deb ataladigan yangi bir tabaqa shakllandi. Bu guruh, dastlab, feodal xizmati bo‘yicha alohida imtiyozlardan foydalangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan xristianlashtirish va ruslashuv jarayoni davomida mustaqil bir guruhga aylanib bordi. XVI-XVII asrlarda tatarlarning etnik va sinfiy tuzilishidagi o‘zgarishlar, nafaqat tatarlarning ijtimoiy hayotiga, balki ularning siyosiy va iqtisodiy tizimlariga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Qozon xonligi, Qosimov xonligi va boshqa tatar xonliklarining mustaqil siyosiy tuzilmalar sifatida tugatilishi, tatarlarning feodal sinfini zaiflashtirdi va ularni Rossiya imperiyasining siyosiy tuzilmasiga integratsiyalashgan holatda qoldirdi. Ushbu davrda, xususan, tatarlar orasida sinfiy farqlar va qarama-qarshiliklar kuchaygan bo‘lsa-da, Rossiya davlatining tatarlar jamiyatiga bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy va diniy ta’siri natijasida yangi tatar jamiyati shakllandi. Tatarlarning etnik va sinfiy strukturasining o‘zgarishi, asosan, Rossiya davlatining kengayishi, urushlar va xristianlashtirish siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. XVII asrda

TAMADDUN NURI

Rossiya imperiyasining Tatarlar bilan bog‘liq siyosati va ularning etnik identifikatsiyasi murakkab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu davrda Volga-Ural tatarlarining sinfiy tuzilmasi, ularning xizmat ko‘rsatishdagi roli va nasroniylashuv jarayoni o‘zining muhim o‘rnini egalladi.

1653-yilda, yoki undan biroz keyinroq, Qosimov shahri hukmdori Tsarevi Seyid-urxon (Vasiliy) boshqaruvni qo‘lga oldi. 1660-1670-yillarda, pravoslav ismlarini qabul qilgan Mansurov knyazlari haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, bu tatar feodallarining nasroniylikni qabul qilishining boshlanishiga ishora qiladi. XVII asr oxiriga kelib, tatar feodal tabaqasining nasroniylashuvi davom etdi va bu jarayon uning umumiy zaiflashishiga olib keldi. Rossiya davlatining siyosiy elitasining tatarlar ustidan amalga oshirgan siyosati, ular orasida iqtisodiy kuchning pasayishiga olib keldi. Misol uchun, Shatsk viloyatidagi murzi-tatarlar to‘g‘risida yozilgan “Ketrin komissiyasi” (1767-69) yig‘ilishidagi nutqda, ularning o‘z savdolarini amalga oshirishga ruxsat berilmasligi va savdo-sotiqdan mahrum bo‘lishi haqida so‘z boradi. Biroq, Rossiya hukumatining barcha sa’y-harakatlariga qaramay, tatar xizmat sinfi XVII asr oxirida o‘z-o‘zini anglashda davom etdi. Tatarlarning o‘z tarixiy xotirasida, ayniqsa, Qozon tatarlarining 1685-yildagi xizmat maktublarida, o‘z ajdodlariga bo‘lgan hurmat va ularning o‘z-o‘zini anglashiga alohida ahamiyat berildi. Tatar xizmatchilari o‘z hunarlarini, savdo-sotiqni va soliq to‘lashni amalga oshirishda davom etdilar[2].

Tatar xizmatchilarining etnik o‘z-o‘zini anglashining ikki asosiy jihati mavjud edi. Birinchidan, ular o‘z ajdodlarini uzoq vaqt davomida xizmat ko‘rsatgan tatar davlatlaridan, jumladan “Oltin O‘rda”dan va “Qrimdan” kelgan deb hisoblashardi. Ikkinchidan, xizmat qilgan tatarlar o‘zlarining avlodlaridagi uzluksiz zanjirni tasdiqlaganlar va o‘zlarini “knyazlar”, “murzalar” kabi yuqori sinf vakillari sifatida tan olganlar. Qozon tatarlarining va mimarlarning o‘z tarixiy xotirasida farqlar mavjud bo‘lib, ular o‘zlarini Qozonning tarixiy merosi bilan bog‘lab ko‘rishgan. Bu etnik o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi, tatarlarning madaniy va til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davom etdi[2].

XVII asrning oxiriga kelib, tatarlarning etnik identifikatsiyasi sezilarli darajada o‘zgargan. Xizmatkorlar va yasainlar o‘rtasidagi ijtimoiy farqlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshladi. Tatarlar dehqonlar sifatida yashashni boshladilar va ularning nomlanishi ham o‘zgardi. XVIIIasr boshlariga kelib, tatarlar orasida umumiy “tatarlar” etnonimi mustahkamlanib, bu jarayon o‘zining madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq edi.

Volga-Ural tatarlarining etnik va ijtimoiy tuzilmasi, Rossiya imperiyasining siyosati va tatarlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonlari XVIIasrda sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Xizmatkorlik va dehqonlik orasidagi farqlar asta-sekin yo‘qoldi va tatarlar o‘zlarini yagona etnik guruh sifatida anglashni davom ettirdilar. Shunday qilib, XVIIIasrga kelib, tatarlarning etnik va ijtimoiy identifikatsiyasi yangi shaklga ega bo‘ldi, bu esa keyingi asrlarda ularning madaniy va siyosiy hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Volga-Ural tatarlari etnosining shakllanishi, eng avvalo, sobiq millatlarning etnik va madaniy tuzilmalarini “isloh qilish” jarayonining murakkab natijasi sifatida yuzaga keldi. Bu jarayon, o‘z navbatida, tatar xalqi tarixining muhim davrlaridan biri bo‘lgan Qozon tatarlari davlatchiligining qulashidan keyingi davrda boshlandi. Ushbu tatarlar etnik-madaniy bo‘linmalarining shakllanishi davomida, ularning madaniy, diniy va ijtimoiy tuzilmalari sezilarli darajada o‘zgarishlarga uchradi. XVI-XVII asrlarda Volga-Ural mintaqasidagi tatarlar o‘zlarining etnik-madaniy identifikatsiyasini qayta shakllantirdilar, bu jarayonning asosiy qismida avvalgi feodal xonliklarning parchalanishi va yangi etnik guruhlarning vujudga kelishi muhim rol o‘ynadi. Volga-Ural tatarlarining etnik shakllanishi jarayonida Qozon tatarlari davlatchiligining qulashining o‘rni beqiyosdir. 1552-yilda Qozonning ruslar tomonidan zabt etilishi, bu hududdagi tatarlarning madaniy va siyosiy tuzilmasining jiddiy o‘zgarishiga olib keldi. Shu bilan birga, Meshchera yurtining yakuniy parchalanishi, xususan, tatarlar va boshqa etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini yanada murakkablashtirdi. Bu o‘zgarishlar natijasida, XVI-XVII asrlar o‘rtalarida Volga-Ural mintaqasidagi tatarlar bir necha kichik etnik-madaniy guruhlarga bo‘linib ketdilar. Volga-Ural tatarlari etnosining shakllanishida eng muhim jarayonlardan biri etnik-madaniy tabaqalanishdir. Bu tabaqalanish bir qancha davrlar davomida, o‘zaro integratsiya va alohida guruhlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish jarayonida yuzaga keldi. Xususan, XVI-XVII asrlar o‘rtalarida tatarlarning yangi etnik-

TAMADDUN NURI

madaniy tuzilmalari shakllandi, bu tuzilmalar esa avvalgi feodal tizimlarning parchalanishi natijasida yuzaga keldi. Shu nuqtada, Volga-Ural tatarlari etnosining shakllanishi ikki asosiy bosqichga ajratiladi: birinchi (genetik) bosqich — Oltin O‘rda davrining oxiriga to‘g‘ri keladi, va ikkinchi bosqich — XVI-XVIII asrlar o‘rtalarida shakllanadi. Birinchi bosqichda tatarlarning etnik-madaniy tarkibi hali aniq belgilangan emasdi, ammo ikkinchi bosqichda, ya’ni XVI-XVII asrlar o‘rtalarida, bu jarayon o‘zining oxirgi bosqichiga yetdi[1].

Tatarlarning hududiy bo‘linishi: Volga-Ural mintaqasidagi tatarlarning etnik-madaniy bo‘linishi geografik jihatdan ham aniq bir hududga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu mintaqa uchta asosiy kichik etnik-madaniy mintaqaga bo‘linadi: Qozon-tatar, Qosimov va Mimar. Ushbu kichik mintaqalar orasidagi o‘tishlar, o‘zaro madaniy ta’sirlar va aloqalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qozon-tatar mintaqasi: bu mintaqa tatarlarining birinchi genetik shakllanishiga asoslangan bo‘lib, Qozon tatarlari davrida mavjud bo‘lgan xalqlar bilan bog‘liqdir. Ushbu hududda tatarlarning asosiy etnik-madaniy elementlari shakllandi, va bu yerda tatarlarning urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va tilida aniq o‘ziga xos xususiyatlar saqlanib qolgan.

Qosimov mintaqasi: bu kichik hudud esa Qozon-tatar va Mimar mintaqalari orasida joylashgan va uning madaniy xususiyatlari oraliq shaklga ega. Qosimovda madaniy parametrlarga qarab, bu mintaqa genetik tipdagi bo‘linmalar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, Mimar mintaqasiga qaraganda ko‘proq “tashqariga suriladi”.

Mimar mintaqasi: Mimar kichik hududi tatarlarining genetik shakllanishlaridan so‘ng, madaniy jihatdan yanada rivojlanib, mustaqil etnik guruh sifatida ajralib chiqdi. Bu mintaqa Qozon va Qosimovdan farq qiladi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda an’anaviy tatar madaniyatining barcha elementlari keng tarqalgan.

Volga-Ural tatarlarining etnik-madaniy tuzilmasida, shuningdek, o‘tish davrining roli ham katta. Bu davrda, ya’ni XVII asr oxirlarida va XVIII boshlarida, O‘rta Volga va Ural hududlarining o‘zaro ta’siri davom etdi. Bu hududlarda turli etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqalar va o‘zgarishlar natijasida aralash etnik-madaniy bo‘linmalar shakllandi. Bu jarayonlar davomida, tatarlarning madaniy xususiyatlari, tillari va urf-odatlari bir-biri bilan aralashib, yangi shakllarga ega bo‘ldi[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Volga-Ural mintaqasidagi tatarlarning XVI-XVII asrlardagi etnik va ijtimoiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar quyidagi manbalarda bayon etilgan. **“Qozon tumanining Mitsovaya kitobi”** – bu asar tatarlarning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasi haqida ma’lumot beradi. **“Rus nasabnomasi kitobi”** – tatar zodagonlarining rus davlati bilan o‘zaro munosabatlarini yoritadi. **“Ketrin komissiyasi” (1767-69) yig‘ilish hujjatlari** – Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosatning tatar jamiyatiga ta’sirini tahlil qilishga imkon beradi. **D.M.Isxakov “Tatarlarning turar joyi va aholisi”** kitobida etnografik jihatdan tatarlarning joylashuvi va migratsiya jarayonlarini o‘rganadi. **Isxakov D.M. “Etnografik guruhlar”** kitobida tatar xalqining etnik tabaqalanishi va madaniy rivojlanishini o‘rganadi. **Ervopayev I.P. “Qozon viloyati”** ishida Qozon xonligi va tatarlar hududidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratadi. **Novosepskin.A.A. “Olijanob oilalar”ida** tatar aristokratiyasi va ularning Rossiya davlati tarkibidagi mavqeyini tahlil qiladi.

XVI-XVII asrlardagi tatarlar jamiyatida yuz bergan o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun asosiy tarixiy manbalar, soliq daftarlari va davlat hujjatlari o‘rganildi. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy ekspeditsiyalar va ularning natijalari tahlil qilindi. Tatarlarning sinfiy va etnik tuzilishidagi o‘zgarishlar boshqa hududiy guruhlar bilan qiyoslandi va Volga-Ural tatarlari va boshqa tatar guruhlarining ijtimoiy tuzilishi o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Tatarlarning etnik va madaniy o‘zgarishlarini o‘rganish uchun arxiv hujjatlari, nasabnoma kitoblari va etnografik tadqiqotlardan foydalanildi. Tatarlarning iqtisodiy va diniy hayotidagi o‘zgarishlar ilmiy manbalar asosida baholandi. XVI-XVII asrlarda Rossiyaning tatar hududlarida olib borgan iqtisodiy siyosati va soliqlar ta’siri o‘rganildi. Tatar feodal sinfi va xizmatkor tabaqasining iqtisodiy holati solishtirildi[3].

Tatarlar jamiyatining rivojlanishini o‘rganishda asosiy manbalar: rus soliq daftarlari, tatar xonliklari bilan bog‘liq diplomatik hujjatlar hamda pravoslav cherkovi hujjatlari tahlil qilindi. XVII asr oxirida tatarlar orasida xristianlashtirish va ruslashtirish

jarayonining kechishini aniqlash maqsadida davlat hujjatlari va cherkov yozuvlari tekshirildi[4].

MUHOKAMA. Volga-Ural tatarlari tarixiy jihatdan murakkab etnik va sinfiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Feodal tizimning parchalanishi, Rossiya hukmronligi ostida iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishning o‘zgarishi tatarlarning ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, tatarlar o‘z madaniy va etnik o‘ziga xosliklarini saqlab qolishga harakat qildilar.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Volga-Ural tatarlarining etnik va madaniy identifikatsiyasi Rossiya imperiyasining harbiy, diniy va iqtisodiy siyosatlari natijasida yangi shakllarga ega bo‘ldi. Ularning xizmat sinfi orqali jamiyatda tutgan o‘rni davom etdi.

NATIJALAR. Tatar xonliklarida feodal sinfiy tuzilish hukmron bo‘lib, jamiyat quyidagi tabaqalarga bo‘lingan: feodallar (zodagonlar, knyazlar, murzalar); xizmatchi tatarlar (“yasaunix” yoki “tolmaya”). 1552-yilda Qozon xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida tatar feodal sinfi jiddiy ravishda zaiflashdi. Tatarlarning yuqori tabaqasi iqtisodiy va siyosiy imtiyozlaridan mahrum bo‘ldi. Xizmatkor sinf Rossiya soliq tizimiga bo‘ysundirilgan va ular iqtisodiy yuk ostida qoldi. XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Rossiya hukumati tatarlarning majburiy xristianlashtirilish jarayonini olib bordi[4]. “Yangi suvga cho‘mgan” tatarlar ijtimoiy tabaqa sifatida shakllandi va feodal tizimga integratsiyalandi. Tatarlarning etnik identifikatsiyasi Rossiya imperiyasi siyosati ta’sirida o‘zgardi. XVII asr oxiriga kelib, xizmatkorlar va dehqonlar o‘rtasidagi farqlar bartaraf bo‘la boshladi. XVIII asr boshlarida “tatar” etnonimi umumiy milliy identifikatsiya sifatida shakllandi[5].

XULOSA. Volga-Ural tatarlari etnosining shakllanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bu jarayon tarixiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga asoslangan. Tatarlarning etnik-madaniy tabaqalanishi, ularning o‘zaro aloqalari va madaniy o‘zgarishlari Volga-Ural mintaqasining tarixiy rivojlanishining ajralmas qismidir. XVI-XVII asrlarda tatarlarning etnik va madaniy tuzilmalaridagi o‘zgarishlar, ularning milliy identifikatsiyasining shakllanishi va so‘nggi natijalari, bu xalqning tarixini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Volga-Ural tatarlari etnosining shakllanishi jarayoni tarixchilarga va etnograflarga nafaqat tatarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki ular yashagan mintaqadagi boshqa etnik guruhlar bilan aloqalarini ham chuqurroq tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ervopayev I.P. Qozon viloyati...- B.35, 45.
2. Qozon tumanining Mitsovaya kitobi...- B.158.
3. Novosepskiy.A.A. - B.68; Olijanob oilalar...-U.1 - B.480.
4. Rus nasabnomasi kitobi...- U.II.- B.26-32.
5. Isxakov D.M. Tatarlarning turar joyi va aholisi... - B.38. Bu, ayniqsa, XVIII asr oxiridagi Menzen gubernatorligining “Dvoryanlarning kichik ismlari” ro‘yxatidan va “Dvoryanlar ro‘yxati”dan aniq ko‘rinadi. (F.A.Menzenskaya o6 l., f. 196, op. 1, saqlash birligi 109. - l.1-69).
6. Isxakov D.M. Etnografik guruhlar...- B.3-32.
7. Apomev S.X . Tatar ASSR tarixi, 1968.-90-93.
8. Kusheev R.T., Mozhseeva N.N. Areal usullar. - B.98-100.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94.575(338.966)

O‘RTA ASR XORAZM HUNARMANDCHILIGI HAQIDA YOZMA MANBALAR

Abdullayev Timur Pulatovich, Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

WRITTEN SOURCES ON THE ARTS AND CRAFTS OF MEDIEVAL KHOREZM

Abdullaev Timur Pulatovich, Associate Professor of the Department of History, Mamun University, Candidate of Historical Sciences

ПИСЬМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ О РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВЕ ХОРЕЗМА В СРЕДНИЕ ВЕКА

Абдуллаев Тимур Пулатович, доцент кафедры “История» университета Маъмуна, кандидат исторических наук

https://orcid.org/0000-0003-4037-7876
e-mail: timurabdullaev4466@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘rta asr Xorazm hunarmandchiligining rivojlanish tarixi yozma manbalar asosida tahlil qilingan. IX-XIII asrlarda Xorazm savdo, hunarmandchilik va madaniy hayotning muhim markazlaridan biri bo‘lib, hunarmandchilik tarmoqlari turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish bilan ajralib turgan. Yozma manbalar, jumladan, arab va fors mualliflari asarlarida Xorazm hunarmandchiligi, xomashyo manbalari va mahsulot turlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Hunarmandlar metallurgiya, qurolsozlik, to‘qimachilik, charmga ishlov berish va qimmatbaho toshlarni qayta ishlash kabi sohalarda katta yutuqlarga erishgan. Xorazm mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda yuqori baholangan bo‘lib, ushbu hudud Markaziy Osiyo iqtisodiyotining muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, maqolada arxeologik topilmalar va tarixiy hujjatlar asosida hunarmandchilikning rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish jarayonlari va hunarmandchilik mahsulotlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Xorazm hunarmandchiligining iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘rnini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, hunarmandchilik, o‘rta asr, hunarmandlar, metallurgiya, qurolsozlik, to‘qimachilik, charmga ishlov berish, arxeologiya, savdo, hunarmandchilik mahsulotlari, tarixiy manbalar, iqtisodiyot, hunarmand ustaxonalari, Markaziy Osiyo, hunarmandchilik rivoji.*

Abstract: *This article analyzes the development history of medieval Khorezm handicrafts based on written sources. During the 9th-13th centuries, Khorezm was one of the important centers for trade, handicrafts, and cultural life, with its handicraft industries distinguished by the production of a variety of products. Written sources, including works by Arab and Persian authors, provide valuable information about Khorezmian handicrafts, raw material sources, and product types. Artisans achieved significant advancements in fields such as metallurgy, weaponry, textile production, leatherworking, and the processing of precious stones. Khorezmian products were highly valued in both domestic and foreign markets, making the region a crucial center of the Central Asian economy. The article also examines the stages of development, production processes, and the significance of handicraft products based on archaeological finds and historical documents. This research serves to provide a deeper understanding of the role of Khorezmian handicrafts in the economic and cultural life of the region.*

Key words: *Khorezm, handicrafts, medieval period, artisans, metallurgy, weaponry, textiles, leatherworking, archaeology, trade, handicraft products, historical sources, economy, artisan workshops, Central Asia, handicraft development.*

Аннотация: *В данной статье на основе письменных источников анализируется история развития средневекового ремесленного производства Хорезма. В IX-XIII веках Хорезм являлся одним из важнейших центров торговли, ремесленничества и культурной жизни, где ремесленные отрасли выделялись производством разнообразной продукции. В письменных источниках, в том числе в трудах арабских и персидских авторов, приводятся ценные сведения о ремеслах Хорезма, источниках сырья и видах производимой продукции. Ремесленники достигли значительных успехов в таких областях, как металлургия, оружейное дело, ткачество, кожевенное производство и обработка драгоценных камней. Продукция Хорезма высоко ценилась на внутреннем и внешнем рынках, что позволило региону стать одним из ключевых экономических центров Центральной Азии. Кроме того, в статье на основе археологических находок и исторических документов анализируются этапы развития ремесленного производства, производственные процессы и значение ремесленных изделий. Данное исследование способствует более глубокому изучению роли ремесленничества Хорезма в экономической и культурной жизни.*

Ключевые слова: *Хорезм, ремесленничество, средневековье, ремесленники, металлургия, оружейное дело, ткачество, кожевенное ремесло, археология, торговля, ремесленные изделия, исторические источники, экономика, ремесленные мастерские, Центральная Азия, развитие ремесел.*

KIRISH. O‘rta asrlarda Xorazm Sharq dunyosida savdo, hunarmandchilik va madaniy hayot rivojlangan sivilizatsiya o‘chog‘laridan biri hisoblangan. Bu zaminning serunum tuprog‘i, mahalliy aholining samarali mehnati tufayli iqtisodiyotning ko‘pgina tarmoqlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashish jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Biroq, Xorazmning o‘rta asrlardagi ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega hunarmandchilik va uning mahsulot turlari, xomashyo manbalari arxeologik, tarixshunoslik, etnografik adabiyotlarda maxsus tadqiqot obyekti sifatida hanuzgacha to‘laqonli o‘rganilmagan. Xorazm hunarmandchiligi tarmoqlari, mahsulot turlari, ustaxonalari, xomashyo manbalari va boshqa ma’lumotlar o‘rta asr arab-fors tilidagi manbalarda, XVIII-XIX asrlardagi rus elchi, sayohatchilari va XX asr tadqiqotchilarining tarixshunoslik, etnografik asarlarida qisqa va chegaralangan, takroriy umumiy mazmundagi ma’lumotlar berilgan xolos. Mazkur ma’lumotlarni ilmiy tahlillar asosida mujassamlashtirib, tarixshunoslik lavhasini yaratish, mavzuni o‘rganishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘rta asrlarda Xorazm hunarmandchiligi tarixi aks etgan yozma manbalarni, geografik hududi yoki ma’lumotlarning xususiyatlariga qarab alohida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Rivojlangan o‘rta asrning ilk bosqichi, ya’ni IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoning boshqa hududlari kabi Xorazmda ham uzoq davom etgan siyosiy kurashlardan so‘ng buyuk Xorazmshohlar davlati barpo etildi. Shu o‘rinda Xorazmshohlar unvoniga sazovor bo‘lgan sulolalar vakillaridan Ma’mun ibn Muhammad (992-997 yy.), Ali ibn Ma’mun (997-999 yy.), Ma’mun ibn Ma’mun (999-1017 yy.), so‘ng esa Xorazmshoh-Anushteginlar (1097-1231 yy.)ni keltirib o‘tish mumkin. Bu davrda Xorazmshohlar davlatining chegarasi g‘arbda Iroq, sharqda Hindistongacha, shimolda Mang‘ishloq va Orol dengizi sohillaridan, janubda Hind okeani qirg‘oqlarigacha cho‘zilgan bo‘lib “Buyuk Xorazmshohlar” imperiyasini tashkil qilgan. Bu imperiya tarixi o‘rta asr musulmon jamiyatidagi tarixan o‘z-o‘zini anglash an’analariga mos tarixshunoslik asosida yoritildi. O‘rganilayotgan arab-fors tilidagi yozma manbalarda bu qadimiy vohaning ma’muriy-jug‘rofiy joylashuvi, vohaning tarixiy-toponimik maskanlari, hunarmandchilik turlari va mahsulotlari, savdo aloqalari, madaniy hayoti, madaniy ekinlarning tarqalishi, foydali qazilmalar tavsiflari va boshqa ma’lumotlar keltirilgan. Arab–fors mualliflaridan Ibn Rusta (903-913 yy.) «Kitob al-aloq an-nafisa» («Qimmatli baholar»), Al-Istahriy (930-933 yy) «Kitob masolik va-l-ul mamolik» («Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitob»), Al-Muqaddasiy (985-1000 yy.) «Ahsan-at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim»

(«Iqlimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma»), noma’lum muallif qalamiga mansub fors-tojik tilidagi jug‘rofiy asar «Hudud al-olam» (982-983 yy.) va boshqa asarlarda Xorazm hunarmandchiligi tarixi to‘g‘risida qisqa, lekin aniq qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, al-Muqaddasiy tarixiy asarida Bulg‘ordan Xorazmga keltiriladigan buyumlar qatorida mis, hanjar va sovutlarni, vohadan esa qulf, kuchli odamlargina tortishi mumkin bo‘lgan o‘q-yoylar tashqi savdoga chiqarilganligini yozib qoldirgan. [МИТТ,1939,s.202]. Demak, yuqoridagi yozma manbaga tayanib XIII asr boshlarida Xorazmdan tashqi savdoga harbiy qurol-aslahalar, egar-jabduq, ot taqalari chiqarilganligini anglash mumkin.

XIII asrda yashagan Muhammad an-Nasaviyning «Sirat as Sulton Jaloladdin Mankburni» asarining tarixiy qiymati shundaki, unda Xorazmning ixtisoslashgan qurolsoz hunarmandlari tomonidan tayyorlangan qilich, nayza, kamon va kamon o‘qi uchlari kabi odatdagi qurollardan tashqari, harbiy mashinalardan manjaniq (katapulta), dabbabat (devor teshuvchi), tir-charx (samostrela), mataris, salalim kabilardan foydalanganliklari haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan[МИТТ,1939,473,475]. Xorazm qo‘shini qo‘shni davlatlarni zabt etish davomida ham yangi turdagi zamonaviy qurollarga ega bo‘lib borgan.

Sharq mualliflari o‘z asarlarida Xorazm vohasidagi aholi maskanlarini yani shahar va qishloqlarini, aholi mashg‘ulotlarini, bu hududdagi madaniy ekinlarning tarqalish ko‘lamini, hunarmandchilikning xomashyoviy manbaini, foydali qazilmalar o‘rni to‘g‘risida qisqacha, ammo, daliliy ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Tarixdan ma’lumki, bu mintaqa iqtisodiy turmushida qadim davrlardan qishloq xo‘jaligi va uning taraqqiyoti asosiy o‘rinni egallagan. Shu sabab ayrim Xorazm shaharlari ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish markazlariga aylangan. Bu haqda al-Muqaddasiy shunday yozadi : “Mizdahqon katta shahar, uning atrofida 12000 rustak (ekinzorli qishloqlar) bor, Darg‘on Jurjoniyadan so‘nggi Xorazmning katta shahari, unda 500 tokzor daryo bo‘ylab 2 farsax (taxminan 11,2 km) cho‘ziladi, mayiz chiqariladi; shahar (Darg‘on) bilan Jayhun daryosi oralig‘ida taxminan 2 farsax musofada ekin maydonlari va bog‘lar bo‘lib, shahar ahli undan foydalanadilar». Bu ma’lumotlarni boshqa tarixiy geografik manbalar ham tasdiqlashi bilan ahamiyatlidir. Shu bois, o‘rta asr Xorazm shahar tizimining tashqi, katta hududi (rabotlar) chekkasi madaniy ekinzorlar o‘choqlari bilan tutashgan, degan fikr paydo bo‘ladi[МИТТ.1939,188 b]. Yana bir tarixchi va sayyoh Yoqut al-Hamaviy (1179-1229 yy.) o‘zining «Mu’jam ul-buldon» asarida Xorazmga (1219-1220 y.) borganligini, bu obod o‘lka, qishloqlari bir-biriga tutashganini, «daraxtlarning ko‘pi tut va teraklar… agar daraxt imoratga ishlatilsa, tut ipak qurti uchun ovqat», -deb vohada ipakchilik sohasining mavjudligini ta’kidlaydi[МИТТ,1939,419 b]. Muallifning ushbu fikrlarini 1298-1299-yillari Eski Qrimda muhrlangan notarial hujjatda Xorazmdan olingan «carusmizna» va «organinum» deb nomlangan ipak xom ashyo tolalarini genuyalik savdogarlar tomonidan Italiyaga suv yo‘li bilan jo‘natilgani isbotlaydi[Bratianu,1937]. Yuqorida qayd etilgan tarixiy dalillar arxeologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Arxeologik tadqiqotlar davomida o‘rta asr shahar va qishloq makonlaridan tokzorlar, bog‘lar va boshqa dehqonchilik madaniyati izlari aniqlandi. Jumladan, Shohsanam qal’a atrofidan 800 ga, Zamaxshar 500 ga, Qavatqal’a 40 ga, Katta Qirqqiz qal’a 20 ga joyni egallagan dehqonchilik makonlari izlari o‘rganilgan. Shuningdek, Daryoliqko‘l bo‘ylaridagi 708-709 arxeo-topografik nuqta qishloq joylari va Bo‘ron 1, Qum-qal’a, Tuzqir qishloq qo‘rg‘onlaridan tokzorlar o‘rni ochilgan. Yuqoridagi dehqonchilik madaniyati izlari X-XIII asr boshi va XIII-XIV asrlarga tegishli hisoblanadi [Kdirniyazov, 1999 a, 82-83b: 1999 b, 102 b]. Bu fors tarixshunoslik adabiyoti namoyondalarining biri Zakariya al-Qazviniyning (1203-1283 yy.) shu davrdagi «katta shahar tokzorlar, bog‘lar va ekinzorlar bilan tutashadi», -degan xulosasini yana bir marta tasdiqlaydi [Buniyatov,1986,101b]. Qazviniy ma’lumoti Xorazm to‘g‘risida yozilgan arab mualliflari al-Maqdisiy, Yoqut al-Hamaviy asarlarida keltirilgan ma’lumotlarni tasdiqlaydi.

XIII asr mualliflaridan Al-Kurashi «Bu davrda Xorazm poytaxtida 50 ga yaqin asosiy ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari bo‘lganligini, Zakariya al-Qazviniy esa Urganch aholisi mohir hunarmandlar bo‘lib, ayniqsa temirchilik, duradgorlik hunarmandchiligi o‘z zamonasida yuksak darajada ekanligini ko‘rsatib o‘tgan [Buniyatov, 1986, s.102].

XIII-XIV asrlardagi arab mualliflaridan An-Nuvayri, ibn Abda-Zahrlar noyob mahsulotlardan

oltin bilan qoplangan egar-jabduq, kimxob yostiq Xorazmdan tashqi savdoga (Misrgacha) chiqarilishi va yuqori baholanishini ta'kidlagan. Muhammad ibn Mansur, «Abdul Messiya» (muallifi Ione Shavteli) va Shaxobaddin al-Umari (XIII-XIV asr) ma'lumotlarida esa Xorazmdan o'zga mamlakatlarga firuza, serdolik toshi va boshqa ma'danlardan ishlangan mahsulotlardan firuza Nishabur, Xazan, Kermanga Xorazmdan chiqarilgan, - degan ma'lumotni beradi [Kniga,1928,10b]. Darhaqiqat, Sulton Uvays tog' tizmalarida geologik tadqiqotlar va o'rta asr tog'-kon hunarmandchiligi markazlari o'rganilganda Jampiq qal'a va Mizdaxqondan Xorazm hunarmand zargarlari tayyorlagan firuza, serdolik bo'lakchalari, uzuk, tumor qoshlari va xom ashyolari aniqlandi [Юсупов, Манилов, 1968, 62 b: Манилов, Кдирниязов, 1984, 77 b].

Arab mualliflari al Muqaddasiy va Shaxobaddin al-Umariy (1301-1349 yy.) Xorazmning Barategin qishlog'i va tog' oldi shahridan (Jampiq qal'a) tegirmon va qozon toshlari tayyorlanganini yozadi. Jumladan, al-Umariy «Xorazmda chiqarilgan tosh qozonlar 60 yil xizmat etadi», - deb ta'kidlagan [СМИЗО,1884,242 b]. Bu tosh talkoxlorit bo'lib, uning zahiralari Sulton Uvays tog' tizmalari ekanligi aniqlangan. Bu xom ashyodan tayyorlangan chiroq, cho'mich, tova, choynak, qozon va boshqa mahsulotlar Xorazmdagi ko'pgina o'rta asr yodgorliklaridan topilgan.

MUHOKAMA. O'rta asr mualliflari o'z asarlarida Xorazm hunarmandchiligi sohalaridan to'qimachilik gilam, kimxob ko'rpalar, «mulham» choyshabi, choponlar, ishlangan terilar («kimuxt») tayorlanganligi haqida qimmatli va qiziqarli ma'lumotlarni keltirganlar. Jumladan, Abdurashid al-Bakuviy (XIV-XV asr) «Kitab talxis al-asar va adjayb al-malik al-kaxxar» nomli asarida Gurganjning «zardo'z tikuvchilari» haqida yozadi [Bakuviy, 1971, 91 b]. Yozma manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asr Xorazm hunarmandchiligining muhim sohalaridan yana biri teriga ishlov berish kasbi bo'lgan. Ibn Havqal (X asrning ikkinchi yarmi) «Kitab al masolik va-l mamolik» asarida «Turkiston va Xorazm viloyatidan savdoda qizil, qora-qizil va qora rang qo'zi terilari dinor, danak, dirhamlarga sotiladi», deb ma'lumot beradi [MITT,1939,181b]. «Hudud al-olam» muallifi ham «Kardardan (Kerder) qorako'l terisi chiqariladi», – degan xabarni yozadi. Bu «chiroyli» teri mahsuloti hozirgacha «qamari» nomi bilan Xorazmda mashhur. Xorazmda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan birga Sharqiy Yevropadan (Bulg'or, Oltin O'rda) olib kelingan mo'ynalar (sobol-suvsar oilasidan, kulrang olmaxon, tulki, suvsar, qunduz), kimuxt (oshlangan ot terisi) va oq qayin po'stlog'i qayta ishlov berish jarayonidan so'ng Sharq davlatlariga chiqarilgan. Professor Yu.A.Yakubovskiyning ma'lumoti bo'yicha oq qayin po'stlog'i Xorazmga Volga bo'yi Bulg'oriyasi yoki Rus hududlaridan olib kelinib teriga ishlov berishda foydalanilgan [Греков, Якубовский, 1950,151b]. Oq qayin o'ramlari Ayota, Shemaxa qal'a, Ko'hna Urganch, Mizdahqon va Jampiqqal'a yodgorliklaridan arxeologik tadqiqotlar jarayonida aniqlangan.

NATIJALAR. Temuriylar davriga bag'ishlangan tarixiy asarlardagi ma'lumotlarni to'ldirgan buyuk o'rta asr sarkardasi va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Xorazm jangchilari to'g'risida shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Xorazmlik yoshlarning harbiy mahoratiga tan berish joiz, mohir xorazmliklar kamon o'qlari sovut va qalqonlarni ham teshib o'tgan, ular shunday mohir kamonchilarki, o'qlari biror marta ham qalqon va sovutni teshib o'tmay qolmagan, hattoki ikkita sovutni» [Бобур,1993,171 b]. Bu ma'lumot esa 1558-yilda Ko'hna Urganchda bo'lgan «Moskva-London» kompaniyasi vakili Antoniy Jenkinsonning «Xorazmda kamon, paykon, qilich va nayza va boshqa qurol-aslahalar qadimgi an'anaviy uslubda tayyorlanadi» degan ma'lumotini tasdiqlaydi [Английские путешественники, 1938, s. 178].

Yangi davrdagi (XVIII-XIX asr) rus sayohatchi, elchilari ishlarida ham vohadagi metall rudasi konlari va qayta ishlovchi maskanlar haqida ayrim ma'lumotlar mavjud. Lekin, O'rta Osiyo viloyatlari kabi, Xorazmdagi iqtisodiyot manbalari, tog'-kon xom ashyosi, qishloq xo'jalik mahsulotlari mustamlakachilik nuqtayi nazaridan tadqiqot qilindi. Bu XVIII-XIX asrlarda Yevropa hududidagi rivojlangan davlatlardagi «sanoat inqilobi» tufayli yer osti boyliklariga qiziqishning kuchayishi bilan aloqador. Rossiya davlatining oltin, kumush, mis, temir kabi yer osti boyliklari haqidagi ma'lumotlarga qiziqishi yangi pog'onaga ko'tarildi. Rossiyaning Sharqni «egallash siyosati» natijasida XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoga ilmiy ekspeditsiyalar, elchilik safarlari ko'plab tashkil qilindi. Bu

TAMADDUN NURI

ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi xonliklarning geografik va geosiyosiy joylashuvi, hududiy tuzilishi va yer osti boyliklari haqidagi ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lgan.

XULOSA. O'rta asr yozma manbalariga tayanib xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xorazm vohasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topishi, bu qadimiy o'lkani Markaziy Osiyoning xo'jalik jihatdan yuksak darajada taraqqiy etgan hududlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурашид ал-Бакувий. Китаб талхис ал-асар ва аджайб ал-малик ал каххар. М., 1971. 163 б.
2. Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. М.,1938. стр. 308.
3. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). М., 1986. стр. 247.
4. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М - Л., 1950 г. стр.479.
5. Заҳириддин Бобур. Бобурнома. Т.,1973. 218 б.
6. Кдырниязов М.Ш. Об аграрном характере производительной деятельности населения Миздахкана// Ўзбекистонда ижтимойи фанлар. № 4. 1999г. стр.82-86.
7. Кдырниязов М.Ш. Мастерские-винодельни золотоордынского Миздахкана// Вестник ККО АН РУ. №4-5. 1999. Б.101-102.
8. Книга о драгоценных камнях Мухаммеда ибн Мансура// Горный журнал. Кн.I. 1928. №10. стр.10-19.
9. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том.1. М.,1939. стр. 529.
10. Манылов Ю.П., Кдырниязов М.Ш. Городище Джанпык кала.// Археология Приаралья. Вып.II.стр.67-80.
11. Сборник материалов относящиеся к истории Золотой Орды. В Тизенгаузена. Том.1.Извлечения из сочинений арабских. СПб,1884. стр 497.
12. Юсупов Н.Ю, Манылов Ю.П. К изучению горного дела Султануиздага// Вестник ККФАН УзССР. Нукус.,1968. № 2., стр 61-67.
13. Bratianu A.Actes des notaries qenois de Pera et de Coffa de Ia Sindu XII SiecIe. Bucarest, 1937. 376 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 159.955:681.3

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI MUAMMO VA VAZIFALAR

Musayev Umidjon Saidkamolovich, Ma’mun universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.d., (PhD)

PROBLEMS AND TASKS IN THE INDEPENDENT EDUCATION SYSTEM UNDER GLOBALIZATION

Musayev Umidjon Saidkamolovich, Mamun University “General professional subjects” associate professor of the department, (PhD)

ПРОБЛЕМЫ И ЗАДАЧИ НЕЗАВИСИМОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Мусаев Умиджон Саидкамолович, доцент кафедры “Общепрофессиональные науки” Университета Маъмуна, д.ф.н., (PhD)

https://orcid.org/0009-0000-3398-8674
e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar, shu bilan birgalikda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlari o‘z aksini topishi bilan birgalikda, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda ta’lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga g‘ov bo‘lib kelgan 12 ta tahliliy asos keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, ong, tafakkur, mamlakat, ta’lim tizimi, qonun, oliy ta’lim, maktab ta’limi, islohot, yangilik va rivojlanish.*

Abstract: *this article reflects the reforms and changes being implemented in the education system of our country, as well as the gradual renewal processes, and presents 12 analytical foundations that have hindered the development of the education system in the period before independence.*

Key words: *education, upbringing, consciousness, thinking, country, education system, law, higher education, school education, reform, innovation and development.*

Аннотация*: В данной статье отражены реформы и изменения, реализуемые в системе образования нашей страны, а также поэтапные процессы обновления, а также приведены 12 аналитических основ, которые послужили основой развития системы образования в период до обретения независимости.*

Ключевые слова: *образование, разум, мышление, страна, система образования, право, высшее образование, школьное образование, реформа, инновации и развитие.*

KIRISH. Mazkur maqolada mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimiga qaratilayotgan e’tibor, islohotlar va yangiliklar bosqichma-bosqich joriy etilishi, nazariy va amaliy ishlar tizimli ravishda tashkillashtirilib borilishi natijasida o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatib borayotganligi hamda innovatsion yangilanishi ochib berilgan.

Shuningdek, mustaqilligimizdan oldingi davrlarda ta’lim-tarbiya tizimimizning rivojlananishiga to‘siq bo‘lib kelgan o‘n ikkita tahliliy asos keltirib o‘tilgan. Ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan katta ahamiyat berila boshlangan. Dastlabki yillardan ta’lim tizimi innovatsion tarzda shakllantirilib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta’lim tizimidagi olib borilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar haqida fikr bildirar ekan, bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tib, “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”

degan chuqur ma'noli fikrlari hammaning qalbida chuqur muhrlanib qolgan. Islom Abdug'aniyevich Karimov mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini, hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyo-qarashini keskin o'zgartirgan, mutlaqo yangi ta'lim va tarbiya tizimini yaratish va hayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita mualliflik va rahbarlik qildilar. Yurtimizda ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda"[1], - deya fikr bildirib o'tgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asari, nutq va ma'ruzalaridan hamda I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, S.Tillaboyev, A.Zamonovlarning "O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari)" darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, retrospektiv, tizimli funksional tahlil, kompleks yondashuv, sotsiodinamik yondashuv, sotsiologik tahlil, dialektik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. O'tgan XIX-XX asrlarning 140 yili chorizm va SSSR nomi bilan mashhur bo'lgan ittifoqdosh respublikalar davrida tajovuz va zo'ravonlikka, ma'muriy-buyruqbozlik, yakka partiyaviylik, avtoritar boshqaruviga asoslangan tizim samarasiz ekanligi o'z isbotini topdi[2]. Mamlakatimiz mustaqillikka erishish arafasida qo'shni respublikalar qatorida bizni ham ko'plab muammolar girdobiga giriftor etgan edi. Ta'lim tizimida innovatsion yangilanish ham tuzumga mos ravishda o'z aksini topib borgan. O'z navbatida mazkur holatlar, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini keskinlashtirib, salkam 140 yil mobaynida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolarni keltirib chiqargan edi:

Birinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshlarida Turkistonda tarixan mavjud bo'lgan an'anaviy ta'lim tizimi ham davom etib keldi, lekin ularning an'anaviy xususiyatlarini sindirish uchun rus-tuzem maktablari ochilishi va ularning sonining jadal sur'atlar bilan oshirilib borilishi, bir tomondan kimningdir nazarida ijobiy natija sifatida qaralishi mumkin. Aslini olganda, mazkur islohotlar zaminida rus-tuzem maktablari ta'lim tizimini g'arbona andozalar bilan boyitish maqsadida emas, balki bizning milliy an'ana va qadriyatlarimizga, madaniyatimiz va tilimiz, milliy o'zligimizni yo'q qilishga qaratilgan xatti-harakatlar avj nuqtasiga chiqdi;

Ikkinchidan, yangi usul jadid maktablariga qaratilgan senzura, ta'qiq va tanqidlaring XX asr boshlaridagi avj olishi. Ayniqsa, 1905-yilda Rossiya podshosi tomonidan Turkiston general-gubernatorligida 50 ga yaqin jadid maktabi yopib qo'yilgan bo'lsa, Buxoro amirligida 1913-yilga kelib barcha jadid maktablari yopib qo'yiladi[3]. Binobarin, Turkiston o'lkasi ozodligi va mustaqilligi uchun kurashni ilgari surgan jadidchilik harakati mustabid tuzum uchun ancha xatarli ekanligi namoyon bo'lgan edi;

Uchinchidan, maktablarining rus-tuzemlashtirilishi, g'arbona madaniyatni olib kirish, asosiysi rus tili va shu orqali rus madaniyatini singdirish. Bu orqali tub joy aholining qadriyat va an'analari asta-sekinlik bilan yo'q qilish asosiy vazifa sifatida zimdan e'tibor qaratilgan;

To'rtinchidan, milliy matbuot va jurnalistikaga senzuraning kuchayishi;

Beshinchidan, milliy davlatchiligimiz negizlari hisoblangan amirlik va xonliklarning tugatilishi (Qo'qon xonligi 1976-yil 19-fevral, XXSR va BXSR ning 1924 yilda);

Oltinchidan, xotin-qizlarni go'yoki, paranji va tutqunlikdan "ozod" etish maqsadida ularni o'qimishli va bilimli qilish g'oyasi 1927-yil 8-martda amalga oshirilgan edi. Asl maqsad esa, ishchi sifatida O'rta Osiyo aholisidan zavod-fabrika va dalalarda 100% ishchi kerak bo'ladigan bo'lsa, erkaklar ishchi kuchining 60%ni tashkil etgan, qolgan 40%ni ayollar hisobiga to'ldirish maqsad qilib olingan;

Yettinchidan, tarixan ming yillar mobaynida birga qavm-qarindosh sifatida yashab kelayotgan O'rta Osiyo xalqlarini alohida qilib bo'lib tashlash orqali ularni boshqarish mexanizmini hududiy chegaralanishning o'tkazilishi, yangi ma'muriy birliklarning tuzilishi (O'zSSR 1925-yil 17-fevral, TASSR 1926-yil 16-oktyabr, QASSR 1925-yil, 1936-yil 5-dekabr);

Sakkizinchidan, xalqimizning ruhiyatini sindirishga qaratilgan kollektivlashtirish, sovxozlashtirish va quloqlashtirish xatti-harakatlarning avj olishi;

To‘qqizinchi, alifboning o‘zgartirilishi va uning asosiy maqsadi 1921-1922-yillarda arab alifbosi o‘zbek tilidagi yozuvning isloh qilinishi (ming yillik tarixiy asarlar va allomalarimizning madaniy merosidan uzoqlashtirish, Qur’oni Karim va hadislardan yiroqlashtirish), 1929-yil arab alifbosidagi o‘zbek yozuvidan lotin yozuviga o‘tilishi, lotin alifbosidan foydalaniladigan turk xalqi bilan aloqasini yo‘qotish maqsadida 1940-yil 8-mayda kirill yozuviga asoslangan alifboning joriy etilishi (yozuv asosida madaniyat va mental qarashlarini singdirish) eng asosiylaridan biri bo‘lgan millatning o‘zligini yo‘q qilishiga qaratilganligi bilan ifodalanadi[4];

O‘nichidan, ziyolilarning keng ko‘lamli qatag‘on qilinishi (o‘n sakkizlar guruhi, Inog‘omovichlar O‘zSSR maorif, Qosimovchilar O‘zSSR Oliy sudi raisi, “milliy ittihodchilar” va “milliy istiqlolchilar” Munavvarqori boshchiligida 87 nafar kishi, narkompos O‘zSSR maorif komissari Mannon Ramziy, uning o‘rinbosari Botu, Botir gapchilar – Qo‘qondagi Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi. Umumiy hisobda 41000 kishi hibsga olinib, 37000 dan ko‘prog‘i jazolandi, 6920 kishi otib tashlandi. Davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, 4811 nafari otib tashlandi, eng achinarlisi, 1937-yil yozida O‘zSSR XKS raisi Fayzulla Xo‘jayev, O‘zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari Akmal Ikromov sayyor sud orqali aybi to‘laligicha isbotlanmasdan otib tashlandi. 19-tog‘li o‘zbek diviziyasi komandiri Mirkomil Mirsharipov va u boshchiligidagi 18 nafar o‘zbek harbiylari 1938-yil otib tashlandi, diviziya tarqatib yuborildi[4];

O‘n birinchi, paxta ishi 1983-yil Gdlyan va Ivanov boshchiligida 1000 nafar markazdan kelgan “desant”chi va 3000 nafar tergovchilarga mahalliy rahbarlar va huquq tartibot organlari yordami bilan 40000 kishi tergov qilindi va 5000 nafari soxtakorlik bilan javobgarlikka tortildi[6];

O‘n ikkinchi, qayta qurish va uning oqibatlari (aniq va ilmiy jihatdan dasturga ega emasligi, eskicha boshqaruv uslubining saqlanib qolishi, milliy suverenitet berish to‘g‘risida faqat va’da berilishi, Gorbachyov g‘oyalarining bir-biriga mos emasligi, mulkiy munosabatlar, ijtimoiy sohadagi siyosat, milliy va diniy siyosat, yakka partiyaviy rahbarlik va mustabid tuzumning demokratiya va oshkoralik bilan kelisha olmasligi).

NATIJALAR. Mamlakatimizda mustaqilligimizning ikkinchi yilining o‘zida universitetlari soni 12 taga yetgan bo‘lsa, 2000-yillarda oliy ta’lim muassasalarining soni 61 tani tashkil etgan. Ularda 207,2 ming talaba ta’lim oldi[5]. Mustaqillikning dastlabki 10 yilida OTMlar ikki barobarga, ta’lim oluvchilar soni 10 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta yangilanish va ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarish deyishimiz mumkin. 2019-yilga kelganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning uch yillik faoliyatlari davomida 35ta yangi oliy o‘quv yurti tashkil qilindi va ularning umumiy soni 112 taga yetdi. Shu yili xalqaro institutlarning soni 14 taga yetdi[7]. Ularda 373 ming 500 ga yaqin yoshlarimiz ta’lim olmoqda. Ulardan 168 ming 470 nafarini, ya’ni, 45,1 foizini qizlar tashkil etadi[1].

XULOSA. Ta’lim-tarbiya tizimidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etmasdan turib, mamlakat rivoji haqida fikrlashning o‘zi noo‘rin. Kreativ fikrlovchi va har ishda innovatsion g‘oyalar taklif eta oladigan yoshlarsiz buning iloji yo‘q, albatta.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 10.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 10-16.
3. Тиллабоев С., Замонов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари) – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 138.
4. Ражабов Қ., Замонов А.. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.Б. 75-79.
5. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31.08.2019.
6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // www.lex.uz, 2019 йил 28 декабрь.
7. https://president.uz/uz/lists/view/4057

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31.08.2019.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 93/94

ABU NASR FAROBIYNING SHARQ MUSIQA SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHGA QO'SHGAN HISSASI

Matkarimova Nazokat Maksudovna, Ma'mun universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE CONTRIBUTION OF ABU NASR AL-FARABI TO THE DEVELOPMENT OF EASTERN MUSIC ART

Matkarimova Nazokat Maksudovna, Associate Professor of Mamun University, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

ВКЛАД АБУ НАСРА АЛЬ-ФАРАБИ В РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА ВОСТОЧНОЙ МУЗЫКИ

Маткаримова Назокат Максудовна, доцент Университета Маъмуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

e-mail: ms.mnm.79@mail.ru

Аннотация: *Ushbu maqolada Xorazmdagi musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari va Abu Nasr Farobiyning Sharq musiqa san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissasi yoritilgan. Muallif Abu Nasr Farobiyning musiqa nazariyasi va amaliyoti bo'yicha yozgan asarlarini tahlil qiladi. Shuningdek, Ma'mun akademiyasi doirasidagi musiqa fani rivoji ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Abu Nasr Farobiy, Ma'mun akademiyasi, Sharq musiqa san'ati, musiqa nazariyasi, Xorazm musiqa madaniyati.*

Аннотация: *В данной статье исследуются исторические корни музыкальной культуры Хорезма и вклад Абу Насра аль-Фараби в развитие восточного музыкального искусства. Автор анализирует труды Абу Насра аль-Фараби по теории и практике музыки. Также рассматривается развитие музыкальной науки в рамках Академии Маъмуна.*

Ключевые слова: *Абу Наср аль-Фараби, Академия Маъмуна, восточное музыкальное искусство, теория музыки, музыкальная культура Хорезма.*

Abstract: *This article explores the historical roots of musical culture in Khorezm and Abu Nasr al-Farabi's contribution to the development of Eastern musical art. The author analyzes Abu Nasr al-Farabi's works on music theory and practice. Additionally, the advancement of musical science within the framework of the Mamun Academy is also discussed.*

Keywords: *Abu Nasr al-Farabi, Mamun Academy, Eastern musical art, music theory, Khorezm musical culture.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI. Dunyodagi har bir xalq milliy bayram va tadbirlarini, oilaviy marosimlarini sermazmun va chiroyli bo'lishiga, ko'tarinki kayfiyatda va quvnoq o'tishiga katta ahamiyat beradilar. Bunday tadbirlarda ijro etiladigan qo'shiqlar, dostonlar, laparlar va milliy xalq o'yinlari o'zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e'tiqodini yoritib berish bilan birga xalqning dunyoqarashi, hayot voqeliklari, orzu-istaklari, ma'naviy, madaniy va moddiy dunyosini o'zida mujassam etadi [Қиличев Т. Хоразм халқ театри – Б. 98].

O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga ega. O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo‘lib xizmat etadi hamda bu xalqlarning qadimdan boshlab yuksak madaniyat egalari bo‘lganligini tasdiqlaydi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI. Xorazmda musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari juda qadimiylik kasb etadi. “Eramizning I asridan IV asrigacha Xorazm davlatining poytaxti bo‘lgan Tuproqqal’ada qurilgan saroy devorlariga ishlangan rasmlar orasida meva teruvchi ayollar, yarim yalang‘och raqsga tushayotgan ayol, ayniqsa arfa chalayotgan ayol va qo‘sh nog‘ora chalayotgan erkak tasviri xarakterlidir”[Исмоилов С. Қадимги Хоразм қалъалари, 2007– Б.48]. Demak, musiqa san’ati, musiqa asboblari Xorazmda eramizdan oldingi paytlardanoq rivojlanib kelgan. Ayniqsa X-XI asrlarga kelib, Xorazmshoh saroyida mashshoqlar, sozanda va go‘yandalar juda ko‘p bo‘lgan. “Xorazm poytaxti Ko‘hna Urganch shahridagi ma’mur va obod zamonlarda Chingizxon harb qilmasdan ilgari bu shaharda sokin bo‘lg‘on odamlarning aksariyati musiqiyni o‘zlarina bir hunar va kasb ittixos qilg‘onlar. Muning orqasida o‘z oilalarining o‘ngishiqlarini ta’min etgandurlar. Hatto mazkur asarlarning mubolag‘a bilan ko‘rsatganlariga qaraganda yolg‘iz Ko‘hna Urganch shahrida dutor sozina eshak (xarrak) yo‘nib sotib o‘ngishiqlarini shul hunarlari birla o‘tkaradurg‘on kishilarning miqdori bir mingga yetishadi” [Мулла Бекчон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси, 7-бет].

ASOSIY QISM. Xorazmshoh ma’muniylar davri allomalari Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari fanning boshqa sohalarida ham o‘lmas ilmiy asarlar yaratishi bilan birga musiqa nazariyasi “Ilmi musiqiy” bo‘yicha ham ilmiy asarlar yaratganlar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir yangi davrni ochib berganlar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo‘llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuni aytish kerakki, O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Umuman, musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to‘plab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir.

TADQIQOT NATIJALARI. Musiqa risolalarining katta qismi maqomlarning nazariy asoslarini sharhlab beradi. Dastlab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa nazariyasini asoslab bergan buyuk siymolardan biri Abu Nasr Farobiy edi. Abu Nasr Muhammad Farobiy buyuk faylasuf olim, O‘rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lib, 873-yilda Sirdaryo yoqasidagi Farob shahrida tug‘ilib, 950-yilda vafot etgan. U O‘rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo‘lib, dastlabki ma’lumotni o‘z ona shahrida oladi. Keyinchalik Damashq va Misrga boradi va u yerda o‘z ma’lumotini oshiradi.

Farobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U, o‘z davrida mavjud hamma musiqa cholg‘ularida chalardi. Ayniqsa kuylarni nay va tanbur cholg‘ularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba’zi manbalarda ko‘rsatilishicha, Farobiy “qonun” cholg‘usini ixtiro etgan, o‘sha davrlarda mashhur bo‘lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan.

Buyuk olim falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo‘yicha teran ilmiy asarlar yaratgan zamonasining yetakchi olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanardi.

Abu Nasr Farobiy o‘zining musiqaga bag‘ishlangan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari “Kitabul musiqiy al-kabir” (Musiqaga doir katta kitob), “Kalam fil-musiqa” (Musiqa haqida so‘z), “Kitabul musiqa” (Musiqa kitobi), “Kitabun fi-iqsa’il-ulum” (Fanlar tasnifiga doir kitob)ning musiqaga bag‘ishlangan qismi, “Kitabun fi – iqsa’il-iqo‘ (Musiqa ritmlari – iqo‘ tasnifi haqida kitob) va boshqalardir.

Farobiyning musiqa asarlari orasida “Kitabul-musiqiy al-kabir” alohida diqqatga sazovordir. Bu kitob mashhur sharqshunos olim D’Erlanje tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib “Arab musiqasi” turkumida nashr etilgan.

Fanning boshqa sohalarida ham o‘lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk allomalar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Yusuf Xorazmiy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi (“Ilmi musiqiy”) bo‘yicha ham ilmiy asarlar yaratganlar. Ayniqsa, Farobiyning musiqa risolalari va kitoblari bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo‘lib, o‘zidan so‘nggi davrlarda yashab ijod etgan izdoshlari, ya’ni musiqa

olimlari kitoblarining yozilishida asos bo‘lib xizmat etgan[“Қомусул – аълам”. 1906-1908, Б.693-696].

XULOSALAR. Xorazm notasi chizig‘i XII asr boshlarida Xorazmshohlar mamlakatida yaratilgan ekan. Xorazmning qadimiy shahri Hazoraspdan topilgan ulkan musiqa arxivi – ko‘hna Xorazm notalarida bitilgan ilk manbalar fikrimizning tasdig‘idir. Bundan ko‘rinadiki, Xorazmshohlar davrida bugungi musiqamizning asosini tashkil etgan mukammal bir musiqa bo‘lganligi muqarrardir.

Xalfachilik an’analari Xorazmshohlar davriga kelib, sozanda xalfalarga ajralib chiqqan bo‘lishi mumkin. Chunki, bu davrda Xorazmshohlar saroyida sozanda va xonandalar, raqqos va raqqosalar, masxaraboz va qo‘g‘irchoqbozlar, dorbozlar hatto professional yig‘lovchilargacha bo‘lgan. Musiqa asboblaridan dutor, rubob, chang, nay, rud juda ommalashgan [Тимофеев И. Бируни. Москва. Молодая гвардия.1986.41,42,88,107,167,198-бетлар]. Demak, Xorazmshohlar saroyida madaniyat va san’at yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda yashab faoliyat yuritgan Abu Nasr Farobiyning ham musiqa san’atini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi beqiyos.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Али ибн Сино. Қонуни фит-тиб. Т. II,Тошкент, 1956.
2. Ибн Сино. Аш-шифаъ, жавомии илмил-мусиқий. – Қоҳира, 1956.
3. Абу Али ибн Сино. Донишнома, Сталинобод, 1958. Bu asar Haydarobod (1891), Tehron (1936 va 1951-yillarda) Litografiyasida bosilib chiqqan. Uning rus tiliga tarjimasi ham mavjud.
4. Аширов А.А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2008. – Б.31.
5. Абу Абдуллоҳ Ёқут Ҳамавий. Муъжам ал-булдон. Ж. 2. – Байрут, 1979. – Б. 374.
6. Азимбой Садуллаев. Хоразм Ма’мун Академияси. Хива 2000.
7. Бекмуҳаммедов Умид. Хоразм ва хоразмликлар. 1-қисм. Бухоро, Дурдона, 2022 – Б.35.
8. Исмоилов С. Қадимги Хоразм қалъалари. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.48.
9. Мулла Бекчон Рахмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси, Т., 1998. 7-бет.
10. Маннопов. С. Ўзбек халқ мусиқа маданияти. Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б.13.
11. Матякубов О. Мақомот. -Т., 2004.
12. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. I-II том. Т., 2015.
13. Матякубов О, Болтаев Р, Аминов Х. Хоразм танбур чизиғи. Т., 2010.
14. Фитрат А. Узбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т., 1993.
15. Озод Машарипов. Хоразмнома. 2-қисм, Урганч, Хоразм, 2007. –Б. 103.
16. Ражабов. И. Мақомлар. Т., 2006. – Б.17.
17. Тимофеев И. Бируни. Москва. Молодая гвардия, 1986. 41, 42, 88, 107, 167, 198-бетлар.
18. Чориев Т.Р., Худоев Ғ.М. Садриддин Айний ижодида мусиқа санъати ва мусиқашунослик//Санъат йўналишида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Бухоро. 2013. – Б.15-16.
19. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 98.
20. https://lex.uz/docs/3581613?ONDATE=03.02.2022.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94(575)(262.83)

QUYI SIRDARYO HUDUDLARI TARIXINING MANBALARDA YORITILISH MASALALARI

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich, Urganch innovatsion universiteti kafedra mudiri

ISSUES OF COVERAGE OF THE HISTORY OF THE LOWER SIRDARYA REGIONS IN SOURCES

Makhmudov Umrbek Bakhtiyorovich, Head of the Department, Urgench Innovative University

ВОПРОСЫ ОСВЕЩЕНИЯ ИСТОРИИ НИЖНЕГО СЫРДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА В ИСТОЧНИКАХ

Махмудов Умрбек Бахтиёрович, заведующий кафедрой Ургенчского инновационного университета

https://orcid.org/0009-0007-6782-4521
e-mail: umrbekmaxmudov0088@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Quyi Sirdaryo bo'yi hududi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va hududda yashagan qadimiy aholi to'g'risida ma'lumot beruvchi dastlabki yozma va moddiy manbalar tahlil qilingan. Tadqiqotda dastlab hudud tarixiga doir ilk yozma manbalar, so'ngra XX asrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Inkordaryo, Quvondaryo, Jonidaryo va Eskidaryoliq, Chirikrabot, Jetiasar, Uygarak, Bobishmulla, Tagisken, Balandi.*

Abstract: *The article analyzes the primary written and material sources that provide information about the Lower Syrdarya region, its socio-economic life and the ancient population that lived in the region. The study first examines the primary written sources on the history of the region and then the results of archaeological research conducted in the 20th century.*

Key words: *Inkordarya, Kuvondarya, Djonidarya and Eskidaryalik, Chirikrabot, Djetiasar, Uygarak, Bobishmulla, Tagisken, Balandi.*

Аннотация: *В статье анализируются первичные письменные и материальные источники, дающие информацию о территории по Нижней Сырдарье, ее социально-экономической жизни и древнем населении, проживавшем на этой территории. Сначала в исследовании были изучены первые письменные источники по истории региона, а затем результаты археологических исследований, проведенных в XX веке.*

Ключевые слова: *Инкордарья, Кувондарья, Джонидарья и Эскидарьялик, Чирикработ, Джетиасар, Уйгарак, Бобишмулла, Тагискен, Баланди.*

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION. Yer geologiyasi taraqqiyoti natijasida Quyi Sirdaryoni Eskidaryoliq, Jonidaryo, Quvondaryo va Inkordaryolar irmoqlarining suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan atrofdagi tepalik va balandlik yon qismlarining boy tabiiy resurslari odamzotning kelib joylashib, kundalik amaliy faoliyatlarini olib borishiga keng imkoniyat yaratgan.

Quyi Sirdaryo geografik joylashishi jihatidan o'ziga xos xususiyatlariga ega, ya'ni to'rt tomoni ochiqligi, doimiy suv manbasiga ega bo'lishi hududining sernam bo'lishi, uy chorvachiligini yanada rivojlantirishga imkon beradigan o'simlik dunyosi mavjudligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga mazkur hududning shakllanishida Sirdaryo, uning Eskidaryolik, Jonidaryo, Quvondaryo va Inkordaryolarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sirdaryoning Jonidaryo, Quvondaryo va

Inkordaryolarning gidrologik jihatlari bilan qo‘shni hududlardan farqlanish xususiyatlariga ega [6,C.157-161].

ADABIYOTLAR TAHLILI / ЛИТЕРАТУРА / MATERIALS. Biz tadqiq qilayotgan mavzu yuzasidan to‘plangan jami materiallarni ikkita guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik. *Birinchi guruhga manbashunoslik materiallari* (Avesto, fors bitiklari, yunon mualliflarining asarlari, xalq og‘zaki ijodi materiallari), ikkinchi guruhga arxeologik manbalar asosida yodgorliklardan topilgan va hozirga qadar kam tadqiq etilgan ashyolar kiradi.

O‘rta Osiyo bo‘yicha eng qadimgi yozma manba “Avesto” kitobida Quyi Sirdaryo hududi tarixiga doir ma’lumotlarni kuzatish mumkin. “Yasht” kitobining birinchi bobida “Kvadrat Vara” atamasi qayd qilingan. Bunday toponomik atama namunasini Chirikrabot, Babishmulla va Altinasar yodgorliklarida kuzatish mumkin. Shuningdek, Sirdaryoni Inkordaryo irmog‘i shimoliy hududi tekisligida kvadrat shaklda Tagiskent yodgorligi barpo qilingan [5, C.143].

Hududning o‘simlik dunyosidan unumli foydalangan o‘troq va chorvador aholi Avestoda “Tur” yoki “Tura”, fors yozma manbasida “saka” atamasida “yurt”, “mamlakat” kabi tushunchalari tavsifi berilgan[15,C.13-14].

Ahamon imperiyasi poytaxti Persepoll shahri yaqinida Naqshi Rustam qoyasida bitilgan yozuvlarda O‘rta Osiyo xalqlari vakillari “saka tigraxauda, saka xaumavarka va daryo orti saklar” tasviri bitilgan. Shuningdek, Suza shahridagi Doro I haykalidagi yozuvlarda “botqoqlar va tuproq o‘lkasida istiqomat qilgan saklar guruhi haqida A.V.Edakov maqolasida qayd qilgan [24,C.91-95].

Kir II va Doro I tomonidan O‘rta Osiyo asosiy dehqonchilik vohasi hamda Orolbo‘yi sharqiy hududlari aholisiga qarshi yurishlar yunon tarixchilari asarlarida ma’lumotlar keltirilgan. O‘rta Osiyoning bosib olingan hududlaridan vakillar yunon-fors urushlarida qatnashganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar nashrlarda qayd qilingan [8,C.465-466].

O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga yunon geografi Strabon katta e’tibor bergan[21]. Maroqanda aholisini Spitamen boshchiligida Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurashda o‘ng skiflar va massagetlar qo‘llab-quvvatlagan deydi[25,C.14-26].

Gerodot “Tarix” asarida Kir II davrida Sirdaryo quyi havzasidagi “Saklarni” (skif qabilasi) tik turgan o‘tkir uchli qalpoqlar, ishtonlar kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanganlar, deya qayd qiladi. Bundan tashqari, ularda ikki qirrali harbiy boltalar – sagarislar mavjud bo‘lgan[8,C.465-466].

Forslar skiflarning barchasini “saklar” deb qayd qilgan[13]. Gerodot qayd qilishicha, mil.avv. 490-yilda Marafon jangida Sak otliq suvoriylar o‘z harbiy san’atini namoyon qilib, yunon jangchilarini ortga chekinishga majbur qilishgan[12].

Yunon geografi Strabon “Kaspiy dengizidan boshlab skiflarning aksariyat qismi daylar deb ataladi. Ulardan Sharqda joylashgan massaget va sak qabilalarining har biri o‘zining nomiga ega. Ularning umumiy ommasi ko‘chmanchilardir, deb qayd qilgan[4].

Strabonning qayd qilishicha, Aleksandr Spitamenning ketidan quvib yurganida “shimoliy ko‘chmanchilar” (ya’ni saklar) ustiga qo‘shin tortmoqchi edi, biroq Spitamen varvarlar [16] (ko‘chmanchilar) tomonidan o‘ldirilgandan keyin bu niyatdan voz kechgan [17].

Arrian asarida Doro III qo‘shinlari o‘ng qanotida joylashgan sak chavandozlari yunon-makedon armiyasi qo‘shinlariga qattiq zarba berganligini yozib qoldirgan. Arrian yana saklar Osiyoda yashovchi skif qabilalaridan biri bo‘lib, ular Doroning bevosita ittifoqchilari edi deb, forslarga qaram bo‘lmaganga ishora qilgan[3].

METOD/МЕТОД/METHOD. Tadqiqot davomida bir nechta uslublar, jumladan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, sintez, shuningdek, davriy ketma-ketlik, xolislik, reallik kabi tamoyillaridan foydalanildi.

MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION. XX asr arxeologik qazishma ishlarini shartli ravishda quyidagi tarixiy davrga ajratish mumkin.

Birinchi tarixiy davr XX asr 30-yillari o‘rtalari – 1940-yillari. Mazkur tarixiy davrda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Amudaryoning o‘ng va so‘l sohili hududlarida aholi turar joylarida keng miqyosida arxeologik izlanishlarni olib borgan bo‘lsa, Quyi Sirdaryo mazkur jarayonlardan chekkada qolgan.

Ikkinchi davr 1946 – 1992-yillar. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari 1946-yilda Qizil O‘rda shahridan 300 km janubi-g‘arbida Jonidaryo irmog‘i sohili hududida

TAMADDUN NURI

Chirikrabot yodgorligida qazishma ishlari olib borishi natijasida uning topografik joylashishi aylana tuxumsimon shaklda (50 ga), ikki qatorli mudofaa devori bilan o‘rab olingan, devor o‘z navbatida to‘g‘ri burchakli burjlarga egaligi aniqlandi. Tashqi devor o‘q otish shinaklarga ega. Devor atrofi xandaq bilan o‘rab olingan. Yodgorlikdan olingan ashyolar mil.avv. V-II asrlarga oid bo‘lgan[21,C.177-182]. Aynan shu yilda Chirikrabotdan 40 km shimoli-sharqiy tekisligida Bobishmulla bino qilingan bo‘lib, uning tarhi to‘g‘riburchak shaklida umumiy maydoni 3 ga tashkil etgan [22,Б.396-397].

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Chirikrabot madaniyatiga oid 40ga yaqin dafn inshootlari, shundan 18tasi arxeologik jihatdan o‘rganilgan. Xom g‘ishtdan tiklangan maqbaralar, ularning tarhi halqasimon shaklda barpo qilingan[12, C.37-56].

1958–1959-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi Inkordaryo irmog‘i havzasidagi janubiy va shimoliy Tagisken maqbaralarida[23,C.34], 1971-1974-yillarda L.M.Levina esa Jetiasar yodgorliklarida qazishma ishlarini olib borgan.

Jetiasar madaniyatiga oid yodgorliklar to‘rt tomoni mudofaa devorlari bilan o‘rab olingani, tashqi devorda o‘z navbatida, aylana shaklda burjlar joylashganligi, devor va burjlari nayza o‘qli shinaklarga egaligi, aholi himoyalanish sharoitida o‘troqlashganligini aks ettirgan bo‘lsa-da, aholining ayrim guruhlari o‘troq va chorvador bo‘lishgan. Mazkur jarayonda yuz bergan madaniy yangiliklar m.avv. VIII-V asrlarda o‘z ma’nosini topgan.

1981-yilda Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimi Yablonskiy Sariqamishbo‘yi Davdon o‘zani sohili etagiga ulanib ketgan tepalikda joylashgan Sakarchaga, Quyisoy qirlarida aniqlangan aholining mozor-qo‘rg‘onlarida olib borilgan qazishmalar natijasida qabr atrofi ohak toshdan terilgan lahadlarning qo‘yilishi Uygarak mozorlarining tuzilishini aynan takrorlaydi[25,C.482-483].

Sirdaryoning Eskidaryolik o‘zaniga tutashgan Inkordaryo va Jonidaryo oralig‘ida sak qabilalarning yodgorliklari ro‘yxatga olingan va ularda arxeologik qazish ishlarini 1948–1949, 1951-yillar S.P.Tolstov, Y.A.Rapoport, M.A.Orlova, T.A.Jdanko, 1973–1991-yillarda L.M.Levina rahbarligidagi arxeologik guruh qazishma ishlarini davom ettirgan. 1959-yilda Inkordaryo sohillari bo‘ylab Qizil O‘rda shahridan 200 km janubi-g‘arbda joylashgan chorvador qabilalar tomonidan qoldirilgan mozor-qo‘rg‘onlar, shimoli-janubiy Tagisken guruhlariga ajratilib 70 dan ortiq mozoq-qo‘rg‘onlar o‘rganilgan [20,C.81].

1960–1961-yillardagi arxeologik guruh Shimoliy Tagisken atrofida 11ta qo‘rg‘onlarda arxeologik izlanishlarni olib borish natijalari mil.avv. IX-VIII yoki X-VIII asrlarga oid xom g‘ishtdan tiklangan maqbaralar o‘rganilgan[24,C.150-175]. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Tagisken majmuasidagi dafn inshootlari binokorlik bilimini puxta o‘zlashtirib olgan hunarmandlar tomonidan qurilgan, ularning tarhi to‘rtburchak va halqasimon shaklda bo‘lib, ularning balandligi 6-8 metrni tashkil etgan [21, C.177-182].

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Inkordaryo bo‘ylarida ro‘yxatga olingan arxeologik yodgorliklar mil.avv. VII-V asrlarga oid bo‘lib, saklar madaniyatiga oid Janubiy Tagisken va Uygarak mozor-qo‘rg‘onlarda, jumladan, 70 dan ziyodida qazish ishlarini olib borganlar [10,C.160].

Mozor-qo‘rg‘onlarning biri bo‘lgan Uygarakda olib borilgan qazishma ishlar natijasida uning ko‘tarma holati ikki metrni, aylanasi 22–27 m. tashkil etgan. Uygarakda to‘g‘riburchak chuqurlarga murdalar kiyim-kechak va poyabzalda dafn etilgani, mozorlar usti poya qamish va shox-shabba bilan berkitilgani, yog‘och ustunlar yordamida devorlar sinch kulbasimon maqbaralar, murdalar yer ustiga qo‘yilganligi aniqlangan [11,C.201-207].

1948-yildan Xorazm ekspeditsiyasi Quyi Amudaryo hududida hamda Sirdaryoning Quvondaryo irmog‘i quyi havzasi hududida Jetiasar (17 ta yodgorlik) ro‘yxatga olingan, shu yodgorliklardan biri Altinasar yodgorligida qazish ishlari olib borilgan. Yodgorlik noto‘g‘ri trapetsiya shaklda, umumiy egallagan geografik o‘rni 16 ga. To‘rt tomonini o‘rab olgan mudofaa devor qoldiqlari ko‘zga tashlanadi. Yodgorlik milodiy III-IV asrlarga oid bo‘lgan [23, C. 34].

1960-1961 yillar Xorazm ekspeditsiyasi xodimasi M.A.Itina Shimoliy Tagisken majmuasiga oid 70 dan ortiq dafn inshootlarini ro‘yxatga olgan, shulardan 11tasini arxeologik jihatidan o‘rganib, mil.avv. IX-VIII yoki X-VIII asrlarga oidligi va ular xom g‘ishtdan bino qilinganligi aniqlandi [25,C.150-175].

Antik davrda Sirdaryo, Quvondaryo va Jonidaryo irmoqlarida suv ta’minoti yetarli darajada bo‘lgan. Mazkur tarixiy davrda Jetiasar,

Bobishmulla, Balandi mudofaa devor bilan o‘rab olingan. Masalan, Bobishmulla yodgorligi o‘rab olgan devor yon qismi va burchaklarida yarim aylana burjlar joylashgan. Janubiy va g‘arbiy devor o‘rtasida darvoza joylashgan. Devor shinaklarga ega. Bunday mudofaa inshooti Balandi yodgorligini ham o‘rab olgan [20, C.81].

XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION. Yuqorida qayd qilingan mulohazalardan quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

- Quyi Sirdaryo hududlarining geografik holati Sirdaryo va uning o‘zanlari Eskidaryolik, Quvondaryo, Inkordaryo va Jonidaryo faoliyatlari bilan bog‘liq;
- Quyi Sirdaryo hududlari geografik jihatdan qulay, tabiati va suv manbasi doimiyligi jihatidan insoniyatning kelib joylashib, tabiiy resurslardan foydalanib kasbi-korlarini belgilab olib, xo‘jalik sohalarini rivojlantirishiga keng imkoniyatni yaratgan;
- Quyi Sirdaryo hududlarida o‘rnashgan aholi turar joylari, qabr-mozorlarida keng qamrovli ravishda olib borilgan arxeologik izlanishlari natijalari orqali tarix fani sahifasi yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI/ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абаев В.И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. – М.: “Наука”, 1974.
2. Абдуллаев У.И. Ўрта Осиё қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Академия, 2009.
3. Арриан. Поход Александра // Пер. М.Е. Сергеенко. – М-Л.: 1962. – Кн. III. гл. 8.3.4.
4. Арриан. Кн. III, Гл. 8.3.
5. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
6. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
7. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
8. Борухович В.Г. Научное и литературное значение труда Геродота // Геродот. История. В десяти книгах. Перевод и прим. Г.А. Стратоновского. – Л.: Наука, 1972.
9. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовье Сырдары в VII-V веках до н.э. ТХАЭЭ. – М.: 1973.
10. Вишневская О.А., Итина М.А. Ранние сакы Приаралья. Проблемская археология. – М.: Наука, 1971.
11. Геродот. Тарих. Кн. VII. 64.
12. Геродот. Кн. VI. 113.
13. Матякубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи (маданият, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017.
14. Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: Наука, 1979.
15. Страбон. География. Кн. XI. XI.VIII.2.
16. Страбон. Кн. XI. VIII.6.
17. Сулейманов Р.Х. Миграции ранних кочевников на юг Средней Азии (дахи и массагетов) // Ўрта Осиё археологияси: анъаналар, изланишлар ва кашфиётлар. – Тошкент, 2020.
18. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР 1945 – 1948 гг. // ТХАЭЭ. – М.: Наука, 1952.
19. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С. 81.
20. Толстов С.П. Хорезмская археологическая-этнографическая экспедиция. АН СССР. 1946. // Известия Академии наук. – М., 1947. – № 2.
21. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964.
22. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1958 – 1961 гг. МХЭ. – М.: Наука. Вып. 6. 1963.
23. Толстов С.П., Итина М.А. Сакы низовье Сырдары (по материалом Тагискена). – М.: 1966.
24. Эдаков Л.В. Новые надписи Ахеменидов//ВДИ – М.: 1976, – № 2. –
25. Яблонский Л.Т. Исследование могильника Сакарчага. – М.: Наука, 1983.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 821.0.821.512.133.0

QO‘QON ADABIY MUHITIGA FUZULIY TA’SIRI: AN’ANA VA YANGILANISH

Muhammadiyev Axadjon Maxmudovich, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

THE INFLUENCE OF FIZULI IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KOKON: TRADITION AND RENEWAL

Muhammadiyev Akhadjon Makhmudovich, Dean of the Faculty of Philology, Shahrisabz State Pedagogical Institute, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

ВЛИЯНИЕ ФИЗУЛИ НА ЛИТЕРАТУРНУЮ СРЕДУ КОКАНДА: ТРАДИЦИЯ И ОБНОВЛЕНИЕ

Мухаммадиев Ахаджон Махмудович, декан филологического факультета Шахрисабзского государственного педагогического института, кандидат филологических наук, доцент

https://orcid.org/0009-0008-3135-7236
e-mail: abdulahadmuhammad@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitidagi adabiy ta’sirning ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, Muhyi va uning zamondosh shoirlariga Fuzuliy ijodining ta’siri batafsil ochib beriladi. Zavqiy, Muqimiy va Muhyi kabi shoirlarning g‘azal va muxammaslarida Fuzuliy uslubining o‘ziga xos aksini topishi aniq misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ushbu adabiy ta’sirning estetik va ma’naviy jihatdan o‘zbek she’riyatidagi o‘rni va qimmati yoritilgan. Maqolada Fuzuliy an’analarining Qo‘qon adabiy muhitida qanday qabul qilingani, ularning o‘zbek klassik she’riyatidagi muhabbat lirikasiga ta’siri va bu jarayonda shoirlarning individual uslubi ham e’tiborga olingan. Natijada, Fuzuliy ijodining o‘zbek adabiyotidagi chuqur izlari ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’sir, adabiy aloqa, Fuzuliy, Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, nazirago‘ylik, taxmis, an’anaviy she’riyat, adabiy muhit.*

Abstract: *In this article written a comprehensive analysis of the importance of literary influence in the Kokand literary environment of the second half of the 19th and early 20th centuries. In particular, the influence of Fuzuli’s work on Muhyi and his contemporary poets is revealed in detail. It is considered on the basis of specific examples that poets such as Hazari, Muqimi and Muhyi find a distinctive reflection of the Fuzuli style in ghazal and mukhammas. At the same time, the place and value of this literary influence in Uzbek poetry in aesthetic and spiritual terms is illuminated. The article also focuses on how the Fuzuli tradition is perceived in the Kokand literary environment, their influence on the lyric of love in Uzbek classical poetry, and the individual style of poets in the process. As a result, deep traces of Fuzuli’s work in Uzbek literature are highlighted.*

Key words: *literary influence, literary communication, Fuzuli, Muhyi, Muqimiy, pleasure, naziragylik, assumption, traditional poetry, literary environment.*

Аннотация: *В этой статье представлен всесторонний анализ важности литературного влияния в кокандской литературной среде второй половины XIX и начала XX веков. В частности, подробно раскрывается влияние творчества Физули на Мухийи и его современных поэтов. На основе конкретных примеров рассматривается, что такие поэты, как Хазари, Мукими и Мухийи, находят своеобразное отражение физулинского стиля в газалях и мухаммасах. В то же время освещается место и ценность этого литературного влияния в узбекской поэзии в эстетическом и духовном плане. В статье также рассказывается о том, как традиция Физули воспринимается в литературной среде Коканда, их влиянии на лирику любви в узбекской классической поэзии и индивидуальном стиле поэтов. В результате выделяются глубокие следы творчества Физули в узбекской литературе.*

Ключевые слова: *литературное влияние, литературная коммуникация, Физули, Мухийи, Мукими, наслаждение, назирагуйлик, традиционная поэзия, литературная среда.*

KIRISH (INTRODUCTION). Qo‘qon adabiy muhiti vakillariga, ayniqsa, Navoiy va Fuzuliy ijodi ulkan ta’sir o‘tkazgan. Davr ijodkorlari, xususan, Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida, ta’kidlaganimizdek, ozar shoiri Fuzuliyning ham ta’sir ko‘lami keng. O‘zbek adabiyoti tarixida, umuman, Fuzuliy XVII asr va undan keyingi o‘zbek adabiyoti tarixida salmoqli mavqe egallaydi.

Taniqli adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov bu haqda shunday deb yozadi: “Fuzuliy ulug‘ bobomiz Navoiydan ko‘p ta’sirlanganidek, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotiga zo‘r ta’sir ko‘rsatgan san’atkordir. Hech bir shoir o‘zbek klassik adabiyotiga Fuzuliychalik kuchli ta’sir ko‘rsatgan emas. Buning uch sababi bor: birinchisi – Fuzuliy tilining o‘zbek tiliga yaqinligi; ikkinchisi – Fuzuliyning xushlafz, shirin zabonligi; uchinchisi – Fuzuliy asarlarining badiiy barkamolligi… O‘zbek shoirlari qariyb ikki asrdan beri Fuzuliy asarlariga maftun bo‘lib keladilar. Bizning shoirlarimiz uchun Fuzuliy badiiy balog‘atning simvolidir. Shunga ko‘ra, XVIII va XIX asrlar davomida yashab ijod etgan ko‘p zabardast shoirlar Fuzuliy g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar. Bu an’anani Muhyi, Furqat, Muqimiy, Zavqiylar davom ettirganlar” [1;310-311].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). O‘rganayotgan mavzumizning nazariy qismini yoritishda R.J.Vohidovning “XV asrning 2-yarmi XVI asr boshlarida o‘zbek-tojik she’riyati”, T.Jalolovning “Go‘zallik olamida: maqolalar, adabiy tadqiqotlar” nomli ilmiy tadqiqotlaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqotlarda biz mubohasa yuritayotgan mavzuga aloqador fikrlar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Ilmiy qiyoslash hamda germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Fuzuliy ijodiga ergashish, g‘azallariga muxammaslar bog‘lash Muhyi zamondoshlarining aksarida mavjud. Shunday ijodkorlardan biri Zavqiydir. Zavqiy ash’ori ichida Fuzuliyning mashhur “aylar orzu” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi borki, bu g‘azalga muxammas bog‘lash shu davr ijodkorlari uchun go‘yoki an’ana tusini olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fuzuliy devonida:

Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu,
To‘tiyi jon la’li shakkarboring aylar orzu [5; 262]

– bayti bilan boshlanadigan, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan g‘azal mavjud. Fuzuliyning mazkur g‘azalidan Zavqiydan tashqari Muhyi va Muqimiylar ham baqamti ta’sirlangan holda ijod etishgan. Shoir Zavqiy tomonidan bog‘langan muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

Man ijobat istadim tiyri duodin dam-badam,
Shoyad o‘lg‘ay deb qabul, ul dilrabodin dam-badam,
Ruq’a ummid aylagaylar oshnodin dam-badam,
Hajri bemori tanim bodi sabodin dam-badam,
Sihhat uchun suhbati axboring aylar orzu [2; 87].

Fuzuliy g‘azali sevgi va hasrat ifodasiga asoslangan bo‘lib, u yorga bo‘lgan muhabbat, uning firoqida chekkan dard va suhbatga intilish motivlarini aks ettiradi. Bunday ruhiyat uning klassik she’riyatida keng uchraydi. Zavqiy esa bu g‘azalga taxmis bog‘lash asnosida, uning ruhiyatini saqlagan holda, o‘zgacha mazmun va hissiyotlar qo‘shgan.

Zavqiy o‘z duosining qabul bo‘lishini sevgan yoridan kutayotganini ta’kidlaydi. Fuzuliy g‘azalidagi ehtiros va muhabbat Zavqiy taxmisida orzu va umid motivi sifatida davom etadi. Misralarda

oshiq sevgilisidan xabar olishga umid qilish bilan birga, hajr azobi yo‘lidagi dardli holatini tasvirlaydi (Zavqiy). Bodi sabo (shamol yordamida keluvchi xushxabar) vositasida yoridan nishona olishga umid bildiriladi. Oshiqning yashab qolishi uchun birgina yorning xabarini olish orzusi kifoya (Fuzuliy).

Fuzuliy g‘azalidagi dard va muhabbat motivlari Zavqiy taxmisida ham aks ettirilgan bo‘lib, oshiqning ruhiy holati ifodalangan. Zavqiy o‘z taxmisida g‘azal bilan uyg‘un vazn va qofiya tizimini saqlagan. Uning uslubi Fuzuliy g‘azaliga mos bo‘lib, obrazlar, tashbehlar va ruhiy holatlar o‘zaro bog‘liq holda yozilgan.

Yig‘lab ayturman falakka: “Ver murodim har dame,
Soate aylanma kaj, olg‘il qarore bar dame,
Na bo‘lur desang, ayo, yuz birla olg‘il gardimi”,
Zulmati hajringda boxmaz sham’a chashmim mardumi,
Partavi ruxsori puranvoring aylar orzu.

Zavqiyning ushbu taxmisi Fuzuliy g‘azali bilan ma’naviy va uslubiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, uning umumiy ruhiyatini davom ettirgan. Zavqiyning taxmisi Fuzuliy g‘azalining ruhiyatini saqlagan holda, uning mazmunini boyitgan. Bu yerda oshiqning muhabbat va firoq azoblari, yorga bo‘lgan intilishi va uning visoliga umid motivlari asosiy o‘rin tutgan.

Oshiq falakka murojaat qilib, o‘z murodini so‘raydi va taqdirning adolatli bo‘lishini (soate aylanma kaj, olg‘il qarore bar dame) istaydi. “Falak” simvolikasi ko‘pgina mumtoz she’riyatda taqdir va yordan ajralib qolishning sababchisi sifatida ko‘riladi. Zavqiy bu g‘oyani davom ettirib, taqdirning adolatsizligi va oshiqning intilishini mohirona tasvirlagan.

Fuzuliy misalarida esa, hajr (ayriliq) zulmatga (qorong‘ulik) qiyoslanadi. Unga ko‘ra, oshiq yorning hajri qorong‘uligida qolsa ham shamning yorug‘ligiga ko‘z qorasini qaratmaydi. Bil’aks, yorning puranvor yuzidan yorug‘likni umid qiladi. Boshqacha aytganda, oshiq ko‘z yoshlarini sha’mning yonishidan tashbeh qilib, uning intizorida yonib turganini ifodalaydi. Bu Fuzuliy she’riyatiga xos bo‘lgan talmehlardan biri hisoblanadi.

Husni zebo, og‘zi g‘uncha, qomati shamshod gul,
Zulfi toringga o‘rolgon qullaring ozod qil,
Hajr zindonida qoldi Zavqiyi pobasta, bil,
Orzumandi visolingdur Fuzuliy xastadil,
Vasling istab, davlati diydoring aylar orzu.

Zavqiy bu bandda yorning go‘zallik sifatlarini tasvirlagan. “Og‘zi g‘uncha”, “qomati shamshod” kabi tashbehlar vositasida uning nafisligi va husni madh etilgan. Shuningdek, oshiq o‘zini zulflarga bog‘langan qul deb tasvirlab, uni ozod qilishni yolvoradi. Bu bir vaqtning o‘zida muhabbatning kuchli ta’sirini va oshiqning ulkan muhabbatni zavq bilan qabul qilishini ko‘rsatadi. Uchinchi misrada oshiq hajrni zindoniga qiyoslaydi. “Pobasta” (bog‘langan) so‘zi orqali u hajr zindonida band ekanini bildiradi. Fuzuliyning “xastadil” (dardli dil) tashbehi bilan uyg‘unlik yaratilib, ularning umumiy muhabbatga bo‘lgan intilishi aks ettiriladi.

Zavqiyning taxmisi badiiy jihatdan juda boy bo‘lib, quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Tashbeh va istioralar: “og‘zi g‘uncha” (yorining lablari g‘unchaga qiyoslangan); “qomati shamshod gul” (yorining qomati baland shamshod daraxtiga o‘xshatilgan); “zulmati hajr” (hajr qorong‘ulikka qiyoslangan).

2. Ritorik murojaatlar: falakka murojaat qilish; yorga murojaat qilish.

3. Hissiyotning kuchli ifodasi: oshiqning visolga umid qilishi va hajr zindonida aziyat chekishi.

Xullas, Zavqiy ushbu taxmisida Fuzuliy g‘azali ruhiyatini saqlab, uni yangi badiiy obrazlar bilan boyitgan. Uning taxmisi Fuzuliy g‘azalidagi muhabbat va hajr motivlarini davom ettiradi. Muhabbat va taqdir o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy ifodalaydi. Klassik she’riyatga xos badiiy vositalarni mahorat bilan qo‘llaydi. Bu taxmis nafaqat Fuzuliy g‘azaliga mos keladi, balki uning ta’sirini kuchaytirib, Zavqiyning ijodiy mahoratini namoyon etadi.

Fuzuliyning mubohasamiz mavzusiga aylangan mazkur g‘azaliga Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy tomonidan (vazni va radifi saqlangan holda) bog‘langan muxammasning dastlabki bandi quyidagicha:

Ohuyi chin chashmi pur xummoring aylar orzu,
Nofasi ham turrai tarroring aylar orzu,
Huru g‘ulmon fe’l ila atvoring aylar orzu,
Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu.
To‘tiyi jon la’li shakkar boring aylar orzu [3; 337].

Fuzuliy, Zavqiy va Muqimiy ijodi o‘rtasidagi badiiy-ilmiy tahlillarimizda davom etamiz. Fuzuliy g‘azali, Zavqiy va Muqimiy taxmislari o‘rtasidagi umumiylik shundaki, ular bir xil vaznda va radifda yozilgan bo‘lib, sevgi va hajr mavzusini aks ettiradi.

Biroq, har bir shoir bu mavzuda o‘zining shaxsiy uslubi, hissiyoti va badiiy didini namoyon etadi.

Muqimiyning taxmisi ham Fuzuliy g‘azali ruhiyatiga mos keladi, biroq uning uslubi Zavqiy taxmisidan biroz farq qiladi. Unda sevgi, hajr va orzu motivlari yanada obrazli va madhiy tusga ega.

Muqimiyning dastlabki bandida go‘zallik madhi asosiy o‘rin egallaydi. Fuzuliy g‘azalida muhabbat va hajr ta’siri ustuvor bo‘lsa, Muqimiy yorining jozibasini, husnini madh etishga ko‘proq e’tibor beradi. “Ohuyi chin”, “chashmi pur xummor” (mastona ko‘zlar), “turrai tarror” (bezorilik qiladigan zulflar) – (Muqimiy), “to‘tiyi jon” (jon to‘tiysi) – (Fuzuliy) kabi tashbehlar vositasida yorning latofati va jozibasi tasvirlangan.

Dilbaro, o‘ylab xayoling-la xush o‘lmas xotirim,
Yoki mastona xiroming-la xush o‘lmas xotirim,
Goh-gohe nim nigohing-la xush o‘lmas xotirim,
Nomai qosid, payoming-la xush o‘lmas xotirim,
Uz labingdin lahjai gufyuring aylar orzu.

Ikkinchi bandda oshiqning ruhiy holati va yorni yod etish jarayoni tasvirlangan. Fuzuliy g‘azalidagi dard va hajr hissi Muqimiy muxammasida ham bor, biroq u buni hayotbaxsh tasvirlar orqali yumshatadi. Nomai qosid (xabar yetkazuvchi maktub), payom (xabar), nim nigoh (yarim qarash) kabi so‘zlar oshiqning orzularini aks ettirgan.

Ishq dashtida chu Majnun besar-u somon o‘lan,
Lolatak qat-qat ko‘ngilda g‘am sirishki qon o‘lan,
Ro‘z-u shab vasling so‘rog‘lab diydasi giryon o‘lan,
Sarv-u gul nazzorasi naylar sango hayron o‘lan,
Orazing-la qaddi xush raftoring aylar orzu.

Bu bandda oshiqning hajrdagi azoblari, muhabbat yo‘lidagi sabr-qanoati tasvirlangan. An’anaviy Majnun obrazi orqali Muqimiy muhabbatning halokatli, lekin shu bilan birga pok ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, bu bandda dramatik obrazlar kuchli. Muhabbatning yuksak ruhiy va jismoniy azoblari, hajr sababli oshiqning chekkan dardlari aks ettirilgan.

Dastlabki misrada Majnun obrazi markaziy o‘rin egallaydi. Majnun – an’anaviy islomiy va Sharq adabiyotida ishqning sadoqat va halokat timsoli. U Layli muhabbati bilan beqaror, sargardon va hech qanday dunyoviy maqsadsiz qolgan oshiq ramzi hisoblanadi.

Muqimiy bu obrazni o‘z ijodida “ishq dashti” (muhabbat sahrosi) bilan bog‘lab, oshiqning hayoti muhabbat yo‘lida qurbon bo‘lganini ko‘rsatadi. “Besar-u somon” (beqaror, sarson) iborasi orqali u oshiqning hech narsaga e’tibor qilmasligi, hayotining ma’nosi faqat sevgida ekanini ta’kidlaydi.

Lolatak qat-qat ko‘ngilda g‘am sirishki qon o‘lan.

Bu misrada “sirishki qon” (qon yosh) iborasi muhim rol o‘ynaydi. Oshiqning ko‘z yoshi “lolatak” (loladek) qip-qizil. Sharq she’riyatida og‘riq, alam va muhabbat rangi qizil (qon) bilan bog‘liq. U ko‘pincha oshiqning yurak og‘rig‘ini ifodalashda ishlatiladi.

“G‘am sirishki qon” – qon yig‘lash – muhabbat sababli sevgi yo‘lida azob chekkan oshiqning haddan tashqari og‘ir holi. Bu mubolag‘ali tashbeh bo‘lib, muhabbatning og‘ir kechishi va oshiqning qalbida yig‘ilgan alamni ko‘rsatadi.

Ro‘z-u shab vasling so‘rog‘lab diydasi giryon o‘lan.

Bu yerda “ro‘z-u shab” (kun va tun) ifoda vositasi bo‘lib, oshiqning hech qachon tinchlik topmasligini bildiradi; “vasling so‘rog‘lab” – oshiq kun-u tun yorning vasliga intiladi, uning ishqi uni har lahza azobga soladi; “diydasi giryon” – oshiqning ko‘zlari doim yig‘lab turadi, hech bir lahza xushhollikni bilmaydi. Xullas, bu misralar salmoqli va ta’sirchan bo‘lib, sevgi yo‘lida sabr qilib, oshiqning doimiy intizorlikda ekanini aks ettirgan.

“Sarv-u gul nazzorasi naylar sango hayron o‘lan”, - misrasi ham muhim ramzlar bilan boyitilgan:

“Sarv-u gul” – tabiatdagi go‘zallik timsollari. Sarv – go‘zallik va balandlik ramzi, gul – latofat, yoshlik va muhabbat ramzi.

Orazing-la qaddi xush raftoring aylar orzu.

Bu yerda oshiqning oxirgi intilishi, umidining so‘nmasligi aks ettirilgan. Demak, bandning umumiy xulosasi shuki, muhabbat va hajr dramatik, ta’sirli va kuchli obrazlar bilan berilgan; Majnun ramzi orqali oshiqning holati tasvirlangan; g‘am va intizorlik hissi kuchli tashbeh va mubolag‘alar bilan boyitilgan. Ushbu band Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning Fuzuliy g‘azaliga yozgan muxammasining eng ta’sirchan qismlaridan biri bo‘lib, shoirning san’atkorlik mahoratini namoyon qiladi.

Xanjari nozing-la avval siynasi afgor o‘la,
Tarki xobi rohat aylab kechalar bedor o‘la,
Ro‘zgori tiyra, subhi shomdan ham tor o‘la.
Orzu aylarki bandek muttasil bemor o‘la,
Kimki chashmi nargisi bemoring aylar orzu.

Muqimiy hajr ta'siridagi qiynoqlar va muhabbatning ruhiy azobini tasvirlashda davom etadi. "Xanjari noz" (yorning bee'tiborligi), "siyna afgor" (yurak jarohatlangan), "tiyra ro'zgor" (umidsiz hayot) kabi obrazlar oshiqning azobli holatini tasvirlaydi.

Oh, yo'xkim oshnoye, zohir etsam dardimi,
Ko'k dutunidin qaro har lahza ohi sardimi,
Kahrabo sonma ilojini bu rangi zardimi,
Zulmati hajringda boxmaz sham'a chashmim mardumi,
Partavi ruxsori pur anvoring aylar orzu.

Lirik qahramonning hijron va g'am-alam bilan yo'g'rilgan holati tasvirlangan. U sevgan yoridan judo bo'lgan va shuning azobini tortmoqda. Lirik qahramon o'z dardini yaqin hamdardi (oshno) oldida bayon qilish istagida. Oshiqning ishq yo'lida tortayotgan sovuq ohlari ko'k tutuni kabi qorayib ketgan. Bu o'rinda "ko'k dutuni" (osmon pardasi) – samovot ramzi. "Ohi sard" – oshiq chekayotgan iztirob ramzi. "Qaro" rang – nokomlik ramzi. "Kahrabo" – lirik qahramonning xastalashib, yuzlari oqarib, holsizlanganining belgisi. Go'yoki oshiq hijron dardiga davo topa olmayapti (Muqimiy).

Fuzuliy misralarida esa Zavqiy taxmisi tahlilida aytganimizdek, hajr (ayriliq) zulmatga (qorong'ulik) qiyoslanadi. Fuzuliyga ko'ra, oshiq yorning hajri qorong'uligida qolsa ham sham yorug'iga qiyo boqmaydi, chunki u yorning nurli yuzidan yorug'lik yetishini istaydi. Negaki, yorning porloq yuzidagi shu'la lirik qahramon uchun yagona orzu, uning najot yo'li – shu. Mazkur band sevgi va hijron motivlarini o'zida mujassam etgan. Lirik qahramonning yurak iztiroblari ohangdor va ma'nodor ifoda qilingan. Oshiq yorining nuri unga najot bo'lishiga umid qilgan holda, og'ir hijronni his etmoqda.

Lablaringdin umrlar la'li Badahshondur xijil,
Qomatingdin sarv ila shamshod doim munfail,
Muntazir yo'lingda hayronmen Muqimiy oy-u yil,
Orzumandi visolingdur Fuzuliy xasta dil,
Vasling istab davlati diydoring aylar orzu.

Muqimiy o'z sevgisi yo'lidagi sadoqatida sobit ekani haqida so'zlarkan, Fuzuliy g'azali mazmuniga hamohang quyma misralar ijod qiladi. U Zavqiyga qaraganda, o'z ishqi dardini yorqinroq aks ettiradi va obrazlar orqali o'z holatini bayon qiladi.

Muqimiy o'z ash'orida Fuzuliy g'azali ruhiyatini saqlagan holda, uni madhiy tus bilan boyitgan. U Zavqiy taxmisidan farqli ravishda go'zallik, muhabbat ta'siri va hajr qiynoqlarini yanada romantik uslubda tasvirlaydi. Zavqiy Fuzuliy g'azalining uch baytigagina taxmis bog'lagan, xolos. Muqimiyda esa bu hol to'la-to'kis ado etilganini ko'ramiz.

Kuzatishlarimiz asnosida aniqlandiki, Muhyi ham Fuzuliyning mashhur "aylar orzu" radifli g'azalidan o'z zamondoshlari qatori ta'sirlangan. Bu ta'sir Muhyining mazkur g'azalga qilgan nazirasida ko'rinadi. Naziraning diqqatli tomoni shundaki, u bir vaqtning o'zida ham nazira, ham muvashshahdir. Biz avvalgi ilmiy tadqiqotlarimizda Muhyining bu muxammasini batafsil sharhlaganimiz bois, bu maqolada uni to'liq keltirmadik.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Muhyi va uning zamondoshlari ijodida adabiy ta'sir, xususan, Fuzuliy g'azallariga bog'langan muxammaslar orqali ochiq ko'zga tashlanadi. Bu jarayonda adabiy aloqalar nafaqat shaklan, balki mazmun va badiiy mahorati jihatidan ham muhim o'rin tutadi. Zavqiy, Muqimiy va Muhyilarning she'riy tahlillari Fuzuliy g'azallariga uyg'un tarzda boyitilganini ko'rsatadi. Ushbu adabiy ta'sir nafaqat bu avlod shoirlari ijodiga, balki umumiy o'zbek she'riyati rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan.

Guvoh bo'ldikki, Fuzuliyning mazkur "Aylar orzu" radifli g'azaliga Muqimiy va Zavqiylar muxammas bog'lash yo'li bilan, Muhyi esa nazira qilish bilan (g'azalning vazni va radifidangina foydalanib) ergashishgan. Bu esa, fikrimizcha, mazkur shoirlarning Fuzuliy ijodidan ta'sirlangani, unga ijodiy ergashganini anglatadi. Yuqoridagi tahlillar esa bir g'azal asosida yaratilgan mazkur muxammaslarning har biri o'ziga xos original asar sifatida dunyoga kelganini ko'rsatadi. Bu esa davr shuarosining an'ana qobig'ida qolib ketmasdan novatorlik kasb etganidan dalolatdir.

She'riy kashfiyot zavqi har qanday shoir ijodiga kuchli turtki berishi barobarida, uning yangi qirralarini yuzaga chiqarishga ko'maklashadi, mahoratini charxlaydi, badiiy ko'nikmalarini yuksaltirishga undaydi. Shunday ekan, adabiy ta'sir jarayonida nafaqat avvalgi davrlar shoirlari, balki zamondoshlar ham ishtirok etishi – uning bir emas, ikki va undan ko'p ko'rinishlarda faol harakatlanishini ta'minlaydi.

TAMADDUN NURI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Жалолов Т. Гўзаллик оламида: мақолалар, адабий тадқиқотлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 328 б. (310-311-бетлар).
2. Завқий. Ажаб замона: Шеърлар/Тўпловчилар: А. Мадаминов, А. Турдиалиев, —Т.: Шарқ, 2003. —176 б. – 87-бет.
3. Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 480 б. 337-бет.
4. Muhyiddin Muhyi. Majmu’oti ash’ori Muhyi. Qo‘lyozma. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №11126 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. 69 varaqdan iborat. O‘zbek va fors-tojik tillaridagi ushbu asar 1305-yilda Qo‘qonda Muhyi tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchami: 11x17 sm. 16-bet.
5. Фузулий Муҳаммад. Асарлар. Икки жилдлик (Озарбайжончадан нашрга тайёрловчи Холид Расул). – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. – 384 б. 262-бет.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А – Бешбалиқ. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев ва б. Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000. – 736 б. 124-бет.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:93/94

KO‘CHMANCHILAR DUNYOSI BILAN OLIB BORILGAN SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDA XORAZM SAVDOGARLARINING TUTGAN O‘RNI

Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti

МЕСТО ХОРЕЗМИЙСКИХ ТОРГОВЦЕВ В ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ С МИРОМ КОЧЕВНИКОВ

Маткурбонов Омонбек Одилбекович, доцент кафедры истории университета Маъмуна

THE PLACE OF KHOREZM TRADERS IN THE HISTORY OF TRADE RELATIONS WITH THE NOMAD WORLD

Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Associate Professor of the Department of History of Mamun University

https://orcid.org/0000-0001-9024-7987
e-mail: omonbekmatqurbonov93@gmail.com

Annotatsiya: *Xorazm vohasi juda qadimdanoq ko‘chmanchilar dunyosining bir qismi bo‘lib kelgan. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlari va keyinchalik qoraqalpog‘istonlik olimlar tomonidan Sirdaryoning quyi oqimlarida, O‘zboy bo‘ylari va Kaspiyortida olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar bu o‘lkaga qo‘shni ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning tarixiy jarayonning turli davrlarida Xorazm bilan uzviy madaniy va siyosiy, ayniqsa, savdo-sotiq aloqalarida bo‘lib kelganliklarini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chmanchilar madaniyati, transformatsiya, sokol, Kerder, tetradraxma.*

Abstract: *The Khorezm oasis has been part of the nomadic world since ancient times. Many years of research conducted by the Khorezm archaeological and ethnographic expedition and later by scientists from Karakalpakstan in the lower reaches of the Syrdarya, the Uzboya River and the Caspian Sea confirm that the nomadic and semi-nomadic tribes neighboring this region have had close cultural and political, especially trade, ties with Khorezm at different periods of the historical process.*

Key words: *nomadic culture, transformation, falcon, Kerder, tetradrachm.*

Аннотация: *Хорезмский оазис с древних времен был частью кочевого мира. Многолетние исследования, проведенные сотрудниками Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, а позднее учеными Каракалпакстана в низовьях Сырдарьи, в районе Узбоя и на Каспии, выявили исторический процесс кочевого и полукочевого кочевые племена, соседствующие с этим регионом. Это подтверждает, что они имели тесные культурные и политические, особенно торговые связи с Хорезмом в разное время.*

Ключевые слова: *кочевая культура, трансформация, сокол, Кердер, тетрадрахма.*

KIRISH. Xorazm vohasi o‘z joylashuv o‘rniga ko‘ra ko‘chmanchilar dunyosi bilan juda qadimdan savdo-iqtisodiy aloqalarini yo‘lga qo‘yganlar. Bu aloqalar rivojlanib borgani sayin xalqlarni nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki madaniy jihatdan ham yaqinlashuviga sabab bo‘lgan.

Milodiy IV-V asrlarda ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdoning asosiy yo‘llarini nazorat qiluvchi Devkeskan, Oybo‘yirqal’a kabi chegara qal’alari mavjud bo‘lib, yangi davrgacha bu yo‘llar hech qanday o‘zgarishsiz faoliyat yuritgan. Natijada bu chegara qal’alari o‘ziga xos savdo markazlariga aylangan [1.31-32].

Chap qirg‘oq Xorazmning Sariqamish soyligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning g‘arbiy chegara qismida milodiy V asrlargacha bo‘lgan davrda yashagan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga mansub ko‘plab yodgorliklar topildi. Bu yodgorliklardan topilgan turli xil buyumlar ularda yashagan aholining Xorazm vohasi bilan keng ko‘chmanchilar dunyosi o‘rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida katta rol o‘ynaganligini, shuningdek, Xorazmning harbiy tayanchi bo‘lganligini ko‘rsatadi. O‘sha buyumlarning sifatiga qaraganda, bu markaz o‘z ehtiyojini qondirishdan tashqari chetga ham mol chiqargan va bu orqali Xorazmning ham ko‘chmanchilar bilan savdosidagi ehtiyojini qondirgan. Ammo V asrda Sariqamishbo‘yi Amudaryo deltasi oqimining to‘xtab qolishi bilan bu savdo markazlari o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Buyuk qomusiy olim Beruniyning yozishicha, IV–V asrlarga kelib, Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi oqibatida Xorazm bilan qo‘shni bo‘lib yashagan *alan-os* qabilalari bu hududlarni tark etib, Sharqiy Yevropa va Kavkaz hududlariga ko‘chib ketganlar. Taxminan shu asrlarda yoki undan keyinroq vabo va o‘lat kabi kasalliklarning tarqalishi oqibatida ham Xorazmga qo‘shni bo‘lib yashagan qabilalarning bir guruhi Xazar xoqonligi hududlariga ko‘chib ketganlar.

Qayta qurishdan oldin, Berkut-kalin voha mulklari faqat ko‘chmanchilarning hujumini yoki hech bo‘lmaganda, devorbuzar qurollarga ega bo‘lmagan dushmanlarning hujumini qaytarish uchun moslashtirilib, devorlarning o‘zi yengib bo‘lmaydigan to‘siq bo‘lib xizmat qilgan. Ammo devorlarning arzimas qalinligi va sokol [1] larning yo‘qligi bilan bu binolar devorbuzar qurollarga qarshi tura olmadi [2.65].

VII-VIII asrlarga kelib, deltada juda o‘ziga xos madaniyatga ega bo‘lgan qabilalar yashaydigan keng Kerder [2] hududi mavjud edi. Ko‘pgina arxeologik ma’lumotlar Kerder aholisining Xorazm bilan mustahkam aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi va bu hudud (ehtimol, har doim ham emas) u bilan bir davlat birlashmasining bir qismi bo‘lgan, deyishga qandaydir asoslar bor. Bunday holda har ikki viloyat chegarasida mudofaa tuzilmalariga ehtiyoj yo‘qoladi [2.68].

Darhaqiqat, P.I.Lerxning N.Veselovskiy qo‘llab-quvvatlagan gipotezasi katta qiziqish uyg‘otadi, u Prisk Paniyskiyning eftalit kidariylarining nomlaridan birini Xorazmning quyi qismida joylashgan Kerder (Maqdisiy ikkita Kerderni nomlaydi) va Kerderanxos shaharlari bilan bog‘laydi. Kerder viloyati aholisi Amudaryo deltasida alohida guruh vakillari bo‘lib, o‘ziga xos “turkiy bo‘lmagan va xorazmlik bo‘lmagan” tilda gapirishgan, arablar istilosi davrida esa Kerder alohida mulk bo‘lgan [3.278].

Xorazm va eftaliy tanga zarblarining tahlili (shohlarning bosh kiyimi, bosh suyagini deformatsiya qilish usuli, xorazmliklarning bir varianti bo‘lgan tamg‘a shakli) ham ushbu farazni tasdiqlaydi.

Arman ma’lumotlariga ko‘ra, Tetallar (eftalitlar) IV asr oxirida chiqib, “Baqtriya arshakidlari” (kushonlar)ni bosib olganlar. Ko‘rinib turibdiki, bu ma’lumot haqiqatdir, chunki Xitoy, Vizantiya va fors-arab manbalariga ko‘ra, V asr o‘rtalarida eftalitlar davlati allaqachon Xo‘tandan Gurgan adirlarigacha va Kangyuydan Shimoliy

[1] Sokol (ital. zoccolo) — 1) bino, inshoot devorining, ustun, haykal va boshqalarning pastki qalinlashgan qismi; poydevor davomi, ya’ni yer sirtidan chiqib turadigan qismi. Sokol pishiq g‘isht, beton yoki temir-beton bloklardan ishlanadi. Binoga alohida ko‘rk berish maqsadida granit, marmar va boshqa materiallar bilan qoplanadi.

[2] Кердер (Курдер), афтидан, ҳозирги Чимбой ҳудудида, ўнг қирғоқ дельталарида жойлашган. Курдер (Бартольд), айни пайтда, ўрта асрларда Амударёнинг ҳозирги асосий каналининг номи “Бийбозор”дан пастроқ бўлган. Дельтанинг чап қирғоғида иккинчи Кердер ва Кердеран-Хас.

Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududni egallagan, aslida deyarli eski Kushon imperiyasi chegaralariga yetib boradi.

MUHOKAMA. Feodal munosabatlarning shakllanish davrida ko‘chmanchilar ta’sirida o‘troq aholining madaniy an’analari dasht urf-odatlari bilan qorishib, ilk o‘rta asrlar madaniyati shakllana boshlaydi.

Turli xil urf-odat va dinlarga ega bo‘lgan, geografik jihatdan bir-biridan uzoqda bo‘lgan vohalar aholisi va ko‘chmanchi chorvadorlar turli tillarda gaplashishgan. Turkiy til chorvadorlar orasida keng tarqalgan, aholining o‘troq qismi so‘g‘d tilida, xususan, Samarqand tilida so‘zlashgan. Bu davrda so‘g‘d tili va yozuvi Yettisuv va Farg‘ona orqali Sharqiy Turkistonga, u yerdan esa Xitoy chegaralarigacha yetib bordi. V-VI asrlarda so‘g‘d yozuvi va uning Samarqand yozuvidan tashqari Xorazm va eftalit yozuvlari ham keng tarqalgan.

Ilk o‘rta asrlarda, ya’ni eftalitlar va Turk xoqonliklari davrlarida Xorazmning ko‘chmanchilar dunyosi bilan bo‘lgan savdo aloqalari, ayniqsa, yaxshi rivojlangan. Bunga, asosan, eftalitlarning ham, Turk xoqonligining ham Eron bilan dushmanlik munosabatlarida bo‘lganligi sabab bo‘lgan. Chunki Xorazm ham endi Eron bilan hamda u orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i yordamida savdo-sotiq munosabatlari olib bora olmas edi. Aksincha, Uzoq Sharq, Sharqiy Turkiston, Movarounnahr, Xitoy va Hindistondan olib kelinadi va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab olib o‘tiladigan barcha mollar Xorazm orqali o‘tuvchi shimoliy tarmoqdan o‘ta boshlagan. Shimoliy tarmoqning faollashuvi Xorazmning ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdosiga ham ta’sir etgan, albatta. Chunki V-VIII asrlardagi butun xo‘jalik hayotidagi inqiroz savdoga ham ta’sir ko‘rsatgan edi.

G‘arbiy va shimoli-g‘arbiy chorrahada joylashgan yirik savdo markazi bo‘lgan Xorazmda musulmonlar mustamlakalari bo‘lgan va tarixiy matnlar Volgabo‘yiga yo‘l olgan savdogarlar Xorazm orqali o‘tgan yo‘lni Kavkaz orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni afzal ko‘rganliklarini ko‘rsatadi [3].

Ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdoda to IX-X asrlargacha pul asosiy rol o‘ynamagan. Savdo asosan, bir-biriga zarur tovarlarni ayirboshlash orqali amalga oshirilgan. Shuning uchun ham to VIII-IX asrlargacha bo‘lgan savdoning rivoji qay darajada bo‘lganligini aniqlash qiyin. Bir necha asrlar davomida, to III asrgacha, Xorazmda kumush tetradraxma[3]lar zarb qilingan bo‘lsa ham, u faqat dehqonchilik vohalarida, ichki bozorda amalda bo‘lgan. Mis chaqa esa III asrdan boshlab muntazam zarb qilinib kelgan bo‘lsa ham, IX-X asrlargacha, u ham ko‘proq ichki bozor talabini qondirgan, xolos [1.33].

Xorazmning ko‘chmanchilar dashti bilan savdo aloqalari turli tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor ko‘rib chiqilgan. Mashhur sharqshunos V.V.Bartold hali 1922-yildayoq ishonch bilan: “Xorazm o‘z boyliklarini islom davrida yanada taraqqiy qilgan ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdo aloqalari orqaligina orttirgan; bu savdo asosan Xorazmning shimolida jamlangan edi...”, deb ta’kidlagan edi [4.14-19].

Ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdo aloqalarining o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan A.Yu.Yakubovskiy shunday ta’kidlab o‘tgan edi: “O‘rta Osiyo hayotida ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdo Sharqiy Yevropa bilan olib boriladigan savdo munosabatlaridan kam rol o‘ynamagan. Butun bir hududlar aynan shu mahsulot ayirboshlash ta’siri ostida rivojlangan. Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan faqat Sharqiy Yevropa bilan bo‘lgan savdo ta’sirida emas, balki ko‘chmanchi turkman va o‘g‘uz dashtlari bilan bo‘lgan savdo orqali ham o‘sgan.

NATIJALAR. Har qanday holatda ham, shu davr O‘rta Osiyo yirik shaharlaridan biri, Shimoliy Xorazm poytaxti – Urganch o‘zining asosiy boyligini o‘sha ko‘rsatilgan ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdo aloqalari orqali to‘plaganki, ko‘chmanchilar Urganch bozorlariga chorva mollari, jun va teri olib kelib, uning evaziga sholi, non, gazlamalar va metall buyumlar olib ketganlar”[5.15]. Xorazmning ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdosining ahamiyati juda katta bo‘lganligi IX-X asrlar arab-fors manbalarida ham bir necha bor ta’kidlangan. Istaxriy X asrdayoq Xorazmda savdo aloqalarining, ayniqsa, ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdo aloqalarining kengayganligi to‘g‘risida shunday degan edi: “Ularning (xorazmliklarning) mamlakatida oltin yo‘q, kumush

[3] Tetradraxma - qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan katta kumush tanga bo'lib, uning qiymati to'rt draxma bo'lgan. Bu antik davrning standart tangasi bo'lib, yunon dunyosidan tashqarida ham ishlatilgan.

konlari yo‘q, qimmatbaho toshlar to‘g‘risida esa so‘z ham bo‘lishi mumkin emas; boylikning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko‘paytirishdan topadilar”[6.180]. Buni boshqa manbalar (Maqdisiy, Ibn Rusta, Ibn Fadlan, Gardiziy va boshqalar) ham tasdiqlaydi. V.V.Bartold va A.Yu.Yakubovskiylarning yozma manbalarga asoslanib ko‘chmanchilar bilan savdo aloqalarining IX asr boshlarigacha bo‘lgan davr Xorazm iqtisodiyotidagi muhim o‘rni haqidagi bildirgan fikrlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari ham to‘la tasdiqlaydi.

XULOSA shundan iboratki, xorazmlik savdogarlarning nafaqat o‘troq aholi, balki, ko‘chmanchilar dunyosi bilan ham faol savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yganligini manbalar tasdiqlaydi. Bu manbalarga tayangan holda o‘sha davr Xorazm aholisi hayotida ko‘chmanchilar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarning ham alohida o‘rin tutishini bilish mumkin va bu mahsulotlar xorazmlik dehqonlar tomonidan yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ayirboshlanadigan asosiy tovar mahsulotlari bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вайнберг Б.И. Роль кочевников в развитии экономики и торговли Хорезма в древности. Города и караван-сараи на трассах Великого Шелкового пути//Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. -С.31-32.
2. Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма (По материалам Беркут-калинского оазиса). – Москва: Наука, 1966. – С. 65.
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. - Москва: Издания МГУ, 1948. – С. 278.
4. Бартольд В.В. История Туркестана. Труды Туркестанского государственного университета. Вып. 2. –Т.: 1922, с.14-19.
5. Якубовский А.Ю. Феодальное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ. Ч.I. -Л. 1932, с.15.
6. Истахри. Книга путей и стран (Китаб масалик ал-мамалик). Восточная литература, 2003. - С.180.
7. Рахманалиев Р. Империя тюрков. Великая цивилизация // https://kitaptar.bashkort.org/files/%D0%98%D0%BC%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B8%D1%8F%20тюрков.%20Великая%20цивилизация.pdf

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 314.42:009

SHAXSNING HUQUQIY IJTIMOIYLASHUVI JARAYONIDA DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGI

Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna, Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

COLLABORATION BETWEEN STATE AND NON-STATE ORGANIZATIONS IN THE PROCESS OF LEGAL SOCIALIZATION OF THE INDIVIDUAL

Pozilova Mukaddas Khikmataliyevna, Teacher of the Namangan State Pedagogical Institute

https://orcid.org/0009-0003-3093-5739
e-mail: alibekovser@gmail.com

СОТРУДНИЧЕСТВО ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРАВОВОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЦА

Позилова Мукаддас Хикматалиевна, преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Maqolada shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi chuqur tahlil qilinadi. Unda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda ushbu institutlarning o'rni, hamkorlik shakllari hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *huquqiy ijtimoiylashuv, shaxs, davlat tashkiloti, nodavlat tashkilot, fuqarolik jamiyati, huquqiy tarbiya, ijtimoiy institut, huquqiy ong.*

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the collaboration between state and non-state organizations in the process of an individual's legal socialization. It examines the role of these institutions in shaping legal consciousness and legal culture, explores forms of cooperation, and discusses ways to enhance their effectiveness.*

Keywords: *legal socialization, individual, state organization, non-governmental organization, civil society, legal education, social institution, legal consciousness.*

Аннотация: *В статье проводится глубокий анализ взаимодействия государственных и негосударственных организаций в процессе правовой социализации личности. Рассматривается роль этих институтов в формировании правового сознания и правовой культуры, формы сотрудничества и пути повышения их эффективности.*

Ключевые слова: *правовая социализация, личность, государственная организация, негосударственная организация, гражданское общество, правовое воспитание, социальный институт, правовое сознание.*

KIRISH. Zamonaviy fuqarolik jamiyatining shakllanishida huquqiy ongi yuksak, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan shaxslar muhim o'rin tutadi. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi — bu uzluksiz jarayon bo'lib, unda inson o'z huquq va burchlarini anglab, jamiyatda o'zini mas'ul shaxs sifatida namoyon etishi uchun zarur bo'lgan ma'lumot, tajriba va ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayonda, avvalo, davlat idoralari tomonidan yaratiladigan me'yoriy-huquqiy baza muhim bo'lsa, boshqa tomondan, ijtimoiy institutlar, xususan, nodavlat tashkilotlari (NNT) ham teng darajada katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Huquqiy ijtimoiylashuv mazmunan shaxsga huquqiy bilimlar, qadriyatlar, ko‘nikmalar va munosabatlarni singdirish orqali uni to‘laqonli ijtimoiy subyektga aylantirish jarayonini anglatadi. Ijtimoiylashuvning boshqa tarmoqlari (ma’naviy, madaniy, iqtisodiy va h.k.) singari huquqiy soha ham shaxsni jamiyatda erkin va mas’ul shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. “G‘arb olimlaridan biri Jon Rols huquqiy ijtimoiylashuv masalasida adolat tamoyillarini e’tirof etadi va jamiyatda yashaydigan har bir shaxs adolat va tenglik prinsiplari asosida o‘zini anglashini ta’kidlaydi” [1].

O‘zbek olimi I.Atamirzayev “Huquqiy ijtimoiylashuv bu nafaqat shaxsning huquqiy bilimlari, balki uning ijtimoiy-huquqiy rol va mas’uliyatlarini to‘g‘ri idrok etishi uchun zarur bo‘lgan ichki madaniy poydevordir”, — deb yozadi[2]. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, huquqiy ijtimoiylashuvda faqat qonunlarning mazmunini bilish emas, balki ularga rioya qilish, ulardan oqilona foydalanish, huquqiy ong va madaniyatni mustahkamlash muhimdir.

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida davlat idoralari tomonidan qonunchilik bazasini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida huquqiy ta’limni yo‘lga qo‘yish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish kabi keng ko‘lamli ishlar amalga oshiriladi. Biroq fuqarolik jamiyati institutlarisiz, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarisiz (NNT) bu jarayon to‘laqonli natija berishi qiyin. Davlat tizimlari huquqiy normalarni ishlab chiqish, uyg‘unlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha yetakchi o‘ringa ega bo‘lsa, NNTlar bevosita odamlar bilan ishlash, ularning muammolarini bilish va huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha qulay imkoniyatlarga ega.

Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, nemis sotsiologi Maks Veber davlatning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida gapirar ekan, “Davlatning bosh ishi bu — qonun ustuvorligini ta’minlash va shaxslar o‘rtasida tartibotni ushlab turishdir”, deb qayd etadi[3]. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati institutlari (ayniqsa, NNTlar) bu jarayonni samarali tashkil qilishda, xalq bilan davlat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajarishi mumkin.

MUHOKAMA. O‘zbekiston misolida ham NNTlarning davlat bilan hamkorligi ortib bormoqda. NNTlar orqali yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqa ijtimoiy guruhlar manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. M.Nuriddinova O‘zbekistonda huquqiy ijtimoiylashuvni samarali amalga oshirish uchun NNTlar ishtirokini kuchaytirish zarurligini alohida ta’kidlaydi[4].

Davlat tomonidan yaratiladigan va qabul qilinadigan qonunlar, kodekslar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. NNTlar ushbu qonun hujjatlarining loyihalarini tayyorlash, jamoatchilik muhokamasini tashkil etish jarayonida faol ishtirok etishi huquqiy normalarni hayotiy qilishga xizmat qiladi. Masalan, yangi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilayotganida NNTlar jamoatchilik vakillari sifatida o‘z taklif va fikrlarini bildirib, hujjat matnining takomillashuviga hissa qo‘shishi mumkin.

Jamiyat a’zolariga qonunlar va huquqiy normalar mohiyatini yetkazish, ularni real hayotda qo‘llashni o‘rgatish davlat organlarining ham, NNTlarning ham zimmasida turadi. Davlat maktab, kollej, universitet kabi rasmiy ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni joriy etish orqali huquqiy savodxonlikka asos yaratadi. NNT esa norasmiy seminarlarda, treninglarda, mahallalarda, kasb-hunar markazlarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng qamrovli targ‘ibot ishlarini olib borishi mumkin. Shuningdek, NNTlar o‘zining moslashuvchanligi va mahalliy sharoitni chuqur bilishi tufayli aniq ijtimoiy guruhlar bilan individual yondashuvda ishlaydi.

NNTlar, ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, tashkiliy va amaliy yordam berish bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘lsa, ular odatda bepul yuridik maslahatlar ham ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatning turli qatlamlariga, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlarga katta yordam beradi. Davlat bu xizmatlarning huquqiy asoslarini yaratib berishi va ularning sifatini nazorat qilishi muhim.

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi darajasini aniqlash uchun turli ko‘rsatkichlar, so‘rovnomalar, ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Davlat organlari bu borada rasmiy statistika va tadqiqotlar olib borishi mumkin bo‘lsa, NNTlar bevosita joylarda, mahallalarda, ta’lim muassasalarida yoki mehnat jamoalarida monitoring o‘tkazadi. Ushbu hamkorlik natijalari huquqiy ijtimoiylashuv darajasini

oshirishga xizmat qiladigan yangi dasturlar yoki islohotlarni ishlab chiqishda asqotadi.

NATIJALAR. Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari:

- Aholining turli qatlamlari o‘rtasida huquqiy savodxonlik darajasi turlicha. Ba’zi joylarda qonunlar mohiyatini tushunmaslik yoki bilmaslik salbiy oqibatlarga olib keladi. Davlat idoralari tomonidan ta’lim va targ‘ibot ishlari olib borilishi zarur, biroq bu yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli NNTlar bevosita aholining muayyan guruhlariga yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshirishda yordam beradi.

- Davlat va NNT o‘rtasidagi hamkorlik ba’zida “rasmiy uchrashuvlar”, “shartnoma imzolash” kabi tadbirlardan iborat bo‘lib qolishi mumkin. Haqiqiy samaraga erishish uchun amaliy loyihalar, qo‘shma monitoring, ijtimoiy tadqiqotlar kabi aniq mexanizmlarni joriy etish zarur.

- NNTlar o‘z faoliyatini yuritish uchun grantlar, xayr-ehsonlar yoki davlat subsidiyalariga tayanadi. Mablag‘ yetishmovchiligi ularga huquqiy ijtimoiylashuv sohasida barqaror loyihalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, davlat tomonidan ularni moliyaviy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlarini taqdim etish va qonunchilikda qulay sharoitlar yaratish lozim.

- Huquqiy ijtimoiylashuv sohasida faqat huquqshunoslikni emas, balki sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya kabi fanlarni chuqur biladigan mutaxassislar kerak bo‘ladi. Davlat idoralari ham, NNTlar ham o‘z xodimlarining malakasini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish bo‘yicha muntazam treninglar, o‘quv seminarlarini tashkil etishi zarur.

Davlat va NNTlar hamkorligi samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar:

Qonunchilikni yanada takomillashtirish: Davlat qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlarida NNTlar huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etishi uchun to‘siqlarni bartaraf etib, qo‘shimcha rag‘batlar belgilashi lozim. Bu, ayniqsa, grantlar ajratish, soliq va bojxona imtiyozlari berish, rasmiy akkreditatsiya qilish jarayonlarini soddalashtirish orqali amalga oshadi.

Raqamli platformalarni rivojlantirish: Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har qachongidan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Davlat idoralari huquqiy ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlovchi onlayn platformalarni ishga tushirishi, NNTlar esa shu platformalar orqali aholi o‘rtasida huquqiy savodxonlikni targ‘ib qilishi mumkin.

Tegishli mutaxassislarni tayyorlash: Universitetlarda huquqiy ijtimoiylashuv, ijtimoiy ish, fuqarolik ta’limi va shu kabi yo‘nalishlarda maxsus kurslar joriy etish, bitiruvchilarning NNTlarda amaliyot o‘tashini rag‘batlantirish lozim.

Hududiy manzilli yondashuvni kuchaytirish: Qishloq, olis tumanlar yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga e’tibor qaratish muhim. Davlat idoralari NNTlar bilan hamkorlikda shu hududlardagi aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqishi, ularni moliyalashtirishi va doimiy monitoring qilib borishi kerak.

Jamoatchilik nazorati va oshkoralikni ta’minlash: Davlat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish kerak. Bu jarayonda NNTlar faol ishtirok eta oladi. Fuqarolar talablari, takliflari va e’tirozlarini tahlil qilib, davlat organlariga tegishli xulosa va tavsiyalar berib borishi mumkin.

XULOSA. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omillaridan biridir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligi taqozo etiladi. Davlat idoralari qonunlar, me’yoriy-huquqiy bazani yaratuvchi va tartibga soluvchi asosiy institut bo‘lsa, NNTlar jamiyatning bevosita ichidan chiqib, aniq ijtimoiy guruhlar bilan ishlashda samarali uslub va metodlarni qo‘llash imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rawls J. A theory of justice //Applied ethics. – Routledge, 2017. – P. 21-29.
2. Atamirzayev I.X. Migrantlarning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalari // Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. 2024. – T. 2. №. 1. – C. 132-134.
3. Weber M. Economy and society // Democracy: A reader. – Columbia University Press, 2016. – P. 247-251.
4. Ikromova G., Ibragimova H. Shaxs ijtimoiy-lashuvi va ijtimoiy xulq-atvor // Молодые ученые. 2024. – T. 2. №. 32. – C. 105-107.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:80.82

AMERIKA VA O‘ZBEK LATIFALARINING MADANIY FARQLARI VA LATIFALARNING JANR TABIATI

Mardonov Maxmud Sobir o‘g‘li, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tadqiqotchisi

CULTURAL DIFFERENCES OF AMERICAN AND UZBEK ANECDOTES AND THE GENRE NATURE OF ANECDOTES

Mardonov Makhmud Sobir o‘g‘li, researcher, Navoi State University of mining and technology

КУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ АМЕРИКАНСКИХ И УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТОВ И ЖАНРОВЫЙ ХАРАКТЕР АНЕКДОТОВ

Мардонов Махмуд Собир оглы, исследователь Навоийского государственного горно-технологического университета

https://orcid.org/0009-0003-6812-6160
e-mail: mmaxmud1992@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amerika va O‘zbek latifalarining madaniy farqlari hamda latifalarning janr tabiati tahlil qilinadi. Har ikki xalqning latifalarida aks etgan mentalitet, tarixiy va ijtimoiy omillar, latifalarning kulgi uslublari, obrazlar tizimi va funksional xususiyatlari qiyosiy o‘rganiladi. Shuningdek, latifalarning jamiyatdagi o‘rni va ularning kommunikativ hamda didaktik vazifalari ham yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Amerika latifalari, O‘zbek latifalari, madaniy farqlar, xalq og‘zaki ijodi, janr tabiati, kulgi, mentalitet, kommunikativ funksiya, ijtimoiy omillar, yumoristik uslublar.*

Abstract: *This article analyzes the cultural differences of American and Uzbek anecdotes and the genre nature of anecdotes. The mentality, historical and social factors reflected in the anecdotes of both peoples, the methods of laughter of anecdotes, the system of images and functional features are studied in a comparative way. The place of anecdotes in society and their communicative and didactic functions are also highlighted.*

Keywords: *American anecdotes, Uzbek anecdotes, cultural differences, folk oral creativity, genre nature, laughter, mentality, communicative function, social factors, humorous styles.*

Аннотация: *В этой статье будут проанализированы культурные различия между американскими и узбекскими анекдотами, а также жанровый характер анекдотов. Сравнительно изучаются менталитет, исторические и социальные факторы, отраженные в анекдотах обоих народов, способы смеха анекдотов, система образов и функциональные особенности. Также будет освещена роль анекдотов в обществе и их коммуникативные и дидактические функции.*

Ключевые слова: *американские анекдоты, узбекские анекдоты, культурные различия, устное народное творчество, жанровый характер, смех, менталитет, коммуникативная функция, социальные факторы, юмористические стили.*

KIRISH. Xalq orasida keng iste’molda bo‘lgan, faol jonli ijroda yashovchan kichik hajmli og‘zaki nasriy hikoyalardan biri latifalar syujetida tasvirlangan voqealarning komik holat yaratishga qaratilganligi, bosh qahramonning kulgi qo‘zg‘ovchi harakatlar sodir etishi va hozirjavobligida yumor aralash nutq mavjudligi bilan folklorning boshqa janrlaridan ajralib turadi.

Insoniyat tarixida kulgi kishilarning kayfiyatini ko‘tarish, odamlar o‘rtasida madaniy muhitni shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Shu bois dunyo folklorshunoslik ilmida kulgi bilan bog‘liq folklor janrlarini tadqiq etish, ularning spesifik xossalari, janr tabiati, badiiy jozibadorligini o‘rganishga qiziqish kuchaygan. Kulgi qo‘zg‘ovchi folklor janrlarini tadqiq etish ajdodlarimizning badiiy-estetik qarashlari, poetik tafakkurning tadrijiy

takomilini aniqlashga xizmat qiladi. Zero, Har qanday xalqning milliy o‘zligi, ma’naviy qiyofasi uning tafakkur tarzi vositasida belgilanadi. Globallashuv jarayoni keskinlashib borayotgan ayni damda Amerika va o‘zbek xalqlari hazillarini tipologik tadqiq etish Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, okean orti xalqlari madaniyati bilan o‘zbek madaniyati qiyosi orqali xalqlarimizning badiiy, estetik, madaniy qarashlari borasida aniqroq xulosalarga kelish imkoni yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. G‘arb olimlari yumor va kulgini ijtimoiy hodisa sifatida baholaydilar. Kulgining ijtimoiyligi yuzasidan tadqiqotlari bilan tanilgan I.Gofman kulgili vaziyat yaratishga xizmat qiladigan muhim vosita sifatida freymlarni keltiradi[1]. XX va XXI asr karikaturalarini tadqiq etgan rus olimi S.S.Melnikov freymlarning o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra tasnifotini yaratadi[2]. Rus olimasi N.A.Orlovaning yozishicha, “Kulgi hazilning barcha shakllari ichida eng murakkabi va falsafiysidir. Kulgining axloqiy mazmuni folklorda ifodalangan xalq qadriyatlari tizimiga yaqin”[3]. Olima kulgiga xalqchillik nuqtayi nazaridan yondashganligi sabablimi, har qalay uni xalq qadriyatlariga yaqin deb ta’kidlaydi. Aslida kulgi o‘zi qadriyatdir. O‘zbek folklorshunosi G‘.Xolbutayevning askiya janriga bag‘ishlangan tadqiqotida N.A.Orlovaga nisbatan ancha haqiqatga yaqin mulohazalarni uchratamiz. Jumladan olim: “Badiiy tafakkurning hajviy turi ibtidoiy mifologik ongning shaxsiy vorisi va ajdodlarimizning kulgi bilan bog‘liq dunyoqarashi, badiiy-estetik qarashlari sifatida ahamiyatlidir. Kulgi qadriyatlar tizimiga yaqin hodisa emas, balki qadriyatdir.

O‘zbek hazillarini askiya janriga daxdlorligi yuzasidan tekshirgan G‘.Xolbutayev esa hazil mezonlarini aniqlaydi. Uning yozishicha, “Hazilning o‘ziga xos mezonlar asosida farqlash mumkin: a)ijro etilishiga ko‘ra, b)obyektga ko‘ra, v)kayfiyat hosil qilishiga ko‘ra, g)milliy mansubiyat yoki hududiy xarakterga xos hazillar, d)insonning tabiiy nuqsonlari asosidagi hazillar”[4]. G‘.Xolbutayev tomonidan qayd etilgan belgilarni Amerika xalqlari kulgi va hazillarida ham uchratish mumkin. Hazillarning qaysi xalq bo‘lishidan qat’i nazar kulgi vositasini tanqid yoki kayfiyat ko‘tarish maqsadida qo‘llaniladi.

O‘zbek magik marosimlar folklorida kulgi borasida mulohazalar yuritgan folklorshunos O.Qayumov kulgi ibtidosini qadimiy magik tasavvurlaga aloqadorligini qayd etadi[5]. Olimning fikricha, kulgi aslida magik mohiyat kasb etib, miriqib, (qotib-qotib) kulgan kishi ekstaz holatga tushadi. Ayni shu nazariy qarashga uyg‘un fikrlarni V.Ya.Proppning kulgi magiyasi bilan bog‘liq xulosalarida, folklorshunos K.Imomovning latifada kulgi masalasidagi xulosalarida ham kuzatamiz. Buxoro folklorining yirik tadqiqotchilaridan biri taniqli folklorshunos O.Safarov: “O‘zbek xalq latifalari favqulodda boshlanishi va favqulodda naql etilishi bilan e’tiborni tortadi. Ularning asosida yengil mutoyiba va o‘tkir hajv yotadi. Ular hajman muxtasar, mazmunan ixcham bo‘ladi. Asosan, bir yoki ikki-uch epizoddan tashkil topadi. Yakka ijroda aytiladi. Xalq hajviyoti va mayin yumorga asoslangan latifalarda hayot haqiqati uydirma, so‘z o‘yini, kinoya va qochirimlar vositasida aks ettiriladi. Latifalar yechimida satira va yumor hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yechim tasodifan ko‘tarilgan kulgu-qahqaha yoki so‘z o‘yiniga asoslanadi. So‘z o‘yini latifa kulminatsiyasini tashkil etadi.

AQSH olimlari hazil masalasida bir talay izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Purdu unversiteti professori Viktor Raskin “Hazilning semantik nazariyasi”ga doir tadqiqotida hajvning lisoniy manbalari borasida fikr yuritadi. V.Raskin hazilning verbal shakliga quyidagicha tavsif beradi:

---

[1] Гофман И. Анализ фреймов: эссе об организации повседневного опыта.– Москва, Институт социологии РАН.2003. – С.42.

[2] Мельников С.С. Политический юмор как форма рефлексии в Российском обществе. Дисс. на учен степен. кандидат социол. наук.– Москва, 2017. – С.30.

[3] Орлова Н.А. Поэтика комического в прозе С. Довлатова: семиотические механизмы и фольклорная парадигма. Автореф. дисс. учен.степен. канд.филол.наук. – Майкоп, 2010. –С.6.

[4] Холбутаев Ғ.О. Аския ва ҳазилнинг уйғунлиги ва уларнинг ўзига хос томонлари // International journal of discourse on innovation, integration and education, Vol. 2 No. 2 (2021): Vol. 2 Issue 2, 2021 Article Published: Feb 18, 2021 – P. 230-232.

[5] Kayumov O. Rimph in the uzbek shamanistic songs/3.Asia pacific international congress on contemporary. Studies full text book-contents. – Seoul, South Korea, 2020. – P.76–81.

“Har qanday hajv real va noreal vaziyatda maydonga keladi. Odatda bunday vaziyatlar: 1.Haqiqiy va soxta; 2.Kutilgan va kutilmagan, xayolga kelmagan voqea; 3.Haqiqatga yaqin, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ammo aql bovar qilmaydigan voqealardir. Bu yerda insonning dunyoqarashi va dunyoni his qilishi bilan bog‘liq binar kategoriya mavjud.

Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi bilan shakllangan o‘ziga xos hazil brendiga ega. O‘zbek latifalari situatsion komediyaga, kulgili hikoya qilishga tayangan holda nozik va muloyim tabiati bilan ajralib turadi. Hikoyalar va dialoglar ichiga singdirilgan bu hazillar o‘zbek yumoristlarining hikoya qilish mahoratini namoyish etadi. O‘zbek madaniyatida latifani yetkazib berish ham xuddi kulgu qo‘zg‘atish kabi muhim bo‘lib, hazilni jozibali hikoyaga aylantirish san’ati hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi madaniy muhitda hazildan foydalanish jarayonida keskin o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ko‘pgina qiziqchilarning teleko‘rsatuvlarida xalq latifalari mohiyatidan ijodiy foydalanish, xalq komediyasining vizualizatsiyalashuvi, video va sahnaviy talqinini yaratish tendensiyasini maydonga keltirdi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot kulgi iboralari asosidagi mavzular, tuzilmalar va madaniy nyuanslarni ochib beradi. Har bir kontekstdagi hazil tabiatini o‘rganib chiqsak, biz kulgi qo‘zg‘ash uslublarini shakllantiruvchi madaniy omillarni chuqurroq tushunishimiz mumkin. Siyosat, etnik va ijtimoiy masalalar – Amerika hazillarida o‘rganiladigan mavzular bo‘lgani kabi, o‘zbek hazillarida asosiy o‘rinni kundalik hayotiy vaziyatlari, ijtimoiy munosabatlar va an’anaviy urf-odatlar egallaydi. Amerika va o‘zbek hazillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganish hazilning turli madaniyatlarda qanday namoyon bo‘lishi usullarini ko‘rsatib beradi.

Amerika hazillarining tabiati. Amerikaliklar hazili ko‘pincha o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda ifodalanishi, kinoya va so‘z o‘yinlari bilan ajralib turadi. Istehzo va o‘z-o‘zini kamsitish keng tarqalgan bo‘lib, asosiy e’tibor hokimiyat arboblarini, ijtimoiy me’yorlar va stereotiplarni masxara qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Amerika hazillaridagi mavzular. Amerikaliklar hazillari mamlakatning rang-barang tabiatini aks ettiruvchi keng ko‘lamli mavzularni qamrab oladi. Umumiy mavzularga siyosat, etnik kelib chiqish, gender va ijtimoiy masalalar kiradi. Siyosiy hazillar ko‘pincha siyosatchilarni, hukumat siyosatini va dolzarb voqealarni kinoya qiladi. Etnik hazil, ba’zida ziddiyatli bo‘lsa-da, stereotiplarga qarshi turish va kulgi orqali inklyuzivlikni targ‘ib qilish uchun ishlatiladi. Genderga asoslangan hazil ko‘pincha munosabatlarning murakkabligini va ijtimoiy umidlarni o‘rganadi. Bundan tashqari, so‘z o‘yini va so‘z o‘yinlari amerikalik hazillarda mashhur bo‘lib, ularda asosiy e’tibor lingvistik manipulyasiyaga qaratilgan.

O‘zbek hazillarining tabiati. Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston o‘zining madaniy an’analari va tarixiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos hazil-mutoyibalariga ega. O‘zbek hazillari ko‘pincha so‘z o‘yinlari, askiya, latifalar va xalq ertaklarini o‘z ichiga oladi. Ular vaziyatli komediya va qiziqarli hikoyalarga tayanadigan nozik va yumshoq hazillari bilan mashhur. O‘zbek madaniyatida hazillar hikoya qilish mahoratiga urg‘u beradi, chunki hazil elementi ko‘pincha hikoya yoki dialog ichiga joylashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гофман И. Анализ фреймов: эссе об организации повседневного опыта.– Москва, Институт социологии РАН.2003. – С.42.
2. Мельников С.С. Политический юмор как форма рефлексии в Российском обществе. Дисс. на учен степен. кандидат социол. наук.– Москва, 2017. – С.30.
3. Орлова Н.А. Поэтика комического в прозе С.Довлатова: семиотические механизмы и фольклорная парадигма. Автореф. дисс.учен. степен.канд.филол.наук. – Майкоп, 2010.–С.6.
4. Холбутаев Ғ.О. Аския ва ҳазилнинг уйғунлиги ва уларнинг ўзига хос томонлари // International journal of discourse on innovation, integration and education, Vol. 2 No. 2 (2021): Vol. 2 Issue 2, 2021 Article Published: Feb 18, 2021 – P. 230-232.
5. Kayumov O. Rimph in the uzbek shamanistic songs/3. Asia pacific international congress on contempora ry. Studies full text book-contents. – Seoul, South Korea, 2020. – P.76–8

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 509.3/1 (575.7)

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE

Pulatova Durdona Ravshanovna, Doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Pulatova Durdona Ravshanovna, Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Пулатова Дурдона Равшановна, докторант Ташкентского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0000-0001-9685-8244
e-mail: durdonapulatova88@gmail.com

Abstract: *The modern educational system sets itself the task not only to give knowledge, but also to train a specialist who can successfully work in personal, social and professional activities. Therefore, a competency approach is widely used as the main criterion for the content of Education. Especially when teaching foreign languages, this approach implies the formation of communicative skills on the basis of speech activity.This article discusses the scientific-theoretical analysis of the concept of professional communicative competence.*

Key words: *professional communicative competence, scientific basis, professional competence, communicative competence, linguistic competence, sociocultural competence, pragmatic approach, professional communication.*

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga faqat bilim berish emas, balki shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlay oladigan mutaxassisni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Shu sababli ta'lim mazmunining asosiy mezoni sifatida kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda bu yondashuv nutq faoliyati asosida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada, kasbiy kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kommunikativ kompetensiya, ilmiy asos, kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, sotsiokultural kompetensiya, pragmatik yondashuv, kasbiy muloqot.*

Аннотация: *Современная образовательная система ставит перед собой задачу не только дать знания, но и подготовить специалиста, способного успешно работать в личной, социальной и профессиональной деятельности. Поэтому компетентностный подход широко используется в качестве основного критерия содержания образования. Особенно при обучении иностранным языкам такой подход предполагает формирование коммуникативных навыков на основе речевой деятельности.В данной статье рассматривается научно-теоретический анализ понятия профессиональной коммуникативной компетенции.*

Ключевые слова: *профессиональная коммуникативная компетентность, научные основы, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, лингвистическая компетентность, социокультурная компетентность, прагматический подход, профессиональная коммуникация.*

INTRODUCTION. The modern educational system is aimed not only at providing theoretical knowledge, but also at ensuring that students can effectively work in their future professional activities. This requires the promotion of a competency approach as a key criterion in the educational process. Especially in the process of teaching foreign languages, this approach occupies an important place, since it provides an opportunity for students to develop communicative skills in real professional situations.

In this context, professional communicative competence is an integral part of the modern educational process and plays a decisive role in preparing students for professional activities. This competence includes the following main aspects:

- Professional communication skills-the ability of a student to engage in effective communication in a foreign language within the framework of his specialty.
- Analysis and transmission of information – the ability to understand, process and clearly state professional information.
- The development of speech activity is an increase in the ability to express an opinion in a foreign language in oral and written form.
- Cultural context accounting is the formation of sociocultural knowledge and skills for communication in various professional environments.

MATERIALS AND METHODS. Professional communicative competence is an important component of the modern educational process, the content of which is interpreted differently by different scientists. A. P. Chudinov (2015) interprets this competence as a system of knowledge, skills and personal qualities that makes it possible to use a foreign language in the professional sphere. He believes that this competence involves deep mastery of language knowledge, the correct use of professional terms, and the use of speech strategies in line with communicative situations. Motivation for language learning, readiness for professional communication, and cultural awareness are also central to the process.

N. D. Galskova (2006), on the other hand, characterizes professional communicative competence as the student's ability to integrate communicative tools during professional activities. He argues that the effectiveness of professional communication depends not only on language knowledge, but also on the ability to apply them in real conditions. This approach requires mastering professional terminology, clearly defining communicative strategies, and adapting the communication style to the professional context.

DISCUSSION. The definitions of both scholars suggest that professional communicative competence is not just language proficiency, but the ability to apply it correctly within the framework of professional activity. It includes linguistic knowledge, pragmatic adaptation, communication strategies, and personal qualities to ensure the effectiveness of communication. In the modern educational system, the development of this competence serves to cultivate professionals who are ready for professional growth and communication at the international level.

Professional communicative competence is a complex system that expresses the ability of a specialist to conduct effective communication within the framework of professional activity. It covers not only linguistic knowledge, but also pragmatic, sociocultural and cognitive components. Below is a detailed overview of the main distinctive features of this competence.

First, the use of language tools in a professional context is not limited to simple general language proficiency. The professional must have the skills to correctly apply terminology related to his field, to use professional lexicon and to write and speak in accordance with the grammar and syntactic structure adopted in the field. This leads to the formation of specific forms of speech in various fields, such as medicine, law, economics, engineering. For example, in the field of law, the formal-legal style prevails, while in the field of journalism, news discourse plays an important role.

Secondly, professional communicative competence requires the resolution of speech tasks in accordance with the professional environment. The specialist should be able to effectively communicate in written and oral forms during his working career. For example, if a specialist in the field of Commerce needs to negotiate with international clients, present

his projects or prepare a report, an educator in the field of education should write scientific articles, establish an interactive dialogue with students during the course of the lesson. Thus, professional communicative competence involves speech tasks corresponding to a specific profession.

Thirdly, the importance of cultural competence is growing. In the context of globalization, international cooperation and intercultural dialogue are gaining importance. Therefore, a specialist with professional communicative competence must have the ability to correctly express his thoughts within the framework of international cooperation, communicate taking into account the cultural context, and conduct a correct and sincere conversation with representatives of different cultures.

Fourth, communication based on discursive analysis is one of the main features of professional communicative competence. This means that in the process of communication, a specialist must take into account such factors as speech genres, text consistency, context-sensitive analysis and adaptation. For example, a scientific article written in the academic field is distinguished by its specific structure, method of making arguments, stylistic features and linguistic norms. Also in the business sector, commercial correspondence, advertising texts and official documents have different genres, each of which requires a specific analysis approach.

RESULTS. Professional communicative competence comes to the surface precisely in the harmony of these. This cannot be limited to simple lexicon and grammar when teaching competence – the student will need to create a realistic context of professional communication, work on the text, analyze vocabulary based on Corpus, practice communication based on interactive methods. At the same time, this competence – requires new methodological approaches from teachers too. Because today the goal of learning a foreign language is not to pass the grammar exam, but to be ready for global Communication in professional activities.

In CONCLUSION, professional communicative competence is a set of skills necessary for a modern specialist. It covers not only linguistic knowledge, but also communicative, sociocultural and pragmatic aspects. In order to conduct effective communication during professional activities, a specialist must correctly perform the corresponding speech tasks, know the terms related to his field, apply the correct strategies in intercultural communication and follow the rules of professional discourse. Therefore, the development of professional communicative competence remains one of the important tasks of the educational system.

REFERENCES:

1. Kudrina E.A., Chudinov A.P. Formation of intercultural competence through gaming technologies in English lessons (initial stage) // Pedagogical education in Russia. 2017. No. 1. P. 65–69.
2. Soboleva A.V., Obdalova O.A. Cognitive readiness for intercultural communication as a necessary component of intercultural competence // Language and Culture. 2015. No. 1 (29). pp. 146–155.
3. Guzeev V.V. Educational technology: from admission to philosophy. M. : September, 1996. 112 p.
4. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin. 269-293-p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 398.2

SEHR, MAROSIM VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi professori

MAGIC, CEREMONY AND ITS PLACE IN SOCIETY

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna, Professor of the Department of “Uzbek Language and Literature” of Tashkent University of Applied Sciences

МАГИЯ, ЦЕРЕМОНИЯ И ИХ МЕСТО В ОБЩЕСТВЕ

Рахмонова Махбуба Равшановна, профессор кафедры “Узбекский язык и литература” Ташкентского университета прикладных наук

https://orcid.org/0009-0006-2422-799X
e-mail: rahmonova@gmail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sehr, marosim va madaniyat nazariyalari kontekstida afsonalarning o‘rni tahlil qilinadi. Sehrning jamiyatdagi roli, marosimlarning tuzilishi va ularning ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, madaniyatshunoslik va antropologiya fanlarida afsonalarning qanday talqin qilinishi yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sehr, marosim, madaniyat, afsona, mifologiya, antropologiya, funktsionalizm, strukturalizm, psixoanaliz.*

Аннотация: *В этой статье анализируется роль мифов в контексте теорий магии, ритуалов и культуры. Будет освещена роль магии в обществе, структура ритуалов и их социальное значение, а также то, как интерпретируются мифы в культурологических и антропологических науках.*

Ключевые слова: *магия, ритуал, культура, миф, мифология, антропология, функционализм, структурализм, психоанализ.*

Abstract: *This article analyzes the role of myths in the context of theories of magic, ritual and culture. The role of magic in society, the structure of rituals and their social significance are highlighted, as well as how myths are interpreted in the disciplines of cultural studies and anthropology.*

Key words: *magic, ritual, culture, myth, mythology, anthropology, functionalism, structuralism, psychoanalysis.*

KIRISH. Sehr, marosim va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik uzoq tarixga ega bo‘lib, turli nazariyalar orqali izohlangan. Bu tushunchalar ko‘pincha afsonalar va mifologik tasavvurlar bilan uyg‘unlashgan holda jamiyatlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu maqolada sehr, marosim va madaniyat nazariyalari kontekstida afsonalarning o‘rni tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Sehr qadimdan inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Sehrga bo‘lgan ishonch turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, u jamiyatlarning diniy va marosimiy amaliyotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Sehr tushunchasi ko‘pincha quyidagicha izohlanadi:

Simvolik sehr – ayrim marosimlarda maxsus ramzlar, belgilar yoki so‘zlar orqali ta’sir o‘tkazish.

Amaliy sehr – muayyan natijaga erishish uchun maxsus usullar qo‘llanadigan sehr turi.

Tabiiy sehr – tabiat hodisalarini tushuntirish yoki boshqarish maqsadida bajariladigan marosimlar.

Sehr qadimdan jamiyatda quyidagi vazifalarni bajargan:

Diniy va ma’naviy asos – Ko‘plab dinlar va mifologiyalarda payg‘ambarlar, avliyolar va ruhoniylar sehrga oid bilimlarga ega bo‘lgan deb hisoblangan.

Ijtimoiy tartibni saqlash – Sehr ko‘pincha axloqiy me’yorlarni mustahkamlash uchun qo‘llanilgan (masalan, jodugarlik bilan bog‘liq jazolar orqali qo‘rqitish).

Psixologik ta’sir – Sehr odamlarning umid va qo‘rquvlarini boshqarishga yordam bergan. Masalan, xalq tabobati va shifo marosimlari orqali shifokorlik rivojlangan.

Folklor va san’at – sehr ertaklar, dostonlar va folklorning ajralmas qismiga aylangan (masalan, “O‘tkan kunlar” romanidagi sehrli obrazlar).

Sehrning afsonalar bilan bog‘liq jihatlari shundaki, ko‘plab mifologik qahramonlar yoki diniy shaxslar sehrli kuchlarga ega sifatida tasvirlanadi. Masalan, qadimgi Misr mifologiyasida sehr xudolar tomonidan insonlarga berilgan bilim sifatida qaralgan bo‘lsa, Yevropa xalqlari ertaklarida sehrgarlar va jodugarlar muhim rol o‘ynaydi.

Sehr, marosim va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro aloqasi qadimgi davrlardan buyon jamiyat hayotining muhim qismi bo‘lib kelgan. Bu bog‘liqlik turli falsafiy va antropologik nazariyalar orqali izohlangan.

1. Mifologik va diniy nuqtayi nazar

Qadimgi jamiyatlarda marosimlar va sehr orqali insonlar tabiat hodisalarini tushuntirishga harakat qilishgan.

Afsonalar marosimlarning muqaddasligini asoslash uchun yaratilgan. Masalan, ko‘plab dinlarda ibodat va qurbonlik marosimlari afsonaviy voqealar bilan bog‘langan.

2. Antropologik nazariyalar

Funktsionalizm (Bronislaw Malinovskiy) – sehr va marosimlar jamiyat ichida ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Strukturalizm (Claude Lévi-Strauss) – sehr va marosim inson tafakkurining asosiy naqshlarini aks ettiradi.

Psixoanaliz (Sigmund Freud va Carl Jung) – sehr va mifologik obrazlar insonning ongsiz hissiyotlari va qo‘rquvlarining ramziy ifodasidir.

3. Madaniy rivojlanish va marosimlarning roli

Har bir madaniyatda marosimlar ijtimoiy qoidalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sehr va afsonalar orqali qadimiy urf-odatlar avloddan-avlodga o‘tib, madaniy merosning asosiy qismiga aylanadi.

Marosimlar ijtimoiy tartibni saqlash, odamlarni birlashtirish va ularning e’tiqodlarini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Marosimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tuzilmalilik – har bir marosim muayyan qoidalar va bosqichlarga ega.

Ramziylik – marosimlar ko‘pincha ramzlar orqali ma’no kasb etadi.

Ijtimoiy o‘zaro aloqadorlik – jamoani birlashtirish, hamkorlik va birdamlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab afsonalar aynan marosimlarning kelib chiqishini izohlash yoki ularning ilohiy manbadan kelib chiqqanligini asoslash uchun yaratilgan. Masalan, hinduizmda diniy marosimlar muqaddas matnlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kelib chiqishi afsonalar orqali asoslantiriladi.

Madaniyatshunoslik va antropologiyada afsonalar madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Turli nazariyalar afsonalarning turlicha rol o‘ynashini ta’kidlaydi:

Funksionalistik yondashuv – afsonalar va marosimlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishini mustahkamlashga xizmat qiladi (Bronislaw Malinovskiy).

Strukturalistik yondashuv – afsonalar inson tafakkurining asosiy naqshlarini ifodalaydi (Claude Lévi-Strauss).

Psixoanalitik yondashuv – afsonalar inson ruhiyatining ongsiz qatlamlaridan kelib chiqadi (Sigmund Freud va Carl Jung).

Sotsial-konstruktivistik yondashuv – afsonalar va marosimlar ijtimoiy tajriba natijasida shakllanib, jamiyatning qadriyatlarini aks ettiradi.

Sehr va marosimlar qadimiy madaniyatlarning ajralmas qismi bo‘lsa-da, ularning

TAMADDUN NURI

ta'siri bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Diniy marosimlar – cherkov, masjid va ibodatxonalar faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Folklor va urf-odatlar – xalq an'analari va bayramlarda sehr va marosim unsurlari ko'rinadi.

Ezoterik va mistik harakatlar – sehrga oid e'tiqodlar va amaliyotlar ko'plab zamonaviy mistik guruhlarda saqlanib qolgan.

Ommaviy madaniyat va kino – sehr va marosimga oid motivlar filmlar, kitoblar va o'yinlarda keng tarqalgan.

XULOSA. Sehr, marosim va madaniyat bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lib, afsonalar bu bog'liqlikni mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. Afsonalar orqali marosimlarning kelib chiqishi tushuntiriladi, sehrning madaniyatdagi o'rni asoslanadi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari mustahkamlanadi. Shu sababli, afsonalar madaniyat nazariyalarining muhim elementi sifatida o'rganilishi lozim. Zamonaviy dunyoda ham sehr va marosim tushunchalari turli shakllarda namoyon bo'lib, ular jamiyatning qadriyatlari va e'tiqodlarining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Malinowski, B. (1948). Magic, Science, and Religion and Other Essays. Free Press.
2. Lévi-Strauss, C. (1958). Structural Anthropology. Basic Books.
3. Freud, S. (1913). Totem and Taboo. Routledge.
4. Jung, C.G. (1959). The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press.
5. Eliade, M. (1958). Rites and Symbols of Initiation. Harper & Row.
6. Frazer, J.G. (1890). The Golden Bough. Macmillan.
7. Durkheim, E. (1912). The Elementary Forms of the Religious Life. Allen & Unwin.
8. Turner, V. (1969). The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. Aldine.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 130.2

ESTETIKA VA METAETIKANING BADIIY USLUBLAR RIVOJLANISH DINAMIKASI

Sunnatov Tohir Ravshanbekovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

DYNAMICS OF THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC STYLES OF AESTHETICS AND METAETHICS

Sunnatov Tohir Ravshanbekovich, teacher of the "Interfaculty Social Sciences" department of Chirchik State Pedagogical University

ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СТИЛЕЙ ЭСТЕТИКИ И МЕТАЭТИКИ

Суннатов Тохир Равшанбекович, преподаватель кафедры "Межфакультетские общественные науки" Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0009-003-5484-0128
e-mail: t.sunnatov@cspu.uz

Annotatsiya: *Estetika va uning zamonaviy tendensiyadagi o'rni yoritib berildi. Bunda badiy uslub va estetik nazariyalarning qiyosiy tahlili o'rganildi. Globallashuv davrida etika va estetikaning ahamiyati muhim hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *estetika, etika, metaetika, badiy uslub, rivojlanish dinamikasi, globallashuv.*

Abstract: *Aesthetics and its role in modern trends were explained. A comparative analysis of artistic style and aesthetic theories was carried out. In the era of globalization, ethics and aesthetics are important.*

Key words: *aesthetics, ethics, metaethics, artistic style, dynamics of development, globalization.*

Аннотация: *Объяснялась эстетика и ее роль в современных тенденциях. Проведен сравнительный анализ художественного стиля и эстетических теорий. В эпоху глобализации важны этика и эстетика.*

Ключевые слова: *эстетика, этика, метаэтика, художественный стиль, динамика развития, глобализация.*

KIRISH. Metaetikaning mazmun-mohiyatini tushunish bugungi kundagi texnologik ta'lim oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Metafalsafa va axloq, metaetika – axloqiy hukmning tabiati, ko'lami va ma'nosini o'rganadigan fan. Bu odatda faylasuflar tomonidan o'rganiladigan axloqning uchta tarmog'idan biri bo'lib, qolganlari me'yoriy etika (qanday bo'lish va qanday harakat qilish kerakligi haqidagi savollar) va amaliy axloq (berilgan, odatda bahsli vaziyatlarda to'g'ri xatti-harakatlarning amaliy savollari).

MUHOKAMA. Normativ etika "Nima qilishim kerak?" kabi savollarga, muayyan amaliyot va harakat tamoyillarini baholasa, metaetika "Yaxshilik nima?" kabi savollarga javob beradi. Me'yoriy nazariyalar asosidagi taxminlarni tushunishga intilib, "Yaxshi nimadan yomonni qanday ajratish mumkin?" Yana bir farq shundaki, me'yoriy axloq birinchi darajali yoki mazmunli savollarni o'z ichiga oladi, metaetika esa ikkinchi darajali yoki rasmiy savollarni o'z ichiga oladi[4].

Nafosat talabi shaxs axloqiy nafosat tizimlari merosiga hamda aqliy-hissiy harakatlari har xil ko'rinishlar hosil qiladi, asosan nafosat prinsiplari to'plangan ko'rinishda tasvirlangan sohaga qiziqishda ifodalanadi. Nafosat talabi shundaki, shaxs ongli tarzda nafosat qadiryatlarining hamda tizimlarining hamma etaplarini aqlan-hissan

birikkan harakatiga bo‘lgan kamchiliklari nafosat-estetik harakatning har xil ko‘rinishlarda, ayniqsa amaliy san’at sohalarida yuzaga chiqadi, bu talablarni bajarish turlari ma’lum mintaqaviy, milliy mentalitet, axloq hamda qadiryatlar ta’sirida rivojlanib kelmoqda. Demak, u yoki bu jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichida uning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy hayot omillarini aniqlash natijasida xarakter, estetik ehtiyojning kishilar hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risidagi masalani hal etish mumkin.

Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat, uning jonli mavjudot sifatida ongli hayot kechirishining muayyan shart-sharoitlarga tobeligini ifoda etuvchi ta’limot. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan ham mohiyatan, ham shaklan farqlanib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o‘z ifodasini topadi. Lekin insonlarning faolligi manbai hisoblangan ehtiyojlar biologik shartlanganidan tashqari, moddiy va ma’naviy ma’no-mohiyat kasb etadi. Odamning ehtiyoji unga ta’lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya’ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tarbiya, ko‘nikma, malaka, odat, ma’naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Inson boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruratga binoan qayta o‘zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli mavjudotdir.

“Estetik ehtiyoj” mavjudligining eng muhim sababi – bu shaxsning ma’naviy o‘sishiga, shaxsiyatning makonini kengaytirishga bo‘lgan genetik zaruratdir. Kundalik hayotda his-tuyg‘ularga yorqin taassurot qoldirmaydigan yorqin ma’naviy tajribalarning yetishmasligi, uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Tajribaga bo‘lgan ehtiyojni nafaqat san’at asarlari bilan muloqot qilish va ularni yaratish orqali, balki turli xil o‘yinlarda – ko‘ngilochar, o‘quv, sportda qatnashish orqali ham qondirish mumkin. Hayotdagi ajablanish va oldindan aytib bo‘lmaydigan tasodif har doim juda ko‘p his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Estetik ehtiyojlar asosan ko‘rish va eshitish orqali, tabiat go‘zalligini, uning tabiiy shovqin va tovushlarini idrok etish orqali qondiriladi. Badiiy asarlarda – rang va chiziqlarda, shakl nisbati va nisbatlarida, tovushlar garmoniya va tembrlarida ifodalangan badiiy obrazni idrok etish va tajriba qilish orqali. San’at voqelikni tushunchalar, mulohazalar va mantiqiy xulosalar orqali bilish bilan bog‘langan ilmiy bilimdan shu narsa bilan farq qiladi.

L.Tolstoyning asarlaridan birida “San’at nima?’’ maqolasida bu ma’noni quyidagicha ochib beradi: “Bir paytlar boshidan kechirgan tuyg‘uni o‘zida uyg‘otish va uni o‘zida uyg‘otgan holda, harakatlar, chiziqlar, ranglar, tovushlar, so‘zlar bilan ifodalangan tasvirlar orqali yetkazish. Bu tuyg‘u boshqalar ham xuddi shunday tuyg‘uni boshdan kechirgan tarzda – bu san’at faoliyatida yuzaga kelishining omili ekanligi muhimdir. San’at – bu inson faoliyati bo‘lib, u bir kishi ongli ravishda, ma’lum tashqi belgilar orqali o‘zi boshdan kechirgan his-tuyg‘ularini boshqalarga etkazishi, boshqa odamlar esa bu his-tuyg‘ularni yuqtirishi va ularni boshdan kechirishidir”[1; 67].

Insonlar amaliy hamda ruhiy-hissiy sohasi bo‘lmish san’at sohasida ilmiy-badiiy yo‘nalishni qadimdan rivojlantirib, ideologik jihatlari bilan hamohang badiiy prinsiplarini ijtimoiy ajratgan tarzda faoliyat olib borgan. Mutafakkir-ijodkorlar ishlanmasini to‘plagan xususiyat san’atshunoslik uyushmalari hamda janrdir. Buni biz umumiylik ko‘proq yoki uni keltirib chiqaradigan san’at shakllarining kamroq barqaror va bir xil tizimli ekanligini anglaymiz.

Madaniy taraqqiyot jarayonida uslubiy umumiyliklar soni ortib bordi, shu bilan birga asarlar tuzilishi va umuman badiiy jarayonning murakkablashuvi, boshqa madaniy hodisalar bilan ham farqlari, ham umumiyliklari ortib bordi.

NATIJALAR. Shunday qilib, uslub tipologik yaxlitlik, badiiy dunyoni tashkil etish tamoyili, asarning generativ dasturi, estetik zavq manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Uslub eng yuqori darajadagi orginallik va yaxlitlikka ega bo‘lgan san’at sintezida bog‘lovchi elementlardan biri bo‘lib xizmat qiladi; bir xil uslubda san’at turlari va janrlari yaqin aloqada. Uslub nafaqat zamonaviy hayotni aks ettiradi, balki jahon san’atining tarixiy zanjirining buyuk bo‘g‘ini sifatida ham kiritilgan. Madaniyatning uslub doirasidagi rivojlanish jarayonida turli yo‘nalishlar raqobati yuzaga keladi. Bu mavjud uslubdagi tub o‘zgarishlarga va yangisining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Yo‘nalish – dunyo va inson haqidagi g‘oyalar tizimi, madaniyatning stilistik xususiyatlari. Aynan yo‘nalish jahon badiiy taraqqiyoti ko‘lami bo‘yicha qiyosiy-tarixiy umumlashmalarni amalga oshirish va

turli xalqlar madaniyatida rivojlanish bosqichlarining yagona ketma-ketligini, kontseptual va uslubiy paradigmalarning o‘zgarishi va kurashini aniqlash imkonini beradi. Uslubning o‘zgarishi ma’lum bir madaniyatning ijtimoiy va mafkuraviy va semantik tizimidagi chuqur o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Bunday o‘zgarishlar nasroniylikning paydo bo‘lishi (roman va gotika uslubi), islohot va absolyutizm jarayoni 30 (klassitsizm, barokko, romantizm), burjua ideallarini (realizm, naturalizm) tasdiqlash, modernizmning postmodernizmga aylanishi.

Davrning stilistik birligi me’morchilik va amaliy san’atda eng yorqin namoyon bo‘ladi. Arxitektura va san’atdagi uslub odatda jamiyatning hukmron mafkurasi dunyoqarashi bilan sug‘orilgan badiiy ifoda vositalari va usullarining umumiyligi deb ataladi. Har bir davrning uslubiga turli omillar ta’sir ko‘rsatdi: g‘oyaviy-estetik qarashlar; materiallar va qurilish texnikasi; ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi; kundalik ehtiyojlar va badiiy shakllar. Arxitektura kompozitsiyasining birligi ma’lum bir davr san’atiga xos xususiyatlarning uyg‘unligi bilan yaratilgan uslub birligini nazarda tutadi. Uslub birinchi muhim hodisa sifatida qadimgi sivilizatsiyalarda (Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy) hukmronlik qilgan diniy, estetik va mafkuraviy me’yorlarga muvofiq shakllangan. Turli tarixiy davrlarda uslub san’atning muayyan turlarida maxsus amalga oshirilib, u o‘zining tipik xususiyatlarini u yoki bu darajada san’atdagi mazmun va shakl o‘rtasidagi munosabatda namoyon etadi. Har bir yangi davr bilan san’atning stilistik rivojlanishi ortib borayotgan murakkablashuvga, mahalliy, mintaqaviy maktablarning o‘zaro ta’siriga va u bilan namoyon bo‘ladigan badiiy an’analarga mos keladi. Har bir uslub o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, milliy uslub doirasida muallif shaxsi xususiyatlarini, asarning badiiy konsepsiyasining yaxlitligini, madaniyatning tarixiy an’analarini aks ettiruvchi alohida rassomlarning qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, unda rassom ishi asoslanadi.

Arxitektura ham butun madaniyatni aks ettiradi. Alohida xalqlar hayoti, uning yodgorliklari eng ko‘zga tashlanadigan bosqichdir. Xalqlarning yashash davrlari to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi. Arxitekturaga berilgan ta’rif shundayki, bu uslub san’atidir.

Badiiy funksiya: asarlar yig‘indisining ideologik qarashlar bilan bog‘liq holda nafosat turlari bilan bog‘lanishi, hamda g‘oyaviy-estetik xususiyatlariga ko‘ra birlashtirilishi mumkin. G‘oyaviy-estetik xususiyatlar bo‘yicha qiyosiy xarakteristikalar va umumlashmalarni amalga oshirishingiz mumkin bo‘lgan jahon badiiy jarayonining darajasi hisoblanadi. Badiiy harakatlar o‘ziga xos ko‘rinishlarni birlashtiradi, ularning badiiy tili yaqinida badiiy ijodda yuzaga chiqadi. Xuddi shu oqimga mansub rassomlar birgalikda qaror qilishadi. Oqim ko‘pincha hodisa bilan birga keladi, ijodkorlikni osonlashtiradigan tashkiliy tuzilmalar rassomlar asarlarida namoyon bo‘ladi[3;1-4].

XULOSA. Ayrim nazariyotchilarning ta’kidlashicha, axloqning metafizik bayoni haqiqiy axloqiy nazariyalarni to‘g‘ri baholash va amaliy axloqiy qarorlar qabul qilish uchun zarur. Boshqalar qarama-qarshi asoslardan kelib chiqadi va to‘g‘ri xatti-harakatlar to‘g‘risidagi axloqiy mulohazani o‘rganish bizni axloqning tabiati to‘g‘risida haqiqiy ma’lumotga olib kelishini taklif qiladi. Bu esa estetik anglash va badiiy uslub rivojiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Л.Толстой. Что такое искусство. М.–С. 67. https://tolstoy.ru/online/online-publicism/chto-takoe-iskusstvo/index.xhtml
2. Akhatov, Lutfillo. The Spiritual Connection of Sufism and Tolerance in the Works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications* 2 (2020): 1-4. Web. Apr. 2020.
3. Akhatov, L. (2020). The spiritual connection of Sufism and Tolerance in the works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications, 1*(2), 1-4.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 811.512.133

BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA KO‘CHIMLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

[1]Masharipov Mansurbek Masharipovich, Urganch innovatsion universiteti prorektori, dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
[2]Karimova Gulbahor Narimonovna, Urganch innovatsion universiteti magistranti

LEXICAL FEATURES OF FIGURATIVE MEANINGS IN BEHBUDIY’S PUBLICISM

[1]Masharipov Mansurbek Masharipovich, Prorector of Urganch innovation university, Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
[2]Karimova Gulbahor Narimonovna, Master’s student at Urganch innovation university

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕНОСНЫХ ЗНАЧЕНИЙ В ПУБЛИЦИСТИКЕ БЕХБУДИ

[1]Машарипов Мансурбек Машарипович, проректор Ургенчского инновационного университета, доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
[2]Каримова Гульбахор Наримоновна, магистрант Ургенчского инновационного университета

https://orcid.org/0009-0001-6582-6239
e-mail: mansurbekmasharipov@urgiu.uz

https://orcid.org/0009-0002-1579-1506
e-mail: karimovagulbahor@urgiu.uz

Annotatsiya: *Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasidagi leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi davrning asosiy intilishlarini, jadidlarning maqsad va g‘oyalarini ifodalashga yo‘naltirilganligi hamda an’anaviy poetik so‘zlarni yangi ma’nolarda qo‘llashga olib kelganligi tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *hosila ma’no, leksik-semantik munosabat, ma’no ko‘chishi, tasviriy vosita, hissiy-ta’siriy bo‘yoq, kinoya, adabiy me’yor, bosh ma’no, metafora.*

Abstract: *The use of lexemes in figurative meanings in Mahmud Khoja Behbudiy's publicism is analyzed, showing that it was directed toward expressing the main aspirations of the era, the goals and ideas of the Jadids, and led to the use of traditional poetic words in new meanings.*

Key words: *derived meaning, lexical-semantic relationship, meaning shift, figurative device, emotional-expressive connotation, irony, literary norm.*

Аннотация: *Анализируется употребление лексем в переносном значении в публицистике Махмуда Ходжи Бехбуди, показывающее, что оно было направлено на выражение основных устремлений эпохи, целей и идей джадидов и привело к использованию традиционных поэтических слов в новых значениях.*

Ключевые слова: *производное значение, лексико-семантическая связь, смысловой сдвиг, образный прием, эмоционально-экспрессивный оттенок, ирония, литературная норма.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Badiiy nutqdagi kabi publitsistik nutqda ham hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli metafora vositasi sanaladi. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. *Metafora* nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishidir. Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi: 1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi; 2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi. Demak, birinchi holatda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holatda esa birinchisining atamasidir[1].

Ma'lumki, publitsistik nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan birini unda so'zlarning xilma-xil ko'chma, ramziy hamda okkazional ma'nolarda qo'llanishi tashkil etadi. Bu bilan publitsistik nutqning badiiyati ta'minlanadi. Darhaqiqat, til birliklarining semantik tabiatidagi eng muhim halqa sanaladigan leksema va iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali boshqa funksional uslub janrlari qatorida publitsistik uslubga xos matnlarning ham obrazlilik, tasviriylik imkoniyatlari ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Lisoniy sathda leksemalarning semantik tabiatidagi o'zgarishlar ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi tarzida sodir bo'ladi. Bunda leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi o'laroq ham qo'llanadi va har bir tushuncha uchun alohida semema to'g'ri keladi. Natijada bitta so'z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi o'laroq hosila ma'no tarzida tilda voqelanadi. Hosila ma'no bosh ma'no nima asosida ko'chishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi turlarga bo'linishi fanda ma'lum.

Ko'chma ma'no hosil qilishning keng tarqalgan bu usuli o'zlari yashab kelayotgan har bir milliy til qadar qadimiydir. Bu usul xalq og'zaki ijodida, mumtoz adabiyotda ham ilgaridan mashhur bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotda metafora *majoz* nomi bilan yuritilgan va u bilan yonma-yon tarzda *istiora* atamasi ham keng qo'llangan. Tilda va badiiy nutqda qo'llanishiga ko'ra metaforani ikki turga ajratish mumkin: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi [2]. Professor S.Usmonov til metaforasi va badiiy metaforaning o'zaro farqlanishini quyidagicha izohlaydi: "Badiiy adabiyotda metafora o'xshatishning qisqargan formasi bo'lib, predmetning nomi vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda so'z shu nutqiy parchada ilgari hech qanday anglatmagan predmet yoki hodisani ifodalaydi. Metafora predmetning doimiy nomi bo'lib qolgandagina tilshunoslik fani tekshiradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bunday metafora umumxalq tiliga xos, badiiy metafora esa yozuvchining individual usuliga xosdir"[3].

MUHOKAMA. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida o'xshatish asosida so'zlarni yangi ma'noda qo'llar ekan, ularning ko'chma ma'nolarini ma'rifat, ilm, bilim olish g'oyalari mazmuniga bo'ysundiradi, mana shu mavzuga bog'liq yangicha talqin qiladi. Bu jihatdan, ayniqsa, **uyqu, xob** so'zlarining qo'llanishi xarakterlidir. Adib bu so'zlarning *"ongsizlik", "qoloqlik", "ma'rifatsizlik", "loqaydlik"* kabi ma'nolarini berish uchun bu so'zning ko'chma ma'nosidan mohirona foydalangan: *"Demakki, hanuz xalqimiz* ***xob, uyquda*** *bo'lib, o'z nafi va zarari uchun qayg'urmay, bolta kelguncha kundadek yotadur".*

Mustaqillik yillarida tildagi mazkur hodisa tadqiqiga bag'ishlangan yangicha yondashuvdagi ilmiy asarlar ham yuzaga keldi. Bu o'rinda G.Qobuljonova, A.Xo'jamqulov, D.Xudayberganova, D.Rustamova, A.Yuldashev, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimovalar ishlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Jumladan, tadqiqotchi A.Xo'jamqulovning metaforalarni

[1] Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – Б. 127.

[2] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 151 б.

[3] Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. №4, – Б. 34-39.

tasniflashdagi yondashuvi ham o‘ziga xoslik kasb etadi:1) antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo‘lgan (tana a’zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora, *oyoq, qo‘l, og‘iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa* kabi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi; 2) zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a’zolari nomini ifodalagan leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi, bu turga *bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, qo‘y, mol, shox, dum, qanot* kabi leksemalarning metaforik ma’no hosil qilishi kiradi; 3) fitomorfik metafora. Bu daraxt, o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma’nosining ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan metafora *g‘uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak* kabi leksemalarning metaforik ma’noda qo‘llanishi bunga misol bo‘ladi.

NATIJALAR. “Bulbul” so‘zi o‘tmish she’riyatida o‘z nominativ ma’nosidan tashqari *“xushovoz”, “xushovoz shoir”; “aniq”; “jon”; “did”* kabi ma’nolarni anglatgan. Hozirgi tilda uning *“xushovoz xonanda”, “oshiq”, “xushtor”* ma’nolari saqlangan. Behbudiy **bulbul** so‘zidan – *“o‘zgarish”, “yangilanish”* kabi metaforik ko‘chma ma’nolarda mohirlik bilan foydalanadi: *“Bovujud shul ilmi diniy va axloqi madaniydan Turkistonda* ***bulbullar*** *chah-chah qilurlar”*[4]. Adib ma’rifatga intilmaydigan, jaholat iskanjasidagi kishilarni g‘aflatdagi insonga o‘xshatadi va ularni *“bulbuli g‘ofil”* deb ataydi: *“Maktab va madrasalarning usul ta’limini isloh qilmak kerakligini bu* ***bulbuli g‘ofillar*** *ochuq tushunmaydurlar”.*

Kengaygan metaforalarning ma’no ifodalash xususiyati metafora birikkan so‘zning semantik tabiatiga ham bog‘liq bo‘ladi: a) agar metaforik ma’no ifodalayotgan so‘zga birikkan so‘z aniq tushunchani ifodalasa, kengaygan metaforaning ma’nosi ham aniq bo‘ladi; b) metaforik ma’no ifodalayotgan so‘zga birikkan so‘z abstrakt ma’no ifodalasa, kengaygan metafora ham mavhum tushunchani ifodalaydi[5].

Keyingi yillardagi tilshunoslikda til birliklarining antropotsentrik tadqiqining natijasi sifatida metaforalarga bevosita insonning ichki va tashqi sifatlari bilan bog‘liq hodisa sifatida qaralishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda metaforalar qanchalik rang-barang bo‘lmasin, uning markazida inson turishi ta’kidlanadi. Antropotsentrik g‘oyalarni o‘zbek tilshunosligiga ilmiy jihatdan tom ma’noda to‘g‘ri, mohiyatini teran anglatib olib kirgan tilshunos olima D.Xudayberganova zamonaviy metaforologiyaning g‘oyalariga uyg‘un holda, metaforadagi antropotsentrik tabiatga urg‘u beradi[6].

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilliklaridan boshlab metaforalarning lingvistik jihatdan o‘rganish ishlari boshlandi. O‘zbek adabiy tili, uning funksional uslublari matnida qo‘llanuvchi bu hodisaning mazmun-mohiyati, yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, adib publitsistikasida sifat leksemalar o‘z denotativ ma’nolari ustiga qurilgan metaforik ko‘chim asosida matn tarkibida konnotatsiyani yuzaga keltirishda faol ishtirok etgan. Publitsistik matnda metaforik yo‘l bilan yuzaga kelgan konnotativ jarayon o‘quvchining aytilmoqchi bo‘lgan fikrni to‘laqonli tushunishiga imkoniyat yaratgan.

Tadqiq qilinayotgan publitsistik asarlar tilining xalqchillashuvi, xalq tiliga yaqinlashuvida talab va ehtiyojga ko‘ra fe’llar – ish-harakatni, uning xususiyatlarini ifoda etuvchi leksikaning faollashuvi kuzatildi. O‘zbek mumtoz adabiyoti asarlari tili kuzatilsa, unda ko‘proq oshiq-ma’shuqlarning turli harakati, psixik holati va intim intilishlari bilan bog‘liq fe’llarning ishlatilganini ko‘ramiz. Publitsistik asarlar tilining xalqchillashuvi unda qo‘llaniladigan fe’llar ma’no doirasining kengayishiga yo‘l ochgan. M.Behbudiy maqolalarida fikr, mazmun talabiga ko‘ra turli harakat, holat ifodalovchi fe’llardan, ularni metaforik usulda ko‘chma ma’nolarda qo‘llash usulidan mohirona foydalangan.

XULOSA. Umuman olganda, metaforalar har bir xalqning mentalligini, milliy ongini, badiiy tasvir vositasini, diniy-dunyoviy tafakkur tarzini o‘zida yaqqol namoyon qiladi hamda xalq madaniyati bilan uzviy aloqada va rivojlanishda mavjud bo‘ladi. Ma’rifatparvar adibning publitsistik mahorati ma’no ko‘chish yo‘llarining eng

[4] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. –Б.365. Бундан кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди ва манба саҳифаси қавс ичида кўрсатилди.

[5] Умурқулов Б. Поэтик адабиёт ва унинг шеърий нутқдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1980. №6. – Б.39.

[6] Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Фил. фан. д-ри. дисс. – Тошкент: 2013. – Б. 74–80.

sermahsuli – metaforalarni qo‘llashida namoyon bo‘lar ekan, bu holat uning badiiy tafakkuri yuksakligidan, tildagi grammatik tushunchalarni anglash ko‘nikmasining yuqoriligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Умуркулов Б. Поэтик адабиёт ва унинг шеърий нутқдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1980. №6. – Б.39.
2. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. №4, – Б. 34-39.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Авазов С. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижодий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.
5. Саидов Ҳ. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.. – Тошкент, 2002.
6. Абдураҳмонов Ғ. Беҳбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 908

VOYANGAN QAL'ASINING O'RGANILISH TARIXIDAN

[1]*Abdirimov Razzoqberdi, Urganch innovatsion universiteti professori*
[2]*Abdirimov Feruzjon, Urganch innovatsion universiteti magistri*

FROM THE HISTORY OF THE BUILDING OF VOYANGAN FORT

[1]*Abdirimov Razzoqberdi, Professor of Urgench Innovation University*
[2]*Abdirimov Feruzhon, Master of Urgench Innovation University*

ИЗ ИСТОРИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ЗАМКА ВОЯНГАН

[1]*Абдиримов Раззокберди, профессор Ургенчского инновационного университета*
[2]*Абдиримов Ферузжон, магистрант Ургенчского инновационного университета*

https://orcid.org/0009-0001-0139-7121
e-mail: feruzbek@abdirimovgmail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Voyangan qal'asining eng qadimgi davrdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrdagi arxeologik jihatdan o'rganilishi tarixi, qal'a haqidagi o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlar hamda eng qadimgi shahar-qal'a bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Voyangan, Rait, Ardaxushmisan, Y.G'ulomov, M.Mambetullayev, G'.Xo'janiyozov, Yoqut Hamaviy, Istaxriy, Maqdisiy, Jurjoniya, Hamidulla Qazviniy.*

Abstract: *This article presents the history of archaeological research of Voyangan Castle from the earliest times to the Middle Ages, information about the castle in medieval sources, and conclusions about its possible existence as the oldest city fortress.*

Key words: *Voyangan, Rait, Ardakhushmisan, Y.Gulomov, M.Mambutullayev, G.Khojaniyozov, Yakut Hamavi, Istakhri, Maqdusi, Jurjaniya, Hamidulla Kazvini.*

Аннотация: *В статье рассматривается археологическая история крепости Воянган с древнейших времен до средневековья, сведения о крепости средневековых источниках и его статус как старейшего города-крепости.*

Ключевые слова: *Воянган, Раит, Ардахушмисан, Я.Ғулямов, М.Мамбетуллаев, Ғ.Хўжаниёзов, Ёкут Хамавий, Истахрий, Макдисий, Джурджония, Хамидулла Казвиний.*

KIRISH. Voyangan (Rait) shahar xarobasi Xorazm viloyati Shovot tumaniga qarashli Manoq qishlog'idan 1,5 kilometr janubiy-sharqda joylashgan. Ushbu yodgorlikni dastlab 1949–1951-yillarda Y.G'ulomov o'rgangan.

Yahyo G'ulomov shahar hayotini 2 bosqichga: Kushonlar davri (I-IV asrlar) va o'rta asrlar (IX-XIII asrlar)ga ajratgan. Arxeologlarning aniqlashicha, yodgorlikning rejalashtirilishi to'rtburchak shaklida, yer sathidan 2-3m balandlikda qurilgan. G'arbiy qism 280x360m. Sharqiy qism 320x220m dan iborat. Ya'ni shu tarhda yodgorlikning ichki tuzilishi jihatdan ikki qismga ajratilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, janubiy qismda yaxshi saqlanib qolgan devor va yarim aylanali burjlar qoldig'i ko'zga tashlanadi. Devor avval paxsadan, keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. Sharqiy tomonda yodgorlikning ikkinchi qismi joylashgan, uning hajmi 320x220. Shaharning g'arbiy tomoni 10 gektarni tashkil etgan. Milodiy V-IX asrlarda mudofaa devorining yuqori qismi, ya'ni uchinchi qurilish davrida paxsadevor qurilgan. Antik davrda paxsadevor balandligi 1metr, qalinligi esa 4 metr

bo‘lgan. Mudofaa devoriga tashqi va ichki tomonidan qo‘shimcha devor qurilmagan. Ilk o‘rta asrlarda yodgorlikning g‘arbiy va sharqiy qismlarida madaniy hayot davom etgan. Shahar hududi sharq tomon kengayib, IX-X asrlarga kelib umumiy maydoni 17 gektar bo‘lgan. Yodgorlikda arxeologik tadqiqotlarni olib borish imkoniyati mavjud emas, chunki hozirgi vaqtda mahalliy aholi tomonidan yodgorlik atroflari qabristonga aylantirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. 1973–1974-yillarda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi N.Davkarayev nomidagi Qoralpog‘iston bo‘limi tarix, til va adabiyot instituti keng arxeologiya guruhi Xorazm viloyati yodgorliklarini o‘rganish uchun arxeologlar M.Mambetullayev, N.Yusupov, M.Sh.Kdirniyazovlar tomonidan arxeologik izlanishlarni olib borgan davrida Voyangan qal’asida ham tadqiqotlar o‘tkazilgan.

MUHOKAMA. Qal’aning sharqiy qismi juda qadimiydir. Topilgan arxeologik materiallarga qarab fikr yurgizganda Voyangan (Rait) mustahkamlangan antik davrga oid bo‘lib, atrofi handaq bilan o‘rab olingan. Ushbu shaharni ta’mirlash, mustahkamlash ishlari VII–VIII asrlarda olib borilgan. Qal’ada hayot to mo‘g‘ullar istilosigacha to‘xtamay davom etgan[1].

Voyangan qal’asi devori qurilishida ham to‘rt tomoni teng xom g‘ishtlardan (40x40x10sm) keng foydalanilganligini ko‘ramiz. Qal’aning janubiy devori burchlarida yarim aylana shaklida saqlanib qolgan burjlar qoldig‘i ko‘zga tashlanadi [2].

Voyangan qal’asi arxeolog olim G‘.Xo‘janiyozov tomonidan mudofaa devori bilan o‘rab olingan arksiz shaharlar qatoriga kiritilmagan, hududi 17 gektarni tashkil qilgan. Bu shahriston hududi vohasidagi muayyan hudud markazi hisoblangan[3].

Yodgorlikning ustida rangsiz va rangli sirlangan sopol idishlarning parchalari, singan pishiq g‘ishtlar, singan shisha qoldiqlarini uchratish mumkin, janubiy-g‘arbiy tomonida o‘rta asrlarga, XII–XIV asrlarga oid bo‘lgan Qalmiq-Qirilgan qabristoni joylashgan bo‘lib, hajmi 0,5 gektardan iborat [4]. Qal’a janubiy devorida to‘rtburchak shakldagi, 40x41x9-11sm hajmidagi xom g‘ishtlar ishlatilganligi kuzatiladi.

Voyangan qal’asida olib borilgan qazish ishlari natijasida olingan arxeologik ashyolardan quyi qatlamlaridagi materiallar eramizning II – III asrlariga oid ekanligi ma’lum bo‘lib, aniqlangan kvadrat shaklidagi xom g‘ishtlar bizga ma’lumki, Xorazm shahar qal’alarining qurilishida mill.avv. V asrdan boshlab to eramizning VI asrlariga qadar qo‘llanilgan. Olingan ashyolar Voyangan qal’asining g‘arbiy qismida II-XIII asrlar boshida hayot mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tekshirishlar qal’aning sharqiy qismida odamlarning XII – XIV asrlarda ham yashaganligini ko‘rsatdi. Tadqiqotlar Voyangan qal’asi o‘rta asrlarda bir qancha qurilish davrini boshidan kechirganligini ko‘rsatdi. Quyi qatlamlardan olingan arxeologik ashyolar, yer osti suvlari yaqinligi tufayli eng pastki qatlamgacha qazish imkoniyatini bermagani hisobga olinsa, qal’a yuqorida ta’kidlangandan qadimiyroq davrga, ya’ni arxaik davrga oid bo‘lishi mumkin, degan fikrga kelish imkoniyatini beradi [5].

Voyangan shahar xarobasidan 280 metr janubda Shayx Hasan Sabroniy maqbarasi (XII-XIV asrlar) ham joylashgan [6].

Bu yerda Abdolbobo va Shayx Jaloliddin (XII-XIII asrlar boshi) nomi bilan ataluvchi tepachalar ham mavjud.

Tekshirib kuzatilib olingan manbalar asosida Ya.G‘ulomov hozirgi (Voyangan) shahri xarobalari o‘rta asrlardagi Ardaxushmisan bo‘lsa kerak, deya ta’kidlagan, ushbu fikrlarga tadqiqotchi-arxeolog, professor-olimlar M.Mambetullayev hamda M.Sh.Kdrniyazovlar ham o‘z tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib qo‘shiladilar. Izlanishlardan ma’lum bo‘lishicha deyarli barcha ushbu haqda so‘z yuritgan o‘rta asrlar mualliflari Ardaxushmisan haqida IX asrdan boshlab eslatib o‘tganlar. Voyangan qal’asidagi madaniy qatlamlar ham aynan antik davrdan boshlab to X-XIV asrlarga oid ekanligini ko‘rsatadi. O‘rta asrlardagi Ardaxushmisan chap qirg‘oq Xorazmdagi eng yirik shaharlardan biri sifatida yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lib, buyuk ipak yo‘lining karvon yo‘li tarmoqlari shu shahar orqali ham o‘tgan.

Voyangan qal’asi nomi “Go‘ro‘g‘li” dostonida ham tilga olinadi. Aynan Ardaxushmisan deya ataladigan davrlar haqida so‘z ketarkan, bu haqda ko‘pgina qo‘lyozma asarlarda ma’lumotlar mavjud.

Jumaladan, 992-yilda Xorazmda bo‘lgan arab elchisi Ibn Fadlon “Ardaxushmisan bozorlari Kat va Gurganj oralig‘ida joylashgan hamda Amudaryo bo‘yidagi shahar bo‘lib, unga suv yo‘li orqali boriladi”, deya yozgandi. “Hudud al-olam” asarida esa “Ardaxushmisan savdogarlarning to‘planish joyi” deya qayd etiladi. 1219-yilda Ardaxushmisan-

da bo‘lgan yana bir arab sayyohi Yoqut Hamaviy Ardaxushmisanni Suriyaning yirik shaharlaridan biri Nasibin bilan tenglashtiradi. Biroq sayyoh Ardaxushmisan shahrining Nasibindan ham ko‘ra Ardaxushmisanning muhtashamroq, bozorlari gavjum, mahsulotlari ko‘p, aholisi ko‘p, badavlat ekanligini” ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, Istaxriy va Maqdisiylar ham Ardaxushmisanni Xorazmdagi Kat va Gurganjdan keyingi yirik shahar sifatida o‘z asarlarida tilga olib o‘tishadi. “Katdan Jurjoniyagacha masofa 3 kunlik yo‘l, Xivadan Ardaxushmisangacha esa 1 kunlik yo‘l” deb ko‘rsatadi Istaxriy. Maqdisiy ham Xivadan Ardaxushmisangacha masofa 30 – 40 farsax bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, Hamidullox Qazviniy va Hoji Xalfalarning ma’lumotlariga ko‘ra, Gurganj bilan Ardaxushmisan oralig‘idagi masofa 14 farsax (84 – 112km) bo‘lgan. Ardaxushmisan orqali Xivani chetlab, to‘g‘ri Hazorasp bilan Gurganjni bog‘lovchi yo‘l ham o‘tgan. Hazorasp va Ardaxushmisan o‘rtasidagi masofa 16 farsaxdan iborat deb hisoblangan.

NATIJALAR. Ardaxushmisan o‘rnidagi hozirgi Voyangan yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni to‘la tasdiqlab, o‘rta asrlarda Ardaxushmisanning yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi[7]. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Voyangan qal’asi qurilishida ham kvadrat shaklidagi xom g‘ishtlarning keng qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz.

Antik davrga oid bo‘lgan Qalajiq qal’a yodgorligida ham mudofaa devorlari hamda shinaklarda 40x40x10sm, 44x44x13sm, 44x44x12sm; hajmda kvadrat shakldagi xom g‘ishtlar keng miqyosda ishlatganligini ko‘ramiz [8].

Tuproq qal’a yodgorligi Xorazm viloyati Shovot tumani hududida joylashgan. Mudofaa devorlarining ustki qismida ham qal’ani qurishda asosan kvadrat shaklidagi hajmli 40x40x10-11sm, 41x41x10-11sm bo‘lgan xom g‘ishtlar ishlatilganligini ko‘ramiz. Izlanishlarga ko‘ra ushbu maskan mill.avv. V asrga oid hisoblanadi [9].

Qadimgi Hazorasp qal’asi qurilishida ham asosan 40x40x10 sm; 42x42x10sm; 43x43x10sm; 44x44x10 sm; 45x45x10sm hajmdagi kvadrat shaklidagi xom g‘ishtlar ishlatilgan bo‘lib, g‘ishtlarning tag qismida to‘g‘ri chiziq, aylana, yarim aylana shaklidagi turli xildagi tamg‘a belgilar uchraydi.

Yuqorida hajmi ko‘rsatilgan xom g‘ishtlar Xorazmning bir qator qal’alarida: Ko‘zaliqir (25ga), Bozorqal’a (33 ga), Qal’aliqir (70ga), Xiva Ichan qal’asi (26ga), Katta Qirqqiz, Eresqal’a, Ayoz qal’a-3, Katta Aybuyirqal’a, Shovot Tuproqqal’asi, Katqal’a kabi qal’alarda keng miqyosda qurilish xom ashyosi sifatida ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yodgorliklarning aksariyat qismida tadqiqotlar olib borgan olimlarning ta’kidlashicha, qal’alar quyi qatlamlarida arxaik va ilk antik davrlarga oid sopol buyumlar aniqlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

XULOSA. Yuqorida ko‘rib chiqilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda boshqa quyi qatlamlarida arxaik materiallar mavjud yodgorliklar hamda qurilish ashyolariga hamda yozma manbalar tahliliga ko‘ra Voyangan qal’a yodgorlik majmuasining quyi qatlamlari ehtimol arxaik davrga oid bo‘lishi mumkin, deyishga asos yetarli. Ushbu qal’ada hayot, nazarimizcha, eng qadimiy davrdan boshlab asosan XIV asrgacha davom etgan, deyishga barcha asoslar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Y.G‘.G‘ulomov. Xorazmning sug‘orilish tarixi. / Toshkent, 1959, 91-92-betlar.
2. K.Sobirov. Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. T.: Fan nashriyoti, 2009-yil, 63-64-betlar.
3. G.Xodjaniyozov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (mill.avv. VI asrdan mil IV asrgacha). Toshkent – 2007; 75-bet.
4. М.Мамбетуллаев. Средневековый могильник Калмыккрылган. Археология Приаралья, вып. 2, Т. 1984 стр. 80-92.
5. М.Мамбетуллаев, М.Ш.Кдырниязов. Городище Воянган. Археология Приараля. вып. 1. Т., 1982. стр. 85-93.
6. Л.Ю.Маньковская, В.А.Булатова. Памятники зодчества Хорезма. Ташкент, 1978.
7. R.Abdirimov, U.Bekmuhammad. Qadimgi Xorazm qal’alari va ulardagi arxeologik tadqiqotlar. Xiva, 2021y. 22 – 24-betlar.
8. R.Abdrimov, U.Maxmudov. Qalajiq qal’asining o‘rganilishi tarixiga doir tadqiqotlar xususida. Urganch innovatsion universiteti. Zamonaviy fan rivojlanishidagi ijtimoiy va gumanitar fanlarning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. Urganch – 2024-yil, 22-23-may, 174 – 177-betlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK:81-2

ANGLICISMS IN PROFESSIONAL AND MEDIA DISCOURSES: LEXICOGRAPHIC CHALLENGES AND PROSPECTS OF CODIFICATION

Tuygunova Shohsanam Alijon qizi, Trainee teacher at Samarkand state institute of foreign languages

PROFESSIONAL VA MEDIA NUTQLARIDAGI ANGLISIZMLAR: LEKSIKOGRAFIK MUAMMOLAR VA KODIFIKATSIYA ISTIQBOLLARI

Tuyg'unova Shohsanam Alijon qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti stajyor-o'qituvchisi

АНГЛИЦИЗМЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ И МЕДИЙНОМ ДИСКУРСАХ: ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ КОДИФИКАЦИИ

Туйгунова Шохсанам Алижон кызы, стажер-преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков

https://orcid.org/0009-0001-2021-786X
e-mail: tuygunovashohsanam@gmail.com

Abstract: *This article examines the processes of borrowing Anglicisms in professional and media discourses of the modern Russian language. It analyzes the factors contributing to the active penetration of English loanwords, their adaptation, and functioning in various communicative spheres. Special attention is paid to lexicographic challenges associated with the inclusion of borrowings in dictionaries, as well as prospects for their systematization. The study is based on an analysis of current linguistic sources and lexicographic practices.*

Keywords*: anglicisms, borrowings, professional discourse, media discourse, lexicography, dictionaries, adaptation, neology.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy rus tilidagi professional va media diskurslarida inglizcha so'zlar (anglisizmlar) qabul qilinishi jarayonlarini o'rganadi. Inglizcha so'zlarning faol tarqalishiga sabab bo'luvchi omillar, ularning moslashuvi va turli kommunikativ sohalarda ishlatilishi tahlil qilinadi. Alohida e'tibor lug'atlariga anglisizimlarni kiritish bilan bog'liq leksikografik muammolar va ularni tizimlashtirish istiqbollariga qaratiladi. Tadqiqot zamonaviy lingvistik manbalar va leksikografik amaliyotlar tahliliga asoslangan.*

Kalit so'zlar*: anglisizmlar, so'z qabul qilish, professional diskurs, media diskurs, leksikografiya, lug'atlar, moslashuv, neologizm.*

Аннотация*: Статья посвящена анализу процессов заимствования англицизмов в профессиональной и медийной коммуникации. Рассматриваются факторы, способствующие их проникновению в русский язык, а также лексикографические трудности, связанные с их фиксацией в словарях. Особое внимание уделяется вопросам адаптации заимствований и перспективам их систематизации в современных лексикографических источниках.*

Ключевые слова: *англицизмы, профессиональный дискурс, медиадискурс, лексикография, заимствования, неология.*

INTRODUCTION. The modern Russian language is experiencing an active influx of borrowings from English, particularly noticeable in professional and media spheres. Globalization, the development of digital technologies, and the intensification of international contacts contribute to the widespread adoption of Anglicisms. However, their inclusion in dictionaries lags behind actual usage, creating challenges for lexicographers and linguists.

The aim of this article is to identify key trends in the borrowing of Anglicisms, analyze their role in professional and media discourses, and assess current lexicographic challenges and potential solutions.

METHODS. The study employs comparative analysis, descriptive lexicography, and corpus research methods. The analysis was conducted based on data from modern dictionaries, professional, and media texts.

Dynamics of Anglicism Borrowing and Their Role in Professional Communication

The spread of english-derived vocabulary in Russian is driven by several factors, including globalization, technological advancement, and the influence of mass culture [1]. In professional domains, borrowings often serve terminological functions, replacing absent or less convenient native equivalents. For instance, in IT, terms such as deadline, guideline, and coaching have become firmly established, displacing more cumbersome descriptive phrases.

Similar trends are observed in economics (startup, brand, franchising), medicine (screening, top management), and digital technologies (streaming, podcast). Notably, many of these borrowings do not merely duplicate existing concepts but denote new phenomena for which Russian previously lacked precise equivalents [2].

Lexicographic Challenges and Contemporary Issues

One of the primary difficulties faced by dictionary compilers is the rapid evolution of the lexical landscape. Traditional academic dictionaries struggle to keep pace with new borrowings, resulting in a gap between actual usage and codified norms. For example, terms like cryptocurrency and foodsharing were widely used long before their inclusion in authoritative lexicographic sources [3].

Another issue is the variability in spelling and pronunciation of Anglicisms. examples include online/on-line, brand/brènd, complicating standardization efforts. Additionally, not all borrowings become permanent fixtures in the language – many remain marginal or fade after a brief surge in popularity [5].

Prospects for the Lexicographic Inclusion of Anglicisms

To address these challenges, several measures can be proposed. First, corpus-based analysis methods should be employed more extensively to track the dynamics of new word usage in real-world texts [4]. Second, the development of online lexicography offers a promising avenue, allowing for more frequent updates compared to print editions. Finally, more flexible criteria for including neologisms should be developed, taking into account not only frequency but also their degree of integration into the linguistic system.

RESULTS. Anglicisms in professional discourse occupy a special place, as they are used to denote new concepts and technologies, especially in IT, marketing, and management. Many borrowed terms do not have precise Russian equivalents, which complicates their replacement [6]. In media texts, English words are widely used to attract audience attention and create a sense of modernity. This is particularly characteristic of online media and social networks, where anglicisms can serve as expressive means highlighting the global nature of communication. The issue of fixing anglicisms in lexicographic sources is accompanied by a number of problems, among which spelling variability, semantic ambiguity, and the high dynamics of language processes can be distinguished [7]. Spelling variability manifests itself in the use of

TAMADDUN NURI

different graphic forms, such as “startup” and “start-up”. Semantic ambiguity arises when the same word has different meanings in various contexts, making its precise fixation difficult. The rapid obsolescence of some borrowings is an important factor, as certain words fall out of use even before they are included in dictionaries [8].

CONCLUSION. The widespread adoption of English loanwords (Anglicisms) in modern Russian serves as a significant indicator of global language policy and linguistic processes. In professional fields, particularly IT, business, medicine, and media, the use of Anglicisms to express new concepts not only enriches the language but also facilitates international cooperation. However, this process also presents several complex challenges.

Firstly, the rapid emergence and dissemination of Anglicisms makes it difficult to update traditional lexicographic resources. Lexicographers consistently lag behind in recording new vocabulary. Secondly, the lack of consistency in spelling and pronunciation of Anglicisms (e.g., “онлайн/он-лайн”, “бренд/брэнд”) creates difficulties in developing language standards. Thirdly, the temporary popularity and subsequent disappearance of some Anglicisms raises questions about the appropriateness of including them in dictionaries. It should be emphasized that the influx of Anglicisms into Russian represents not only linguistic enrichment but also a natural process of language interaction in the modern world. The primary task is to monitor this process and guide it in appropriate directions. Collaboration between linguists, lexicographers, and language policy developers may prove crucial in this regard.

Considering that similar processes are observed in the development of Uzbek, the experience of studying Anglicisms in Russian may prove valuable for Uzbek linguists. Both languages must withstand global influences while preserving their linguistic characteristics.

In conclusion, the role of Anglicisms in professional and media discourses continues to grow, and this trend will likely persist in the near future. This process requires comprehensive analysis considering not only linguistic but also cultural, social, and economic factors. In shaping the future of language, a balanced approach is essential - finding the right equilibrium between preserving traditional linguistic wealth and meeting modern communicative needs.

REFERENCES:

1. Krysin L.P. Foreign Words in Modern Russian. – Moscow: Nauka, 2008. – 208 p.
2. Zabotkina V.I. New Vocabulary in Modern English. –Moscow:Vysshaya Shkola,2019.–176 p.
3. Golovanova E.I. Linguistic Aspects of Neology. – St. Petersburg: Philological Faculty of SPbSU, 2017. – 240 p.
4. Leichik V.M. Terminology: Subject, Methods,Structure. – Moscow:Librokom, 2020. – 256 p.
5. Guseinova, T.G. Lexicography in the Digitalization Era. – Moscow: Nauka, 2021.
6. Levin, V.I. Anglicisms in the Russian Language: Problems and Prospects. – St. Petersburg: Faculty of Philology, St. Petersburg State University, 2020. Modern Dictionary of Foreign Words / Edited by V.V.Lopatin. – Moscow: Eksmo, 2022.
7. Shchukin, A.N. Linguistic Globalization: The Influence of English on Russian Lexis. – Kazan: Kazan University Press, 2021.
8. Russian Russian language of the end of the XX century. Moscow: Languages of Russian culture, 1996. pp. 142-161. Krysin L.P. A foreign-language word in the context of modern social life. Russian language of the end of the XX century. Moscow: Languages of Russian Culture, 1996. pp. 142-161.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 82.81.34;81.366

SHAKLDOSH SO‘ZLARNING MASNAVIYLAR BADIIYATIDAGI O‘RNI

Baratova Sevara Musoxonovna, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi

THE PLACE OF SHAPED WORDS IN THE ART OF MASNAVIYS

Baratova Sevara Musokhonovna, Junior Research Fellow, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of Uzbekistan

МЕСТО ОБРАЗНЫХ СЛОВ В ИСКУССТВЕ МАСНАВИ

Баратова Севара Мусохоновна, младший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Узбекистана

https://orcid.org/0009-0007-8784-3826
e-mail: baratovasevara07@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada “Sabot ul-ojizin” asarida uchraydigan shakldosh so‘zlar badiiyati haqida so‘z yurutilgan. Matndagi shakldosh va shakli bir-biriga yaqin omoleksemalar lingvopoetik tahlilga tortilgan. Ularning matn badiiyligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *omonim, omofon, omograf, tajnis, ta’kid, poetik aktuallashuv.*

Abstract: *The article discusses the artistic nature of homonymous words found in the work “Sabot ul-ojizin”. Homonymous and homonymous homonymous words in the text are subjected to linguopoetic analysis. Attention is paid to their role and significance in increasing the artistic nature of the text.*

Keywords: *homonym, homophone, homograph, tajnis, emphasis, poetic actualization.*

Аннотация: *В статье рассматривается искусство образного слова, встречающееся в произведении “Сабот ул-оджизин”. Лингвопоэтическому анализу подвергаются гомолексемы в тексте, сходные по форме и близкие по строению. Уделяется внимание их роли и значению в повышении художественного качества текста.*

Ключевые слова: *омоним, омофон, омограф, аллитерация, акцент, поэтическая актуализация.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Badiiylikni ta’minlashda shakldosh so‘zlar ham muhim ahamiyatga ega. “Sabot ul-ojizin”da shakldosh so‘zlar obrazlilik, ta’sirchanlikni oshirishda asosiy vosita sifatida qo‘llanilgan. “Omonim so‘zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlik badiiy asarlarda alohida uslubiy vosita sifatida talqin etiladi” [Yo‘ldoshev,2007;52]. Shakldosh so‘zlar bundan tashqari so‘z o‘yini qilishda ham asosiy birlik hisoblanadi. Lug‘atlarda shakldosh so‘zlarga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tajnis (- تجنيس hamjins, jinos) mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at; shakli bir xil (omonim – talaffuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq so‘zlar: *qil-qil)* [Ҳожиев, 1995; 70]. Yoki bir-biriga yaqin (omograf – talaffuzi farqli, yozilishi bir xil bo‘lgan birdan ortiq so‘zlar: *tok-tok)* [Ҳожиев, 1995; 70]. Omofon (talaffuzi bir xil, lekin yozilishi har xil so‘zlar: *mard-mart*, [Ҳожиев, 1995; 71], (omoforma – omonim shakllar; ma’lum shakllarda tovush tomondan bir xil bo‘luvchi so‘zlar. Bu hodisa odatda turli turkumga oid so‘zlar o‘rtasida voqe bo‘la oladi: *ol-di – old-i*) [Ҳожиев, 1995; 71] bo‘lgan so‘zlarning baytning turli o‘rinlarida keltirilgan holda, har bir o‘rinda ma’no ifodalashi” [Қуронов, 2010; 301]. XVIII asrning betakror yodgorligi bo‘lgan “Sabot ul-ojizin” e’tiqodiy sog‘lomlik, ma’naviy poklik

dasturidan dars berishi bilan ahamiyatlidir [Рашид Зоҳид, 2007;8].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).Tilshunoslikda omonim va unga yondosh hodisalar farqlanadi. Quyidagi shakldosh so‘zlar masnaviyda o‘ziga xos ifoda ohangdoshlikni, qofiyani yuzaga keltirish bilan birga, badiiylikni ta’minlashda, ta’sirchanlikni oshirishda, ta’kid ma’nosini kuchaytirishda ham muhim lingvopoetik qiymat kasb etgan. Masalan, “Sabot ul-ojizin”da “Tama’dan tiyilish haqida” deb sarlavhalangan fasl bor.

Qidirg‘on *birla rizqing* ***qidri*** *toshmas,*
Ketar ***qadring, qadardin*** *hargiz oshmas*. (SO;52)

Baytdagi “qidirg‘on va qidri”, “qadr va qadar” so‘z-juftliklari tajnisni hosil qilayotgani va bu orqali baytning mazmun va shaklida ta’sirchanlik kuchayayotganini ilg‘ash qiyin emas.

Tavakkul ganjidin, ey yuz o‘girgon,
Buyurganga *muxolifdur* ***bu yurgon***. (SO;52)

“Agar e’tibor berilsa, baytlarning nafaqat mazmunida, balki shaklida ham “olloyorona” o‘ziga xoslik bor. Yuqorida *qidr, qadr, qadar* kabi bir o‘zakdan yasalgan, ammo ma’nosi turlicha so‘zlarning bir baytda jamlanishi, keyingi parchadagi ikkinchi misraning *buyurganga* bilan *bu yurgan* kabi so‘z va birikmaning omonim bo‘lib kelish holatlari shakliy yaqinlikka ega so‘zlar asosiga qurilishi, umuman tajnis san’ati bilan bog‘liq baytlaru misralar oralab sochib chiqilgani va so‘z san’ati bilan bog‘liq yana ko‘pgina xususiyatlar “Sabot ul-ojizin”ning badiiyatini ochishga yetarli zahiradir” [Рашид Зоҳид, 2007;159].

Ola *bo‘lgon* ***ola*** *yurgondin ortiq,*
Ko‘milgan termulib turgondin ortiq [SO; 159].

Ya’ni: bu yurishing birovlardan so‘rab olib, tilanchilik qilgandan ortiqroq. Yuzingning necha qavat terisini shilib, kimsaga muhtoj termulib turgandan ko‘ra o‘lganing afzalroq. R.Zohidning qayd qilishicha, “ola yurgon” metaforasini boshqa mushorihlar, masalan, “Hidoyat ul-tolibin” muallifi “pes bo‘lmoq” deb sharhlagan ekan [Рашид Зоҳид, 2007;159]. Bunda ham jon bor. Negaki, tama, yuqorida aytilganidek, eng katta gunohlardan hisoblanadi. Shu sababli har qanday tamadan voz kechib, Ollohga suyanmoq, Olloh inoyatiga ko‘z tikmoq chandon afzaldir.

Agar ***tosh*** *chaynasa, eldin chiqib* ***tosh,***
Kishiga egmagay himmatli qul bosh [SO; 160]

Ya’ni: himmat-u g‘ayratga ega odam, garchi eldan tashqari chiqib, tosh chaynasa ham bandaga boshini egmagay, tama qilmagay. Bu o‘rinda ikkala “tosh” so‘zi omonim bo‘lib, tajnisni hosil qilib, tom ma’nodagi “tosh”ni hamda “tashqari” lafzi bildirgan ma’niga ishora qilmoqda.

Tama’ nonig‘a lab ***ochguncha,*** *o‘l* ***och,***
Minan o‘tidin uchqundek bo‘lib qoch [SO;160].

Bu o‘rinda “ochguncha” va “och” so‘zlari tajnis bo‘lib, birida “ochmoq” fe’li, yana birida metafora bo‘lgan “och odam” ma’nosi yuzaga kelgan. Shu o‘rinda mazkur baytning boshqa varianti ham borligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Negaki, bunda ikkala misrada ham tajnis ishtirok etadi: “Qanoat ma’danig‘a *och* ko‘zing, *och*, Tama *bo‘yi* ko‘rinmay, *bo‘yidin* qoch”. Ikkinchi misradagi “*bo‘yi*” lafzlari “*ko‘rinishi*” hamda “*hidi*” ma’nolarida konnotatsiya hosil qilgan.

Agar ***qorni*** *biror to‘ymasa* ***qarni,****Kishig‘a aytmag‘ay er banda sirni* [SO;160].

Ya’ni: qorni biror taomga to‘ymasdan och yursa ham, mard banda buni birovga aytmagay. Oldingi misrada “qorni” hamda “qarni” leksemalari tajnisi noqisni hosil qilib, baytga ravonlik hamda ta’sirchanlikni kiritgan.

Tamalik ***siyladin*** *behdur* **silingan,** ***Tilangandin*** *erur oson* ***tilingan*** [SO;160]. Ya’ni: tama bilan olingan siylovdan yuzning terisi shilingani yaxshiroq. Bunda ikkala misrada kelgan “siyladin” va “silingan” hamda “tilangandin” va “tilingan” so‘zlari tajnisi noqisni yuzaga keltirgan va muallif demoqchi bo‘lgan fikrni benihoya siqiqlik hamda ta’sirchanlik bilan tinglovchiga yetkazishiga xizmat qilgan.

Tama qilma toparg‘a zar nigorin,
Bu zar *mehri* ***buzar*** *dinning hisorin* [SO;160]. Ya’ni: oltin-u kumush mahbubingga aylanib, uni qo‘lga kiritaman deya tama qilma. Chunki bu zar, bu dunyo mehri din qal’asini buzadi. Masnaviy baytda ikki o‘rinda kelgan metaforaning (“zar nigorin” va “bu zar”) ikkinchisi, ikkinchi misradagi “buzar” fe’li bilan shakldosh bo‘lib, ta’sirchanlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Yuqorida tahlilga tortilgan shakldosh so‘zlar asarning bir bobidan olingan.

TAMADDUN NURI

Kitobning barcha boblarida omonim va unga yondosh hodisalar juda ko‘p ishlatilgan.

Muallif bir qator o‘rinlarda omonim so‘zlarni qofiyaga olib chiqib, kishini hayratga soladi. Biror o‘rinda qofiyada saktalik uchramaydi: *tosh – tosh* (tashqari), *och* (to‘q emas) – *och* (ant: yop) va hokazo. Uning uslubida omonimlarni bir misra ichida ishlatish nihoyatda ko‘p uchraydi:

Tanur joying bo‘lur, qolsang tanurdin [SO;15]. Keltirilgan misrada qo‘llanilgan *tanur* so‘zi hozirgi o‘zbek tilidagi *tandir* va *tanir* shakllariga mos keladi. Misrada bu so‘zlar shakldoshlikni hosil qilgan bo‘lib, Allohni tanimasang, joying tandir, ya’ni tandirdek qizigan jahannam bo‘ladi, degan ma’noni beradi.

Qolur yaxshi uy olg‘ondin uyolg‘on [SO;15]. Ushbu misrada esa shoir *uy olish* shaklidagi so‘z birikmasini va *uyalish* ma’nosidagi fe’lni zidlantiradi, shu orqali pand-nasihat ma’nosini ifodalashga erishadi.

Ta’kidlash kerakki, asarda o‘z qatlamga mansub so‘zlar bilan o‘zlashgan qatlamga mansub so‘zlar ham, o‘z qatlamga mansub bo‘lmagan qo‘shimchalarning, xususan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan qo‘shimchalarning arabiy yoki turkiy so‘zlar bilan qo‘llanilishi ham ko‘p uchraydi. *Bashar bo‘lsang, qo‘y af’oli ba sharni* [SO;53].

Asar pand-nasihat mazmunida bo‘lganligi sabab, muallif har bir misrada o‘quvchiga xitob qiladi, uni yaxshilik yo‘liga chorlaydi, yoshiga munosib bo‘lishga undaydi. Shu sababli ba’zan so‘z o‘yini uchun birlik tanlanar ekan, tilning badiiylikni ta’minlash, estetik zavq berish kabi vazifalari oxirgi o‘ringa tushib qoladi. Bu holatni quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

Yoshing yetkon sari fe’ling sani yosh [SO;53].

Quyidagi misrada esa *och* so‘zi takror qo‘llanilganday ko‘rinadi, ammo misrani qayta, sinchiklab o‘qigan o‘quvchi *och* so‘zining birinchi o‘rinda sifat, ikkinchi o‘rinda fe’l turkumiga xosligini ilg‘aydi, hamda shoirning shakldosh so‘zlardan ko‘zlagan maqsadini anglaydi.

Qanoat ma’danig‘a och ko‘zing, och [SO;53].

Asarda diniy manbalardan keltirilgan ma’lumotlar misralar zamiriga mohirlik bilan singdirilgan. Quyidagi misralarda qo‘llanilgan *sochmoq* so‘zi ikki o‘rinda ikki xil ma’noda qo‘llanilgan. Birinchi o‘rinda tuproq kabi inson tanasining sochilishiga ishora qilingan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda harakat qilish, nafsni qiynash ma’nolarini beradi. *Sochilmasdan burun sochg‘il o‘zingni* [SO;453]. Bu o‘rinda poetik aktuallashgan so‘zdan anglashilgan ma’noni ilg‘ash uchun o‘quvchidan muayyan bilimga ega bo‘lish talab etiladi.

Quyidagi misralarda ham omoformalar badiiylikni ta’minlashga, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Yoqoni tut, ajal tutmay yoqoni [SO;53],

Nasihat go‘sha olsang, go‘sha qil joy [SO;53].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xulosa qilib aytganda, tahlilga tortilgan “Sabot ul-ojizin” asarida shakldosh so‘zlar ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, mumtoz adabiyotdagi tajnis san’atini yuzaga kelishida vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ko‘rib o‘tilgan misollardan shoirning o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini yaxshi bilganligini, o‘z qatlam hamda o‘zlashgan qatlamga oid leksik birliklar va morfologik shakllarni uyg‘unlashtira olganligini, shu tariqa o‘ziga xos uslub yaratganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Т.: Ўзбекистон МЭ нашр. 1995. –Б.70.
2. Кўрсатилган асар. – Б.70.
3. Кўрсатилган асар. – Б.71.
4. Кўрсатилган асар. – Б.71.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М., Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр. 2010. –Б.301.
6. Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин. –Т.: Санъат журнали, 2007. –Б.52. Бундан кейинги байтлар шу манбадан олинди. –С.Б.
7. Изоҳлар, Р.Зоҳид томонидан тайёрланган “Равойиҳур райҳон” (“Сабот ул-ожизин” шарҳи) китобидан олинди. Қаранг: Р.Зоҳид. “Равойиҳур райҳон” (“Сабот ул-ожизин” шарҳи). –Т.: Шарқ, 2018. –Б.157-163.
8. Равойиҳур райҳон [Матн]. Рашид Зоҳид. – Тошкент : Sharq. 2018. –Б.8.
9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. –B.52.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 37.02:81'243:81'33

INGLIZ TILI DARSLARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Voxidova Sitorabonu Hurmatulloyevna, Addulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

METHODOLOGICAL APPROACHES OF DEVELOPING LINGUACULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH LESSONS

Vokhidova Sitorabonu Hurmatulloevna, basic doctoral student at the Abdulla Avloni National Institute of Pedagogical Skills

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Вохидова Ситорабону Хурматуллоевна, базовый докторант Национального института педагогического мастерства имени Абдулла Авлони

https://orcid.org/0009-0009-9078-1683
e-mail:
sitoravakhidova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan turli metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kommunikativ, madaniyatlararo hamda integrativ-innovatsion yondashuvlarning samaradorligi va ularning o'quvchilarning til va madaniyatni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili o'qitish jarayonida samarali yondashuvlarni tanlashga ko'maklashishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *lingvomadaniy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, madaniyatlararo kompetensiya, integrativ metod, innovatsion texnologiyalar.*

Abstract: *This article is devoted to examine various methodological approaches to the development of linguacultural competence in English lessons. The effectiveness of communicative, intercultural, and integrative-innovative approaches, as well as their impact on students' language and cultural acquisition is analyzed. Additionally, the importance of modern pedagogical technologies and interactive methods in developing linguacultural competence is highlighted. The research findings may assist in selecting effective approaches for English language teaching.*

Keywords: *linguacultural competence, communicative approach, intercultural competence, integrative method, innovative technologies.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются различные методологические подходы к развитию лингвокультурологической компетенции на уроках английского языка. Анализируется эффективность коммуникативного, межкультурного и интегративно-инновационного подходов, а также их влияние на процесс усвоения языка и культуры учащимися. Кроме того, подчеркивается значимость современных педагогических технологий и интерактивных методов в развитии*

лингвокультурологической компетенции. Результаты исследования могут способствовать выбору эффективных подходов в процессе преподавания английского языка.

***Ключевые слова**: лингвокультурологическая компетенция, коммуникативный подход, межкультурная компетенция, интегративный метод, инновационные технологии.*

KIRISH. Zamonaviy til o‘qitish metodologiyasida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar mavjud. Ushbu kompetensiya nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Ingliz tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun kommunikativ, madaniyatlararo va integrativ-innovatsion yondashuvlar samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Til o‘qitish metodologiyasida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu kompetensiya til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida chuqur bilimga ega bo‘lishni hamda turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishni ta’minlaydi. Turli tadqiqotchilar bu mavzuda turli yondashuvlarni ilgari surganlar. C.Krashen tomonidan ilgari surilgan “Ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyasi” (Second Language Acquisition Theory) til o‘rganish jarayonida tabiiy muloqot muhitining muhimligini ta’kidlaydi. Uning nazariyasi lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi [1].

M.Byram tomonidan ishlab chiqilgan “Madaniyatlararo kompetensiya modeli” esa til o‘rganishda madaniyatlararo bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimligini asoslab beradi[2]. Uning tadqiqotlari ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayonida milliy va xorijiy madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish o‘quvchilarning til va madaniyatni yanada chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi. J.Cummins tomonidan ilgari surilgan “Bilimning o‘zaro bog‘liqlik gipotezasi” esa ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi aloqani o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunda lingvomadaniy kompetensiya ikki til va madaniyatni uyg‘un tarzda o‘zlashtirish orqali rivojlanishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi[3]. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.Avloniy pedagogik merosida til va madaniyatni integratsiyalash orqali milliy va xalqaro muloqot kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan[4]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo yondashuvni joriy etishning muhimligini belgilab beradi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun til o‘qitish jarayonida kommunikativ, madaniyatlararo va integrativ metodlarni uyg‘unlashtirish zarur. Bu tadqiqotda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodologik asoslari o‘rganilib, ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullar tahlil qilinadi. Tadqiqot sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlar kombinatsiyasi asosida olib borilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil: lingvomadaniy kompetensiyaga oid ilmiy manbalar, maqolalar va ta’lim dasturlari o‘rganildi.

So‘rovnoma va intervyular: ingliz tili o‘qituvchilari va o‘quvchilari bilan suhbatlar o‘tkazilib, test olindi. Ularning lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha fikrlari tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqot: Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlari maktablarida tajriba-sinov mashg‘ulotlari tashkil etilib, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligi baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlari maktablarining 7-8-sinf o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda “Prepare” ingliz tili darsligiga qo‘shimcha kiritgan holda bir necha lingvomadaniy yondashuvlar va metodlar tajriba-sinov sifatida qo‘shimcha kiritildi va amalda qo‘llanildi. Tajriba-sinovda qo‘llanilgan metodlardan biri bu kommunikativ yondashuvdir.

O‘qituvchilar uchun kommunikativ yondashuv muhim vosita hisoblanadi. Savignon kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni taklif qilgan[5].

Kommunikativ yondashuv til o‘rganishni grammatika va tarjima asosidagi ta’limdan real muloqotga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarga

TAMADDUN NURI

o‘tkazish tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardir:

1) Til o‘rganish jarayonida nutqiy faoliyat turlarining integratsiyasi (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish);

2) Rejalashtirilgan muloqot vaziyatlarini yaratish orqali o‘quvchilarni tabiiy kommunikativ muhitga moslashtirish;

3) Madaniy jihatlarni inobatga olgan holda til birliklarini amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish.

Bu yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirish va real hayotiy sharoitlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Materiallarni ishlab chiqishda Tomlinson til o‘rganuvchilar uchun qiziqarli va o‘quvchilar ehtiyojlariga mos materiallarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi [6].

Til nafaqat aloqa vositasi, balki muayyan madaniyatni aks ettiruvchi omil ham hisoblanadi. Shu sababli, ingliz tili ta’limida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. O‘quvchilarga til o‘rganilayotgan davlat madaniyati, an’analari, urf-odatlari va hayot tarzi haqida tasavvur berish.

2. Turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni tahlil qilish orqali madaniy empatiyani shakllantirish.

3. O‘quvchilarning o‘z milliy madaniyatiga asoslangan holda boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Madaniyatlararo yondashuv orqali o‘quvchilar global muhitda muloqot qilishga tayyorlanib, o‘z madaniyatini anglash va boshqa madaniyatlarni tushunish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlar lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ va innovatsion metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Interfaol o‘qitish texnologiyalari: rolli o‘yinlar, debatlar, muammoli ta’lim usullari orqali o‘quvchilarni faol jalb etish.

- Autentik materiallardan foydalanish: ingliz tilidagi filmlar, podkastlar, maqolalar va adabiy manbalar orqali til va madaniyatni birgalikda o‘rgatish.

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: onlayn platformalar, virtual sinflar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim dasturlaridan foydalanish. Ushbu metodlar yordamida til o‘rganish jarayoni yanada samarali, qiziqarli va interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi.

XULOSA. Ingliz tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun turli metodologik yondashuvlarning kombinatsiyasidan foydalanish zarur. Kommunikativ yondashuv til bilimlarini amaliy qo‘llashni ta’minlasa, madaniyatlararo yondashuv o‘quvchilarni global muloqotga tayyorlaydi. Integrativ va innovatsion metodlar esa zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, til o‘qitish jarayonida bu yondashuvlarni kompleks qo‘llash o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Krashen,S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
2. Byram,M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
3. Cummins,J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.
4. Avloniy,A. Pedagogik meros. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Savignon,S.J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education.Yale University Press.
6. Tomlinson, B. (2013). Developing Materials for Language Teaching (2nd ed). Bloomsbury Publishing.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94 (575.1)

CHINGIZXON VA MUHAMMAD XORAZMSHOH O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING ZIDDIYATLASHUVI

Qayumov Alisher Tojiyevich, Termiz davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasi ilmiy tadqiqotchisi

CONFLICT OF RELATIONS BETWEEN GENGHIZ KHAN AND MUHAMMAD KHOREZMSHAH

Qayumov Alisher Tojiyevich, scientific researcher at the Department of “World History” of Termez State University

КОНФЛИКТ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ЧИНГИСХАНОМ И МУХАММАДОМ ХОРЕЗМШАХОМ

Алишер Тожиевич Каюмов, научный исследователь кафедры всеобщей истории Термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-2389-43X0
e-mail: qayumovalisher86@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIII asr boshlarida Xorazmshoh Muhammad va Chingizxon o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar, O‘tror fojiasi hamda bu voqealarning butun mintaqa taqdiriga ta’siri yoritiladi. Xorazmshoh davlatining ichki ziddiyatlari, Turkon Xotunning siyosiy intrigalari, shuningdek, Chingizxonning mohirona diplomatiyasi va harbiy yurishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Xorazmshoh Muhammadning noto‘g‘ri qarorlari va uzoqni ko‘ra bilmaganligi natijasida yuzaga kelgan fojiaviy oqibatlar tarixiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazmshoh Muhammad, Chingizxon, O‘tror fojiasi, Turkon Xotun, mo‘g‘ullar bosqini, diplomatik munosabatlar, siyosiy intriga, Xorazmshohlar davlati, elchilar, savdo karvoni, urush sabablari, tarixiy saboq.*

Abstract: *This article discusses the diplomatic relations between Khorezmshah Muhammad and Genghis Khan at the beginning of the 13th century, the Utrar tragedy, and the impact of these events on the fate of the entire region. The internal conflicts of the Khorezmshah state, the political intrigues of Turkan Khotun, as well as Genghis Khan's skillful diplomacy and military campaigns are analyzed. Also, the tragic consequences of the wrong decisions and shortsightedness of Khorezmshah Muhammad are considered based on historical sources.*

Key words: *Khorezmshah Muhammad, Genghis Khan, Utrar tragedy, Turkan Khotun, Mongol invasion, diplomatic relations, political intrigue, Khorezmshah state, ambassadors, trade caravan, causes of war, historical lesson.*

Аннотация: *В данной статье описаны дипломатические отношения между хорезмшахом Мухаммадом и Чингисханом в начале XIII века, трагедия Отрара, а также влияние этих событий на судьбу всего региона. Анализируются внутренние конфликты государства Хорезмшахов, политические происки Туркона Хотуна, а также умелая дипломатия и военные походы Чингисхана. Также на основе исторических источников рассматриваются трагические последствия неправильных решений и недальновидности хорезмшаха Мухаммада.*

Ключевые слова: *Хорезмшах Мухаммад, Чингисхан, Отрарская трагедия, Туркон Хотун, монгольское нашествие, дипломатические отношения, политические интриги, Хорезмшахское государство, послы, торговый караван, причины войны, исторический урок.*

KIRISH. Xorazmshoh Muhammad va Chingizxon o‘rtasidagi dastlabki diplomatik munosabatlar savdo va tinchlik shartnomalari bilan boshlangan bo‘lsa-da, o‘zaro ishonchsizlik va siyosiy fitnalar tufayli tez orada ochiq qarama-qarshilikka aylandi. Ayniqsa, O‘tror voqeasi va uning atrofidagi siyosiy intriga ikki davlat o‘rtasida muqarrar urushga turtki bo‘ldi. Ushbu maqolada mo‘g‘ullarning Xorazmga yurishining sabablarini, Xorazmshoh Muhammadning siyosiy qarorlarini va O‘tror fojiasining tarixiy oqibatlarini tahlil qilamiz.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Xorazmshohlar davlati va Chingizxon bosqini haqidagi tarixiy ma’lumotlar o‘rta asr manbalari va zamonaviy tadqiqotlarga asoslanadi. Muhim asarlar qatoriga Shahobiddin an-Nasaviyning “Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mankburni”, Rashididdinning “Jome’ at-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Ibn al-Asirning “Al-Kamil fi at-Tarix”, Otamalik Juvayniyning “Tarixi Jahongusha” kiradi. Shuningdek, V.V.Bartoldning “Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston”, I.P.Petrushevskiyning “XIII asrda O‘rta Osiyo va Eron” tadqiqotlari ham bu mavzuni chuqur o‘rganishda muhim manbalardir.

ASOSIY QISM. XIII asr boshlarida Xorazm dunyoning eng qudratli va boy davlatlaridan biri edi. Xorazmshoh Muhammad tajovuzkor tashqi siyosat yuritib, G‘uriylar sultonligi va Qoraxitoy xonligini mag‘lub etdi, shundan so‘ng unga “Ikkinchi Iskandar” unvoni berildi. Dastlab poytaxt Gurganj bo‘lsa-da, keyinchalik u Samarqandga ko‘chirildi.

Davlatda katta ta’sirga ega bo‘lgan shaxslardan biri Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotun edi. U ko‘pincha o‘g‘liga qarshi siyosat yuritgan va saroydagi eng yuqori lavozimlarni o‘z urug‘iga mansub kishilar egallagan. Tarixchi an-Nasaviyning yozishicha, “Davlat amirlarining ko‘pchiligi Turkon Xotunning qarindoshlari edi”[7]. Bu esa Xorazmshoh hokimiyatining zaiflashishiga sabab bo‘lgan. Musulmon dunyosidagi kam sonli nufuzli ayollardan biri hisoblangan Turkon Xotun “Xudovandi jahon” (Dunyo hukmdori) laqabiga ega bo‘lgan.

XII–XIII asrlarda Xorazmshohlar davlatini o‘rgangan har qanday tarixchi uchun eng tashvishli jihatlardan biri uning armiyasi haqida mavjud ma’lumotlardir. Davlat qo‘shinining asosini yollanma askarlar – turkmanlar va qang‘lilar tashkil etgan. Bunday qo‘shinlar zaifroq raqiblarga qarshi bosqinchilik yurishlarida samarali bo‘lishi mumkin edi, biroq o‘z hududida kuchli dushmanga qarshi jang olib borishda ularga tayanish deyarli imkonsiz edi. Chunki ular uchun bu mamlakat begona bo‘lib, himoya qiladigan hech narsasi va boy o‘ljaga umidi yo‘q edi.

Taranglikning yana bir belgisi – Samarqand va yangi qo‘shilgan Buxorodagi qo‘zg‘olonlar edi. Isfahon (G‘arbiy Eron) va Ray (Eronning shimoli) hududlarida shofiiylar va hanafiylar o‘rtasida doimiy to‘qnashuvlar yuz berib turardi.

XIII asr nafaqat musulmonlar tarixida, balki butun Yer kurrasi tarixida muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda dunyoda, xususan, Islom mintaqalarida katta siljishlarga sabab bo‘lgan yangi va dahshatli bir kuch – Mo‘g‘ul davlati maydonga chiqdi.

1215-yilda Chingizxon Xitoyning shimoliy qismini o‘z davlati tasarrufiga kiritdi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Chingizxon Xitoyni bosib olishidan avval Xorazmshoh Alouddin Muhammad ham bu hududni egallashni rejalashtirgan edi. Tarixchi olimlar – Rashididdin Fazlulloh, Ata-Malik Juvayniy, shuningdek, rus tadqiqotchilari V.Grigoryev, I.Petrushevskiy va V.Bartoldlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 1214 yoki 1215-yilda Alouddin Muhammad savdogarlardan Xitoyning

g‘aroyib boyliklari haqida eshitib, bu yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan.

Chingizxon Xitoyni bosib olgani haqidagi xabar Xorazmshohgacha yetib kelgach, u bu ma’lumotning qanchalik to‘g‘ri ekanini bilish maqsadida Chingizxon huzuriga o‘zining mashhur elchisi Sayid Bahovuddin Roziyni yuboradi. Shu tariqa mo‘g‘ul xoqoni va Xorazmshoh o‘rtasida ilk diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yiladi hamda har ikki davlat elchilar almashishni boshlaydi. Biroq har ikki tomon elchilardan ayg‘oqchilik maqsadida ham foydalangan.

1216-yilda Chingizxon Xorazmshoh Muhammad yuborgan elchi Bahovuddin Roziyni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Elchilar Xorazmga qaytayotganda, mo‘g‘ul xoqoni sulton Alouddin Muhammad uchun noyob sovg‘a-salomlar berib, maktub yuboradi. Chingizxon o‘zining savdo karvonlarini ham elchilar orqali Xorazmshoh davlatiga yuboradi. Bu karvonga elchi Mahmud Yalovoch al-Xorazmiy, Aliakbar Xo‘ja al-Buxoriy va Yusuf Qanqa al-O‘troriy boshchilik qiladi. Mahmud Yalovoch aslida xorazmlik bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vataniga xiyonat qilib, mo‘g‘ullarga xizmat qilishga o‘tgan edi.

Tarixchi Shahobiddin an-Nasaviyning ma’lumotlariga ko‘ra[7], Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga turkiy odatlarga ko‘ra tuya o‘rkachi barobar keladigan quyma oltin yuborgan. Shuningdek, savdo karvonida qimmatbaho toshlar, nusub al-xutuvv (morj tishlari), qop-qop mushk (xushbo‘y moddalar), yoqut va tarqu deb ataladigan oq tuya yungidan to‘qilgan kiyimlar bo‘lgan. Sulton Alouddin Muhammad Chingizxon yuborgan elchilarni 1218-yil bahorida qabul qiladi.

Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga qiziqish bildirishi ortida yana bir muhim omil bor bo‘lib, bu Bag‘dod xalifaligi (750–1258) edi. O‘rta asr manbalariga ko‘ra, xalifa an-Nosir Chingizxonga maktub yo‘llab, uni Xorazmshoh Muhammadga qarshi yurishga da’vat etgan. Xalifa Bag‘dodga Xorazmshoh yurish boshlashidan xavfsirab, o‘z dunyoviy hokimiyatini saqlab qolish uchun mo‘g‘ullar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qilgan.

U Mahmud Yalovoch boshchiligidagi elchilar guruhi orqali yetkazgan maktubida Muhammad Xorazmshohni o‘ziga “o‘g‘lim” deb murojaat qilish orqali o‘zining katta hukmdor sifatidagi ustunligini sezdirishga harakat qilgan. Biroq o‘zini Iskandarning vorisi deb bilgan Xorazmshoh uchun bu haqoratdek tuyuladi.

Xorazmshohning Mahmud Yalovochni o‘z tomoniga og‘dirish rejasi esa, aksincha, uning o‘ziga qarshi ishlaydi. Yalovoch g‘oyat zukkolik bilan Xorazmshohni aldab, unga o‘zini sadoqatli ko‘rsatadi. Uning “Men faqat Yalovochmen... Elchiga o‘lim yo‘q”, degan so‘zlari o‘zi haqida shubhalarni yo‘q qilib, Xorazmshohning unga ishonishiga sabab bo‘ladi. Aslida esa, Yalovoch mo‘g‘ul manfaatlarini ko‘zlab harakat qilgan va Xorazmshohning barcha rejalarini Chingizxonga yetkazgan.

Natijada, Chingizxon Xorazmshoh bilan rasmiy ravishda tinchlik kelishuvi imzolagan bo‘lsa-da, bu vaziyatdan g‘olib chiqadi. U Xorazmshohning o‘zgaruvchan, ishonchsiz shaxs ekanini yana bir bor anglab, tez orada unga qarshi hujum boshlash rejalarini tezlashtiradi. Bu diplomatik o‘yin Chingizxon foydasiga hal bo‘ladi, Xorazm yurishining kelgusi bosqichlariga poydevor qo‘yadi.

Xorazmshoh esa o‘zining g‘ururi va beqaror siyosati tufayli mo‘g‘ullar oldida tobora zaiflashib borayotgan edi.

Mo‘g‘ul xoqoni Xorazmshoh bilan savdo aloqalarini mustahkamlash maqsadida Xorazmga katta savdo karvonini jo‘natadi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida yozilishicha, bu karvon tarkibida to‘rt yuz nafar musulmon savdogar bo‘lgan. Ular bilan birga Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga xat ham yuboradi. Xatda quyidagilar bitilgan edi:

“U tarafdan bozorgarlar bu diyorga kelishdi. Ularga qanday e’zoz-ikrom ko‘rsatilganini o‘zlari aytishlari mumkin. Ular nimani mushohada qilgan bo‘lsalar, barchasini bayon qilsalar kerak. Bu tomondan ham bir musulmon jamoasi turli mol-u gazlama, mushk-u chiniy, zar-u nuqra, javohirlar bilan u diyor sari yo‘naldilar. Bu ahd-u paymonada osmon-u zamin egasi ro‘yi zamin mamlakatlarini bizga va senga tortiq qilgan. Xudo bandalari borib-kelib, obodonchilik bilan mashg‘ul bo‘lmog‘i lozim. Biz va sening, ular davri sultonlarining saxovatidan xursand va bahravor bo‘lurlarki, zamon ahli biz va sening duoyi jonimizni qilib yashaydilar”[8].

Biroq bu katta savdo karvoni O‘trorga yetib borganda, shahar hokimi Inalxon (G‘oyirxon) tomonidan ushlab qolinadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Inalxon Turkon Xotunning qarindoshi bo‘lgan

va o‘z mustaqil qarorlarini qabul qilishga moyil, shafqatsiz shaxs edi.

Savdo karvoni tarkibida bir hind savdogar ham bo‘lgan. U ilgari mashhur bo‘lib, Inalxon bilan oldin ham uchrashgan. Shu sababli, u eski odatga ko‘ra hindcha lahjada Inalxonga “Inolchuq” deb murojaat qiladi. Biroq bu so‘z O‘tror hokimining g‘azabini qo‘zg‘atadi va u barcha savdogarlarni qatl etish haqida buyruq beradi.

Tarixchilarning fikriga ko‘ra, O‘trordagi qirg‘in ortida Turkon Xotunning ta’siri bo‘lishi mumkin. O‘tror hokimi Inalxon mo‘g‘ul savdogarlarini josuslikda ayblab, ularni hibsga oladi. Karvon tarkibida Chingizxonga yaqin kishilar ham bor edi. Inalxon Xorazmshoh Muhammadga murojaat qilib, savdogarlarni qatl etish va ularning mol-mulkini musodara qilish uchun ruxsat so‘raydi. Xorazmshoh bunga rozilik bildiradi, natijada 500 ga yaqin kishi o‘ldiriladi. Faqatgina bir tuyakash omon qolib, bo‘lgan voqeani Chingizxonga yetkazadi.

Shahobiddin an-Nasaviyning yozishicha, Inalxon savdogarlarning boyligiga ko‘z tikib, ularni ayg‘oqchilikda ayblagan. Xorazmshoh esa uni ehtiyotkorlikka chaqirgan bo‘lsa-da, Inalxon shoshqaloqlik bilan karvondagilarni qatl qiladi. Ushbu voqeani Ibn al-Asir[6], D’Osson va boshqa tarixchilar ham tasdiqlaydi[4].

O‘tror fojiasi haqida eshitgan Chingizxon qattiq g‘azablanib, uch kun davomida o‘z chodiridan chiqmaydi. Keyinchalik u Xorazmshohga maktub yo‘llab, Inalxonni jazolashni talab qiladi. Biroq, Muhammad Xorazmshoh bunga javoban mo‘g‘ul elchilaridan birini o‘ldirib, ikkinchisining sochini qirdirib qaytaradi. Bu esa Chingizxonning Xorazm yurishiga asosiy sabab bo‘ladi. Shunday qilib, Xorazmshohning noto‘g‘ri qarorlari uning davlatini mo‘g‘ullarga yem bo‘lishiga olib keladi.

XULOSA. O‘tror fojiasi va Chingizxon hamda Xorazmshoh Muhammad o‘rtasidagi ziddiyatlar Markaziy Osiyo tarixida katta burilish yasagan hodisalardan biridir. Xorazmshoh Muhammadning siyosiy qarorlari, jumladan, O‘tror fojiasiga sabab bo‘lgan noto‘g‘ri harakatlari mo‘g‘ullar bosqinini tezlashtirib, Xorazm davlatining qulashiga olib keldi. Chingizxonning tinch savdo va diplomatik munosabatlar o‘rnatish niyatiga qaramay, Xorazmshohning nooqilona siyosati urushning oldini olish imkoniyatini boy berdi.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, O‘tror voqeasi Chingizxonning Xorazmga yurish qilishiga asosiy turtki bo‘lib, uning g‘azabini junbushga keltirdi. Tarixchilar bu masalada turlicha fikr bildirsalar-da, ko‘pchilik manbalar Xorazmshoh Muhammadning strategik xatolarini asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бартольд В.В. *Образование империи Чингисхана*. – ZVORAO, T. X, вып. I–IV, 1897, стр. 105–119.
2. Бартольд В.В. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия*, ч. II, стр. 464–467. СПб., 1900.
3. Бартольд В.В. *История культурной жизни Туркестана*. – Ленинград, 1927, стр. 85.
4. D'Ohsson S. *Histoire des Mongols*, t. I, стр. 212 и сл.
5. Müller A. *История Ислама*, т. III, стр. 223–226.
6. Ибн аль-Асир. *Аль-Камил фи-т-тарих*, т. I, стр. 287.
7. Насави. *Сийрат ас-султан*, араб. текст, стр. 38; фр. пер., стр. 65; перс. версия, стр. 56–57.
8. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Чўлпон. 1994. Toshkent. 352 b.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94 (575.1): 342.56

SOVET DAVRIDA MADANIY-OQARTUV MUASSASALARI VA KOMMUNISTIK MAFKURA: SURXONDARYO VILOYATIDAGI KLUBLAR VA KUTUBXONALARNING IDEOLOGIK VOSITA SIFATIDA RIVOJLANISHI

Hotamov Abduvohid Boboxonovich, Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Denov tuman adliya bo'limi Denov tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsultanti

IDEOLOGY: DEVELOPMENT OF CLUBS AND LIBRARIES IN SURKHONDARYO REGION AS IDEOLOGICAL TOOLS

Hotamov Abduvohid Bobokhonovich, Chief Legal Consultant of the Denov District Justice Department, Denov District Legal Service Center, Surkhandarya Regional Justice Department

ИДЕОЛОГИЯ: РАЗВИТИЕ КЛУБОВ И БИБЛИОТЕК КАК ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хотамов Абдувохид Бобохонович, главный юрисконсульт, Деновский районный центр юридической службы, Деновский районный отдел юстиции, Сурхандарьинское областное управление юстиции

https://orcid.org/0009-0006-0027-8588
e-mail: abduvohidxatamov182@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Sovet Ittifoqi davrida madaniy-oqartuv muassasalari, xususan, Surxondaryo viloyatidagi klublar va kutubxonalar orqali kommunistik mafkura targ'ibotining amalga oshirilishiga bag'ishlanadi. Maqolada, 1960-yillarda qabul qilingan partiya qarorlari asosida madaniy-oqartuv xodimlari tomonidan aholi turli qatlamlariga ideologik yondashuvning qanday amalga oshirilgani tahlil qilinadi. 1960-yillar oxiri va 1970-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan madaniy qurilish rejalariga diqqat qaratilib, Surxondaryo viloyatidagi klublar va kutubxonalarning ideologik vosita sifatida qanday faoliyat ko'rsatganligi va bu faoliyatning viloyatdagi janubiy hududlarda ijrosi o'rganiladi. Shuningdek, klublar va kutubxonalarda tashkil etilgan siyosiy o'qishlar, ma'ruzalar va targ'ibot ishlari, ularning asl maqsadi va foydalanuvchilarga ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kommunistik mafkura, madaniy-oqartuv muassasalari, klublar, kutubxonalar, targ'ibot, siyosiy o'qishlar, ideologiya, madaniy qurilish, Surxondaryo viloyati, 1960-1970-yillar.*

Abstract: *This article is devoted to the implementation of the propaganda of communist ideology through cultural and educational institutions, in particular, clubs and libraries in the Surkhandarya region during the Soviet Union. The article analyzes how the ideological approach to various segments of the population was implemented by cultural and educational workers based on party decisions adopted in the 1960s. The article focuses on the cultural construction plans implemented in Uzbekistan in the late 1960s and 1970s, and studies how clubs and libraries in the Surkhandarya region functioned as ideological tools and the implementation of this activity in the southern regions of the region. It also analyzes the political readings, lectures and propaganda activities organized in clubs and libraries, their true purpose and impact on users.*

Key words: *communist ideology, cultural and educational institutions, clubs, libraries, propaganda, political studies, ideology, cultural construction, Surkhandarya region, 1960-1970s.*

Аннотация: *Данная статья посвящена осуществлению пропаганды коммунистической идеологии через культурно-просветительские учреждения, в частности клубы и библиотеки, в Сурхандарьинской области во времена Советского Союза. В статье анализируется, как*

идеологический подход к различным слоям населения осуществлялся деятелями культуры и образования на основе партийных решений, принятых в 1960-е годы. На примере планов культурного строительства, реализованных в Узбекистане в конце 1960-1970-х годов, изучено, как клубы и библиотеки в Сурхандарьинской области функционировали как идеологический инструмент и реализация этой деятельности в южных регионах области. Также анализируются политические чтения, лекции и пропаганда, организуемые в клубах и библиотеках, их первоначальная цель и влияние на пользователей.

Ключевые слова: *коммунистическая идеология, культурно-просветительские учреждения, клубы, библиотеки, пропаганда, политология, идеология, культурное строительство, Сурхандарьинская область, 1960-1970 годы.*

KIRISH. O‘zbekiston SSRda madaniy-oqartuv muassasalarining asosiy vazifasi kommunistik g‘oyalarni ommaga singdirish, ayniqsa, qishloq aholisiga o‘zining siyosiy va ijtimoiy mas’uliyatlarini anglatish edi. O‘zbekistonning janubiy hududlari, xususan, Surxondaryo viloyati, bu jarayonning aksariyat hollarda sinov maydoni bo‘lib, aholiga kommunistik g‘oyalarni targ‘ib qilishda klublar, kutubxonalar va boshqa madaniy muassasalar asosiy vositalardan biri bo‘ldi. 1960–1970-yillarda madaniy-oqartuv xodimlari tomonidan olib borilgan targ‘ibot ishlari natijasida, Surxondaryo viloyatida turli madaniy va siyosiy tadbirlar tashkil etilib, aholi orasida Sovet mafkurasining ta’siri kuchaytirildi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada 1960-yillarda qabul qilingan partiya qarorlari va o‘zbek madaniy-oqartuv muassasalarining rivojlanishi jarayonida, Surxondaryo viloyatidagi klublar va kutubxonalar qanday rol o‘ynaganligi, ularning ideologik vosita sifatidagi ahamiyati va amalga oshirilgan siyosiy targ‘ibot ishlari tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, o‘sha davrda klublar va kutubxonalar tomonidan qishloq aholisiga qaratilgan siyosiy o‘qishlar va targ‘ibotlar orqali kommunistik mafkura qanday keng tarqatilganini o‘rganadi.

ASOSIY QISM. Sovet davrida madaniy-oqartuv muassasalari, xususan, klublar, kutubxonalar va madaniyat uylari kommunistik mafkurani ommaga singdirishning asosiy vositasiga aylantirildi. Bu jarayon ayniqsa 1960-yildan boshlab yanada tizimli tus oldi. 1960-yil 9-yanvarda KPSS Markaziy Qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan “Hozirgi sharoitda partiya propagandasining vazifalari to‘g‘risida”gi qarorda agitatsiya va targ‘ibot ishlarining samaradorligini oshirish zarurligi ta’kidlandi. Qarorda klublar, kutubxonalar, muzeylar va boshqa madaniy muassasalarni chinakam mafkuraviy markazga aylantirish vazifasi qo‘yildi[1].

Madaniy-oqartuv xodimlari shu qarordan kelib chiqqan holda murakkab vazifalar kompleksini hal etishlari lozim edi. Ularning eng muhimi — aholi turli qatlamlariga tabaqalashtirilgan holda yondashishdir. Madaniy-oqartuv xodimlari V.I.Lenin aytganidek, “...ishchilar hayoti qaynayotgan joyda turishlari, bu hayotni ipidan ignasigacha bilishlari, har qanday masala yuzasidan har qanday momentda ommaning kayfiyatini, uning haqiqiy intilishlarini, ehtiyojlarini, fikrlarini xatosiz aniqlay bilishlari, bu ommaning ong darajasini va eskilikning biron-bir xurofiy qoldiqlarining ta’sir kuchini zarracha soxtalashtirib ko‘rsatmasdan aniqlay bilishlari, omma bilan o‘rtoqlarcha munosabatda bo‘lib, uning ehtiyojlarini g‘amxo‘rlik bilan qoniqtirib, ommaning cheksiz ishonchini o‘zlariga qarata bilishlari lozim” [2]. Bu qaror asosida madaniy-oqartuv xodimlari omma bilan bevosita ishlashda ularga tabaqalashtirilgan yondashuvni yo‘lga qo‘yishlari, milliy va psixologik xususiyatlarni hisobga olishlari lozimligi belgilab berildi. Ayniqsa milliy respublikalarda til, madaniyat va urf-odatlar bilan hisoblashish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu asosda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1961–1963-yillarda madaniy qurilishni jadallashtirish maqsadida uch yillik reja ishlab chiqildi. Reja asosida Surxondaryo viloyatining Denov tumanida joylashgan kolxozlar o‘z mablag‘lari hisobidan 21ta kutubxonali klub qurishni rejalashtirdilar[3].

1964-yil 19-iyunda O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Klublar huzuridagi kutubxonalar va qiroatxonalarning uyga kitob berishini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyruq, o‘zining kommunistik mafkura asosida olib borilgan targ‘ibot ishlari nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega edi. Bu buyruq, kutubxonalarning faoliyatini faqatgina bilim va ma’lumotlar tarqatish vositasi sifatida emas, balki

ideologik maqsadlar uchun ham samarali platformaga aylantirishni ko‘zda tutgan edi[4].

Kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan, bu buyruqning maqsadi faqatgina kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish emas, balki aholini ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar bilan tanishtirish va jamiyatni ilmiy-ma’naviy tarzda tarbiyalash edi. Buyruqda, ayniqsa, qishloq aholisining kutubxonalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu orqali qishloq aholisi orasida kommunistik g‘oyalar va Sovet Ittifoqining siyosatiga mos fikrlashni tarqatish rejalashtirilgan edi.

1967-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Qishloq joylarda madaniy-oqartuv muassasalari ishlarini yaxshilash va ularning shoxobchalarini rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi qaror esa klublar ishining sifat jihatdan yaxshilanishini nazarda tutdi.

Statistik ko‘rsatkichlar, ayniqsa 1970-yildan 1975-yilgacha bo‘lgan davrda, Surxondaryo viloyatidagi madaniy faoliyat ko‘lamining kengayganini ko‘rsatadi. 1970-yilda viloyatda jami 215ta klub faoliyat yuritgan bo‘lsa, har bir klubda o‘rtacha 11ta ma’ruza va 9ta madaniy kecha tashkil etilgan. 1975-yilga kelib, bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 34ta ma’ruza va 17ta madaniy kechaga oshdi[5]. Bu sonlar, albatta, madaniy-oqartuv ishlarining faoliyat doirasining kengayganini, klublarning ko‘proq tadbirlar o‘tkazganini va aholi bilan ko‘proq ishlashga harakat qilinganini ko‘rsatadi. Bu faoliyatlarning ko‘pchiligi, ayniqsa, klublarda tashkil etilgan tadbirlar va ma’ruzalar ko‘pincha majburan o‘tkazilgan, ular jamiyatni ideologik jihatdan shakllantirish va Sovet tizimining g‘oyaviy targ‘ibotini amalga oshirishning vositalariga aylangan edi.

Sovet davrida klublarning faoliyati ko‘p hollarda sun’iy tarzda tashkil etilib, majburiy ravishda aholini jalb etish orqali amalga oshirildi. Ko‘plab hollarda tinglovchilar – maktab o‘quvchilari yoki kolxozchilar – faqat tashkiliy topshiriq bilan qatnashgan. Klublar zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlanmagan, infratuzilmasi eskirgan edi. Biroq ular sovet mafkurasini singdirish, rejalarni ko‘r-ko‘rona qo‘llab-quvvatlash uchun faol ishlatilgan.

Ayni vaqtda siyosiy o‘qishlar va targ‘ibot ishlari ham yuqori darajada yo‘lga qo‘yildi. 1975-yilning o‘zida respublika miqyosida 200 ming nafar siyosiy ma’ruzachi va targ‘ibotchi faoliyat yuritgan [6]. Ular orqali aholi orasida sovet tuzumining ichki va tashqi siyosatini targ‘ib qilish, “yangicha sovet turmush madaniyati”ni ommalashtirish, ayollarni ijtimoiy mehnatga jalb etish kabi mavzular yoritilgan. Bundan tashqari, 1968-yildan boshlab “Xalq universitetlari” nomli targ‘ibot markazlari tashkil etilib, “Din – xalq dushmani”, “Yangicha urf-odatlar”, “Inson koinotda” kabi mavzularda siyosiy darslar o‘tkazilgan[7].

Statistik jihatdan olganda, 1945-yilda viloyatda 167 ta klub mavjud bo‘lsa, 1985-yilga kelib bu son 245 taga yetgan. Bu o‘sish tashqi ko‘rinishda ijobiy baholanishi mumkin, biroq ichki mazmun jihatdan klublarning aksariyati partiya mafkurasini targ‘ib qilish markazlariga aylantirilgan edi. Aholining real ehtiyojlari, madaniy-ma’rifiy talablaridan ko‘ra, siyosiy topshiriqlar ustuvorlik qilgan.

XULOSA. Sovet davrida madaniy-oqartuv muassasalari, ayniqsa klublar, kutubxonalar va madaniyat uylari kommunistik mafkura targ‘iboti uchun asosiy vositalarga aylantirildi. 1960-yillardan boshlab, bu muassasalar nafaqat ilmiy va madaniy xizmatlarni, balki Sovet Ittifoqining siyosiy va ideologik g‘oyalarini ommaga yetkazish vazifasini ham bajara boshladi. Surxondaryo viloyatida ham madaniy-oqartuv ishlarining ko‘lami kengaydi, ammo ko‘plab qarorlar to‘liq amalga oshmadi. Madaniy tadbirlar, asosan, siyosiy maqsadlar uchun o‘tkazilgan bo‘lib, aholi ularni majburiy tarzda qabul qilgan. Natijada, madaniyat muassasalari faqat ilmiy va madaniy rivojlanish uchun emas, balki Sovet mafkurasini targ‘ib qilish uchun ham ishlatilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Коммунист журнали, 1960, 1-сон, 17-бет.
2. В. И. Ленин. Асарлар, 33-том, 190-бет.
3. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1977. - Б. 118-119.
4. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1977. - Б. 120.
5. Узбекистан за 7 лет. (1959-1965 гг). -Т., 1966. - С. 153.
6. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 95-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 26-варақ.
7. Қишлоқ ҳақиқати газетаси, 1975 йил, 7 сентябрь.
8. O‘zbekiston milliy arxivi, P-2487-fond, 3-ro‘yxat, 1441-ish, 26-varaq.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94(575.1)"1911/2021":3

MUSTAQILLIK DAVRIDA SURXONDARYODA YOSH TADBIRKORLARNING FAOLIYATI: TARIXIY SHART-SHAROITLAR VA DAVLAT SIYOSATI

Karimov Akbar, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ACTIVITIES OF YOUNG ENTREPRENEURS IN SURKHANDARYA IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE: HISTORICAL CONDITIONS AND STATE POLICY

Karimov Akbar, teacher at Termez University of Economics and Service

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МОЛОДЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА

Каримов Акбар, преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

https://orcid.org/0009-0006-6235-9985
e-mail: karimov230582@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida yosh tadbirkorlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy va tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotda yosh tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, davlat siyosati, huquqiy baza va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada yosh tadbirkorlarning erishgan muvaffaqiyatlari, duch kelgan muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Surxondaryo viloyati, yosh tadbirkorlar, davlat siyosati, qonunchilik bazasi, tadbirkorlik muhiti.*

Abstract: *The article studies the formation and development of the young entrepreneurial movement in Surkhandarya region during the years of independence based on a historical and analytical approach. The study analyzes the socio-economic factors, state policy, legal framework and financial support mechanisms that influenced the development of young entrepreneurship. The article examines the successes achieved by young entrepreneurs, the problems they encountered and promising directions for their elimination.*

Keywords: *Surkhandarya region, young entrepreneurs, state policy, legislative framework, business environment.*

Аннотация: *В статье на основе историко-аналитического подхода рассматривается становление и развитие движения молодого предпринимательства в Сурхандарьинской области в годы независимости. В исследовании анализируются социально-экономические факторы, государственная политика, правовая база и механизмы финансовой поддержки, повлиявшие на*

развитие молодого предпринимательства. В статье рассматриваются успехи молодых предпринимателей, проблемы, с которыми они сталкиваются, и перспективные пути их преодоления.

Ключевые слова: *Сурхандарьинская область, молодые предприниматели, государственная политика, законодательная база, деловая среда.*

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlangan bo‘lib, bu jarayonda tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Surxondaryo viloyati – mamlakatning eng janubiy hududi bo‘lib, o‘zining serquyosh iqlimi, tabiiy resurslari va chegara hududidagi strategik joylashuvi bilan tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlarga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mustaqillik yillarida butun O‘zbekiston hududidagi yoshlar tarixiga ularga bag‘ishlab yozilgan asarlar, monografiyalar kiradi. Ushbu guruhga yoshlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan, o‘z ishlarida yoshlar kamoloti masalalarini yoritgan R.Turdiboyev[1] va G.Tulenovalarning[2] e’lon qilingan nashrlarini kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida viloyat tarixi bo‘yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan Surxondaryo viloyatining olimlaridan ayrimlarini ko‘rsatish mumkin. Ushbu mualliflarga E.R.Tillayev[3], F.J.Yormatov[4], S.B.Radjabovalarni[5] kiritish mumkin. Ular o‘z tadqiqotlarida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning ishtirokiga doir ayrim masalalarini o‘rganganlar.

MUHOKAMA. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, ijtimoiy muammolarni hal etishda bozor iqtisodiyotini barpo etish va mamlakatda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish yo‘lidan bordi. Natijada, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari mamlakat xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8-sentyabrda Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida, aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri ekanini alohida ta’kidladi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash bunda alohida o‘rin tutishi belgilandi.

O‘zbekiston dunyo hamjamiyati orasida aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatdir. Yoshlarning aholi orasida ko‘pchilikni tashkil qilishi mamlakatni ertangi kungi barqaror rivojlanishiga katta ishonch beradi. Ularning intellektual va jismoniy kamolotiga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va yoshlar jamoalari hamda tashkilotlari faoliyatini kengaytirishning ko‘plab afzalliklari bor. Shulardan biri kelajak avlodning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish va mablag‘ topish imkoniyatlarini kuchaytirishdir. O‘zbekistonda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 1991-yilda, uning yangi tahriri esa 2016-yilda qabul qilindi[6]. Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatidagi vazifalar aniq belgilab olindi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligi sohasini isloh qilishga qaratilgan, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan dasturlar izchil amalga oshirilmoqda.

Yoshlar siyosatiga oid Qonunning 3-moddasida yoshlarga oid davlat siyosati, “yoshlar (yosh fuqarolar)”, “yosh oila”, “yosh mutaxassis”, “yoshlar tadbirkorligi” tushunchalariga alohida ta’rif berilgan. Qolaversa, Qonunning 2-bobida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari va vazifalari moddalar bilan aniq qilib belgilab qo‘yilgan. 13-moddada esa, yoshlarning mehnat qilishi va bandligini tartibga solish davlat mehnat organlari zimmasiga yuklatilgani aks etadi. Ushbu qonunning 26-moddasida yoshlar tadbirkorligining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishida qanday imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilganligi haqida so‘z boradi. Albatta, qonunda yoshlar masalasiga oid ko‘p qirrali siyosat haqida so‘z yuritilar ekan, har bir ijtimoiy-iqtisodiy masala hisobga olingan. Shunday bo‘lsa-da, yoshlar tadbirkorligini alohida iqtisodiyotdagi tarmoq sifatida ajratishni nazarda tutuvchi modda mavjud emas. 1996-yil 17-apreldagi

TAMADDUN NURI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1425-son Farmoniga ko‘ra, Yoshlar ittifoqi o‘rnida “Kamolot” jamg‘armasi tuzildi[7]. 2001-yil 25-aprelda “Kamolot” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati sifatida qayta tashkil etildi. Shu kuni “Kamolot” YoIHning Dasturi va Nizomi qabul qilindi[8]. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ushbu sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida “Kamolot” YoIH, “Mikrokreditbank”, “Agrobank”, O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi hamkorligida har yili an’anaviy tarzda “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor”, “Eng yaxshi biznes-loyiha” hamda “Yosh tadbirkor kamoloti – qishloq taraqqiyoti kafolati” loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yilning o‘zida loyihada muvaffaqiyatli qatnashib, imtiyozli kreditga ega bo‘lgan 70 nafar yosh tadbirkor o‘z biznes rejalari asosida mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘ydi[9]. 2012-yildan boshlab yosh tadbirkorlar joylarda duch kelayotgan muammolarni o‘rganib tahlil qilish, ularni tezkorlik bilan hal etish, tegishli hokimlik va joylardagi davlat tashkilotlariga takliflar kiritish maqsadida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati hududiy bo‘limlari qoshida “Yoshlar ishonch telefon”lari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son farmonini bajarish yuzasidan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustdagi 669-son qarori qabul qilindi[10]. Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tuzildi. Jamg‘arma nizomiga ko‘ra, yosh tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko‘rsatadi, ularga biznes reja tuzish, “START UP” g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi. Jamg‘arma mablag‘lari doirasida ajratilgan kreditlar ishlatilishi monitoringini yo‘lga qo‘yadi. Tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilgan yoshlar sonining ortishiga banklarning kreditlash tizimidagi muammolarning bartaraf etilishi, tadbirkorlikni boshlash uchun sarmoyalar jalb qilishning ahamiyati katta. 2018–2019-yillar mobaynida yosh tadbirkorlarning 7 690 ta biznes loyihalariga jami 1 trln 614 mlrd so‘m miqdorida imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish orqali 39 577ta yangi ish o‘rni yaratilishiga erishildi[11].

2019-yilda 874ta loyihaga 167 mlrd 171 mln so‘m kredit mablag‘lari ajratilib, 5 854ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan edi. Davlat dasturi doirasida shu yilning yanvar-dekabr oylarida 327 nafar yoshlarning 71 mlrd 213 mln so‘mlik loyihalari moliyalashtirilib, 975 ta yangi ish o‘rinlar yaratildi[12]. Hozirgi kunga qadar 14 ta tuman va shaharda 48 ta “Yoshlar mehnat guzari” kompleksini tashkil etish uchun bino va yer maydonlari ajratilib, tashabbuskor yosh tadbirkorlar jalb qilindi. 2019-yilning dekabr oyi holatiga ko‘ra, viloyatning Qiziriq, Qumqo‘rg‘on tumanlarida 1tadan, Angor va Jarqo‘rg‘on tumanlarida 2tadan “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari qurib bitkazilib, foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 60 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi[13].

2019-yilda yoshlarning tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarga uslubiy va amaliy ko‘mak berish maqsadida 12 oy davomida 42 marotaba “Biznes sayohatlar”, 19 marotaba “Savdo yarmarka”lari, 75 marotaba biznes treninglar hamda 30 marotaba “Muvaffaqiyatga erishish sirlari” mavzusida o‘quv-seminarlar tashkil etilib, 23 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi[14].

2019-yil 23-iyun kuni “Yoshlar markazi” binosida viloyat hokimi hamda yosh tadbirkorlar o‘rtasida “Muvaffaqiyatga erishish sirlari” mavzusida “Ochiq muloqot” hamda “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi orqali imtiyozli kredit mablag‘lari orqali o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlagan yosh tadbirkorlar ishtirokida “Savdo yarmarkasi” tashkil etildi. Ochiq muloqotda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar yosh tadbirkorlarga tadbirkorlik sirlari bo‘yicha ma’lumotlar berib o‘tishdi, unda 410 nafarga yaqin yosh tadbirkorlar ishtirok etishdi[15].

Surxondaryo viloyatida 2019-yilda ishsiz yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining bandligini ta’minlash maqsadida o‘tkazilayotgan “Har bir yoshga bir gektar” loyihasi doirasida 1800 nafar yoshlarga takroriy ekin ekish

TAMADDUN NURI

uchun yer ajratib berildi. Natijada yana 2230 nafar yoshlar qo‘shimcha ish bilan ta’minlandi[16].

XULOSA. Xulosa qilib qayd etish kerakki, Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va mahalliy shart-sharoitlar natijasida sezilarli rivojlandi. Viloyatning chegaradosh hudud sifatidagi strategik joylashuvi, tabiiy resurslari va turizm imkoniyatlari yosh tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun muhim omillar bo‘ldi. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik bazasining shakllanishi, kredit va grant tizimining joriy etilishi hamda “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi yoshlarning biznesga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Surxondaryoda yosh tadbirkorlar qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va innovatsion texnologiyalar kabi sohalarda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Туленова Г. Молодёжная политика в Республике Узбекистан: развитие и перспективы, Ташкент: Aloqachi, 2008.
2. Turdiboyeva R. Yoshlarning huquqiy madaniyatining shakllantirish, Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. Tillayev E.R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar (Janubiy viloyatlar misolida; tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. - Toshkent, 2010.
4. Yormatov F.J. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010-yillar. Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2010.
5. Radjabova S.B. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning tutgan o‘rni (1991-2020 yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2022.
6. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 7.07.2020. kirish rejimi: https://lex.uz/acts/3026246
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining Kamolot jamg‘armasi to‘g‘risidagi PF-1425-son farmoni // 17.04.2021-yil https://lex.uz qidiruv tizimi.
8. O‘zMA, M-13 fond, 1 –ro‘yxat, 1-ish, 2-varaq.
9. Yusupov R. Eng yaxshi biznes loyiha // Turkiston gazetasi. 2010-yil 6-noyabr №83-84.
10. Vazirlar Mahkamasining 16.08.2018-yil 669-son qarori // https://lex.uz qidiruv tizimi, murojaat qilingan sana 30.03.2021.
11. Yoshlar – kelajagimiz jamg‘armasi joriy arxivi, 2020-yil, 3-06 jild, 1-varaq.
12. Surxondaryo viloyati iqtisodiyot boshqarmasi joriy arxivi. 2019-yilgi ma’lumotlar papkasi.–B. 56.
13. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi. 2019-yil 26-dekabr, 12-bayonnoma.–B.68.
14. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining joriy arxiv ma’lumotlari (Ma’lumotlar elektron shaklda taqdim etilgan).
15. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar – kelajagimiz jamg‘armasi joriy arxivi. 2018–2021-yil ma’lumotlari.
16. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi, 2019-yil 26-dekabr, 12-bayonnoma.–B.68-69.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 796.071.4:378.2

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARIDA KREATIV FIKRLASH, IJODIY FAOLLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0009-0007-9591-9739
e-mail: fazliddinyaqubov46@gmail.com

IMPROVEMENT OF SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITY BY DEVELOPING COMPETENCIES OF CREATIVE THINKING AND CREATIVE ACTIVITY IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, associate professor Uzbek state university of physical culture and sports, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-

ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПУТЕМ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ, ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ

Якубов Фазлиддин Мухитдинович, доцент Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Annotatsiya: *Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida yangiliklarni kiritish, samarali metodlarni ishlab chiqish va yangi g'oyalarni ilgari surishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, kreativ, kreativ fikrlash, ijod, ijodiy faoliyat, ilmiy tadqiqot, kasbiy kompetentlik.*

Abstract: *It plays an important role in the development of creative thinking and creative activity competencies in specialists in physical culture and sports, and in improving research activities. The formation and development of such competencies contributes to the introduction of innovations in the process of conducting scientific research, the development of effective methods, and the promotion of new ideas.*

Key words: *specialists in physical culture and sports, creative, creative thinking, creativity, creative activity, scientific research, professional competence.*

Аннотация: *Развитие компетенций креативного мышления и творческой деятельности у специалистов по физической культуре и спорту играет важную роль в совершенствовании научно-исследовательской деятельности. Формирование и развитие таких компетенций способствует внедрению инноваций в процессе проведения научных исследований, разработке эффективных методов и продвижению новых идей.*

Ключевые слова: *специалисты по физической культуре и спорту, креативное, творческое мышление, творчество, творческая деятельность, научные исследования, профессиональная компетентность.*

KIRISH. Dunyo ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik va axborot texnologiyalarining zamonaviy modellarini maqsadli hamda manzilli qo'llashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativ fikrlash va ijodiy faollik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativ fikrlash va ijodiy faollik kompetentligini kompleks rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi. Chunki, O'zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan yosh va tashabbuskor kadrlarga bog'liq"[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy sport tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. Kreativ fikrlash va ijodiy yondashuv sportning o'zi kabi tez o'zgaruvchan va talabchan bo'lgan sohada eng yangi usullarni va metodlarni yaratish, muammolarga yangi qarashlarni taklif qilish hamda sportchilarning rivojlanishini maksimal darajada qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kreativlik kompetensiyasi quyidagi faoliyatlarda namoyon bo'ladi: nostandart qarorlar qabul qilish; oldin o'zlashtirilmagan usullardan foydalanish; o'ziga xos individual uslubni yaratish; mashg'ulotlar jarayonida yangi g'oyalarni qo'llash.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha dunyo olimlari bir qancha izlanishlar olib borgan. Bu izlanishlar asosan sportda yangi yondashuvlar, texnologiyalar, pedagogik metodlar va ijtimoiy omillarni kiritish orqali ijodiy faollikni oshirishga qaratilgan.

Amerikalik olim D.Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" deb ta'rif beradi[2]. John Devey esa ta'lim va pedagogikada kreativ fikrlashning rivojlanishini targ'ib qilgan. U "tajriba orqali o'rganish" deb nomlangan interaktiv o'qitish metodini kreativlikni rivojlantirishda muhim deb hisoblagan[3]. Yana bir olim Howard Gardner o'zining "Ko'p intellektlar nazariyasi"ni ishlab chiqqan va bunda har bir odamda turli xil intellektual qobiliyatlar mavjudligini ta'kidlagan. U jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda musiqiy yondashuvni ilgari surgan[4]. Gardnerning bu nazariyasi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilishga yordam bergan. Siegfried Engelmann kreativlikni rivojlantirish uchun "ko'rish va anglash" metodini taklif qilgan [5]. Bunda bolajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ijodiy faollik kompetentligini rivojlantirish uchun ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ta'kidlagan.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzi yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash, shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Yana bir olim A.Maslou esa kreativlikni barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrof-muhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat, deb hisoblagan[6].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faollik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha an'anaviy yondashuvlardan tashqari yangi va innovatsion

metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu yangi va innovatsion metodlar ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga, sportchilarni yangi sharoitlarda o‘zlarini sinab ko‘rishga undashga va turli muammolarni hal qilishda innovativ usullarni qo‘llashga ko‘maklashadi. Bunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faollik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan quyidagi yo‘nalishlarni taklif etamiz:

1) Game-based learning (O‘yinga asoslangan o‘qitish). Bu uslubda o‘quv jarayonida turli o‘yin elementlarini qo‘llash orqali motivatsiya va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Masalan: dars mashg‘ulotlarida sportchilar o‘zlarini raqiblar bilan raqobatlashadigan sharoitda sinab ko‘rishadi va ijodiy fikrlashni o‘rganadilar.

2)VR technologies (Virtual reallik asosida mashg‘ulotlarni tashkil qilish). Bunda sportdagi yangi texnologiyalar virtual reallikda qo‘llaniladi. Bu real hayotda bajarilishi qiyin bo‘lgan vazifalarni virtual muhitda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, futbolchilar va basketbolchilar uchun VR texnologiyalari yordamida real o‘yindagi muhim vaziyatlar va qarorlarni ko‘rib chiqish orqali ijodiy fikrlash va rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

3) Integrating arts and sports (San’at va sportni integratsiyalash). Bu uslub jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga ijodiy va estetik yondashuvlarni o‘rgatish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. San’at elementlarini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga kiritish orqali sportchilarni yangi fikrlash usullarini sinab ko‘rishga rag‘batlantirish mumkin. Masalan, raqs orqali jismoniy moslashuvchanlik va ritmni yaxshilash mumkin. Bu shuningdek, sportchilarning ijodiy va estetik fikrlashini rivojlantirishga ham olib keladi.

4) Interactive trainings and exhibitions (Interaktiv mashg‘ulotlar va ko‘rgazmalar). Bu yondashuvda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari onlayn platformalar yoki mobil ilovalar yordamida o‘z faoliyatini tahlil qilishga urinib ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Masalan, sportchilar o‘zining ko‘rsatkichlarini interaktiv tarzda kuzatib borib, o‘ziga xos ijodiy yondashuvlar va takliflar yaratishlari mumkin.

5)Innovatsion jamoaviy ishlarga rag‘batlantirish. Bu uslub jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ijodiy faollikka jalb qilish uchun jamoaviy ishlash rag‘batlantiriladi. Jamoaviy ish orqali sportchilar o‘zaro fikr almashadilar va yangi g‘oyalar yaratadilar.

XULOSA. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ijodiy faollik kompetensiyalarini rivojlantirishda noodatiy yo‘nalishlar, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg‘or kadrlar kerak. Ma’ruza. Xalq so‘zi gazetasi. 19.12.2018. B.3-4.
2. Veksler D. Structure of intellect. California. 2018. P.138-142.
3. John Devey. Democracy and Education. 2016. P. 26-28.
4. Howard Gardner. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. 1983. P. 310-313.
5. Siegfried Engelmann. Teaching Reading. 2005. P.124-128.
6. Maslow A. Toward a Psychology of Being. New York, Van Nostrand. 1998. – 354 p.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 101.1

MUTAFAKKIRLAR ADABIY MEROSI VA MUTASAVVUF PORTRETI

Axatov Lutfillo Karamatilloyevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri

LITERARY HERITAGE OF THINKERS AND PORTRAIT OF A SUFI

Akhatov Lutfillo Karamatilloevich, Head of the Department of "Interfaculty Social Sciences" of Chirchik State Pedagogical University

ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ И ПОРТРЕТ СУФИЯ

Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, заведующий кафедрой "Межфакультетские общественные науки" Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0000-0002-9804-6220
e-mail: l_axatov@cspi.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda tasavvufning rivojlanishi so'fiylar axloqi va falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tatbiq qilindi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.*

Kalit so'zlar: *axloq, tasavvuf (arab.:* التَّصَوُّف), so'fiy, ilm, irfon, adabiyot, falsafa, tarix.

Abstract: *In this article, the development of Sufism is applied to Sufi ethics and philosophical observation based on an irrational approach. In this, we look at the example of scientific approaches to Sufism and Sufis to understand ethical views.*

Key words: *ethics, Taṣawwuf (arabic:* التَّصَوُّف*), sufi, science, Irfan, literature, philosophy, story.*

Аннотация: *В данной статье развитие суфизма рассматривается с точки зрения суфийской этики и философских наблюдений, основанных на иррациональном подходе. При этом научные подходы к суфизму и суфиям рассматривались в качестве примеров для понимания этических взглядов.*

Ключевые слова: *этика, суфизм (араб.:* التَّصَوُّف *), суфий, наука, ирфан, литература, философия, история.*

KIRISH. Attor va Navoiyning potret yaratishdagi mahorati shundaki, obrazning potretini mukammal chizib bermagan holda, u yoki bu obraz bilan potretga xos ba'zi belgi va ishoralarni keltirish bilan ularning to'liq qiyofasini o'quvchi ko'z oldida gavdalantira olgan; obrazlarning potretlari bilan ularning ruhiyati, ichki dunyosi mos ravishda tasvirlangan, masalan: Attor "Tazkirat ul-avliyo"da Abdulloh Husayn Xiybaqning potretini to'liq chizmasa-da, lekin unga qisqacha ta'rif bera turib, ya'ni "U g'avvosi daryoyi din va bahri durri yaqin, qutbi ahdi maktab va rukni ahdi sabaq, ilmda bag'oyat mohir, ibodatda benihoyat, taqvo va tavakkul ahli, avliyolikda mashhur edi"[1; 340-b]. Muallif birgina "g'avvos" so'zini qo'llash orqali ramziy ifoda uslubidan mohirona foydalanib, "ilm"ni katta bir daryoga, mashoyixni (Abdulloh Husayn Xiybaq)ni "g'avvos"ga, ya'nikim, shu ilm ummoniga sho'ng'uvchi buyuk ilm-ma'rifat sohibi ekanligini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantira olgan. Yoinki, mashoyixni "g'avvos"ga qiyoslash orqali badiiy san'atning tashbeh, istiora kabi san'atlardan o'rinlli foydalanganini ko'rish mumkin. Navoiy esa "Nasoyim ul-muhabbat"da Molik Dinorga bag'ishlagan fiqradagi tasvirga qaraydigan bo'lsak, "Bu toifani akobiridindur. Otasining oti Dinor ermish. Va ul bandazoda ermish, ammo ikki olamdan ozoda ermish"[2;41-b.] deb, o'zaro qofiyadosh bo'lgan takroriy "ermish" so'zini qo'llash bilan "saj" san'atining yuksak

namunalaridan foydalangan bo‘lsa, “ikki olamdan ozoda” so‘zlarini qo‘llash orqali Molik Dinorni ikki dunyo saodatiga erishgan zot sifatida tasvirlaydi. “Tazkirat ul-avliyo” va “Nasoyim ul-muhabbat” tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to‘rt mazhab boshliqlari – imom A’zam, imom Molik, imom Shofe’iy, imom Ahmad ibn Xanbaldan tortib Muhammad G‘azzoliy, Bahouddin Valad, o‘g‘li Jaloliddin Rumiy, Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. [6; 1-4-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tazkiraning tasavvuf olamida tutgan o‘rniga to‘xtalsak, turkiy xalqlar orasida Navoiyning tasavvuf nazariyasining asoschisi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarida tasavvuf tariqatlaridan Qassoriylik tariqati, Nuriylik tariqati, Hakimiylik tariqati, Xafifiylik tariqati, Rifo’iya tariqati, Qodiriya tariqati, Yassaviya tariqati, Naqshbandiya tariqati, Chishtiylik tariqati, Suhravardiylik tariqati, Ne’matullohiylik tariqati kabilarning ulug‘ vakillari tasvirlangan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘z mulkining sultonlari tasavvuf va tavhid ilmining nozik masalalari, ma’rifat asrori, tariqat maqomlari, poklanish jarayoni va ruhiy kamolot darajalarini ramziy-tamsiliy hikoyatlar talqini, hayajonli, lekin yorqin she’riy satrlarda tasvirlaganlar. Rivoyat va hikoyatlarda boshqa vositalar ham, peyzaj ham inson faoliyatining ma’lum tomonlarini, uning xarakterini ochishga xizmat qiladi. Peyzaj bir tomondan obrazlar xarakterini ochishga yordam bersa, ikkinchi tomondan hikoyatning emotsional kuchi va ta’sirchanligini oshiradi. Tabiat, muhit kabi joylar, mashoyixlardagi holat va karomatlarning real tasviri badiylikning mukammalligini ta’minlagan. Xususan, rivoyat va hikoyatlarda mashoyixlarning ichki dunyosi, ma’naviy boyligi, o‘ylari, fikr va kechinmalarini chuqur tasvirlab bergan.

MUHOKAMA. Attor va Navoiy tazkiralarida uchraydigan tarixiy shaxslar (mashoyix-shoirlar, podshohlar, olimlar) asarning asosiy g‘oya va maqsadini aniqroq anglashga xizmat qiladi. Masalan, “Tazkirat ul-avliyo” va “Nasoyim ul-muhabbat”da Ibrohim ibn Adham haqida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, u avval Balx viloyatining podshohi bo‘lgan. Bir kuni Ibrohim Adham ovga chiqishni ixtiyor etadi va ovga borayotganda hotifdan bir nido kelib, “Ey Ibrohim, seni bu ish uchun yaratmaydurlar”, degan so‘zni eshitib, podshohlik (dunyo)ni tark etib, Allohga yuzlanganini mualliflar mahorat bilan tasvirlaganlar. Bunday tasvir faqat asarning badiiy qiymatinigina emas, balki asarning asosiy g‘oyasi bo‘lgan “tasavvufiy (irfoniy) ilm”ni mashoyixlar surati va siyrati timsolida yorqinroq tushunib yetishga xizmat qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi albatta.

Bu esa tasavvufning sof nazariy ma’nolarini teran anglashilishi bilan birga so‘fiyona g‘oyalarning ommaviylashuviga yo‘l ochgan. Yana quvonarli jihati shundaki, asarda tasavvufiy atamalar ham berilgan bo‘lib, ularning tasavvuf ilmida tutgan o‘rni beqiyosdir. Bunday atamalardan nuqabo, valoyat, maqomot, tariqat, ma’rifat, suluk, qutb, g‘avs, abdol kabilarni aytishimiz mumkin bo‘ladi. Attorning “Tazkirat ul-avliyo” va Navoiy hazratlarining “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asari tasavvuf adabiyotining shoh asari sifatida necha asrlar davomida ilm ahliga xizmat qilib kelayotganligi tahsinga sazovordir[3;50-57-b].

Ushbu bobdan olinadigan hikmat shuki, mutasavvuflar tomonidan bayon etilgan tazkiralardagi uslubiy jihatlari mualliflar o‘zlarigacha bo‘lgan tazkiranavislar uslubidan foydalanganlaridan, ya’nikim, sharqona uslubdagi tazkirachilikdagi an’anaviy uslubdan tashqari, har birlari individual o‘ziga xos uslublardan foydalanib, o‘z tazkiralarini bitganlar. Shu bilan birga, Attorning tazkirasi forsiy tildagi yozuv asosida keltirilgan bo‘lsa, Navoiyning tazkirasi qadimgi Chig‘atoy turkiy yozuv asosida bayon etilganligi bilan farqlanadi. Tazkira basmala bilan yozishga asoslangan bo‘lib, yozuvchilar asardagi potret tasviri mukammal chiqishi uchun badiiy san’atlardan mohirona-san’atkorona foydalana bilganligi bilan yuksak mahoratlidir. Misol uchun Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi Abu Hozim Makkiy potretidagi tasvirda muallif mashoyix potretini qo‘yidagicha tasvirlaydi: “U rahbarlar muxlisi, hidoyatdagilar rahbari, sobiqlar chirog‘i, sodiqlar tongi, boylig-u kambag‘allik ma’dani, mujohada, mushohada va riyozat ichida bemisl, uning so‘zi barcha ko‘ngillarga maqbul, barcha mushkullarning yechuvchisi va uning so‘zlari ko‘p, va lekin biz qisqa qildik” [1; 73-b.] deb bayon qiladi.

NATIJALAR. Attor tanosub, tazod, tashbeh singari badiiy san’atlar ila birga istiora va saj san’atidan, mahoratidan keng foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Yana bir miisol “hidoyatdagilar rahbari”, “sobiqlar chirog‘i”, “sodiqlar tongi”, “boylig-u kambag‘allik ma’dani” kabi istioralar

ushbu iqtibosdagi matn badiiyatini ta'minlagan asosiy omillar sanaladi. Attor va Navoiy mashoyixlar surati va siyratini tasvirlashda turli epizodlardan mohirona foydalanganlar. Ular nazarlarida haqiqiy so'fiy bu avvalo dunyo va uning moliga e'tibor bermaydigan, aniqroq qilib aytganda, mol-u mulkdan mosuvo bo'lgan odamdir. Attor va Navoiy inson ruhiyatini chuqur bilgan, uning murakkab ichki dunyosi va nozik ruhiy kechinmalarini katta badiiy mahorat bilan ifodalay olgan buyuk so'z san'atkorlaridir. Bir so'z bilan aytganda, Attor va Navoiy mashoyixlar surati va siyrati shunday tasvirlaganki, asar qahramonlari o'quvchi tasavvurida o'zining individual xususiyatlari bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy payg'ambarlar haqida so'zlab, ularning yashagan davrlariga to'xtaladi, aniq yillarni keltiradi (masalan, Mahoyil binni Qinon 865 yil yashagan). Shuningdek, payg'ambarlarning ahli ayoli, farzandlari, kasb-u kori haqida ma'lumot beriladi. Payg'ambarzodalarning hammasiga ham payg'ambarlik maqomi berilmagan, ularning ba'zilarigagina Allohdan vahiy tushgan. Masalan, Odam Atoning nevarasi Anush, uning o'g'li Qinon kabilar bu sharafga noil bo'la olmaganlar. Shu tariqa muallif oltmishdan ziyod payg'ambar va payg'ambar avlodlarining hayoti, tarjimayi holini batafsil yoritadi. Zikr etilganlar sirasida Qur'onda nomi tilga olingan barcha payg'ambarlar, Luqmoni Hakim, Zulqarnayn kabi vahiy tushgan yo tushmagani ixtilofli bo'lgan valiy zotlarni ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur asarda bir zamonda bir necha payg'ambarlar yashagani ham aytiladi. Masalan, Is'hoq (a.s.) vafot etgan yili Yusuf a.sning Misr hokimi bo'lgani va hokazo. Shuningdek, Qur'onda tilga olingan "As'hobi kahf" qissasi ham mazkur asardan o'rin olgan. Payg'ambarlar qissasi hajman o'zaro farqlanadi. Ba'zi payg'ambarlar, masalan, Xizr (a.s.) haqida qisqa ma'lumot bilan cheklanilsa, Yusuf (a.s.), Ibrohim (a.s.), Muso (a.s.) va Iso (a.s.)larning hayotiga doir juda ko'p voqealar bayon qilinadi. Alisher Navoiy Yusuf (a.s.) haqidagi qissani bayon qilishga kirisharkan, Firdavsiy Tusiy va Abdurahmon Jomiylar ham mazkur mavzuda doston yozganlarini aytib, o'zining ham turkiy tilda masnaviy yozish niyati borligini bildirib o'tadi [7; 70-b].

XULOSA. Mazkur qismda keltirilgan ma'lumotlarning bosh manbasi Qur'oni Karim bo'lib, muallif o'z fikrlarini asoslash uchun muayyan oyatlarni havola qilib boradi. Yana bir e'tiborli jihati, Alisher Navoiy payg'ambarlarning iymoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlaydi. Masalan, Ayyub (a.s.)ning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to'smaganini aytarkan, bu bilan sevgi va do'stlikning sobit bo'lishi haqidagi g'oyalarini bayon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Т.: Ғафур Ғулом, 2017. 73.
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Movarounnahr nashriyoti. T., 2017.
3. Akhatov. The Problem of Human Psychological Crises in the Views of Emil Durkheim. *Наука, образование и культура* 6.50 (2020): 50-57. Web.
4. Шайх Зулфиқор Аҳмад Нақшбандий. Тасаввуф вас-сулук – Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 2023. – Б. 4.
5. Имом Зарнужий. Таълимул мутаъаллиму тариқат таъаллими. - Илм олиш сирлари. – Тошкент: Munir. 2022. – Б. 33.
6. Akhatov, L. (2020). The spiritual connection of Sufism and Tolerance in the works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, *1*(2), 1-4.
7. Қобилов У. Нубувват мотиви ва мумтоз поэтика. Самарқанд, 2019. Б. 69-70.
8. Akhatov, L. (2020). The problem of tolerance in oriental philosophy. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, *6*(7), 130-133.
9. " تذکرةُ الأولیاءِ" شیخ ابی حامد محمّد بِنِ اَبی بَکرِابراهیم فَریدالّدین عطّار نیشاربوری/ چاپ بنجم انتشارات مرکزی خیابان شاه مقابل مسجد سجاد/ در سدهٔ هفتی هجری. ص. ۱۲۸

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.85:97.76

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA BARMOQ VA ARUZ VAZNINING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI (RAUF PARFI IJODI MISOLIDA)

Begamova Dilafruz Xolmurzayevna, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

FEATURES OF THE USE OF BARMAK AND ARUZ METERS IN UZBEK POETRY (ON THE EXAMPLE OF RAUF PARFI’S WORK)

Begamova Dilafruz Holmurzaevna, Independent researcher at Termez State University

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ БАРМАКА И АРУЗА В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА РАУФА ПАРФИ)

Бегамова Дилафруз Холмурзаевна, независимый исследователь Термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0003-7180-5041
e-mail: begamova@mail. ru

Annotatsiya: *Maqolada shoir Rauf Parfi she’riyatining tasvir imkoniyati keng va rang-barangligi, jozibador ohanglarga ega ekanligi, his-tuyg‘ular, ruhiy kechinma va ko‘ngil olamining poetik fikr-mulohazalari bilan uyg‘unlashgan ijod namunasini barmoq va aruz vazni orqali ifoda etganligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ohang, so‘z sehri, sillabik, metrik, sillo-tonik, tonik, barmoq, aruz.*

Abstract: *In the article, the poet Rauf Parfi points out that poetry has wide and colorful possibilities of imagery, that it has attractive tones, and that it expresses the pattern of creation combined with the poetic opinions of the soul, emotions, and the soul through barmak and aruz meters.*

Key words: *melody, word magic, syllabic, metric, syllo-tonnic, tonic, barmak, aruz.*

Аннотация: *В статье анализируется широкий и красочный диапазон образов в поэзии поэта Рауфа Парфи, его притягательная мелодика, а также выражение им творческого образца, сочетающего эмоции, духовные переживания и поэтические размышления о внутреннем мире через систему бармака и аруза.*

Ключевые слова: *мелодия, магия слова, слог, метрика, силло-тонический, тоника, бармак, аруз.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ma’lumki, she’r ohang bilan izchil tartibga solingan hayajonli va ritmik nutq sifatida insonning his-tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari ifodalovchisidir. Tarixchi olim, tazkiranavis ijodkor Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida keltirilishicha: “She’r so‘zining lug‘aviy ma’nosi “topmoq” va “bilmoq”dir. Shu jihatdan shoirni “biluvchi va topuvchi” deb ataydilar. Chunki shoir boshqalar topa olmaydigan sara so‘zlarni topadi va ular tizimiga o‘zgalar eplay olmaydigan darajadagi shaklni beradi. Istiloh sifatida “she’r” so‘zi ma’no, vazn va qofiyaning hamohang kelishini anglatadi. Chunki yaratuvchisi ularni ana shu bir-biriga bog‘liqlik asosida shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Rauf Parfi she’riyatining tahlili masalasida ijodkorlarimizdan Rahimjon Rahmat,Yuldosheva U., Tojiyev X., Fayzullayeva O, Sodiqov B., Fayzullayeva O., Quronov D.lar an’anaviy o‘zbek she’riyatining qoidalari va o‘ziga xos uslublar haqida fikr yuritiladi. Maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez,

qiyoslash kabi metodlari va ilmiy-nazariy tamoyilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Shoir Raif Parfi "Ko'zimga to'qinar malolat, tuman" deb boshlanuvchi 1976-yilda yozilgan she'ri barmoq vaznining mukammal namunasi sifatida 11 bo'g'in (6+5 turoqlanish)dan iborat. An'anaviy 11 bo'g'inlik mazkur she'rda ritm misralardagi bo'g'inlarning miqdori jihatdan ma'lum bir tartib bilan takrorlanib, turoqlarning miqdori va tartibi, bandlarining bir xillikda takrorlanishi asosida badiiy mukammallik yuzaga kelgan:

6 - 5
Ko'-zim-ga to'-qi-nar / ma-lo-lat, tu-man, /
6 - 5
Chek-siz-lik qo'y-ni-da / ya-lan-g'och su-kut. /
6 - 5
Ru-him-da mu-al-laq / jim-lik be-za-bon - /
6 - 5
Ne-ki o't-kan bo'l-sa, / bar-cha-sin u-nut / [2].

Ma'lumki, barmoq vaznida bo'g'inlar muayyan guruhlarga ajratilishi orqali yuzaga keluvchi ritmik bo'lak "turoq" deb nomlanadi. Stopa, ya'ni turoq vazifasiga ko'ra aruz vaznidagi ruknga o'xshash vositadir. Yuqoridagi har bir misrada 11 tadan bo'g'in bo'lib, ular ikki guruhga ajralishi orqali turoq hosil bo'lgan. Birinchi guruh 6, ikkinchi guruh esa 5 bo'g'indan tashkil topgan. Misralardagi turoqlarning miqdori (ikki guruhga ajralganligi) va takrorlanish tartibi 6+5=11 natijasida 11 lik turkum paydo bo'lgan.

"Vazn she'r tizimi qonuniyatiga asoslangan holda aniq bir she'rning o'lchovini bildiradi. Masalan, aruz she'r tizimi qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslanadi, vazn esa takrorlanishning konkret she'rdagi tartibini belgilayotgan o'lchovini bildiradi"[4]. Vazn she'rda o'z vazifasini ritm, band, qofiya unsurlari bilan birgalikda bajaradi. Shu jihatdan, bo'g'inlar miqdori turkumni yuzaga keltirsa (jumladan, o'n bir bo'g'inli misra o'n birlik turkum deb atalsa), turkumdagi turoq va bosh turoqlarning miqdori vaznni, ularning joylashish tartibi esa ritmni hosil qiladi. Masalan:

1. 3 - 3 - 3
Turkiston / tug'lari /tikilgan, //
3 - 3 - 3
Vatansiz/ kaslarning / yo'li berk. //
3 - 3 - 3
Zorlangan,/ zo'rlangan,/ to'kilgan, //
3 – 3 - 3
Erkidan / ayrilgan / Qutlug' Erk // [2].

2. 4 - 5
Siniq osmon, / bir yulduz mudrar,//
4 - 5
G'amli yulduz / tanho, benavo, //
4 - 5
Qora dunyo / qo'yniga sudrar, //
4 - 5
Ko'zlariga / chang yutgan havo// [2].

Shoirning "Adashgan ruh" hamda "Siniq osmon, bir yulduz mudrar" nomli she'rlaridan keltirilgan parchalar bir turkum, ya'ni to'qqizlik turkumda yozilgan bo'lib, lekin ularning ritmlari ikki xil: birinchisida 3+3+3 va ikkinchisida 4+5 tarzida yuzaga kelgan. She'rning bunday ritmik-intonatsion xususiyatining hosil bo'lishida shoir vazn talablariga qat'iy amal qiladi.

4 - 3
Osmon tiniq/ beg'ubor, //
4 - 3
Unda kuldi / nur quyosh.//
4 - 3
Yerlardagi / kumush qor, //
4 - 3
Erimoqda / to'kib yosh // [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). "Do'stimga" deb nomlangan mazkur she'r sodda va 7 bo'g'in asosida 4+3 turoqda shakllangan. Ko'rinib turibdiki, she'rning musiqiyligi va badiiyligini ifodalahda ritm muhim ahamiyat kasb etgan. Barmoq she'r tizimida ko'p hollarda she'r misrasidagi bo'g'inlarning miqdori, turoqlar soni va ularning joylashish tartibi boshqa misralarda ham muayyan tartibda takrorlanib kelishidan vazn hosil bo'ladi. "So'nmas ruhimizda…" deb boshlanuvchi beshlik (muxammas) she'ri barmoq vaznida 11 hijolik turkumda yaratilgan.

6 - 5
Uyg'on, turk dunyosi,/ muqaddas Turon, //
6 - 5
Quyosh, boshimizdan / sochgil qutlug' nur.//
6 - 5
Asl Turk yurti bu/, qadim, navqiron,//
6 - 5
Temur umidi bu,/ Turkiston mag'rur,
6 - 5
Uyg'on, turk dunyosi,/ muqaddas Turon // [2].

Ushbu she’rning birinchi misrasidagi bo‘g‘inlarining miqdori (11 bo‘g‘in) va turoqlarining soni (ikki turoq) hamda tartibi (6+5) boshqa misralarda aynan takrorlanib, she’r vazni (6+5=11)ni yuzaga keltiradi. She’r 6+5 sxemali 11 bo‘g‘inlik barmoq vaznida yozilgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Barmoq she’r tizimi vaznlarga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu tizimdagi vaznlarning sodda, qo‘shma va erkin vazn deb nomlanuvchi turlari mavjud.

Yuqoridagi she’r ham sodda vazn tipida yaratilgan. Umuman, uning she’rlari orasida barmoq vaznining 4, 5, 7, 9, 11 hijoli turkumlaridagi sodda vazn asosidagi she’rlar borligi aniqlandi.

She’rning ikki va undan ortiq turkumlarda yozilgan shakli qo‘shma vaznga misoldir. Uning birinchi misrasi bo‘g‘inlari soni bir xil va ikkinchi misradagi bo‘g‘inlar soni esa boshqa xilda bo‘ladi.

Rauf Parfi ijodida nafaqat barmoqdagi, balki aruz vaznida yozilgan she’riy namunalar uchraydi. Asosan, ular muxammas shaklida mumtoz adabiyotimiz namoyandasi va zamonaviy shoirlarimiz she’rlariga bog‘lab yaratilgan.

Mutaxassislar muxammasning uch turi haqida ma’lumot beradi. Ular: a) bir shoir mustaqil muxammas yozadi; b) shoir o‘ziga yoqqan biror g‘azalga muxammas bog‘laydi va u taxmis deb ataladi; v) shoir o‘z g‘azaliga taxmis qiladi[1]. Shoir ijodida yuqorida nomlari keltirilgan muxammaslarni mustaqil muxammaslar deb atash mumkin. Biroq ularni aruz vaznida to‘liq yaratilgan deb bo‘lmaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi adabiyotimizda, asosan, barmoq vazni juda keng foydalanilgan davrda ijod qilgan bo‘lsa-da, muxammaslarini aruz vaznida yozadi. Umuman, yetakchi o‘rinda turuvchi barmoq bilan cheklanmaganligi shoir she’rlarining ritmik-intonatsion xususiyatlarining ortishiga, ulardagi musiqiylik, xushohanglik va o‘ynoqilikni ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Fayzullayeva O. Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonet (monografiya). – T.: Turon zamin ziyo, 2014.
2. Parfi R. She’rlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016.
3. Qosimov B. Adabiy-tarixiy jarayon (3-jild). – T.: O‘qituvchi, 2017.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
5. Quronov D.H., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013.
6. Rahimjon Rahmat. Adabiyotdan chiqish. – Toshkent.: Akademnashr, 2015.
7. Samarqandiy M. Tazkirat ush-shuaro. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
8. Sodiqov B. Ko‘zlardagi dunyo/O‘zbek adabiy tanqidi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2011.
9. Tojiyev X., Fayzullayeva O. Rauf Parfi ijodida sonet. //Sharq yulduzi, 2016. №4.
10. Yuldosheva U. Fikrlar tasviri. //So‘z san’ati, 2021. №3.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.79

ODIL YOQUBOV ASARLARIDA MA'NONING IMPLITSIV IFODALANISHI

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna, Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

ИМПЛИЦИТНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ СМЫСЛА В ТВОРЧЕСТВЕ ОДИЛА ЯКУБОВА

Эргашева Дильрабо Алланазаровна, (DSc) докторант Термезского государственного университета

IMPLICIT EXPRESSION OF MEANING IN THE WORKS OF ODIL YAKUBOV

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna, Doctoral student (DSc) of Termez State University

https://orcid.org/0009-0003-3369-6622
e-mail: ergashevadilrabo1988@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Odil Yoqubov asarlarida ma'noning implitsiv ifodalanishi yoritilgan. O'zbek tilining o'ziga xos jozibasi, estetik kuchi yozuvchi asarlaridan olingan matnlar asosida leksik va pragmatik implitsivlik asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy matn, implitsiv ifoda, yashirin ma'no, leksik implitsivlik, pragmatik implitsivlik.*

Abstract: *The article examines the implicit expression of meaning in the works of Odil Yakubov. The unique charm and aesthetic power of the Uzbek language are analyzed on the basis of lexical and pragmatic implicitness based on texts taken from the writer's works.*

Keywords: *literary text, implicit expression, hidden meaning, lexical implicitness, pragmatic implicitness.*

Аннотация: *В статье освещается имплицитное выражение смысла в творчестве Одила Якубова. Неповторимое очарование и эстетическая мощь узбекского языка анализируются на основе лексической и прагматической имплицитности на основе текстов, взятых из произведений писателя.*

Ключевые слова: *художественный текст, имплицитное выражение, скрытый смысл, лексическая имплицитность, прагматическая имплицитность.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Noyob badiiy asarlar insoniyat tafakkurining oliy mahsuli hisoblanadi. Ular tilning imkoniyatlari, qudrati va nafosatini, estetik kuchini namoyon qiluvchi hodisadir. O'tgan asrda yangi tadqiq yo'nalishi sifatida dunyoga kelgan, bugungi kunda o'zining tadqiq qonuniyatlarini belgilab olgan lingvopoetika ana shunday badiiy asar (badiiy matn) lar tilini o'rganuvchi sohadir[1]. Badiiy matn tilini o'rganishda til birliklari va uning estetik vazifasi muhim sanaladi. Badiiy ta'sir kuchi eng avvalo so'zda mujassamlashgan. Muallifning badiiy maqsadiga ko'ra so'z mutlaqo rangin va turfa bo'yoqlarda namoyon bo'ladi. Implitsiv ma'no ana shu badiiy maqsadga yo'naltirilgan so'z qudratini ko'rsatishda ifoda usullaridan biri hisoblanadi.

Implitsiv tushunchasi – bu biror narsa yoki holatning to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmagan, lekin kontekst yoki kelishuv orqali anglashiladigan ma'nosidir. Bu tushuncha ko'pincha muloqotda, ijtimoiy munosabatlarda yoki ma'naviy masalalarda uchraydi. Biror gapda yoki jumlada aniq aytilmagan, lekin eslatilayotgan, kutilayotgan ma'nolar implitsiv tushunchani hosil qiladi. Bu esa tilning nozik va murakkab jihatlarini o'rganishda ham muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tilshunoslikda implitsivlik – bu ma'lum bir so'z yoki ifodaning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan tashqari, kontekst orqali qabul qilinadigan qo'shimcha ma'no yoki tushunchalarni

anglatadi. Bu tushuncha muloqotda noaniqliklarni, ijtimoiy kontekstni hisobga olib, ma'lum bir ma'noni o'z ichiga oladi. Implitsivlik asosan ikki turga bo'linadi: 1.Leksik implitsivlik – so'zlarning ma'nosi va ularning kontekstda ishlatilishi o'rtasidagi munosabat; 2.Pragmatik implitsivlik – muloqot jarayonida ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy va madaniy kontekst. Bu tushuncha muloqotda qatnashuvchilarning qaysidir fikrini, hissiyotini yoki holatini ifodalash imkonini beradi.

Odil Yoqubov asarlarida o'zbek tilining be-takrorligini, jozibadorligini ko'rsativchi turli xil ma'noning implitsiv ifodalariga duch kelamiz. Ular-dan biri ma'noning implitsiv ifodasidir: – *O mavlo-no, mavlono! Sizday yetuk donishmand bu ishda sabiylik qilibdur. U qari tulki bu sir-asrorni bilib olmoqchi? Lekin Salohiddin zargar!.. Yo'q bu darvesh yolg'on so'zlamas!* ("Ulug'bek xazinasi", 78-b). Ushbu matnda leksik implitsivlikni *qari tulki* so'zi ifodalagan. O'zbek mentalitetida *tulki* ayyorlik, ochko'zlik ramzi sanaladi. Yaponiya milliy madaniyatida bu so'z donolik, donishmandlikni aks ettiradi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni orqali va shunga ko'ra boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi[2]. Ma'noning implitsiv ifodasida leksema mohiyati uning ichki tomoni orqali so'z yoki ifodaning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan tashqari, kontekst orqali qabul qilinadigan qo'shimcha ma'no yoki tushunchalarni anglatadi. Masalan:

– *Ont ichmog'ingizga ne sabab bo'ldi, otajon? – dedi Ali Qushchi.*

– *E-e, buning hangomasi uzoq, inim. Bir kuni sohibqiron bir qilich buyurdi. Sopi oltindan, o'zi po'latdan bo'lsin, chopganda toshni kessin, dedi. Yasadim. Shunday qilich bo'ldikim, Amir Temur qo'lida to'nkaday toshni yog'dek kesdi. Ammo falakning gardishini qarang, mavlono, sal o'tmay ul shohi beshafqat osiy banda yasagan shul qilich bilan Ko'ksaroy maydonida yolg'iz og'am, birdan-bir jigargo'shamning kallasini oldi!.. – Chol ko'zlarini yumib, lablarini pichirlatib tilovat qildi va yuziga fotiha tortdi.* ("Ulug'bek xazinasi", 81-b). Ushbu matnda berilgan "hangoma" so'zi aslida ijobiy ma'noga ega bo'lgan so'z hisoblanadi. Ammo nutqda yashirin "fojea", bo'lib o'tgan noxush voqea haqidagi xabar ma'nosi implitsiv ifodalangan[3].

Badiiy matnda ma'noning implitsiv ifodalanishi bilan bog'liq mazmuniy tahlil ifodaning shakliy jihatidan qat'i nazar nutq ishtirokchilarining "nima demoqchi ekanliklari" haqidagi yashirin bayoni bilan xarakterlanadi: – *Nima balo? Bitta-yarimtasi bilan topishib qoptimi u yoqda? Fazilat yalt etib o'g'liga qaradi. – Qayoqdagi gaplarni topasan-a, bolam? – Qayoqdagi gaplar emish! – Uning bunaqa bo'lishiga... siz ham aybdorsiz! Qizingizni yo'lga solish o'rniga o'z fe'lingiz bilan uni... ja!* ("Diyonat", 103-b). Matnda aynan so'zlovchi nazarda tutgan axborot boshqa nutq ko'rinishi orqali implitsiv ifodalanganligi yozuvchining mahoratini ko'rsatadi.

Pragmatik implitsivlikda matndagi asl ma'no ko'p hollarda oshkora bayonga ega bo'lmaydi. So'zlovchilar o'zaro ijtimoiy, hissiy, madaniy niyatini metaforik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar bilan yoki maqol, matal, ibora asosida bildiradi: – *Nega indamaysan? – dedi Qodirjon. – Pishgan oshni buzmoqchimisan yo? Bu yoqda biz, u yoqda dadamlar... hamma xursand bo'p turganda...* ("Diyonat", 103-b). Ushbu matnda "bo'lishi kutilayotgan to'yni buzma, hammasi hal bo'lgan", mazmunli ma'no implitsiv ifodalangan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).

Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o'rtaga tashlangan "g'ayrioddiy birikmalar", "o'ziga yot stilda qo'llangan so'zlar", "so'zning aniqligi" kabi mavzularning tahlil natijasi pragmatik to'siq xususidagi hodisaning mavjudligi haqida ma'lumot beradi[4]. Bizningcha, badiiy matnda ma'noning implitsiv ifodalanishi nazariy jihatdan o'rganilmagan, ma'lum til faktlari yordamida tahlillarga muhtoj. Odil Yoqubov asarlarida bunday yopiq ifodalar turfa nutq shakllari bilan berilganki, yozuvchi o'zining so'z qo'llash uslubini yaqqol namoyon eta olgan: – *Esimda, profisor, esimda. Ammo-lekin... – Bas yetar, ko'tar jiyda xaltangni! – o'shqirdi Normurod Shomurodov. – Endi haligi... ishonib yurgan pulsirot ko'prigingda duch kelmagunimizcha qorangni ko'rmay sening!* ("Diyonat", 132-b). Berilgan matnda bu yerdan yo'qol, endi u dunyoda ko'rishamiz, ma'nosi implitsiv ifodalangan.

Badiiy asar leksikasining lug'at tarkibi, leksik-semantik va tematik guruhlari, so'zlarning uslubiy hamda ma'no qirralari, birinchi navbatda asar uchun xos bo'lgan mavzuga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan asar muallifi bo'lmish adibning

lisoniy mahoratiga, qobiliyatiga bog‘liqdir[5]. Odil Yoqubov asarlarida ana shunday o‘ziga xoslik uning so‘zni tanlab qo‘llashida ko‘rinadi: *Haydar xushnud kayfiyatda Qodirjonni chetga chiqarib, – Sengayam hayronman, Latofat o‘z jigarim-ku, lekin... sening o‘rningda bo‘lsam allaqachon haligidaqa... tilini qisib qo‘yardim uning! Haydar beixtiyor ijirg‘anib, teskari burilib ketdi.* (“Diyonat”, 165-b). Ushbu matnda hayosizlik, xudbinlik, tubanlik ma’nolari implitsiv ifodalangan. Tashqi nutq aniq moddiy ifodalanmay, nutq vaziyati bilan, so‘zlovchi maqsadi, imkoniyatlari ostida tashkil topgan. Bu esa implitsivlikni hosil qiladi.

Har qanday matnda axborot so‘zlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy ko‘rinishdan iborat bo‘ladi. Bular yoyiq va yig‘iq mazmun shakllaridir. Bunday mazmun shakllari so‘zlovchining kommunikativ niyati bilan bog‘liq ravishda matnning u yoki bu qismlarida namoyon bo‘ladi. Yig‘iq-yashirin axborot kontekstlari turlicha shakllardan iborat bo‘lganligi uchun unga nisbatan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda “bir umumiy tushunchani ifoda etuvchi umumyashirin (“implikatsiya”) atamasini qo‘llaydilar[6]. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslikda ma’noning implitsiv ifodalarini o‘rganish bugungi kunda tilning yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat bermoqda. Badiiy matn tahlilida esa ma’noning implitsiv ifodasi ham pragmalingvistik, ham psixolingvistik tahlilini amalga oshirishi mumkin. Yozuvchi Odil Yoqubov asarlarida ana shunday yopiq ifodalar ko‘pchilikni tashkil etadi: *Shomurodov, nihoyat hushini yig‘ib, cho‘qmorday mushti bilan yog‘och karavotni qarsillatib urdi. – Nimalar deyapsan o‘zi ahmoq?*

– Siz aralashmang mening ishimga! – Haydar g‘azabi jo‘sh urib, domlaga yuzlandi. – Bir marta chalib yiqitganingiz ham yetar! Yo yana oyog‘imdan olib, go‘rga tiqmoqchimisiz meni aziz tog‘ajonim?.. (“Diyonat”, 169-b). Ushbu matnda kesatiq ma’nosi implitsiv ifodalangan. Uslubiy tagma’no ko‘rinishlarida so‘zlovchi o‘z ichki maqsadini boshqa uslubiy shaklda ifoda etgan.

Yozuvchi asarlarida shunday yopiq ifodalarni ham qo‘llaganki, unda so‘zlovchilar o‘rtasida madaniy konsept, ya’ni o‘ziga xos yashirin ifodalar o‘zbekona mentalitetga asoslanadi. Masalan, o‘zbek oilasida ota va qiz suhbatida andisha, or, nomus birinchi o‘rinda turadi. O‘zbekona hurmat, izzat oilaviy nutqda saqlanadi: *Fazilat, nihoyat, o‘pkasini bosib, ko‘zini artdi. – Kechiring otajon. Eski gaplarni qo‘zg‘ab ko‘nglingizga ozor berdim shekilli. Men bu gaplarni qo‘zgamoqchi emasdim, shunchaki, qudam, jiyaningizning qiliqlari...*

– Qaysi qiliqlarini aytasiz?

– Qaysi birini aytay? O‘sha odam... o‘sha odamning shuncha nopok ishlari... axir men ham, biz ham odammiz-ku, otajon?

– O, qizim, qizim-a! – dedi o‘ksib. – U faqat seni emas, o‘z tog‘asini ham odam deyapgani yo‘q. O‘g‘li... bo‘lg‘usi kuyovimiz ko‘rsatgan nag‘malarini aytmay qo‘ya qolay. Bir chetini o‘zingiz ko‘rdingiz (“Diyonat”, 175-b). Matnda eridan xiyonat, zulm ko‘rgan qizning o‘z otasiga suhbat mohiyatini yopiq implitsiv ifodalar asosida berganini kuzatishimiz mumkin. Asl ma’noning implitsiv ifodalanishi millatning ko‘zgusi, tarbiya-axloqini namoyon etadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Odil Yoqubov shunday qalam sohibi ediki, uning qalb tug‘yonlarini, dil nidolarini, har bir yozgan asaridan ham o‘qib, ham uqib olish mumkin. So‘zdan foydalanish, qahramonlar nutqidagi ma’noning implitsiv ifodasini takrorlanmas darajada kitobxon ko‘z oldida gavdalantirib beradi. O‘zbek tilshunosligida ma’noning implitsiv ifodasini o‘rganish bugungi zamonaviy tilshunosligimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1.Muqimova Z. O‘tkir Hoshimov asarlarida tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – B. 160.

2.Nematov B., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O‘qituvchi. Toshkent, 1995. – B. 55.

3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik, 4-tom. – Toshkent: O‘zME, 2006–2008. – B. 504.

4.Abduraxmonov X., Maxmudov N. So‘z estetikasi. Toshkent. 1981. – B. 61.

5.Umurkulov B. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2020. – B. 252.

6.Hakimov M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol. fanl. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2001. – B. 31.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.85:96.112

IDEALS OF HUMANISM AND FREETHOUGHT IN THE ERA OF FENLIGHTENMENT IN THE LITERATURE OF THE 18TH CENTURY

Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna, teacher of Samarkand State University of Kattakurgan branch

XVIII ASR ADABIYOTIDA MA'RIFATPARVARLIK DAVRIDAGI GUMANIZM VA ERKIN FIKR IDEALLARI

Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna, Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

ИДЕАЛЫ ГУМАНИЗМА И СВОБОДОМЫСЛИЯ В ЭПОХУ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРЕ XVIII ВЕКА

Мамадкулова Камила Абдухаликовна, преподаватель Самаркандского государственного университета Каттакурганского филиала

https://orcid.org/0009-0003-9794-5528

e-mail: kamilamamadulova@mail.ru

Abstract: *This article is devoted to the Age of Enlightenment in the literature of the 18th century. The Age of Enlightenment is one of the key periods in European culture of the 18th century, closely connected with the development of science and philosophy. The basis for the new social movement was the ideals of humanism and free-thinking.*

Keywords: *classicism, realism, sentimentalism, humanism, freethinking, philosophical story, philosophical poem, genres, educational philosophy and science.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola XVIII asr adabiyotidagi ma'rifat davriga bag'ishlangan. Ma'rifat davri XVIII asr Yevropa madaniyatining fan va falsafa taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asosiy davrlaridan biridir. Yangi ijtimoiy harakatning asosi insonparvarlik va erkin fikrlash g'oyalari edi.*

Kalit so'zlar: *klassitsizm, realizm, sentimentalizm, gumanizm, erkin fikrlash, falsafiy hikoya, falsafiy she'r, janrlar, tarbiyaviy falsafa va fan.*

Аннотация: *Данная статья посвящена эпохе Просвещения в литературе XVIII века. Эпоха Просвещения — один из ключевых периодов в европейской культуре XVIII века, тесно связанный с развитием науки и философии. Базой для нового общественного движения выступили идеалы гуманизма и свободомыслия.*

Ключевые слова: *классицизм, реализм, сентиментализм, гуманизм, свободомыслие, философская повесть, философская поэма, жанры, просветительская философия и наука.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). The Age of Enlightenment is one of the key periods in the European culture of the XVIII century, closely connected with the development of science and philosophy. The basis for the new social movement was the ideals of humanism and freedom of thought.

There are several theories of the chronological boundaries of the Enlightenment. According to the most common one, it began in 1688 with the accession to the English throne of William of Orange, and ended with the beginning of the Great French Revolution in 1789. The main feature of this

period is reliance on the human mind, the desire for independent thinking, and getting out from under the yoke of authority. Experience, logic and reason are gradually taking the place of supreme power and religion. Literature has never been so connected with philosophy.

In the Russian literature of the XVIII century, there was a noticeable serious lag behind foreign literature. When great literary forms were developing in England and France and the intellectual freedom of the individual was extolled, in our country they continued to admire the royal power and rewrite the lives and paretic's. The genre diversity was negligible [1].

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Features of the development of literature of the XVIII century There are three directions in the literature of this period: Classicism; Realism; Sentimentalism.

Classicism is a trend in European culture of the XVII-XVIII centuries, focusing on ancient examples of creativity and recognizing them as the norm. Enlightenment classicism clearly divided genres into two types and did not allow them to mix:

Low — these included satire, comedy and fable. These works told about the life of the common people or the bourgeoisie. The writing style is conversational.

High is an ode, a heroic song, a tragedy. They praised the rulers and talked about the upper strata of society[2].

In the works of classicism, the basic rule of three unities was applied — action, place and time. Such a work has one plot line, so its composition was simple. All events should take place in one day and in a specific place, without moving in space. At the same time, many principles of image construction and approach to the image were borrowed from the classicists of the XVII century, but unlike them, the activities of the enlighteners were aimed not at strengthening, but at loosening the absolutism of the existing government. Realism is a trend in art that aims to truthfully depict reality (including social injustice).

Educational realism is reforming the old system of genres. Petty-bourgeois comedy and drama appear in literature, the novel acquires great importance (in it the character of the hero gradually changes under the influence of events and, in general, the work is educational in nature)[2]. Sentimentalism is a trend in art that is characterized by an increased interest in the sensory field of perception and an overly emotional attitude to surrounding events.

DISCUSSION(ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA) The greatest reflection of sentimentalism is reflected in the genres of the novel and elegy. Since this trend focuses on human feelings and experiences, it is very different from classicism, which exalted reason and logic. For this reason, much attention in the works of sentimentalists is paid to the description of life situations and natural phenomena.

The history of Russian literature of the XVIII century is a change in the nature of the Russian worldview, when it passes from the ecclesiastical to the secular. The beginning of this was laid under Peter I by the introduction of the civil alphabet in 1708 and other social reforms. But it was not immediately that Russian literature acquired a national idea, striving for independence and expression of civic positions (embodied, for example, in Alexander Radishchev's essay "Journey from St. Petersburg to Moscow"). She has consistently been through the influence:

German — under Peter I (the beginning of the XVIII century)[3].

French — under Elizabeth and Catherine II (the middle of the XVIII century).

Anglo-German — the second half of the reign of Catherine II (the end of the XVII century). And only after that, Russian society approached the creation of literature based on national trends and manifesting itself as an independent form of public consciousness.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). At the beginning of the XVIII century, Russian literature was dominated by:

Hagiographic literature — it was widely distributed, as it was promoted by the church,

TAMADDUN NURI

including in the form of the publication of special collections.

Works of praise (eulogies) — the most famous genre here are odes that glorified the current monarchs. This trend has become firmly entrenched in Russian literature, despite further reformatory transformations[4].

The reformer of Russian literature was Vasily Trediakovsky. Having received a brilliant education in Russia and abroad, he translated a large number of works of European literature (including ancient Greek), making it easier for his contemporaries to integrate into world culture. It was Trediakovsky who defined prose and poetry in various directions. He also developed the rules of Russian versification.

The formation of new literature in the first half of the XVIII century The period before 1730 in foreign literature refers to the early Enlightenment. This is the period of educational classicism, productively developing genres such as tragedy, epic, ode. Despite the fact that the author's capabilities were limited by the material of ancient philosophy and mythology, the fiction of this time played a significant role in reforming society (for example, in preparing the ideological foundations for the Great French Revolution)[5].

During this period, Voltaire's most famous tragedies on the themes of famous historical events occurred — "Brutus" (1730), "The Death of Caesar" (1732), "Zaire" (1732), "Mahomet, or Fanaticism" (1741). His poem The Virgin of Orleans (1735) became a bold satire on the clergy and on medieval France in general. The development of the novel genre begins, which originated in England in a family, household and social form. For example, during this period, Daniel Defoe created The Life and Adventures of Robinson Crusoe, a Sailor from York (1719) and The Joys and Sorrows of the famous Moll Flanders (1722). The first work, despite its obvious adventure bias, hides a serious subtext about the spiritual rebirth of the hero. The second book is a typical example of the picaresque genre. In 1726, Jonathan Swift released the satirical and philosophical novel Gulliver's Travels, where in an allegorical form, through a demonstration of the way of life of the countries he invented, he shows the shortcomings of his time in a grotesque form [3].

The English poet James Thompson in the collection "The Seasons" (1730) lays the foundations of sentimentalism. The description of the farmer's work against the background of a rural idyll occupies a central place in the proposed poems. The choice of the hero and the setting for that time was a real innovation. Satire is a sharp manifestation of the comic in art, which is a poetic humiliating denunciation of phenomena using various comic means: sarcasm, irony, hyperbole, grotesque, allegory, parody and others. A gradual process of transformation in literature begins. In 1729, the first edition of Antiochus Cantemir's satires "On the Blasphemous Teachings" appeared, defending the educational policy of Peter I. The work of this poet also played a major role in the development of the Russian literary language and versification [6].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). In general, at the end of the XVIII century, the foundation for further rapid transformations began to form in Russian literature. In a few decades, this will result in the golden age of Russian literature, the time of Alexander Pushkin, Ivan Krylov, Mikhail Lermontov and other talented writers and poets.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. Alexandrova I.B. Poetic speech of the XVIII century:studies – M.: Flint: Nauka, 2005. – 368 p.
2. Gukovsky G.A. Russian literature of the XVIII century: textbook. for universities – M.: Aspect Press, 2003. – 452 p.
3. Lebedeva O.B. The history of Russian literature of the XVIII century: textbook. for universities of rivers. – M.: Higher School, 2003. – 415 p.
4. Mineralov Yu.I. History of Russian literature of the XVIII century: textbook. handbook for universities of rivers. Ministry of Defense of the Russian Federation. – M.: Vlados, 2003. – 255 p.
5. Mineralov Yu.I. History of Russian literature XVIII: textbook. manual. – M.: Higher School, 2007. – 382 p.
6. Orlov P.A. The history of Russian literature of the XVIII century: textbook. for students. – M.: Higher School, 1991. – 318 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 091.274.112

BILIMLARNING HAQIQIYLIGI VA HAQIQAT

Panjiyev Suhrob, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE VERACITY OF KNOWLEDGE AND TRUTH

Panjiyev Sukhrob, Termez University of Economics and Service, Acting Associate Professor of the Department of "Social Sciences" (PhD)

ПРАВДИВОСТЬ ЗНАНИЯ И ИСТИНА

Панжиев Сухроб, и.о. доцента кафедры "Социальных наук" Термезского университета экономики и сервиса, (PhD)

https://orcid.org/0009-0004-2448-9047

e-mail: suhrob.panjiyev@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada haqiqat tushunchasining falsafiy mazmuni, uning turlari va mezonlari to'g'risida hamda haqiqat turlarining dialektik aloqadorligi xususida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *falsafa, fan, haqiqat, bilim, mezon, amaliyot, mutloq haqiqat, nisbiy haqiqat, obyektiv haqiqat, subyektiv haqiqat.*

Abstract: *The article examines the philosophical content of the concept of truth, its types and criteria, as well as the dialectical relationship between the types of truth.*

Key words: *philosophy, science, truth, knowledge, criteria, practice, absolute truth, relative truth, objective truth, subjective truth.*

Аннотация: *В статье рассматривается философское содержание понятия истины, ее виды и критерии, а также диалектическое соотношение типов истины.*

Ключевые слова: *философия, наука, истина, знание, критерии, практика, абсолютная истина, относительная истина, объективная истина, субъективная истина.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ma'lumki, faylasuflar azaldan haqiqat mohiyatini anglab yetishga harakat qilganlar. Chunki, faylasuflarni hamma vaqt kundalik hayotning moddiy xarakteridan uzoq turuvchi haqiqatlar qiziqtirgan edi. Hatto faylasuflar haqiqatni izlashda yanglishganlarida ham falsafaga ehtiyoj o'lgani yo'q. Hamon barcha odamlar aqlli mavjudot ekanliklariga da'vo qilar ekanlar, falsafa ular hayotining ko'zgusiga aylanadi, uning yordamida hayotiy mo'ljallar izlab topiladi. Shuning uchun falsafiy qarashda barcha masalalar shaxsiy omillarni hisobga olishni ko'zda tutadi. "Haqiqat mohiyatini bilish asosida inson o'zini qurshagan olamni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi" [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Haqiqat, uning turlari masalasi azal-azaldan olim va faylasuflar tomonidan keng tadqiq etib kelingan. Xususan, Platon o'zining "Bazm" nomli dialogida Suqrot nomidan tasvirlaydi: "Donishmandlikni (Haqiqatni) sevgan inson (faylasuf) Haqiqatga intiladi. Haqqa intilish - bu go'zallikka intilishning oliy ko'rinishidir". Fransuz faylasufi va tabiatshunos olimi B.Paskalning "Haqiqat "qalb mantig'i"ga va Xudoning mavjudligini subyektiv his etish orqali dalillanishiga asoslanadi", degan fikri diqqatga sazovor. Shu ma'noda hayot haqiqatini to'g'ri anglash hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan. Zero, bu dunyoda inson sha'niga munosib faqat bitta intilish bor, u ham bo'lsa dunyo va undagi o'z o'rnini, o'zining bu dunyoga qanday, nima uchun (qay maqsadda) kelganini, ya'ni hayotida yuksak ma'no va maqsad bormi yoki yo'qmi, agar bor bo'lsa bu nimadan iboratligi haqidagi haqiqatni bilishdir. Haqiqat – favqulodda keng tushuncha. Bu so'zdan foydalanish xususida V.S.Solovyov shunday yozgan

edi: “Agar haqiqat nima?” degan doimiy savolga: haqiqat – bu uchburchak burchaklarining yig‘indisi ikki to‘g‘ri burchakka teng, yoki vodorodning kislorod bilan birikishidan suv hosil bo‘ladi, desa – bu yomon hazil bo‘lmaydi”[4].

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Shu paytgacha hech kim haqiqat masalasida yaxlit fikrni aytolganicha yo‘q. Shuning uchun ham bugungi kunda falsafaning gnoseologiya va epistemologiya sohalarida mazkur masalada chuqur izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu falsafiy bilim sohalarining haqiqatni tadqiq etish masalasidagi muammolari mazkur mavzuning qanchalik darajada dolzarbligini belgilaydi. Bu borada quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

Birinchidan, bugungi kunda hayotiy qadriyatlarni qayta baholash uchun qandaydir universal haqiqatlar tazyiqidan qutulish, qarashlarning o‘zaro muvofiqlashuvi va o‘zaro ta’sirlashuvi uchun asoslar topishga intilish va bunda bu qarashlarning sohibi insonning individualligini va o‘ziga xosligini saqlab qolish lozim. Ayni shuning uchun ham haqiqat mohiyatini aniqlash ularning mezonlarini belgilab olishda muhim o‘rinni egallaydi.

Ikkinchidan, odamda mulohaza qilish qobiliyatining rivojlanishi va ilmiy bilimlarning o‘sib borishi haqiqatni falsafiy izlash yo‘llari va vositalarini belgilab beradi. Buni biz haqiqat to‘g‘risidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasidan ham bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu qarashlarni yaxlit holda tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Uchinchidan, haqiqatni aniqlashga doir asosiy yondashuvlarni tahlil qilish bir qancha paradoksal xulosaga olib keladi, garchi ham hayotiy, ham ilmiy amaliyotda haqiqat tushunchasi foydalanilsa ham, aslida, uni oxirigacha aniqlangan, dyeb bo‘lmaydi. Insoniyat hali nafaqat tabiatga, jamiyatga va insonga tegishli faktlar va qonunlarni kashf qilishga to‘g‘ri keladi, bundan tashqari, haqiqat tushunchasining o‘ziga tegishli faktlar va qonunlarni ham ochishga, ya’ni yangi “haqiqat haqida haqiqatni” topishga to‘g‘ri keladi. Bu yozuv stoli ustida emas, odamlarning fan, san’at, axloq, butun hayot haqida konkret haqiqatlarni olishga imkon beradigan turli-tuman faoliyat shakllarida qaror topadi. Buning uchun esa falsafadagi haqiqatning konseptual asoslaridan samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

To‘rtinchidan, insonning haqiqatni bilishga oid faoliyati, albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham zamonaviy fan va falsafiy qarashlar rivojlanishi natijasida haqiqat masalasi borasida falsafiy-metodologik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida mazkur masalalar doirasidagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarni hisobga olgan holda tanqidiy va tahliliy fikr-mulohazalarni ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Beshinchidan, yuksak bilim asosida kuch-qudratli bo‘lishga intilish insonni haqiqatni bilish xarakterini belgilab beradi. Bu esa haqiqatning gnoseologik xususiyatlarini to‘g‘ri va oqilona yoritib berish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Darhaqiqat, bugungi kunda inson jamiyati haqiqat o‘z erkinligi hissini yo‘qotish chegarasidan asta-sekin chiqib kelmoqda. Falsafa bu qadriyatlarning o‘tkinchi emasligini qayd qilib turadi, chunki bu qadriyatlarsiz hayot o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shaxsning hayotiy rejalari ham, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini belgilash ham aqlning shunchalik quruq o‘yini emas. Inson o‘z hayotini ikki marta yashay olmaydi : bir marta asl maqsadlarsiz shunchaki “qoralama” tarzida va ikkinchi marta asl ideal va maqsadlarga muvofiq o‘tay olmaydi. Maqsadlar va ideallar hayotimizni takrorlanmas va jozibali qiladi. Ular hayotni saqlab turadi. Chunki odamlar o‘z hayotlarini ana shu maqsadlarga moslab, muvofiqlashtirib yashaydilar. Donishmandlik o‘zini ham, boshqalarni ham bostirishda emas, balki o‘z-o‘ziga va atrof-dunyo bilan muvofiqlikda yashashdir. Bunda falsafaga murojaat qilish ruhning rivojini ta’minlaydi, uni eski aqida va stereotiplardan tozalashga, hozirgi zamon maqsadlariga mos istiqbol yo‘llariga boshlashga xizmat qiladi.

“Haqiqat aslan yaxlit, bir butun. Lekin inson tafakkurida u turli qismlar (fragmentlar), xillar, qirralar va darajalarga ajralgan holda namoyon bo‘ladi”[3]. Boshqacha aytganda, inson o‘z fikrida voqelikni turli qismlarga ajratib o‘rganadi, uning har xil qirralarini ko‘radi, unga turli darajadagi teranlik

bilan yondashadi. Shu ma'noda shakllangan bilimlardan har birining inson va jamiyat hayotida o'z o'rni va ahamiyati mavjudligi bilan birga, o'z cheklanganligi, adashuv va yolg'onligi ham bor. Shuning uchun qaysi bilim to'g'ri ekani borasidagi bu tortishuvlar, bizningcha, aslan yaxlit, mutlaq haqiqatning tafakkurda bir-biridan ajratilgan aspektlarining uzluksiz va uyg'un birlikka , yaxlitlashuvga keltirish, ular birgalikda murakkab, ulkan va yaxlit iyerarxiya tashkil etishini tushunish qiyin kechayotganining oqibatidir. Yer yuzida inson zotidan boshqa hech bir tirik jonning bunday muammo bilan ishi yo'q. Hech qaysi tirik mavjudot shu haqiqatni deb o'z jonidan ham voz kecha olmaydi. Shu ma'noda "insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi"[1].

Shu o'rinda yana bir masalani qayd etishimiz o'rinli bo'lardi, bugungi kunda gnoseologiya, ya'ni haqiqatni bilish metodlari va yo'llari haqidagi asl falsafiy ta'limot o'rnini epistemologiya – ilmiy bilim spetsifikasini, uning taraqqiyot qonunlarini va boshqa shu kabi muammolarni tahlil etishdan iborat tor analitik ilmiy nazariyalar egallamoqda. Shuning uchun ham endilikda gnoseologiyaning o'rnini egallagan bu "falsafa" – epistemologiya asl haqiqatning chuqur falsafiy tahlilini amalga oshirishga qodir emasligi ko'rinib turibdi. Zero, bizning falsafiy tafakkurimiz faqat epistemologiya masalalari bilan cheklanib qolganligi uchun ontologiyaga oid tushunchalar, xususan, ontologiyaga oid olov (nur)ning, gnoseologiyaga oid logos (nus)ning asl ma'nosini yorita olmaydi va ularni bevosita mantiqan bog'lay olmaydi, sintezlay olmaydi. Ayni shu yerda, muammoni dialektik uslub yordamida yoritishga katta zarurat tug'iladi (agar u ham epistemolog faylasuflar nazaridan soqit qilinmagan bo'lsa, albatta). Bu sintezni amalga oshirishning qiyinligi, asosan shundaki, shu vaqtgacha biz dialektikani faqat tabiatdagi, jamiyatdagi ayrim hodisalarni va qisman mantiqiy bilish jarayonini tushunishga tatbiq etishda yuqori marralarga erishib keldig-u, lekin uni falsafiy tafakkurning o'ziga, xususan, ontologiya bilan gnoseologiyani uzviy birlikda qabullashga tatbiq etmagan edik.

Klassik an'anada haqiqat bilimning shunday xossasi hisoblanadiki, bu bizning ongimiz mazmunining obyektiv holatga muvofiqligidir. Klassik an'anada "haqiqat bilimning inson ongi mazmunining obyektiv voqelikka muvofiq kelish xossasi"[2], deb tushuniladi. To'g'ri, bunda shunday bahs kelib chiqdi: mulohazalar aql g'oyalariga mos kelishi kerakmi yoki sezgi ma'lumotlarigami? Chunki, asl ma'noda bilimning borliqning o'ziga mos kelishi talabi bajarilishi mumkin emas, axir borliq hamma vaqt bilish shakllarida beriladi-ku.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqatni aniqlashga doir yondashuvlardagi turli farq bu so'zning biror mustaqil mavjud mohiyatni aniqlash ma'nosida ishlatilganmi yoki inson bilimining xarakteristikasi sifatida ishlatilganiga bog'liq bo'ladi. Avvalo, bu haqiqatni tushunishdagi ikki asosiy an'ana: ontologik (bu ancha ilgarigi, Platon nomi bilan bog'liq) an'ana va gnoseologik (Aristotel nomi bilan bog'liq) an'anaga tegishli. Bu ikki sharhlash orasidagi asosiy farq shundaki, agar Platon va uning maslakdoshlari haqiqatni biror borliqqa tegishli narsa desalar, Aristotel uni bizning ongimizning bilish mazmunining xarakteristikasi, uning mantiqiy bog'langan nutqda (hukmda) ifodalanishi, deb biladi. Birinchi holda, haqiqat – bu o'z-o'zicha borliqdir, ikkinchi holda esa – bizning bu borliq haqidagi haqiqatdan bilganimizdir. Shunday qilib, Aristotelda "haqiqatning o'rni" hakamlik qiluvchi gap, bu gapda hukmdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan voqelik haqidagi tasdiq yoki inkor aks etadi.

Adabiyotlar ro 'yxati (Использованная литература / References):

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Panjiyev S. Ma'naviy tahdidlar sharoitida haqiqatning ahamiyati. O'zMU xabarlari. – Toshkent: Universitet. 2012-yil 4-son. – B. 127.
3. Panjiyev S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Fal.f.f.d.diss. – Samarqand: SamDChTI, 2023. – B. 15.
4. Соловьев В.С. Философские начала цельного знания//Соч.Т.2 – Москва.1988.–230 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 37.013 (22.116)

BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATIDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Qodirova Nargiza Muxtarovna, Yangi asr universiteti o‘qituvchisi

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Кадирова Наргиза Мухтаровна, преподаватель университета Yangi asr

THE ROLE OF MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF FUTURE HISTORY TEACHERS

Kadirova Nargiza Mukhtarovna, Teacher at Yangi asr University

https://orcid.org/0009-0003-1656-2198
e-mail:
qodirova.nargiza@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi, dars jarayonlaridagi faoliyatning interaktiv yondashuvi va metodlardan foydalanishning samarali natijalari haqida so‘z yuritiladi.*

Abstract: *This article examines the interactive approach to the activities of future history teachers in their professional activities, lesson processes and effective results of using methods.*

Keywords: *history, teacher, interactive approach, pedagogical activity, modern technologies.*

Kalit so‘zlar: *tarix fani, o‘qituvchi, interaktiv yondashuv, pedagogik faoliyat, zamonaviy texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается интерактивный подход к деятельности будущих учителей истории в профессиональной деятельности, процессы уроков и эффективные результаты использования методов.*

Ключевые слова: *история, учитель, интерактивный подход, педагогическая деятельность, современные технологии.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – o‘quvchilarga zamonaviy bilim berish, tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Xususan, tarix fani o‘qituvchilari uchun bu vazifa ikki karra mas’uliyatlidir. Chunki ular nafaqat o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazadi, balki yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va mustaqil tafakkurga o‘rgatadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilarga darslarni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tarzda tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, bo'lajak tarix fani o'qituvchilari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kasbiy mahoratni oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash va tarixiy jarayonlarni yanada chuqur anglashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning tarix fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS). Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatining metodikasini takomillashtirish masalasiga ko'plab tadqiqotchilar e'tibor qaratganlar. Tarix fanini o'qitish metodikasida hozirgi kungacha bir qancha olimlar ish olib borganlar va turlicha xulosalarga kelishganlar. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalalari respublikamiz olimlaridan Z.Abdinazarova[1], X.Alimov[2], N.Azizxo'jayeva[3], N. Muslimovlarning[4] ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan.

Z.Abdinazarova o'zining "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida targ'ib etish" nomli maqolasida "Tarix darslarida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda interfaol metodlardan "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodidan foydalanish yuqori samara beradi", deb hisoblaydi[1]. X.Alimov "Aqliy hujum" nomli maqolasida tarix darslarida foydalanilgan metodlar, xususan "Aqliy hujum metodini o'tkazuvchi kishi ma'lum muammoni ilgari suradi va ishtirokchilardan bu muammoni hal qilish bo'yicha qanday mulohazalari borligini so'raydi hamda ulardan eng kutilmagan fikrlarni ham ilgari surishlarini so'raydi. Metodni o'tkazuvchi kishi barcha fikrlarni yozib boradi. Shu o'rinda aytilayotgan fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabat bildirilmaydi va fikrlar oxirigacha, so'nggisi aytilganigacha yozib borilaveradi", – deb hisoblaydi[2]. Ushbu tadqiqotchining fikriga ko'ra, muammoning bunday tahlili muammo haqida tinglovchilarda tasavvur paydo qiladi va tinglovchilar muammoni hal qilish yo'llarini topishda qiynalishmaydi.

N. Muslimov "Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari" nomli ilmiy tadqiqot ishida akmeologik nuqtayi nazarning o'ziga xosliklarini tahlil etish asosida uning muhim funksiyalari sifatida o'z-o'zini tushunish, o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholashni aniqlashtirgan[4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli ortib bormoqda. Elektron darsliklar, raqamli arxivlar, virtual muzeylar va tarixiy rekonstruksiya dasturlarini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, tarix fani o'qituvchilari quyidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari dars samaradorligini oshishiga xizmat qiladi:

Multimedia resurslari – tarixiy voqealarni tushuntirishda video, audio va animatsiyalar yordamida ma'lumot berish o'quvchilarning tushunish qobiliyatini oshiradi. Masalan, milliy va xalqaro muzeylarning virtual sayohatlari tarixiy muhitni his qilish imkonini beradi.

Interaktiv ta'lim platformalari – Google Classroom, Moodle va boshqa elektron ta'lim platformalari yordamida darslarni tashkil etish va o'quvchilar bilan muloqot o'rnatish qulaylashadi.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar – Chatbotlar va interaktiv test tizimlari orqali o'quvchilarning bilim darajasi baholanadi va individual ta'lim yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) – tarixiy joylarni VR texnologiyasi orqali ko'rib chiqish va interaktiv tarzda o'rganish o'quvchilarga voqealarni real his qilish imkonini beradi[3].

Zamonaviy texnologiyalar tarix fanini o'qitish jarayoniga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi:

Vaqt va resurslarni tejash – elektron materiallardan foydalanish qog'oz darsliklarga bog'liqlikni kamaytiradi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning faolligini oshirish – interaktiv darslar va vizual materiallar orqali o'quvchilar tarixiy voqealarga qiziqish bildiradilar.

Mavzularni keng qamrovli yoritish – zamonaviy texnologiyalar yordamida manbalarni

TAMADDUN NURI

tezkor topish, taqqoslash va tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Masofaviy ta'lim imkoniyati – internet va AKT vositalari yordamida istalgan joyda o'qitish va o'qish imkoniyati yaratiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Zamonaviy texnologiyalar bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida tarixiy voqealarni o'rgatish yanada samarali, ta'sirchan va interaktiv bo'lishi mumkin. O'qituvchilar texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirish orqali o'quv jarayonini yanada yuqori bosqichga olib chiqishlari va o'quvchilar bilimini oshirishga katta hissa qo'shishlari mumkin. Shunday ekan, bo'lajak tarix fani o'qituvchilari uchun texnologiyalarni o'rganish va qo'llash dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar tez rivojlanmoqda. Xususan, tarix fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish darslarni yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish muhim kasbiy ko'nikma hisoblanadi[4].

Zamonaviy metodlar tarix darslarini nafaqat qiziqarli, balki samarali qilishga xizmat qiladi. Quyida eng muhim zamonaviy yondashuvlar keltirilgan:

Interfaol ta'lim metodlari – muammoli ta'lim, aqliy hujum, debatlar va rolda o'ynash kabi metodlar o'quvchilarning tarixiy hodisalarga tanqidiy yondashuvini shakllantiradi.

Loyihaviy ta'lim – o'quvchilar tarixiy mavzularga oid mustaqil tadqiqot olib borishadi, natijada chuqur tahliliy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Texnologiyalardan foydalanish – virtual muzeylar, interaktiv xaritalar, tarixiy hujjatlarning raqamli arxivlari va video darslar tarixiy jarayonlarni jonlantirishga yordam beradi.

Geymifikatsiya – tarixiy mavzular bo'yicha viktorinalar, o'yin elementlari va testlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy metodlardan foydalanib tarix darslarini o'qitish jarayoniga quyidagi metodlar ijobiy ta'sirlarini ko'rsatadi:

O'quvchilarning faolligini oshirish – interfaol metodlar orqali o'quvchilar dars jarayoniga faol jalb qilinadi[2].

Tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish – elektron hujjatlar, tarixiy ma'lumotlar bazalari va arxivlardan foydalanish o'quvchilarga ilmiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – zamonaviy metodlar orqali tarixiy voqealar chuqur tahlil qilinib, turli nuqtayi nazarlardan baholash imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish – differensial yondashuv va individual o'quv dasturlari yordamida har bir o'quvchiga mos keladigan metodlar qo'llaniladi[2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari zamonaviy metodlarni o'zlashtirish orqali dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishlari mumkin. Innovatsion yondashuvlar yordamida tarix fani nafaqat yodlashga asoslangan fan sifatida emas, balki tahliliy fikrlash va muhokama yuritish san'ati sifatida o'rgatilishi lozim. Shunday ekan, zamonaviy metodlarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdinazarova Z., Usmonova N. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida targ'ib etish. // Ta'lim texnologiyalari, 2006. №5, 13-bet.
2. Alimov M.A. Aqliy hujum. Ta'lim texnologiyalari, 2006. №2. – B. 8-9.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000. – 52 b.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – Toshkent. 2007. – 315 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.131

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLINGUISTICS IN COMMERCIAL TEXTS

Raimov Lazizjon Alisherovich, Teacher at Termez University of Economics and Service

TIJORATGA OID MATNLARDA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI

Raimov Lazizjon Alisherovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ В КОММЕРЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Раимов Лазизжон Алишерович, преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

https://orcid.org/0009-0000-0778-5208

e-mail: lazizjon_raimov@tues.uz

Abstract: *This paper explores the importance of psycholinguistics in commercial texts, examining how language influences consumer behavior and decision-making. Psycholinguistics, the study of the relationship between language and the human mind, offers valuable insights into how individuals process, interpret, and respond to language in commercial contexts such as advertisements, product descriptions, and branding messages.*

Key words: *psycholinguistics, commercial texts, consumer behavior, language processing, marketing communication, persuasion, cognitive load, emotional appeal, advertising, brand perception.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola psixolingvistikaning tijorat matnlaridagi ahamiyatini o'rganadi, tilning iste'molchi xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqadi. Psixolingvistika, til va inson ongining o'zaro bog'liqligini o'rganadigan fan, odamlarning tijorat kontekstlarida (reklama, mahsulot tavsiflari, brend xabarlarida) tildan qanday foydalanishi, qanday talqin qilishi va qanday javob berishini tushunishda foydali ma'lumotlar taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *psixolingvistika, tijorat matnlari, iste'molchi xulq-atvori, qayta ishlash, marketing muloqoti, persuazion (ishontirish), kognitivlik, hissiy ta'sir, reklama.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается важность психолигвистики в коммерческих текстах, исследуется, как язык влияет на поведение потребителей и принятие ими решений. Психолингвистика, изучающая взаимосвязь между языком и человеческим разумом, дает ценные идеи о том, как люди обрабатывают, интерпретируют и реагируют на язык в коммерческих контекстах, таких как реклама, описания продуктов и рекламные сообщения.*

Ключевые слова: *психолингвистика, коммерческие тексты, поведение потребителей, обработка языка, маркетинговая коммуникация, убеждение, когнитивная нагрузка, эмоциональное воздействие, реклама, восприятие бренда.*

TAMADDUN NURI

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). In today's globalized market, the role of language in commercial texts has become more critical than ever. Commercial texts, ranging from advertisements to product descriptions, play a pivotal role in influencing consumer behavior and shaping brand perception. One of the key areas of study that sheds light on the effectiveness of language in these texts is psycholinguistics. Psycholinguistics, the study of the relationship between language and the human mind, offers valuable insights into how individuals process, interpret, and respond to written and spoken language.

The importance of psycholinguistics in commercial texts lies in its ability to explain how certain linguistic features, such as word choice, sentence structure, and tone, can evoke specific emotional responses and cognitive reactions from consumers. By understanding the psychological processes involved in language comprehension, marketers and advertisers can craft messages that resonate more deeply with their target audience, thereby enhancing their marketing strategies.

This paper aims to explore the significance of psycholinguistics in the creation and effectiveness of commercial texts. Through examining various psycholinguistic theories and their application in marketing, this study will highlight the connection between language use and consumer behavior. The methodology employed will involve analyzing commercial texts from different industries, focusing on how language shapes consumer perception and decision-making [1].

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). The structure of the paper is as follows: First, we will review the foundational concepts of psycholinguistics and its relevance to language in commercial contexts. Next, we will explore specific examples of how psycholinguistic principles are applied in advertising and marketing. Finally, the paper will discuss the implications of these findings for the future of commercial text creation and the potential for psycholinguistics to shape more effective marketing campaigns [2].

This paper discusses the cognitive limits of processing information, an important consideration when designing concise and effective commercial texts. Psycholinguistics, a discipline at the intersection of psychology and linguistics, explores how humans acquire, comprehend, and produce language. It seeks to understand the cognitive mechanisms involved in processing language, which can be broadly divided into two areas: the psychological processes involved in language comprehension and the neural processes that allow for language production and understanding. These processes are crucial in the context of commercial texts because the language used in advertising and marketing can trigger specific psychological responses in consumers, influencing their perceptions, attitudes, and ultimately their behaviors [3].

DISCUSSION(ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA) A core concept in psycholinguistics is the idea of semantic priming, where certain words or phrases activate specific associations in the brain, making it easier for a person to process related information. For example, the word "luxury" might prime the concept of exclusivity, encouraging consumers to perceive a product as high-end or desirable. Marketers use such knowledge to select words that elicit the desired emotional and cognitive responses from consumers.

Another critical concept is cognitive load, which refers to the mental effort required to process information. Commercial texts that are overly complex or difficult to understand can lead to cognitive overload, which may result in negative perceptions of the brand or product. Psycholinguistics suggests that simpler, more straightforward language, paired with familiar structures, enhances comprehension and encourages positive responses [3].

The application of psycholinguistics in commercial texts is evident in various strategies used by marketers. One widely used approach is persuasive language in advertisements. Persuasion theory, a subfield of psychology, is closely tied to psycholinguistics, as it explores how language can influence attitudes and behaviors. Marketers use persuasive techniques such as repetition, emotional appeal, and social proof to engage consumers. These elements are rooted in the understanding of how

language can tap into psychological triggers, such as desire, fear, and trust [4].

For instance, repetition reinforces brand messaging, making it easier for consumers to remember key selling points. The slogan "Red Bull gives you wings" not only promotes the product's energizing effect but also creates a strong association between the brand and a feeling of invigoration. From a psycholinguistic perspective, the repetition of the phrase "gives you wings" serves as a memory aid, increasing the likelihood of the consumer recalling the product when making a purchase decision.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Emotional appeal is another powerful tool in commercial texts. Studies in psycholinguistics have shown that emotional language has a stronger impact on decision-making than rational language. Words such as "exciting", "joyful" and "heartwarming" trigger emotional responses that motivate consumers to take action. Advertisements for charities or social causes often use emotionally charged language to elicit empathy, which, in turn, increases the likelihood of donations [4].

Social proof, another element often used in commercial texts, leverages the human tendency to rely on others' actions or opinions when making decisions. Phrases like "Best-selling product" or "Join thousands of satisfied customers" tap into this cognitive bias, making consumers feel more comfortable and confident in their purchasing decisions. These psychological triggers are not only rooted in persuasive communication but are also supported by psycholinguistic research on how language influences behavior [4].

As the field of psycholinguistics continues to evolve, its application in marketing and advertising is expected to become even more sophisticated. Advances in neuroscience and cognitive psychology have already begun to reveal deeper insights into how language affects consumer behavior. For example, understanding the neural pathways involved in language processing can help marketers tailor their messages to align with consumers' emotional and cognitive responses [5].

In the future, we can expect more personalized marketing strategies that utilize psycholinguistic principles to target specific consumer segments. By analyzing linguistic patterns and consumer responses, brands will be able to create customized messages that resonate on an individual level. This can lead to more effective advertising campaigns that not only capture attention but also drive long-term brand loyalty [6].

Furthermore, the integration of psycholinguistics into digital marketing is becoming increasingly important. With the rise of artificial intelligence and machine learning, marketers can analyze vast amounts of consumer data to better understand how language impacts decision-making. This data-driven approach can refine messaging, ensuring that commercial texts are both linguistically and psychologically optimized for maximum impact.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). In conclusion, psycholinguistics plays a crucial role in shaping the effectiveness of commercial texts. By understanding how language interacts with the human mind, marketers and advertisers can craft messages that resonate deeply with their audience, triggering specific emotional responses and influencing behavior. Through the application of psycholinguistic principles such as semantic priming, cognitive load, and emotional appeal, commercial texts can be designed to enhance consumer engagement and drive purchasing decisions. As the field of psycholinguistics continues to advance, its integration into marketing practices will only become more refined, allowing businesses to create more targeted and impactful advertising strategies. In the ever-competitive world of commercial communication, understanding the psychological mechanisms behind language is no longer a luxury but a necessity for success.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. Baddeley A. D. Working memory, thought, and action. Oxford University Press. 2007.
2. Berger J., & Milkman, K. L. What makes online content viral?. Journal of Marketing Research, 49(2). 2012. – B. 192-205.
3. Chomsky N. Syntactic Structures. Mouton & Co. 1957.
4. Cialdini R. B. Influence: The Psychology of Persuasion. Harper Business. 2007.
5. Fodor J. A. The Modularity of Mind. MIT Press. 1983.
6. Miller G. A. The Magical Number Seven, Plus or Minus Two: Some Limits on Our Capacity for Processing Information. Psychological Review, 63(2). 1956. – P. 81-97.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.85:97.82

“BOBURNOMA” TA’SIRIDA YOZILGAN TARIXIY ASARLARNING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Sitora Tojiddinova, O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi doktoranti

TEXT-COMPARATIVE STUDY OF HISTORICAL WORKS WRITTEN UNDER THE INFLUENCE OF “BABURNAMA”

Sitora Tadjiddinova, Doctoral student of the the Alisher Navoi State Museum of Literature, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ТЕКСТОВО-СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, НАПИСАННЫХ ПОД ВЛИЯНИЕМ “БАБУРНАМЕ”

Ситора Таджиддинова, докторант государственного музея литературы имени Алишера Навои Академии Наук РУз

https://orcid.org/0009-0001-7505-3225

e-mail: ***sitora.shamsiddin@mail.ru***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ta’sirida, undan ilhomlanib yoki foydalanib yozilgan bir necha asarlar haqida so‘z boradi. Ularning ta’sirlanish tamoyillari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, matn, qiyos, “Humoyunnoma”, tarixiy asar.*

Abstract: *This article discusses several works influenced, inspired or based on Zakhir al-Din Muhammad Babur's “Baburnama” and reveals the principles of their influence.*

Key words: *Baburnama, text, comparison, Humayunname, historical work.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются несколько произведений, написанных под влиянием, вдохновленных или основанных на произведении Захириддина Мухаммада Бабура “Бабурнаме”. Раскрыты принципы их влияния.*

Ключевые слова: *“Бабурнаме”, текст, сравнение, “Хумаюннаме”, историческое сочинение.*

KIRISH. Sharq mumtoz adabiyotida “Boburnoma” yaratilgunga qadar ham ko‘plab nasr namunalari bo‘lgan. Ularning aksariyatida uslub, tarkib, janr xususiyatlariga ko‘ra forsiy an’analar davom ettirilgan bo‘lib, hamd, payg‘ambarlar tarixi, o‘z davrigacha bo‘lgan hukmdorlarning tavsifu ta’rifiga katta o‘rin ajratilgan. Ammo garchi ushbu an’analarni puxta o‘rgangan bo‘lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur bu yo‘ldan bormaydi. O‘g‘li Humoyun Mirzoga yozgan maktubida aytganidek, ortiqcha jimjimalarsiz, “betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitmoq”ni maqsad qiladi[13]. Uning badiiy niyati quyidagi jumlalarda tugal aks etgan: “Bu bitilganlardin g‘araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zning ta’rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibturmen”[13]. Rostlik ahdini asar nihoyasigacha mahkam tutgan adib bayon uslubi, tili, matn tarkibiga ko‘ra, yaratilajak ko‘plab asarlar uchun yangi yo‘l ochib berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yaponiyalik bobursunos olim Eyji Mano ta’kidlaganidek, “Bevosita mazkur asar ta’sirida Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”si kabi bir qancha tarixiy asarlar bitilgan”[2]. “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarini qiyosiy aspektda o‘rgangan adabiyotshunos olima I.Hazratqulova

shunday xulosa chiqaradi: “Tarixi Rashidiy” matnining ko‘plab badiiy belgilari va ifoda xususiyatlarini tekshirish asnosida asarda “Boburnoma” mazmunidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri adabiy ta’sirlanish holatlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu holat ma’lum bir shaharlarning mumtoz tasviri, tarixiy shaxslarning obraz darajasida yorqin aks etishi, muallif ruhiy kechinmalarining samimiy ifodasi, badiiy lavhalarning yetukligida ko‘rinadi”[6].

“Boburnoma” tipidagi nasr namunalari haqida gap ketganda, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sini, albatta, eslash joiz. Ushbu nodir tarixiy manbaning aynan ‘Boburnoma” ta’sirida yozilganini ko‘plab olimlarimiz ta’kidlashgan. Jumladan, bu borada adabiyotshunos olima S.Azimjonova quyidagicha fikr bildirgan: “Nodir ma’lumotlarga to‘la bu asar o‘sha zamonda yozilgan boshqa tarixiy asarlardan ajralib turadi. “Humoyunnoma” uslubi va voqealar bayonini “Boburnoma” bayoniga solishtirsak, bu har ikkala asar uslubining bir-biriga nihoyatda yaqinligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki, Gulbadanbegim “Boburnoma” uslubiga ergashgan va o‘z asari “Humoyunnoma”ni “Boburnoma” mazmuni va uslubiga taqlid qilib yozgan”[1].

MUHOKAMA. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarini ham “Boburnoma” ta’sirida yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin. Bu haqda tadqiqotchilar “Muallif o‘zidan ilgari o‘tgan mashhur tarixchilar: Rashididdin, Mirxond, Sharofiddin Ali Yazdiy va Abulhasan Nishopuriy asarlariga tayanganini ochiq aytadi. Undan tashqari Narshaxiyning mashhur “Tarixi Buxoro”, Juvayniyning “Tarixiy Jahonkushoyi”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixiy Rashidiy” va Koshifiyning “Rashoxotu ayn ul-hayot” va boshqa asarlardan ham foydalanilgan” deyishadi. “Tarixi Rashidiy”ning ushbu asarga ta’siri ilmiy isbotlangan ekan, “Boburnoma”ning ta’siri haqida hech qanday shubhaga o‘rin yo‘q. Zotan, “Tarixiy Rashidiy”ning o‘q ildizi “Boburnoma”dir. “Vaqoye’” tipidagi yana bir tarixiy asar “Akbarnoma” hisoblanadi. U “Tarixi Akbarshohiy”, “Tarixi Akbariy” nomi bilan ham mashhur. Shu o‘rinda ta’kidlash kerak: adabiyot tarixida “Boburnoma” tipida yaratilgan asarlar bisyor. Hind tarixchisi L.P.Sharma “Boburnoma”-ning bevosita yoki bilvosita ta’sirida yaratilgan bir necha asarlarni sanaydi: “Gulbadan begimning “Humoyunnoma”, Abul Fazlning “Akbarnoma” va “Oyini Akbariy”, Nizomiddin Ahmadning “Tabakoti Akbariy”, Javhar Oftobachining “Tazkiratu-l-voqeot”, Abbos Sarvoniyning “Tuhfai Akbarshohiy”, Boyazid Sultonning “Tarixi Humoyun”, Fayzi Sarxindiyning “Akbarnoma” kabi asarlari Akbarshoh davrida yaratilgan. Jahongirshoh davrida uning o‘zi boshlagan va Mu’tamidxon yakunlagan “Tuzuki Jahongiriy” asaridan tashqari Mu’tamidxon yana “Iqbolnomai Jahongiriy” asarini ham yaratdi. Shu bilan bir qatorda Xo‘ja Kamgorning “Muassiri Jahongiriy” asari, Ne’matullohning “Makazzami Afg‘oniy” asari, Muhammad Kosim Farishtaning “Tarixi Farishta” asari, Mulla Nahvandiyning “Massiri Rohiniy” kabi asarlari Jahongirshoh davrida yaratilgan. Shohjahon davrida yaratilgan asarlar orasida Abdulhamid Loxuriy va Amin Qazviniyning “Podshohnoma” nomli asari, Inoyatxonning “Shohi jahonnoma” va Muhammad Solihning “Amali Solih” kabi asarlari alohida o‘rin tutadi. Ular orasida Mirzo Muhammad Qosimning “Muntahabu-l-lubob” va “Olamgirnoma”, Muhammad Soqiyning “Nusxai Dilkusho”, hind tarixchilari Ishvar Dasning “Fotihoti Olamgiriy”, Sujan Rayning “Xulosatu-t-tavorix” kabi asarlari mashhur bo‘lgan”[10]. Albatta, boburiylar davrida yaratilgan bu asarlar uchun namuna sifatida ushbu buyuk imperiyaning asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari asosiy mezon bo‘lib turganiga shubha yo‘q. Ayni shunga yaqin fikrni adabiyotshunos A.Madrahimov ham ta’kidlab o‘tadi: “Zahiriddin Muhammad Boburning “Vaqoe’” – “Boburnoma” asari o‘z davrida va keyinchalik XVI-XIX asrlarda Hindistondagi tarixnavislikka juda katta ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Boburning safdoshlari Shayx Zayn Hafoviy va G‘iyosiddin Xondamir unga ergashib, “Hindistonning zabt etilishi” va “Qonuni Humoyuniy” asarlarini yaratganlar. Boburning xolavachchasi Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarini yaratgani ma’lum. Keyingi davr, ya’ni XVI asrdan boshlab barcha Shimoliy Hindiston tarixchilari “Boburnoma”ga murojaat qilganlar” [7].

NATIJALAR. Albatta, Boburiylar saltanatida yaratilgan barcha tarixiy asarlarda bosh manba vazifasini “Boburnoma” bajarganiga shubha yo‘q. Ammo bu saltanatdan uzoqda bo‘lgan Xorazmshohlar davlatiga doir bir asar borki, unga ham “Vaqoe’”ning ta’sirini fahmlash mumkin. Gap Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari haqida. H.Xudoynazarovning “Shajarayi turk” va

uning o‘rganilishi” kitobida bu ikki asarning o‘xshashligi va “Boburnoma”ning ta’siri borasida ilmiy dalillar berilgan[13]. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, “Boburnoma” nafaqat Sharq adabiyoti tarixiga, balki G‘arb adabiyotiga ham chuqur ta’sir o‘tkaza olgan. “Ma’lumki, Beverij xonim dastlab Gulbadanbegimning “Humoyun-noma” asarini ingliz tiliga o‘giradi va Angliyada 1902-yili chop ettiradi. Uning eri Henri Beverij esa xuddi shu yili “Akbarnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan, Beverij xonimga esa turkiy tilni yaxshi bilgani uchun “Boburnoma”ning Haydaroboddagi nusxasini topib, tarjima qilish uchun topshirgan edi”[9].

“Boburnoma” ingliz tiliga tarjima qilingach, “Bobur shaxsiga Yevropa olamida qiziqish ortib, bu ijodkorlar qalb-u ongiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Boburni tanigan, uning dunyosini tasavvur qila boshlagan va bularni o‘zining qalb prizmasidan o‘tkazgan ijodkorlarning asarlari namoyon bo‘la boshladi. Ulardan biri ingliz adibi Flora Anna Stil qalamiga mansub “Jahongashta hukmdor” asaridir”, deya ma’lumot beradi adabiyotshunos olima K.Mullaxo‘jayeva, “Jahongashta hukmdor” asarini Flora Anna Stil umrining so‘nggi yillarida yozgan. U Boburning hayoti, uning asarlari, xususan, “Boburnoma” va “Humoyunnoma”dan ta’sirlanib yozilgan realistik badiiy asardir”[9]. Aslini olganda, ingliz tilida ham, boshqa Yevropa tillarida ham Mirzo Bobur haqida juda ko‘p asarlar yaratilgan. Bu haqda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi raisi Z.Mashrabov quyidagicha ma’lumot bergan: “...Qomusiy daho haqida yuzlab roman, qissa, doston, esse va boshqa janrlarda o‘ndan ortiq mamlakatlarda badiiy asarlar yozilgani bizga ma’lum. Jumladan, Flora Enni Stilning “Tojdor darvesh” romani ingliz tilida, avstriyalik adib Frits Vyurtle “Andijon shahzodasi” qissasi, amerikalik Aleks Raterfordning “Jannatga qasida” tarixiy romani va boshqa asarlar xorijiy tillardan o‘zbek va rus tillariga tarjima etilib, e’lon qilingan”[8]. Jahon adabiyotida “Boburnoma” ta’sirida yozilgan asarlar haqida gap ketganda, Harold Albert Lamb “Bobur-yo‘lbars” asari, Rumer Godenning “Gulbadan” [5], Vilyam Rashbrukning “O‘n oltinchi asr bunyodkori” [11] va Fris Vyurtlening “Andijon shahzodasi”[4] asarlarini ham alohida ta’kidlash kerak.

XULOSA. Shuni alohida zikr etmoq joiz: adabiyot tarixida bugungi kunga qadar “Boburnoma” ta’sirida yozilgan asarlar ko‘pligi aniq, ammo ularning soni borasida aniq fikr aytish dushvor. Sababi, ijod harakatdagi jarayon. Biz tadqiq davomida uchratmagan yoki topolmagan, e’tibordan chetda qoldirgan asarlar bo‘lishi tabiiy. Shu ma’noda ushbu maqoladagi fikrlarimizni tugal xulosa o‘rnida qabul qilmaslik lozim. Zotan, insoniyat yashar ekan, adabiyot ham doimiy harakatda bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Azimjonova S. “Humoyunnoma” va uning muallifi Gulbadanbegim// Humoyunnoma. – Toshkent. Ma’naviyat. 1998. – B.5.
2. Eyji Mano. Yapon olimining Mirzo Boburga maktubi. // Ma’naviy hayot. — Toshkent, 2014.
3. Fris Vyurtle. Andijon shahzodasi (Bobur – yo‘lbars). Sarguzasht-qissa. Olmon tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent.: O‘qituvchi, 2012.
4. Fris Vyurtle. Andijon shahzodasi («Bobur – yo‘lbars). Sarguzasht-qissa. Olmon tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent.: O‘qituvchi, 2012.
5. Goden Rumer. Gulbadan. Zahiriddin Muhammad Boburning qizi malika Gulbadan begim shaxsiga chizgilar. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 176.
6. Hazratqulova I. Adabiy-tarixiy asarlarda badiiy ijod masalalari (Boburnoma va Tarixi Rashidiy asosida). filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2000. – B.165.
7. Madrahimov A. Yigirmanchi asrda “Boburnoma”//Bobur abadiyati. Toshkent: Bayoz, 2018. – B. 359.
8. Mashrabov Z. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o‘rganilishi masalalari // Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o‘rni. – Toshkent, 2023.
9. Mullaxo‘jayeva K. Sezarga qaraganda u sevishga arzigulikdir.// Ma’naviy hayot. – Toshkent, 2023. №2. – B.20.
10. Sharma L.P.Boburiylar saltanati//Xorijda bobur shunoslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. – B. 95-96.
11. Vilyam Rashbruk. O‘n oltinchi asr bunyod-kori. Inglizchadan G‘.Satimov,X.So‘fiyeva tarjimasi. – Toshkent.: Sharq, 2011. – B. 207.
12. Xudoynazarov H. “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi. T:. O‘qituvchi, 1993. – B.128.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: Porso Shamsiyev.— T.: Yulduzcha, 1989.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.302

GENDER-RELATED LANGUAGE CONSTRUCTION IN ENGLISH AND UZBEK ADVERTISING TEXTS

Turdieva Matluba Isoqjon qizi, Teacher of the department "Teaching English Methodology №1" Uzbekistan State University of World Languages

INGLIZ VA O'ZBEK REKLAMA MATNLARIDA GENDER TILSHUNOSLIK KONSTRUKSIYALARI

Turdiyeva Matluba Isoqjon qizi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ingliz tili o'qitish metodikasi №1" kafedrasi o'qituvchisi

ГЕНДЕРНЫЕ ЯЗЫКОВЫЕ КОНСТРУКЦИИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

Турдиева Матлуба Исокжон кызы, преподавательница кафедры методики преподавания английского языка №1, Узбекский государственный университет мировых языков

https://orcid.org/0009-0002-6082-782X
e-mail: matlubaxonturdieva@gmail.com

Abstract: *This article studies the gender-related language construction in advertising texts created in English and Uzbek using a corpus linguistics approach. Within the framework of the article, based on texts collected from the Internet, print media, television and other platforms, the frequency, collocation and syntactic-semantic properties of expressions such as "for women…", "for men…", "real men…", "delicate nature" are studied, and the level of gender stereotype or neutral approach in advertising is assessed.*

Keywords: *advertising texts, gender stereotypes, corpus linguistics, syntax, semantics, word usage, "for women", "for men", "real me", "subtle nature", neutral approach, psychological impact.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korpus lingvistikasi yondashuvidan foydalangan holda ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan reklama matnlarida gender bilan bog'liq til qurilishi o'rganiladi. Maqola doirasida internet, bosma ommaviy axborot vositalari, televideniye va boshqa platformalardan to'plangan matnlar asosida "ayollar uchun...", "erkaklar uchun...", "haqiqiy erkaklar...", "nozik tabiat" kabi iboralarning chastotasi, birikmasi va sintaktik-semantik xususiyatlari o'rganilib, reklamada gender stereotipi yoki neytral yondashuv darajasi baholanadi.*

Kalit so'zlar: *reklama matnlari, gender stereotiplari, korpus lingvistikasi, sintaksis, semantika, so'zlardan foydalanish, «ayollar uchun», «erkaklar uchun», «haqiqiy men», «nozik tabiat», neytral yondashuv, psixologik ta'sir.*

Аннотация: *В данной статье изучается гендерно-обусловленная языковая конструкция в рекламных текстах, созданных на английском и узбекском языках, с использованием подхода корпусной лингвистики. В рамках статьи на основе текстов, собранных из Интернета, печатных СМИ, телевидения и других платформ, изучаются частотность, сочетаемость и синтаксико-семантические свойства таких выражений, как «for women…», «for men…», «real men…», «delicate nature», а также оценивается уровень гендерного стереотипа или нейтрального подхода в рекламе.*

Ключевые слова: *рекламные тексты, гендерные стереотипы, корпусная лингвистика, синтаксис, семантика, словоупотребление, «для женщин», «для мужчин», «настоящее я», «тонкая натура», нейтральный подход, психологическое воздействие.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). Advertising is one of the most important forms of modern social communication, created to attract consumer attention, introduce a product or service to the public, and stimulate sales. It is widely distributed on platforms such as the media, the

Internet, outdoor banners, print media, radio and television. By analyzing advertising texts, one can obtain rich information about social, cultural and linguistic processes in society, including gender stereotypes, their use or violation tendencies.

English and Uzbek languages have their own characteristics in the advertising industry. In particular, in some cases, advertising as a "product for women", making statements such as "a man should do…", reinforcing gender role clichés through various psychological methods of influence, or, conversely, presenting the roles of women and men in a modern approach, not in opposition, but in an equal and free manner - all this shows how gender language construction is formed in advertising.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Although the study of language and gender relations began in Western linguistics in the 1970s, the analysis of gender representation and linguistic expression in advertising developed rapidly in the 1980s and 1990s. Goffman (1979) in his work Gender Advertisements was the first to deeply study the stereotypical roles in which women are presented in the media, especially in advertising, and how men are recognized as powerful or active individuals and women as passive, beautiful objects. Later, researchers such as Lazar (2006), Mills (2008), Gill (2007) showed different styles of gender language in advertising, and the characteristics of reinforcing or criticizing social roles [1].

In English linguistics, the semantic function of certain gender clichés used in marketing communication - such as «real men», «for her», «because you are worth it» (L'Oréal slogan) – in the text, the mechanisms of psychological impact on the target audience, and their connection with socio-political processes in society have been studied. In Uzbek, while gender issues in advertising language have been studied relatively little, recently some articles have appeared at the intersection of marketing, sociology and linguistics. This mainly emphasizes the presentation of traditional images of «women-girls», «mother», «housewife», the dominance of reflecting «strength, power, courage» in products intended for men, and the strength of divisions such as «only for men» in linguistic methods [2].

Advertising language is characterized, first of all, by its expressiveness, brevity, imagery, and memorability. Therefore, advertisers usually widely use vivid epithets, emotional undertones, deviations from formal language norms (brief appeals, emotional words), exaggeration, parallel construction, repetition, and semantic diversions such as "We know you're right, this is only for you…" (Cook, 2001).

The main purpose of the article is to analyze the gender-related language construction in English and Uzbek advertisements, in particular, lexical, syntactic and semantic features using the corpus linguistics method, to determine the level of stereotypical or neutral approach, and to explain the mechanisms of psychological impact [3].

The research first of all envisages the creation of a corpus of advertising texts in English and Uzbek. This database is compiled from various sources: internet banners (for example, websites of major brands, official pages on social networks, Google ads), print publications (The Guardian, Cosmopolitan, GQ, Glamour, The Times; or "Darakchi", "Hordiq", "Oila davrasi"), transcriptions of television spots (BBC, ITV, CNN, ESPN; channels such as "O'zbekiston", "Zo'r TV", "Sevimli"). Once the corpus is created, it will contain gender-related words and phrases such as «woman(s)», «man(s)», «women-girls», «only men», «real men», «just for her», as well as frequently used words and phrases associated with them [4].

After that, frequency and collocation analysis are carried out, and the positive, negative or neutral connotation of words and phrases in advertising texts is determined.

DISCUSSION(ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA)

From the texts of English advertisements of more than 500 thousand words, the following number of key words (frequency per 100 thousand words) was observed: "for men" – 35, "for women" – 42, "real man - real men" – 8, "real woman - real women" – 3, "man up" – 5, "be gorgeous", "be beautiful" – 45 (sometimes the phrase "be gorgeous!" is found in advertisements mainly aimed at the female segment), "strong" (in advertisements for men) – 28, "delicate" (in advertisements for women) – 20.

From these indicators it can be seen that the term "women" is more common than "men", which corresponds to the large number of advertisements

for products (cosmetics, perfumes, fashion) aimed at women. The phrase "real men" is significantly more common than "real women" – this indicates the promotion of the cliché of "masculinity"[5].

Collocational analysis, first of all, determines with which lexemes a certain word or phrase occurs in advertising texts, and reveals the semantic relationships between them. In gender-related advertisements, the association of phrases such as "for men" or "for women" with various adjectives and terms demonstrates a stereotypical image or a method of targeted influence between the product and the audience. The following observations show how advertisers try to attract the attention of the audience by adding ideas such as sport, strength, speed to the phrase "for men" or by instilling principles such as beauty and elegance into the phrase "for women".

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Sometimes, gender-neutral phrases such as "for everyone" and "for all skin types" are also present, but their frequency lags behind the traditional approach [6].

"for men" is often associated with adjectives such as "sport, power, speed, unstoppable, tough". In some car and sporting goods advertisements, you can come across the phrase "man up!", which means "be strong, don't be afraid".

"For women" is often associated with phrases such as "beauty, gentle, smooth, glamorous". Cosmetics, perfumery, and fashion brands use socio-psychological motivation tactics such as "because you are worth it".

Some advertisements also contain gender-neutral phrases ("for everyone, for all humans, for all skin types"), but this is less common than the traditional division [7].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). This article presents the results of a study of gender-related language construction in English and Uzbek advertising texts using the corpus linguistics method. The analysis of the texts collected within the framework of the article (Internet banners, television, print publications) shows the following:

In both languages, the theme "for women - beauty, tenderness, home-making", "for men - strength, power, foreign affairs, courage" is widely used in advertising. This is convenient for market segmentation of brands and helps to quickly find an audience, but increases the risk of reinforcing old views on gender roles in society.

Among Western brands, strategies such as "for everyone", "all inclusive" are emerging, and there is an increasing tendency to abandon distinctions such as "real men, real women", breaking stereotypes. In the Uzbek market, some cosmopolitan brands and young entrepreneurs are also trying to keep up with modern trends, but this is still relatively rare in the general picture.

The language of advertising is based on the tactic of arousing strong motivation or emotion in people through imperative forms, commands, emotional words, gender stereotypes or clichés that reinforce expectations. Text structure, semantic progression and collocations play an important role in this.

Advertising has the power not only to sell products, but also to shape the mentality of society, to strengthen or break stereotypes. If women are only emphasized as "beautiful" and men as "strong", some social groups may feel discriminated against or limited. On the other hand, gender inclusive brands contribute to changing the consciousness of society in a progressive direction.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. Cook G. The Discourse of Advertising. London: Routledge. 2001.
2. Gill R. Gender and the media. Cambridge: Polity Press. 2007.
3. Goffman E. Gender Advertisements. New York: Harper & Row. 1979.
4. Kotler P., & Keller K. L. Marketing Management (15th ed.). London: Pearson. 2016.
5. Lazarus M. M. Discover the power of femininity! Analyzing gender positioning in cosmetic sales discourse. Discourse & Society, 17(4), 2006. – P. 503–524.
6. McEnery T., & Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press. 2012.
7. Mills S. Language and sexism. Cambridge: Cambridge University Press. 2008.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 94:339(575.1)

TEMURIYLAR DAVRIDA TERMIZ

Xurramov Xamid Boboqul o'g'li, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

TERMEZ DURING THE TIMURID PERIOD

Khurramov Khamid Bobokul ogli, Doctoral student at Termez State University

ТЕРМИЗ В ПЕРИОД ТЕМУРИДОВ

Хуррамов Хамид Бобокул оглы, докторант (PhD) Термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-4635-3327
e-mail: xamidxurramov800@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar davrida Termizning tutgan o'rnini va madaniyatini, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganish maqsad qilingan. Shaharning qayta qurilishi, atrof joylarning obod etilishi haqida batafsil fikr yuritiladi. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo kundaliklarida shaharning aks etilishi bayon etiladi. Shaharning Xalil Sulton buyrug'iga ko'ra Amir Ollohdod tomonidan qayta qurilishi eslab o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Termiz, Amir Temur, Xalil sulton, Jayxun, Samarqand, Rui Gonzales de Klavixo, Temuriylar.*

Abstract: *This article aims to study the place and culture of Termez during the Timurid era, its socio-economic life. The reconstruction of the city and the development of the surrounding areas are discussed in detail. The city is described in the diaries of the Spanish ambassador Rui Gonzalez de Clavijo. The reconstruction of the city by Amir Allahdod on the orders of Khalil Sultan is mentioned.*

Keywords: *Termez, Amir Temur, Khalil Sultan, Djaikhun, Samarkand, Rui Gonzalez de Clavijo, Temurids.*

Аннотация:. *Целью данной статьи является изучение положения, культуры и социально-экономической жизни Термеза в эпоху Тимуридов. Подробно рассматриваются вопросы реконструкции города и благоустройства прилегающих территорий. Город описан в дневниках испанского посла Руи Гонсалеса де Клавихо. Город увековечен реконструкцией города эмиром Аллахдодом по приказу Халил Султана.*

Ключевые слова: *Термез, Амир Темур, Халил Султан, Джайхун, Самарканд, Руи Гонсалес де Клавихо, Темуриды.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Termiz shahri qadim o'tmishdan yuksalib, ravnaq topib kelgan shahardir. Bu shahar tarixiga ko'plab tarixchilar to'xtalib, uning obod shahar ekanligini ta'kidlab kelishadi.Termiz shahri tarixiga to'xtalib o'tsak, "Termiz" so'zi forscha Tarmid, qadimiy eroncha "taramaida" – "o'tish qismi" degan ma'noni bildiradi. Hofizi Abrunining yozishicha, shahar nomi "Taramastxa" (baqtriycha "narigi sohildagi manzil") so'zidan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan. X asrdan Termiz deb atala boshlagan. Shu jumladan Klavixo asarida shunday bayon qilinadi: Amir Temur Xuroson saltanatini ham zabt

etmoq uchun daryoning berigi sohiliga o‘tishni istaydi va daryoda qayiqlar ustida yog‘och ko‘prik qurdiradi, o‘z odamlari bilan narigi sohilga o‘tib olgach, ko‘prikni buzib tashlatadi. U Samarqandga qaytayotganda yana ko‘prikni qurdiradi. Elchilar ham shu ko‘prikdan o‘tadilar. Ko‘prik daryoning bir qirg‘og‘idan boshlanib, ikkinchisiga yetmagan va anchagina masofaga davom etib, ot va chorva kechib o‘tishi mumkin bo‘lgan joyga kelib tutashgan. Bu yerdagi ko‘prik va daryo yonida Aleksandr Eron shohi Doro bilan jang qilib, uni mag‘lub etgan. Elchilar daryo bo‘yiga kelib, payshanba kuni daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib, shu kuni kechqurun Termiz degan katta shaharga yetib keldilar. Shahar ilgari Kichik Hindiston (Afg‘oniston) qaramog‘ida bo‘lib, Temurbek zabt etgandan keyin bu shahar Samarqand saltanatiga qaraydi[1]. Ana shu daryodan Samarqand saltanati boshlanadi. Bu yerdagilar chig‘atoy tilida so‘zlashadilar. Bu tilni daryoning u tomonidagi odamlar tushunmaydi, chunki ular bir-birlari bilan forscha gaplashadi, lekin berigi sohilda yashovchilarning tili bilan fors tili o‘rtasidagi farq juda kam. Samarqandliklar qo‘llayotgan yozuv berigi sohildagilar yozuvi hisoblanadi. Samarqandda chig‘atoy yozuvini o‘qiydigan va yozadigan bir necha mirzo bor. Samarqandda aholi zich joylashgan, tuprog‘i serunum va hamma narsa serobdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Sohibqiron farmoyishiga binoan amal qiladigan udum bor: daryoning bu qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tgach, ko‘prik Sohibqirondan boshqa hech kim o‘tmasligi uchun buzib tashlanadi. Yo‘lovchilarni u qirg‘og‘idan bunisiga qayiqlar olib o‘tadi. Saltanatdan kelayotgan kishi qayoqqa borayotganligi qayd etilgan yorliqni ko‘rsatmasa, berigi sohilga o‘tkazilmaydi, aksincha Samarqandga hech bir hujjat ko‘rsatmasdan o‘tish mumkin. Qayiqlarga ko‘plab qorovullar tayinlangan bo‘lib, o‘tuvchilardan katta boj olinadi. Daryo bo‘yiga bunday qorovullarning qo‘yilishining sababi bor: Samarqand saltanati aholisini ko‘paytirish uchun boshqa mamlakatlardan ko‘plab asirlar olib kelgan, qorovullar asirlar o‘z mamlakatiga qochib ketmasliklari uchun daryo bo‘yini qo‘riqlab turadilar. Sohibqiron farmoyishi bilan ish ko‘rgan kishilar Eron va Xuroson yerlarida uy-joysiz, yetim-yesir, qashshoq va bechoralarni tutib olib, Samarqandga jo‘natganlarini elchilar ham ko‘rdilar[2]. Ular kelishgach, joydagi hokimlar Sohibqiron farmoyishiga ko‘ra, oziq-ovqat bilan ta’minladilar. Termiz shahri devor bilan o‘ralmagan, sersuv va atrofi ko‘plab bog‘lardan iborat. Shahar haqida men sizga aytishim mumkinki, bizga ajratilgan binoga shu qadar ko‘p yo‘l yurdikki, holdan toyib charchadik. Biz har xil narsalar bilan savdo qilayotgan gavjum maydon va ko‘chalardan yurdik. Bu shaharda elchilar izzat-ikrom ko‘rsatilib, shohona to‘nlar taqdim etildi.

Sohibqiron tomonidan, elchilarga yo‘llarda qanday hurmat ko‘rsatilayotgani, safarlari qanday kechayotgani, ahvollari qanday ekanligini bilib kelish uchun jo‘nayotgan chopar ham shu yerga keldi. Chopar qaytib ketayotganda, elchilar unga kimxob to‘n, shunungdek, o‘zlari bilan kelayotgan yasovulga ham Florensiyada tikilgan libos sovg‘a qildilar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Temuriylar davrida Termizda katta obodonchilik ishlari olib borilganidan bilsak bo‘ladiki, shahar Temuriylar davrida asosiy ahamiyat kasb etgan. Shu o‘rinda Xalil Sultonning Termizni qayta qurishga bel bog‘lab, 810-yilning safar (iyul-avgust, 1407) oyida Xalil Sulton qo‘shinlaridan bir toifa yuborib, ularni Ollohdodga qo‘shdi va yana ularga askarboshilaridan Ilyosxo‘ja, Ibn Qumari Mansur, Tavakkul Qarqaro, Davlat Temur va boshqalarni ularga biriktirib, Termiz shahrini tiklashga jo‘natdi. Ular yura-yura nihoyat Termizga yetib keldilar va darhol o‘z ehtiyojlariga yarasha tosh, yog‘och va g‘ish jamlashga kirishdilar. Keyin o‘sha boshchilar shahar badanlarini o‘zaro taqsim qilib olib, shahar devorlari ozligi sababli, ularni baland qilib ko‘tardilar. Ular hech bir sustkashlik qilmay ishlardilar va undagi har tepalikda ermak uchundek belgi bino qilardilar. Ular kunduzi taomni, kechasi uyquni tark qildilar va shahar qurilishini o‘n besh kun chamasida tamomladilar. Qachonki ular shahar mahallalarini belgilab, o‘tish joylari-yu yo‘llarini ajratgach hamda shahar masjidlari va manorlari alam (belgi)larini ko‘tarib, bozorlari va uylari mavzelarini aniq qilgach, shahar ahlidan ko‘chib ketganlar avlodlaridan qolganlariga va uning xarobaligi egri-bugrisidan obodonligi tekisligiga ketkanlarga shaharga qaytishlarini va unda chodirlar tikib o‘tirishlarini amr qildilar[3].

TAMADDUN NURI

O‘sha miskinlar u yerlaridan bo‘stonlarni vatan tutib, ularda bozorlar va uylar bunyod qilgan va ularga istiqomat vositalari va tirikchilik ashyolarini to‘plagan bo‘lib, shu ahvolda Chingizxon davridan Temur Ko‘ragon zamonigacha davom etardilar. Ular o‘zlarining bu Vatanlarida osoyishta bo‘lib, tartibsizlik va bezovtaliklaridan bexavotir edilar. Qachonki Temur o‘lib, har xil yomonliklar va turli ishlar sodir bo‘lgach, Xalil Sulton ularni himoya qilishni iroda etdi va shu sababdan ular qo‘rg‘onlarini mustahkam qiladigan kishilarni yubordi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yangi (shahar) eski (shahar) dan bir farsax chamasida (uzoqlikda) edi. Natijada eskisi yangisidan ko‘ra husnliroq va mustahkamroq bo‘lib qoldiki, ayniqsa bu quruvchilar uning manorini baland ko‘targandan keyin. Eski shahar yangi farq qilib Jayxun daryosi uning devorlarini ko‘tarib turgan baland tog‘ etaklari bilan ko‘rishib o‘tadi. Yangi shahar maskanlarining qasrlari esa mustahkam bo‘lmagan holda daryodan ham uzoqda edi. Qachonki quruvchilar odamlarga: “O‘z qaroringiz uyiga kiringizlar” deb nido qilganlarida go‘yo ularga o‘zingizni o‘zingiz o‘ldiringlar yoki uylaringizdan chiqinglar deb aytilgandek bo‘ldi [5].

Ollohdod ularga hech bir mushkullik keltirmadi va bu borada u sira tashvishlanmay, ortiqcha e’tibor ham qilmadi, qaysarlik ham ko‘rsatmadi. Ammo u odamlarni to‘plab: “Agar shahar ahlidan kimda-kim bu yangi imoratlar va makonlardan qay biriga oldin qo‘l uzatsa, hech bir nizosiz, to‘sqinligu qarshiliksiz u joy o‘sha (kishi)nikidir”, - deb chaqirtirdi. Keyin u novvoylar, qassoblar, oshpazlar va yog‘furushlarga (eski shaharga) ko‘chib o‘tishlarini buyurib, ularga (alohida) manzillar-u boshpanagohlar ajratib berdi boshqalarga tegmadi. Keyin ular (shahar ahli) askarlar bilan oldi-sotdi aloqalariga kirishib, bundan zarar ko‘rmasdan foyda qildilar. Natijada, qolgan jamoaning nizomi buzildi, chunki inson tabiatan madaniy. Zarurat qolganlarni o‘z ixtiyorlari bilan o‘sha ko‘chib ketganlar ketidan ergashtirdi. Shunda Ollohdod ulardan har bir katta-yu kichikning ahvoliga loyiq (narsa)ni ulashib, o‘z amrlari taqozosiga ko‘ra (ular) ishlari qoidalarini qaror toptirdi. Keyin u o‘z qo‘shinboshilarini to‘plab, Samarqandga qarab qaytdi[4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Temuriylar davrida Termizning har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yuksaldi. Klavixo kundaliklarida eslaganidek shahar ichida kezib charchaganligidan shahar qay darajada katta bo‘lganligini bilib olsak bo‘ladi. Keyingi davrda shaharning qayta qurilishi va obod maskanga aylanganligi va tanga pul zarb etiladigan zarbxona bo‘lganligi diqqatga sazovordir. Termizning Jayxun daryosi bo‘yida joylashgan, qo‘rg‘oni bor, shahriston va raboti bor. Bog‘lari ko‘p, mevalari mo‘l-ko‘l; aholisi tijorat bilan shug‘ullanadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Termiz temuriylar davrida gullab-yashnagan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Klavixo Rui Gonzales de. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406); Tarj., U.Jo‘rayev. Sultoniya arxiyepiskopi Ioann. Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar. Tarj., B.Ermatov; Mas’ul muharrir A.X.Saidov. - Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – 208 b.
2. Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo (tarixiy-geografik lavhalar) // Mas’ul muharrir: A.O‘rinboyev. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 1997. – 186 b.
3. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari /Arab tilidan tarjima va izohlarni, so‘z boshini U.Uvatov tayyorlagan. Mas’ul muharrir A.O‘rinboyev. – Toshkent: Mehnat. 1992. –192 b.
4. Mirzayev J. Termiz tarixi. – Toshkent. 2001.
5. Sog‘uniy A., Karomatov H. Temur tuzuklari. – Toshkent: Shodlik nashriyoti, 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 631.53.04:633.511

TANQIDIY FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIKADAGI AHAMIYATI

Mavlanova Nasiba Axmedovna, Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

THE CONCEPT OF CRITICAL THINKING AND ITS IMPORTANCE IN PEDAGOGY

Mavlanova Nasiba Akhmedovna, Urgench State University, independent researcher

КОНЦЕПЦИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПЕДАГОГИКЕ

Мавланова Насиба Ахмедовна, независимый исследователь Ургенчского государственного университета

https://orsid.org/0009-0003-0699-5141
e-mail: ismoil_nur84@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasining tarixiy-ilmiy shakllanishi, inson tafakkuri, bilish jarayoni va mustaqil mulohaza yuritish imkoniyatlarini chuqurroq o'rganishga intilishiga bag'ishlangan. Tanqidiy fikrlash tushunchasi keyingi yillarda kognitiv psixologiya, neyrobilim va pedagogika sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyib bordi. Bugungi kunda ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari tobora takomillashib, turli innovatsion usullar, jumladan, neyropedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu jarayonlar inson ongining murakkabligini, bilish jarayonidagi individual xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi va ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.*

Kalit so'zlar: *Yunoniston, Suqrot, Aflotun va Aristotel, Forobiy, Ibn Sino va Imom G'azzoliy, kognitiv faoliyat, analiz, sintez, baholash, mulohaza yuritish.*

Abstract: *The article is dedicated to the historical and scientific establishment of the concept of critical thinking, the desire to deeply study the possibilities of human thinking, the process of cognition, independent reasoning. In recent years, the concept of critical thinking has been enriched by studies in the fields of cognitive psychology, neuroscience and pedagogy. Today, the methods of developing critical thinking in the educational system are gradually being perfected and integrated with various innovative methods, including neuropedagogical technologies. These processes emphasize the complexity of the human mind, the necessity of taking into account individual characteristics in the cognitive process and make the formation of critical thinking one of the most important tasks in education.*

Keywords: *Greece, Socrates, Aflatun and Aristotle, Phorobius, Ibn Sino and Imam Ghazli, Cognitive activity, analysis, synthesis, evaluation, reflection.*

Аннотация: *Статья посвящена историко-научному становлению понятия критического мышления, стремлению глубже изучить возможности человеческого мышления, процесс познания, самостоятельного рассуждения. В последние годы концепция критического мышления обогатилась исследованиями в области когнитивной психологии, нейронауки и педагогики. Сегодня методы развития критического мышления в системе образования постепенно совершенствуются и интегрируются с различными инновационными методами, в том числе и с нейропедагогическими технологиями. Эти процессы подчеркивают сложность человеческого разума, необходимость учета индивидуальных особенностей в познавательном процессе и делают формирование критического мышления одной из важных задач в образовании.*

Ключевые слова: *Греция, Сукрот, Афлатун и Аристотель, Форобий, Ибн Сино и Имам Газзолий, познавательная деятельность, анализ, синтез, оценка, размышление.*

KIRISH. Tanqidiy fikrlash tushunchasining tarixiy-ilmiy shakllanishi ko‘p asrlik falsafiy va pedagogik an’analarga tayanadi. Bu tushunchaga bo‘lgan qiziqish inson tafakkuri, bilish jarayoni va mustaqil mulohaza yuritish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga intilish bilan bog‘lanadi. Tanqidiy fikrlashning ildizlari qadimgi davrlardanoq yuksak bilim manbasi sifatida qaralgan falsafiy an’analarda namoyon bo‘lgan. Xususan, qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aflotun va Aristotel kabi mutafakkirlar inson tafakkurining mantiqiylik, tahlil va mulohaza qilish qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Suqrotning “Suqrotcha suhbat” usuli tanqidiy fikrlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaralgan. U savol-javob orqali insonlarni mustaqil fikrlashga va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga o‘rgatishni ma’qullagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘rta asrlarda tanqidiy fikrlash tushunchasi asosan diniy tafakkur bilan bog‘langan bo‘lsa-da, ayrim mutafakkirlar mantiqiy tahlil va dalillarga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga harakat qilganlar. Sharq falsafasida Forobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy inson bilimini shakllantirishda fikrlash tartibi va mantiqiy mulohaza yuritish usullarini muhim deb bilganlar.

Uyg‘onish davrida ratsional fikrlash va mantiqiy mulohaza yuritishga bo‘lgan e’tibor yanada ortib, tanqidiy fikrlash konsepsiyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Dekart, Lokk, Russo va Kant kabi G‘arb mutafakkirlari inson tafakkurining mustaqilligi, tajriba va mantiqiy tahlil asosida bilim olish jarayoni borasida o‘z qarashlarini ilgari surganlar. Xususan, I.Kant fikrlash erkinligi va aqliy tanqid inson bilim olish jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bilimni haqiqiy anglash jarayoni faqatgina faktlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish va tushunish asosida shakllanadi[1].

Bugungi davrga kelib tanqidiy fikrlash ta’lim-tarbiya jarayoni va uning mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. XX asrda Jon Dyui ta’limda tanqidiy fikrlashning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan edi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni faqat yodlab olish emas, balki tahlil qilish, mantiqiy mulohaza yuritish va mustaqil qaror qabul qilish orqali egallashlari lozim. Dyui tanqidiy fikrlashni amaliy masalalarni hal qilish vositasi sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlaydi[2].

TAHLIL VA NATIJALAR. Tanqidiy fikrlash tushunchasi keyingi yillarda kognitiv psixologiya, neyrobilim va pedagogika sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyib bordi. Bugungi kunda ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari tobora takomillashib, turli innovatsion usullar, jumladan, neyropedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu jarayonlar inson ongining murakkabligini, bilish jarayonidagi individual xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi va ta’limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Inson kognitiv faoliyati va tanqidiy fikrlash jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bilish, tushunish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Kognitiv faoliyat insonning atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ular asosida muayyan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu jarayon xotira, diqqat, tafakkur va mulohaza yuritish kabi kognitiv funksiyalarga asoslanadi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kognitiv faoliyatning yuqori bosqichi bo‘lib, ularga ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularni mantiqiy jihatdan baholash va obyektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni “Faol va puxta o‘ylangan refleksiv fikrlash” deb ta’riflaydi va uning mohiyatini shunday izohlaydi: “Biz har qanday g‘oyani shubha bilan qarab, uning asosliligini sinab ko‘rishga intilamiz va shu asosda fikrimizni shakllantiramiz”[2].

Kognitiv faoliyatning asosiy xususiyatlaridan biri ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida yuz beradigan kognitiv mexanizmlardir. Inson miyasi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmaydi, balki ularni turli kognitiv sxemalar orqali shakllantiradi va tushunadi. Bu jarayonda xotira va tajriba muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yangi bilimlar oldingi tajribalar bilan bog‘lanib, mantiqiy tarzda shakllanadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida inson ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning mosligini baholash, dalillar va xulosalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va soxta ma’lumotlarni ajrata olish qobiliyatini ishga soladi. Bu jarayon kognitiv

faoliyatning yuqori bosqichi hisoblanib, inson ongidagi turli kognitiv strategiyalarni talab qiladi. I.Kant tanqidiy fikrlash jarayonida aqliy tanqid va mantiqiy tahlilning muhimligini ta'kidlab, "Aql tanqidsiz bilim olganida, u ko'r, tanqid esa aqlsiz qolganda, u nochor bo'ladi", deb yozgan[1].

Shuningdek, neyrobilimlar sohasidagi tadqiqotlar inson miyasining tanqidiy fikrlash jarayonida qanday ishlashi haqida yangi bilimlar beradi. Zamonaviy neyropedagogik tadqiqotlarga ko'ra, tanqidiy fikrlash jarayonida asosan prefrontal qobiq faoliyat ko'rsatadi, bu esa xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va refleksiv mulohaza yuritish uchun mas'uldir. Ayniqsa, o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun miyaning ushbu qismini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Sharq va G'arb pedagogikasida tanqidiy fikrlashga yondashuvlar bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy maqsadi – insonning mustaqil fikrlashi va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam berishdir. G'arb pedagogikasida tanqidiy fikrlash ko'proq mantiqiy tahlil, ratsional yondashuv va empirik usullarga asoslangan bo'lsa, Sharq pedagogikasida esa tafakkur axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda qaralgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida esa har ikki yondashuv birgalikda qo'llanilib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish uchun innovatsion usullar bilan boyitilmoqda.

Umuman, o'quvchilar kognitiv faoliyati tanqidiy fikrlash jarayonining asosiy mexanizmi bo'lib, ma'lumotlarni anglash, tahlil qilish va mantiqiy baholash imkoniyatini yaratadi. Tanqidiy fikrlash o'quvchining bilim olish jarayonida faktlarni anglash va shubha bilan yondashish orqali xulosa chiqarishga yo'naltirilgan intellektual qobiliyatini namoyon etadi. Bu jarayon nafaqat bilim olish, balki kundalik hayotda ham murakkab masalalarni echish va oqilona qarorlar qabul qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada keng o'rganilgan bo'lib, unga turli tadqiqotchilar tomonidan bir nechat ta'rif berilgan. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni "refleksiv fikrlash" sifatida tavsiflab, uning mohiyatini "Ishonchli va asosli dalillarga tayanib, fikrlarni shubha ostiga qo'yish va ularni tanqidiy baholash" sifatida ta'riflaydi[2]. Ennis tanqidiy fikrlashni "Fikrlash jarayonini aniq va mantiqiy tahlil qilish, baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish" sifatida izohlaydi[3]. Fasion esa tanqidiy fikrlashni "Insonning xulosa chiqarishda mantiqiy dalillarga tayanishi, obyektiv yondashishi va murakkab masalalarni tahlil qilish qobiliyati" deb ta'riflaydi[4].

Ushbu ta'riflar tanqidiy fikrlash tushunchasining asosiy konsepsiyalarini ifodalaydi. Ayni paytda ularni mukammal ham deb bo'lmaydi. Masalan, Dyuining ta'rifida tanqidiy fikrlash jarayonidagi ijodiy yondashuv va yangi g'oyalarni ishlab chiqish komponenti kam yoritilgan. Tanqidiy fikrlash faqat mavjud g'oyalarni baholash emas, balki yangi g'oyalar ishlab chiqish va mavjud ma'lumotlar asosida xulosa qilish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Ennisning ta'rifida esa tanqidiy fikrlashning ijtimoiy muloqot bilan bog'liq tomoni hisobga olinmagan. Holbuki, tanqidiy fikrlash nafaqat shaxsiy mulohaza jarayoni, balki muloqot, bahs va fikr almashinuv jarayonida ham namoyon bo'ladi. Fasion ta'rifida shaxsning tanqidiy fikrlash jarayonidagi psixologik jihatlari, ya'ni shaxsiy qarashlar, empatiya va subyektiv omillarni hisobga olish masalasi yo'q. Zero, tanqidiy fikrlash nafaqat mantiqiy tahlil, balki insonning tajribasi, his-tuyg'ulari va muloqot jarayonini ham qamrab oladi.

Umuman, ushbu ta'riflar tanqidiy fikrlashning turli jihatlarini yoritadi, biroq ularni mukammal deb bo'lmaydi. Chunki tanqidiy fikrlash faqat dalillar va tahlildan iborat bo'lib qolmay, ijodiy yondashuv, ijtimoiy muloqot va shaxsiy tajriba kabi muhim omillarni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, tanqidiy fikrlashni mukammal tushunish uchun uning mantiqiy, ijodiy, muloqot va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Ushbu ta'riflarga tayangan holda tanqidiy fikrlash tushunchasiga biz quyidagi ta'rifni berishni lozim topdik: **tanqidiy fikrlash – bu shaxsning mavjud ma'lumot va g'oyalarni tahlil qilish, dalillarga tayanib baholash, muloqot jarayonida turli nuqtayi nazarlarni obyektiv yondashuv bilan baholash, ijodiy yondashuv asosida yangi xulosalar ishlab chiqish va shaxsiy qaror qabul qilish qobiliyatidir.**

Tanqidiy fikrlash jarayoni mantiqiy izchillik, tahlil va refleksiya, ijtimoiy muloqot va subyektiv tajribani o'zaro uyg'unlashtirgan holda shakllanadi. Tanqidiy fikrlash insondan shoshma-shoshar qaror chiqarmasdan, ma'lumotlarni turli nuqtayi nazarlardan baholashni talab qiladi.

TAMADDUN NURI

Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda. Chunki bu ko'nikma o'quvchilarga faqatgina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ularni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan shaxslar murakkab muammolarni hal qilish, turli nuqtayi nazarlarni baholash va o'z nuqtayi nazarini dalillar asosida himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli metod va texnologiyalar qo'llaniladi. Masalan, keys-stadi usuli, debatlar, tadqiqot faoliyati, muammoli ta'lim va kognitiv treninglar bu ko'nikmani shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy neyropedagogik yondashuvlar esa tanqidiy fikrlash jarayonini kognitiv faollik bilan bog'lab, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Umuman, tanqidiy fikrlash zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. U nafaqat fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, balki hayotda mustaqil va mantiqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy faollikni oshirish uchun ham zarurdir. Shu boisdan, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash – inson tafakkurining yuqori bosqichi bo'lib, bilimlarni tahlil qilish, mantiqiy izchillikda baholash va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini o'z ichiga oladi. U faqat ma'lumotlarni qabul qilish emas, balki ularni shubha ostiga olish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Tanqidiy fikrlashning samarali amalga oshishi uchun uning asosiy komponentlari va funksiyalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar shaxsning bilish faoliyatidagi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'lib, tanqidiy yondashuvning to'laqonli shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning funksiyalari uning ta'lim jarayoni va kundalik hayotdagi ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqotimizda tanqidiy fikrlash jarayonining asosiy **kognitiv mexanizmlari** aniqlashtirildi. Bizningcha, u quyidagilardan iborat: *1) analiz; 2) sintez; 3) baholash; 4) mulohaza yuritish*dir. Tanqidiy fikrlash jarayonining mexanizmlari sifatida ushbu jarayonlar insonning ma'lumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi va ulardan asosli xulosa chiqarishida muhim o'rin tutadi.

Analiz – bu ma'lumot yoki g'oyani uning tarkibiy qismlariga ajratish, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va umumiy mantiqiy tuzilmani anglash jarayonidir. Analiz jarayonida shaxs ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish o'rniga ularning asoslarini o'rganadi, dalillarni tekshiradi va yolg'on yoki noto'g'ri manbalarni aniqlashga harakat qiladi. Tanqidiy fikrlashda analiz muhim rol o'ynaydi, chunki u insonga mavjud bilim va ma'lumotlarni mantiqiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Sintez esa analizdan keyingi bosqich bo'lib, har xil ma'lumotlar va g'oyalarni birlashtirib, yangi bilim yoki konsepsiyani shakllantirish jarayonidir. Sintez jarayonida shaxs turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'zaro bog'laydi, yangi nuqtayi nazarlar ishlab chiqadi va mavjud bilim doiralarini kengaytiradi. Sintez tanqidiy fikrlashning ijodiy tomonini aks ettirib, insonga yangi muammolarni echishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Baholash jarayoni insonga ma'lumotlarni obyektiv mezonlar asosida tahlil qilish va ularning ishonchliligini aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayonida shaxs dalillarning aniqligi, manbalarning ishonchliligi va faktlarning to'g'ri ekanligini tekshiradi. Shu bilan birga, baholash tanqidiy fikrlashning muhim mexanizmi bo'lib, insonga noto'g'ri yoki bir tomonlama ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Baholash jarayonida shaxs o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi nuqtayi nazarlarni qabul qilish yoki mavjud fikrlarini qayta ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Mulohaza yuritish jarayoni tanqidiy fikrlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda shaxs o'z fikrlarini asoslash, dalillar orqali qo'llab-quvvatlash va xulosalarini oqilona tushuntirishga harakat qiladi. Mulohaza yuritish insonning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynab, uni mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Mulohaza jarayoni tanqidiy fikrlashni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi va insonning fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Demak, analiz, sintez, baholash va mulohaza yuritish jarayonlari tanqidiy fikrlashning asosiy mexanizmlaridir. Ularning har biri ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va yangi bilimlarni

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar inson tafakkurini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirish uchun zarurdir.

Tanqidiy fikrlash muloqot va dalillash madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonning o‘zaro muloqot jarayonida o‘z fikrini asoslash, dalillar orqali himoya qilish va boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Har qanday muloqot jarayonida fikrlar va g‘oyalar o‘zaro baham ko‘riladi, ular asosida turli bahs va munozaralar yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlash aynan shu jarayonlarda insonga mulohazali va dalillarga tayangan tarzda qatnashish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash dalillash madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Dalillash insonning fikrini boshqalarga tushunarli va ishonchli tarzda yetkazish qobiliyatidir. Bu jarayonda inson ma’lumotlarni analiz qiladi, mantiqiy dalillar asosida o‘z fikrini himoya qiladi va qarshi nuqtayi nazarlarni baholaydi. Tanqidiy fikrlash dalillash jarayonida subyektiv yondashuvdan qochish, dalillarga tayanish va xulosalarni asoslash imkonini yaratadi. Masalan, Jon Dyui tanqidiy fikrlashni faol refleksiv fikrlash deb ta’riflab, uning muloqot jarayonida shaxsning fikrlarini to‘g‘ri va mantiqiy ifodalashiga xizmat qilishini ta’kidlaydi[2].

XULOSA. Muloqot jarayonida tanqidiy fikrlash nafaqat o‘z nuqtayi nazarini ifoda etish, balki boshqalarning fikrini tahlil qilish va tushunishga ham yordam beradi. Inson boshqa shaxslarning fikrlarini qabul qilish, ularning mantiqiyligi va ishonchliligini baholash orqali o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishi yoki mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon bahs-munozaralarda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash muloqotda hurmat va konstruktiv yondashuvni rivojlantiradi. Har qanday bahs jarayonida shaxslar o‘z fikrini ifoda etishda ehtiroslarga berilmay, dalillarga asoslangan mulohaza yuritishi kerak. Tanqidiy yondashuv haddan tashqari emotsiyalarga berilmasdan, mantiqiy va asosli fikrlashni ta’minlaydi.

Tanqidiy fikrlash jarayoni inson miyasining murakkab neyrofiziologik mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq. Prefrontal qobiq tahlil qilish, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarsa, gippokamp xotirani mustahkamlashda ishtirok etadi. Neyrobilimlar bu jarayonlarni o‘rganish orqali ta’lim metodologiyasini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Ta’lim to‘g‘risida. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5987-son Farmoni: Toshkent sh., 2020 yil 29 aprel.

3.Kant I. Kritik der reinen Vernunft. – Riga: Johann Friedrich Hartknoch, 1984. – p.356.

4.Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co, 1978. – p.125.

5.Ennis R. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – p.12.

6.Facione P. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae: Insight Assessment, 1990. – p.14.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 902:339.1:008(575.1)

TURON ARXEOLOGIYASIDA QADIMGI AYOL OBRAZINING O‘RGANILISHI

Abdug‘aniyev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li, O‘zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

STUDY OF THE ANCIENT WOMAN'S IMAGE IN TURAN ARCHAEOLOGY

Abduganiev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li, Junior Researcher, Institute of History, Uzbek Academy of Sciences

ИЗУЧЕНИЕ ОБРАЗА ДРЕВНЕЙ ЖЕНЩИНЫ В ТУРАНСКОЙ АРХЕОЛОГИИ

Абдуганиев Ахрорджон Ахаджон оглы, младший научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана

https://orcid.org/0009-0002-2428-8101
e-mail: ahrorjon.abduganiyev@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turon (Markaziy Osiyo) arxeologiyasida ayol obrazi va unga oid diniy-madaniy tushunchalar arxeologik, ikonografik va etnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Turonning qadimgi davrida yaratilgan haykalchalar, sopol idishlar, petrogliflar va diniy ramzlar orqali qadimgi jamiyatlarda ayol obrazining ilohiy, ijtimoiy va madaniy o‘rnini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Turon arxeologiyasi, ayol obrazi, ilohiy timsollar, terrakota, petrogliflar, ayol ma’budalari.*

Abstract: *This article analyzes the image of women and the associated religious and cultural concepts in the archaeology of Turan (Central Asia) based on archaeological, iconographic, and ethnographic sources. The research explores the divine, social, and cultural significance of the female image in ancient societies through figurines, pottery, petroglyphs, and ritual symbols found in the Turan region.*

Keywords: *Turan archaeology, female image, divine symbols, terracotta, petroglyphs, female deities.*

Аннотация: *В данной статье анализируется образ женщины и связанные с ним религиозно-культурные представления в археологии Турана (Средняя Азия) на основе археологических, иконографических и этнографических источников. Исследование раскрывает божественную, социальную и культурную роль женского образа в древних обществах через найденные на территории Турана статуэтки, глиняную посуду, петроглифы и культовые символы.*

Ключевые слова: *археология Турана, женский образ, божественные символы, терракота, петроглифы, богини.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Turon arxeologiyasida ayol obrazi va uning diniy-madaniy ahamiyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bu hududda qadimdan shakllangan madaniy qatlamlarning boy merosini o‘rganishga asos bo‘lgan. Ayol obrazining diniy timsollar, hosildorlik kultlari va mifologik tushunchalar bilan bog‘liqligi turli davrlarda arxeologik topilmalar orqali aniqlangan. Ayniqsa, XX asrning o‘rtalaridan boshlab, bu mavzuga oid ilmiy izlanishlar kuchaygan. Ushbu maqola Turon hududida topilgan ayol haykalchalari, sopol idishlardagi tasvirlar, petrogliflar hamda diniy urf-odatlar orqali qadimgi jamiyatlarda ayol obrazining o‘rni va unga bo‘lgan e’tiqodlarni tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Turon arxeologiyasida qadimgi ayol obrazining o‘rganilishiga bag‘ishlangan ushbu

maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi usullaridan foydalanildi:

Arxeologik tahlil: Turon hududidagi qadimiy yodgorliklardan topilgan ayol haykalchalari (terrakotalar), sopol idishlar, petrogliflar va diniy buyumlar o‘rganildi.

Komparativ (taqqoslov) usul: Turon topilmalari boshqa qadimiy madaniyatlar (Mesopotamiya, Hind vodiysi, Kichik Osiyo) bilan taqqoslandi.

Semantik va ikonografik tahlil: haykalchalar va ramzlar yuzasidagi belgilarning ma’naviy va diniy mazmuni, ularning hosildorlik, onalik, suv elementi bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Tarixiy va madaniy-geografik yondashuv: har bir topilma o‘zining ijtimoiy-madaniy konteksti, davri va joylashgan hududi bilan bog‘liq holda o‘rganildi.

Etnografik materiallar tahlili: G.Snesarev, O.Gorshunova va boshqa etnologlarning ishlari asosida qadimgi ayol kultlarining keyingi davrda qanday davom etgani o‘rganildi[4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Turon hududidan topilgan arxeologik va etnografik materiallar qadimiy jamiyatlarda ayollar timsoli faqatgina biologik yoki ijtimoiy rol bilan emas, balki ilohiy, ramziy va diniy darajada qadrlanganini ko‘rsatadi. Suv ilohasi, hosildorlik ma’budasi, himoyachi ayol timsollarining mavjudligi bu obrazlarning tabiat, hayot va nasl qoldirish bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Terrakota haykalchalarining naqshlari, semantik ifodalari, ikonografiyasi Turon madaniyatlarida ayolning diniy va madaniy markaz sifatidagi mavqeini ifodalaydi[10]. Marg‘iyona, Anov, Namozgohtepa va boshqa joylardan topilgan haykalchalar orqali qadimgi odamlar uchun ayol – tabiat kuchlari, hayot boshlanishi, hosildorlik va himoya timsoli bo‘lib xizmat qilgan. Etnografik tadqiqotlar (G.P.Snesarev, O.V.Gorshunova) esa bu qadimiy e’tiqodlar islom davrida ham muayyan shaklda saqlanib qolganini ko‘rsatadi, bu esa madaniy uzviylik (kontinuitet) hodisasi mavjudligini bildiradi[11]. Bugungi kunda olib borilayotgan arxeologik izlanishlar va yangi topilmalar Turon hududida ayol obrazining madaniy, diniy va estetik o‘rni chuqur ildizlarga ega ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

P.M.Kojin va V.N.Sarianidining “Змея в культовой символике анауских племен” (Anov qabilalarining kult ramziyligida ilon) maqolasida Turondagi Anov madaniyati aholisining diniy ramzlari va ular orasidagi ilonning o‘rni hamda ularning ayol kulti bilan bog‘liqligi haqida fikrlar yuritilgan[5].

Y.V.Antonovaning “Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии”(Old va O‘rta Osiyoda qadimgi dehqonlarning antropomorf haykali) kitobi qadimgi dehqonchilik madaniyatlari tomonidan yaratilgan antropomorf haykalchalar haqida batafsil ma’lumot beradi[2]. Kitobda Turonda topilgan antropomorf (inson shaklidagi) haykalchalar, jumladan ayol haykalchalar va ularning tasnifi, haykalchalarning turli xil shakllari, uslublari va materiallari haqida ma’lumot berilgan. Bu haykalchalar tahlili orqali qadimgi odamlarning diniy e’tiqodlari, ijtimoiy tuzilmalari va kundalik hayoti haqida ham bir qator xulosalarga kelish mumkin.

Hozirgi Turkmaniston hududida arxeologik izlanishlar olib borgan fransuz olimi F.Brunetning maqolasida Turon hududidagi ayol haykalchalar ularning shakli va uslubi umumiy ko‘rinishi, naqshlari va bezaklari, yasalish texnologiyasi haqida, shuningdek, turli xil davrlarda va joylarda ayol haykalchalarning tasvirlanishidagi farqlar haqida ayrim fikr va mulohazalarni bildirib o‘tadi[1].

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Ayolning ilohiy obrazda namoyon bo‘lishi S.P.Tolstov Xorazmda suv ilohasi obrazini Amudaryoning timsolida ifodalab, ayolning tabiat va hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan[12]. Bu ayol obrazining kosmik va hosildorlik funksiyasi mavjud bo‘lganini anglatadi.

Bronza davridagi diniy ramzlar V.M.Masson va V.I.Sarianidiy topgan Anov, Namozgohtepa, Qoratepa yodgorliklarida ayol haykalchalari ko‘plab aniqlangan. Ular terrakota texnikasida yasalgan bo‘lib, hosildorlik, tug‘ilish, himoya kabi ma’nolarni ifodalagan[7].

Marg‘iyona mintaqasidagi ayol ma’budalari G.A.Pugachenkova Gyaurqal’a yodgorligida topilgan ayol ma’budasining diniy va mifologik tahlilini bergan[9]. Bu haykalcha hududdagi qadimgi ayollar kultining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Terrakota tahlilining tizimlashtirilishi V.M.Masson va V.I.Sarianidining “Среднеазиацкая терракота эпохи бронзы” asarida ayol haykalchalarining turlari, uslublari, ramziy ma’nolari to‘g‘risida batafsil tasnif va interpretatsiya berilgan[8].

TAMADDUN NURI

Petrogliflarda ayol obrazining aks etishi M. Xo‘janazarov[14] va Y.A.Sherlarning[15] petrogliflar haqidagi ishlari qadimgi rasmiy san’atda ham ayol obrazining muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi (masalan, Xo‘jakent, Qoraqiyasoy).

Islomdan oldingi diniy amaliyotlar G.P.Snesarevning “Реликты домусульманских верований” asarida ayollar bilan bog‘liq diniy marosimlar, tug‘ilish, to‘y, o‘lim bilan bog‘liq urf-odatlar, onalik kultining davomiyligi ko‘rsatiladi.

Hozirgi davrdagi arxeologik yondashuvlar R.Suleymanov, O.Mamirov[6], A.Xolmatov[13], Y.Gordeyeva[3] kabilar olib borgan arxeologik ishlar natijasida yangi topilmalar – sopol haykalchalar, diniy belgilangan idishlar topilgan va zamonaviy tahlillar asosida qadimiy ayol kultining yangi yo‘nalishlari ochib berilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Turon arxeologiyasidagi ayol obraziga oid topilmalar diniy, madaniy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi jamiyatlarda ayollar hayot manbai, himoyachi kuch va hosildorlik timsoli sifatida ilohiy darajaga ko‘tarilgan. Ushbu obrazlarning arxeologik va etnografik jihatdan tadqiqi qadimiy e’tiqodlarning zamonaviy madaniyatdagi aksini ham yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES):

1. Frédérique Brunet. Les figurines en Asie centrale du Chalcolithique au Bronze ancien (V e - IV e millénaire). Étude techno-typologique d’ateliers de production au Turkménistan // Figurines féminines nues. Proche-Orient, Égypte, Nubie, Méditerranée orientale, Asie centrale (VIIIe millénaire av. J.-C. – ive siècle ap. J.-C.). Actes du colloque de Strasbourg (25-26 juin 2015). – Paris, 2020. – 152 p.
2. Антонова Е.В. Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии. – М., 1977. – 229 с.
3. Гордеева Е.А. Ранние этапы духовной жизни Средней Азии (VII – пер. пол. I тысячелетия до н.э.). – Ташкент, 2021. – 148 с.
4. Горшунова О.В. Женское паломничество к святым местам (по материалам Ферганской долины) // Итоги полевых исследований. – М., 2000. – С. 23.
5. Кожин П.М., Сарианиди В.И. Змея в культовой символике анаусских племен. // История, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968. – С. 35-40.
6. Мамиров О.У. Ўрта Осиё коропластикасида аёллар образи (Эски Ховос ёдгорлигидан топилган аёл маъбуда терракотаси мисолида) // O‘zbekiston arxeologiyasi. – 2016. – № 1. – Б. 99-104.
7. Массон В.М. О культе женского божества у анауских племен. // КСИИМК. № 73. – М.-Л., 1959. – С. 14-20.
8. *Массон В.М., Сарианиди В.И.* Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. Опыт классификации и интерпретации. – М., 1973. – С. 208.
9. *Пугаченкова Г.А.* Маргианская богиня // СА. – М., 1959. – С. 114-140.
10. Сарианиди В.И. Культовые здания поселений анауской культуры // СА. – М., 1962. – № 1. – С. 44-56.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 338.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М.: Издание МГУ, 1948. – 352 с., 89 табл. 110 рис.
13. Холматов А.Н. Нурота тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2019. – 169 б.
14. Хужаназаров М.М. Наскальные изображения Ходжакента и Каракиясая. – Самарканд, 1995. – 173 с.
15. Шер Я.А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. – М., 1980. – 328 с.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 13:248.3

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Gulova Anorgul Axtamovna, Andijon davlat universiteti doktoranti

ALISHER NAVOI'S SOCIO-ANTHROPOLOGICAL VIEWS AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF YOUTH

Gulova Anorgul Akhtamovna, Doctoral student of Andijan State University

СОЦИАЛЬНО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВОИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Гулова Аноргул Ахтамовна, докторант Андижанского государственного университета

https://orcid.org/0009-0006-5732-4016
e-mail: Gulovaanorgul2@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalasi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mutakallim, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim.*

Abstract: *This article analyzes the human problem in the socio-anthropological views of Alisher Navoi.*

Key words: *mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, education.*

Аннотация: *В данной статье анализируется проблема человека в социально-антропологических взглядах Алишера Навои.*

Ключевые слова: *мутакаллим, духовность, просвещение, мысль, общество, образование.*

KIRISH. Navoiyning inson to'g'risidagi mulohazalari "Xamsa"ning "bismilloh"idan boshlanadi. Ya'ni ijodkorning ta'biricha, "Bismillohir rahmonir rahiym" shunday bir qimmatbaho marjondirki, bu singari injular saf tortgan marjonning ipi "jahon-u jon" rishtasi sanaladi. Agarda biz bularni marjonning o'ziga xos jihati deb hisoblaydigan bo'lsak, uning xislati boshqa holatda bo'y ko'rsatadi. Biror bir kishi ushbu marjondan tasbih sifatida foydalanib, chin dildan haq yo'liga harakatlansa, umrboqiylik xazinasiga (ganji baqoga) erishadi.

"Yo'qki o'shul rishtai gavhar baho,
Ganji ilohiyg'a erur ajdaho.
Yoki bular barchasi ta'vil erur,
Arshi muallo aro qandil erur"[1].

Natijada u mahzani "vahdatga (Allohning yagonaligi siri tomon) yo'l" ham olishi mumkin. Alisher Navoiyning ta'kidicha, bu yo'l qiyin hamda xavf-xatardan xoli bo'lmaganligi sababli kishilar aynan shu joyda ikkiga bo'linadilar: qabul qilinuvchilar va rad etiluvchilar.

"Azmig'a chun qo'ydi qadam ahli rad,
Rahbari tavfiqdin o'lmay madad"[2].

Yuqoridagi baytda ahli rad deganda Yaratgandan madad olmay manzil tomon ravona bo'luvchilar ko'zda tutilyapti. Bu kabi insonlarga ilohiy boylik (ganji ilohiy)ka erishish nasib qilmaydi. Yuqorida fikr yuritilgan tasbih ajdaho singari ularning yo'lini yopadi hamda ahli qabul uchun to'g'ridin-to'g'ri yo'l ochadi. Shundan so'ng

[1] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 11.

[2] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 12.

Navoiy inson (maxluqot)ni yaratgan Allohga hamd-u sanolar aytadi. Boisi Yaratuvchi insonni yaratgan paytda uning qalbiga muhabbat olovini yoqqan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ilk munojotda diniy-tasavvufiy nuqtayi nazaridan Tangri ta'rifi keltiriladi: Ya'ni:

"Ey sanga mabda'[3]*da abaddek azal,*
Zoti qadiming abadiy lam'yazal[4]*"*[5].

Ushbu paytda olam yaratilmasdan avval, faqatgina Alloh mavjud bo'lganligi haqida fikr boradi. Yaratganning hadsiz jamoli yolg'iz Ungagina jilva berardi:

"Mazhar[6] *o'lub husnungga mir'ot*[7]*i g'ayb,*
Jilva qilib anda xayoloti g'ayb.
Nozir o'zung erdinggu manzur o'zung.
Ishqingga xush husnungga mag'rur o'zung"[8].

Allohning husn-u jamoli tengsizligi bois Unga beadad ko'zgu lozim edi. Parvardigorning borliqni vujudga keltirishidan muddaosi shu ediki, olamning har bir manbasida Yaratganning jamoli, xuddi oynada namoyon bo'lgandek zuhur etadi:

"Shohid etib chehra bu ko'zgu anga,
Ul ne qilib, ko'rguzubon bu anga.
Ayladi chun odami xokiy zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur"[9].

Parvardigor jamiki olamlarni paydo qilarkan, jumlai jahonni tashkil qilgan hamma mavjudot-u maxluqotlardan buyukroq hamda azizroq bo'lgan jonzotga o'z husn-u jamolini jilvalantirish muddaosi bo'lgan. Bu mavjudot inson nomi ila atalgan maxluqot edi.

Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading[10].

Insonning bunchalik aziz va mukarram ekanligining sababi u boshqa maxluqotlardan farqlanib, Tangrining kalomiga komilligi, shuningdek, yaratuvchining pinhon bo'lgan (haliyam oshkor qilinmagan) sinoatlarini o'zida olib yuruvchi, xuddi Yaratgan hikmatlar xazinasining bir qismi hisoblangan mavjudot ekanligidandir.

Mana shu sababdan ham Tangri tomonidan nozil qilingan Qur'oni Karimda insonga nisbatan: "Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (otulov va kemalarga) mindirib qo'ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik"[11], kabi ta'riflar berilgan. Shuningdek, mazkur mavjudot Alloh ma'rifatini, ya'ni, uni anglash ilmini tushunishga qodir, zukko mavjudotdir:

"Yorab, o'shul ganjki mahram anga,
Kimsa emastur, magar odam anga"[12].

Demak, Navoiy ta'biricha, inson zoti Xudo tarafidan hikmat hamda xislatlardan mosuvo, ojiz mavjudot sifatida yaratilmagan. Aksincha, inson – Parvardigorning mo'jizaga boy xazinasi, yetuk aql va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan zakiy maxluqotidir.

Ya'niki, chu olamni yaratti Ma'bud,
Olam eliga qudrat ila berdi vujud.
Inson edi maqsudki, bo'ldi mavjud,
Insondin ham habibi erdi maqsud[13].

Ijodkorning ta'kidicha, faqatgina inson mavjudotlar o'rtasida eng suyuklisi ekanligi bilan boshqa maxluqotlar ham qadrsiz emas, aksincha, ular ham o'z o'rniga ega bebaho gavharlar hisoblanadi:

"Xamsa"ning ilk dostoni "Hayratul-abror"da bayon qilinishicha, Alloh insoniyatning ibtidosi – Odam va Havoga ruh ato etgan paytidayoq ularni sharafli qilgan edi:

"Egniga yopildi duvvoji sharaf,
Qildi makon boshig'a toji sharaf"[14].

Gapning indallosi shundaki, Tangri taoloda (uning saltanatida) nimaiki pinhon qilingan bo'lsa, habibining chehrasida shu narsalar aks etarkan:

---

[3] Мабдаъ – бошланиш; асл, асос.
[4] Ламъязал – доим.
[5] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. Тошкент, Фан, 1991, – Б. 19.
[6] Мазҳар кўриниш; ҳар нарсанинг кўринадиган, зоҳир бўладиган жойи.
[7] Миръот – ойна, кўзгу
[8] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 20.
[9] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 30.
[10] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 21.
[11] А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. Ал-Исро сураси 70-оят. – Б. 184. www.ziyouz.com.
[12] Алишер Навоий. Хамса. Ҳайратул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ.Ўн жилдлик, Ж. 6. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.15.
[13] Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 16. Тошкент, Фан, 2000, – Б. 3-4.
[14] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991, – Б. 31.

“Bo‘ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon”[15].

Tangri insonni alohida e’zozlab, unga buyuklik tojini kiydiradi hamda uni rasullik taxtiga loyiq ko‘radi. Farishtalarni unga himoyachi qiladi, Havo ham bu kabi ne’matlardan bebahra qolmadi, yaratuvchi uni o‘z nuri ila nurlantirdi:

“Pok-u jamil ayladi Havvo yuzin,
O‘ylaki haq partavi havro yuzin”[16].

Alisher Navoiy tasvirida inson yaratilishidanoq, musharraf va tabarruk bo‘lgan[17]. Shuning uchun ham inson maxluqotlar sarvaridir.

Subhonalloh-u huval-aliyul-mutaol,
Kim ayladi ishq bahrini molomol.
Insonni chu anda soldi g‘avvos misol,
Ham gavhari hol berdi, ham durri maqol[18].

Mutafakkir e’tiroficha, odam, olam hamda tabiat o‘zaro mushtaraklik kasb etuvchi manbalardir. Shuningdek, inson o‘zga yaratiqlardan faqatgina ruhiy olamining va mantiqiy fikrlash darajasining yuqoriligi bilangina emas, balki vujudining ilohiy olam bilan daxldorlik xususiyatiga egaligi jihatidan ham ajralib turadi.

Shunga asoslangan holda, har bir shaxs o‘zidagi ilohiylik xususiyatlarini inobatga olib, undan o‘zini anglash yo‘lida unumli foydalanishi lozim.

Alisher Navoiyning fikricha, butlarga sig‘inish ham Yaratganning ko‘rinish (tajalliyot)laridan biriga e’tiqod qilish hisoblanib, jahondagi jamiki din shakllari aslini olganda Parvardigor uchun sajdaga bosh qo‘yadilar.

“- Chun Talab vodiysig‘a qo‘ysang qadam,
Ollingg‘a har dam kelur yuz ming alam.
Har dam anda yuz malomat yuzlanur,
Har nafas ming sa’b holat yuzlanur.
Istamak ranji ko‘ngulni zor etar,
Topmomog‘lig‘ ruhni afgor etar”.

Yuqoridagi misralar falsafiy asar “Lisonut-tayr”dan o‘rin olgan Talab vodiysining sifati faslining boshlanish qismida keltirilgan bo‘lib, mazkur faslda ham Navoiyning irfoniy-antropologik qarashlarini ko‘rishimiz mumkin. Faslning keyingi baytlarida Navoiy qachonki, inson xulq-atvori hamda harakatlarida foniy dunyo mol-mulkiga qiziqishdan hech qanday narsa qolmagach, u shundagina kufr hamda iymon mazmun-mohiyati haqida tafakkur qilishi, buning natijasida haqiqat eshigi ochilishi, mazkur eshikdan ichkariga kirgach (uni anglagach), hamma (diniy-e’tiqodiy ziddiyatlar, farqlar) mavhumliklardan insonning qutulishi haqida so‘z boradi. Mutasavvuf talqinicha, kishi shundagina olamning asl mohiyatini tushunish yo‘lidagi to‘siq aynan kufr hamda iymonligiga iqror bo‘ladi.

XULOSA. Mazkur fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiy ta’kidicha, borliq ezgulik uchun yaratilgan. Alloh nazdida mavjud diniy aqidalar hech qanday ahamiyatga ega emas bo‘lib, kishi o‘zligini anglashga intilgan holda mantiqan olamning vujudga kelish mohiyatini tafakkur qilishi darkor.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. MAT. 20 jildlik, J. 7. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 11.
2. A.Mansur.(tarj. va izoh muallifi). Qur’oni Karim. Al-Isro surasi 70-oyat. – B. 184. www.ziyouz.com.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Hayratul-abror. Farhod va Shirin. TAT. O‘n jildlik, J. 6. – Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.15.
4. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn, MAT. 20 jildlik, J. 16.Toshkent, Fan, 2000,– B.3-4.
5. Muhiddinov M, Asrorov M. “Hayratul-abror” dostonidagi hamd va na’tlar talqini // “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Navoiy, 2017. – B. 34.
6. Alisher Navoiy. Badoyi’ ul-bidoya. MAT.J.1.–Toshkent: Fan, 1987. – B. 6.
7. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. MAT. 20 jildlik. J. 12. – Toshkent: Fan, 1996. – B.238.

[15] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент, Фан, 1991, – Б. 31.

[16] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент, Фан, 1991, – Б. 31.

[17] Муҳиддинов М, Асроров М. “Ҳайратул-аброр” достонидаги ҳамд ва наътлар талқини // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” халқаро илмий анжуман материаллари. – Навоий, 2017. – Б. 34.

[18] Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ.Ж.1.– Тошкент: Фан, 1987. – Б. 6.

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 811.81.173

ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ КИНОФИЛЬМОВ

Сафарова Дилaром Абдукадировна
Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

KINO NOMLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Safarova Dilarom Abdukadirovna
Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti o'qituvchisi

SPECIFIC FEATURES OF TITLES OF FILMS

Safarova Dilarom Abdukadirovna
Teacher of Termez University of Economy and Service



E-mail: safarova.22@mail.ru
Orcid: 0009-0001-5227-7728

Аннотация. *В этой статья идёт речь о известных названиях кинофильмов, которые являются объектом многих научных исследований. Ономастика эта именно та лингвистическая область, изучающая имена собственные и нарицательные в том числе и заголовков кинофильмов. Информативная функция названий кинолент является самой важной.*

Ключевые слова: *названия кинофильмов, классификация, интерпретация, художественные произведения, культура.*

Annotatsiya: *Bu maqola ingliz kino nomlariga bag'ishlangan bo'lib, ko'plab ilmiy tadqiqotlarning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Onomastika tilshunoslikning bo'limi bo'lib, u ham atoqli, ham turdosh otlarni va kino nomlarini o'rganadi. Shu bilan birga filmonimlarning informatsion (xabar beruvchi) eng muhim funksiyalaridandir.*

Kalit so'zlar: *kino nomlari, klassifikatsiya, interpretatsiya, badiiy asarlar, madaniyat.*

Abstract: *The article deals with the titles of popular English films, which are considered as the object of a great number of scientific researches. Onomastics is the branch of linguistics dealing with proper nouns, common nouns and titles of films as well. One of the most important functions of titles of movies is a fuctional one.*

Key words: *titles of movies, classification, interpretation, fictions, culture.*

ВВЕДЕНИЕ (KIRISH/INTRODUCTION). Человек тесно связан с окружающим миром и это связь влияет на его мировозрение, восприятие окружающего мира. Данною статью мы посвятили изучению заголовков английских и узбекских кинолент. Они представляют свою интерпретацию картины мира не только как определённого вида отдельно, но и с точки лингвокультурологии. При переводе названий фильмов можно заметить как меняется картина мира.

Основная цель нашей статьи определить лексические и грамматические свойства заголовков художественных кинолент, затем применить результаты при трансляции фильмонимов с английского языка на узбекский.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD/MATERIALS AND METHODS). Название фильмов является объектом исследователей как А.В.Ламзиной, Ю.Н.Подымовой, Н.А.Цветковой и других.

Существует ряд препятствий при переводе названий художественных произведений как фильмов. Эти трудности связаны с недостаточным знанием языка и культуры фильма при передачи информации, которая может вербальной, невербальной и смешанной. Этот процесс не является заключительным этапом взаимодейсвующих двух различных культурных сред.

ОБСУЖДЕНИЕ (MUHOKAMA/DISCUSSION). Фильмы оказывают большое влияние на зрителей и их картину мира. Рейтинг популярности фильма определяется по его названию, так как захватывающий заголовок фильма привлекает больше внимание, чем его содержание и имён главных актёров. «Название фильма является некой гарантией успеха, и его эффективное восприятие сразу же сказывается на кассовых сборах. Авторы пытаются выбрать броские заголовки своих работ, так как название предназначено для привлечения максимального количества публики, Кроме того заголовок фильма должен, по крайней мере, отражать содержание картины мира и легко запоминаться в уме зрителя» [1].

При переводе названий фильмов с определённого языка на родной язык происходит языковой культурный обмен, который требует адекватный перевод.

Ономастика является активной областью лингвистики, которая изучает значимые объекты как фильмонимы. Основной функцией фильмонимов является номинативная функция, а их главной характеристикой выявление конкретных сведений о картине мира определённой страны.

РЕЗУЛЬТАТЫ (NATIJALAR/RESULTS). В настоящее время ономастика является наиболее активной областью языкознания. Значительное место среди ономастических исследований стали занимать работы в аспектах как лингвокультурология и антропология, посвященные новым объектам ономастики. Литературные заглавия изучаются в стилистике, а названия кинофильмов остаются вне поля зрения лингвистов. Между тем влияние современного кинематографа на огромную аудиторию трудно преувеличить. Названия фильмов требует глубокого анализа: в них отражаются активные процессы, происходящие в узбекском и английском языках на современном этапе; язык фильмах также оказывает влияние и на литературно-языковую норму, и на общественный вкус наших современников. Анализ языка киноискусства должен включать изучение названий кинофильмов [3]. Термин «фильмоним» добавлен в состав ономастической терминологии. Они могут отличаться друг от друга содержанием или формой, донося до зрителя полную или частичную информацию о сюжете кинофильма. Фильмонимы являются особым разрядом имен собственных, так как имеют особую знаковую природу. Информативная функция считается важнейшей функцией фильмонимов [2].

Информативная функция связана и с коммуникативной функцией, но значение первой гораздо шире, что подчеркивает ее самостоятельность. Информативная функция выполняет двойную роль: с одной стороны, название информирует зрителя о содержании фильма, а с другой – побуждает к тому, чтобы зритель посмотрел фильм - в этом и заключается специфика любого заглавия. Таким образом, информативная функция включает в себя функцию привлечения внимания (или рекламную функцию) и функцию воздействия (или прагматическую).

Имена собственные в нашем случае которыми являются названия фильмов, которые можно классифицировать по разному. Однако, не существует строгой классификация видов названий кинофильмов. На основе структурной классификации можно разделить заголовки фильмов на односоставные и двухсоставные предложения [3].

TAMADDUN NURI

В заголовки фильмов часто состоят из антропонимы которые указывают на индивидуальные свойства главных персонажей фильма: «Энола Холмс»-“Enola Holmes”, «Виктор Франкенштейн» -“Victor Frankenstein”, «Доктор Дулиттл»- Dr.Dolittle, «Шерлок Холмс»- “Sherlock Holmes”, «Гарри Поттер и Ордер Феникса»-“Harry Potter and Order of Phoenix”, «Гарри Поттер» -“Harry Potter”, «Маугли»- Mowgly, «Ребека»- “Rebecca”. Фильмонимы могут быть выражены инфинитивом: «Урвать»- “Snatch”, «Убить гонца»-“Kill the messenger”. Большинство из названий состоит из прилагательных в фильмах как «Нечестивый»- “The Unholy”, “Идеальная Пара”-“The Perfect Couple”, «Могильные Пытки»- “Grave Torture”, «Фантастическая Четверка»- “The Fantastic Four”, «Зубная Фея»-“ToothFairy” [1].

Основные свойствами англоязычных фильмонимов нужно брать во внимание при переводе. При переводе опускаются артикли, предлоги, часто употребляются знаки как вопросительный, двоеточие и восклицательный. Они часто выражены словосочетаниями с причастием и герундием.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (XULOSA/CONCLUSION). Заголовок кинофильма играет значимую роль в понимание картины, это основная причина из-за которой переводчик должен приложить все усилия, так как от адекватного перевода зависит правильная передача смысла. Фильмонимы выполняют рекламные функцию, переводчику нужно помнить об этом при переводе. Для этого нужно владеть не только родным языком но и английском языком в совершенстве. Таким образом, перевод названий фильмов это очень тонкий процесс. Анализ перевода названий англоязычных фильмов на русском языке показал что для лучшего понимания заголовка кино приходится адаптировать лексическим и грамматическим путём с методом перевода лексико-грамматической трансформации. Сфера перевода фильмонимов считается очень занимательной темой, по этой причине и стала темой нашего исследования, где были выявлены много трудностей в разделение семантических типов названий кинофильмов и их перевода.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (ADABIYOTLAR RO‘YXATI/REFERENCES)

1. Петрова Н.Ю. Названия английских и драматургических произведений в когнитивной перспективе. Вопросы когнитивной лингвистики. – Москва. 2009. – С.35-41.
2. Подымова Ю.Н. Фильмонимы как проблема перевода //Студенческий научный журнал, 2000. – С.215-219.
3. Сафарова Д.А. Семантические особенности названий фильмов.Филологические исследования: язык, литература, образование. – Термиз. 2023.
4. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы): Для ин-тов и фак. иностр, яз. Учеб, пособие. - 4-е изд., перераб. и доп. – Москва. 1983 – 303 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 28.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.85:97.63

BALIQCHILIK TERMINLARI TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING OBYEKTI SIFATIDA

Tangriqulova Karomat Saitovna, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ingliz tili fani o'qituvchisi

РЫБОЛОВНЫЕ ТЕРМИНЫ КАК ОБЪЕКТ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Тангрикулова Каромат Саитовна, преподаватель английского языка Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий

FISHERY TERMS AS THE OBJECT OF TERMINOLOGICAL RESEARCH

Tangrikulova Karomat Saitovna, Teacher of English at Termez State University of Engineering and Agrotechnology

https://orcid.org/0009-0007-1652-9530
e-mail:
uglonoy@yahoo.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada baliqchilik terminlari borasidagi yondashuvlar, ushbu terminologik tadqiqotlar doirasida ularning shakllanish masalalari, etimologik xususiyatlari, struktur jihatlari borasida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *baliqchilik terminlari, terminologik tadqiqotlar, baliqchilik terminining shakllanish masalalari, etimologik xususiyatlari, struktur jihatlari, texnik lingvistika.*

Abstract: *This article discusses approaches to fishery terms, issues of their formation, etymological features, and structural aspects within the framework of this terminological research.*

Keywords: *fishery terms, terminological research, issues of formation of the term fishery, etymological features, structural aspects, technical linguistics.*

Аннотация: *В данной статье в рамках терминологического исследования рассматриваются подходы к рыболовным терминам, вопросы их формирования, этимологические особенности, структурные аспекты.*

Ключевые слова: *рыболовные термины, терминологические исследования, вопросы формирования рыболовного термина, этимологические особенности, структурные аспекты, техническая лингвистика.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Terminologiyada texnik terminologiya ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Texnik sohalarda ishlatiladigan atamalar, masalan, qurilish, transport, muhandislik, kompyuter texnologiyalari kabi sohalarda qo'llaniluvchi terminlar ushbu guruhga mansub bo'ladi. Bu terminlar texnik jarayonlar, usullar, mexanizmlar va qurilmalarga ham bog'liq. Texnik lingvistika, yoki texnik til, ilmiy-texnik sohalarga xos atama va iboralarni ham o'rganadi. Baliqchilik terminologiyasi ham aynan shu turdagi lingvistikaga kiradi, chunki u baliqchilik sohasidagi maxsus tushunchalar va atamalarni ifodalaydi. Bu soha baliq ovlash, baliq yetishtirish, ekologiya,

akvakultura, marikultura, sanoat baliqchiligi va boshqa baliqchilikka oid faoliyatlarni o‘z ichiga oladi va bu jarayonlarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash uchun maxsus terminlar ishlatiladi.

Baliqchilik sohasida foydalaniladigan atamalar, o‘z navbatida, professional lingvistika doirasiga ham kiradi, chunki ular baliqchilik mutaxassislari (baliqchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ekologlar va boshqalar) tomonidan aniq maqsadlarda ishlatiladi. Bu sohada ishlatiladigan til va atamalar faqat baliqchilik sohasiga xos bo‘lib, boshqa sohalar uchun tushunarli bo‘lmasligi mumkin.

Shunday qilib, baliqchilik terminologiyasi texnik va professional lingvistikaga tegishli bo‘lib, fan va sanoat sohasidagi maxsus tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Baliqchilik insoniyat tarixida eng qadimgi va muhim xo‘jalik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu soha baliq ovlash, yetishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos terminologiyaga ega. Baliqchilik terminologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar orasida quyidagi olimlarni alohida ta’kidlash ahamiyatlidir. K.Agnieszka, U.Kaliska “Extracting fishing terminology using GNU/Linux tools” nomli maqolasida GNU/Linux vositalaridan foydalangan holda baliqchilik jargonidagi asosiy atamalarni aniqlash usullarini tadqiq qilgan. Elena Mandan Kuular Tuvinian davlat universiteti olimi bo‘lib, “Lexis Naming Traditional Tools and Methods of Fishing in the Dialects of the Tuvinian Language” maqolasida Tuvin tilining shevalarida baliq ovlashning an’anaviy vositalari va usullari nomlanishini o‘rgangan. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo‘limining Gumanitar tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi Raisa Petrovna Kuzmina o‘zining “Lexical-Semantic Groups of Fishing Vocabulary in the Even Language” maqolasida Even tilidagi baliqchilikka oid leksik-semantik guruhlarni tahlil qilgan [2].

Sanata Dharma universiteti professori Maria Magdalena Sinta Wardani “An Ethnolinguistic Study of Form and Reference Name of Fish and Seaweed Category” maqolasida Baron Beach baliqchilari tomonidan ishlatiladigan baliq va dengiz o‘tlari nomlarining shakli va ma’nosini etnolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilgan. Natalia Gvishiani Rossiyalik tilshunos, professor va akademik bo‘lib, terminologiya va filologiya sohasida 110 dan ortiq nashrlarga ega. Ushbu olimlarning ishlari baliqchilik terminologiyasining lingvistik, madaniy va texnologik jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega[1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Baliqchilik terminologiyasining shakllanish tarixi. Baliqchilik bilan bog‘liq atamalar insoniyat tarixining turli bosqichlarida rivojlanib kelgan. Qadimgi jamiyatlarda baliq ovlash asosiy ovqat manbalaridan biri bo‘lib, ushbu faoliyatga oid atamalar dastlab xalq dialektlarida shakllangan. Keyinchalik, baliqchilik rivojlanishi bilan ilmiy va texnik terminlar ham yuzaga kelgan.

Qadimgi davr. Baliqchilik terminlari dastlab mahalliy shevalar va og‘zaki an’analar orqali shakllangan. Masalan, qadimgi Misr, Yunoniston va Rim madaniyatlarida baliq ovlash va yetishtirishga oid turli so‘zlar mavjud edi. Baliq ovlash vositalari va texnikalari rivojlanishi bilan ularni ifodalovchi terminlar ham kengaydi.

O‘rta asrlar – Savdo va dengiz ekspeditsiyalari ortishi baliqchilik bilan bog‘liq terminlarning xalqaro miqyosda almashinuvini tezlashtirdi. Bu davrda lotin va yunon tillari baliqchilikka oid ilmiy terminlarning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qilgan. Baliq mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlari rivojlanishi bilan yangi terminlar yuzaga keldi[3].

Yangi davr (XV-XVIII asrlar). Geografik kashfiyotlar va baliqchilikning kengayishi natijasida turli mintaqaviy tillarda baliq ovlash va yetishtirish bilan bog‘liq yangi atamalar paydo bo‘ldi. Masalan, Amerika va Osiyo xalqlari baliq ovlashning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqqan, bu esa terminologiyada yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Zamonaviy davr (XIX-XX asrlar). XIX-XX asrlarda baliqchilikning sanoatlashtirilishi natijasida ko‘plab yangi texnik va ilmiy atamalar paydo bo‘ldi. Biologiya va ekologiyaning rivojlanishi baliq populyatsiyasi va akvakultura bilan bog‘liq terminlarni ilmiy muomalaga kiritdi. Bu davrda xalqaro ilmiy konferensiyalar, baliqchilikka oid ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar orqali terminologiya boyib bordi.

Hozirgi zamon (XXI asr). Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida baliqchilik terminologiyasi yanada rivojlanib, ko‘plab xalqaro atamalar paydo bo‘ldi. Ingliz tili ilmiy va texnik atamalarni shakllantirishda asosiy tilga aylandi.

Baliqchilik sohasi ekologiya, barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq yangi terminlarni o‘z ichiga oldi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar baliqchilik bilan bog‘liq jarayonlarga ta’sir qilishi natijasida yangi so‘zlar paydo bo‘ldi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Baliqchilik terminlarini tadqiq etar ekanmiz, ularning turli struktur hamda etimologik xususiyatlarga ega ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Tahlillar ularning asosan lotin, yunon, ingliz tillaridan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Jumladan, **akvakultura** – sun’iy sharoitda baliq va boshqa suv organizmlarini yetishtirish jarayoni. Lotincha “aqua” (suv) va “cultura” (o‘stirish, yetishtirish) so‘zlaridan kelib chiqqan. **Marikultura** – dengiz va okean suvlari muhitida baliq va boshqa suv organizmlarini yetishtirish usuli. Lotincha “mare” (dengiz) va “cultura” (yetishtirish) so‘zlaridan olingan. Yoki, **ihtiyologiya** –baliqlarni o‘rganadigan fan sohasi. Yunoncha “ichthys” (baliq) va “logos” (fan, o‘rganish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, **trauler** – baliq ovlash uchun mo‘ljallangan yirik kemalar turi. Inglizcha “trawl” (tortib yurish, sudrab ovlash) so‘zidan olingan[2].

Ularning struktur xususiyatlari jadvalda quyidagicha aks etadi:

Termin	Grammatik xususiyatlari	Leksik-semantik xususiyatlari	Inglizcha ekvivalenti
Akvakultura	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Ilmiy termin, biologiya va ekologiya sohalarida ishlatiladi	Aquaculture
Marikultura	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Dengiz baliqchiligiga oid ilmiy va sanoat atamasi	Mariculture
Ihtiyologiya	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Zoologiya va biologiya sohalarida ilmiy atama	Ichthyology
Sanoat baliqchiligi	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Iqtisodiy va sanoat terminologiyasiga oid atama	Commercial Fishing
Amatyor baliqchilik	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Turizm va sport bilan bog‘liq atama	Recreational Fishing
Inkubatsiya	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Biologik jarayonlarga oid ilmiy termin	Incubation
Lichinka	Ot, birlik shaklda ishlatiladi	Biologiya va baliqchilik sohasida ishlatiladigan atama	Larva
Mojaxir	Ot, birlik va ko‘plik shaklda ishlatiladi	Baliqchilik sohasiga oid amaliy atama	Juvenile Fish

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Baliqchilik sohasi rivojlanishi bilan yangi terminlar va texnologiyalar paydo bo‘lishi tabiiy hol. Shu sababli, baliq ovlash va yetishtirish bilan shug‘ullanuvchilar doimiy ravishda sohadagi yangiliklardan xabardor bo‘lishlari lozim. Ularning asosini lotin, yunon, ingliz tilidan kirgan so‘zlar egallaydi. Ular birlik va ko‘plik shaklda bo‘ladi hamda ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ushbu tur terminologik guruhda ustuvorlik qiladi. Ular o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Volodina M.N. Terminologik nominatsiya nazariyasi monografiyasi, 1997. – B.180.
2. X.Murtazayeva. Tibbiy atamalarning lingvistik xususiyatlari. Maqola. Globallashuv davrida filologiya fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi. 2024.
3. Авербух К.Й. Общая теория термина. Иваново: Ивановский государственный университет, 2004. – С.52.
4. Лейчик, В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура / В.М. Лейчик. – М: КомКнига, 2006. – С. 85.

TAMADDUN NURI

TAMADDUN NURI